O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA

O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI
(kognitiv-pragmatik yondashuv asosida)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etgan

TOSHKENT
…….nashriyoti
2020

Insoniyat tarixida ta'lim olishga ehtiyoj tug'ilgan kundan boshlab kun tartibiga chiqqan "O'quvchiga nimani o'rgatish zarur?", "O'quvchini qancha o'qitish kerak?", "Nima uchun o'qitish shart?", "Qanday usullar bilan o'qitish lozim?" kabi qadimiy savollar hamisha dolzarb va yechimtalabdir. Bugun ona tili ta'limi oldida ham shu savollar ko'ndalang turibdi. Sababi, inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog'liq. O'rta umumta'lim maktablarida ona tili ta'limidan ko'zlangan maqsad – jamiyatga ijodiy va mustaqil fikrli shaxsni tarbiyalab berish – amalga oshishi uchun quyidagilarni chuqur anglashimiz lozim:

1) bugungi kunda jamiyatimiz bilimdon shaxsga ehtiyojmandmi yoki ko'zlagan maqsadga erishishning o'nlab yo'llari borligini, muayyan sharoitda shulardan qay biri yuksak samara bera olishini biluvchi va uni qo'llay oluvchi shaxsgami?

2) ***o'rta umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchiga til imkoniyatlarini yetkazish lozimmi yoki tilshunoslik asoslari-yu til qurilishi – ilmiy grammatik talqinlarnimi?***

3) ***o'zbek jamiyatida hamma tilshunos bo'lishi kerakmi yoki til imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olishni uddlashi zarurmi?***

Mazkur darslik mohiyatga shu nuqtayi nazar bilan yondashadi. Zero, Milliy Istiqlolning ta'lim oldiga qo'yadigan vazifalari, jumladan, bugungi kunda maktabda ijodiy tafakkur sohibini, o'rta maxsus ta'limda ixtisosiy nutq madaniyati shakllangan ijodiy tafakkurli shaxsni, oliygohlarda jahonning ilg'or mamlakatlari mutaxassislari bilan raqobatdoshlikka iqtidorli mutaxassisni tayyorlash uchun ta'lim qanday bo'lishi kerakligini belgilash, maqsadga muvofiq mazmun va usullarni to'g'ri tanlash juda-juda muhim.

Mas'ul muharrir — **filologiya fanlari doktori, professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar — **pedagogika fanlari doktori, professor Adizov B.R.**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent Ne'matova G.H.

Buxoro shahridagi 29-maktab oliy toifali o'qituvchisi Muxtorova F.Q.

©Toshkent "……." 2020

Со дня, когда возникла потребность в чтении в истории человечества такие вопросы, как «Чему должен учить ученик?», «Сколько должен учиться ученик?», «Почему ученик должен учиться?» Как учить?» всегда важно и актуально. Эти вопросы тоже особенно актуальны сегодня в области языкового образования. Это потому, что дух, мышление и язык человека неразрывно связан между собой. Целью обучения на родном языке в средних школах является просвещение общественности о творческом и независимом мышлении. Чтобы достичь этого, мы должны:

1)*нужен ли нам сегодня в нашем обществе хорошо образованный человек или нужен ли человек, который знает и может использовать десятки способов для достижения своей цели и знает, что какой из них будет наиболее эффективным в определенных обстоятельствах?*

2) *нужно ли учить языковые возможности учащихся средних школ, средних специальных учебных заведений или нужно, обучать ему основам лингвистики – грамматическим правилам?*

3)*должны ли все студенты узбекского общества быть лингвистами или иметь возможность использовать языковые возможности?*

Этот учебник подходит к вопросу с этой точки зрения. Чтобы научно обоснованно решать и претворять в жизнь задачи, поставленные национальной независимостью перед современным узбекским образованием – в школьной стадии подготавливать личности, способные к поиску и самостоятельному творческому мышлению, а в результате высшего образования – специалистов, способных удовлетворят международным требованиям. И конкурировать с выпускниками вузов развитых стран – мы самостоятельно, исходя из своих собственных национальных интересов, должны анализировать развития цели образования, отражение этой цели в содержании, методах и средствах образования, взаимовлияния общества и образования друг другу. Это будет способствовать разработке и претворению в жизнь наиболее оптимальных путей и методов в решении вышеназванных задач, стоящих перед независимым Узбекистаном.

Ответств. редактор **доктор филологический наук, профессор Абузалова М.К.**

Рецензенты **доктор педагогических наук, профессор Адизов Б.Р.**

кандидат филологических наук, доцент Неъматова Г.Х.

учитель высшей категории школы № 29 в Бухаре Мухторова Ф.К.

©Ташкент«……..» 2020

KIRISH

Metodika bir-biri bilan bog‘langan quyidagi masalalarni hal qiladi: kimni o‘qitish va nima uchun uni o‘qitish kerak (bu – ta’limning maqsadi), nimani o‘qitish lozim (bu – ta’limning mazmuni va sistemasi), qanday qilib o‘rgatish kerak (bu – ta’limning formasi va metodi).

Ulug‘bek Dolimov

Davlat jamiyatning taraqqiyot darajasidan hamda uni rivojlantirish uchun belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta’lim tizimi oldiga muayyan buyurtma qo‘yadi. Bu buyurtma jamiyatning (birinchi navbatda, iqtisodiy, so‘ngra ma’naviy-madaniy ehtiyojlari bilan belgilanadi) ijtimoiy, iqtisodiy salohiyatini yuksaltiradi, davlat tomonidan belgilangan yagona maqsad yo‘lida fuqarolarning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini uyg‘unlashtiradi, rivojlanishga to‘siq bo‘luvchi muammolarni hal etadi. Bu esa, pirovard natijada, jamiyat a’zolarining umumiy farovonligini ta’minlashga olib keladi. Davlat buyurtmasida fan va ta’limning rivojlanish hamda integratsion holati, boshqaruv, ta’minot tizimining darajasi, jamiyat va shaxs orzu-umidlarining mushtarakligi kabilar diqqat markazda bo‘lib, muayyan hujjat bilan rasmiylashtiriladi. Bu hozirgi кunda Respublikamizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”[1] kabilardir.

Mazkur rasmiy hujjatlarda ta’lim tizimiga muayyan talablar qo‘yildi. Bu talablar ta’limning maqsad, vazifa, tur va bosqichlarini belgilab berdi, umuman va har bir fan bo‘yicha buyurtma mazmuni Davlat ta’lim standartlari (malaka talablari) ko‘rinishida qonunlashtirildi. Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi siyosatining ustuvor yo‘nalishi, davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy-pedagogik masala bo‘lganligi bois uning bosh maqsadi ham hukumat tomonidan belgilab berildi: “Mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk

[1]Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни/ /Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б. – 20-29-б.; Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б. – 31-60-б.; www.uzxabardor.uz O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.

ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berishimiz kerak.”[2] Zero, *“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan holda… maktab ta’limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur.*”[3]

Ta’lim tizimida hamisha davlat buyurtmasi asosida ta’limning umumiy maqsadi belgilab beriladi. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida ta’lim-tarbiyaning maqsadi yagona bo‘lib, bu yaxlitlik davlat, jamiyat va uning a’zolari munosabatlari bilan belgilanadi. Shu bois respublikamizda ta’limning umumiy maqsadi negizida ijodiy va mustaqil fikrlovchi, ma’naviy-mafkuraviy qiyofasi jamiyatning bosh g‘oyasi bilan uyg‘unlashgan shaxsni tarbiyalash mo‘ljali yotadi. Hozirgi kunda barkamol avlod deganda *“jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlar”* tushuniladi. Vaholanki, ta’limdan ham, tarbiyadan ham maqsadimiz bitta: farzandlarimiz barkamol bo‘lsin.

Ta’limning umumiy maqsadi har bir o‘quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadiki, bu, xususan, milliyligimizning yorqin ifodasi bo‘lgan ona tili ta’limi maqsadida o‘zining aniq ifodasini topgan: “*maktabda ona tili ta’limi maqsadi o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.*”[4] Ona tili ta’limi maqsadi ta’limning umumiy maqsadiga uyg‘un bo‘lib, uning ikki talabini o‘zida juz’iylashtiradi: ijodiy va mustaqil fikrlash malakasini qaror toptirish hamda buning natijasida ta’lim oluvchining har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishi.

---

[2]Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни //Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. 5-б. (Yangi tahrirdagi “Ta'lim to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham 2019-yil sentabrda e’lon qilindi).

[3]www.кун.уз Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва жамиятда ўқитувчиларнинг ўрнини ошириш бўйича” видеоселектор йиғилиши/ 23.09.2019.

[4]O‘rta ta’limning umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari. Ona tili fani.–Toshkent, 2018.–12 b.

Demak, o‘quvchining ona tili imkoniyatlarini egallashi hamda shu asosda barkamol inson sifatida shakllanishiga bo‘lgan talab bu fan tadrisi oldiga juda ko‘p vazifalarni qo‘yadi. Jumladan, ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ishlar o‘quvchilarning o‘zida zarur malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishiga qaratiladi. Ta’lim usuli, mazmuni, ta’lim vositalari ana shu ulkan va ulug‘ vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Ta’lim maqsadida shaxsning ma’naviy-mafkuraviy tarbiyasi milliy mafkura va milliy g‘oyaga muvofiq bo‘lishi aksiomatik xarakterga ega. Chunki tarbiyalanuvchi shaxsning ma’naviy-mafkuraviy qiyofasi jamiyatning yagona va umumiy ma’naviy-mafkuraviy siyosatiga mos kelishi jamiyat taraqqiyotining garovidir. Shuningdek, ona tili ta’limi maqsadining asosiy uzvi bo‘lgan ijodiy tafakkurli va mustaqil fikrli shaxsni tarbiyalash masalasi davlatimizning ichki siyosati va iqtisodiy tizimning, uning haraklantiruvchi kuchlarining tafakkur tarziga bo‘lgan talabi bilan belgilanadi.

Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy tafakkuri yuksak, har qanday qiyin vaziyatdan o‘z aql-idroki, mustaqil ijodiy tafakkuri bilan omon chiqa oladigan, shuurida milliy ruhi mustahkam bo‘lgan shaxsni tarbiyalashni taqozo qiladi. Davlatimiz siyosati negizida shaxs farovonligi va baxt-saodatini ta’minlash yotar ekan, unda shaxs tarbiyasi yuqorida ko‘rsatilgan maqsaddan boshqa mo‘ljalda tashkil etilishi mumkin emas. Bu jarayonda: “***Maktab bu – hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi burchiga aylanishi kerak.”***[5] Demak, bosh maqsadimiz “«ta’lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat” ekan, buning asosiy vositalaridan bo‘lgan ona tili ta’limi masalasiga an’anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko‘z bilan qarashimiz lozim.

Shu o‘rinda biz, eng avvalo, ona tili ta’limi va uning natijasi borasida ikki jihatni farqlab olishimiz zarur. Bular–

[5]www.кун.узЎзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва жамиятда ўқитувчиларнинг ўрнини ошириш бўйича” видеоселектор йиғилиши/ 23.09.2019.

1) *ona tili ta'limi jarayonida tahsil oluvchiga tilning beqiyos imkoniyatlaridan foydalanish, ya'ni tilning kommunikativ-amaliy qiymatini yuksak darajada namoyon eta olish ko'nikmalarini singdirish;*

2) *ona tili ta'limi jarayonida tahsil oluvchiga tilshunoslik asoslarini muntazam o'rgatib borish, tom ma'noda, jamiyat uchun tilshunoslikning qonun-qoidalarini biladigan shaxsni tayyorlash.*

Xo'sh, bugun maktab partasida o'tirgan o'quvchi uchun kelajakda qay biri muhim? Til imkoniyatlaridan foydalana oladigan, so'zning mantig'iga va qadriga yeta oladigan shaxs sifatida shakllanishmi yoki maktabni bitirgunicha qariyb 1.500ta qoidani yod olib, oliy ta'limga o'qishga kirish uchun ulardan chala-chulpa (ba'zan, omadiga tayanib) foydalanib qoladigan kishi bo'lib yetishishmi?

O'rta umumiy ta'limning amaldagi malaka talablarida "Ona tili" o'quv predmetini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagicha belgilangan:

–o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

–o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

–ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.[6]

Belgilangan vazifalarga diqqat qilsak, 1- va 3-vazifalar ona tili ta'limining bosh maqsadiga to'la hamohang, 2-vazifa esa qisman. To'g'rirog'i, 1- va 3-vazifalar o'quvchiga til imkoniyatlarini o'rgatish talabini qo'ysa, 2-vazifa ta'lim oluvchiga tilshunoslik asoslarini muntazam o'rgatib borishni taqozo etadi. Ya'ni 1-, 3-vazifalar bolani ijtimoiy hayotga, turmushga tayyorlash muddaosini ko'zlaydi. 2-vazifa ijrosi esa uni tabiiy hayot tarzidan uzib qo'yishga olib keladi.

[6]O'rta ta'limning umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari. Ona tili fani.–Toshkent, 2018.–12 b.

Bu holatni, afsuski, maktabda o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari ta’limida kuzatishimiz mumkin.

Tilshunos olim B.Mengliyev “kun.uz” kanaliga bergan intervyusida shunday deydi: “Hammamiz maktabda fizika, kimyo, matematika, biologiya predmetlarini o‘qiganmiz. Ulardan qoyillatib “besh” baho olganmiz. Ammo ko‘p hollarda oddiygina elektr chirog‘i patronini o‘rnatishni ham, daraxtni payvand qilishni ham, yulduzlarga qarab vaqtni aniqlashni ham, jarohatga qanday malham qo‘yishni ham, biror narsaning hajmini hisoblashni ham eplay olmaymiz. Hatto oddiygina isitish tizimidagi suvning aylanma harakatini ham tushunmaymiz. Nega? Chunki biz olgan ta’lim hayotdan uzilib qolgan. Hamma ham fizik, matematik, biolog bo‘lavermaydi-ku! Shuning uchun o‘quvchida hayotiy kompetensiya birinchi o‘ringa chiqishi lozim edi.”[7] Haq gap. Olimning fikridagi bir so‘zni ham rad eta olmaymiz. Bolalarning maktabdan bezishiga ham mana shu jihatlar sabab bo‘lmayaptimikan?!

Olim fikrini davom ettiradi: “Endi o‘zimizning “Ona tili”mizga kelaylik. Ona tili ta’limining ahvoli qanday? Boshi ham, adog‘i ham yo‘q, buning ustiga darslikdan darslikka o‘tish, sinfdan sinfga ko‘chish bilan o‘zgarib turadigan son-sanoqsiz ilmiy (lingvistik) qoidalarni yodlatamiz. Matnning, berilgan gaplarning avra-astarini chiqarib, ipidan ignasigacha tahlil qildiramiz. Biroq bu “bilim”lar og‘zaki va yozma nutqimizga qay darajada ta’sir qilishi haqida o‘ylab ham ko‘rmaymiz.” Achchiq, ammo haqiqat!

Ha, inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog‘liq. Bundan ijodiy va mustaqil fikrli shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ona tili va uning ta’lim tizimi, buni tashkil etuvchi vositalarning roli va xarakteri beqiyos ekanligi ayon bo‘ladi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: ***bugungi kunda jamiyatimiz bilimdon shaxsga ehtiyojmandmi yoki ko‘zlagan maqsadga erishishning o‘nlab yo‘llari borligini, muayyan sharoitda shulardan qay biri yuksak samara bera olishini biluvchi va uni qo‘llay oluvchi shaxsgami?***

[7] www.kun.uz ”Bunday ona tili ta’limi o‘zimizni aldashdan boshqa narsa emas!” – Tilshunos olim bilan suhbat/ 27.08.2019.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti shakllanib, taraqqiy etmoqda. Jamiyatda mulkchilik munosabatlari qaror topib, uning a’zolari ongida boqimandalik kayfiyati, fikriy tanballik, “yuqori” ko‘rsatmasi asosida ishlash hisi o‘rnini iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, yo‘qdan bor qilish, ichki imkoniyatlarni ishga solish zarurati egallab, aql-idrokka, muayyan sharoitga ko‘ra ish tutishga yagona yaratuvchi kuch sifatida qarash, chetdan madad kutmaslik tuyg‘usi shakllanmoqda. Bu – bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biri. Biroq iqtisodiy tafakkur boshqa hodisalarga nisbatan barqarorligi, juda sekin almashish, rivojlanish va o‘zgarish xossasi bilan ajralib turadi. Buni bizda umumiy mulkchilik tafakkuri o‘rnini sekinlik bilan xususiy mulkchilik va bozor iqtisodiyoti tafakkuri egallayotganligi, ya’ni iqtisodiy tafakkur almashinuvi yuz berayotganligi bilan izohlash zarur.

Bozor iqtisodiyotidan avvalgi davr bilim qamrovi keng, turli fanlarni va o‘z ixtisosligini chuqur egallagan, ko‘rsatilgan masalalarni belgilangan tarzda yecha oladigan mutaxassislarni talab qilib, ommaning tadbirkorligi va mustaqil fikrlashini taqozo qilmas edi. Shuningdek, sobiq sho‘ro mafkurasining davlat siyosiy tuzumi va ideologik strukturasi hamda pirovard maqsadi mustaqil fikrlovchi shaxsga emas, “Bo‘l tayyor!” shioriga har doim shay “sodiq askar”ga ko‘proq ehtiyoj sezar edi. Bu ehtiyojni qondirishga qaratilgan davlat buyurtmasi esa ta’lim va tarbiyaning boshidan oxirigacha “qizil ip” bo‘lib o‘tgan edi. Natijada, davlatning ta’lim siyosati, ta’lim maqsadi, usuli va mazmuni shunga monand ravishda tashkil etilgan bo‘lib, ta’limda reproduktiv usul, o‘qitishda retroskopik vositalarga ulkan ahamiyat berilgan edi. Reproduktiv (lotincha:re–takrorlash, produco–yarataman) usul ta’limda berilgan bilimni egallash va xotirada aynan saqlash yo‘li bo‘lib, u o‘quvchiga ma’lum miqdordagi bilimni oluvchi obyekt, o‘qituvchiga esa ta’lim jarayoni subyekti sifatida munosabatda bo‘ladi. Taniqli metodist-olimlar I.Y.Lerner, M.N.Skatkin[8] kabilar o‘z tadqiqotlarida reproduktiv usulning mohiyatini atroflicha yoritganlar. Bu usul bilishning deduktiv

[8]Лернер И.Я. Педагогическая литература о проблемном обучении. – М. 1983.; Скаткина М.Н., Краевского В.В. Знания – один из видов (элементов) содержания образования//Педагогика.– М.,1978. – № 7.

ko‘rinishiga asoslanadi. Reproduktiv usulga muvofiq, o‘quvchilarda tayinlangan qoida va ta’riflardan amaliy ishlarga o‘tish, tayyor xulosalarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Me’yorlar(jumladan, savod, arifmetik amallar, mutlaq qonunitaylar…)ni o‘zlashtirish va ularni amalda qo‘llash uchun o‘ta zarur va, aytish mumkin, o‘z o‘rnida samarali bu usul mutlaqlashtirilsa, ta’lim oluvchida ergashuvchanlik, bo‘ysunuvchanlik, idrokiy yalqovlik hisini qaror toptirish va rivojlantirishga olib kelishi shubhasiz. Sotsialistik iqtisod va mafkuraviy muhit ehtiyoji sifatida shakllangan mazkur usul sobiq sho‘ro ta’lim tizimining deyarli barcha bosqichlarida uzoq yillar hukmronlik qilganligining boisi ham shunda.

Bozor iqtisodiyoti, aytilganidek, ta’limda tarbiyalanuvchining mustaqil va ijodiy fiklash ko‘nikmasi hamda malakasini hosil qilishni taqozo etadi. Shunga muvofiq, o‘qitish usuli iqtisod va mafkuraning o‘zi kabi keskin isloh qilinishi zarur. Chunki reproduktiv usul mohiyatan bozor iqtisodiyoti talablariga mutlaqo zid. Mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy[9] XIX asrning 60-yillarida reproduktiv usulning nobopligiga ishora qilgan edi. Shu boisdan bizning yurtimizda ham ta’lim masalasiga alohida e’tibor sira susaygani yo‘q. Yurt rahbari aytganidek: “*Afsuski, o‘tgan salkam 30 yil mobaynida biz bu masalaga yetarlicha e’tibor bermadik. Natijada nima bo‘ldi? Maktabni barbod qildik, o‘qituvchini ham yo‘qotdik. Bolalarda o‘qishga havas va intilish susaydi. Eng yomoni, maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit yo‘qoldi.*” Bunda “*maktabni barbod qildik*” deganda, albatta, maktab dasturining hayotdan uzilib qolishi natijasida farzandlarimizning egallagan bilimlari kelajagi uchun yetarlicha xizmat qila olmayotganligi nazarda tutilmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, aslida: “Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.”[10] *Demak, bozor iqtisodiyoti dastur bilan belgilanadigan bilimlarga ega bo‘lgan shaxsga emas, balki bilim olish yo‘llarini puxta egallagan, muayyan sharoitda mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ongli fuqaroga ehtiyoj sezadi.* Ta’limning bosh predmeti – ona tili ta’limining maqsadi, uning bilan uzviy bog‘liqlikda – mazmuni,

[9] Ушинский К.Д. Танланган педагогик асарлар. – Т., 1959.
[10] Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 5-б.

usul va vositalari mana shu maqsadga muvofiq belgilanishi kerak. Bu jarayonda bir savol tug‘iladi: o‘rta umumta’lim maktablarida, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchiga ***til imkoniyatlarini yetkazish lozimmi yoki tilshunoslik asoslari-yu til qurilishi – nazariy grammatika talqinlarinimi?***

O‘tgan asrning birinchi yarmida adabiy til me’yorlarini belgilash va omma ongiga singdirish, savodsizlikni tugatish talabi asosida ona tili ta’limi maqsadi shunga mos belgilangan: ta’lim oluvchilarni tilning grammatik qurilishi bilan tanishtirish asosida adabiy til (nutq) me’yorlari xalq ongiga singdirilgan, tilshunoslikda qo‘yilgan, hal etilgan vazifalar va qo‘lga kiritilgan yutuqlar asosida ilk ona tili darsliklari yaratilgan edi. Darsliklarda o‘zbek tilining imlosi, fonetik hamda grammatik qurilishini chuqur va atroflicha o‘rgatishga katta e’tibor qaratilgan. Tilshunoslikdagi ilmiy yutuqlar davr sinovidan o‘tib, maktab, keyinchalik pedagogika bilim yurtlari ona tili darsliklaridan o‘rin ola boshlagan. Bu darsliklar asosida kishilarning savodi chiqib, adabiy til me’yorlari ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ommalashgan. Jamiyat yaxlit va yagona adabiy til me’yorlariga ega bo‘lgan. Ko‘zlangan maqsadga erishilgan edi, biroq ona tili darsliklarida – xususan, yuqori sinflarda – grammatizm chuqurlashib boraverdi va natijada ona tili kursining tom ma’nodagi vazifasi – o‘quvchilarda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish amaliyoti unutila bordi, uning o‘rnini ona tili qurilishining ilmiy talqini, ya’ni tilshunoslik tusuncha va asoslarini o‘rgatish egalladi. Ta’lim oluvchilar til qurilishini “mukka tushib” o‘rganardi. Unli va undosh tovushlar, tovush o‘zgarishlari, tilning leksik tizimi, so‘z turkumlari, ularning ichki ma’noviy guruhlari, so‘z yasalishi, grammatik shakllar tizimi, sintaktik hodisalar – so‘z birikmasi, gap bo‘laklari, ularning tuzilishi, ma’no turlari va ifodalanishi, sodda va qo‘shma gap, qo‘shma gapning ma’no turlari va bog‘lovchi vositalari kabi nazariy ma’lumotlar darsliklardan shu qadar ko‘p o‘rin egalladiki, natijada o‘qituvchi o‘quvchining nutqini o‘stirishga, og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishga vaqt ajratolmay qoldi.

Ta’lim mazmuni til qurilishi bo‘yicha nazariy bilimlardan iborat bo‘lib qoldi. ***Ona tili darsliklari tilshunoslik fanidan qo‘llanmalarga aylantirib qo‘yildi***. Nutq

o‘stirish grammatizm soyasida qolib ketdi. Ayniqsa, lingvistik tahlillarga katta e’tibor qaratilib, o‘quvchining til qurilishi bo‘yicha nazariy bilimi baholash parametriga aylandi. XX asrning 90-yillarigacha foydalanilgan ona tili darslarini kuzatsak, ko‘z oldimizda til qurilishiga doir qoidalarni yodlash, shunga moslab tuzilgan mashqlarni bajarish va fonetik, morfologik, sintaktik tahlillarni ko‘ramiz. Masalan, ergash gapli qo‘shma gaplarning qariyb 20ga yaqin turini ajratish, gaplardagi so‘z birikmalarini aniqlash yoki so‘zni fonetik tahlil qilish kelajakda bizga nima beradi, qabilidagi e’tirozlarni har bir ona tili o‘qituvchisi o‘quvchilaridan eshitgan va unga asosli javob berolmaganidan hamisha xijolatda bo‘lib kelgan.[11]

Buning yana boshqa sovet tuzumi tan olishni istamaydigan siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega tomoni ham bor edi: nutq tilda “libos kiygan fikr”ning voqelanishidir. Fikr – tafakkur mahsuli. Istaymizmi, yo‘qmi, inson tafakkuri, albatta, milliylik zaminidan oziqlanadi. Tafakkur rivojlantirilmas ekan, nutqni o‘stirish, rivojlantirish mumkin emas. Milliy til imkoniyatlari zaminida tafakkurni rivojlantirish yana va yana milliy tafakkur tarzini taqozo etaveradi. Milliy ong, milliy tafakkur tarzini rivojlantirish esa sovet siyosatiga mos kelmas edi. Shu bois o‘rta umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida o‘quvchilar diqqati baynalmilal tabiatli grammatik talqinlarni yodlash bilan chalg‘itilar edi. Milliy istiqlol sharofati bilangina bu dahshatli zanjir uzildi.

Ona tili ta’limi maqsadi milliy istiqlolimiz ruhiga mos ravishda yangilandi.

Umumiy ta’limning uch – boshlang‘ich (I-IV sinflar), tayanch (V-XI sinflar) va o‘rta maxsus – bo‘g‘inining (har birining) maqsadiga mos ravishda ona tili ta’limi oldida uzviylik va davomiylik bilan o‘zaro bog‘langan alohida-alohida maqsadlar qo‘yildi: Bular:

–***boshlang‘ich bo‘g‘in***(I-IV sinflar)da – o‘quvchida ravon savodxonlik, adabiy imlo va talaffuz, adabiy til (nutq) me’yorlarini bilish va undan foydalana olish;

[11] Неъматов Ҳ., Йўлдошева Д. Тил илми ва таълими истиқболи//«Маърифат» газетаси, 2013 йил 14 август, №65 (8610) 8-9-с.

–***tayanch bo‘g‘in***(V-XI sinflar)da – ona tilining ayni bir mazmun/fikrni ifodalash uchun o‘nlab imkoniyatlari mavjudligi asosida ta’lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyati, so‘zlovchi maqsadi, tinglovchi saviyasiga mos ravishda yozma/og‘zaki shakllarda to‘g‘ri, ravon va lo‘nda ifodalsh;

–***o‘rta maxsus ta’lim bo‘g‘ini***(akademik litsey va kasb-hunar kollejlari)da ixtisosiy nutq madaniyati
ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu maqsadlar O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari(malaka talablari)da, shu standart asosida tuzilgan va ommalshtirilgan o‘quv dasturlarida rasmiylashtirilgan.

Tabiiyki, maqsad har xil bo‘lgach, ta’lim mazmuni, usul-u vositalari ham har xil bo‘lishi kerak. Shuning uchun boshlang‘ich bo‘g‘inda (umumiy qat’iy me’yoriy bilimlar berish – savod chiqarish, adabiy til me’yorlarini o‘quvchiga yetkazish jarayonida) ta’lim olishning deduksiyaga asoslanadigan retroskopik (reproduktiv) usullari; tayanch bo‘g‘inda – tafakkur, mustaqil fikrlash va ijodiylik ko‘nikmalarini o‘quvchida hosil qilishda – kognitiv-pragmatik usullar yetakchilk qiladi. Qo‘lingizdagi darslik aynan shu usul mohiyati bilan bog‘lanadi. Zeroki, *5 120 100*– Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi, asosan, tayanch bo‘g‘in – umumiy o‘rta ta’limning V-XI sinflari muallimlarini tayyorlashga mo‘ljallangan. (Eslatib o‘tamizki, boshlang‘ich va o‘rta maxsus ta’lim ustozlarini tayyorlash o‘z xususiyatlariga ega alohida tavsiyalarni talab etadi.)

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi Qarori bilan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’limning DTS asoida tuzilgan ilk o‘quv dasturlari-yu darsliklarining amalga joriy etilganiga ancha yil bo‘lganligiga qaramay, bugungi ona tili ta’limi va darsliklari ”Ta’lim to‘grisida”gi qonun va DTSlari talablariga tugal javob berolmayapti. Mazkur jihatning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish lozim:

Birinchidan, sovet davrida uzoq yillar davomida ta’limda retroskopik (reproduktiv) ta’lim usuli yakka hukmron bo‘lib keldi. Shuning uchun maktab darsliklarida – ona tili darsliklarida ham – nazariy ma’lumotlar, qoidalar juda ko‘p va bu me’yoriy holat edi. Shu yo‘l bilan sovet didaktikasi ona tili mashg‘ulotlarida ta’lim oluvchilar (xususan, ruslardan boshqa millat vakillari) diqqatini ona tilda fikrlashdan chalg‘itib, keraksiz va juda ko‘p hollarda baynalmilal tabiatli nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirar edi. O‘tgan asrning 70-yillarigacha maktabdagi o‘quv predmetlari ham, darsliklar ham ”Ona tili” emas, ”O‘zbek tili grammatikasi” deb nomlanar edi. Bunga asos ham tayyor edi: fizika – hodisalarning fizikaviy, kimyo – kimyoviy, matematika – riyoziy xususiyatlari haqida ta’lim oluvchiga fan asoslari va fanning tayanch tushunchalarini yetkazganidek, ”O‘zbek tili grammatikasi” ham bolalarga grammatika ilmi asoslarini berishi lozim deb sanalar edi. Biz sovet didaktikasida hukmronlik qilgan bu ”grammatizm” va ”akademizm”(chuqur ilmiylik, ko‘proq nazariy bilim berish)dan voz kechib, kognitiv-pragmatik ta’limga o‘tdik. Afsuski, (xalqimiz ”tarki odat mahol” deganidek) darsliklarimiz mualliflari ongida va amaliyotida yangi usul-u uning maqsad-u talablari hali tugal o‘zlashgan emas. Shu bois darsliklar ortiqcha ta’rif-u qoidalardan to‘la xalos bo‘lganicha yo‘q.

Misol tariqasida amaldagi 5-sinf ”Ona tili” darsligini ko‘zdan kechiramiz. Darslikda o‘quvchi o‘zlashtirishi uchun berilgan ”Esda tuting”, ”Bilib oling” shaklida alohida belgilangan ikki yuzga yaqin qoida mavjud. (Sarhisob qiling: har bir sinfda o‘quvchi ”esda tutishi”, ”bilib olishi” rejalashtirilgan 200-220ga yaqin qoida-yu ta’rif bor. O‘quvchi V-XI sinfda ona tilidan o‘rtacha 1.500ta qoida-yu ta’rifni o‘zlashtirishi zarur.) Buncha qoidani o‘quvchi o‘zlashtira olmasligi aniq. Agarda iqtidori zo‘r o‘quvchi shuncha qoidani o‘zlashtirgan taqdirda ham u hayotning qaysi o‘rnida (oliy o‘quv yurtlariga test topshirishdan hamda tilshunos bo‘lishdan boshqa) kerak bo‘ladi, deb o‘ylaysiz?!

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: o‘quvchiga ona tili grammatikasidan nazariy bilim berish shart emasmi?

Buning javobi quyidagicha: Maktabda ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga 3 turdagi qoidalar singdirilishi zarur:

1) orfografiya qoidalari (Bu qoidalar umr bo‘yi kishining yozma savodxonligini tartibga solib turadi);

2) orfoepiya qoidalari (Bu qoidalar umr bo‘yi kishining og‘zaki nutqini adabiy me’yorlarga moslashtirib turadi);

3) punktuatsiya qoidalari (Bu qoidalar umr bo‘yi kishining yozma nutqida nima demoqchiligini ko‘rsatib turadi).

Qolgan barcha darslar amaliy xarakterda bo‘lib ularda o‘quvchiga so‘z mantig‘ini anglash, so‘z-u birikmalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish malaka va ko‘nikmalarini, shuningdek, sharqona nutq odobini o‘rgatish zarur.

Shunda o‘rta umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan ona tili darslari o‘quvchiga ***tilshunoslik asoslarini emas***, tilning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishni, ya’ni ***tilni o‘rgatadi***.

Ikkinchidan, ta’lim maqsadi yangilangach, ta’lim mazmuni ham keskin yangilanishi lozim. Ona tili mashg‘ulotlarida ta’lim mazmuni masalasini grammatik talqinlar bilan kerak-keraksiz holatda kesishtirishdan mutlaqo voz kechish zarur.

Yana haqli savol tug‘iladi: Xo‘sh, ona tili ta’limi mazmunida grammatik talqinlar berilmasa, o‘quvchiga o‘rganish uchun nimani taqdim etamiz? Bu borada XXasr boshlarida jadid pedagoglari o‘z tajribalarida unumli foydalangan (sovet davrida asta-sekin ulardan voz kechilgan, bizning davrimizda esa chet tillarini o‘qitish metodikasida keng qo‘llanilayotgan metodlarga tayanadigan) mavzularga murojaat etamiz. Masalan (7-sinflar uchun):

Mavzu: Halollik–eng ulug‘ ne’mat

Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo‘lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg‘iz o‘zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo‘li qisqaxonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin, navbatma-navbat davom etaveradi...

O‘qituvchimizning hasharigaayniqsa ko‘p odam yig‘ildi. Uyi katta yo‘l yoqasida edi. Shundoq ko‘cha chetidan loyhandaq qazilgan ekan. Somon, katta yo‘lning ko‘pchib yotgan tuprog‘iga qovushib, obdon yumshabdi. O‘qituvchimizning Azim aka degan qo‘shnisi ishboshi bo‘ldi. Birov handaqqa tushib loy solib berib turibdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagidaovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchining keksaonasi kelib qoldi. (Keyin eshitsak, bir haftaavval ko‘zi yorigan qizinikiga ketgan ekan.) Kampir hassasini do‘qillatib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘qituvchimning oldiga bordi.

— Nima qilding?! – dedi o‘g‘lining salomigaalik ham olmay. –Nima ish qilib qo‘yding?!

Hammamiz hayron bo‘lib qoldik. Muallim o‘quvchilarining oldida, ayniqsa, mulzam bo‘ldi, shekilli, qizarib ketdi.

— Nima qilibman, oyi? – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

— Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi.– Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! – Keyin Azim akaga yuzlandi.–Bu-ku aqmoqlik qilishga qipti, siz qayoqda edingiz? Nega ko‘chadan loy qildilaring?! Ko‘chaning tuprog‘iga tegib bo‘ladimi, nobakor! Ko‘pchilikning haqi-ku, bu! –Kampir bir zum harsillab turdi-da, to‘satdan yig‘lab yubordi. –Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman!

Shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o‘tirib oldi...

...Hammamiz qaytadan tomga chiqdik... Suvoq qilishdan ko‘ra loyni ko‘chirish qiyin bo‘larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko‘chadagi loyhandaqni to‘ldirib qo‘ydik...

...Oradan yillar o‘tib, kampir ko‘z yumganida tumonat odam uni o‘sha ko‘chadan so‘nggi manziliga ko‘tarib bordi...

Ko‘cha tuprog‘i iliq edi... Mayin edi... ***(O‘tkir Hoshimovdan)***

1-topshiriq: Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

2-topshiriq: Matn tarkibidagi har bir so‘zni (o‘z so‘z zahirangiz va lug‘at yordamida) boshqa ma’nodoshi bilan almashtirib, matnni qayta tuzishga harakat qiling.

3-topshiriq: Matn mazmunini o‘z so‘zingiz asosida 4-5ta gapda yozma ifodalang.

4-topshiriq: “Hikmatnoma” kitobidan halollik haqidagi maqollarni toping va ulardan matn mazmunigaaynan mos keladiganini tanlab daftaringizga ko‘chiring.

(Biz ibtido holatda tavsiya etayotgan bu kabi mavzu va uning topshiriqlari xuddi shu sinfning “Adabiyot” darsligi materiallari bilan bog‘lanishi ham o‘rinli va h.)

(Shu o‘rinda yana bir mushohadamizni aytishimiz o‘rinli.)

O‘zbek tilshunosligida ***faqat nutqiy bosqich hodisalarini tekshirish asosida shakllangan*** formal grammatika XX asrning 40-yillaridan keyin ta’lim muassasalarida o‘qitila boshladi. Mazkur tilshunoslik o‘z davri andozalari asosida zamonaviy adabiy til me’yorlarini ishlab chiqdi; jamiyatda ommaviy savodxonlikni ta’minladi; adabiy til me’yorlarini ommalashtirdi.

XX asrning 70-yillariga kelib o‘zbek tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlovchi; tahlillarni ***tildan nutqqa*** qarab belgilovchi; tahlil usullari falsafaning UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) va AHVO (alohidalik, hodisaviylik, voqelik, oqibat) kategoriyalariga tayanuvchi substansial tilshunoslik shakllandi, rivojlandi va XX asrning oxirgi o‘n yilligida oliy ta’lim tizimida joriy etildi.

XX asrning 90-yillarida o‘zbek tilshunosligida til va nutq hodisalarini farqlovchi, biroq tahlillari ***nutqdan tilga*** qarab belgilanadigan tavsifiy tilshunoslik ham rivojlandi.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida o‘zbek tilshunosligi uchun eng yangi (jahon tajribasida mavjud) til va nutqni egasidan ajratmay o‘rganadigan, tahlillari ***til~shaxs~nutq munosabatiga asoslangan*** antroposentrik tilshunoslik jadal rivojlanmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan har to‘rttala yo‘nalishning ham o‘z tahlil usullari, asosli yondashuvlari, erishgan yutuqlari bor. Shuningdek, mazkur yondashuvlarning qarashlari mushtarak bo‘lgan yoki bir-birini mutlaqo rad etadigan o‘rinlari ham anchagina. (Chunki mohiyatga qaysi tomondan yondashilsa, o‘shanga xos natija kelib chiqadi. Fan va uning taraqqiyoti uchun bu – tabiiy holat.)

Ammo masalaning nafaqat ensani qotiradigan, balki fojeali tomoni bor. Bu quyidagilarda aniq seziladi:

1.Substansial talqinlar yangi, omma ongiga to‘la singmagan. Formal talqinlar esa, aksincha, 70 yildan ziyodroq vaqt davomida maktab orqali omma ongiga singdirildi – u o‘zbek ziyolilari uchun o‘zlashgan, singgan hodisaga aylandi. Shuning uchun ongiga formal talqinlar singganlar tomonidan substansial (yangi, imkoniy) talqinlarni qabul qilish juda qiyin kechmoqda: juda ko‘p hollarda substansial va formal talqinlar aralashtiriladi, ta’riflar substansial talqinlar asosida berilsa-da, darsliklardagi amaliy ishlar(misollar)da va sharhlarda eski talqinlarni berish hollari tez-tez uchrab turadi. (Jabrni, asosan, oliy ta’limning soha yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba tortyapti.)

2. O‘rta umumta’lim maktablarining 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-sinflari uchun mo‘ljallangan amaldagi ”Ona tili” darsliklari[12]da – (o‘quvchi yodlashi va esda saqlashi nazarda tutilgan) bir yarim mingga yaqin grammatik talqinlarda – (bizning statistikamizga ko‘ra) 55-60 foiz an’anaviy, 25-30 foiz substansial, 10-18 foiz tavsifiy tilshunoslikning bir-birini inkor etuvchi ma’lumotlari berilgan.

Agar o‘rta bo‘g‘in ”Ona tili” darsliklaridagi bu ”aralashma”ni boshlang‘ich ta’lim mavzulari bilan bog‘lasak, muammo sxolistik tus olishini kuzatamiz.

[12]Biz maktab darsliklarining quyidagi nashrlariga tayanib mulohaza yuritamiz: Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili. 5-sinf uchun darslik.–T.: Ma`naviyat.–2017.; Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik.–T.:Tasvir.–2018.; Mahmudov N., Nurmonov A., SobirovA., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili.7-sinf uchun darslik.–T.: Ma’naviyat.– 2009.; Qodirov M., Ne`matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. 8-sinf uchun darslik.–T.: Cho‘lpon.–2019.; Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 9-sinf uchun darslik.–T.: Tasvir.–2018.; Mahmudov N., Sobirov A., Odilov Y., Ziyadullayeva G. Ona tili. 10-sinf uchun darslik.–T.: O‘zME.–2017.; Mahmudov N., Odilov Y., Ziyadullayeva G. Ona tili. 11-sinf uchun darslik.–T.: O‘zME.–2018.

Oddiy bir misol: o‘quvchiga 4-sinfda mustaqil so‘z turkumlari (formal talqin asosida) *ot, sifat, son, olmosh, fe’l* tartibida beriladi.[13] 6-, 7-sinflarda ular (substansial talqin asosida) *fe’l, ot sifat, son, ravish, olmosh* tartibida beriladi. Bunday aralashtirish va uzilish holatlari darsliklarda juda ko‘p bo‘lganligi sababli bugungi kunda ona tili ta’limi oldida turgan eng chigal muammolardan bo‘lib qoldi.

Yana bir misol: 8-sinf ona tili darsligidagi “**Kesim. Fe’l kesim va ot kesim**” mavzusi 37-darsda “*Bilib oling*” izohi bilan ot-kesim va fe’l-kesim haqida izoh berilib, fe’l-kesim haqida quyidagicha ma’lumot beriladi: “***Bilib oling***. *Fe’l kesim sof fe’l va ba’zan ravishdosh bilan ifodalanadi: 1. Hasad bilan g‘azab ikki qanot bo‘lib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni* ***xira va kuduratli qilib yuboradi****. (Abu Rayhon Beruniy) Ishning boshi –* ***boshlanguncha.***

Eslatma: ***-guncha*** *qo‘shimchasini olgan ravishdoshgina kesim bo‘lib kelishi mumkin.*

Fe’ldan boshqa so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so‘z) bilan, shuningdek, fe’lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi:

ravish bilan: Savobning eshigi ***ko‘p****.(Maqol);*

modal so‘z bilan: So‘zdan so‘zning farqi ***bor****, o‘ttiz ikki narxi bor. (Maqol);*

sifatdosh bilan: Yigit kishining uyalgani – o‘lgani; eman daraxtining egilgani – ***singani****. (Maqol)*

Darslikdan keltirilgan bu iqtibosda ilmiy (lingvistik) xatolar bor: a) *boshlanguncha* so‘zshakli kesim deb baholangan; b) *o‘lgani* va *singani* sozshakllar sifatdosh deb tasnif etilgan; d) *ko‘p* sozshakli ravish deb aytilgan; e) *bor* sozshakli modal so‘z sifatida talqin etilgan.

Aslida, *boshlanguncha* so‘zshaklni kesim sifatida baholash formal grammatik talqinda gap egasidan boshqa o‘z ishlovchisi (foili) bo‘lgan ravishdosh,

[13]Qosimova K., Fuzailov S., Ne’matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik.–T.: Cho‘lpon.–2017.; Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik.–T.: O‘qituvchi.–2017.; Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik.–T.: O‘qituvchi.–2017.

sifatdosh, harakat nomi kengaygan birikmalarining kesimi tuslangan shaklda bo‘lmasa ham, gap deb talqin etish an’anasi bilan bog‘liq. Mualliflar bu eski talqindan to‘la uzila olmaganlar.

Yigit kishining uyalgani – o‘lgani; eman daraxtining egilgani – ***singani*** gapida *o‘lgani* va *singani* tuslangan fe’l (fe’lning aniq mayli, hozirgi-kelasi zamon, III shaxs, birlik son) shakllarini sifatdosh deb baholash ham formal tavsif uchun xos bo‘lgan sifatdosh shakli bilan fe’lning tuslangan (mayl/zamon) shaklini qorishtirish oqibatidir. Zeroki, substansial talqinda, masalan, *Men ko‘rgan bolani akam ham ko‘rgan* gapida *ko‘rgan* so‘zshakli birinchi qo‘llanilishda sifatdosh sanaladi, ikkinchi qo‘llanilishda *ko‘rgan* so‘zshakli tuslangan (sof) fe’l bo‘lib, kesimlik kategoriyasining aniqlik mayli, bo‘lishli, o‘tgan zamon hikoya fe’lining uchinchi shaxs, birlik son shakli sifatida tasnif etiladi. Qo‘shimchalari shaklan monand (omonimik qo‘shimchalar) bo‘lgan sifatdosh va mayl/zamon shakllarini farqlash uchun tilshunoslikda azaldan fe’l shaklining tuslanishi (shaxs/son qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi /tuslangan/ zamonli fe’llarda) yoki o‘zgarmasligi – tuslanmagan fe’llarda qabul qilingan. Buni aniqlash uchun ustoz/o‘quvchi foillarning (harakatni bajaruvchilarning) shaxsini o‘zgartirib ko‘rishi lozim. Chunonchi,

Men		*sen ham ko‘tgansan.*
Sen	*ko‘rgan bolani*	*men ham ko‘rganman.*
Ular		*siz ham ko‘rgansiz.*
		akam ham ko‘rgan.
…..		…….

Shu asosda *ko‘rgan* so‘zshaklini birinchi qo‘llanilishda tuslanmagan fe’l (sifatdosh tuslanmaydi, foil shaxsi o‘zgarsa ham, u o‘zgarmaydi), ikkinchi qo‘llanilishda tuslangan fe’l (o‘tgan zamon hikoya fe’l – foil shakli o‘zgarishi bilan o‘zgaradi, tuslanadi) ekanligi aniqlanadi. Lekin bunday nazariy sof lingvistik (tilshunoslik fani) tafsilotlari o‘quvchi uchun shu o‘rinda mutlaqo ortiqcha va hech qanday samara bermaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchi shuni esdan chiqarmasligi kerakki, grammatik bilim-u tafsilotlarga ulkan e’tibor – ona tili ta’limida o‘tmish sarqiti; ona tili ta’limidan maqsad grammatik bilimlar emas, balki mustaqil fikrni to‘g‘ri va lo‘nda-yu ravon ifodalashdir. O‘qituvchi daqqat markazida ham mana shu parametr turishi kerak.

Biz bu yerda faqat bitta darslikdan olingan birgina sharh ustida to‘xtaldik. Turli sinf darsliklarida berilgan talqinlarni o‘zaro qiyoslasak, bunday ziddiyatlar soni-yu xillari oshib boradi. Ta’limning boshlang‘ich, tayanch o‘rta umumta’lim (5-11-sinf), o‘rta maxsus va oliy bo‘g‘inlari darsliklarini qiyoslasak, ularning oralaridagi farq-u ziddiyatlardan hang-u mang bo‘lib qolamiz. Turli oliygohlar tomonidan chiqarilgan qo‘llanma-yu har xil nashrlarda, kasb-hunar kollejlari uchun chiqarilgan tavsiya-yu boshqa turdagi tavsiflarda, nashr ettirilib, tarqatilayotgan har xil ”repititor”-u ”yordam”larda eski va yangi talqinlar shunchalik qorishtirilganki, ularni sanab ado etib ham, turlarini tavsiflab ham bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, bugun ”*Mulla bilganini o‘qir, bo‘zchi bilganini to‘qir*” maqoli amalda.)

Bizni yana haqli savol qiynaydi: Darslik mualliflari bo‘lgan tilshunos olimlarimiz (o‘zlari bir to‘xtamga kelmagan) nazariy talqinlar bilan yana qachongacha maktab partasida o‘tirgan kelajak avlodni ”chalg‘itishadi”?! Qachongacha “butun respublika bolalarini tilshunoslarga aylantirish” besamar amaliyotini bas qilishadi?!

Uchinchidan, o‘qituvchilarimiz ommasi kognitiv-pragmatik usulda ishlashni – o‘quvchiga bilim berishni emas, uni yo‘naltirib, izlantirib, o‘ylantirib kuzatayotgan hodisalari asosida o‘z hukmini chiqarishini va uni ifodalashi lozimligini – o‘zlari uchun asosiy me’yor sifatida belgilab olishlari shart. (Bu borada barcha o‘qituvchilarning faoliyatlarini tanqid qilishdan yiroqmiz. Biroq kuzatgan darslarimizning ko‘pchiligida maktab o‘qituvchilarimiz o‘quvchini dars davomida, odatda, ta’limiy o‘yinlar vaqtidagina mustaqil izlanishlariga yo‘l beradilar. Boshqa paytlarda esa “darsning asosi”ni o‘qituvchi tushuntiryapti. E’tibor bering: o‘qituvchi dastur va darslikda belgilangan mavzuni o‘quvchiga (og‘zaki bayon usulida) tayyor holda beryapti. (Muhtaram o‘qituvchilarimiz fan

asoslarini to‘la o‘zlashtirib mutaxassis darajasiga erishganlari uchun ularga oliygoh diplomi berilgan-ku. Buni o‘quvchi oldida qayta-qayta takrorlash, odatda, o‘qituvchini takomillashtiradi, o‘quvchini emas. Agar u o‘quvchi uchun keraksiz bilim bo‘lsa-chi?!)

To‘rtinchidan, retroskopik ta’limda o‘quv materiali, asosan, darslikda berilgan bo‘ladi – o‘quvchi darslikda berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirsa bo‘lgani! Kognitiv ta’limda esa o‘quv materiali darslikdan tashqarida bo‘ladi. Darslik faqat namuna va yo‘llanma – o‘zlashtirish algoritmini beradi, xolos. Bizda, avvalo, ona tili mashg‘ulotlarida keng foydalanish uchun zarur bo‘lgan axborot manbalari (masalan, lug‘atlar, qomuslar, ma’lumotnomalar) yetarli emas va o‘qituvchilarimiz ham, o‘quvchilarimiz ham ***har bir mashg‘ulotda bir necha axborot manbasidan foydalanish ko‘nikmasi va madaniyati***ga ega emas.

Yechim: Qarshi davlat universitetining bir guruh professor-o‘qituvchilari tomonidan (prof. B.Mengliyev boshchiligida) 2003-2005-yillarda maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan o‘nga yaqin lug‘atlar tayyorlanib, ko‘pchilik hukmiga havol etilgan edi. Shu lug‘atlar takomillashtirilishi va respublika miqyosida maktab partasida o‘tirgan har bir o‘quvchining, avvalo, ona tili o‘qituvchilarining qo‘liga yetib bormog‘i zarur. O‘qituvchilarimizda ham, o‘quvchilarimizda ham lug‘atlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz nafaqat maktab ta’limi, balki millat taraqqiyoti uchun ham o‘ta muhim.

Beshinchidan, Maktab DTS(malaka talablari)da shunday so‘zlarni o‘qiymiz: Ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar uch parametrli standart ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1.O‘qish texnikasi. Bu parametr orqali o‘quvchining notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich sifatida ifodali o‘qish tezligi, ya’ni minutiga berilgan matndan nechta so‘z o‘qiy olish ko‘rsatkichi olingan. Sinfdan sinfga o‘tish davrida miqdoriy ko‘rsatkichdagi so‘zlarning soni oshishi bilan birga berilgan matnni o‘qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

2.O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qilaolish darajasini aniqlaydi.

3.**Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi** (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining bosh maqsadi shu parametrda to‘la yuzaga chiqadi. O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;

b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);

v) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;

g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;

d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

DTS o‘quvchidan ona tilida fikrlash va fikrni bayon qilishning amaliy ko‘nikma va malakalarini talab qilib turgani holda hozir ham o‘quv maskanlarida, oliygohlarga qabul imtihonlarida bilimlarni test asosida sinash hukmronlik qilib kelmoqda. Testlar esa, odatda, retroskopik grammatik bilimlarni baholay oladi; ular o‘quvchining mustaqil va ijodiy fikrlash hamda fikr mahsulini yozma/og‘zaki shakllarda ifodalash layoqatini aniqlay olmaydi. Shuni takror va takror ta’kidlash kerakki, to DTSlarida ko‘rsatilgan tamoyil(parametr)lar asosida ta’lim olgan shaxsning ona tili mashg‘ulotlaridan olgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash to‘la-to‘kis amalga joriy etilmas ekan, na darslik tuzuvchilar, na-da ustozlar-u o‘quvchilar diqqatini sovet ta’lim tizimining ayanchli qoldig‘i (quruq, samarasiz va, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, subyektiv grammatik ilmiy tushunchalar va talqinlarni o‘zlashtirish)dan uzib bo‘lmaydi; ta’lim samarasi

grammatik bilimlar bilan baholanadimi, demak, ta’lim jarayonida ham ular yetakchi bo‘lib qolaveradi.

Tafakkur, dunyoqarash-u didni shakllantirishga xizmat qiladigan ona tili vaadabiyot, tarix (jumladan, O‘zbekiston tarixi) kabi o‘quv predmetlari asosida hosil qilingan ko‘nikmalar testlar vositasida baholanar ekan, ular ta’lim tizimidao‘z oldida turgan haqiqiy vazifasini tugal bajarib bilmaydi vaona tili mashg‘ulotlari amalda deyarli foydasiz grammatik bilimlarni, adabiyot va tarix darslari uzuq-yuluq hodisalar, sanalar va shaxslarni berish hamda ularni yodlatishdan to‘la uzila olmaydi.

Sanab o‘tilgan hodisalar – eski va yangining qorishuvi, darslikda grammatik nazariy bilimlarga ortiqcha e’tibor va o‘rin – istagan o‘tar davr uchun xos – zaruriy holat ekanligini bilamiz. Biroq bizda bu o‘tish davri salkam o‘ttiz yilga cho‘zilganligi butun jamiyat uchun achinarli hol emasmi?!

O‘tgan yillar davomida maktabda: “Ona tili predmeti to‘la-to‘kis tilshunoslik faniga aylanib bo‘ldi. O‘qituvchi ham, o‘quvchi ham, ota-onalar ham ona tili ta’limi deganda tilshunoslik qoidalarini yodlash va ularga doir mashq va topshiriqlarni bajarishdan boshqa narsani tasavvur qila olmaydigan bo‘lib qoldi. Birinchi planda turishi kerak bo‘lgan og‘zaki va yozma nutq bo‘yicha savodxonlik, nutq va muloqot madaniyati, boy so‘z zahirasi, notiqlik eng oxirgi o‘rinlarga tushib ketdi.”

To‘g‘ri, eskidan batamom voz kechib, yangiga ko‘nikish hamisha juda qiyin. Ammo ijtimoiy hayotimizdagi har bir voqelik o‘z o‘zaniga tushmas ekan, taraqqiyot haqida gapirishga hech birimizning, ayniqsa, soha mutaxassislarining, jamiyat ziyolilarining haqimiz bo‘lmaydi.

1-BO‘LIM
O‘ZBEK (ONA) TILI TA’LIMI TARIXIDAN

Ko‘p o‘rinlarda “…tariximiz haqida gap ketganda, biz rus olimlarining tadqiqotlariga tayanamiz…” Biroq xalqimiz, vatanimiz, millatimizga tegishli istalgan jabha tarixini birovlarning nuqtayi nazari, qarichi bilan emas, shu xalqning, ona-yurtning farzandi sifatida o‘zimiz baholashimiz zarur. O‘z davlatimiz, xalqimiz, millatimiz tarixini o‘zimiz tiklamasak, o‘zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Zero, haqqoniy tarixni bilmasdan turib o‘zlikni anglash mumkin emas, o‘zlini anglamaslik esa kelajak ildiziga bolta urmoq bilan barobar.

O‘ZBEK TILINI ONA TILI SIFATIDA O‘QITISH TARIXIDAN

Reja:

1. Ta’limni ona tilida olib borish va ona tilining o‘quv predmeti sifatida ta’lim o‘choqlarida o‘qitilishi masalasi.
2. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari davrida ona (turkiy) tilida ta’lim.
3. IX-XII asrlarda ona (turkiy) tilida ta’lim.
4. XIII-XIV asrlarda ona (turkiy) tilida ta’lim.
5. Temuriylar davrida ona (o‘zbek) tilida ta’lim.
6. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida ona (o‘zbek) tilida ta’lim.
7. Jadidchilik harakati davrida ona (o‘zbek) tilida ta’lim.
8. Sovet tuzumi davrida ona (o‘zbek) tili ta’limi.
9. Mustaqillik davrida o‘zbek (ona) tili ta’limi.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Ta’lim tili, ona (turkiy) tilida ta’lim,ona tilining maxsus o‘quv predmeti sifatida o‘qitilishi, O‘TDA yig‘inlari

Ona tili ta’limi dunyoning barcha burchaklarida barcha zamonlarda odam bolasini odam qilib tarbiyalashda favqulodda muhim jarayonlardan biridir.

Nizomiddin Mahmudov

Tarixchi, arxeolog, etnograf olimlar kishilik madaniy taraqqiyoti darajasini davrlashtirishda insoniyat tarixida beshta yirik sivilizatsiya ro‘y berganligini e’tirof etadilar. Birinchi sivilizatsiya eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda Kichik va Old Osiyo hududlari, Frot va Dajla, Nil hamda Hind daryolari havzalarida yuz

bergan, u fanda “Qadimgi sharq sivilizatsiyasi” nomi bilan mashhurdir. Aksariyat olimlar “Antik davr sivilizatsiyasi” nomi bilan mashhur ikkinchi sivilizatsiya miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o‘rtalarida Gretsiya va Rimda ro‘y bergan deb hisoblashadi. Uchinchi sivilizatsiya arab istilosidan keyingi davrda Movarounnahr va Xuroson hududlarida melodiy IX-XIII asr boshlarida yuz bergan va jahonga tengsiz aql daholari, olim-u fuzalolar, mutafakkirlarni yetkazib berganligi sir emas va uning ta’sirida Yevropa uyg‘ondi.[14] To‘rtinchi sivilizatsiya XIV-XV asrlarda Yevropa va Osiyoda yuz bergan uyg‘onish davri bilan bog‘liqligi e’tirof etilsa, beshinchisi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy taraqqiyot yuqori nuqtaga ko‘tarilgan, inson aql-zakovati tufayli ilm-fanda buyuk kashfiyotlar amalga oshirilgan XX asr sivilizatsiyasidir. Tabiiyki, mazkur sivilizatsiyalarning yuzaga kelishini ta’minlovchi asosiy omil ta’lim tizimidir. Zero, turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, davlatchilik shakllaridan qat’i nazar, tarixiy davrlarda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati, o‘z zamonasi ruhiga mos ravishda anglashilib, umumiy rivojlanish darajasiga yuksak ta’sir etib kelgan.

Xo‘sh, insoniyat tarixida ta’lim olish va ta’lim berish jarayoni qachondan, qayerdan boshlangan? Maktab sistemasi qachon paydo bo‘lgan?

Qabila ittifoqlari o‘rnida paydo bo‘lgan qadimgi davlatlarda tarbiya, asosan, oilada berilardi. Quldorlik tuzumiga o‘tish davrida oila tarbiyasining an’analari qisman saqlangan holda, tarbiyaning boshqa usul va shakllari paydo bo‘la boshladi. Qadimgi sharq davlatlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni hamda tizimi haqida dastlabki ma’lumotlar Bobil shohi Xammurapi qonunlari, yahudiylar shohi Sulaymonning hikmatlari, hindlarning Bxagavadgitalari kabi yozma yodgorliklarda uchraydi…[15]

Jamiyatdagi ijtimoiy faoliyatning alohida qismi sifatida maktab eramizdan avvalgi 5 ming yillikda Qadimgi Sharqda paydo bo‘ldi. U davlat jamoat tashkilotlarining mustahkamlanib borishi bilan bir vaqtda davlat xizmatchilari, kohinlar, harbiylarni maxsus tayyorlash uchun maqsadida shakllandi. Qadimgi

[14] Буюк сиймолар, алломалар (Ўрта Осиёлик машҳур мутафаккир ва донишмандлар). 1-китоб.–Тошкент, 1995.
[15] Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997.

Sharq davlatlarida maktab va tarbiya: turli-tuman iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, etnik, jug‘rofiy va boshqa faktorlar ta’sirida rivojlandi. Insonlar tomonidan to‘plangan madaniy tajribani keyingi avlodga yetkazish shakl va usullari ham o‘zgarib borib, o‘sib kelayotgan avlodga ta’lim berish maqsadida maxsus ta’lim tuzilmalari tashkil etildi…[16] Mazkur savollarga bu kabi qator javoblarni tarix kitoblari orqali istaganimizcha topa olamiz.

Biz mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda ona tili ta’limi qachondan boshlangan, o`zbek tilini ona tili sifatida o‘qitish tarixi qaysi davrlarga va qaysi omillarga borib taqaladi, degan savollarga atroflicha javob qaytarishga harakat qilamiz.

Shu o‘rinda, eng avvalo, ona tilida ta’lim va ona tili ta’limi tushunchalarini farqlab olishimiz zarur.

Bunday zaruratning yuzaga kelishi quyidagi omillarga bog‘liq:

Birinchidan, bugunimizni anglash, kelajagimizni belgilash uchun tariximizni ham hurmat-ehtirom, ham tanqidiy ruhda o‘rganishimiz, uni bilishimiz, tarixiy saboqlardan to‘g‘ri xulosalar chiqarishimiz muhim.

Ikkinchidan, o‘zbek tili ta’limi tarixi pedagogikamiz, didaktikamiz va ona tilini o‘qitish metodikasi tarixida qisman (davr ruhiga mos tarzda) o‘rganilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda metodist olim Yo‘ldosh Abdullayevning XIX asr oxiri XX asr boshlarida eski maktabda xat-savod o‘rgatish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqoti[17] va monografiyasi[18]dan boshqa ommalashgan jiddiy ilmiy tadqiqotlarga duch kelmas edik.(Mustaqillik davrida bu masala yirik monografik tadqiqot sifatida o‘rganildi.[19])

O‘z vaqtida o‘zbek tili ta’limi tarixining to‘la o‘rganilmaganligi, jumladan, “oktabr revolyusiyasiga qadar vatanimiz ta’lim o‘choqlarida tibbiy bilim, aniq o‘quv predmetlar, ona tili va adabiyot o‘qitilmas edi”[20] degan soxta fikrning

---

[16] Сулаймонова Ф. Шарқ ва ғарб. – Т.: Фан, 1991.
[17] Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. – Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1960. – 152 б.
[18] Абдуллаев Й. Эски ўзбек мактабларида (1865-1917 йиллар) савод чиқариш: – Пед. ўқув предметилари номз…дисс. афтореф.– Т.: 1961.– 21б.
[19] Юлдашева Д.Н. КТМД талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари. Педагогика фанлари номзоди…диссертацияси.–Тошкент, 2007.–124 б.
[20]Ўзбек педанталогияси. I жилд. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 9-б.

tarqalishi bilan bog‘liq. Vaholanki, Yo‘ldosh Abdullayev ta’kidlaganidek: “O‘zbek maktablarida ona tili o‘qitilishi tarixi bilan tanishsak, hozirgi yutuqlarimizning nihoyatda buyuk ekanligini anglab olish osonlashadi, ona tili darslarida qo‘llanilayotgan bir qancha usullarning tarixiy ildizlari bizga ayon bo‘ladi, ona tili darslarida qaysi masalalarga ko‘proq e’tibor berish zarurligini aniqlab olishga yordam beradi”.[21] Zero, o‘zbek tili ta’limi tarixini o‘rganish ma’naviyatimiz va tariximizga yangicha munosabatda bo‘lish davrida dolzarb masalalardan biridir: o‘zbek tilini ona tili sifatidagi ta’limining bugungi maqsadini uqish va anglash uning tarixini bilishni talab etadi.

Ma’lumki, ta’lim maqsadi ta’lim vositalarida voqelanadi. Bu vositalardan eng asosiysi esa kitoblar – darslik va qo‘llanmalar, didaktik adabiyot namunalaridir. O‘zbek xalqi esa bu yo‘nalishda ming yildan ortiq uzluksiz yozma an’anaga ega. O‘quv (didaktik) adabiyot namunalari asosida shu adabiyot yaratilgan davrda ona tili ta’limi, uning oldida turgan maqsad va vazifalarni aniqlash mumkin.[*]

Anglashimiz zarurki, **ona tilining o‘quv predmeti sifatida maktabda (ta’lim o‘choqlarida) o‘qitilishi** bilan **ta’limni ona tilida olib borish** masalasi ayni bir muammo emas.

Ta’limni ona tilida olib borish deganda ta’lim o‘choqlarida o‘rganiladigan o‘quv predmetlarini, beriladigan ta’lim, tarbiya, bilim, hosil qilinadigan malaka va ko‘nikmalarni ona tili vositasida amalga oshirish tushuniladi. Maktabda ona tilini o‘quv predmeti sifatida o‘qitish deganda, ona tilini alohida o‘quv predmeti sifatida o‘rganish tushuniladi. Ta’lim ona tilida amalga oshirilganda, ona tili maxsus o‘quv predmeti sifatida ajratib o‘qitilmasa-da, ona tili o‘qitilmaydi, degan xulosaga kelish noto‘g‘ri. Chunki ta’lim ona tilida olib borilganda ta’lim oluvchilarga bevosita *yozuv*, *imlo*, *talaffuz*, *qiroat* o‘rgatiladi. Vaholanki, bularning barchasi ona tili ta’limining tarkibiy qismlaridir. Shuning uchun ta’lim tili ona tili bo‘lganda, ona

[21]Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. – Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1960. – 3-б.

[*]Mazkur masalada shuni nazarda tutish kerakki, bundan bir necha yuz yil oldingi, bizning nazarimizdan uzoq davr va sharoitlarda biz ona (o‘zbek) tili ta’limi tushunchasiga bu tushunishning hozirgi tushunilishi asosida yondasha olmaymiz. Zero, hozirgi mezon va tamal toshlari bilan tarixga yondashib bo‘lmaydi. Tarixiy hodisa tarixiy sharoit bilan bog‘liq ravishda o‘rganilishi va baholanishi lozim.

tili maxsus o‘quv predmeti sifatida ajratiladimi, yo‘qmi, qat’i nazar, ta’lim o‘choqlarida ona tili o‘qitiladi, deb baholanishi lozim.

Ta’lim ona tilida amalga oshirilgan har bir mashg‘ulotda ta’lim oluvchilar o‘z ona tilining lug‘aviy boyliklari, ifoda vositalari, tasviriy imkoniyatlari bilan tanishib ularni muttasil egallab boradi, ya’ni ona tilidan ta’lim oladi, ona tilida yosh xususiyatlarga mos ravishda yaratilgan badiiy tarbiyaviy-mafkuraviy, axloqiy-adabiy, badiiy va, hatto, ilmiy adabiyotlarning eng sara hamda ommaviy ko‘rinishlari bilan tanishadi, ona tili imkoniyatlaridan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini oshirib boradi. Ta’lim ona tiliga asoslanganda, ona tili ta’limi oldiga alohida maxsus maqsad qo‘yilmaydi (chunki alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitilmaydi), lekin butun ta’limning maqsadi ta’lim oluvchining ona tilida fikrlashi va o‘z fikrini ona tilida bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Mana shu maqsad o‘z-o‘zidan ona tilini o‘quv predmeti sifatida o‘qitilmasligini to‘la-to‘kis qoplaydi va ta’lim ona tilida olib boriladigan bilimgohda bu predmet alohida o‘qitilsa, uning oldida o‘ziga xos muayyan maqsad turishidan dalolat beradi. Shunga ko‘ra “ona tili ta’limi” bilan “ona tilida ta’lim” tushunchalari bunday yondashishda nafaqat o‘zaro kesishadi, balki bir-biriga singadi.

VI asrlardan toki XX asrning boshlarigacha yurtimizda ona (o‘zbek) tilida ta’lim amalga oshirilgan. XX asrning 40-yillaridan boshlab ona tili maxsus fan sifatida o‘qitila boshlagan. Demak, ona (o‘zbek) tilida ta’lim masalasining ibtidosi O‘rxun-Enasoy yodgorliklari davriga borib taqaladi.

O‘rxun-Enasoy yodgorliklari davrida ona (o‘zbek) tilida ta’lim. IX-XIX asrlarda, asosan, turkiy, turkcha, qator manbalarda hoqoniy, qoshg‘ariy, chig‘atoiy kabi o‘ndan ortiq nomlar bilan atalib kelingan ona tilimiz[22]ning o‘qitilishi to‘g‘risida bevosita ma’lumot beruvchi manbalar bo‘lmasa-da, bu til ta’lim-tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelganligi, demak, ta’lim o‘choqlarida

[22] Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида.– Т.: ТДШИ, 1999. – 89 б.

o‘qitilganligi haqida bilvosita ma’lumot beradigan manbalar juda ko‘p. Ulardan eng qadimiylari, shubhasiz, ilk turkiy yozma yodgorliklardir.*

Mutaxassislarning fikricha, bu yozuv yodgorliklarining qadimgilari eramizning V asriga mansub bo‘lsa, keyingilari eramizning IX-X asrlariga tegishli. Demak, runiy yozuv 500 yil amalda bo‘lgan, bu esa sof turkiy yozuv, turkiy til ta’lim o‘choqlarida o‘qitilgan, o‘rgatilgan degan xulosaga olib keladi.

Bitiktoshlarning keng xalq ommasi bemalol ko‘ra oladigan ochiq joylarga qo‘yilishi savodlilik qator mamlakatlarda bo‘lgani kabi sanoqli kohinlar-u din o‘choqlari bilan chegaralanmaganligidan dalolat beradi. Yevropadagi qadimgi yodgorliklar monastir-u qadimgi grek butxonalarida mujassamlangan bo‘lsa, turkiy yodgorliklar yuz minglab turkiylar o‘tadigan katta chorrahalarda, sahrolarda o‘rnatilgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarning V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malov, X.N.Orqun, G.Ramstedt, A.Kononov kabi tadqiqotchilari yodgorliklarda xalqqa murojaat qilingan quyidagi so‘zlarni alohida ajratadilar: “Turk beklari, xalqi, buni eshiting! Turk xalqini to‘plab davlat tutishni bu yerda [toshga o‘yib] yozdim. Adashib ayrilganingni ham bu yerda yozdim. Qanday nima so‘zim bo‘lsa, mangu toshga o‘ydim. Unga qarab biling, Turkning endigi xalqi, beklari. Uy, dunyoga[gina] qaraydigan (ko‘ziga faqat mol-mulki ko‘rinadigan) beklar sizlar gumrohsizlar.

Men mangu tosh bitidim… Tabg‘ach hoqonidan naqqosh keltirdim, naqshla(t)dim. Mening nutqimni buzmadi. Shunday sayrgoh yerda mangu tosh o‘rnatdim, [bitig] bitidim. Uni ko‘rib shunday deb biling: bu bitig bitilguchining birodari Yo‘llug‘ tegin”.[23]

Turk yodgorliklari sayrgohlarda, odamlar gavjum joylarda qo‘yilgan. Demak, yodgorliklardagi yozuvlarni xalq o‘qigan, yozuvlarni o‘qiy olgan xalq savodli bo‘lgan. Xalqning savodli bo‘lishi uchun ularni ham o‘qitganlar. O‘sha davrdagi

---

*Ma’lumki, ilk namunalari VI asrga, kattagina qismi esa VIII asrga mansub bo‘lgan turk-runik (O‘rxun-Yenisey) yodgorliklari shunday bir turkiy yozuvda yozilganki, bu yozuvni olimlar XIX asrning oxirigacha mutlaqo bilmas edilar. Bu yozuvlar siri 1893-yilda daniyalik tilshunos olim V.Tomsen tomonidan ochildi. Runiy yozuvdagi yodgorliklar kattagina hududga tarqalgan bo‘lib, ular ulug‘ hoqonlar va ularning qarindoshlari qabri ustiga qo‘yilgan toshlar, toshtayoqlar hamda qoyalarda saqlangan.

[23]Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 168 б.

maktab qanday bo‘lgan, o‘qitish qayyo‘sinda bo‘lgan, bu bizga ma’lum emas. Biroq turkiy maktablar, ta’lim o‘choqlarida o‘qitish turkona ekanligi, uning boshqa xalqlarning ta’lim tizimidan farq qilishi ham runiy yodgorliklarda o‘z aksini topgan. Bu “Kul tigin” yodgorligidagi: “…oltin, kumush, ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz berayotgan Tabg‘ach xalqi so‘zi shirin, debosi (ipak kiyimlik va kiyim) nafis ekan. Shirin so‘zi, debosi bilan aldab yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaqin qo‘shni bo‘lgandan so‘ng yovuz ilmni u yerda o‘rganar ekan”[24] degan so‘zlardan anglashiladiki, turkona bo‘lmagan bilim yovuz ilm deb baholangan. Demak, ezgu deb sanaladigan turkona bilim ham bo‘lgan. Fikrimizni “Tunyuquq” yodgorligi ham tasdiqlaydi. Yodgorlikdagi: “Bilga Tunyuquq men o‘zim. Tabg‘ach davlatida tarbiyalandim”[25] (Tabg‘ach – shimoliy Xitoy (Mochin)[26] degan gap turkiy ta’lim-tarbiya tizimi boshqalardan, jumladan, mochinliklardan farq qilganligini ko‘rsatib turadi. Bundan biz xulosa qila olamizki, qadimgi turkiy yodgorliklar davrida – V-IX asrlarda turkiy yozuv bo‘lgan, bu yodgorliklarni **xalq o‘qiy olgan**, ya’ni **xalq o‘qitilgan**. Turkiy yozuv, turkiy til, turkiy tarbiya tizimi o‘zga xalqlarnikidan farqli, ya’ni turkona bo‘lgan.

Qadimgi turkiy yodgorliklarning tadqiqotchilari bu yodgorliklar bizga yetib kelguniga qadar uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligini ta’kidlashadi. Jumladan, akademik A.N. Kononov shunday yozadi: “O‘zining morfologiyasi va sintaksisi yuksak darajada rivojanganligi bilan qadimgi turkiy yodgorliklarning tili bizga yetib kelguncha uzoq adabiy an’anaga ega bo‘lganligidan dalolat beradi”.[27] Demak turkiy tilda ta’lim, turkiy tilni o‘qitish ishlari ulkan tarixga ega.

IX-XII asrlarda ona (o‘zbek) tilida ta’lim. XI asrda yashab o‘tgan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy IX-XI asrlarda turkiy yozuv nomi bilan mashhur bo‘lgan qadimgi uyg‘ur yozuvini sharhlab bo‘lgach, turkiy xalqlar yozuvlari haqida quyidagi fikrni ilova qiladi: ”Uyg‘urlarning ham, chinliklarning ham yana boshqa bir yozuvi bor. Kitoblarni, idora ishlarini u xat bilan yuritadilar. Chinliklar

---

[24] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 89-90-б.
[25] O‘sha asar. 169-b.
[26] Бартольд В.В. Сочинения IV.– М.: ИВЛ,1966.
[27] Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских руни- ческих памятников <VII–IX вв.>.–Л.:Наука, 1980.–3-стр.

va musulmon bo‘lmaganlardan boshqalar u xatni o‘qiy olmaydilar”.[28] Bu kabi so‘zlar X va undan oldingi asrlarda turkiy tilda ta’lim beradigan maktablar bo‘lganligini aniq ko‘rsatib beradi. X asrdan oldingi va keyingi davrlarda ham turkiy tilda ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilganligi haqida tarixiy manbalarda bilvosita ma’lumotlar yetarlicha keltirilgan.

Ma’lumki, VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda islom dini yoyila boshladi. Kattagina mintaqada, xususan, zardushtiylik (otashparastlik) mafkurasi hukmron bo‘lgan yerlarda islomning o‘rnashishi qiyin kechdi,[29] lekin muarrixlarning, xususan, buyuk tarixchi va islomshunos V.V.Bartold fikriga ko‘ra, turkiy xalqlar islomni zudlik bilan qabul qildilar,[30] chunki o‘sha davrda butun turkiyzabon o‘lkada ma’lum bir yagona g‘oyaviy e’tiqod tarkib topib ulgurmagan edi. Turkiy xalqlar ichida xilma-xil e’tiqodlar (zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, konfusiylik va b.) tarqalgan edi. Turkiylarning birdan islom atrofida birlashishi esa ularning harbiy, ijtimoiy va iqtisodiy birlashishiga keng imkoniyat yaratdi. Shuning uchun V.V.Bartold ham Markaziy Osiyo davlatlarida islom dinining mustahkamlanishida “arab va eroniy xalqlardan ko‘ra turkiy xalqlarning hissasi salmoqliroq” degan fikrni ilgari suradi. Islomiy mafkura, ta’lim va tarbiya tizimi turkiy xalqlar tomonidan osonlikcha qabul qilindi. Qishloq va shaharlarda musulmonlar masjidlar qurdirib, u yerda farzandlari uchun diniy maktablar tashkil qildilar. Musulmon qizlari islom dini taomiliga ko‘ra, otinoyilar tomonidan xonadonlarda o‘qitilgan. Bu davrga kelib ta’limning asosiy maqsadi islom dini va mafkurasini ommalashtirish, yoshlar ongiga singdirish, ularning savodxonligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, bilim oluvchilar ongida islom axloq-odobi me’yorlarini qaror toptirishdan iborat edi. Ushbu davrda maktab hamda madrasalarda tolibi ilmlarga adabiy badiiy asarlar bilan bir qatorda xandasa, mantiq, riyoziyot, falakiyot, ilmi hadis ham o‘qitilgan. Bolalarning savodini chiqarish esa “Haftiyak”ni o‘rgatishdan boshlangan. Tabiiyki, turkiyzabon xalqlarning farzandlariga ta’lim-tarbiya o‘z ona tillarida berilishi zarur edi. Bu

[28]Қошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. 3 томлик. Т.I.– Т.: Ўзбекистон ФА, 1959.
[29] Наршахий. Бухоро тарихи (Форс тилидан А.Расулов таржимаси). – Т.: Камалак, 1991.
[30] Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и арабского халифата. – М.: ИВЛ, 1968. –784 стр.

davrga (VIII-IX asrlarga) mansub ilk islomiy yodgorliklar hozirgi O‘zbekistonning markaziy va shimoliy-g‘arbiy mintaqalarida yaratilgan bo‘lib, ular bizgacha yetib kelmagan. Biz o‘sha davr ta’lim vositalari (darslik va qo‘llanmalar) haqida bugungi kunga qadar to‘liq tasavvurga ega emasmiz. Lekin qoraxoniylar davlatida (IX-XII asrlarda) davlat (saroy) tili turkiy bo‘lganligi, uning adabiy mavqega ega ekanligi (ta’lim o‘choqlarida o‘qitilishi va me’yorlarning singdirilishi) haqida turkiyshunos – qomusiy olim M.Qoshg‘ariy aniq ma’lumotlar beradi.

O‘sha davrda Markaziy Osiyoda qadimiy ilmiy an’analar, ayni zamonda ilg‘or mamlakatlarni o‘zida birlashtirgan islomiy madaniyat va fan rivojlangan. Markaziy Osiyo butun dunyoga mashhur bo‘lgan Imom al-Buxoriy, imom Hafzi Kabir, Muso Termiziy, Iso Termiziy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Motrudiy kabi o‘nlab siymolarni yetishtirganki, rivojlangan ta’lim tizimisiz bunday yutuqlarga erishish mumkin emas edi.

Mazkur davr maktablarida qanday ta’lim vositalari qo‘llanilgan? Manbalardan ayonki, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari maktablarda darslik sifatida o‘qitilgan.[31] Demak, maktab va madrasalarda, asosan, pand-nasihat janridagi axloqiy ta’lim-tarbiya beruvchi, mantiqiy fikrlashga undovchi asarlar asosiy ta’lim vositasi sifatida o‘qitilgan. Ma’lumki, o‘sha davrda (IX-XI asrlar) arab tili turkiy tilni siqib chiqara boshlaganligi, ayniqsa, ilmiy adabiyotlarda ko‘proq sezila boshladi. Bu tabiiy hol edi, albatta. Tarixiy sharoit jamiyat hayotida arab tili va madaniyatining keng yoyilishi mazkur til imkoniyatlaridan ham foydalanishga ehtiyoj tug‘dirgan edi. Biroq shunga qaramay, turkiy til IX-XI asrlarda batamom siqib chiqarilmagan. Buning eng asosiy dalili Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg‘ariy va uning bizgacha yetib kelgan yagona asari “Devonu lug‘otit turk”dir. Bu asarda Mahmud Qoshg‘ariy: “… arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o‘zib borayotgan turkiy til”imkoniyatlari jihatidan arab tilidan qolishmasligi, ko‘p jihatlardan “poygada o‘zib borayotgan”dek undan ustun turishini ko‘rsatadi. Shuning uchun u turkiy tilni arablar tomonidan ham

[31] Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. – Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1960. – 50-53-б.; Кононов А.Н., Нигматов Х.Г. Кашгарский о тюркских языков. Сборник. История лингвистических учений средневековый восток. – Л.: Наука,1981.

o‘rganilishini targ‘ib etadi. Arablar turkiy tilni o‘rganishga da’vat etilar ekan, turkiylarning o‘zlari maktablarda o‘z tillarini o‘rganmaganlar, turkiy tilda ta’lim bo‘lmagan degan fikrlar mantiqqa zid. Mahmud Qoshg‘ariy o‘z asarida turkiy tillarni o‘rganishga da’vat etuvchi ikki hadisni keltiradi. Ulardan birida shunday deyiladi: “…Turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi”. Hadisni sharhlab muallif yozadi: “Hadisning to‘g‘ri yoki to‘g‘ri emasligining javobgarligi aytgan kishining gardanida. Agar to‘g‘ri bo‘lsa, turk tilini o‘rganish vojib (zarur)dir: hadis to‘g‘ri bo‘lmagan taqdirda ham uni o‘rganish zarurligini aql taqozo etadi”.[32]

Tarixchilarning ta’kidlashlaricha, X-XII asrlarda turkiylarning nufuzi islom xalifaligida juda baland edi.[33] M.Qoshg‘ariy ma’lumotlari asosida biz bemalol ta’kidlay olamizki, X-XII asrlarda maktab va madrasalarda islomiy mafkura ustuvor bo‘lgan turkiy tildagi ta’lim-tarbiya amalda bo‘lgan.

XIII-XIV asrlarda ona (o‘zbek) tilida ta’lim. XIII asrda Markaziy Osiyoning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi yuksak madaniyatga ega bo‘lgan xalq ma’naviy hayotiga ancha putur yetkazdi. Ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning turkiy, qadimgi uyg‘ur yozuvini mo‘g‘ul rasmiy yozuvi sifatida qabul qilganligi (bu yozuv Mo‘g‘ulistonda XX asrning boshlarigacha eski mo‘g‘ul yozuvi nomi bilan amalda bo‘lgan)[34] mahalliy turkiy xalqlar savodxonlik saviyasi bosqinchi mo‘g‘ullardan ancha yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Mo‘g‘ullarning islom dinida bo‘la turib, turkiy yozuvni qabul qilishi mazkur yozuvning ushbu hududda xalqchil, ommaviy ekanligini ko‘rsatadi. O‘sha davrdagi ilmiy asarlar arab tilida yozilsa-da, ommaviy imlo turkiy yozuvda bo‘lgan.

Mahmud Qoshg‘ariyning: “Barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qoshg‘ardan Chingacha – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan” degan guvohligi mo‘g‘ullar istilosi

---

[32] Қошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. 3 томлик. Т.I.– Т.: Ўзбекистон ФА, 1959.–44-b.
[33]Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и арабского халифата. – М.: ИВЛ, 1968. –784 стр.
[34]Владимирцев Б. Я. Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и халхаского наречия (введение и фонетика).–Л.: Наука, 1929.

davrida ham o‘z kuchida qolgan. Arab yozuvi IX asrdan boshlab qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bu yozuv umumislomiy yozuv sifatida olimlar va ziyolilar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ommaviy imlo turkiy-uyg‘uriy yozuv bo‘lgan. Mo‘g‘ullar ham mazkur yozuvni qabul qilgan. Biroq XIV asrga kelib, mo‘g‘ullarning to‘la-to‘kis islom diniga o‘tganligi sababli ta’lim-tarbiya tizimidan turkiy til asta-sekin siqib chiqarilgan. Mo‘g‘ullar o‘zlarining tillarini mahalliy turkiy xalqqa o‘rgata olmas edilar. Buning uchun ularning madaniy saviyalari va savodxonlik darajalari yetarli emas edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, mo‘g‘ullar mahalliy turkiy yozuvlar va tillar mavqeyining o‘sib borishiga to‘sqinlik qilgan. Ular ta’lim-tarbiya tizimida nomo‘g‘uliy va noturkiy tilning ommalashishiga yo‘l ochgan edilar.

Temuriylar davrida ona (o‘zbek) tilida ta’lim. Temuriylar davriga kelib ta’lim-tarbiya tizimining asosiy mafkurasi islom dini, tili va yozuvi arabcha hamda forscha bo‘lganligidan dalolat beruvchi ko‘plab dalillar mavjud.[35] Bu sohada shubhasizki, Mir Alisher Navoiyning o‘zi o‘qigan maktabi haqidagi xotiralari eng aniq manba sifatida qayd etilishi zarur. Mir Alisher Navoiy o‘z davri maktablari, undagi mashg‘ulot mavzularini (saboqlarni) shunday eslaydi:

“Yodima mundoq kelur bu mojaro,
Kim tufuliyat chog‘i maktab aro,
Kim chekar atfol marhumi zabun,
Har tarafdin bir sabaq zabtig‘a un.
Emgonurlar chun sabaq ozoridin,
Yo “Kalomulloh”ning takroridin.
Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘qiturkim ravon bo‘lsun savod.
Nasrdin ba’zi o‘qur ham doston,
Bu “Guliston” yanglig‘-u ul “Bo‘ston”.
Menga ul holatda tab’i bulhavas,
“Mantiqut-tayr” aylab erdi multamas”.

[35]Абдуллаев Ф.А. XV аср адабий тилининг диалектал асослари // Навоий 2. ва адабий таъсир масалалари. – Т.: 1968.; Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995.; Навоий А. Муҳокаматул луғатайн. 15 томлик. 14-том. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабий нашриёт, 1967.

…Zavq ko‘p xushhol etar erdi meni,

Sharhi oning lol etar erdi meni».[36]

Mir Alisher Navoiyning yuqoridagi zikrlarida ta’limning 4 mavzusi – 1) “Kalomulloh” takrori; 2) “Guliston”; 3) “Bo‘ston”; 4) “Mantiqut-tayr” – e’tirof etilganki, ulardan “Kalomulloh” arabcha, qolgan uch asar fors tilida yozilgan.

Biroq Sayfi Saroyining “Gulistoni bit turkiy” asari o‘sha davrda maktab dasturining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan Sa’diy “Guliston”ining turkiy tildagi sharhi edi. “Guliston”ning turkiy tildagi sharhi turkiy tilda ta’lim oladigan yoshlarning bu asarni o‘z ona tillarida o‘qishlari uchun imkoniyat yaratgan edi.

O‘sha davrdagi eski maktablar ta’lim berish usuliga qarab ikkiga bo‘lingan: 1) faqat oqishni o‘rgatgan maktabxonalar; 2) o‘qish va yozishni o‘rgatgan maktabxonalar.

Demak, islom dinining jamiyatni boshqaruvchilik, idora etuvchilik mavqeyini nazarda tutgan holda birinchi turdagi maktablarda o‘qigan bolalarning shariat qoidalarini o‘zlashtirib, “Qur`on” suralarini o‘qiy oladigan, yoddan ayta oladigan, shu yo‘nalishda o‘z fikrlarini ifoda eta oladigan darajaga erishuvlarining o‘ziyoq bu turdagi maktablarda ona tilidagi ta’lim ozmi, ko‘pmi darajada muvaffaqiyatlar omili bo‘lganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Ham o‘qish, ham yozishni o‘rgatadigan maktabxonalarda bolalar “So‘fi Olloyor”ni, ba’zan “Xo‘ja Hofiz”ni o‘qishni boshlaganlaridan so‘ng yozishga ham o‘rgatila boshlangan.

Yozishga o‘rgatish quyidagi usullar orqali amalga oshirilgan:

–mufradod (harflarni berilgan namunaga qarab katta-katta yozish);

–murakkabod (harflarni bir-biriga qo‘shib yozish);

–mukattaot (bayt, qit’a va ruboiylarni ko‘chirib yozish).[37] Uzoq vaqt davom etadigan bu mashqlar insho, duoyi salom xati va boshqa turli aloqa xatlari yozishni o‘rgana olish darajasiga yetish bilan tugallangan, husnixatga esa alohida e’tibor berilgan.

---

[36] Навоий А. Лисонут тайр. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – 258-б.

[37] Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. –Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1960. –15-70-b.

Albatta, eski maktablar faoliyati uchun davlat boshqaruvi tomonidan yagona izchil tizimning o‘rnatilmaganligi bois barcha maktablarda ham kutilgan natijaga birdek erishilmagan. Lekin ta’lim oluvchi bolaning faoliyatida xat ko‘rinishida (bu ko‘proq ularning mirzalik faoliyatida o‘z aksini topgan) bo‘lsa-da, o‘z fikrini yozma bayon qila olish malaka va ko‘nikmasini shakllantirishga urinish eski maktabning ona tilida olib borilgan ta’lim tizimida hozirgi kunda amalda bo‘lgan ona tili ta’limi maqsadining ayrim elementlari u yoki bu shaklda amalda bo‘lganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Ona tili ta’limidan ko‘zlangan ta’lim oluvchining savodxonligini ta’minlash, uning to‘g‘ri talaffuz, imlo, qiroat, husnixat bo‘yicha bilim va malakalarini takomillashtirish kabi maqsadlar ona tilida ta’lim olib borgan eski maktablarning ish faoliyatida voqealanishiga erishish, imkon darajasida bu tizimga ko‘mak berish jamiyat ilg‘or fikrli ziyolilarining hamisha diqqat markazida bo‘lgan.

Temuriylar davrida turkiy til mavqeyi yana ko‘tarildi.[38] Temuriylarning ko‘pchiligi o‘z asarlarini turkiy tilda yozganligi fikrimizni dalillaydi. Chunonchi, Amir Temur tomonidan yaratilib, bizgacha etib kelgan yagona asar “Temur tuzuklari” mutaxassislar A.A.Semyonov, Ch.Re, E.G.Braun hamda boshqalarning so‘zlariga qaraganda turkiy tilda yozilgan va nusxasi Yaman hokimi Ja’far poshshoning kutubxonasida saqlangan. Mir Abu Tolib al-Husaniy at-Turbatiyning forscha tarjimasi ana shunday turkiycha nusxalardan biriga asoslangan edi.[39] Hazrat Alisher Navoiyning temuriylar davrida yetishib chiqqanligi va ular himoyasida o‘z asarlarini turkiy tilda yaratganligi ham, Husayn Boyqaroning turkiy tilda asarlar yozish to‘g‘risidagi farmoni ham o‘sha davr hukmdorlarining mazkur tilga munosabatini yaqqol tasdiqlaydi. Fikrimizning dalili sifati Zahriddin Muhammad Bobur tomonidan turkiy tilda yaratilgan durdona asarlarni ham eslatib o‘tishimiz o‘rinlidir.

XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida o‘zbek (ona) tilida ta’lim. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida turkiy tilda ta’lim berish masalasi dolzarb muammo

[38] Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили.–Т.: Ғ.Ғулом, 1972.
[39] Темур тузуклари (Алихон Соғуний таржимаси).–Т.: Ғ. Ғулом, 1991.– 6-7-б.

sifatida ko‘tarildi. Bu sohada Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon alohida tashabbus ko‘rsatdi. O‘z davrining madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan Abulg‘ozi Bahodirxon XVII asrning dastlabki choragida hukmronlik qilgan, fors-tojik, arab, mo‘g‘ul tillarini yaxshi bilgan. Undan bizgacha meros qolgan “Shajarayi tarokima” (taxminan 1658-1661-yillarda yozilgan) va “Shajarayi turk” (1663-1653-yillarda yozilgan) asarlari tarixiy mavzudadir. Uning turkiy tilga bo‘lgan munosabati mazkur har ikkala asarda ham o‘z ifodasini topgan. Abulg‘ozi Bahodirxon ajdodlari tarixini sevgan turkman elati vakillari iltimosiga ko‘ra yozilgan har ikkala asarini omma tushunadigan tilda va ommabop uslubda yozishga erishgan. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: “Barcha bilingkim, bizdan burun turkiy tarix aytqonlar arabiy lug‘atlarni qo‘shib tururlar va turkiyni ham saj’ qilib tururlar o‘zlarining hunarlari va ustozlarini xalqqa ma’lum qilmoq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduk aning uchunkim, bu kitobni o‘qug‘uchi va tinglag‘uchi turk bo‘lg‘usi turur. Bas, ***turklarg‘a turkona aytmoq kerak*** to alarning barchasi fahm qilg‘aylar, bizning aytg‘an so‘zimizni bilmasalar andin ne hosil?”[40]

Darhaqiqat, Abulg‘ozi Bahodirxon yashagan davrga kelib, “chig‘atoy tili” nomi bilan yuritilgan turk (o‘zbek) adabiy tili g‘oyatda murakkablashgan bo‘lib, uni tushunish tahsil oluvchilar uchun bir qadar mushkul edi. U o‘zining oddiy, sodda bayon etish uslubini dabdabali chig‘atoy tili uslubiga qarama-qarshi qo‘yadi va yuqoridagi “Shajarayi turk”dan keltirilgan parchada turklarga “turkona aytmoq kerak”ligini alohida ta’kidlaydi.

“Shajarayi turk”da shunday yozadi: “…Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun teb turkiy til birlan aytdum. Turkiy ham andoq aytubmankim, besh yashar o‘g‘lon tushunar. Bir kalima chig‘atoy turkisidin va forsiydin va arabiydin qo‘shmayman, ravshan bo‘lsun teb”.[41] Ushbu parcha yana shundan dalolat beradiki, keng qamrovli bilim va faoliyat sohibi bo‘lgan Abulg‘ozi Bahodirxon ona tilining tozaligi, tiniqligi, barcha yoshdagi kishilar uchun tushunarli bo‘lishi uchun

[40] Абулғозий Б. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1995.– 4-б.
[41] Абулғозий Б. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1995.– 35-b.

harakat qilgan. Chunki turkiy tilda ta'lim berishga yo‘naltirilgan o‘quv vositalarini yaratish zarurati XVII-XVIII asrlarda ko‘proq sezila boshlagan.

Turkiy tilda ta'lim beriladigan maktablar uchun dastlabki o‘quv vositasi bo‘lgan "So‘fi Olloyor" nomi bilan ommalashgan asarni Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston (hozirgi Uyg‘ur muxtoriyati), Eron, Afg‘oniston, Kavkazdagi turkiyzabon bolalar XVIII asrning o‘rtalaridan XX asr boshlarigacha o‘qib kelgan.[42] Ko‘rinib turibdiki, bu mashhur kitob, ya'ni darslik turkiy xalqlar iltimosi va talabi asosida yaratilgan. Bu asarni muallif "ijmol", ya'ni qisqartirish, ixcham bayon etish usuli bilan yozgan va forsiy tilda ("Maslakul mudtaqin") yigirma to‘rt ming misralik mazmunni taxminan to‘rt ming misradan iborat bo‘lgan "Sabotul ojizin"da mujassamlashtirgan. "Sabotul ojizin", agar uning muallifini 1720-yillarda vafot etganligini nazarda tutsak, XVII asrning oxiri yoki XVIII asrning boshlarida yozilgan. Kitob islomiy axloq, adab, farz, vojib, sunnat, mustaxab, muboh, harom, makruh, munkir kabi amallarning sharhi, tasavvuf tariqati asoslari bayoni, shu masalalarga oid pand-nasihat va ibratomuz hikoya hamda rivoyatlardan iborat. Muallif bu asarda sharqda keng tarqalgan uslub va tarkibni saqlab qolgan. Dastlab savol, so‘ngra masala bayoni, keyin ibratomuz hikoya hamda rivoyatlar keltirilgan. Kitob har bir shaxs bilishi va amal qilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy masalalarni qamrab olgan. Asar keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, unda hozirgi didaktik talablarga ko‘ra, o‘quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlari hisobga olinmagan. Asarning tili g‘oyat murakkab, arabcha-forscha so‘zlar miqdori juda ko‘p. Shunga ko‘ra bu kitobdan sharhsiz, lug‘atsiz foydalanish juda qiyin. Mazkur qiyinchiliklar nazarda tutilib "Sabotul ojizin"ga sharhlar yozilgan. Ulardan biri Tojiddin Yolchiqulning "Risolayi Aziza"[43] asari (kitob Tojiddin Yolchiqul o‘g‘lining iltimosi asosida yozilganligi sababli shunday nomlangan) va ikkinchisi Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon al Farg‘oniy al Qobuliy qalamiga mansub "Hidoyatut-tolibin" asaridir. Har ikkala sharh ham

---

[42] Зоҳидов Р. «Сабот ул-ожизин» асари лексикаси. –Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: ТАИ, 2001.; Иванов С.Н. Родословное древотюрок Абу-л-газихана (Грамматический очерк). – Т.: Фан, 1969.

[43] Рисолайи Азиза ("Саботул ожизин" шарҳи). (Тузувчи: Ботирбек Ҳасан. Муҳаррирлар: Рустамов А., Обидов Р.). – Т.: Мерос, 2000. – 265 б.

“Sabotul ojizin”ning tushunarli bo‘lishini ta’minlash maqsadida yozilgan. Bunday sharhlarning mavjudligi turkiy tilda ta’lim berish tizimi, uning maqsadi muntazam rivojlanib borganligini tasdiqlovchi dalildir. “Sabotul ojizin”ning keng ommalashishi, uning hozirgi kunda ham ma’lum va mashhur bo‘lgan o‘nlab toshbosma nashr namunalari, yuzlab qo‘lyozma nusxalarining XVIII asrda keng ommalashganligini ko‘rsatadi.

Fikrimizni isbotlaydigan muhim dalillardan yana biri islomiy-ibtidoiy maktabda o‘qish (harflarni tanish va ularni qo‘shib o‘qish) mahoratini egallagan (hozirgi taxminan II sinf darajasidagi savodlilik malakasiga ega bo‘lgan) bolalar uchun zaruriy bo‘lgan “Farzi ayn” (“Eng muhim farzlar”)ning turkiy tilga tarjimasi va “Farzi ayni turkiy”ning ham juda ko‘plab qo‘lyozma hamda toshbosmalarda yetib kelganligidir. Besh islomiy farzning bayonini o‘z ichiga olgan bu kitob juda ko‘p hollarda ikki tilda ikki qismga ajratilib, bir kitob shaklida – 1) “Farzi ayni turkiy” va 2) “Farzi ayni forsiy” sifatida chop etilgan. Bugungi kunda XIX-XX asrlarda tarjima qilingan deb taxmin etilayotgan “Chor kitobi turkiy” ham XIX asrdan oldingi davrga, ya’ni XVIII asr o‘rtalari (yoki oxirlari)ga mansubdir. “Chor kitob” XIV asrdan XX asrning boshlarigacha ta’lim fors-tojik tilida amalga oshiriladigan barcha ikkinchi bosqich (ibtidoiy) maktablarning “Farzi ayn”dan keyin o‘rganiladigan darslik darajasidagi kitobi bo‘lib, Xitoydan Xurosongacha, Markaziy Osiyodan Rumgacha keng amalda bo‘lgan. Forsiy tilda amalga oshiriladigan ta’limning asosiy vositalari hisoblangan kitoblarning turkiy tilga o‘girilishi XVIII asrda ta’lim muassasalarida turkiy tilning o‘qitilganini va uning mavqeyi keskin oshganligini ko‘rsatadi.

Ta’lim fors tilida amalga oshiriladigan maktablarda qo‘llanilgan kitoblarning o‘zbek tiliga o‘girilishi va ularning keng ommalashishidan keyingi bosqich, shubhasizki, o‘zbekcha darsliklar yaratish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatdi. Bu ishni birinchi bo‘lib Shermuhammad Munis Xorazmiy amalga oshirdi. Munis Xorazmiyning pedagogikaga oid “Savodi ta’lim” risolasi bizgacha yetib kelgan. 1804-yilda yozilgan mazkur asar (“Risolayi savod” deb ham yuritilgan) she’riy tarzda bitilgan bo‘lib, talabalarga husnixat qoidalarini o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Didaktik xarakterdagi bu asar o‘sha davr ta’lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shoir asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli o‘quv anjomlari xususida fikr yuritadi. Ikkinchi qismida esa darslik xat mashqi va uning usuli to‘g‘risida amaliy yo‘sinda ta’lim beradi. Yozuvning ahamiyatini anglash, insonlarni rostgo‘y, bilimli, shirinso‘z, savodli bo‘lishga undaydi. Munisning “Savodi ta’lim” asari ham turkiyzabon aholi talabiga ko‘ra yozilgan. Kitobning ta’lim ahliga qaratilganligi bunday qo‘llanmalarga talabgorlar soni ko‘pligidan dalolat beradi.

Demak, turkiy tilda ta’lim berishga asoslangan o‘qitish tizimi uzoq tarixga ega bo‘lib, biz bilvosita va bevosita ma’lumotlarga tayangan holda ayta olamizki, turkiy ta’lim-tarbiya tizimi O‘rxun-Enasoy yodgorliklari davridan toki hozirgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu tizim zanjiri tarix suronlarining ba’zi davrlarida susaygan, ba’zi davrlarida kuchaygan, ammo uzilgan emas.

Jadidchilik harakati davrida o‘zbek (ona) tilida ta’lim. Jadidlarning millat tili va ta’lim tiliga munosabati madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, sof islomiy mafkuradan farqli o‘laroq ular millat tili va ta’lim tili birligini ko‘zlar edilar; millat ta’limni o‘z ona tilida olmog‘i lozim. Zero, islomda rasmiy-ta’limiy til sifatida “Qur’on” tili, ya’ni arab tili asosiy sanalar edi. Shunga ko‘ra, ibtidoiy ta’limning ilk bosqichi – taxtacha – abjad – “Haftiyak” qismlari “Qur’on”ni to‘g‘ri o‘qiy olish malakasini shakllantirishga qaratilgan edi. Ikkinchidan, jadidlar ta’limning islomiyligiga qarshi emas edilar, biroq uning ilk bosqichini “Qur’on”ni o‘qish malakalarinigina hosil qilinishiga qarshi edilar.

Shuning uchun Abdulla Avloniy “Birinchi muallim” kitobi (darsligi)ning so‘z boshisida shunday yozadi: “Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning “Birinchi muallim»imizdan ham olub, tajriba qilub, o‘qutub ko‘rsalar…”[44] Ko‘rinib turibdiki, ustoz Avloniy bolalar taxtacha – abjad – “Haftiyak” o‘rnida dunyoviy-axloqiy-tarbiyaviy mohiyatga ega bo‘lgan “Birinchi muallim” kitobini o‘rganishlarini tajriba qilib ko‘rishni ehtiyotkorlik bilan taklif etadi. Birinchi nashri

[44]Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов.) – Т.: Маънавият, 1998.– 6-b.

1912-yilda amalga oshirilgan “Birinchi muallim” kitobida oddiydan murakkabga borish tamoyiliga qat’iy amal qilinadi. Dastlab harflar alifbo tartibida keltiriladi, so‘ngra navbati bilan qaysi o‘rinda qanday yozilishi va ularga oid ixcham, sodda misollar beriladi. Bosh harflar, o‘rta, oxir harflar tushuntiriladi, nihoyat, pand-nasihat tarzidagi ibrotomuz matnlarga o‘tiladi.

O‘sha davrda jadidlar ta’lim tilini to‘la-to‘kis turkiy(ona)lashtirish taklifini o‘ta jur’atsizlik bilan ko‘tarib chiqdilar. Ular ta’lim ona tilida bo‘lishini talab etsalar-da, ta’lim tizimidan fors va arab tillarini chetlashtirish taklifiga jur’at qila olmas edilar. Chunonchi, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yilda yozgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida shunday yozadi:”Biz turkistoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozumdur”.[45] Ushbu maqolada Behbudiy bu tillardan har birining ta’lim tizimida tutgan o‘rnini alohida ochib beradi.

Ta’lim tili to‘g‘risida jadidlarning ilk ibtidoiy maktab tili bolalarning ona tiliga asoslanishi kerakligi haqidagi mushtarak fikri Saidrasul Aziziyning ”Ustozi avval” (1900), Munavvar qori Abdurashidovning “Adibi avval” (1907), Behbudiyning “Kitobi muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiy” (1906), “Kitobatul-atfol” (1908), Hamzaning “Yengil adabiyot” (1911), “O‘qish kitobi” (1911), “Qiroat kitobi” (1912), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” (1912), “Ikkinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yohud axloq” (1913), “Maktab gulistoni” (1917), Elbekning “O‘zbekcha o‘qish” (1922) kabi kitob (darslik)larida o‘z aksini topdi.

Jadidlarning ta’limni ona tilida bo‘lishi (hech bo‘lmasa boshlanishi) to‘g‘risidagi fikrlari yakdilona bo‘lsa-da, ona tilining, millat tilining qandayligi masalasida ularning dunyoqarashida katta tafovutlar bor edi. Bu masala qisman M.Qurbonova, Y.Saidov, T.Tog‘ayev, Sh.Bobomurodova[46] kabi olimlarning ishlarida tahlilga tortilgan.

---

[45] Беҳбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). – Т.: Маънавият, 1997.–160-b.

[46] Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Фил.фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1993.; Саидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Фил.фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: ТАИ, 2001.; Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. Фил.фанлари номзоди дисс. автореф.–Т.: ТАИ, 2005.; Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли. Филол. фанлари ном.дисс. автореф. – Т.: 2001.

1913-1917-yillarda ko‘pgina jurnal va gazetalarda, chunonchi, “Sadoyi Turkiston” gazetasi, “Oyna” jurnalida “Til masalasi” bo‘limi (rubrikasi) mavjud bo‘lib, bu bo‘limda til, atamashunoslik, imlo muammolariga doir maqolalar joylashtirilar edi. Jadidlarning tilga bag‘ishlangan maqolalari ko‘p. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” (1913), “Til masalasi” (1915), “Sart so‘zi majhuldir”, “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” (1916), Fitratning “Tilimiz” (1919) kabi maqolalari shular jumlasidandir. Bu maqolalar, asosan, o‘zbek (turkiy) tilning asossiz xo‘rlanganligi, toptalganligidan chekilgan afsus va nadomatlardan iborat. Behbudiyning “Til masalasi” maqolasi bir oz farqli. Ikki qismdan iborat bu maqolaning “Oyna” jurnalining 1915-yil 11-sonida bosilgan birinchi qismida turkiy tillarning sheva va lahjalari, Turkistonda turkiy va forsiy – ikki tillilik masalasi yoritilgan. Maqolaning ”Oyna” jurnalining 12-sonida bosilgan ikkinchi qismida esa Turkiston uchun umumiy, milliy-adabiy til masalasi, jumladan, ta’lim tili masalasi qo‘yiladi. Muallif 1910-1915-yillarda jadid matbuoti sahifasida hukmron bo‘lgan “Tilimizdan forsiy va arabiyni quvayluk” shiorini “Ko‘p yengil, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur” deb baholaydi[47] va butun Turkiston mintaqasi uchun yagona adabiy til yaratish mumkin emasligini ta’kidlab: “…baqadri imkon oz adabiy va forsiy, oddiy turkiy lug‘at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdin boshqa iloj yo‘qdur”, degan g‘oyani ilgari suradi. Behbudiy fikricha, Turkistonda yagona ona tilini ta’lim tizimiga joriy etishdan oldin, onalarimizning o‘zlari bir necha avlod davomida me’yorlashtirilgan adabiy tilda o‘qitilgan bo‘lmog‘i lozim.

Jadidlarning yakdilona fikricha, ta’lim tili turkiy bo‘lmog‘i lozim, biroq turkiy tushunchasi, uning mohiyati aniq emas edi. Juda ko‘p hollarda “turkiy” deganda jadidlar Ismoil G‘aspirali tomonidan tashkil etilgan “Tarjumon” (nashri 1883-yil 10-apreldan boshlangan) gazetasining qrim-tatar, turk-usmonlicha aralashmasidan iborat bo‘lgan “til”i tushunilar edi. Ismoil G‘aspiralining jadidlarga, xususan, Rossiyadagi turkiyzabon jadidlarga ta’siri juda kuchli edi. Bu haqda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ismoilbek hazratlari” (vafotnomasi)da:

[47] Беҳбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). – Т.: Маънавият, 1997.–167-b.

“Shundayki, bu kunda Russiya musulmonlari ichinda har bir muallim va har usuli savtiya maktablarining shogirdi va har bir jaridaxon va har bir jarida muharriri marhumning bilvosita shogirdonidandurlar. Ya’ni ustozi muazzamning bu kun Russiya musulmonlari arosinda milyo‘nlar ila ulamodan muharririn va muallimindan va o‘quvchilardan shogirdi bordur. Ham qanday shogird! O‘ttiz sanadan beri doimo onga dars o‘qiydurg‘on shogirdlardur”[48] deb Ismoil G‘aspiralining jadid adiblari va ma’rifatparvarlari asarlari tiliga kuchli ta’sirini ko‘rsatadi. O‘sha davrda jadidlarning kattagina qismi Turkiyada ta’lim olganligining ham bunga ta’siri sezildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham o‘z maqolalarida turkiy til deganda, asosan, o‘zbekcha-turkiy – usmonlicha aralashma tilini tushunadi: “…turkiy bilinglar, deb yozadi Behbudiy, Firdavsiy, Bedil, Sa’diy “Masnaviy”dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Samoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto‘y, Jul Vern va ulamoyi zamonaviy asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur.”[49] Bu sirada sanalgan Fuzuliy, Navoiydan boshqa adiblarning barchalarining asarlari usmonli turk tilida yozilgan yoki asarlari usmonlicha-turkka tarjima qilingan yozuvchilar edi.

Jadid ma’rifatparvar adiblarining, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza, Munavvar Qorilarning 1910-1917-yillarda yozgan maktab ta’limiga mo‘ljallangan (nomlari yuqorida sanab o‘tilgan) darsliklarini til jihatidan tahlil etganimizda qiziq hodisaning guvohi bo‘lamiz. Mazkur asarlarning muqaddimalari usmonlicha-o‘zbekcha turkiy (aniqrog‘i “Tarjumon” gazetasi nutqi me’yorlariga mos) bo‘lsa, berilgan matnlar, ibratli hikoyalar, she’rlar va boshqa asosiy o‘quv materiallarining tili eski o‘zbek tili ta’siri sezilib turgan hozirgi o‘zbekcha turkiydir. Jadidlar to‘la anglamagan holda Ismoil G‘aspirali ilgari surgan, Turkiyada Anvar, Rif’at, Tal’at uchligi targ‘ib etgan “umumturk adabiy tili” g‘oyasi o‘zbeklar uchun yot ekanligini tushunganlar, “Muqaddima”larida, maqolalarida bu sun’iy tilga tayanishga harakat qilgan bo‘lsalar-da, haqiqatda

[48]Беҳбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). – Т.: Маънавият, 1997.–163-164-b.
[49]Беҳбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). – Т.: Маънавият, 1997.–161-b.

asosiy tahlil va o‘rganishga mo‘ljallangan matnlarni o‘zbek adiblarining an’analari hamda mahalliy shevalariga tayangan holda yozganlar.

Jadidlarda ona tili ta’limi, ta’lim tilining nomlanishi ham yakdillikka ega emas edi. Mazkur tilni ular, asosan, “turkiy” deb ataydilar va birinchi bo‘lib 1913-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan til nomi sifatida “o‘zbekiy” so‘zi turkiy so‘zining ma’nodoshi sifatida qo‘llanilgan: “Turkiy, ya’ni o‘zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o‘zbekiy so‘ylashur”.[50]

Hamza ham o‘zbek tili deganda hozirgi jonli so‘zlashuv shevalariga yaqin bo‘lgan tilni nazarda tutadi: “…Haqiqatda qasdan o‘zbek tilida ekan, biz o‘zbek tiliga yaqinlashdurmoqg‘a kirishdik. Bu to‘g‘rilarda qusurlarimiza avlarim rijo va niyoz etarmiz”.[51] Zero, 1910-1920-yillarda hozirgi O‘zbekiston mintaqasining rasmiy mintaqaviy nomi (Turkistonmi, Turonmi, Movaraunnahrmi), xalqning nomlanishi (sortmi, sartmi, o‘zbekmi, turkistoniymi, turkiymi va b.) hamda tilning nomi munozarali va rasmiylashmagan edi.

Jadidlar maktab ta’limining tili ona tili – o‘zbekiy-turkiy til bo‘lishi g‘oyasini, uning keng o‘quvchilar ommasiga tushunarli bo‘lishini targ‘ib etganlar va o‘z amaliyotlarida shunga tayanib ish ko‘rganlar. Jadidlar nazariy jihatdan sun’iy umumturk tilini targ‘ib etganday bo‘lsalar-da, amaliyotda undan o‘z asarlarining muqaddimalari va jadidona kayfiyatdagi gazeta, jurnallardan tashqarida foydalanmaganlar. Jadidlarning sa’y-harakati bilan ma’rifiy-pedagogik adabiyotga “o‘zbekiy”, “o‘zbekcha”,“o‘zbek tili” atamalari ham kirib kela boshladi. Biroq jadidlar ta’lim tizimida ona tilini o‘quv predmeti sifatida maxsus o‘qitish vazifasini hali o‘rtaga qo‘ymaydilar, ammo ular adabiy til me’yorlarini onalarga o‘qitmoq zarurligi muammosini ko‘tarib chiqadilar.

Ta’limni dunyoviylashtirish yo‘nalishida jadidlarning xizmati o‘zbek madaniyati tarixida inqilobiydir. O‘sha davrda hali hozirgi O‘zbekiston Rossiya tarkibidagi Turkiston general gubernatorligi Rossiya yarim mustamlakasi bo‘lgan Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda uning qarami bo‘lgan Buxoro amirliklariga

[50]БехбудийМ. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). – Т.: Маънавият, 1997.–160-b.
[51]Ҳамза. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. Т. II. (Масъул муҳаррир Н.Каримов ва б.) – Т.: Фан, 1988.–68-b.

bo‘lingan bo‘lsa-da, jadidchilikning ta’lim tili va mazmuni, usuli Markaziy Osiyo bo‘ylab deyarli bir xil yo‘nalishda edi. Hozirgi O‘zbekiston mintaqasidagi maktablarda dunyoviy-ma’rifiy ta’limni ona tilida yo‘lga qo‘yishda, zamonaviy ta’lim usullarini ommalashishida, ona tilida imlo, talaffuz va qiroatni yo‘lga qo‘yishda jadidchilik harakatining ijobiy ta’siri sezilarli bo‘ldi. Biroq jadidlar ilmiy-nazariy jihatdan ham, iqtisodiy-siyosiy jihatdan ham, hududiy-mintaqaviy jihatdan ham o‘ta chegaralangan bo‘lganligi sababli yagona milliy davlat, yagona milliy adabiy til, yagona milliy ta’lim tizimi va uning tili masalalarini kun tartibiga qo‘yishdan nariga o‘ta olmadilar.

Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlardan biri shuki, o‘lkada savodsizlik va chalasavodlikni tugatish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borildi. Mazkur ishlar O‘zbekistonda arab yozuvidan lotin harflariga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tish bilan yanada murakkab tus oldi. Lotin harflariga asoslangan o‘zbek alifbosini yaratish yo‘lidagi harakatlar esa ancha avvalroq – 1920-yillarda boshlangan edi. Bu haqda Y.Abdullayev shunday yozadi :“Turkiston Respublikasi Xalq maorif komissari Sultonbek Xo‘janov Ozarbayjon-turk yangi alifbo qo‘mitasidan 1922-yilning 5-dekabrida xat oldi. Bu xatda Ozarbayjon Markaziy Ijroiya Qo‘mitasida “Turk yangi alifbo” qo‘mitasi ishlab turganligi, qumitaning maqsadi amaldagi arab alifbosini lotin alifbosi bilan almashtirish g‘oyasini ommalashtirish va bu ishni turkiy xalqlarning hayotiga joriy qilish ekanligi, qo‘mita o‘z nashrlarini yuborib, turkiy xalqlarning muvaffaqiyatga erishuvida muhim va o‘ta jiddiy hisoblangan bu ishga maorif komissarligining diqqatini jalb qilishni va qo‘mita tayyorlagan yangi alifbo loyihasi hamda arab alifbosini lotin alifbosi bilan almashtirish g‘oyasi yuzasidan fikr bildirish so‘ralgan edi.

Mahmud Hodiyev – Botu rahbarligida lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini yaratish bo‘yicha 1921-yildan boshlangan harakatlar amaliy tus ola boshlaydi.Yangi tuzilgan alifbo bir necha bor muhokamadan o‘tkazildi. Maktablarda yangi alifboga o‘tkazish 1927-28-o‘quv yilidan boshlanib,1929-30-o‘quv yilida tugallangan, davlat idoralarida 1928-1930-yilda o‘tilgan. 1930-yildan boshlab lotin alifbosi yangi tuzatish va to‘ldirishlar bilan boyitib borilgan.

Jumladan, 1934-yilgi imlo va adabiy til yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy konferensiyada “yo‘g‘onlik va ingichkalik” tamoyilidan voz kechilgan, bu bilan o‘zbek imlosi tarixida yangi bosqich davri boshlangan. Ammo mazkur ilmiy anjumanda ham o‘zbek tilida ***o*** lovchi va ***a***lovchi mahalliy shevalar bor deb [o] va [a] fonemalari uchun bir harf, ya’ni a qoldirilgan, natijada ***bola*** so‘zi ***bala***, ***lola*** so‘zi ***lala***, ***non*** so‘zi ***nan*** shaklida yozila boshlangan. Bu holat so‘zlarning talaffuzida qiyinchilik tug‘dirib qolmay, savodxonlikka ham ta’sir ko‘rsatgan. Ta’lim-tarbiya ishida qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘dirgan. Shunday qilib, O‘zbekistonda arab yozuvidan lotin harfiga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tish ishi katta tayyorgarlik bilan 1930-yilning birinchi yarmida to‘liq amalga oshirilgan.Barcha shahar va qishloqlarda yangi alifboni o‘rgatish yuzasidan 50 soatga mo‘ljallangan kurslar tashkil qilingan.[52]

Sovet tuzumi davrida o‘zbek (ona) tili ta’limi.XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida butun dunyoning rivojlangan davlatlari ta’lim muassasalarida ona tili maxsus o‘quv predmeti sifatida o‘qitila boshladi. Buning asosiy sababi Yevropa davlatlarida feodal tarqoqlikka barham berish, kichik-kichik manufakturalardan katta sanoat ishlab chiqarishga o‘tish davrida ishlab chiqaruvchilar nutqida shevaviy farq va tafovutlarni yo‘qotish, ularda bir-birlarini bir xil tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish zaruratining kelib chiqqanligidadir; ulkan sanoat korxonalari, ulardagi texnik vositalar ishlab chiqaruvchilarni mahalliy-hududiy shevalarida emas, balki butun millat (xalq, davlat) uchun umumiy bo‘lgan tilda – qat’iy me’yorlashgan adabiy tilda so‘zlashishni, yozishni talab qilardi. Mana shu ehtiyoj ta’lim o‘choqlarida ona tilini maxsus o‘quv predmeti sifatida ***o‘rganish*** va ***o‘rgatish*** zaruratini o‘rtaga qo‘ydi.

Sovet davridan hozirgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitish jarayonini uch davrga ajratish o‘rinlidir. Bular:

1) adabiy me’yorlarni singdirish davri (1925-1970-yillar);

2) nutq (og‘zaki va yozma)ni rivojlantirish davri (1920-1980-yillar);

3) ijodiy tafakkurni rivojlantirish davri (1999-yildan boshlab hozirgacha).

[52]Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. –Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1960. –17-19-b.

Har bir davr xususiyatlari xususida alohida to‘xtalamiz.

Adabiy me’yorlarni singdirish davri (1925-1970-yillar). XX asrning boshlarigacha ta’lim muassasalarida (ibtidoiy maktablarda) o‘zbek tili me’yorlari, asosan, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor, Mashrab, Huvaydo asarlari asosida o‘rgatilar ediki, bunday asarlar keng omma tilidan juda uzoq edi. XX asrning boshlarida nafaqat O‘zbekistonda, balki yangicha taraqqiyot yo‘liga o‘tgan juda ko‘p davlatlarda zamonaviy milliylik muammosi ko‘ndalang turardi.[53] Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy bu haqda shunday yozadi: “Sodda til nima uchun kerak? Atrofingdagi qavm-u qarindoshing bilan so‘zlashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimag‘a kerak? Mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan faydalanmoq uchun. Endi bizg‘a, lozimki, atrof, ya’ni tevaragimizni adabiylashtirsak…”[54] Millatni adabiy til bilan birlashtirish, shevaviy farqlarni yo‘qotish juda ulkan va qiyin, lekin o‘ta zarur ish ekanligini taraqqiyparvar adib o‘sha davrdayoq (1915-yilda) uqqan va u kuyinib yozgan edi: “Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va faniy kitoblarni anglamoqg‘a sa’y va harakat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas. “Ona tili, ona tili”– bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tilig‘a maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdur. Taraqqiy etgan millatlar onalarni o‘qutar ekan, biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur”.[55] Mana shu vazifa – “onamizni o‘qutib, anga o‘rgatmoq” – ta’lim o‘choqlarida ona tilini maxsus o‘quv predmeti qilib kiritishni, uning oldiga o‘ziga xos maxsus maqsadni – adabiy til me’yorlarini singdirish va ommalashtirishni qo‘yishni talab etar edi. Tabiiyki, yangi maqsad yangi mazmun, yangi vositalarni talab etardi.

Bu maqsadga erishishning Yevropa davlatlari tajribasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sinalgan hamda o‘zini oqlagan usuli ona tilining me’yoriy grammatik, imloviy va talaffuziy me’yorlarini maktabda maxsus ta’lim mazmuni

---

[53]Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995.– 5-36-b.
[54]Беҳбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). – Т.: Маънавият, 1997.–169-b.
[55]O‘sha asar.–170-b.

qilib olish edi. Natijada, ona tili ta'limi oldida maxsus xususiy (xat-savod o'rgatishdan boshqa) maqsad – umummilliy til adabiy me'yorlarini o'rgatish va ommalashtirish qo'yilgandi. Shuning uchun XX asr boshlarida bu o'quv predmeti "Ona tili" nomini olgunga qadar (1970-yilgacha) "Grammatika" deb atalar edi. Fikrimizni Abdurauf Fitratning mazkur o'quv predmetidan O'zbekistonimizda 1925-1930-yillarda amalda bo'lgan birinchi darsliklari – "Sarf", "Nahv";[56] 1938-1943-yillarda amaliyotda bo'lgan O.Usmonov, B.Avezov va S.Ferdouslarning, 1943-1956-yillarda amalda bo'lgan A.Barovkov, A.G'ulomov, Z.Ma'rupov, T.Shermuhammedovlar darsliklarining nomlanishi ("O'zbek tili grammatikasi") ham tasdiqlaydi. Ona tili darsliklari orqali ***grammatika*** (ya'ni ona tili grammatikasi) o'rganilar edi va ona tilining maxsus ta'limi oldida adabiy til me'yorlarini ommalashtirish bosh maqsad bo'lgan davrda bu yagona to'g'ri yo'l edi. Shunday yondashilmasa, XX asr boshlarida butun o'lka bo'ylab yagona yangi (zamonaviy) adabiy tilni ommalashtirish mumkin emas edi. Shu yo'lgina (maktabda ona tili darslari orqali ta'lim oluvchiga adabiy til me'yorlarini, unda imlo va talaffuz mezonlarini, ulardan foydalanish madaniyatini singdirish) "Andijonda yozilgani Qarshida anglashilmaydur… binobarin baqadri imkon oz arabiy va forsiy, oddiy turkiy lug'at ila hozirgi shevalarda yoza bermoqdan boshqa iloj yo'qdur" (Behbudiy) degan o'lkada lisoniy butunlikni ta'minlash mumkin emas degan fikrni rad etar va savodxonlik bilan birga butun o'lkada (O'zbekistonda) zamonaviy adabiy milliy tilni keng yoyishga imkon berar edi. Bu usul G'arbiy Yevropa davlatlarining XIX-XX asrlardagi tajribasida o'zini oqlagan, sinalgan usul edi.

Buning ustiga XX asr boshlarida (radio, televidenie bo'lmagan davrda) maktab adabiy til me'yorlarini ommalashtiruvchi yagona manba bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, ona tili maxsus ta'limining grammatik qurilish orqali ta'lim oluvchi nutqini me'yorlashga qaratish yagona to'g'ri yo'l edi.

Ona tilining grammatik qurilishini o'quvchilarga singdirish orqali adabiy me'yorlar yetkazilar, ularda me'yorga muvofiq yozma va og'zaki nutqda qo'llash

[56] Қурбонова М.Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги (Методик қўлланма). – Т.: Университет, 1997.

odatlari shakllantirilar edi. Shu bilan birga ona tilining maxsus ta'limi maqsadi va mazmuni maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari bilan uyg'unlashar edi. Zeroki, ommaviy (umumiy) maktablarda o'qitiladigan ko'pchilik o'quv predmetlari mazmuni o'zlari mansub fan sohasining ilmiy asoslari va yetakchi tushunchalari ta'lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan.[57] Shu nuqtayi nazardan ona tili grammatikasi o'quv predmeti til haqidagi ilm asoslarini, ya'ni tilshunoslikning asosiy tushunchalarini berishga qaratilgan edi. Tabiiyki, tilning fonetik, leksik va grammatik sath birliklari haqidagi ma'lumotlarni shunday nazariy asoslarsiz ta'lim oluvchiga yetkazish mumkin emas. Demak, XX asrning 20-30-yillarida o'zbek tilidan ona tili sifatida maxsus ta'lim oldida ona tili fonetik, leksik va grammatik qurilishining zamonaviy talqini asosida yangi milliy adabiy til me'yorlarini ommalashtirish kabi maqsad juda to'g'ri, davr ehtiyojlari bilan uyg'un ravishda qo'yildi va shuning uchun tez samara berib, 10-15 yil davomida hozirgi o'zbek adabiy tilining respublikada keng amaliyotda bo'lishini va ommalashishini to'liq ta'minlay oldi.

Olim Usmonov, Sodiq Ferdous, Aleksandr Barovkov, Ayyub G'ulomov, Zamir Ma'rupov, To'xtasin Shermuhammedov, Yo'ldosh Abdullayevlarning 1925-1960-yillarda amalda bo'lgan darsliklari va, hatto, Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunlarning "O'zbekcha til saboqlig'i", Ashurali Zohiriyning "Imlo" kabi darslik va qo'llanmalarda fonetik, leksik va grammatik material asosan shu maqsadga– tovushlarning adabiy talaffuzi, adabiy so'z qo'llash va forma yasalishi, imlo va tinish belgilarini to'g'ri qo'llash, gapda so'z tartibi va ohang me'yorlarini ta'lim oluvchiga singdirishga qaratildi. Boshqacha qilib aytganda, ona tilining maxsus o'quv predmeti sifatida ta'lim maqsadi o'z davri talablari va ehtiyojlariga to'la uyg'un edi hamda 1950-1960-yillarda o'z oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma – adabiy til me'yorlarini ommalashtirish masalasini hal etishga ulkan hissa qo'shdi. Mazkur maqsad bilan bog'liq ravishda ***o'zbek tilini maktabda o'qitish metodikasi bo'yicha ilk mustaqil***

[57] Леднев В.С. Содержание общего среднего образования (Проблемы структуры). – М.: Педагогика, 1980.– 106-197-b.

ilmiy tadqiqotlar ham1950-1960-yillarda asosan shu muammoga – shevaviy xatolarni bartaraf etish, adabiy me'yorlarni singdirish va ommalashtirish masalalariga qaratilgan edi. Kamol Xayrullayev, Yo'ldosh Abdullayev, Sulton Tursunov, Qurbonjon Abdurazzoqova, Belgivoy Mirzaahmedov, Karima Qosimova, Ne'mat Ahmedov, Oliya G'afforova, Musharraf Omilxonova, G'ayrat Azizov kabi ilk metodistlarning tadqiqotlari hamda nomzodlik dissertatsiyalari shu yo'nalishda va shu maqsadga bag'ishlangan.[58]

1941-yilda O'zbekistonda yozuv lotin yozuvidan kirill yozuviga ko'chirildi, adabiy til me'yorlari ham nisbatan qat'iylashtirildi va o'zbek maktablari uchun yangi darsliklar yaratish vazifasi kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi.

Shu davrga kelib (1938-yil) rus maktablari uchun Sergey Barxudarovning rus tili buyicha darsligi keng ommalashdi va I.Stalinning bu darslikka bergan yuksak bahosi natijasida rus maktablarida stabillashtirildi. S.Barxudarovning mana shu rus tili darsligi asosida o'zbek maktablari uchun ham darsliklar yaratila boshlandi. Bu davr darsliklarining ilmiy asoslari va ijtimoiy-tarixiy ahamiyati haqida muosir o'zbek tilshunosligining atoqli professori Ayyub G'ulomov, jumladan, shunday yozadi: "С принятием учебника рус. яз. С.Г.Бархударова (1938) в качестве стабильно пособия для рус. школ. Создаются учебники и для узб. средних школ: «Грамматика» (ч.1, «Морфология», 1938, О.Усмонов, Б.Авезов), «Грамматика узбекского языка» (А.Г.Гулямов, З.Магруфов, Т.Шермухамедов), ставшие теореит. базой для дальнейшего изучения норм. языка" (УзСЭ. Узбекская ССР. Т., 1981. стр.349)". (Ya'ni: "Sergey Barxudarovning rus tili maktablari uchun rus tili grammatikasi stabil (barqaror) darslik sifatidaommalashgan (1938) shu darslik asosida o'zbek maktablari uchun

[58] Абдуллаев Й. Мактабда ягона орфография ва нутқ режими. – Т.: ЎзПФИТИ, 1953.; Абдураззоқова Қ. Она тилидан 5-синфларда ўқувчилар фаоллигини ошириш: – Пед. фанлари номз…дисс. афтореф. – Т.: 1964.; Аҳмедов Н. Вопросы повеслования и индувидуального стиля. Автореф. дисс…канд. филол. наук. – Т.: ТАИ, 1974.; Маърупов З., Абдуллаев Й. Синтаксис ва пунктуация машқлари тўплами (I-V нашрлари). – Т. 1952-1956.; Мирзааҳмедов Б. Ўзбек мактабларининг 6-синфларида қўшма сўзларни ўқитиш методикаси. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1965.; Турсунов С. Ўзбек мактабларининг 4-синфларида грамматикани ўқитиш методикаси. Пед. Фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1957.; Хайруллаев К. Бухоро вилояти мактабларининг 5-6-синфларида она тилидан ўқувчиларнинг типик орфографик хатолари ҳамда унинг олдини олиш ва бартараф этиш йўллари. Пед. Фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1957.; Қосимова К. 5-синфларда она тили дарсларида луғат устида ишлаш. Пед. Фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1966.

ham darsliklar yaratildi (A.K.Barovkov, A.G‘ulomov, Z.Ma’rupov, T.Shermuhammedov. O‘zbek tili grammatikasi. I va II qismlar. T.,1943.) Bu darsliklar keyinchalik o‘zbek adabiy tili me’yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.)

Ta’lim tizimini takomillashtirish hukumat ahamiyatiga molik masala tusini oldi. Hukumat Markaziy Komitetining o‘quv programmalari va darsliklari haqidagi 1932-yil 25-avgust hamda 1933-yil 12-fevraldagi qarorlari maktablar uchun stabil darsliklar yaratilishida muhim rol o‘ynadi. 1933-yildan boshlab o‘zbek tili grammatikasi, orfografiyasi, punktuatsiyasi qoidalarini ma’lum izchillikda ta’riflaydigan,o‘quvchilarning adabiy til normalarini egallashiga xizmat qiladigan, ularning ham sinfda, ham uyda muntazam mutolaa etishlariga sharoit va imkoniyat yaratadigan darsliklarni vujudga keltirish ehtiyoji yuzaga kela boshladi. Bunda grammatik tushunchalar, ularning ta’rifi va tavsifi professor Ayyub G‘ulomov tomonidan, qo‘shimcha o‘quv-metodik topshiriqlar va mashqlar boshqa mualliflar tomonidan ishlab chiqildi. Marhum professor A.G‘ulomov ona tili ta’limida grammatik tizimni to‘la-to‘kis mutlaqlashtirdi.

Ona tili darsliklarini yaratishda grammatik tushuncha va tizimga asoslanish, S.Barxudarovning darsligi talqinlari izidan chiqmaslik, uning qolipini aynan o‘zbek tili grammatikasiga ko‘chirish davr talabi edi. Bu talab quyidagi chuqur ijtimoiy-siyosiy sabab bilan izohlanadi:

Birinchidan, o‘sha davrlarda 15 ittifoqdosh va bir necha avtonom respublikalarning qariyb ellikdan ortiq tildagi ta’limini yagona ittifoq tizimiga bo‘ysundirish va ittifoq miqyosida ilmiy talqinlarni birxillashtirish nihoyatda zarur edi. Shuning uchun o‘sha davrlarda oliygohlarda o‘qitilgan har bir fan bo‘yicha “Типовая программа” (dastur namunasi) ishlab chiqilar va milliy tildagi ta’lim shu namunaviy dastur talablariga bo‘ysundirilardi. Ta’lim mazmunining yagonaligi shu usul bilan ta’minlanar edi.

Ikkinchidan, 40-50-yillarda milliylikni targ‘ib qilish millatchilik va xalqqa dushmanlik sifatida baholanardi. Shu bois, professor A.G‘ulomov o‘zining yaratgan darsliklarida o‘zbek tili hodisalarini ularning rus tilidagi tasnifi asosida

talqin etadi. E’tiborli tomoni shundaki, A.G‘ulomov yaratgan grammatik tizimda rus va o‘zbek tili grammatik tizimlari imkon qadar ko‘proq bir-biriga yaqinlashtirilgan.

1960-yillarga kelib maktabgacha ta’lim muassasalarining keng ommalashishi, radio, televidenienig, matbuotning keng tarqalishi “adabiy nutq” va“shevaviy nutq”orasidagi farq mavjudligining har bir o‘zbekning ongiga borib yetganligi 50-yillarning oxirlariga kelib, ona tilining maxsus ta’limi oldiga qo‘yilgan va o‘z vaqtida zarur, o‘ta dolzarb ijtimoiy buyurtma bo‘lgan maqsad amalgaoshirildi, erishilgan yutuqlarni saqlab qolish, mustahkamlash va davom ettirish qisman boshqa muassasalarga – maktabgacha ta’lim muassasalari, boshlang‘ich ta’lim, ommaviy matbuot zimmasiga yuklandi. (Bugungi kunda ham bolagaadabiy til me’yorlarini singdirish, asosan, boshlang‘ich ta’limdayoq yakunlanishi nazarda tutiladi, shuningdek, bu boradaommaviy axborot vositalarining ulkan roli borligi ham hech birimizga sir emas.)

1957-1969-yillarda ta’limni isloh etish bo‘yicha qabul qilingan qator qonun va qarorlar o‘rta umumta’limning tayanch bo‘g‘inlaridaona tili o‘quv predmetining maqsad va mazmuniga keskin ta’sir ko‘rsatmadi. Faqat 1957-yildan boshlab amaliyotda qo‘llanilgan A.Barovkov, A.G‘ulomov, Z.Ma’rupov, T.Shermuhammedov, Y.Abdullayevlarning “O‘zbek tili darsligi”da – nomlanishda“grammatika” so‘zi “darslik” bilan almashtirilganligiga qaramay– amaliy tatbiqdan ancha uzoq grammatik material (xususan, sintaksis qismida) miqdori oshdi; o‘zbek tili ta’limida 1980-1990-yillar matbuotida va tadqiqotlarida keskin qoralangan grammatizm vaakademizm kurtaklari paydobo‘la boshladi. Shu bilan birga ta’limning bu bo‘g‘inidaona tili ta’limi oldida savodxonlikni ta’minlash, adabiy nutq me’yorlarini singdirish vaommalashtirish bilan bir qatorda yozma vaog‘zaki nutqni rivojlantirish vazifasi ham turganligi qayd etila boshlandi va o‘zbek tilini ona tili sifatida maxsus o‘qitishning yangilangan, takomillashgan maqsadini shakllantirishga zamin yaratildi. Bu o‘zbek tilini ona tili sifatida maqsadi tarixida navbatdagi bosqichni tashkil etadi.

Nutqni rivojlantirish davri (1970-1990).1970-yilda maktab ta'limini hayot bilan bog'lashni mustahkamlash shiori ostida maktab o'quv predmetlari (dastur va darsliklar) mazmuni qayta ko'rildi, yangilangan bo'ldi. Bu yangilanish ona tili ta'limi oldiga savodxonlikni ta'minlash, adabiy til me'yorlarini ommalashtirish bilan bir qatorda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish vazifasini ham qo'ygan bo'lsa-da, bu ona tili dasturida "bog'lanishli yozma va og'zaki nutqni o'stirish" bo'limini qo'shish unga har bir sinfda yozma ishlar uchun ma'lum miqdorda o'quv soati ajratishdan nariga o'tmadi; ona tili dastur va darsliklarining asosiy mazmuni o'zbek tili grammatik qurilishining S.Barxudarov darsliklarida o'z aksini topgan rus tili qurilishi talqiniga mos tizimining sharhi bilan cheklangan, asosiy o'quv materiali va darslarning mazmuni yangi maqsad – nutqni o'stirish bilan uzviy va ichdan bog'lanmagan edi. Ona tili ta'lim mazmunida va dars materiallarida uzilish sodir bo'ldi; ona tili materiallari asosida tilshunoslik asoslarini o'rganish va yozma ishlar uchun ajratilgan o'quv soatlarida yozma nutq o'stirish mashg'ulotlari bir-biridan ajralgan, o'zaro uzviy bog'lanmagan edi.

1970-1990-yillarda amaliyotda bo'lgan ona tilidan A.G'ulomov, Y.Abdullayev, Z.Ma'rupov, M.Omilxonovalarning VI-VII, M.Asqarova, Y.Abdullayev va boshqalarning VIII-IX sinflar uchun darsliklari 1989-yildan boshlab "Ona tili" nomi ostida chiqa boshlagan bo'lsa-da, ularda mazmun-mohiyati bilan 1940-yillar grammatizmi saqlangan va yana-da chuqurlashtirilgan, maktabni ilm-fan bilan yaqinlashtirish, fan yangiliklarini maktabga olib kirish maqsadida yana ham ilmiylashtirilgan, amaliy tatbiqdan uzoqlashtirilgan edi. Bu silsilada M.Asqarova, K.Qosimovalarning V sinf uchun "Ona tili" darsligi usul jihatidan bir muncha farq qilsa-da, u ham umumiy dastur va usulga bo'ysundirilgan edi. Shuning uchun 1990-yillarning oxirigacha ona tili mashg'ulotlarining amaldagi (dastur va darsliklarda o'z aksini topgan, o'quv materiali sifatida o'rgatilayotgan) mazmuni bilan maqsadi – nutqni rivojlantirish orasida uzilish bo'ldi. Bu yillarda amalga oshirilgan metodik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda ham asosiy diqqat grammatik materialni berish jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirish masalalariga qaratildi. (Ta'kidlash joizki, shu

yillarda ona tili o‘qitish metodikasi ancha yutuqlarni qo‘lga kiritdi.) Sh.Koenov, R.Inog‘omova, N.Shukrullayev, R.Qayumova kabi tadqiqotchilarning izlanishlari shu yo‘nalishda bo‘ldi.[59] Shuningdek, O.Roziqov, A.G‘ulomov, N.Shukrullayev[60] kabi olimlarning ishlarida ona tili darslarida ilmiy-grammatik masalalarga ko‘p e’tibor berish nutqni rivojlantirishga monelik qilayotganligi ham qayd etib o‘tiladi va nutqni rivojlantirishda o‘quvchining mustaqil izlanishi, mustaqil ishi alohida ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

Tom ma’noda: “Tilimiz va dilimiz istibdod iskanjasida ingragan yaqin o‘tmishimizda ming yillik an’analarimizdan bo‘lmish raso nutq odobi parvarishi, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya masalalariga nopisandlik bilan qaraldi. Buning mudhish oqibati sifatida milliy o‘zlikning mohiyati muallaqlashdi”. (N.Mahmudov)

Demak, nutqni rivojlantirish maqsadi o‘rtaga qo‘yilgach, oldingi ta’lim mazmuni va usulining yangi maqsadga nomuvofiqligi aniqlasha boshladi. Bu ona tili ta’limida turg‘unlik, davr ehtiyojlaridan orqada qolish, inqiroz nishonalari sodir bo‘layotganligidan, mazmun va usul maqsaddan uzilganligidan dalolat edi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. M.Qoshg‘ariyning qaysi ma’lumotlari asosida, biz bemalol, X-XI asrlarda ta’lim o‘choqlarida islomiy-mafkuraviy yo‘nalishdagi turkiy tildagi ta’lim an’anasi so‘nmaganligini ayta olamiz?
2. Temuriylar davriga kelib ta’lim-tarbiya tizimining asosiy mafkurasi islomiy, tili arabiy va forsiy bo‘lganligidan dalolat beruvchi qanday dalillar mavjud?
3. Mir Alisher Navoiy o‘z davri maktablarini, undagi mashg‘ulot mavzularini (saboqlarni) qanday eslaydi?
4. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit turkey” asari, o‘sha davrda maktab dasturining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan Sa’diy “Guliston”ining turkiy tildagi bayon-sharhi nimadan dalolat beradi?

---

[59] Иноғомова Р. Феъл замонларини ўрганишда ўқувчиларнинг нутқи устида ишлаш. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1974.; Коэнов Ш. Ўзбек мактабларининг бошланғич синфларида ўқувчиларни баён ёзишга ўргатиш. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1973.; Шукруллаев Н. Ўзбек мактабларининг 8-синфларида қўшма гап синтаксисини ўқитишда ўқувчилар нутқини ривожлантириш. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1975. vab.

[60] Розиқов О. Ўзбек мактабларининг бошланғич синфларида ўқувчиларнинг мустақил ишлари. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1967.– 32 б.; Шукруллаев Н. Ўзбек мактабларининг 8-синфларида қўшма гап синтаксисини ўқитишда ўқувчилар нутқини ривожлантириш. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1975.; Ғуломов А. Ўзбек мактабларининг 4-синфларда она тили дарсларида ўқувчиларнинг мустақил ишлари. Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т.: 1975.

5. Abulg‘ozi Bahodirxonning “*turklarg‘a turkona aytmoq kerak*” deb hisoblashining boisi nimada?
6. Nima uchun X-XIX asrlarda ta’lim maqsadida turg‘unlik hukm surgan?
7. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir” degan jumlalari hozirda ham ahamiyatlimi?
8. Fitrat nimani “ko‘p yengil, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur” deb baholaydi? Nega?
9. Nima uchun jadidlarda ta’limning mafkura jihatdan islomiy bo‘lishi zarur shartlardan biri edi?
10. Jadidlar davrida ona tili ta’limi oldida qanday maqsad qo‘yilgan edi?
11. Ta’lim muassasalarida ona tilini maxsus o‘quv predmeti sifatida o‘qitish zarurati nimalarda yaqqol sezildi?
12. Ona tili ta’imida adabiy til me’yorlarni singdirish davri haqida gapiring.
13. Ona tili ta’imida nutq (og‘zaki va yozma)ni rivojlantirish davri o‘zini oqladimi? Nega?
14. Davr talablari asosida ijtimoiy buyurtma sifatida belgilish va jamiyatning taraqqiyot boshqichi xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda *o‘zgaruvchanlik* ta’limning xususiy maqsadiga xosmi yoki ta’limning umumiy maqsadiga oidmi?
15. “Grammatizm” va “akademizm” deganda nimani tushunasiz?
16. Qaysi usullar G‘arbiy Yevropa davlatlarining XIX-XX asrlardagi tajribasida o‘zini oqlagan, sinalgan usul edi?
17. Ta’limning xususiy maqsadi qanday va kim tomonidan belgilanadi?
18. Ona tilining grammatik qurilishini o‘quvchilarga singdirish orqali nima maqsad amalga oshirilar edi?
19. 1989-yildan boshlab “Ona tili” nomi ostida chiqa boshlagan darsliklar nima uchun mazmun-mohiyati bilan 40-yillar grammatizmini saqlagan va hatto chuqurlashtirgan? Buning mafkuraga nima daxli bor?
20.Til va uning taraqqiyoti, til ta’limi masalalari mafkura bilan bog‘lanadimi? Nega?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1;3;4;8;9;13;15;23;26;27;29;31]

MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEK (ONA) TILI TA’LIMI

Reja:

1. Ona (o‘zbek) tili ta’limini turg‘unlikdan chiqarish, zamon talablariga muvofiqlashtirish yo‘llarini izlash.
2. “O‘zbek tili doimiy anjumani”ning tarixiy ahamiyati.

3. Ona tilidan davlat ta’lim standart(DTS)larining joriy etilishi va ularning takomillashtirilishi.

4. Ona (o‘zbek) tili ta’limida tub yangilanishlar.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

O‘zbek tili doimiy anjumani, DTSning joriy etilishi, DTS talablari

Hayot yo‘lida birinchi masala–
maktab masalasidir.
A. Fitrat

Ta’lim tizimida uzoq yillar hukmronlik qilgan turg‘unlik davri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy-ma’naviy hayotiga salbiy ta’sir etdiki, bu asoratlar izi hali-hanuz seziladi. Bu salbiy hol, ayniqsa, ta’lim tizimi rivojining orqaga ketishiga, bir joyda depsinishiga sabab bo‘ldi. Shu jumladan, tilshunoslik fani, uni o‘qitish bilan bog‘liq jabhalarda juda katta muammolar vujudga keldi. Eski tuzum o‘zining oxirgi umrini yashab, qayta qurish shabadalari esayotgan bir davrda (1987-1990) soha mutaxassislari o‘z yo‘nalishlaridagi xato-kamchiliklarni baralla ayta boshladilar. Shuningdek, yangilanish ruhi, qayta qurish jarayoni jamiyatning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi maorif sohasida ham o‘z aksini topa boshladi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tarixiy voqea sifatida bu jarayonni yanada tezlashtirdi va chuqurlashtirdi. O‘zbek tilshunosligi fanining o‘sha davrdagi mavjud holati, o‘rta, o‘rta maxsus va oliy maktablarda tilshunoslik fanini o‘qitish metodlari zamondan orqada qolib ketayotgani, pirovard natijada, o‘zbek bolalari savodxonlik darajasining pastligi, ularda o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda to‘g‘ri, lo‘nda va tinglovchiga tushunarli tarzda bayon qilish ko‘nikmalarining yetarli emasligi davr ziyolilarining ko‘pchiligini haqli ravishda tashvishga sola boshladi. Respublika Xalq ta’limi vazirligi va “O‘qituvchilar gazetasi” shu masala bilan bevosita shug‘ullanib, 75 nafar taniqli tilshunos olimga rasmiy xat bilan, keng jamoatchilikka esa ularning bu boradagi aniq fikr-mulohazalarini bilish maqsadida gazetaning1987-yil 11-noyabrdagi soni orqali savollar bilan murojaat qildi.

O‘zbek tilshunosligini qayta qurish zarurati bormi?, Bu sohada, sizningcha, nimalarni qayta qurish talab etiladi?, Tilshunoslikda qayta qurish qanday amalga oshishi mumkin va u qanday samara beradi?, O‘rta maktabda ona tilining

o‘qitilishi hozirgi kunda qanday holatda va uni qayta qurishda nimalarni nazarda tutish kerak?, Oliy va o‘rta maktabda o‘zbek tilining o‘qitilishi orasida qanday davomiylik mavjud? Bu kabi anketa savollari yetuk mutaxassislar va gazetxonlarni qizg‘in bahs-muhokamaga chorladi va o‘zbek tilshunosligi hamda uning keyingi taraqqiyoti yo‘nalishlarini belgilashda muhim omil bo‘ldi. Ya’ni Respublika Xalq ta’limi vazirligi tomonidan o‘zbek (ona) tilidan ta’lim maqsadi, mazmuni, usuli va vositalarini yangilash, ularni turg‘unlikdan chiqarish, zamon talablariga hamda jahon mezonlariga muvofiqlashtirish yo‘llarini izlab o‘zbek tilshunoslari-yu metodistlari orasida katta munozara va fikr almashish muhiti vujudga keltirildi.

Ushbu savollar bilan boshlangan va qamrov darajasi kengayib borgan munozara O‘zbekistondagi o‘quv yurtlarining barcha turlarida o‘zbek (ona) tili o‘qitilishini davr ruhiga moslashtirish, bu borada yuqori sifat ko‘rsatkichlariga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan to‘liq va o‘z o‘rnida foydalanish tashabbusiga keng yo‘l ochdi. Respublika yetakchi o‘zbek tili mutaxassislari va tilshunoslarining 1989-yil mart oyida o‘tkazilgan amaliy kengashida ona tili bo‘yicha o‘quv metodik kengash tuzish haqida qaror qabul qilindi. Respublika o‘quv metodik markazining aprel oyida chiqargan buyrug‘iga asosan oliy va o‘rta maktab, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, nashriyot va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlaridan iborat 40 kishilik yangi kengash tuzildi.

1989 yilning 9-iyunida yangi tuzilgan o‘quv metodik kengashning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Kengashning 1990-yil aprel oyida Samarqandda o‘tkazilgan birinchi konferensiyasi 30.000dan ortiq mutaxassisni birlashtirdi. Konferensiyada mazkur ilmiy-tadrisiy (ilmiy-metodik) kengash zimmasiga ona tilidan ta’lim mazmunini yangilash vazifasi yuklatildi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani” haqida. 1989-yil 25-sentabrda O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligining 386-buyrug‘i asosida har bir yig‘ini qariyb ming mutaxassis olim-u amaliyotchi o‘qituvchilarni birlashtirgan “O‘zbek tili doimiy anjumani” ta’sis etildi. Anjuman 1989-yil 25-sentabrda ta’sis etilgan bo‘lsa-da, uning birinchi yig‘inini o‘tkazish ikki yildan keyin amalga oshdi. Sababki, o‘sha davrda ham yangilanishlarni qabul qila olmaydigan buyrokrat rahbarlar bor edi.Til

va uning ta’limi jonkuyarlarining sa’y-harakatlari bilan 1991-yildan to hozirgacha (har ikki yilda bir marta) anjumanning o‘n uchta yig‘ini o‘tkazildi. Bular quyidagilar:

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 1-yig‘ini 1991-yil Samarqand shahrida o‘tkazildi va “O‘zbek tilini o‘rganish va o‘qitishni qayta qurish hamda takomillashtirishning dolzarb masalalari”[61] deb nomlandi. Tarixiy ahamiyat kasb etgan mazkur yig‘inda o‘sha davrda amalda bo‘lgan, “stabillashgan” ona tili ta’limi tizimi, ta’lim mazmuni, usulini yangilash zarurligi, qotib qolgan andozalar asosida ishlash mumkin emasligi yig‘inda qatnashgan 500dan ortiq mutaxassislar – o‘qituvchilar-u olimlar tomonidan baralla aytildi. Mavjud tanazzuldan chiqish yo‘llari belgilandi. Munozara jarayoni, fikr almashinishlar o‘tkazilib, ona tili o‘quv predmeti bo‘yicha muqobil dasturlar keng muhokama etildi va umumiy o‘rta ta’lim tizimida bugungi kunda takomillashgan holatda amal qilayotgan o‘quv dasturining ilk ko‘rinishi ham xuddi shu anjumanda tasdiqlandi. Zeroki, mustaqillik davrida ona tili ta’limi oldiga nafaqat bilimdon, balki bilim olish yo‘llarini biladigan, bir maqsadga erishishning turli usul va vositalaridan (imkoniyatlardan) muayyan sharoitda eng qulay, samarali yo‘lni tanlay oladigan va amalda tatbiq etish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchi shaxsi –*mustaqil ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish maqsadi* qo‘yildi. Keyingi tajribalar birinchi yig‘in to‘g‘ri yo‘l tanlaganini ko‘rsatdi, chunki u tanlagan yo‘l Istiqlol yo‘li, milliy an’anaviy ravnaq yo‘li bilan uyg‘unlashdi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 2-yig‘ini 1993-yilning aprelida Qarshi shahrida o‘tkazildi va “Ta’lim bo‘g‘inlarida ona tili o‘qitish mazmunini yangilash asoslari”[62] deb nomlandi. Yig‘inida yangi maqsadga muvofiq ona tili ta’limining mazmuni, usuli va vositalari, shuningdek, ona tilidan Davlat ta’lim standarti, o‘rta umumta’lim maktablarida ona tili o‘qitish konsepsiyasi masalalari keng muhokama etildi. Natijada O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 1993-yilning

[61]Ўзбек тилини ўрганиш ва ўқитишни қайта қуриш ҳамда такомиллаштиришнинг долзарб масалалари. ЎТДА 1-йиғини материаллари тезислари (Масъул муҳаррир:Т Раҳматов). – Самарқанд: СамДПИ, 1991. – 318 б.

[62]Таълим бўғинларида она тили ўқитиш мазмунини янгилаш асослари.ЎТДА 2-йиғини тезислари (Масъул муҳаррир: Т. Нафасов). – Қарши, 1993. – 172 б.

oktabrida “O‘zbek maktablarida ona tili ta’limi konsepsiyasi” qabul qilindi. Mazkur konsepsiya “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin ham muhim hujjatlar mazmunini to‘ldiruvchi hujjat sifatida o‘z kuchida qoldi. Shuningdek, anjumanning birinchi va ikkinchi yig‘inlari tavsiyalari asosida ona tilidan sinov darsliklari yaratish ishiga kirishildi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 3-yig‘ini 1995-yilning aprelida Jizzax shahrida o‘tkazildi va “Ta’lim jarayonida so‘z boyligini oshirishning asosiy omillari”[63] deb nomlandi. Yig‘in Xalq ta’limi vazirligidan takomillashtirilgan “Induktiv-2”[*] dasturi asosida respublika miqyosida tajriba-sinov ishlarini boshlash hamda sinov darsliklari nashr etishni so‘radi. (V-IX sinflar uchun mo‘ljallangan “Induktiv-2”da ta’lim usuli induktiv bo‘lib, tahlildan qonuniyatga, umumiylikdan xususiylikka qarab borishni ko‘zda tutdi. 1997-1998-yillarda 30 000 (o‘ttiz ming) nusxada, shu dastur asosidagi darsliklar 5- va 6-sinflar uchun nashr etildi hamda respublika maktablarida sinaldi.[64])

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 4-yig‘ini 1997-yilning aprelida Toshkent shahrida o‘tkazildi va “Ta’lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari”[65] deb nomlandi. Yig‘inda ta’lim jarayonida shaxsning qobiliyatini, ichki olamini yuzaga chiqaruvchi (siyratning surati) – ijodiy matn yaratish ustida ishlashning asosiy omillariga e’tibor qaratildi. Zaruriy tavsiyalar ishlab chiqildi, sinov ishlarining jadal odimlari qutlandi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 5-yig‘ini 1999-yilning aprelida Buxoro shahrida o‘tkazildi va “Ta’lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari”[66] deb nomlandi. Yig‘inda ta’lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari muhokama etildi. Onadek mo‘tabar, muqaddas ona

---

[63] Таълим жараёнида сўз бойлигини оширишнинг асосий омиллари. ЎТДА 3-йиғини тезислари (Масъул муҳаррир:Ж. Лапасов). – Т.: Ўқитувчи, 1995.

[*] «Ўзбек тили»дан программа лойиҳалари – «Индуктив–2» I қисм. (Тузувчилар: Ҳ.Неъматов, А.Ғуломов.) – Т.: РУММ, 1990. – 90 б.

[64] Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Абдураимова М., Қосимова Н. Она тили. Умумтаълим мактабларининг 5-синфи учун синов дарслиги. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 170 б.; Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Абдураимова М., Қосимова Н. Она тили. Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун синов дарслиги. – Т.: Ўқитувчи, 1998.

[65] Таълим жараёнида матн устида ишлашнинг асосий омиллари. ЎТДА 4-йиғини тезислари (Масъул муҳаррир:М. Абдураимова). – Т.: Ўқитувчи, 1997.

[66] Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. ЎТДА 5-йиғини тезислари (Масъул муҳаррир:Э. Қиличев). – Т.: Шарқ, 1999.

tilimizning boy imkoniyatlaridan, rang-barangliklaridan o‘rinli foydalanishni o‘quvchilar ongiga, shuuriga singdirish nafaqat ona tili mashg‘ulotlarining, balki o‘rta umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan barcha o‘quv predmetlarining vazifasidir, degan xulosaga kelindi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 6-yig‘ini 2001-yilning aprelida Farg‘ona shahrida o‘tkazildi va “Ta’lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari”[67] deb nomlandi. Tabiiyki, o‘quvchilarning nutqi(og‘zaki va yozma)ni rivojlantirish ularda avvalo ijodiy tafakkurini shakllantirish va uni avaylab “parvarishlash”ni taqozo etadi. Amaliyotda tatbiq etilishi mumkin bo‘lmagan, ya’ni kundalik mustaqil ijodiy tatbiq bilan bog‘lanmagan bilimlar o‘quvchi xotirasida ortiqcha yuk bo‘lib, tezda izsiz yo‘qolib ketadi. Zero, jamiyat bilimli shaxsni emas, balki bilimlaridan jamiyat talablariga mos foydalana oladigan, mustaqil fikrlaydigan, bunday odat uning tabiatiga aylangan, ya’ni tarbiyalangan, madaniyatli, ma’naviyatli shaxsni yetishtirib chiqarishni maktab oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Anjumanda ana shu jihatlarga e’tibor qaratildi.

“***O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 7-yig‘ini*** 2003-yilning aprelida Namangan shahrida o‘tkazildi va “O‘zbek tili ta’limida milliy istiqlol g‘oyasini singdirish masalalari”[68] deb nomlandi. Anjuman sho‘balarida ta’limning barcha tur va bosqichlarida Milliy istiqlol, uning sharofati bilan rivojlangan davlatlar hamjamiyatidan qat’iylik bilan o‘rin olayotgan O‘zbekistonda barcha sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli bunyodkorlik ishlari farzandlarimiz shuuriga milliy qadriyat sifatida shingdirilishi zarurligiga e’tibor qaratildi.

“***O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 8-yig‘ini*** 2005-yilning aprelida Xorazm shahrida o‘tkazildi va “O‘zbek tili ta’limi jarayonida fanlararo bog‘lanish masalalari”[69] deb nomlandi. Anjumanda o‘rta umumta’limda ona tili ta’limi

---

[67]Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари. ЎТДА 6-йиғини тезислари (Масъул муҳаррир: М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2001.

[68] Ўзбек тили таълимида миллий истиқлол ғоясини сингдириш масалалари. ЎТДА 7-йиғини материаллари тезислари (Масъул муҳаррир:М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2003.

[69]Ўзбек тили таълими жараёнида фанлараро боғланиш масалалари. ЎТДА 8-йиғини материаллари тезислари (Масъул муҳаррир:М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2005.

jarayonida o‘qitiladigan barcha fanlararo bog‘lanish bo‘lgandagina ko‘zlangan maqsadga oson erishilishi masalalari muhokama etildi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 9-yig‘ini 2007-yilning aprelida Termiz shahrida o‘tkazildi va “Yigirma birinchi asrda o‘zbek tili ta’limi masalalari”[70] deb nomlandi. Anjumanda zamonaviy ta’lim, ona tili ta’limini jahon standartlariga moslashtirish masalalari muhokama etildi. Davr hozir–globallashuv, cheksiz miqdorda bilimlar yig‘ilgan va sistemalashtirilgan axborot asrida o‘zlashib singgan bilimdan ko‘ra bilim topish yo‘lini bilish afzalligini taqozo etayotganligi; jamiyatga mustaqil, ijodiy fikrlovchi qanday sharoitda qanaqa bilim kerakligini va uni qayerdan olish mumkinligini biladigan shaxslar zarurligi masalalariga diqqat qaratildi.

“***O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 10-yig‘ini*** 2009-yilning aprelida Andijon shahrida o‘tkazildi va “Til ta’limi bosqichlarida uzviylikni ta’minlashning ilmiy-amaliy muammolari”[71] deb nomlandi. Anjumanda umumiy o‘rta ta’lim bosqichlarida: boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilganligi; umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini berishi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati ва amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga hamda ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berishini nazardan qochirmaslik kabi masalalarga diqqat qaratildi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 11-yig‘ini 2011-yilning aprelida Navoiy shahrida o‘tkazildi va “O‘zbek tili ta’limida pedagogik texnologiyalarning o‘rni”[72] deb nomlandi. Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tib borishi tufayli ishlab chiqarishning barcha jabhalari uchun ishbilarmon, o‘z kasbini mukammal biladigan, tadbirkor, tashabbuskor mutaxassislar tayyorlash davr talabiga aylandi. Zero, mamlakatning jahon hamjamiyatida egallagan o‘rni

---

[70]XX асрда ўзбек тили таълими масалалари.ЎТДА IX йиғини тезислари (Масъул муҳаррир:М. Абдураимова). – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007.

[71]Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари. ЎТДА X йиғини тезислари (Масъул муҳаррир:М. Абдураимова). – Т.: Ўзбекистон нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.– 272 б.

[72]Ўзбек тили таълимида педагогик технологияларнинг ўрни. ЎТДА XI йиғини материаллари тезислари. (Масъул муҳаррир:М. Абдураимова). −Тошкент, РТМ, 2011 й.

mutaxassislarning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bugungi kunda inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishni tobora takomillashib borayotgan texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Respublikamizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Demak, har qadamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqdamiz. Vaholanki, ertangi kun mutaxassisi bugungi kun maktab partasida o‘tirgan yoshlardir. An’anaviy o‘qitish maktabiga tayangan ta’lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir emas. Shuning uchun o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilar qiziqishini oshirish, o‘qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo‘llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda. O‘qitish sifatini oshirish obyektiv zaruratga aylanganligi tufayli an’anaviy o‘qitish usullaridan ilg‘or pedagogik texnologiyalarga o‘tish muammosining dolzarbligi ortib bormoqda.

Pedagogik texnologiya, ommaviy ta’lim sharoitida davlat ta’lim standartlari talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.

O‘quv jarayonining texnologik tayyorgarligi o‘qitish jarayonini (ishlab chiqarish–texnologik jarayonda, bu mahsulot tayyorlashning texnologik operatsiyalari, uni maqbullashtirish va samaradorligini) o‘z ichiga oladi. O‘qitish jarayonini birxillashtirish (unifikatsiyalash), o‘qitishda maksimal samaradorlikni qo‘lga kiritishga pedagogik texnologiyani yaratish va qo‘llash orqali erishiladi. Anjumanda ana shunday masalalar xususifa fikr, tajriba almashildi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 12-yig‘ini 2013-yilning aprelida Chirchiq shahrida o‘tkazildi va “Axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish–o‘zbek tili ta’limi samaradorligini oshirish omili”[73] deb nomlandi. Anjumandabugungi kun ta’limidagi yangilanishlar jarayoni pedagoglar oldiga qo‘yayotgan malakaviy talablar, jumladan, ona tili ta’limi o‘qituvchilarining axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni bilishi zarurligi, axborot

[73]Ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш ўзбек тили таълими самарадорлигини ошириш омили. ЎТДА XII йиғини материаллари тезислари. (Масъул муҳаррирлар:Д.Нуриддинова, Г.Зиёдуллаева).–Тошкент, РТМ, 2013.

kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ona tili ta’limi samaradorligini oshirish omili ekanligi masalalari keng muhokama etildi.

“O‘zbek tili doimiy anjumani”ning 13-yig‘ini 2015-yilning aprelida Navoiy shahrida o‘tkazildi va“Ta’lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”[74]deb nomlandi. Anjumanda yozma savodxonlikning bugungi ahvoli borasidagi mavjud holat tahlil etildi va yozma savodxonlikni takomillashtirish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib berildi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliydasturi” va ona tili ta’limi haqida. Mustaqillik memorondumidan keyin (31-avgust 1991-yil) “mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish”[75] birinchi darajali masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi.

Mustaqillik yillarida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun quyidagi davrlarda qabul qilindi:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 44 moddadan iborat bo‘lib, bu qonun ta’lim tizimida erkinlik, ittifoq tizimidan chiqish, ta’limni milliylashtirishga qaratilgan edi;

2) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[76] 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilindi. Mazkurqonun V bo‘lim 34 moddadan iborat edi. (“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun birinchi bor qabul qilingandan keyin oradan ko‘p o‘tmay, mustaqil O‘zbekiston jahon hamjamiyatidan, mustaqil davlatlar tizimidan barqaror o‘rin oldi va bu ta’lim tizimimizni yangi ehtiyojlarga moslash zaruratini keltirib chiqardi.) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunini hayotga tatbiq qilish uchun

---

[74]Таълим жараёнида ёзма саводхонликни оширишнинг асосий омиллари. ЎТДА XIII йиғини материаллари тезислари. (Масъул муҳаррирлар:Ислом Зокиров, Дилдора Нуриддинова). −Тошкент, РТМ, 2015 й, 10 апрель.

[75]Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 5-б.

[76]Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни.// Баркамол авлод–Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б. – 20-29-б.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (KTMD) ishlab chiqilildi hamda ijtimoiy hayotga tatbiq etildi;

3) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining yangi loyihasi davr o‘zgarishlari bilan bog‘liq ravishda 2019-yil avgust oyida umumxalq muhokamasiga tashlandi. (Unda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ta’lim turlari: maktabgacha ta’lim; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim; kasbiy ta’lim; oliy ta’lim; oliy ta’limdan keyingi ta’lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta’lim tuzilmasidagi o‘zgarishlarga keng e’tibor qaratilmoqda.)

“*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*”[77]1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunini hayotga tatbiq qilish uchun ishlab chiqilgan hamda amalga joriy etilgan edi. Mazkur dastur besh bo‘limdan iborat. Bular quyidagilar:

1.Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari;

2.Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari;

3.Kadrlar tayyorlashning milliy modeli;

4.Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari;

5.Milliy dasturni ro‘yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ***maqsadi*** ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Dastur uch bosqichda (***1-bosqich 1997-2001-yillar–o‘tish davri;***2-***bosqich 2001-2005-yillar–yangilash davri; 3-bosqich 2005- va undan keyingi yillar rivojlantirish davri)*** amalga oshirildi.

Mustaqillikning o‘tgan chorak asrdan ko‘proq davri mobaynida ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yangilandi, mustahkamlandi,

[77]Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури».// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б. – 31-60-бетлар.

o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-metodik adabiyotlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’minlandi.

Ona tilidan davlat ta’lim standart (DTS)larining joriy etilishi va ularning takomillashtirilishi. Davlat ta’lim standartlari (malaka talablari) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.[78]

Ta’limning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi ona tili ta’limida ham bolalarda mustaqillik va faollikni tarbiyalash masalasi bosh tamoyilga aylandi. “…Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.”[79]

Shu bois Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida”gi 203-sonli qarorida ham umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalari va bosh maqsadi sifatida:“…o‘quvchilarda …ijodiy, mustaqil fikrlashni …hosil qilish,…keng dunyoqarash hamda ijodiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish, o‘quvchi shaxsi qaror topishini, uning qiziqishlari va ijtimoiy o‘z-o‘zini aniqlab olish qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlash” ekanligi ko‘rsatib o‘tildi. Mazkur qaror asosida 24 ta o‘quv fanlari turkumida, jumladan, ona tilidan ham ***davlat ta’lim standarti*** va o‘quv dasturi ishlab chiqilib, tajriba-sinovdan o‘tkazildi. O‘quv yili oxirida vazirlikning maxsus ekspert guruhi tomonidan tajriba-sinov ishlarining yakuni muhokama qilindi, bildirilgan fikr-mulohazalar asosida mazkur hujjatlar mutaxassislar tomonidan takomillashtirildi.

1999-yil 16-avgustda Vazirlar Mahkamasi o‘zining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390-sonli qarori bilan sinovdan o‘tkazilgan va takomillashtirilgan umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim

---

[78]Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б. – 7-modda.
[79]Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999. –17-b.

standartlarini tasdiqladi. Bunda yangi ta’lim tizimiga muvofiq yaratilgan ona tili DTS[80] va o‘quv dasturida an’anadagi “grammatika–grammatika uchun” qolipidan voz kechilib, “grammatika–fikrni aniq va lo‘nda ifodasi uchun” shiori asos qilib olindi. Grammatik qoidalarni bilish bilan bir qatorda o‘quvchining fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o‘z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon qila olishni egallashiga alohida e’tibor berildi. Ta’kidlab o‘tish joizki, ona tili ta’limini takomillashtirish bilan bog‘liq islohotlar ko‘lamida hukumat dasturi va vazirlik tadbirlari asosida dars mashg‘ulotlarining yangi o‘zbek alifbosida olib borilishi, islohotning bosh harakatlantiruvchi kuchi – yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, o‘quvchilar bilimi sifatini nazorat qilish, reyting tizimining joriy etilishi kabilar alohida o‘rin tutdi. Dastur asosida darsliklarning yanada takomillashgan, yanada mukammallashgan namunalari yaratildi.

“2004-2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”da ko‘rsatilgan ta’lim mazmunini yangilash vazifasi ijrosini ta’mishlash maqsadida Respublika xalq ta’limi vazirligining 2004-yil 8-oktabrdagi 198-sonli buyrug‘i qabul qilindi. Ona tilidan ham amaldagi DTS va o‘quv dasturining takomillashtirilgan yangi tahrirdagi loyihasi 2004-2005-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich sinovdan o‘tkazila boshlandi. Mutaxassislar tahliliga ko‘ra, amaldagi DTSda o‘quvchilarning o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan zaruriy bilimlari, egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalari umumiy qolda asosida berilgan edi. Bu holat sinflar va mavzular kesimida o‘quvchilar bilimini ko‘p balli reyting tizimida xolisona baholashda, DTS talablarini bajarishda, o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni to‘ldirish yo‘llarini izlash kabi amallar ijrosini ta’minlashda bir qadar qiyinchiliklarni yuzaga keltirar edi. DTSning yangi tahrirdagi nusxasida ushbu jihatlar inobatga olinib, o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar sinflar kesimida ajratib berildi. Pedagogikaning ta’lim va tarbiya birligi hamda fanlararo aloqa tamoyillariga keng qamrovda amal qilish imkoniyati yaratildi. Shu asosda amaldagi o‘quv dasturi

[80]Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт.– Т.: Шарқ, 1999. – 304 б.

takomillashtirildi. Sinov natijalariga ko‘ra 5-9-sinf o‘quvchilari egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar miqdori aniqlanib, ularning o‘zlashtirish darajasi tahlil etildi.

DTSlari o‘rta umumiy ta’limdan mustaqil fikrlovchi tadbirkor shaxsni yetishtirishni talab qilgani bois bu tizimning tayanch bo‘g‘inida–V-XI sinflarda ona tili ta’limi oldida va uning takomillashtirilgan ko‘rinishi quyidagi maqsadni qo‘yadi: «Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikka o‘rgatishdan iborat.»[81] Shunga muvofiq ravishda amaldagi dasturda ona tili ta’lmi maqsadi quyidagicha berilgan: “Ona tili ta’limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.”[82] Shu maqsadga muvofiq o‘quvchilar ona tili mashg‘ulotlarida filologiya (tilshunoslik fani) asoslari-yu tushunchalarini o‘zlashtirish bilan emas, balki ona tilining juda boy imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash va ijodiy fikr mahsulini turli-tuman shakllarda go‘zal nutq sifatida bayon etish ustida ishlashlari lozim.

Ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar uch parametrli standart ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

1.*O‘qish texnikasi*. Bu parametr orqali o‘quvchining notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich sifatida ifodali o‘qish tezligi, ya’ni minutiga berilgan matndan nechta so‘z o‘qiy olish ko‘rsatkichi olingan. Sinfdan sinfga o‘tish davrida miqdoriy ko‘rsatkichdagi so‘zlarning soni oshishi bilan birga berilgan matnni o‘qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

[81]Yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (Ona tili, Adabiyot, O‘zbek tili). –T.: 2009.– 6-7-b.
[82]O‘sha adabiyot. –10-11-b.

2.*O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi* bolaning og‘zakibayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.

3.*Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi*(tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi. O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;

b)fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);

d)tavsifning mavzuga muvofiqligini va tasnifqiymatini aniqlash;

e)tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;

f) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

Ona tili ta’limi jarayonida pedagogikaning ta’lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi.[83]

O‘zbek tili ta’limi tarixiga oid adabiyotlar, hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek (ona) tili ta’limini takomillashtirish ishlari oson kechgan jarayon emas, fikrlar xilma-xilligi, qarama-qarshiligi negizida davom etgan jarayondir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. *Mustaqillik davri ona tili ta’limida bixeviorizmdan verballik, izlanuvchanlik, onglilik, amaliy tatbiq (kognitiv va pragmatik) tomon siljish boshlandi.* Jumla ma’nosini izohlang.
2. O‘quvchi ta’lim jarayonining subyekti, o‘qituvchi ta’lim oluvchi o‘rganish jarayonining tashkilotchisi bo‘lishi qanday ta’lim usuli sanaladi?

[83]Yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (Ona tili, Adabiyot, O‘zbek tili). –T.: 2009.–4-5-b.

3. Milliy istiqlol davriqa ona tili ta’limining maqsadi, mazmuni, usuli va vositalari qanday yangilandi?
4. Yangi maqsad ta’limni qanday yangi asoslarda qurishni talab qiladi?
5. O‘zbek tili doimiy anjumani (O‘TDA)ning ta’sis tilishi ona tili ta’limiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
6. O‘TDAning ikkinchi yig‘inida qanday masala muhokama etildi?
7. O‘TDAning beshinchi yig‘inida-chi?
8. Ona tili ta’limida belgilangan DTS talablari nimalardan iborat?
9. O‘TDAning o‘n uchinchi yig‘inida qanday masala muhokama etildi?
10. Ona tilidan belgiangan malaka talablari (DTS) har necha yilda yangilanadi va nega?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [3;6;7;8;9;13;15;16;17;18;22;23]

2-BO‘LIM
O‘ZBEK (ONA) TILI TA’LIMINING UMUMIY ASOSLARI

Insoniyat tarixida ta’lim olishga ehtiyoj tug‘ilgan kundan boshlab, nimani o‘rgatish, qancha o‘qitish, nima uchun o‘qitish, qanday usullar bilan o‘qitish kerak kabi savollar didaktika oldida turgan qadimiy va dolzarb masalalardan sanaladi.

O‘ZBEK (ONA) TILI O‘QITISH METODIKASI – PEDAGOGIK SIKLDAGI MUSTAQIL FAN

Reja:

1. “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” mustaqil fan sifatida.
2. “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. “O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining tekshirish metodlari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Metodika, metodologiya, metod, suhbat, tajriba-sinov, analiz, sintez, taqqoslash, faraz, loyihalashtirish

Birovni o‘rgatishing uchun, o‘zing o‘rganishing uchun lozim bo‘lganidan ko‘ra ham ko‘proq aql kerak.

M.Monten

Mavzu bayoniga kirishishimizdan oldin avvalo biz tez-tez ishlatadigan ***“metod”, “metodika”*** va ***“metodologiya”*** atamalarining mazmuniga aniqlik kiritishimiz zarur.

“Metod”, “metodika” va “metodologiya” atamalari umumiy o‘zakka ega: yunoncha *methodos* “biror narsaga yo‘l” demakdir. Darhaqiqat, biror harakat, amaliy va aqliy faoliyat ma’lum usulda bajariladi. Ammo bunday harakat vositasida biror narsa, hodisaning tub mohiyatini bilish uchun avval nimani izlash va qanday izlashni belgilab olish talab qilinadi. Shu sababli *methods* “biror narsaga yo‘l” *logos* «ta’limot, nazariya” so‘zi bilan boyitilgan va “metodologiya” atamasi paydo bo‘lgan. Demak,

Metod biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish uchun amalga oshirilgan harakat, amaliy va aqliy faoliyatning ma’lum usuli, yo‘l-yo‘rig‘idir.

Metodika deganda tadqiq manbayi (o‘rganish obyekti) haqida ilmiy bilim hosil qilish usul (yo‘l-yo‘riq)lari tushuniladi. Shuning uchun falsafa bo‘yicha darsliklarda ham, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL)”da ham ***metodika*** *biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi* deb ta’riflanadi.[84]

Biz ***ona tili o‘qitish metodikasi*** deganda ta’lim o‘choqlarida o‘zbek (ona) tilini o‘qitish usullari, yo‘l-yo‘riqlarining umumlashmasini nazarda tutamiz.

Metodologiya – muayyan voqelikni bilishning asosiy yo‘llari, usullarini belgilab beruvchi ta’limot, nazariyadir. Metodologiya izlanuvchiga narsa (o‘rganish obyekti)da nimalarni izlashi, topishi, izohlashi, ochib berishi lozimligini ko‘rsatib turadi. Bu uning yo‘lchi yulduzi, qayerga borishi va kelishi lozimligini ko‘rsatib turuvchi mayog‘idir.(H.Ne’matov) Dialektik bilish nazariyasi barcha fanlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” mustaqil fan sifatida. “Ona tili o‘qitish metodikasi” pedagogik sikldagi fanlardan biri bo‘lib, u didaktika bilan uzviy bog‘langan va xususiy didaktika sirasidagi fanlardan biri sanaladi. Chunki umumiy didaktikaning barcha masalalari bevosita xususiy didaktika, shu jumladan, ona tili ta’limi bilan bevosita aloqadordir. (Ta’limning umumdidaktik asoslaridan xabardor talaba “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanini osonlik bilan o‘zlashtiradi.) Zero, tilshunoslik tilimiz va o‘zbek tili birliklarining tizimiy imkoniyatlarini ochib beradi, ona tili ta’limi shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, ayni bir axborotni yuzlab usul-u vositalar bilan ifodalash yo‘llarini, ulardan aniq bir sharoitda qay biri eng qulay va ta’sirchan ekanligini to‘g‘ri aniqlash va qo‘llashni o‘rgatadi. Ona tili o‘qitish metodikasi esa til imkoniyatlardan samarali foydalanish yo‘llarini umumlashma tarzda o‘rganadi va o‘rgatadi.

Mazkur fan ta’limning barcha tur va bosqichlarida, jumladan, o‘rta umumta’lim maktablarida ona tilidan nimani o‘rgatish, qancha o‘qitish, nima uchun o‘qitish, qanday usullar bilan o‘qitish kerak kabi qadimiy va hamisha

[84]Ne’matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. –Buxoro: Universitet, 2005.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-томли. Iтом.–Т.: ЎзМЭ, 2005.–461-б.

dolzarb savollarga javob izlaydi. Vaholanki, pedagogik sikldagi fanlarning barchasi: “Tarbiya nima?, U qanday hodisa?, Qachon paydo bo‘lgan?, Tarbiya jarayonining ildizlari qaysi sarchashmalardan suv ichgan, tadrijiy taraqqiyoti qanday kechgan?, Ta’lim-chi?, U qanday jarayon?, Uning mohiyati nimada?, Bashariyatning davrlar silsilasidagi taraqqiyot darajasiga ta’lim-tarbiyaning nechog‘lik ta’siri bor?” kabi masalalar yechimi bilan shug‘ullanadi. Ushbu savollarga javob berish asosida insonning barcha taraqqiyot bosqichlaridagi faoliyati, hayot kechirishi, turmush tarzi, rivojlanish jarayoni faqat va faqat ta’lim-tarbiya negizida qurilganligini e’tirof etadi.

Ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya borasidagi tarixidan ma’lumki, turkiy ta’lim-tarbiya tizimi o‘ziga xos bo‘lgan. Buni yozma yodgorliklar (V-IX asrlarga oid O‘rxun-Enasoy yodgorliklari)da bitilgan bitiklar mazmuni[85]dan ham, XII asrda yashab o‘tgan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy IX-XI asrlarda turkiy yozuv nomi bilan mashhur bo‘lgan qadimgi uyg‘ur yozuvini sharhlab: “Uyg‘urlarning ham, chinliklarning ham yana boshqa bir yozuvi bor. Kitoblarni, idora ishlarini u xat bilan yuritadilar. Chinliklar va musulmon bo‘lmaganlardan boshqalar u xatni o‘qiy olmaydilar” kabi ma’lumotlaridan ham anglash mumkin. Keltirilgan misollar X va undan oldingi asrlarda turkiy tilda ta’lim beradigan maktablar bo‘lganligini aniq ko‘rsatib beradi. X asrdan oldingi va keyingi davrlarda ham turkiy tilda ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilganligi haqida tarixiy manbalarda bilvosita ma’lumotlar yetarlicha keltirilgan (Qarang: bu xususda “O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitish tarixidan” mavzusida batafsil ma’lumot berilgan.)

Aytib o‘tganimizdek, turkiy tilda ta’lim berishga asoslangan o‘qitish tizimi uzoq tarixga ega bo‘lib, biz bilvosita va bevosita ma’lumotlarga tayangan holda ayta olamizki, turkiy ta’lim-tarbiya tizimi O‘rxun-Enasoy yodgorliklari davridan toki hozirgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu tizim zanjiri tarix suronlarining ba’zi davrlarida susaygan, ba’zi davrlarida kuchaygan, ammo uzilgan emas.

---

[85]O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, akademik A.N.Kononov shunday yozadi: "O‘zining morfologiyasi va sintaksisi yuksak darajada rivojanganligi bilan qadimgi turkey yodgorliklarning tili bizga yetib kelguncha uzoq adabiy an’anaga ega bo‘lganligidan dalolat beradi". (Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников <VII – IX вв.>. – Л.: Наука, 1980.)

Xo‘sh, ta’lim o‘choqlarida o‘zbek (ona) tilini o‘qitish usullari, yo‘l-yo‘riqlarining umumlashmasini nazarda tutadigan fan–“Ona tili o‘qitish metodikasi” qachon fan sifatida shakllangan?

Hozirgacha yaratilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” darslik va qo‘llanmalarida[86] “Ona tili o‘qitish metodikasi”ning mustaqil fan sifatida shakllanishi 1930-yillarga to‘g‘ri kelganligi, bunga o‘sha davrda ta’lim tizimini takomillashtirish hukumat ahamiyatiga molik masala tusini olganligi sabab bo‘lganligi haqida ma’lumotlar o‘qiymiz. Jumladan, 1922-yilda “O‘zbek bilim yurtlari uchun ona tili va adabiyot dasturi”ning tuzilishi maorif sohasida muhim voqea bo‘ldi. Bu dastur 1923-yilda “Bilim o‘chog‘I” jurnalining 2-3-sonlarida e’lon qilindi.

Dastur quyidagi bo‘limlardan tashkil topdi:

I. Hozirlik. *1.Adabiy o‘qish va so‘zlash. 2.Yozuv ishlari. 3. Nahv.*

II. Hozirlik. *1. Adabiy o‘qish va so‘zlash. 2. Tahrir. 3. Sarf, nahv.*

Dasturda materiallar kurslar bo‘yicha quyidagicha taqsimlandi:

I. Asos, ya’ni kurs. *1. Adabiy tekshirish. 2. Tahrir.*

II. Asos. *1.San’at asarlari. 2.Umuman, san’at asarlariga va xususan, she’riy asarlarga tarixiy jihatdan qarash. 3.Asl adabiyot tarixiga hozirlik ma’lumoti. 4.Yozuv, alifbo, yozuvning qanday tug‘ilishi*.

Ayniqsa, 1924-1929-yillar oralig‘i xalq maorifi sohasida, o‘zbek (ona) tili, adabiyot va o‘zbek adabiyotshunosligida erishilgan yutuqlar maktab ta’lim-tarbiya ishlariga, maktab ta’limi mazmuniga o‘zbek (ona) tili va adabiyot o‘qitish ishlariga jiddiy ta’sir etdi, metodik ishlarning yuzaga kelishini ta’minladi.[87]

To‘g‘rirog‘i, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining turkiy til, uning ta’limi, turkiy tilning ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘rni xususidagi O‘rxun-Enasoy yodgorliklari davridan toki XX asr boshlarigacha bo‘lgan, badiiy[88] hamda ilmiy[89] asarlari

---

[86]Ғуломов А., Расулов И., Рустамов Ҳ., Мирзааҳмедов Б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси.– Т.:Ўқитувчи, 1975. –280 b.; Ғуломов А., Қодиров М. Она тили ўқитиш методикаси. –Т.:Университет, 2001.– 220 b.; Ғуломов А., Қосимова Н. Она тили методикаси. – Бухоро: Университет, 2004.

[87] Ғуломов А., Қосимова Н. Она тили методикаси. – Бухоро: Университет, 2004.

[88]Навоий А. Лисонут тайр. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – 465 б.; Айний С. Эски мактаб. – Т.: Ўздавнашр, 1979. – 56 б.vab.

sirasidagi qarashlari muayyan fan tusini ola boshladi. (Demoqchimizki, hech qachon sababsiz oqibat bo‘lmaganidek, “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fani ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q. Sovet tuzumi davrida davr taqozosiga ko‘ra o‘zbek (ona) tilini ta’lim o‘choqlarida maxsus o‘quv predmeti sifatida o‘qitilishining yo‘lga qo‘yilishi “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining ta’sis etilishiga turtki bo‘ldi.)

Demak, XX asrning 30-yillaridan boshlab pedtexnikum hamda oliy o‘quv yurtlarida “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fani maxsus o‘qitila boshladi. Mazkur fanga tegishli qo‘llanma hamda darsliklarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish ishlari esa XX asrning 40-yillaridan boshlandi. “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” bo‘yicha yaratilgan ilk qo‘llanma va darsliklar quyidagilar bo‘ldi:

1. Fessalonitskiy S.A. Ona tili metodikasi (o‘quv qo‘llanma).–Toshkent: Toshkent Davlat O‘quv-pedagogika nashriyoti, 1940.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ona tili ta’limiga doir dastur, dars mazmunnomasi namunalari berildi. Yozma nutq o‘stirish masalasiga keng e’tibor qaratildi. Til fanining bo‘limlari(morfologiya va sintaksisdan tashqari)ni o‘qitish metodikasiga oid qimmatli ma’lumotlar tavsiya etildi.

2. Shams M. O‘zbek tili o‘qituv metodikasi (metodik tavsiyalar).–Toshkent, 1950.

Mazkur metodik tavsiyalarda ona tili darslarini tashkillashtirish, o‘tkazish metodlari ko‘rsatib berildi. Til fanining bo‘limlari(orfografiya va punktuatsiyadan tashqari)ni o‘qitish metodikasiga oid chizmalar tavsiya etildi.

3. O‘zbek tili o‘qitush metodikasi. I qism. (O‘quv qo‘llanma. Faxri Kamol tahriri ostida.).– Toshkent, 1952.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada grammatika o‘qitish masalasiga ko‘proq e’tibor qaratildi.

---

[89]Навоий А. Муҳокаматул луғатайн. 15 томлик. 14-том. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабий нашриёт, 1967.; Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. – Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1960. – 152 б.; Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 76 б. va b.

4. Rustamov H. Sintaksis va punktuatsiya o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma).–Toshkent, 1960.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ham grammatika o‘qitish masalasiga ko‘proq e’tibor qaratildi. Ammo nutq o‘stirish masalasi e’tibordan chetda qoldi.

5. Abdurahmonov N. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma).–Toshkent, 1969.

Mazkur o‘quv qo‘llanma yuqorida sanab o‘tilgan adabiyotlarga qaraganda til fanining bo‘limlarini o‘qitish metodikasini bir qadar batafsil yoritdi-yu, nutq o‘stirish masalasiga yetarlicha etibor bermadi. Bizningcha, buning o‘ziga xos sabablari bor edi: nutq – tafakkur mahsuli. Shuning uchun ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan muhim talab– o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish. Fikrni bayon qilish tafakkur va til orqali amalga oshadi. Ularning o‘zaro munosabati juda murakkab jarayondir. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishining oliy shakli bo‘lsa, til tafakkurni ma’lum shaklga solib, so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar bilan ifodalash vositasi hisoblanadi. Tafakkur qancha rivojlantirilsa, o‘quvchining fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo‘ladi. Zero, tafakkur ildizlari hamisha milliy o‘zlikdan ozuqa oladi. Ya’ni har bir millat bolasining tafakkuri o‘sha millatning o‘ziga xos milliy qadriyatlari, an’analari, urf-odatlari, udumlari, turmush tarzi orqali shakllanadi va rivojlanadi. Sovet tuzumi esa SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalarda millat bolalariga milliy tarbiya berilishiga yo‘l qo‘ymas edi.

Sovet davrida butun ittifoqda ta’lim tizimi yagonaligi niqobi ostida rus va milliy maktab darsliklarining mazmunan bir xilligi talab qilinar edi. Shuning uchun nafaqat aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha, hatto tarix-u geografiya darsliklarini ham rus tilidan tarjima qilib, milliy maktablarda qo‘llash va ommalashtirish keng amalda edi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun Moskva har bir o‘quv fanidan barcha respublikalar uchun majburiy namunaviy dasturlar ishlab chiqar, shu usul bilan ta’lim maqsadi, mazmuni va usulidagi yagonalikni ta’minlar edi. Bu tazyiq o‘sha paytlarda shu darajaga yetdiki, namunaviy dasturlardan milliy ruh hamda sharoitni berish uchun har qanday chetga chiqish millatchilik va ittifoq birligini

buzishga qaratilgan davlat jinoyati sifatida bahonalanar, qattiq ta’qib qilinar edi. Pirovard oqibatda, hatto ona tili darsliklarida milliy tilning qurilishi talqinlari ham rus tili qurilishiga mumkin qadar “yaqin”lashtirildi. Xo‘sh, bunday sharoitda nutq o‘stirish haqida nima deyish mumkin edi?!

(1970-yilda maktab ta’limini hayot bilan bog‘lashni mustahkamlash shiori ostida o‘quv predmetlari mazmuni qayta ko‘rib chiqildi va bir qadar yangilandi. Natijada ona tili ta’limi oldiga o‘quvchilarning uslubiy-imloviy savodxonligini ta’minlash, adabiy til me’yorlarini ommalashtirish bilan bir qatorda yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish maqsadlari ilgari surilgan bo‘lsa-da, bu ona tili dasturida “bog‘lanishli yozma va og‘zaki nutqni o‘stirish” bo‘limini qo‘shish unga har bir sinfda yozma ishlar uchun ma’lum miqdorda o‘quv soati ajratish bilan cheklanildi. Ona tili dastur va darsliklarining asosiy mazmuni o‘zbek tili grammatik qurilishi S.Barxudarov darsliklarida o‘z aksini topgan rus tili qurilishi talqiniga mos tizim sharhi bilan cheklangan edi. Asosiy o‘quv materiali va darslarning mazmuni yangi maqsad – o‘quvchilarning uslubiy-imloviy savodxonligini rivojlantirish bilan har tomonlama uzviy bog‘lanmagan edi. Ona tili ta’limi mazmuni hamda ta’limiy topshiriqlar orasida nomutanosiblik vujudga keldi. Ona tili materiallari asosida tilshunoslik asoslarini o‘rganish va yozma ishlar uchun ajratilgan o‘quv soatlarida yozma nutq o‘stirish mashg‘ulotlari bir-biridan ajralgan, o‘zaro uzviy bog‘lanmagan edi.)

To‘g‘ri, 1970-yillardan keyin yuzaga kelgan qator metodik tavsiyalar-u tadqiqotlarning aksariyati nutq o‘stirish masalasiga qaratilgan bo‘lsa-da, ular ham sovet davrining “qizil ip”i orasida ish ko‘rishga majbur bo‘ldilar.

6. G‘ulomov A., Rasulov I., Rustamov H., Mirzaahmedov B. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma).–Toshkent: O‘qituvchi, 1975.

Ushbu o‘quv qollanma o‘z davri uchun yaratilgan eng maqbul adabiyot bo‘lib, undan oliy ta’lim tizimida qariyb 1990-yillargacha foydalanildi.

Bu ishlarda garchand so‘zlarni turkumlarga ajratish, orfografiya va punktuatsiyani o‘qitishni til bilimlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirish borasida ijobiy fikr-mulohazalar bayon etilgan bo‘lsa-da, ammo orfografik va

punktuatsion malakalarni takomillashtirish maqsadida qanday mashqlar tizimidan foydalanish, ayniqsa, o‘quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirishda qo‘l keladigan ijodiy-amaliy ishlar borasida aniq yo‘nalish belgilanmagan. Sababki, XX asrning 90-yillariga kelib ona tili ta’limi maqsadi va mazmuni bir-birini inkor etadigan holga kelib qolganligi yaqqol sezildi, sababki ta’lim mazmuni til qurilishi bo‘yicha nazariy bilimlardan iborat bo‘lib qoldi. Ona tili darsliklari tilshunoslik faniga aylantirib qo‘yilgach, tabiiyki, nutq o‘stirish grammatizm soyasida qolib ketdi. Ayniqsa, lingvistik tahlillarga katta e’tibor qaratilib, pirovardida, tilshunoslik asoslari o‘quvchining til qurilishi bo‘yicha nazariy bilimini baholash parametriga aylantirib qo‘yildi.

1940-yillardan boshlab o‘zbek tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini M.Shams, F.Kamol kabi olimlarning o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan tadqiqotlari boshlab berdi. 1960-1980-yillar oralig‘ida o‘zbek tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘ttizga yaqin nomzodlik dissertatsiyasi[90] himoya qilindi.

Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ona tili o‘qitish metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaydi. O‘tgan qisqa davr ichida ona tili o‘qitishning o‘ta muhim muammolariga oid bitta doktorlik va 20dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Askar G‘ulomov, Muhammadjon Qodirov, Nazira Qosimova, Boqijon To‘xliyev, Muyassar Shamsiyeva, Tursunoy

[90] Хайруллаев К. Бухоро вилояти мактабларининг 5-6-синфларида она тилидан ўқувчиларнинг типик орфографик хатолари ҳамда унинг олдини олиш ва бартараф этиш йўллари:п.ф.н. дисс. автореф.–Т.,1957.–24 б.; Турсунов С. Ўзбек мактабларининг 4-синфларида грамматикани ўқитиш методикаси: п.ф.н. дисс. автореф.–Т., 1957.–32 б.; Абдуллаев Й. Эски ўзбек мактабларида (1865-1917 йиллар) савод чиқариш: п.ф.н. дисс. автореф.– Т., 1961.–21 б.; Абдураззоқова Қ. Она тилидан 5-синфларда ўқувчилар фаоллигини ошириш. п.ф.н. дисс. автореф.–Т., 1964.–25 б.; Мирзааҳмедов Б. Ўзбек мактабларининг 6-синфларида қўшма сўзларни ўқитиш методикаси: п.ф.н. дисс. автореф.–Т., 1965.–32 б.; Қосимова К. 5-синфларда она тили дарсларида луғат устида ишлаш: п.ф.н. дисс. автореф.–Т., 1966.–25 б.; Омилхонова М. 8 йиллик ўзбек мактабларида ўқувчилар нутқини синонимлар билан бойитиш: п.ф.н. дисс. автореф.–Т., 1967.–16б.; Розиқов О.Ўзбек мактабларининг бошланғич синфларида ўқувчиларнинг мустақил ишлари: п.ф.н. дисс. автореф. –Т., 1967.–32 б.; Коэнов Ш. Ўзбек мактабларининг бошланғич синфларида ўқувчиларни баён ёзишга ўргатиш: п.ф.н. дисс. автореф.–Т., 1973.–29 б.; Иноғомова Р. Феъл замонларини ўрганишда ўқувчиларнинг нутқи устида ишлаш: п.ф.н. дисс. автореф. –Т., 1974.–29 б.; Шукруллаев Н. Ўзбек мактабларининг 8-синфларида қўшма гап синтаксисини ўқитишда ўқувчилар нутқини ривожлантириш: п.ф.н. дисс. автореф. – Т., 1975.–32 б.; Ғуломов А. Ўзбек мактабларининг 4-синфларида она тили дарсларида ўқувчиларнинг мустақил ишлари: п.ф.н. дисс. автореф. – Т., 1975.– 24 б. vab.

Ziyodovalar muallifligida ona tili o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanmalari[91] amaliyotga tatbiq etildi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Ma’lumki, pedagogika institutlari va universitetlarning filologiya fakultetlari bakalavriyatini bitirib chiqadigan mutaxassislarning asosiy qismi o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi sifatida umumiy o‘rta maktabga boradi. Shu bois, bo‘lajak mutaxassislar uchun “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fani yetakchi fanlardan biri bo‘lib, uning oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilishi muhim zaruratdir.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilishi maktabda ona tili fanining tutgan o‘rni bilan ham belgilanadi. “Ona tili” maktab ta’limi tizimida yetakchi fanlardan biri bo‘lib, jamiyat a’zolarini ijodiy fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, ona tili ta’lim tizimidagi barcha o‘quv predmetlari va fanlarni o‘rganish hamda o‘rgatish vositasi hamdir.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining ***ilmiy tadqiqot obyekti*** ona tili ta’limining umumiy va xususiy maqsadlari, mazmuni, vositalari, usul va metodlari mutanosibligini ta’minlash asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni hisoblanadi.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining ***predmeti*** esa maktabda ona tili o‘qitish jarayonidir. Bu jarayon:

a) ona tilidan o‘quvchilarga beriladigan zaruriy bilimlar silsilasi;

b) shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko‘nikmalar tizimi;

d) ijodiy faoliyat usullari;

e) o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga qamrab oladi.

Ona tilidan zaruriy bilimlar silsilasi bu bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan va o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan til materiallari–tushunchalar, qoidalar, ta’riflar, o‘quv topshiriqlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

---

[91]Ғуломов А., Қодиров М. Она тили ўқитиш методикаси. –Т.: Университет, 2001.; Ғуломов А., Қосимова Н. Она тили методикаси. – Бухоро: Университет, 2004.; Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Т.: Янги аср авлоди, 2006.

Xo‘sh, bilim nima? ***Bilim*** insonning kundalik hayotida orttirgan tajribalari, umumlashmalari, takrorlanib turuvchi hodisalarda ochgan qonuniyatlari bo‘lib, avloddan avlodga yetkaziladi. “Bilim – moddiy borliqning inson ongidagi in’ikosi, tajribada sinalgan aniq natijalaridir.”[92] Bilimlar asoslar, tamoyillar, qonunlar tarzida mavjud. Insonnining faol va bunyodkor ongi va tafakkurining mahsuli bo‘lgan bilim insonni hayvondan farqladi. Lekin ta’lim tizimi ta’lim mazmuni tarkibiga kiritiladigan bilimlar silsilasiga o‘zgacha yondashadi – u ta’lim oluvchiga berilishi, singdirilishi zarur bo‘lgan bilimlarni ta’lim maqsadi “elagi”dan o‘tkazadi va, albatta, beriladigan bilimlarni pragmatik ahamiyati, ya’ni olingan bilimlarni amaliy qo‘llash – tatbiq va ijodliylik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan baholaydi. Shuning uchun bilim/ilm umuman va ta’lim mazmuni tarkibiy qismi sifatida belgilangan bilimlar/ilmiy talqin va tahlil asoslari ayni bir narsa emas – ta’lim mazmuni tarkibiga kiritilgan bilimlar silsilasi umumiy bilim/ilmning ta’lim maqsadi nuqtayi nazaridan tanlangan, ta’lim oluvchininig yoshi, aqliy, jismoniy, kasbiy (faoliyat) xususiyatlari va ijtimoiy (jumladan, kasbiy) ehtiyojlariga muvofiqlashtirilgan bo‘lagi, parchasidir. U, albatta, pragmatik ahamiyatli – tatbiq etiladigan va uning asosida ijod qilish mumkin bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i zarur.

Bilim tatbiq, ijod bilan ahamiyatli. Bilim amaliy tatbiqini topmasa, u ta’lim oluvchi tafakkuri uchun ortiqcha yuk va juda tez xotiradan ko‘tarilib, unutiladi, bunday – amaliy tatbiqsiz bilimni o‘rganish va o‘rgatishga sarflangan mehnat zoye ketadi. Lekin bilim va ijod, bilimdonlik va ijodiylik, bilim va uning amaliy tatbiqi ham bir narsa emas. Har bir yangi avlod hayotga qadam qo‘yar ekan, ilgarigi avlodlar tajribasini o‘rganadi hamda shu asosda yangi bilimlar yaratadi. Ta’lim maqsadi bilan bog‘liq ravishda ta’lim oluvchida hosil qilinishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmi va tabiati ijtimoiy zarurat bilan belgilanadi hamda tarbiyalanuvchining iqtidori bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi lozim. Zeroki, bilim maqsad, shaxsni faoliyatga yo‘llash hamda bilim~malaka va ko‘nikmalar zanjiri

[92]Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 85-б.

asosini tashkil etadi. Bilim, xususan, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilimlar malaka va ko‘nikmalar hosil qilish bilan, ya’ni o‘quvchining ijodiy ~ amaliy tatbiq faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak.

Bilim tarbiyalanuvchi uchun jamiyatning ma’lum taraqqiyot bosqichida zaruriy malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish uchun muhimdir. Tarbiyalanuvchida hosil qilinadigan malaka va ko‘nikmalar ta’lim mazmuni uchun maqsaddir. Ta’lim mazmuni – tarbiyalanuvchida ijtimoiy zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish vositasi.

Bilimlar bilish faoliyatining oxirgi mahsuli emas, balki har qanday bilim ta’lim oluvchi shaxsini jamiyat belgilagan ijtimoiy zarurat talablari asosida g‘ayratga undagan taqdirdagina qimmatlidir.[93]

Malaka va ko‘nikma. Ko‘nikma–shaxsga singgan, uning ajralmas atributi (xususiyati) bo‘lgan avtomatlashgan ***malaka***dir. Pedagogik adabiyotlarda ko‘pgina tadqiqotchilar malaka va ko‘nikmani aksincha – ko‘nikmani qobiliyat, imkoniyat; malakani esa shaxsga singgan, avtomatlashgan ko‘nikma sifatida baholaydilar.[94] O‘zbek didaktlaridan A.G‘ulomov ham o‘z qarashini shu fikr nuqtayi nazaridan bayon etgan. M.Mahmudova, B.Adizov, S.Og‘ayev, O.Roziqovlar esa juft so‘z ko‘nikma~malaka atamasidan foydalanadilar. Atamada tarkibiy qismlarning joylashish tartibidan ko‘rinib turibdiki, olimlar ko‘nikmani quyi bosqich, malakani esa yuqori bosqich sifatida qabul qilishga moyildir va bunday qarashni o‘zbek didaktikasi uchun umumiy deb sanash mumkin. Ammo malaka va ko‘nikma atamalarining asoslari ifodalaydigan mazmunga bunday tushunish zid. Zeroki, malaka so‘zi– (“O‘zbek tili morfem lug‘ati” (A.G‘ulomov va b. T.: O‘qituvchi, 1977)da bu so‘z sinxronik sistemaviy tahlil nuqtayi nazaridan juda to‘g‘ri ravishda tub leksema tarzida berilgan bo‘lsa-da) arabcha so‘z bo‘lib, “molik bo‘lmoq”, “ega bo‘lmoq”; ko‘nikma so‘zining o‘zagi esa “ko‘nikmoq”, “biror narsaga odatiy va me’yoriy deb qarash” ma’nolariga ega.

---

[93]Савин Н.В. Педагогика. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 336 б.
[94]Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудов М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 85-б.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ko‘nikma so‘zi mahorat, malaka so‘zlari bilan; malaka so‘zi esa mahorat so‘zi bilan sinonim tarzida beriladi. Fikrimizni chuqurroq tahlil qilish maqsadida A.Hojiyev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”ni ko‘zdan kechiramiz. Lug‘atda “ko‘nikmoq”, “ko‘nikma” so‘zlarining ma’nodoshlari sifatida odat hosil qilmoq, odatlanmoq, o‘rganmoq so‘zlari[95] keltiriladi.

O‘TIL da esa “odat”, “odatlanmoq” so‘zlari o‘rganish bo‘lib qolgan harakat, qiliq, ma’nosini bildirishi izohlanadi. Bizningcha, malaka, ko‘nikma so‘zlarining mohiyatiga ko‘nikmani qobiliyat, imkoniyat; malakani esa avtomatlashgan qobiliyat sifatida yondashish rus pedagogik terminologiyasiga taqlidan yoki aynan tarjima qilish oqibatida kelib chiqqan. Chunki rus pedagogik terminologiyasida ***умение***–ilk bosqich sifatida, ***навык***–yuqori bosqich sifatida farqlanadi. Shuning uchun biz o‘zbek tilida malakani quyi, ko‘nikmani undan yuqori bosqich sifatida tushunishimiz ma’qul. Lekin shuni ham ta’kidlash joizki, sharq didaktikasi bilim~malaka~ko‘nikma zanjiri bilan cheklanib qolmaydiki, biz bu haqda quyida so‘z yuritamiz.

Ta’lim oluvchida ta’lim jarayonida hosil qilingan malaka va ko‘nikmalar ko‘proq darajada ongli, puxta, natijalarning ishonchli bo‘lishi bilan birga, o‘zgarib turadigan sharoitlarda zarur harakatni tanlay olish, uni bajara olish bilan xarakterlanadi.

“Bilimli” bilan “tarbiya ko‘rgan” orasida farq bor. Xalqimizning “Farzandingni yo maktabga ber, yo madaniyatlilar davrasida tut” mazmunidagi ta’birlari zamirida nima yotadi? Tarbiya ko‘rgan shaxs, albatta, bilimli bo‘ladi, lekin u o‘z bilimidan hamisha jamiyat talablariga mos ravishda, jamiyatda qabul qilingan axloq me’yorlariga rioya etgan, muayyan shart-sharoitni hisobga olgan holda foydalana olishi kerak. Tarbiya ko‘rgan deganda ilm-u bilimiga, sharoitga va maqsadga mos ravishda amal qila oladigan shaxs tushuniladi. Bu xislat uning tabiatiga aylangan bo‘lishi shart. Mir Alisher Navoiy aytganlaridek:

---

[95]Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – 129-б.

Tabiatga har neki odat erur,

Chu eskirdi odat tabiat erur.

Bugungi davr nafaqat bilimli shaxsni, balki bilimlaridan jamiyat talablariga mos foydalana oladigan, mustaqil fikrlaydigan, bunday odat uning tabiatiga aylangan, ya'ni tarbiyalangan, madaniyatli, ma'naviyatli shaxsni yetishtirib berishni maktab oldiga maqsad qilib qo'ygan. Demak, so'z nafaqat bilim, malaka va ko'nikma zanjiri, balki bilim ~ malaka ~ ko'nikma ~ odat ~ tabiat uzluksiz zanjiri haqida borishi kerak va so'nggi bosqichga ko'tarilgan shaxsgina tarbiya ko'rgan shaxs sanalishi mumkin. Shuning uchun biz:

bilim ~ malaka ~ ko'nikma ~ odat ~ tabiat

pog'onaviy zanjiri haqida gapirishimiz kerak.[96] Zarur bo'lgan bilimlarni topa oladigan, olganlarini sharoitga mos ijtimoiy-ma'naviy-ahloqiy me'yorlarga muvofiq amalga tatbiq etish tabiatiga aylangan shaxsgina tarbiyalangan, tarbiya ko'rgan shaxs sanalishi mumkin. Faylasuf I.Gyote ta'kidlaganidek: "Chinakam shogird bor narsalar negizida mavhum narsalar rivojini o'rganadi va shu yo'l bilan ustoziga yaqinlashib boradi."

"O'zbek (ona) tili o'qitish metodikasi" fanining **maqsadi:** talabalarni ona tili ta'limi bo'yicha amaliyotga tayyorlash: samarali metodlarni tanlash hamda qo'llash bo'yicha kasbiy tayyorgarligini ta'minlash, pedagogik tafakkurni chuqurlashtirish va kengaytirish uchun zaruriy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

"O'zbek (ona) tili o'qitish metodikasi" fanining ***vazifalari***:

–o'quvchilarni ta'limning subyektiga aylantirish yo'llari;

–ularni faollashtirish usullarini o'rgatish;

–ona tili bo'yicha darsliklar mazmuni bilan tanishtirish;

–ta'lim metodlari va ulardan foydalanish bo'yicha tushuncha hosil qilish;

–ona tili predmetidan yillik va bir soatlik rejalar tuzish;

[96]Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013.

–yozma ishlarni tekshirish va baholash hamda DTS talablari asosida o‘quvchilar bilimini aniqlash va baholash yo‘llarini o‘rgatish;

–ona tilidan tilshunoslik asoslarini emas, til imkoniyatlaridan foydalanishni o‘rgatish yo‘llarini singdirishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, malaka va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan ***talablar***:

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha ***talaba quyidagilarni:***

1) maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi va vazifalarini bilish;

2) o‘quvchilarni fikrlash va o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri, sodda, ravon, tinglovchiga tushunarli tarzda bayon qila olish faoliyatiga tayyorlashni uddalay olish;

3) o‘quvchilarni fikr mahsulini nutqning ham og‘zaki, ham yozma ko‘rinishlarida birdek ravon bayon eta olish yo‘llarini egallashga o‘rgatish;

4) bolalarda nutqiy me’yorlarni tarbiyalash;

5) ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni nutq madaniyatini egallashga o‘rgatish;

6) ona tili ta’limining bosh maqsadi har bir soatlik dars jarayonida, dars jarayonida foydalaniladigan usul va o‘quv topshiriqlarida voqelanishi zarurligi mashg‘ulotlarga tayyorlanishning mezoni bo‘lishi;

7) ona tili bo‘yicha darslarni tashkil etish yo‘llarini;

8) o‘quvchilarni ta’lim kechimining subyektiga aylantirishni;

9) dars davomida o‘quvchilarni faollashtirish yo‘llarini **bilishi kerak**.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha ***talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi zarur***:

– har bir sinfda didaktik ta’limiy vositalar(“Axborot banki”, darslik, o‘quv qo‘llanma)lardan, texnik vositalar, AKTlaridan unumli foydalana olish;

– yillik mavzuiy va bir soatlik reja-konspekt tuza bilish;

–yozma ishlarni to‘g‘ri tekshirish va baholay olish;

–o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish yo‘llarini bilish.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha ***talaba quyidagi malakalarga ega bo‘lishi muhim***:

– o‘quvchilar bilimini to‘g‘ri baholay olish;

– o‘quvchilar bilan munosabatga kirisha olish;

– sinf o‘quvchilarini didaktik maqsadga yo‘naltira bilish;

– darsliklar doirasidagi barcha filologik tushunchalardan foydalana olish.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Bu fan oliy ta’limda o‘qitiladigan “Hozirgi o‘zbek tili”, “O‘zbek tili tarixi”, “Ona tili ta’limi maqsadi”, “Falsafa”, “Tilshunoslik nazariyasi” fanlari bilan, shuningdek, o‘rta umumta’limda o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari bilan chambarchas bog‘liq. Kursni mukammal o‘rganish yuqorida sanab o‘tilgan fanlardan nazariy bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Fanning falsafa bilan aloqadorligi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi uzluksiz taraqqiy etib boruvchi fandir. Metodik taraqqiyot muayyan rivojlanish bosqichlari orqali amalga oshadi. Har bir bosqich o‘zining umumiy maqsadi, bu maqsad bilan bog‘liq vazifalar, shu vazifalarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar bera oladigan metodologiya va metodlar bilan uzviy aloqadordir.

“O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” ikki omil asosida taraqqiy etadi.

“O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” taraqqiyotining birinchi omili uning boshqa (turkiy tillar oilasiga mansub) tillar o‘qitish milliy metodikalarining ilmiy ta’siri asosida rivojlanish imkoniyati hisoblanadi. Ushbu jarayon yuz berishining asosiy sababi qarindosh tillarning tuzilishi va kommunikativ vazifalarida umumiylik-xususiylikning mavjudligidir.

“O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi”taraqqiyotining ikkinchi yoki eng muhim, yetakchi yo‘li bu uning falsafiy-mantiqiy qonun, kategoriyalar va zamonaviy umumfan tushunchalari negizida rivojlanish tomon borishidir.

Tabiiyki, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisaviylik, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat, falsafiy-mantiqiy qonun, kategoriyalarni tushunish har bip mutaxassisdan falsafa fanini bilishni taqozo etadi. Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari, avvalo, tilshunoslik asoslarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lmog‘i lozim.

U tilshunoslik asoslarini puxta o‘zlashtirishi uchun esa falsafa fanidan yetarlicha xabardor bo‘lmog‘i shart. Tilning birliklari, sathlari, lisoniy va nutqiy sistemalar, munosabatlarni o‘rgayotganda, avvalo, har bir til birligida, sathda, makrosistema va mikrosistemalarda qarama-qarshi jihatlarning birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, inkorni inkor qonuniyatining qay tarzda amalga oshayotganligini ongli ravishda kuzata olmog‘i talab etiladi. Demak, falsafaning eng umumiy maqomdagi uch qonuni har bir mutaxassisga, sohasidan qat’i nazar, o‘rganishning umumiy yo‘nalishini, dasturini ko‘rsatib beradi. Shu boisdan ham bakalavriat, magistratura va doktoranturada falsafa o‘qitiladi. Maqsad bo‘lg‘usi oliy ma’lumotli mutaxassis, magistr, ilmiy xodimlarni dunyoni o‘rganish, tadqiq etish va izohlashda bilish metodologiyasi bilan qurollantirishdir. Demak, har bir fan bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lishni istagan kishi falsafaning asosiy qonun va kategoriyalarini ongli bilishi, ma’lum darajada faylasuf ham bo‘lmog‘i lozim.

Ushbu o‘rinda ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining, filolog tadqiqotchilardan ko‘pchiligining metodologik etalon bo‘lgan falsafiy ta’limotga befarqligi, qiziqmasligi, o‘z fanining “joni” hisoblanuvchi filosofiyaga xuddi boshqa, begona fandek qarashlari kishini taassufga soladi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri holat. Zero, “O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” xususiy pedagogik sikldagi fan bo‘lib, ijtimoiy fanlar guruhiga mansub. Shu bois “O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” barcha fanlar singari ijtimoiy fanlarning tadqiq asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog‘langan.

Fanning o‘zbek tilshunosligi bilan aloqadorligi. “O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” garchand pedagogik sikldagi fan sanalsa-da, uning ilmiy asosini o‘zbek tilshunosligi hozirgacha qo‘lga kiritgan yutuqlar tashkil etadi. Til ilmi sohasida erishilgan ilmiy yutuqlarning aksariyati maktab ona tili kursining mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi: zarurat tug‘ilganda uni yangilash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilshunosligi erishgan barcha yutuqlarni o‘rta umumta’lim maktablari o‘quvchisiga o‘rgatishning iloji ham, zarurati ham yo‘q. Demak, “O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” til ilmi sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan nimani ajratib olib o‘quvchiga o‘qitish lozimligini ham hal qiladi.

O‘rta umumta’lim maktablarida ona tili kursi bolalarga ona tilimizning keng va rang-barang imkoniyatlaridan o‘rinli hamda samarali foydalanish yo‘llarini o‘zbek tili grammatikasidan zaruriy ma’lumotlarni o‘qitish orqali o‘rgatadi. Albatta, bunda o‘quvchilarning yoshi, taraqqiyot darajasi, nutqiy me’yor kabilar hisobga olinadi. Til bir butun tizim bo‘lganligi sababli maktab ona tili kursining har bir bo‘limi ikkinchisi bilan bog‘lanaveradi. Masalan, *Insoniyat taraqqiyotini kitobsiz tasavvur etib bo‘lmaydi* jumlasini olsak. Jumla tarkibidagi birliklarning tovush tizimini fonetika; so‘z va uning ma’nolarini leksikologiya; gapdagi nutdiy birliklarning tarkibiy qismini morfemika; gapda so‘zlarning sintaktik aloqaga kirishuvini sintaksis va h.lar o‘rganadi. Demak, bitta voqelikka turli jihatdan yondashiladiki, bu ayni paytda mohiyatning serqirraligi bilan xarakterlanadi.

Unutmaslik kerakki, “har qanday ta’lim va tarbiyada eng asosiy omil – muallim, uning tafakkur dunyosidir.”(A.Disterveg)

O‘rta umumta’lim maktablarida ona tili ta’limi nafaqat “Hozirgi o‘zbek tili” kursi, balki “Tilshunoslik nazariyasi”, “Til tarixi”, “Shevashunoslik”, “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, “Pragmalingvistika” singari fanlar bilan ham, asosiysi, milliy tarbiya bilan aloqador.

Fanning nutq madaniyati bilan aloqadorligi. “O‘zbek(ona) tili o‘qitish metodikasi” nutq madaniyati bilan ham uzviy bog‘liq. Zero, nutq madaniyati asoslarini puxta bilgan o‘qituvchilar o‘quvchi nutqi ustida samarali ishlay oladi. Ma’lumki, nutq madaniyati muammosi insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida o‘rtaga qo‘yib kelingan. U ta’limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan, keyinchalik Misr va Assuriyada, Hindiston va Xitoyda notiqlik san’at darajasiga ko‘tarilgan. Gap shundaki, u paytlarda davlat arboblarining obro‘-e’tibori va yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog‘liq bo‘lgan. Grek notig‘i Demosfen (eramizdan oldingi 384-322) va Rim notig‘i Sitseron (eramizgacha 106-43) larning hayoti fikrimizni dalillaydi.

O‘rta Osiyo tarixida ham nutq madaniyatiga erishish o‘ziga xos tizimga ega bo‘lgan. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari bu masalaning juda qadimdan o‘qimishlilar

uchun muhimligidan dalolat beradi. U paytlar “nutq odobi” deb yuritilgan sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik va laqmalikni qoralash, keksalar va ustozlar oldida gapirganda odob saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, yolg‘onchilik va tilyog‘lamalikni qoralash singari bir qator qoida va ko‘rsatmalar bugun biz “nutq madaniyati” deb atab kelayotgan tushunchaning aynan o‘zidir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida ham “Til fazilatlari, foyda va zararlari haqida”, “Til ardami” deb nomlangan maxsus boblari borki, ular so‘zlash madaniyatiga bag‘ishlangan. Asardagi

Bilib so‘zla so‘z biligka sonur,

Biligsiz so‘z o‘z boshini yeyur.

Mazmuni: ***Bilib so‘zlasa, so‘z donolik sanaladi, Nodonning so‘zi o‘z boshini yeydi*** kabi hikmatlar kishilarni nutqiy odobga undaydi. Shuningdek, Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarining 24-bobini voizlikka (notiqlik san’atiga) bag‘ishlaganligini ham bilamiz. “Muhokamat-ul lug‘atayn”, “Majolis-ul nafois” asarlarida, hatto “Xamsa” tarkibidagi dostonlarda ham alloma mazkur masalaga alohida e’tibor qaratadi. Demoqchimizki, nutqimizni madaniyat darajasida yuksaltirishimiz zarurligi masalasi qadimdan hozirgacha o‘z ta’sir kuchini yuqotgani yo‘q va bundan keyin ham shunday bo‘lib qolaveradi.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi”ning yuksalishini nutq madaniyati bilan aloqasiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” ifodali o‘qish, adabiyotshunoslik, didaktika, psixologiya, madaniyatshunoslik fanlari bilan ham uzviy bog‘liq.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining tekshirish metodlari. Fanda ikki xil bilish farqlanadi: 1.Sezgilar orqali bilish. 2.Aqliy bilish va tafakkur.[97]

Hissiy bilishda tashqi olamni sezgi a’zolarimiz orqali bilib olamiz. Bunday bilish, boshqa tirik jonzotlarda, jumladan, hayvonlarda ham rivojlangan. Aqliy bilish esa insonlarga xos bo‘lib, tashqi olamni faqatgina his qilib qolmay, balki har bir hodisa, predmet, jarayonlarni fahmlaydi, ularni miyada qayta ishlaydi, fikr

[97]Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. –Т.,1993.; Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. –Т., 1997.

yuritadi, xulosalaydi, tushunchaga ega bo‘ladi. Muayyan o‘rganish obyekti haqida ilmiy bilim hosil qilish usul (yo‘l-yo‘riq)lari tadqiq metodlari deyiladi.

Ilmiy tadqiq metodlari bir necha tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: bunda eng muhim qismlardan biri tadqiqotchining izlanishga qanday yondashishi, o‘rganish obyektini qanday tushunishi, uni qaysi nuqtayi nazardan turib tekshirishidir. Mana shu omillar ilmiy tekshirish metodologiyasini tashkil etadi. Tilshunoslik asoslarini puxta o‘zlashtirmagan o‘qituvchi o‘zbek (ona) tili o‘qitishni to‘gri tashkil eta olmaydi. Chunki tilshunos olim Peshkovskiy aytganidek: “Grammatikani bilgan kishi tilni boshqaradi, grammatikani bilmagan kishini esa til boshqaradi.”

Hozirgi zamon tilshunosligi til (lison)mohiyatini ochishda dialektik falsafa, lisoniy birliklar haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayoni dialektik gnoseologiya, jumladan, dialektik-logik kategoriyalardan onglilik va izchillik bilan foydalanishni taqozo etadi. Tilga falsafiy yondoshish deganda dealektikaning umumiylik~xususiylik, mohiyat~hodisa, imkoniyat~voqelik, sabab~oqibat kategoriyalarining til tizimi birliklariga bevosita amaliy tatbiqini tushunish zarur.

Dialektikada xususiylik umumiylikning, voqelik imkoniyatning, hodisa mohiyatning, oqibat sababning, tasodifiylik zaruratning yuzaga chiqish, voqelanish shaklidir. Demak, zamon talablariga javob bera oladigan o‘zbek (ona) tili o‘qituvchisi bo‘laman degan kishi, avvalo, dealektik kategoriyalar mohiyatini to‘g‘ri anglamog‘i lozim.

Quyida dealektik kategoriyalar xususida bir oz to‘xtalamiz:

Umumiylik va xususiylik. Tevarak-atrofimizni o‘rab turgan olamdagi har bir narsa, har bir hodisa faqat o‘ziga xos alohidalik xususiyatlariga ega. Dunyoda mutlaq bir xil bo‘lgan narsalarni ham, bir xil bo‘lgan hodisalarni ham topib bo‘lmaydi. Hatto bir daraxtning barglari ham bir-biridan farq qiladi.

Biroq aynan bir xil narsa, voqea-hodisa bo‘lmaganidek, dunyoda boshqa narsalar va hodisalar bilan umumiy belgilari bo‘lmagan mohiyat yoki voqeliklar ham yo‘q. Olma daraxti mevalarining har biri bir-biridan farq qilganidek nok yoki behi mevalari bilan o‘xshashlik hosil qiladigan, ayni paytda alohidalikni ko‘rsatib turadigan umumiy belgilari bor. Shuningdek, olma, nok, behidan tortib to Afrikada

bo‘ladigan banan-u boshqa setruslargacha ularni “meva” degan mushtarak tushunchaga birlashtirish imkonini beradigan umumiy belgilari mavjud. Umumiy va xususiy belgilar o‘zaro chambarchas bog‘liq. Har qanday umumiylik xususiyliklarda yashaydi, mavjud bo‘ladi. Har qanday xususiylik, ayni zamonda, umumiy belgi hamdir. (Masalan, [olma], [olcha], [o‘rik], [nok], [shaftoli], [anor] – har biri alohida leksema. Leksik jihatdan ularning har birida “uyadosh” degan umumiy belgi mavjud. Morfologik jihatdan esa “mustaqil leksema” yoki “turdosh ot” degan umumiy belgilari bor.)

Umumiylik va xususiylik kategoriyalari borliqning, undagi narsa, voqea-hodisalarning, shuningdek, til hodisalarining birligini va xilma-xilligini anglashga ko‘maklashadi.

Mohiyat~hodisa. Biz voqeliklar bilan tanishganimizda, avvalo, ularning ko‘rinib bevosita kuzatishimiz mumkin bo‘lgan tashqi jihatlari: rangi, shakli, xususiyati, o‘rni va boshqa belgilariga e’tibor qaratamiz. Keyinchalik esa yaxshilab o‘rganish natijasida biz voqeliklarning xossalariga, “ichi”ga kiramiz, uning ma’nosi va vazifasini tushuna boshlaymiz. Biz o‘rganayotgan voqrlikning bevosita kuzatishimiz mumkin bo‘lgan tashqi jihatlari hodisa, ichki xossalari, ma’nosi va vazifasi esa mohiyatdir. Demak, til mohiyat, nutq esa hodisa sifatida mavjud. Yoki ona tili ta’limi maqsadi – mohiyat, uni amalga oshirish jarayoni esa hodisadir.

Imkoniyat~voqelik. Mazkur kategoriya o‘zida narsalar va hodisalarning vujudga kelishi va rivojlanishini aks ettiradi. Narsalar va hodisalar abadiy yoki o‘zgarmas emas. Tegishli shart-sharoit mavjud bo‘lgan taqdirdagina, biror narsa, voqelik paydo bo‘lib, reallikka aylanadi. Bu shart-sharoitlarning yig‘indisi narsa yoki voqelikning vujudga kelish imkoniyatidir. Odatda, taraqqiyot jarayonida birgina imkoniyat emas, balki bir qancha imkoniyatlar maydonga keladi. Ammo bu imkoniyatlar doirasi cheksiz emas. Masalan, filologiya fakultetining filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat yo‘nalishini tamomlab chiqayotgan yigit-qiz oldida magistraturaga hujjat topshirish, o‘rta umumta’lim maktablaridan biriga, shuningdek, litsey yoki kollejga; nashriyotga, tahririyatga ishga borish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunday shroitda bitiruvchi o‘z imkoniyati, ya’ni tayyorgarlik

saviyasi, qobiliyati, zehniga qarab imkoniyatlardan birinigina voqelantira oladi. Ba’zan voqelantirilayotgan imkoniyat noto‘g‘ri tanlangan bo‘lishi ham mumkin.

Til, uning birliklari imkoniyat sifatida mavjud bo‘lib, nutq ana shu imkoniyatlarning voqelanishi hisoblanadi. Hech qachon imkoniyat (til) bir paytning o‘zida (nutqda) to‘laligicha (garderobimizda kiyinishimiz uchun imkon sifatida turgan barcha kiyimlarimizni bir paytning o‘zida birdaniga kiya olmaganimiz kabi) voqelana olmaydi. Masalan, [tort] leksemasini eslaganimizda u bilan bog‘lana oladigan [qaymoqli], [shokoladli], [mevali], [to‘rtburchak], [uchburchak], [aylana], [katta], [kichik], [sotilgan], [sotib olingan], [sovg‘a qilingan], [kesilgan], [pachoqlangan]…; [pishirmoq], [bezamoq], [olib kelmoq], [olib ketmoq], [sotmoq], [sotib olmoq], [yemoq], [ko‘rmoq], [keltirmoq], [kesmoq], [yoqtirmoq]…. kabi o‘nlab leksemalar, [-ga], [-ni], [-ning], [-dan], [-da], [-lar] kabi morfemalar [tort] leksemasi bilan birga voqelana oladigan til imkoniyatlari sifatida tayyor bo‘ladi. Nutqda esa nutq sharoiti, nutq taqozosiga ko‘ra (so‘zlovchining saviyasi, yoshi, kasb-kori, nutq momenti, o‘rni, tinglovchiga munosabati va h.) ulardan biri yoki bir nechtasigina voqelana oladi, xolos.

Yoki ona tili o‘quv predmeti o‘qituvchisi, aytaylik, 5-sinf o‘quvchilarining yozma savodxonligini tekshirish uchun tekshiruv diktant o‘tkazmoqchi. Diktant uchun o‘quvchining yosh xususiyatlariga mazmunan mos, so‘z miqdori DTS talablarini qondiradigan 10tacha matn tanladi. Bir soatlik dars jarayonida ulardan faqat bittasidangina foydalanishi mumkin.

Sabab~oqibat. Bu falsafiy kategoriya voqelikning barcha jabhalarida ro‘y beradi. Istalgan sohadagi yangilanishning ro‘y berishi, yangi o‘ziga xos narsa, voqea-hodisa, tushunchaning paydo bo‘lishi sabab~oqibat xarakteriga ega. Bir hoqisa hayotda ikkinchi hoqisani keltirib chiqarar ekan, birinchisi sabab, ikkinchisi oqibatdir. Masalan, un paychalarimizning tarang tortilishi natijasida unli tovushlar paydo bo‘ladi. Yoki O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinganligi sababli ta’limning maqsadi, mohiyati, tur va bosqichlari yangilandi.

Til bizning ongimizda imkoniyat, umumiylik, munosabatlar, belgilar sistemasi sifatida mavjud. U nutq orqali yuzaga chiqadi, nutqda muayyan moddiy shaklga, ko‘rinishga ega bo‘ladi. Til qonuniyatlari dialektik qonuniyatlar asosida tadqiq etiladi. Biroq bu qonuniyatlarning har biri o‘z alohida tizimiga ega bo‘lib, ular aynan bir xil hodisa emas.

Biz yuqorida ta’kidlab o‘tdikki, muayyan fanning tekshirish metodi, albatta, o‘rganish uchun tanlangan obyektga monand tarzda turli xil bo‘lishi mumkin. Zamonaviy falsafa fani istalgan fan doirasida voqelikni ilmiy bilishning asosiy yo‘nalishlarini aniq belgilab berish qudratiga ega. Albatta, bu ilmiy bilish jarayonining samarasi voqelik hodisalarining dialektik munosabatlari va ularning sinergetik taraqqiyot omillarining e’tiborga olinishi bilan bog‘liq. Aynan shu falsafiy qarashlar asosida ilmiy tekshirish jarayonida qo‘llaniladigan vositalar ham haqiqiy bahosini topadi.

Ilmiy tekshirish metodikasi uch asosiy tarkibiy qism – tadqiq metodologiyasi, tadqiq metodlari va tadqiq bosqichlari (jarayoni)ni o‘z ichiga oladi.

Bulardan birinchi va ikkinchisi tadqiqotchining ilmiy-nazariy va falsafiy-metodologik tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, shu malaka va ko‘nikmalar asosida tadqiqotchi ma’lum bir manba ustida ilmiy o‘rganishni amalga oshiradi.

“O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” hozirgacha quyidagi tekshirish metodlaridan foydalangan:

Kuzatish. Bilishning eng oddiy vositasi – kuzatish. Tabiiy shart-sharoitda o‘rganilayotgan obyektning alohida holat va xususiyatlarini his-tuyg‘u vositasida idrok etish yo‘li bilan bajariladigan kuzatish harakatining fandagi o‘rni alohidadir. Kuzatish tadqiq etilayotgan obyekt haqidagi dastlabki ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Ammo kuzatish yo‘li bilan biz hodisalarning faqatgina tashqi ko‘rinishi haqidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz va bu natijaning tasodifiy bo‘lishiga, xulosaning ishonchsiz chiqishiga sabab bo‘ladi. Fan esa voqelikni yuzaki va tasodifiy faktlar asosida emas, balki botiniy, qonuniy va zaruriy bog‘liqliklar asosida bilishni talab qiladi.

Tajriba-sinov. Bu metod kuzatish jarayonida yig‘ilgan ma’lumotni rejali

asosda qayta nazorat qilishni ta’minlaydi. Tajriba-sinovning oddiy kuzatishdan ustunligi uning kuzatish natijalarini qayta tekshirish, sinash vositasiga, ya’ni tajriba amallariga ega bo‘lishidadir. Ammo tajriba jarayonida tadqiq etiladigan natija va xulosalar ham birlamchi, dastlabki ma’lumotlardan iborat bo‘lib, ular batafsil ilmiy tahlilga muhtojdirlar.

Induksiya va deduksiya. Barcha fan sohalarida tatbiq etiladigan bilishning intellektual vositalari qatorida induksiya va deduksiya amallari turadi.

*Induksiya alohida kuzatuvlar natijalarini umumlashtirish*dir. Ushbu bilish faoliyati aniqlik(reallik)dan mavhumlikka yo‘naltiriladi. Induktiv tahlil tajribadan tizimlashtirishga, tizimlashtirilgan dalillardan empirik qonunlarga, ilmiy xulosalarga intiladi. “O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” induktiv tahlil asosida qator savollarga javob izlab kelmoqda: “Ona tili ta’limi mazmuni uning yangilangan maqsadiga uyg‘unmi?”, “Jamiyat ehtiyoji bilimdongami yoki ijodiy tafakkur sohibiga?”, “Bilim~malaka~ko‘nikma~odat~tabiat zanjirini qanday hosil qilish mumkin?”, “Ona tilidan “Axborot banki”ni yaratish uchun kimlar mas’ul?” kabilar shular jumlasidandir.

Deduksiya induksiyadan farqli o‘laroq, *umumiylikdan xususiylikka qarab yo‘naltirilgan bilish usuli*dir. “Deduksiya vositasida tadqiqotchi bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to‘g‘risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi”.[98] Deduktiv tahlil asosida ko‘pgina hodisalarning voqelanishi yoki mavjud bo‘lishini oldindan faraz qilish, aytib berish mumkin. Masalan, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy Amerika qit’asi mavjudligini bu qit’a kashf etilishidan necha asrlar oldin faraz qilgan va dunyo xaritasiga tushirgan.

“O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi”da ham ayrim savollar deduktiv tahlilni talab qiladi: “Ona tili darslarini darsliklarsiz tashkil etish mumkinmi?”, “Ona tili darslarida o‘yin-topshiriqlardan muntazam foydalanishning oqibati qanday bo‘ladi?” va h.

---

[98]Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. –Т., 1997.

Zamonaviy falsafada induktiv va deduktiv vositalar o‘zaro bog‘liq, evristik faoliyatni ta’minlovchi aqliy tahlil usullari sifatida talqin qilinadi. Ushbu usullardan qaysi birini o‘rinli qo‘llash masalasi bevosita ilmiy tekshirishning ikki bosqichi, ya’ni empirik (dalillar, faktlar to‘plash) va nazariy (ilmiy xulosalar chiqarish) bosqichlari farqi bilan bog‘liq.

Induktiv va deduktiv bilish usullari analiz va sintez amallari bilan bog‘liq.

Analiz va sintez. Analiz – obyektni tajribada yoki fikran qismlarga ajratish va ularning xususiyatlarini aniqlash amalidir. Demak, bu amal yakkaning xususiyatlari asosida umumiylik, yaxlitlikni bilish uchun zamin yaratadi. Ammo u yoki bu obyektning mohiyatini to‘liq ochish uchun uni qismlarga ajratish va alohida xususiyatlarni o‘rganish yetarli emas. Bunda qismlar va ularning alohida xususiyatlari o‘rtasidagi munosabat, aloqalar tartibini aniqlash lozim bo‘ladi va bu holda analiz amali bevosita sintezga borib taqaladi.

Sintez ham mantiqan yoki tajriba jarayonida bajariladigan amaldir. Uning bajarilish jarayonida analiz usulida ajratilgan qism va xususiyatlar bir butunlikka to‘planadilar va obyektni yaxlit hodisa sifatida o‘rganish sharoiti tug‘iladi. Sintez usuli yaxlitlik tarkib topishining ichki mexanizmini aniqlash imkonini beradi. Dialektik yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda analiz va sintez hamisha o‘zaro aloqador.

Faraz. Ilmiy bilish faoliyatida natijani avvaldan tasavvur etish, farazning o‘rni va roli muhim. Faraz – tadqiq etilayotgan jarayon yoki tushuncha botiniy munosabatlarini yaxlit tasavvur qilish. Ushbu munosabatlar tajribadan oldin, fikran tasavvur etiladi va mantiqiy e’tirof asosida biz real voqelikni oldindan bashorat qilish va izohlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. (Masalan, o‘rta umumta’limda ona tili ta’limining maqsadi–jamiyatga ijodiy tafakkur sohibini yetishtirib berish. Ijodiy tafakkur sohibi qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi zarurligi farazda yaxlit tasavvur etiladi.) Farazlar vositasida voqelikni bilish jarayonida tug‘iladigan savollar, vazifalar yechiladi. Lekin faraz faqatgina ehtimollardan iborat va bu ehtimollar tadqiqot jarayonida o‘z tasdig‘ini topishi yoki inkor etilishi mumkin.

Loyihalashtirish. Kuzatiladigan obyektlarni ilmiy bilishning bevosita

uslublaridan yana biri loyihalashtirish. Loyihalashtirish (qoliplashtirish) amalida biror bir obyektni bevosita tadqiq qilish yoki uni tasavvur etish qiyinlashsa (chunki uning ayrim xususiyatlari o‘ta yashirin holda mavjud bo‘ladi), unga murojaat qilinadi. Bunday holda obyektning o‘rniga uning modeli, ya’ni soddalashtirilgan ramzi o‘rganiladi. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi”da loyihalashtirish mantiqiy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Loyihalashtirishda loyihalar tuzilishida loyiha (model) va asliyatning o‘xshashligi, teng tomonlari inobatga olinadi. Loyihalarning o‘xshashligi ichki tuzilishlar aynanligida, boshqa obyektlar bilan bo‘lgan aloqalarida va boshqa mazmuniy-vazifaviy xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. (Masalan bilimdon shaxs bilan ijodiy tafakkur sohibi loyihalari taqqoslanganda shu holatni kuzatish mumkin.)

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. “Metod”, “metodika” va “metodologiya” atamalarining mazmuniga aniqlik kiriting.
2. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” qachondan mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlandi?
3. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining o‘rganish obyekti nima?
4. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining predmeti haqida nimalarni ayta olasiz?
5. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fani xususiy fanmi?
7. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining tekshirish metodlarini sanang.
8. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining dialektika qonuniyatlari bilan qanday bog‘liqligi bor?
9. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining o‘zbek tilshunosligi bilan aloqadorligini izohlang.
10. “O`zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi” fanining nutq madaniyati bilan aloqadorligini izohlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1;4;10;11;19;2021;24;32;33;34;35]

O‘ZBEK (ONA) TILI TA’LIMI, UNING MAQSADI VA MAZMUNI HAQIDA

Reja:

1. O‘zbek (ona) tili ta’limi xususida umumiy ma’lumot.
2. O‘zbek (ona) tili ta’limining umumiy hamda xususiy maqsadi.
3. O‘zbek (ona) tili ta’limi mazmuni haqida.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

O‘zbek (ona) tili ta’limi, ta’lim-tarbiya, ta’lim maqsadi, ijtimoiy buyurtma, ona tili ta’limining umumiy maqsadi, ona tili ta’limining xususiy maqsadi, ona tili ta’limi mazmuni

Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir.

M.Behbudiy

Didaktik adabiyotlar*da “ta’lim”, “ta’lim maqsadi”, “ta’lim mazmuni” tushunchalari turlicha talqin qilinadi: “Ta’lim – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi”. Shuningdek, kishilik jamiyatida ta’lim mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida o‘qituvchi va o‘quvchi zimmasiga yuklangan o‘qitish, o‘qish, rivojlantirish jarayoni bilan belgilanuvchi vazifadir. Bu tor ma’noda ta’limning o‘qitish tushunchasini anglatishini ifodalaydi. Keng ma’noda ta’lim jamiyatning barcha sohalarida ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi.[99]

O‘qituvchi faoliyati tufayli ta’lim jamiyat tomonidan puxta o‘ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida amalga oshadigan jarayonga aylanib, jamiyat kutgan natijalarni beradi. Ma’lumki, ta’lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lib, bilimlarni o‘zlashtirish natijasida tafakkur rivojlanishini tezlashtiradi.

I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, N.V.Savin kabi didakt-olimlar ta’lim jarayoni deganda, asosan, ikki subyekt – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatini hisobga oladilar va ta’lim jarayoni ta’lim beruvchi–o‘qituvchi va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iboratdir degan xulosani beradilar. Ikkinchi guruh olimlar esa S.P.Baranov, V.A.Slastenin, R.Safarova, U.Musayev, O.R.Roziqov va boshqalar ta’lim jarayoniga “ikki subyekt faoliyatining o‘zaro

---

**Didaktik adabiyot* deganda ta’lim nazariyasiga oid risolalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar nazarda tutiladi.

[99]Ўзбекистон Миллий Энцеклопедияси. Т.VIII. –Т.: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2004.–307-б.

uyg‘unlashuvidan shakllanadigan hosila” deb qaraydilar. Ko‘rinib turibdiki, har ikkala guruh olimlarining ham fikrlari o‘zaro kesishadi va bir-birini to‘ldiradi.

Hozirdagi zamon didakt-olimlari ta’lim jarayoni tushunchasining qamrovi juda keng ekanligini ta’kidlaydilar va ta’lim jarayoni deganda uning maqsadi, mazmuni, usuli, vositalari, dars jarayoni, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, ta’lim sohasiga tegishli me’yoriy hujjatlar, xullas, ta’lim sohasiga tegishli barcha jihatlarni nazarda tutadilar. Demak, biz ona tili ta’limi deganda nafaqat ona tili darslari jarayonini, balki ona tili ta’limini tashkil etuvchi barcha jihatlarni – ona tili ta’limi maqsadi, mazmuni, usuli, vositalari, ona tilidan DTS va ham o‘qituvchi, ham o‘quvchiga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy hujjatlarni ham nazarda tutmog‘imiz lozim.

Ta’lim – tarbiyaning muhim omili. Yana ham aniqroq aytsak, ta’lim va tarbiya bir butunlik, bir-biridan ajralmasdir. Zero, ulug‘larimiz alohida ta’kidlaganlaridek: “Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim... Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.[100]

Ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas ekan, ta’lim maqsadi va tarbiya maqsadi mohiyatan bir bo‘lishi, jamiyatning bugungi taraqqiyoti ehtiyojmand shaxsni yetishtirishga xizmat qilmog‘i shart. Bunda, albatta, o‘qituvchi-murabbiy faoliyati ulkan ahamiyatga ega. Ustoz-murabbiy faoliyati tufayli ta’lim jamiyat tomonidan puxta o‘ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, jamiyat kutgan natijalarni beradi. Inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lgan ta’lim, bilimlarni o‘zlashtirish natijasida tafakkur rivojlanishini tezlashtiradi, tarbiya jarayoniga onglilik, uqilganlik, istiqboliy rivojlanuvchanlik bag‘ishlaydi.

[100] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kch. T.: Ma’naviyat, 2008 .– 61-62-b.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mujassamlashuvida ta’limning maqsadi aniq va ravshan tushunilmaganligi sezilsa, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari cheklanadi. Ta’lim jarayoniga noto‘g‘ri yondashish natijasida esa o‘quv jarayoni oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ta’limning aniq belgilab berilgan maqsadi esa o‘quv-biluv jarayonida jamiyat talablarini qondira oladigan shaxsni “loyihalash” imkonini beradi. Shunday ekan, ta’limning maqsadi aniq anglanmagan yoki hisobga olinmagan holda o‘quv jarayonida ko‘zda tutilgan natijaga erishish mumkin emas.

Demak, ta’lim jarayonining ibtidosi, poydevori, qolaversa, istiqboli ham to‘g‘ri belgilangan ta’lim maqsadi tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ta’lim maqsadini belgilash barcha zamonlarda ham davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblangan. Ta’limning maqsadi jamiyat amaliy faoliyatining avvaldan fikran o‘ylangan natijasi bo‘lib, jamiyatning maktab oldiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasi ta’lim umumiy maqsadi asosida belgilanadi.[101] Ta’limning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzumga muvofiq o‘quv predmeti, texnika, madaniyat taraqqiyoti asosida tarixan o‘zgarib borishi bilan birga o‘rta umumta’lim o‘choqlarida o‘qitishning didaktik tavsifini ham belgilaydi. Ta’limning maqsadi o‘qitishning ma’lum maqsadga qaratilganligini va shu maqsadga muvofiqligini o‘zida aks ettirgan, ta’limning ijtimoiy tabiatini, uning jamiyatdagi mohiyatini ochib beradigan, uning yo‘nalishini, mazmunini, shakl va usullarini belgilab beradigan boshlanmadir. Ta’lim maqsadida insonga nisbatan u qanday bo‘lishi kerak, unga qanday ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta’lim berish kerak, degan talablar ifodalangan bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ta’lim maqsadlarini belgilovchi jamiyat talablari to‘la holda aks etsagina, bola shaxsi har tomonlama kamol topishi mumkin. Ta’limning maqsadi o‘zining ijtimoiy tabiatiga ko‘ra ko‘p qirrali bo‘lib, u amalga oshgach, ya’ni natijaga erishilgach, erishilgan natija asosida yangi maqsadlar qo‘yiladi. Qo‘yilgan yangi maqsadlar esa ta’limning ilk maqsadini takomillashtiradi, dastlab tanlangan ta’lim maqsadi, ularni amalga oshirish vositasiga aylanib boraveradi. Chunki umumiy ta’lim jarayonining o‘zi

[101]Лернер И.Я. Педагогическая литература о проблемном обучении. – М., 1983.

ta’lim maqsadini jamiyat taraqqiyoti talablari asosida uzluksiz muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Ta’lim maqsadi ta’lim jarayonini, ta’lim mohiyatini, uning mazmuni, vositalari, usuli, o‘qituvchi~o‘quvchi munosabatlari va, nihoyat, uning samarasi – jamiyatga qanday shaxs (yoki mutaxassis)ni yetishtirishni belgilab beradi. Ta’lim maqsadi talablariga javob beradigan shaxs o‘z navbatida ta’lim maqsadini oldingi bosqichdan yana ham yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarishni talab qiladi va mana shu holatdagina jamiyat hamda shaxs taraqqiyoti uzluksiz ilgarilab, yuksalib boradi – maqsadni voqelantirish qanday shaxsni yetishtirishni, jamiyatning umumiy tarbiyalanganlik darajasi esa bo‘lg‘usi taraqqiyot yo‘nalishini belgilaydi. Demak, ta’lim maqsadi jamiyatdan oziqlanadi va ayni zamonda jamiyat kelajagini belgilaydi. Butun ta’lim jarayoni–ta’lim materialidan boshlab, ta’lim natijasi (samarasi)gacha – ta’lim maqsadi bilan belgilanadi. Ta’lim maqsadi oldida turgan bosh masala: jamiyatga bugun va kelajakda jamiyat ravnaqi hamda istiqboli uchun qanday shaxs (mutaxassis) tayyorlash kerak, jamiyat qanday shaxsni talab qiladi – ta’lim jarayoni shunday shaxsni yetishtirib berishi zarur. Mana shuning uchun o‘qitishning eng muhim bo‘g‘inlarida ta’lim maqsadi davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan va jamiyat uchun umumiy va qat’iy qonun tusini oladi.

Ta’lim maqsadi haqida gapirganda ta’limning ***u m u m i y maqsadi*** va ta’lim tizimida ***h a r b i r o‘ q u v p r e d m e t i maqsadi*** tushunchalarini farqlamoq lozim. Ta’limning umumiy maqsadi va har bir o‘quv predmeti maqsadi muayyan tuzum sharoitida o‘zaro invariant~variant, umumiylik~xususiylik munosabatlari bilan bog‘lanadi. Muayyan o‘quv predmeti ta’limi maqsadi ham o‘z sistemasida umumiylik va xususiylik xarakteriga ega bo‘ladi. Quyida ona tili o‘quv predmeti ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti hamda shu tadrijiy taraqqiyot davomida uning umumiy vaxususiy maqsadlari qanday belgilanganligini ko‘rib o‘tamiz.

Bu borada “*ona tilida ta’lim*” va “*ona tilini maxsus o‘quv predmeti sifatida o‘qitish*” tushunchalarini farqlash zarur. O*na tilida ta’lim* jarayonida ona tili ham o‘qitiladi, chunki bunday holatda *ona tili* va *ta’lim tili* tushunchalari bir-biriga mos

keladi. Shundan kelib chiqib, *ona tili ta'limining xat-savod o'rgatish, fikrni uqish va bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish kabi u m u m i y* va uni maxsus – *alohida bir o'quv predmeti sifatida ta'limini talab etuvchi x u s u s i y maqsadi* farqlanadi. "*Ona tilida ta'lim*" va"*ona tili ta'limi*" sharoitlarida ona tili ta'limi maqsadi har xil bo'lib, ona tili ta'limining xususiy maqsadi davr talablari bilan belgilab boriladi va ijtimoiy zarurat asosida muttasil rivojlanib i e r a r x i k ravishda ko'tariladi. Bu dialektik inkor tabiatiga ega bo'lib, ya'ni har bir keyingi bosqich oldingi bosqichdan yuqori bo'lishi vaoldingi bosqichni ham o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Ta'limning umumiy maqsad va vazifalari, avvalo, unga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadi. Ta'lim oldiga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtmaga ko'ra aniqlangan ta'lim maqsadi asosida esa har bir o'quv predmetining xususiy maqsad va vazifalari belgilanadi. Ta'limning muayyan o'quv predmeti haqida gap ketganda bu o'quv predmetining umumiy va xususiy maqsadlarini aniq belgilash hamda chegaralash bilan birga mazkur o'quv predmetining ta'lim tizimida maxsus o'quv-o'rganish obyekti tarzida, shuningdek, boshqa o'quv predmetlarining ta'limi asosi yoki vositasi ekanligini farqlash zarurati yuzaga keladi. Jumladan, V-XX asr boshlarigacha ona (o'zbek) tili maxsus o'quv predmeti sifatida ta'lim o'choqlarida o'qitilmagan bo'lsa-da, u ta'lim tili – o'qish-o'qitish jarayonining asosiy kommunikativ vositasi bo'lib kelgan va bu o'quv predmeti **(ona tili) ta'limi oldiga qo'yilgan umumiy maqsad**: ***xat-savodlilikni ta'minlash, yozma bayon shaklida ifodalangan fikrlarni muallif ishtirokisiz uqiy olish, shuningdek, o'z fikrlarini yozma va og'zaki shakllarda to'g'ri, aniq hamda bayon maqsadiga mos ravishda (badiiy, ilmiy, so'zlashuv va h. uslublarda) ifodalay olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish***– ta'lim tizimida voqelangan.

Istalgan o'quv predmetining maqsadi ijtimoiy buyurtma – jamiyat taraqqiyoti, uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, hayotiy shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, davrlar bo'yicha o'zgaruvchandir. Jumladan, V-XXI asr boshlari (hozir)gacha ***ona (o'zbek) tili ta'limining xususiy maqsadi***da quyidagi tadrijiy taraqqiyotni ko'rish mumkin:

1. **V-IX asrlar.** *Ona tilida ta'lim*ning maqsadi: – **Xat-savodli turkona tabiatli shaxsni tarbiyalash** (shunday fikrga kelishimizga bilvosita asos bo‘lgan manbalar: **Qadimgi turkiy yodgorliklar**);

2. IX-XIX asrlar(jadidlar)gacha. *Ona tilida ta'lim*ning maqsadi:– **Xat-savodli, itoatkor (passiv faoliyatli) mo‘min-musulmonni tarbiyalash (**shunday fikrga kelishimizga bilvosita va bevosita asos bo‘lgan manbalar: **IX-XIX asr maktab didaktik adabiyotlari va o‘quv qo‘llanmalari**);

3. XX asr boshlari(jadidchilik)da. *Ona tilida ta'lim*ning maqsadi:– **Zamonaviy ilmiy bilim asoslari bilan tanishgan, milliy tuyg‘ularga ega bo‘lgan xat-savodli (faol) musulmonni tarbiyalash** (shunday fikrga kelishimizga bevosita asos bo‘lgan manbalar: **Jadidlar tomonidan yaratilgan va amalda qo‘llanilgan maktab darsliklari**);

4. 1925-1970-yillar. *Ona tili ta'limi*ning maqsadi: – **Adabiy me'yorlarni singdirish, milliy adabiy tilni ommalashtirish, rasmiy yozma/og‘zaki nutqda sheva nutqidan foydalanishga chek qo‘yish** (shunday fikrga kelishimizga bevosita asos bo‘lgan manbalar: **1925-1970-yillarda ona tilidan o‘quv dasturlari va shu dasturlar asosida yaratilgan darslig-u qo‘llanmalar**);

5. 1970-1990-yillar. *Ona tili ta'limi*ning maqsadi: – **Milliy adabiy tilda yozma/og‘zaki nutqni rivojlantirish, nutq madaniyatini shakllantirish** (shunday fikrga kelishimizga bevosita asos bo‘lgan manbalar: **1970-1988-yillarda O‘zbekiston pedagogika fanlarini ilmiy tekshirish instituti (O‘zPFITI) tomonidan nashr etilgan dasturlar**);

6. 1999-yildan hozirgacha. *Ona tili ta'limi*ning maqsadi: – **Ta'lim oluvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ijodiy tafakkur mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri, ravon bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirish** (shunday fikrga kelishimizga bevosita asos bo‘lgan manbalar: **O‘zRVMning 1999-yil 16-avgustdagi «Umumiy o‘rta ta'limning DTSlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori asosida tuzilgan dastur va darsliklar**).[102]

[102]Yo‘ldosheva D.N. Ona tili ta`limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti// OO‘MTV tomonidan nashrga tavsiya etilgan o‘quv qo‘llanma.–T.: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.

Ta’limning xususiy maqsadi barcha davrlar uchun o‘zgarmas invariant emas: u davrning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqlikda o‘zgarib, rivojlanib, yangilanib boradi. Ta’limning xususiy maqsadida turg‘unlik va jamiyat taraqqiyotida turg‘unlik, tanazzul o‘zaro mutanosib bo‘lib, bir-biriga nisbatan dialektik sabab~oqibat munosabatlaridadir: jamiyat taraqqiyotidagi turg‘unlik ta’lim maqsadida turg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Zero, ta’lim maqsadidagi turg‘unlik jamiyatdagi turg‘unlik va tanazzulni chuqurlashtiradi. Turkistonda XVII-XIX asrlardagi jamiyat va ta’lim taraqqiyotidagi turg‘unlik buning yorqin dalilidir – yuz yillar davomida ta’limning umumiy maqsadi – xat-savodli itoatkor mo‘min-musulmonni yetishtirish – va ta’lim mazmuni (“Abjad” ~ “Haftyak” ~ “Farzi ayn” ~ “Chor kitob” ~ “Guliston” ~ “Bo‘ston”’ kabi ta’lim vositalaridan foydalanish)ning o‘zgarmas holda saqlanishi jamiyatdagi turg‘unlikka olib keldi. Shuning uchun O‘zbekistonda jadidchilik harakatining asosiy diqqati ta’lim islohoti va uni zamonaviylashtirishga qaratilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk qadamlaridanoq umumiy ta’lim tizimini yangilash va tubdan isloh qilishga yuksak e’tibor ham, unga taraqqiyotning eng muhim sohasi sifatida ulkan mablag‘larning ajratilishi va sarflanishi ham, ta’lim maqsadi, mazmuni, usuli, yangi pedagogik texnologiyalarni keng ommalashtirishga va, pirovard oqibatda, ta’lim natijasini yangilashga intilish ham shu bilan uzviy bog‘liq.

Ta’limning umumiy mafkuraviy-ma’naviy, ta’limiy-tarbiyaviy maqsadi UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) sifatida ta’lim tizimi strukturasidan o‘rin olgan o‘quv predmetlarining xususiy maqsadlarida, xususiyat va imkoniyatlarga uyg‘un ravishda voqelanadi. Bu maqsadlar umumiy maqsadga nisbatan YHVO (yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat) mavqeyida bo‘ladi.

Ona tili ta’limining xat-savodlilikni ta’minlash umumiy maqsadi davr bilan bog‘liq emas, barcha davr va jamiyatning hamma bosqichlari uchun u umumiy bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi; ta’lim ona tilida amalga oshirilsa, uning bu umumiy maqsadi – ta’lim tili sifatida, albatta, voqelanadi. Masalan,

yuqorida ko‘rsatilgan 1-,2-,3-davrlarda ona tili ta’limi oldida umumiy maqsaddan boshqa xususiy bir alohida maqsad qo‘yilmagan edi. O‘zbek tili bu davrlarda ta’lim tili va uning asosiy vositasi sifatida o‘rganilgan.

Demak, mustaqillik sharofati bilan ta’lim tizimida o‘qitiladigan barcha fanlarning, jumladan, o‘rta umumta’lim tizimida ta’limi belgilangan har bir o‘quv predmetining maqsadi davr ruhiga hamohang tarzda yangilandi. Jumladan, “**ona tili ta’limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi:** ***ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim***” yoki “**maktabda adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi** ***sog‘lom e’tiqodli, o‘zga insonning tuyg‘ularini anglaydigan, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o‘z xatti-harakatlariga mas’ul bo‘la oladigan komil shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir***”[103] va x.. Bularning barchasi ta’limning umumiy bosh maqsadidan kelib chiqadi. Fikrlarimizni quyidagi 1-, 2-jadvallarda umumlashtiramiz:

1-jadval

Ona tili ta’limining umumiy maqsadi		
umumiy mohiyati	**xos xususiyatlari**	
Xat-savodlilikni ta’minlash, yozma bayon shaklida ifodalangan fikrlarni muallif ishtirokisiz uqiy olish, shuningdek, o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki shakllarda to‘g‘ri, aniq hamda bayon maqsadiga mos ravishda (badiiy, ilmiy, so‘zlashuv, publitsistik va rasmiy-idoraviyuslublarda) ifodalay olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish	1	jamiyat a’zolarining umumiy savodxonligini ta’minlashga qaratiladi
	2	barcha davrlar uchun umumiy, o‘zgarmas; invariant
	3	jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq o‘zgaruvchan emas
	4	davr mafkurasi bilan bevosita bog‘liq ravishda o‘zgaruvchan emas
	5	ona tili ta’limining xususiy maqsadiga nisbatan UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) tabiatli
	6	umumiy ta’lim maqsadiga nisbatan

[103]Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. – Т.: Шарқ, 1999.

		YHVO (yakkalik, hodisaviylik, voqelik, oqibat) tabiatli
	7	muayyan tadrijiy taraqqiyotga ega emas

2-jadval

Ona tili ta'limining xususiy maqsadiga xos xususiyatlar	
1	jamiyat a'zolarining milliy tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi
2	barcha davrlar uchun xususiy, o'zgaruvchan; variant xarakterli
3	jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq tarzda o'zgaruvchan
4	davr mafkurasi bilan bevosita bog'liq ravishda o'zgaruvchan
5	ona tili ta'limining umumiy maqsadiga nisbatan invariant~variant tabiatli
6	ona tili ta'limining umumiy maqsadiga nisbatan YHVO (yakkalik, hodisaviylik, voqelik, oqibat) tabiatli
7	muayyan tadrijiy taraqqiyotga ega

Ona tili ta'limining madsadi haqida gapirganimizda madsaq ta'lim jarayonining barcha qirralari–mazmun, usul, vosita va ta'lim oluvchi-ta'lim beruvchi munosabatlari bilan chambarchas bog'lanishini aytib o'tgan edik.

Buni quyidagi chizmada ifodalaymiz:

3-jadval



Ta’lim mazmuni ta’lim muassasalari uchun tasdiqlangan davlat ta’lim standartlari (DTS), dastur, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, metodik tavsiyalarda o‘z aksini topadi. U tarkiban ancha murakkabdir. Didaktik adabiyotlarda ta’lim mazmuni tarkibi xilma-xil talqin etiladi. I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, L.N.Taranov kabi olimlarning pedagogikaga oid asarlarida ta’lim mazmuni ta’lim oluvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun tanlangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir bo‘lagi deb hisoblanadi va ta’lim usuli unga qo‘shilmaydi.[104] V.S.Lendev, N.M.Yakovlev, A.M.Soxor, Ch.Kupisevich kabi bir qator didaktlar esa bu tushuncha ostida uni o‘rgatish usullarini ham tushunishadi: “ta’lim mazmuni–yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, malaka, ko‘nikma, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir”, deb ta’riflaydilar.[105] Shunda ta’lim mazmuni ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilimlar tizimi va unda hosil qilinadigan malaka hamda ko‘nikmalar bilan bog‘lanadi.

Ta’lim mazmunining tarkibiy qismlari haqida yuqoridagi bayondan ham ko‘rinib turganidek, didakt olimlarda bu borada yakdillik yo‘q. Hatto ayni bir didakt-olimning turli davrda yozilgan asarlarida ta’lim mazmuni tarkibi turlicha talqin qilinishi hollarini ham ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, I.Y.Lerner: “Ta’lim mazmuni tushunchasi ostida, odatda, bilim va malaka tushuniladi. Ba’zan esa ta’lim mazmuni deb … faqat beriladigan bilimlar tushuniladi, xolos. Uzoq yillar davomida o‘quv dasturlari berilishi lozim bo‘lgan bilimlar ro‘yxatidangina iborat edi”, deb yozadi va bunday tor tushunishni qoralab, ta’lim mazmuni chegarasini ancha kengaytiradi va uning tarkibiy qismlari sifatida:

a) beriladigan bilimlar;

b)bilimlar asosida hosil qilinadigan malakalar (умение) va ko‘nikmalar (новыки);

---

[104]Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. – М.: Педагогика, 1976.; Лернер И.Я., Скаткин М.Н. О методах обучения. – М.: Педагогика, 1979. – стр.15-121.; Лернер И.Я. Развитие мышления учащихся (в процессе оучения истории). – М.: Просвещение, 1982. – 192 стр.

[105]Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 85-б.

d) ijodiy faoliyat;

e) emotsional munosabat kabilarni ko‘rsatdi.[106] Keyingi asarlarida esa I.Y.Lerner o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabat va ta’lim usulini ham ta’lim mazmuni tarkibiga kiritadi.[107]

Ba’zi didakt-olimlar (M.Mahmudova, S.Og‘ayev, O.Roziqov, B.Adizovlar) ma’lumot mazmuni va ta’lim mazmuni tushunchalarini farqlab, ta’lim mazmunini “ma’lumot mazmunining dinamikasi – harakati” shaklida tushunadilar va ta’lim mazmuni tushunchasini quyidagicha sharhlaydilar: “Ta’lim mazmuni – yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir”.[108]

Mazkur tavsifdan ko‘rinib turibdiki, bu olimlar ta’lim mazmunining tarkibiy qismlarini aniq va ravshan sanab bermasalar-da, ta’lim mazmunining tashkil etuvchilari sifatida quyidagilarni ajratadilar:

a) berilishi lozim bo‘lgan bilimlar;

b) bu bilimlar asosida hosil bo‘ladigan malaka, ko‘nikmalar;

d) faoliyat usullari;

e) emotsional baholash.

Mualliflar “faoliyat usullari” tushunchasini ochib bermaydilar. Lekin ko‘rinib turibdiki, unga “ijodiy” aniqlovchisi berilsa, ular I.Y.Lernerning izidan borganlar.

A.G‘ulomov, H.Ne’matovlar “Ona tili ta’limi mazmuni” metodik qo‘llanmalarida ta’lim mazmuni masalasi xususida to‘xtalib, uning to‘rt tarkibiy qismini alohida sanab o‘tadilar:

a) o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi;

b) ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko‘nikmalar tizimi;

d) ijodiy faoliyat usullari;

---

[106] Лернер И.Я. Развитие мышления учащихся (в процессе оучения истории). – М.: Просвещение, 1980. – 34-37-стр.

[107] Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – М.: Педагогика, 1981.

[108] Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. –85-б.

e) o‘quvchi ~ o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimi.[109]

Demak, ta’lim mazmuni tushunchasini tor va keng ko‘lamda talqin etish mumkin. Tor ma’noda ta’lim mazmuni deganda ta’lim oluvchiga berilishi, o‘zlashtirilishi talab etiladigan bilimlar tushuniladi. Keng ma’noda ta’lim mazmuni deganda ta’lim oluvchilarga qanday bilimlar berish, bu bilimlarni qanday usul bilan berish lozimligi, o‘qituvchi o‘quvchiga, o‘quvchi o‘qituvchiga qanday yondashishi, ta’lim natijasida tarbiyalanuvchi nimalarni qila olishi va hatto o‘z faoliyatiga ichki baho bera olishi tushuniladi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, keng ma’noda ta’lim mazmuni ta’lim maqsadidan boshqa uning barcha asosiy tarkibiy qismlarini, jumladan, ta’lim usuli, ta’lim vositalari, ta’lim natijasini o‘z ichiga oladi va ayni zamonda ta’lim maqsadining yoyilmasi, uning voqelantirishninig material, usul va vositalarining, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘zaro munosabatlarining oldindan loyihalashtirilgan modeli maqeyini kashf etadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida ta’lim maqsadidan keyin ikkinchi ahamiyatli tomoni keng tushunilgan ta’lim mazmuni – ta’lim maqsadining yoyilmasidir.

Demak, ***ona tili ta’limi mazmuni ona tili ta’limi usuli, vositalari, ta’lim natijasini o‘z ichiga oladi. U–ona tili ta’limi maqsadining yoyilmasi; ona tili ta’limi materiali, usuli va vositalari, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘zaro munosabatlarining oldindan loyihalashtirilgan modeli*** hisoblanadi.

Ta’lim mazmuni tushunchasi haqida gapirilganda bu tushunchaning “ta’limning umumiy mazmuni”, “ta’lim turi (bosqichi) mazmuni” va “ma’lum bir o‘quv predmeti ta’limi mazmuni” kabi voqelanishini farqlash lozim.

Ta’limning umumiy mazmuni ta’limning umumiy maqsadi bilan kesishadi. Ta’lim turi (bosqichi) mazmuni deganda ta’limning ma’lum bir turi (bosqichi)da o‘rganiladigan “o‘quv predmetlari, ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘rganilish tartibi”[110] tushuniladi. “O‘quv predmetining ta’lim mazmuni” tushunchasi bulardan ancha farq qiladi. U, albatta, ta’limning umumiy maqsadi va mazmuniga

[109] Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 5-8- б.
[110] Леднев В.С. Содержание общего среднего образования (Проблемы структуры). – М.: Педагогика, 1980. – 7-стр.

mutanosib holda – uning bilan umumiylik-xususiylik, butun-bo‘laklik munosabatida belgilanadi, lekin har bir o‘quv predmeti uchun – bu o‘quv predmetini o‘qitish maqsadi bilan bog‘liq ravishda o‘z xususiyatlariga ega. Ona tili o‘quv predmeti ham shunday. Ta’lim tizimida ona tilining o‘qitish maqsadlariga mos ravishda uning ham o‘ziga xos ta’lim mazmuni bor va u ta’limning tur hamda bosqichlari uchun davlat tomonidan tasdiqlanadigan ta’lim dasturlarida o‘z aksini topadi.

Ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi bilimlar, amaliy ko‘nikmalar tizimidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Boshlang‘ich bo‘g‘in(I-IV sinflar)da ona tili ta’limi maqsadi nimadan iborat?
2.Tayanch bo‘g‘inda (V-XI sinflar)da ona tili ona tili ta’limi maqsadi qanday belgilangan?
3.O‘rta maxsus ta’limda tahsil olayotgan o‘quvchi nima sababdan ona tili o‘quv predmetini o‘qiydi? Mazkur o‘quv predmetini o‘rganish bolaning ijtimoiy hayoti uchun nima beradi?
4.“Maqsad unga erishish yo‘l va choralarni belgilaydi”, degan hikmatning ma’nosini izohlang.
5. Sizningcha, hamma zamonlarda ham ta’limning maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblanganmi? Fikringizni dalillang.
6. Ona tili ta’limining umumiy maqsadi deganda nima nazarda tutiladi?
7. Ona tili ta’limining xususiy maqsadi deganda nimalar nazarda tutiladi?
8.Ta’limning umumiy va xususiy maqsadi kimlar tomonidan, qanday tartibda belgilanadi?
9. “Ta’lim turlari va bosqichlari maqsadi” deganda nimani tushunasiz?
10. Ta’lim mazmuni deganda nima nazarda tutiladi?
11. Ta’lim turlari maqsadi va ta’lim bosqichlari maqsadi o‘zaro qanday farqlanadi? Misollar asosida tushuntiring.
12. Bilimli shaxs va ijodiy tafakkur sohibi orasida qanday farq bor?
13.Ona tili ta’limi materiali, usuli va vositalari, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘zaro munosabatlarining oldindan loyihalashtirilgan modeli deganda nima nazarda tutiladi?
14. Ta’lim mazmuni tushunchasini tor va keng ko‘lamda talqin etish mumkinligini izohlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

[3;4;9;11;13;15;21;23;30;31;35]

O‘ZBEK (ONA) TILI O‘QITISH METODLARI VA USULLARI

REJA:

1.Dars metodlari haqida umumiy tushuncha.
2.Ona tili ta’limida bilim berishga mo‘ljallangan an’anaviy metodlar.
3.Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar.
4. Ona tili ta’limida dars metodini tanlash muammosi.
5. Ona tili ta’limida dars usullari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Metod, usul, an’anaviy metodlar: suhbat, hikoya, til faktlarini analiz qilish, grammatik tahlil, darslik va qo‘llanmalar bilan ishlash, ko‘rgazmali metod; zamonaviy metodlar: (induktiv), ongli, verbal, kognitiv-pragmatik ta’lim metodi; bilimli shaxs, ijodiy tafakkur sohibi, ta’lim metodini yangi maqsad va yangi mazmunga muvofiqlashtirish

Hozirgi pedagogik amaliyotda ta’lim metodlarining 200dan ortiq turi mavjudligi e’tirof etiladi.

Dars metodlari haqida umumiy tushuncha. Metod yunoncha *metodos* so‘zidan olingan bo‘lib, *yo‘l, yo‘riq* yoki *usul* demakdir. Ona tili o‘qitish metodlari deganda ona tili ta’limi maqsadiga erishish usullari va bu borada tartibga solingan faoliyat tushuniladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, zamonaviy “Didaktika” fani metod va usulni farqlaydi. Metod maqsadga erishish yo‘lidagi faoliyatni ifodalovchi keng tushuncha. U ta’lim jarayonida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi faoliyatiga oid jihatlarni ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, o‘qitish vositalari, ta’lim beruvchi hamda ta’lim oluvchi munosabatlari bilan bog‘liq ravishda qamrab oladi. Ta’lim metodlari to‘g‘ri tanlangandagina o‘rgatish hamda o‘rganish faoliyatlari o‘zaro muvofiqlashadi va ijtimoiy buyurtma sifatida belgilangan ta’lim maqsadi voqelanadi.

Pedagogik adabiyotlarda ko‘p bora tahlil etilgan ta’lim usuli masalasi ham ta’lim mazmuni kabi qadimiydir.[111] O‘qitish usuli ta’lim metodining tarkibiy qismi bo‘lib u faqat o‘qituvchi faoliyatiga yoki faqat o‘quvchi bagarishi bilan bog‘liq

[111] Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения (общедидактический аспект). – М.: Педагогика, 1977. – 174 стр.; Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. – М.: Педагогика, 1976. ; Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 256 б.; Савин Н.В. Педагогика. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 336 б.

faoliyatga tegishli bo‘lishi mumkin. Masalan, yangi mavzuni og‘zaki bayon etish, o‘tilgan mavzuni test yoki tarqatmalar asosida so‘rash, mustahkamlash, muayyan bob, bo‘limni takrorlash uchun o‘ziga xos savol va topshiriqlar tuzish o‘qituvchi faoliyatiga tegishli usullar bo‘lsa; muayyan mavzuni mustaqil o‘zlashtirish, mavzuga oid muhim o‘rinlarni konspektlashtirish o‘quvchi faoliyatiga doir usullar hisoblanadi. Usul–insonning bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror obyektni amaliy o‘zgartirish uskunasi, mexanizmi. Usul aslida insonning amaliy faoliyati negizida yuzaga keladi. Faoliyat usullarining asosiy mazmunini, avvalo, amaliyotda sinalgan narsalar, masalan, ilmiy tadqiqot, bilish yo‘li, nazariya, ta’limotlar tashkil etadi. Faoliyat usullari orqali amalga oshirilgan maqsad keyingi maqsadni yoki bosh maqsadni yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunini, izchilligini belgilovchi usullar vazifasini bajaradi. Xullas, ta’lim usuli ta’lim metodiga nisbatan xususiylik xarakteridagi tor tushuncha bo‘lib, u ta’lim metodi tarkibiga kiruvchi ta’limiy faoliyat turidir.

Bilim olishning ham, ta’lim oluvchiga bilim berishning ham, unga malaka, ko‘nikma, odatlarni singdirishning ham, tabiatini shakllantirishning ham xilma-xil vosita, yo‘l, metod va usullari mavjud. Faoliyat metodlari to‘g‘ri bo‘lsa, ko‘zlangan natijaga komil ishonch bilan erishish mumkin. Bugungi kunga insoniyat tomonidan faoliyat metodlarining nihoyatda boy xazinasi to‘plangan. Ammo fan-texnika, madaniyatning to‘xtovsiz rivojlanib, murakkablashib borishi, yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, ularni o‘zlashtirish va ta’lim oluvchiga yetkazish metod va usullarini muttasil yangilab turishni talab etadi. Bular, albatta, ona tili ta’limi jarayoniga ham bevosita aloqador.

Ta’lim metodlari, avvalo, ilmiy bo‘lishi, ta’lim oluvchini o‘qitishning amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bosh maqsadi ruhida tarbiyalashga qaratilishi, ta’lim oluvchi rivojlanishining psixologik-pedagogik imkoniyatlariga muvofiq kelishi, ommabop bo‘lishi, o‘quv materialini mustahkam egallashga qaratilishi va o‘quv predmeti yangiliklari asosida yangilanib, takomillashib borishi zarur.

Ta’lim metodi ta’lim mazmunining voqelanish shakli bo‘lganligi sababli pedagogik (didaktik) adabiyotlarda u ta’lim mazmuni muhokama etilayotganda

ham, ma’lum bir mavzuni sinfda o‘tish jarayonida ham, metodik ishlanma va tavsiyalarda ham keng muhokama etiladi. O‘z-o‘zidan tushunarliki, didaktik jarayon, bolaga bilim berish, ijodiy faoliyatda malaka va ko‘nikma hosil qilish, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik hamda ijodiy yondashishni uning zotiy xislatiga – odat va tabiatiga aylantirish xilma-xil yo‘l, usul, metod hamda vositalardan foydalanishni talab qiladi. Bunda A.S.Makarenkoning: “***Men oddiygina «Bu yoqqa kel!» amrini 72 usulda aytishni o‘zlashtirganimdan keyingina o‘zimni pedagog deb his etdim***”, degan fikrini eslash o‘rinli.

Haqiqatan ham, ta’lim metodi va usuli hech qachon universal, umumiy, qat’iy, qotib qolgan va yakka-yu yagona to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emas. O‘qituvchi sharoitga, muayyan holatga, o‘quvchilarning yosh, tajriba, taraqqiyot xususiyatlariga muvofiq ravishda, har bir holatga uyg‘un tarzda shu – faqat mavjud sharoit va shu shaxs uchun mos bo‘lgan usul tanlay olsagina, ko‘zlangan maqsadga yetishi aniq. Shu bois Y.K.Babanskiy va M.M.Potoshniklar “Ma’lum bir mavzuni o‘tish uchun yozilgan metodik tavsiya va ishlanmalarda ta’limning eng samarali usuli qo‘llanilganmi?”, degan savolga qat’iylik bilan “Yo‘q” deb javob beradilar, zeroki bu tavsiya-yu ishlanmalar amaliyotdan, o‘qituvchi ish tutayotgan muayyan sharoitdan uzilgan. Shunday ekan u “eng samarali metod, usul” bo‘la olmaydi. “Eng samarali metod, usul – bu ijodkor o‘qituvchi ma’lum bir maqsadga erishishning xilma-xil yo‘l, usul va metodlaridan (ta’lim va ta’sir usullaridan) xuddi mana shu sharoit hamda holatga mos tanlagan turi”dir, chunki ta’lim metodi va usuli uchun invariantlik xos emas.[112]

Ta’lim metodi va usulini bir invariantga keltirish mumkin bo‘lmasa-da, didaktlar uning asosiy ko‘rinishlarini ma’lum bir tiplarga, turlarga birlashtiradilar.[113] Chunonchi, O.Roziqov, M.Mahmudova, B.Azizov, S.Og‘ayevlar ta’lim metodlarining asosiy ko‘rinishlari sifatida og‘zaki bayon (hikoya, ma’ruza, suhbat), ko‘rgazmali, muammoli izlanish, mustaqil ishlash, didaktik o‘yinlar,

[112]Бабанский Ю.К., Поташник М.М. Оптимизация педагогического процесса (в вопросах и ответах). – Киев: Радянська школа, 1984. – 288 стр.

[113]Лернер И.Я., Скаткин М.Н. О методах обучения. – М.: Педагогика, 1979. – стр.115-121.; Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 184-202-б.

amaliylik kabi metodlarni ko‘rsatsalar, I.Y.Lerner va M.N.Skatkin o‘zlarining ushbu mavzuga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarida ta’lim metodlarini reproduktiv ko‘rgazmali bayon (репродуктивность, объяснительно-иллюстративность), muammoli (проблемный), tadqiqiy (исследовательский) kabi turlarga ajratadilar va ulardan har biri ma’lum bir maqsadni ko‘zlashi, hech qachon barcha holatlar uchun qat’iy va mutlaq bo‘la olmasligini takror va takror uqtiradilar. Demak, ta’lim metodi hech qachon va hech bir zamonda yagona, mutlaq bo‘lishi mumkin emas. U mavzu xususiyati, o‘qituvchi va o‘quvchi saviyasi, ta’lim sharoiti hamda juda ko‘p holatlar hisobga olingan ravishda ta’limning (mavzuning) har bir turi, bosqichi, bo‘g‘ini uchun muayyan ravishda tanlansa-da, ta’lim maqsadi bilan uzviy bog‘liq tarzda ta’lim turi, ma’lum o‘quv predmeti uchun global (umumiy) ravishda ma’lum bir yetakchi, asosiy, bosh ko‘rinishga ega bo‘la oladi.

Ona tili ta’limida bilim berishga mo‘ljallangan an’anaviy metodlar. Ta’lim maqsadi bilimdon shaxsni tayyorlashni loyihalashtirsa, bunday ta’limda retroskopik metodlar, deduktiv ta’lim, ya’ni o‘quvchiga bilim berishga mo‘ljallangan metodlar yetakchilik qilishi shubhasiz, chunki ta’lim maqsadi shuni talab qiladi. (Olimlarning fikricha, “bilimli shaxs” ko‘p narsani biladigan kishi, lekin insonning xotirasi imkoniyatlari cheklangan va u cheksiz bilimga ega bo‘la olmaydi. “Bilimli shaxs”ning miyasi ma’lum miqdordagi bilimlar bilan to‘ldirilishi zarur, ta’lim beruvchi esa shu idishni to‘ldiruvchi vazifasini o‘taydi.)

Bunda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi orasidagi munosabat qanday bo‘lishi lozim? Ona tili ta’limida bilim berishga mo‘ljallangan an’anaviy metodlar ta’lim oluvchiga ma’lum miqdordagi bilimni o‘rgatish obyekti, ta’lim beruvchiga esa o‘rgatish jarayonining subyekti sifatida yondashadi. Bu yondashish retroskopik metoddan, ya’ni qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka qarab intilish – ***bilim berish*** yo‘lidan foydalanishni taqozo etadi. Bir qator olimlar–I.Y.Lerner, A.M.Matyushkin, M.Mahmudova, A.V.Zankov, Y.V.Senko, V.P.Palamarchuk, N.F.Talizina va boshqalarning didaktik asarlarida ham ta’lim metodlariga xos ilmiy-nazariy fikrlar silsilasida ta’lim oluvchiga obyekt, ta’lim beruvchiga subyekt

sifatida yondashilgan.[114] Ta'limni deduktiv-reproduktiv metodda tashkil etish uzoq yillar ta'lim jarayonida hokim bo'lib kelgan. Bular quyidagilar:

1.***Og'zaki bayon metodi*** hikoya, ma'ruza shakllariga ega bo'lib, unda asosan, o'qituvchi tushuntiradi, o'quvchilar tinglaydi.

Hikoya metodi. Yangi mavzu o'qituvchi tomonidan aytib beriladi. Masalan, 5-sinfda o'quvchilariga "So'z birikmasi" mavzusi o'tilayotganda, o'qituvchi so'z birikmasining ta'rifini (Tobe hamda hokim so'zning o'zaro uyg'unligi so'z birikmasidir) keltiradi. Misollar yozilgan ko'rgazmadan foydalanadi. So'z birikmasining tarkibi ikki qism(tobe so'z hamda hokim so'z)dan iborat bo'lishini; agar tobe so'zning ham, hokim so'zning ham tarkibi bittadan mustaqil so'zdan iborat (*opamning qalami, do'stim bilan suhbat, go'zal bog'*) bo'lsa, bunday so'z birikmalari tuzilishiga ko'ra sodda so'z birikmasi deyilishini; agarda tobe so'zning yoki hokim so'zning tarkibi bittadan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topgan (*kichik opamning qalami, sinfdagi do'stim bilan suhbat, katta go'zal bog'*) bo'lsa, bunday so'z birikmalari tuzilishiga ko'ra murakkab so'z birikmasi deyilishini aytadi va h.

Ma'ruza metodi. Ma'ruza lotincha *lektio*–чтение (o'qish) so'zidan olingan bo'lib, o'quv materialini muntazam ravishda bayon etish demakdir. Ma'ruza metodi mazmun-mohiyatiga ko'ra 1) muayyan mavzuga yo'naltirilgan; 2) mavzu haqida axborot beradigan; 3) qiyosiy xarakterda mavzuni yoritadigan; 4) mavzu mazmuniga qiziqish uyg'otadigan turlarga bo'linadi.

Mazkur metoddan o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, o'rta maxsus ta'limda, shuningdek, oliy ta'limda foydalaniladi. Bunda, odatda, ta'lim oluvchi passiv tinglovchi bo'lib qolaveradi.

2.*Suhbat metodi*. Mazkur metodning axborot xarakteridagi suhbat, mavzuni mustahkamlovchi suhbat hamda evristik suhbat shakllari mavjud.

Axborot xarakteridagi suhbat metodidan, odatda, yangi mavzuni o'tish jarayonida foydalaniladi. O'qituvchi mavzu yuzasidan o'quvchilar quyi sinflarda

[114]Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения (общедидактический аспект). – М.: Педагогика, 1977. – 174 стр.; Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 277 б.; Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 256 б.; Савин Н.В. Педагогика. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 336 б.

egallagan bilimlarini nazarda tutib ularni suhbatga jalb etadi. Masalan, 6-sinfda “Shaxs otlari” mavzusini o‘tishda o‘qituvchi o‘quvchilarni 5-sinfda olgan bilimlariga tayangan holda sunbatga tortadi. Suhbatning asosini o‘qituvchining savollari hamda o‘quvchilarning og‘zaki javoblari tashkil etadi.

–Ot so‘z turkumi deganda nima nazarda tutiladi?

–Shaxs, narsa-buyum, o‘rin-joy, tushuncha nomlarini bildirgan mustaqil so‘zlarga ot deyiladi.

–Shaxs otlariga kim misollar aytadi?

–Bahrom, Gulbarchin; ota, ona, singil; shifokor, muallim, duradgor...

–Yozuvda nega ba’zi shaxs otlari (masalan, Farrux, Mirfayz, Dildor) bosh harf bilan yoziladi-yu, ba’zilari (masalan, kitobxon, chitfurush, amaki, xola, amma kabilar) kichik harf bilan yoziladi?

–Agar shaxs otlari atoqli ot bo‘lsa, bosh harf bilan yoziladi. Agar shaxs otlari turdosh ot bo‘lsa, kichik harf bilan yoziladi.

O‘quvchilarning mavzu yuzasidan savollariga yoki javob topolmagan savollariga o‘qituvchi javob berib boradi. O‘quvchilarga yangi mavzu mazmuni axborot tarzidagi suhbat orqali singdiriladi.

Yozma ish (insho, bayon, diktant, ijodiy matn)lar tahlili(xatolar ustida ishlash)da ham axborot xarakteridagi suhbat metodidan foydalaniladi.

Mavzuni mustahkamlovchi suhbat metodi ham yuqoridagiga monand. Faqat farqi shundaki, bu metoddan yangi mavzuni yoki muayyan bo‘lim, paragrafni o‘tib bo‘lgandan keyin foydalaniladi.

Axborot xarakteridagi suhbat metodi ham, mavzuni mustahkamlovchi suhbat metodi ham o‘quvchilarning xotirasiga bog‘liq bo‘lib, ular o‘quvchining qayta esga tushirish faoliyatiga mo‘ljallab o‘tkaziladi.

Evristik suhbat metodi o‘quvchini o‘ylashga, tafakkur etishga undashi bilan ahamiyatli. Evristik suhbat jarayoni ham o‘qituvchi va o‘quvchining dialogik nutqi shaklida savol-javobga asoslanadi. Biroq evristik suhbat uchun o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi uchun tayyorlangan savollarga o‘quvchi darslikdan yoki boshqa o‘quv materialidan tayyor javobni ololmaydi. Evristik suhbat savollari

bolani o‘ylashga, o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan bilimlarini bir qadar amaliy tatbiq etishga undaydi. Masalan, 9-sinfda o‘qituvchi “Ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar” mavzusi yuzasidan evristik suhbatni quyidagicha tashkil etishi mumkin:

Doskaga kuzatish uchun, taxminan, shunday gaplar yoziladi va o‘quvchilarga gapning turini aniqlash hamda tinish belgilarini o‘rniga qo‘yish, ularning ishlatilish sabablarini tushuntirish topshirig‘i beriladi:

1.Suv zar suvchi zargar	*4.Havo sovuq Po‘latjonning yuzlari qiziydi*
2.Yurt tinch sen tinch	*5.Shuni unutmang o‘qigan yengadi*
3.Osmon yiroq yer qattiq	*6.Vaqting ketdi baxting ketdi*

O‘quvchilar topshiriqni quyidagicha bajaradilar:

1.*Suv– zar, suvchi–zargar*. (gap turi: ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap; 1-sodda gap 2-sodda gapdan vergul bilan ajratilgan; ot kesimlar bosh kelishikdagi turdosh ot orqali ifodalanganligi uchun har ikkala egadan keyin tire ishlatilgan.)

2. *Yurt tinch –sen tinch*. (gap turi: ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap; 1-sodda gap 2-sodda gapdan tire bilan ajratilgan; sababi, gaplar orasida shart ma’nosi mavjud.)

3. *Osmon yiroq –yer qattiq*. (gap turi: ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap; 1-sodda gap 2-sodda gapdan tire bilan ajratilgan; sababi, gaplar orasida zidlik ma’nosi mavjud.)

4. *Havo sovuq; Po‘latjonning yuzlari qiziydi*. (gap turi: ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap; 1-sodda gap 2-sodda gapdan nuqtali vergul bilan ajratilgan; sababi, qo‘shma gap qismlari bir-biriga mazmunan unchalik yaqin emas.)

5. *Haqiqat shu: o‘qigan yengadi*. (gap turi: ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap; 1-sodda gap 2-sodda gapdan ikki nuqta bilan ajratilgan; sababi, keyingi sodda gap oldingi sodda gapning kesimini izohlagan.)

6. *Vaqting ketdi – baxting ketdi*. (gap turi: ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap; 1-sodda gap 2-sodda gapdan tire bilan ajratilgan; sababi, gaplar orasida o‘xshatish ma’nosi mavjud.)

Evristik suhbat jarayonida o‘quvchilar bir-birlarining javoblarini diqqat bilan tinglashlari, to‘ldirishlari, xatolarni tuzatib borishga odatlanishlari zarur.

(Dars davomida suhbat uchun V-VI sinflarda 10-12, VII-IX sinflarda 12-15, X-XI sinflarda 15-20 daqiqa, takrorlash darslarida esa 30-35 daqiqa sarflash mumkin.)

3.*Til faktlarini analiz qilish metodi*. Mazkur metod o‘z ichiga til faktlarini kuzatish metodi hamda grammatik tahlil metodlarini qamrab oladi.

Til faktlarini kuzatish metodi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida muayyan matn tarkibidan til hodisalarini belgilangan mavzu yoki bo‘lim mohiyati nuqtayu nazaridan kuzatadilar, o‘z fikrlarini aytadilar, xulosa chiqaradilar. Chunonchi,

1.Fonetika bo‘yicha: lug‘atdan ikki bo‘ginli, ammo yozuvda satrga ko‘chirilmaydigan so‘zlarni topib yozish: *aka, alik, adir, axir, anor, amir; ona, ota, opa, otar, ohor; ulov, uloq, unut, usul; o‘lim, o‘jar, o‘zak, o‘lik, o‘sha; elak, etak, eshak; imo, imon, ibo, izoh.*

2.Leksika bo‘yicha: matnni diqqat bilan o‘qish va ibodat so‘zining lug‘aviy ma’nosini izohlash; she’riy matn tarkibidagi so‘zlarning ma’nodoshlarini topish; shakldosh so‘zlarni aniqlash; uyadosh so‘zlarni ajratish va h.

Ibodat

Mirza Kenjabek she’ri

Ibodat ne? Yaratganga itoat ham ibodatdir,
Haqiqiy bandalik birlan sadoqat ham ibodatdir.

Ibodatdir tiriklikni etolsang ma’rifat bog‘i,
Mashaqqatli ilm, san’at, qiroat ham ibodatdir.

Onang birlan otang qalbi o‘tar Ka’ba tavofidan,
Alar ko‘nglini shod etsang, shu xizmat ham ibodatdir.

Xabar oldingmi bemordan, qarindosh, do‘st, musofirdan?
Birovni yo‘qlasang dildan, ziyorat ham ibodatdir.

Umrni etmayin isrof, o‘zung ro‘za, vujuding sof,
Agar pok holda uxlarsen, shu rohat ham ibodatdir.

Mudom Allohni zikr etsang, halol boriga shukr etsang,
Qiyomat kunni fikr etsang, tijorat ham ibodatdir.

Butun borliq, nabotot ham yaratganga etar tasbih,
Bobo dehqon ekib yursa, ziroat ham ibodatdir.

Ibodatdir biror zolim, jafokorga desang haq so‘z
Va nodonga sukut etsang, sukunat ham ibodatdir.

Agar jufti halol birla ko‘ngilxushlik etar bo‘lsang,
Falak shohid, malak hozir shu fursat ham ibodatdir.

Tamal iymon-u ixlosdir, bu qullik bandaga xosdir,
Xudo deb qilganing har ish va niyat ham ibodatdir.

Bu islomdir hama xublik ibodat holiga kelgay
Ki ogohlik bilan o‘tgan bu fursat ham ibodatdur.

O‘quvchilar tahlil natijasida: “Ibodat deganda kishi faqat besh vaqt namoz o‘qish, hijobga kirish yoki salla o‘rab yurishni emas (chunki bular shakl, xolos), balki toza qalb, sof vijdon, halol mehnat, boshqalarga mehr-oqibat bilan haqiqiy inson sifatida yashamoqni tushunmoq zarur”ligi to‘g‘risida xulosa chiqarmoqlari muhim.

3.Morfemika bo‘yicha: matnni diqqat bilan o‘qish va fe’l, ot, sifat yasovchi qo‘shimchalarni ajratish:

ONA TILIMIZ

O‘tgan chorak asrdan ko‘proq muddat ichida respublikamizda, shubhasiz, katta ishlar amalga oshirildi. Qariyb oila tili darajasiga tushib qolgan, jamiyatda tutgan o‘rni zaiflashgan ona tilimizga yangitdan kuch ato etildi. O‘zbek tilining mamlakatimiz miqyosida amal qilish doirasi kengaytirildi, ming yillar davomida

sayqallagan obro‘-e’tibori tiklandi. Faxr etsak arziydigan, to‘laqonli davlat tiliga aylandi.

Ona tilida aniq fikrlang, adabiy tilda so‘zlashing, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Qayerda va kim bo‘lmasin, ona tilini kamsitishlariga aslo yo‘l qo‘ymang.

Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o‘zgarishiga qarab almashtirilsa. Onayizor, vatan, millat kabi tushunchalarning har biri betakrordir. Ona tili ham bitta. Agar o‘z xalqingiz orasida soqov va yot bo‘lib qolishni istamasangiz, ona tilini puxta o‘rganing, uni boshingizga ko‘taring. Kishi boshqa tilda bilimli bo‘la oladi, ammo faqat ona tilidagi bilimigina bekam-u ko‘st bo‘lishi mumkin. Ona tilimizni e’zozlashni, qadrlashni va asrashni ma’rifiy millatlardan o‘rganing.

Keyingi topshiriq sifatida matn tarkibini asos va qo‘shimchalarga ajratish vazifasini berish ham mumkin.

4.Morfologiya bo‘yicha: matnni diqqat bilan o‘qish va matn tarkibidagi so‘zlarni turkumlarga ajratish:

Bilingki,
O‘z tilini unutgan xalqning,
Bog‘larida o‘sgan gullarni,
Chirmab uxlar zaharli ilon.
O‘z tilini unutgan xalqning,
Osmonida porlamas quyosh–
Nur o‘rnida to‘kiladi tosh. *(X.Davrondan)*

5.Sintaksis bo‘yicha: gaplarni diqqat bilan o‘qish va kesimi uyushgan gaplarni ajratish:

1.*O‘zbek tili o‘zligimiz, ozodligimiz ramzi, mustaqil yurtimizning ovozidir.* 2.*Tilimizni qadrlash, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlarimizning bu boradagi ezgu a’mollari biz uchun katta saboq, dasturilamaldir.* 3. *Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy nasriy va nazmiy asarlarida tilimizning beqiyos go‘zalligini, fasohatini, boy va betakrorligini*

namoyon etgan, ilmiy asarlarida yetuk tilshunos sifatida uning rivojlanish yo‘llarini tahlil qilgan edi.

6.Uslubiyat bo‘yicha: berilganlarni diqqat bilan o‘qish va ularning uslubini ajratish:

1. *“Padarkush” dramasi 1914-yili Samarqandda qo‘yilganda “Oyna” gazetasi bunday yozgan edi: “Xalq nihoyat ko‘p kelib, bilet yetmagani va joy yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi... Uch so‘m berib tikka turmoqqa ham rozilar bo‘ldi”.*

2. *Yor yurgan ko‘chaning farroshi bo‘lsam, koshki,*

Har nafas men yonida yo‘ldoshi bo‘lsam, koshki. (Chustiy)

3. *Yigirma besh asrdan ziyod tarixga ega Buxoro jahon tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan ko‘hna va navqiron shaharlarimizdan biri. Qadimdan ilmu ma’rifat, madaniyat maskani bo‘lgan bu go‘sha ta’rifi yetti iqlimga yoyilgan.*

4. *Dunyo xalqlari xilma-xil tillarda gaplashishadi. Biroq fan aniqlikni yaxshi ko‘radi. Shu tufayli vaqti-vaqti bilan tilshunoslar tillar sonini hisobga oladilar va o‘z ma’lumotlarini e’lon qilishadi. Raqamlar odatda bir-biriga doimo mos tushavermaydi. Chunki u yoki bu tilni hamma joyda ham birdek tan olavermaydilar. Natijada o‘sha tilni ro‘yxatga kiritmay qo‘yish hollari uchrab turadi.*

Til faktlarini kuzatish metodi o‘quvchilaring nazariy bilimlarini oshiradi. (Biz bu kabi tahlillarni ona tiliga ixtisoslashgan sinflardagina o‘tkazishni o‘rinli deb hisoblaymiz.)

Grammatik tahlil metodi. Mazkur metod o‘rta umumta’lim maktablarining ona tili darslarida o‘tiladigan til sathlari bo‘yicha o‘rgangan nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, o‘zlashtirgan bilimlarini chuqurlashtiradi.Grammatik tahlil metodi tarkibiga fonetik, leksik, orfografik, morfemik, morfologik, sintaktik, stilistik, punktuatsion tahlil turlari kiradi. Grammatik tahlil metodidan, odatda, shu bo‘limlar o‘tib bo‘lingach foydalaniladi.

1. *Fonetik tahlil*da so‘zning fonetik jihatiga e’tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu <u>millatning</u> ruhi* gapining fonetik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

a) gap tarkibidagi unlilarni ajratish: *Ona tili–bu millatning ruhi;*

b) gap tarkibidagi undoshlarni ajratish: *Ona tili–bu millatningruhi;*

d) gap tarkibini bo‘g‘inlarga ajratish: *O-na ti-li–bu mil-lat-ning ru-hi* (gap tarkibida 7ta ochiq, 3ta yopiq bo‘g‘in mavjud);

e) gap tarkibidagi so‘zlarning urg‘usini aniqlash: *Oná tilí –bú millatníng ruhí;*

f) gap tarkibidagi ajratilgan so‘z tahlili: *millatning*

m*–undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab-lab, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor;*

i*– unli, tilning yotiq holatiga ko‘ra til oldi, tilning tik holatiga ko‘ra tor, lablar ishtirokiga ko‘ra lablanmagan;*

l*– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra* til oldi*, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra* yon tovush*, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor;*

a*–unli, tilning yotiq holatiga ko‘ra til oldi, tilning tik holatiga ko‘ra keng, lablar ishtirokiga ko‘ra lablanmagan;*

t*– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra* til oldi*, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra* portlovchi*, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra* jarangsiz*, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra* shovqinli*;*

n*– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor;*

ng*– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra sayoz til orqa, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor.*

2. *Leksik tahlil*da so‘zning leksik jihatiga e’tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhi* gapining leksik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

a) leksik ma’no turiga ko‘ra: *ona tili*–bir ma’noli so‘z, *bu*– bir ma’noli so‘z, *millat*– bir ma’noli so‘z, *ruh*– ko‘p ma’noli so‘z;

b) ma’no ko‘chishiga ko‘ra: *ona tili*–ko‘chmagan, *bu*– ko‘chmagan, *millat*–ko‘chmagan, *ruh*– metafora usulida ko‘chgan;

d) ishlatilish doirasiga ko‘ra: *barchasi umumiste’moldagi so‘zlar*;

e)shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra: ***ona tili***[o‘zbekcha]–ma’nodoshi–; shartli antonimi–chet tili; uyadoshi–o‘zbek tili, davlat tili; omonimi–; ***bu***[o‘zbekcha]–ma’nodoshi–u, shu, ana shu; shartli antonimi–anovi; uyadoshi–barcha ko‘rsatish olmoshlari; omonimi–; ***millat*** [arabcha] – ma’nodoshi–xalq; shartli antonimi–olamon, to‘da, guruh; uyadoshi–elat, xalq, davlat, mamlakat; omonimi–; ***ruh***[arabcha]– ma’nodoshi–jon, shuur, siyrat; shartli antonimi–o‘lik; uyadoshi– jon, shuur, siyrat, kayfiyat, asos; omonimi–I– jon, shuur, siyrat; II–rangli metall;

f) tuzilishiga ko‘ra: *ona tili* (qo‘shma so‘z); *bu* (sodda tub so‘z); *millatning* (sodda tub so‘z); *ruhi* (sodda tub so‘z).

3. ***Orfografik tahlil***da so‘zning imloviy jihatiga e’tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhi* gapi tarkibidagi barcha so‘zlar morfologik tamoyil asosida yozilgan.

4. ***Morfemik tahlil***da so‘zning morfemik jihatiga e’tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhi* gapining morfemik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

so‘zlar	**asos**	**qo‘shimchalar**				
		so‘z yasov-chi	**shakl yasovchi qo‘shimchalar**			
			so‘z shakli yasovchi	**sintaktik shakl yasovchi**		
				tuslovchi	**turlovchi**	
					egalik	**kelishik**
ona tili	**ona, til**				**-i**	
bu	**bu**					**-ning**
millatning	**millat**					
ruhi	**ruh**				**-i**	

5. ***Morfologik tahlil***da so‘zning turkumiy jihatiga e’tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhi* gapining turkumiy tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

mustaqil so‘zlar							yordamchi so‘zlar			so‘z-gaplar
fe’l	**ot**	**sifat**	**son**	**ravish**	**taqlid**	**olmosh**	**ko‘mak.**	**bog‘lov.**	**yukl.**	
	ona tili, millat-ning, ruhi					**bu**				

6. ***Sintaktik tahlil***da gapning tuzilish jihatiga e’tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhi* gapining sintaktik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

a) gap tuzilishiga ko‘ra: sodda yoyiq gap;

b) ifoda maqsadiga ko‘ra: darak gap:

d) grammatik asosiga ko‘ra: ikki bosh bo‘lakli gap (*ruhi*–kesim; *ona tili*–ega), to‘liq gap;

e) gapda so‘zlar bog‘lanishiga ko‘ra: bitta moslashuvli tobe bog‘lanish mavjud (*millatning ruhi*); teng bog‘lanish–;

f) gap bo‘laklarining ifodalanishiga ko‘ra: *ruhi*–ot kesim, turlangan mavhum ot bilan ifodalangan; *ona tili*–ega, turlangan qo‘shma ot bilan ifodalangan; *bu*–sifatlovchi aniqlovchi, ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan; *millatning*–qaratqich aniqlovchi, turlangan jamlovchi ot bilan ifodalangan.

4.*Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan ishlash metodi*. Mazkur metodning mohiyati nomidanoq ko‘rinib turibdi. Odatda, bu metoddan o‘qituvchilarning aksariyati foydalanadi. Ammo darslik va o‘quv qo‘llanmalar bilan ishlash metodidan muntazam foydalanish bolada (ayniqsa, iqtidorli o‘quvchida) ijodiy tafakkur rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

5.*Ko‘rgazmalar bilan ishlash metodi*. Mazkur metod illyustratsiya (rasmlar, chizmalar, jadvallardan foydalanish), demonstratsiya (videoproyektor, kompyuter texnikasi, kinolenta, televizor kabi texnik vositalardan foydalanish), ko‘rsatma

(tabiiy predmetlardan, buyumlarning o‘zidan foydalanish) metodlarini o‘z ichiga oladi.

Bir guruh olimlar o‘qitish metodlarini ikki katta guruhga ajratadilar:

1. O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar.

2. O‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar.

O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar deganda esa –

1) bilimlarni tayyor holda bayon etish;

2) bilimlarni muammoli yo‘l bilan bayon qilish metodlarini nazarda tutadilar. O‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar o‘z navbatida qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik va izlanishga asoslangan metodlarga bo‘linadiki, ularning barchasi jamiyatga ijodiy tafakkur sohibini emas, bilimdon shaxsni yetkazib berishga moslashtirilgan an’anaviy metodlardir.

Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar. Ta’lim ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxsni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, unda bunday maqsadga muammoli va tadqiqiy ta’lim metodlari, induktiv ta’lim, ya’ni o‘quvchida bilim hosil qilishga mo‘ljallangan metodlar yetakchilik qilishi lozim. Ta’lim metodi bilimni, shu asosdagi ko‘nikma-odatni ta’lim oluvchida qay metod bilan hosil qilish va o‘z-o‘zidan o‘qituvchi-o‘quvchining o‘zaro aloqasi qanday bo‘lishini taqozo qiladi. (Ijodiy tafakkur sohibi deganda nafaqat bilimni, balki bilish yo‘llarini biladigan va ulardan foydalana oladigan shaxs nazarda tutiladi. U mustaqil, ijodiy fikrlovchi qanday sharoitda qanaqa bilim kerakligini va uni qayerdan olish mumkinligini – bilim manbayini va undan foydalanish kalitini biladi. Ijodiy tafakkur sohibining ongini ko‘zlari yumuq buloqqa qiyoslash mumkin. Ta’lim beruvchining vazifasi buloqning ko‘zini ochishdan iborat.[115])

Bunda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi orasidagi munosabat qanday bo‘lishi lozim? Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar ta’lim oluvchiga o‘rganish jarayonining subyekti, ta’lim beruvchiga esa mazkur jarayonning boshqaruvchisi, tashkilotchisi sifatida yondashadi. Shuning uchun

[115] Неъматов Ҳ., Ғуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т.: РТМ, 1992. – 30 б.

ta’lim jarayoni (dars mashg‘ulotlari)da izlanishlarni, asosan, ta’lim oluvchi bajaradi. Bu yo‘nalishda kognitiv-pragmatik metoddan, ya’ni kuzatish-u tahlildan qonuniyatga, xususiylikdan umumiylikka qarab intilishdan – ***bilim hosil qilish*** metodidan foydalaniladi. Ta’kidlash joizki, an’anaviy ta’lim metodlari silsilasida uchramaydigan bu metod o‘zbek didaktikasida milliy istiqloldan so‘ng ommalashdi.

Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar dastlab induktiv atamasi bilan nomlandi. Induksiya/induktiv (hodisadan →qonuniyatga) mohiyatan falsafiy-mantiqiy metod bo‘lib, umuman, bilim hosil qilishning, aqliy amaliyotning bir ko‘rinishidir va deduksiya (qonuniyatdan→hodisaga) metodiga qarama-qarshi turadi. O‘zbek didaktikasida birinchi marta induksiya/induktiv ta’lim metodi atamasi H.Ne’matov va A.G‘ulomovlar tomonidan ilk muhokamalar uchun nashr etilgan ona tilidan dastur[116]da qo‘llanilgan. Keyingi yillarda induktiv atamasi ongli, verbal, kognitiv-pragmatik ta’lim metodi sifatida talqin etildi. (Kognitiv-pragmatik ta’lim metodi dunyoning rivojlangan mamlakatlari didaktikasida va psixologiyasida keng ommalashgan.[117])

Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlar (induktiv yoki ongli, verbal, kognitiv-pragmatik ta’lim metodi)dan foydalanilganda o‘quv mashg‘ulotlarida faol ishlovchi ta’lim oluvchining o‘zidir. Bunday mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar berilgan materialni mustaqil tahlil (analiz) qila olishlari, ta’lim boshqaruvchisi yordamida natijalarni umumlashtirishlari (sintez) va hukm chiharishlari, hosil qilingan umumiylik (qonuniyat)ni amalda qo‘llay olishlari, sinashlari va o‘quv masalalarini yecha olishlari ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda ta’lim beruvchining bosh vazifasi: “Ta’lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat”.[118]

---

[116] “Ўзбек тили”дан программа лойиҳалари – ИНДУКТИВ. “Ўзбек тили” доимий конференциясида муҳокама учун материаллар. 1-қисм. (Масъул муҳаррир: У.Н. Нурмуҳаммедов. Нашр учун масъул: З.Қ.Юнусова.)− Тошкент. ЎзХТВ. Жумҳурият ўқув-методика маркази. –1990. 27 б.

[117]Ausubel D.P. Educational Psychology. A Cognitive View. – N.Y., 1968. – № 45.; Reynolds A.V., Flagg P.W. Conitive Psychology. – Cambr, 1997. – 32.

[118] Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999. – 16-б.

Ongli, verbal, kognitiv-pragmatik ta'lim metodi. Kognitiv (ingl.: cognition – bilishga oid, idrokiy) ta'lim o'quvchini izlanishga, qiyoslashga, xulosa chiqarishga va zarurini tanlashga yo'naltiradi. Demak, reproduktiv ta'lim bilim bersa, kognitiv ta'lim bilim olishga undaydi, bilim olish yo'llarini o'rgatadi, usullarini tavsiya etadi – o'quvchi qo'liga bilim kalitini tutqazadi. Chunki bilim cheksiz, uning barchasini o'quvchiga o'rgatib bo'lmaydi.

Kognitiv ta'limda sistemaviy izchillikka ega topshiriqlar tizimidan foydalaniladi. Mazkur topshiriqlar tizimi hodisalarni kuzatish, ularni umumlashtirish, narsa-buyum, holat, tushunchalarni o'zaro qiyoslash, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga; o'quvchilarni o'ylash, fikrlash izlash, topish va umumlashtirishga; dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratishga qaratilgan bo'lishi zarur. Va yana ta'kidlash joizki, algoritmik topshiriqlar tizimini kimdir tayyorlab berishini kutish o'qituvchi uchun o'z kasbiga e'tiborsizlikdir. Davr esa tanlagan kasbimizga fidoyi bo'lishni talab etadi.

Ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish maqsadini ko'zlagan kognitiv-pragmatik ta'lim metodi o'qituvchi ta'lim jarayonida mumkin qadar darslikdan ko'proq uzilishi hamda darslik o'quv materiali, dasturda rejalashtirilgan mavzularga monand, yondosh mavzular va o'quv topshiriqlari tizimidan foydalanishi zarurligini taqozo etadi. Ya'ni mohiyat e'tibori bilan mustaqillik davrida yangilangan ta'lim maqsadi, mazmuni va metodi butun diqqatni o'quv topshiriqlari tizimini yangilashga qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

Ona tili ta'limida dars metodini tanlash muammosi. Induktiv metodning o'z afzalliklari bo'lsa-da, mushohada, muhokama va muammoli ta'lim metodi hisoblangan induktiv metodlar deduktiv metodlarni rad etmaydi, aksincha, induksiya doimo deduksiya bilan mustahkam aloqada bo'ladi. Induktiv metodlarda ta'lim jarayonini tashkil eta olish ta'lim beruvchidan yuksak darajadagi bilim va mahoratni talab etadi. Bundan tashqari ta'limning har xil tur va bosqichlarida, muayyan o'quv predmetining turli o'rganilish bosqichlarida ta'limning bir xil yetakchi metodi hukmronlik qilishi mumkin emas. Masalan, ona tili o'quv predmeti ta'limining boshlang'ich bosqichida, tayanch o'rta ta'limda va o'rta

maxsus ta’lim bosqichida yetakchi ta’lim metodi bir xil bo‘lishi mumkin emas. Alifbo, xat-savod, imlo va talaffuz me’yorlarini o‘quvchilarga muammoli, muhokama yoki tanqidiy metodlar bilan singdirish, ularda amalda ravon va to‘g‘ri o‘qish hamda yozish, adabiy nutq me’yorlariga rioya qilish odatini tabiatga aylantirishi mumkin emas. O‘rta umumiy talimning boshlang‘ich ta’lim bo‘g‘iniga to‘g‘ri keladigan 7-10 yosh bolalarda o‘ta rivojlangan xotira, reproduksiya, psixologik-stereotip shakllarni tez va abadiy o‘zlashtirish davri. Bu davr ta’limida deduktiv-reproduktiv ta’lim metodi yetakchilik qilishi lozim. Bu yosh – hadisda qayd etilganidek: “Yoshlikda o‘zlashgan ilm toshga o‘yilgan naqshdir” – reproduktiv bilimlar, qat’iy va mutlaq qonun-qoidalarning bir umrga xotirada naqsh qildirish (toshga o‘ydirish) davridir. Shuning uchun bu tur ta’limida, shubhasiz, reproduktiv ta’lim metodlari yetakchilik qilishi lozim. Faqat bolaga beriladigan bilimlar hajmi va sifati, amaliyotga munosabatiga nisbatan, aytib o‘tganimizdek, o‘ta talabchanlik lozim; butun umri va jamiyatda kundalik faoliyati uchun zarur bo‘lgan odatlarni shakllantirish uchun asos bo‘la oladigan bilimlar va axborot bolaga shu yoshda singdirilishi lozim.

O‘rta umumiy (tayanch) ta’lim bosqichida 11-16 yoshli o‘smirlarning psixo-fiziologik holatlari tamoman o‘zgacha bo‘lib, ularda ijodiylik–olgan bilim, hosil qilgan ko‘nikmalari asosida ijod, ya’ni yaratish, bunyod qilish, yangilik yaratish, g‘ayrioddiylikka qiziqish kuchayadi. Bu yoshda ularning ongini retroskopik ta’lim bilan band qilish ta’lim oluvchida ijodiylik kurtaklarini so‘ndirishga olib kelishi mumkin. Shunga ko‘ra o‘rta umumiy (tayanch) ta’lim bosqichida ona tili ta’limi metodi ham tubdan yangilanishi, til va tafakkurning birligi hamda ajralmasliligiga tayangan holda ta’lim oluvchiga ijodiy tafakkur malakalarini shakllantirishga qaratilgan, ya’ni ko‘proq induksiyaga tayangan bo‘lishi lozim.[119]

Ona tili ta’limi o‘smirlarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ijodiy tafakkur mahsulini yozma va og‘zaki shakllarda to‘g‘ri hamda ravon bayon qilishni

[119]Ne`matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari.–Buxoro: Universitet, 2006.–82 b.; Понфилов В.З. Философские проблемы языкознание. – М.: Наука, 1977.; Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Т.:Ўқитувчи, 1993.; Язык и мышление. Взаимоотнашение языка и мышления. – М.: Наука, 1971.

o‘rgatishga xizmat qilmog‘i lozim. Bu maqsad esa o‘quvchilarga tayyor qoidalarni berish emas, balki hodisalarni kuzatib, ularni umumlashtirish, aqliy umumlashmalarni o‘zaro qiyoslab, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan – bolalarni o‘ylash, fikrlash, izlash, topish va umumlashtirishga undovchi – ta’lim metodini, muammoli vaziyatlarini, mashq va topshiriqlarni talab etadi. (Xalqimiz topib aytganidek: “Qalovini topsang, qor ham yonadi”.)

Ona tili ta’limini o‘rta umumiy ta’limning tayanch bo‘g‘ini(V-XI sinflar)da kognitiv-pragmatik metodda yo‘lga qo‘yishning afzalligi nimada? Bu, birinchidan, o‘quvchilarning boshlang‘ich ta’limda xat-savodning asosiy qoidalari, o‘zbek adabiy tilining imlo va talaffuz me’yorlari bilan, asosan, retroskopik ta’lim metodida tanishganlari, ikkinchidan – o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olgan holda- endigi navbat ularda izlanish va topish, yaratish, ijod malakalarini shakllantirish maqsadi bilan bog‘liq. Bu yoshdagi o‘quvchining ongida kundalik hayotida ishlatadigan har bir narsa-buyum, voqea-hodisa, harakat-holatni o‘nlab metod-u turlarda atash va ifodalash imkoniyatlari mujassamlangan. U axborot manbalari – lug‘at, ma’lumotnoma, o‘rganayotgan boshqa o‘quv predmetlari bo‘yicha olgan qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ularning sirasini muttasil boyitib borishi, ona tili imoniyatlaridan maqsadga muvofiq to‘g‘ri va go‘zal foydalana olish malakalarini o‘zida o‘qituvchi rahbarligida shakllantirishi lozim. Nazariy-lingvistik qoidalarni emas, balki mustaqil izlanish asosida ma’lum bir masala (narsa, belgi-xususiyat, hodisa, harakat – umuman voqelik) ustida fikr yuritishi, o‘z kuzatish va topilmalarini, fikr-u mushohadasini ona tilining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanib yozma va og‘zaki shakllarda, ayni bir fikr-ma’lumotni (masalan, dam olish kunini qanday o‘tkazgani haqida) turli shakllarda (yozma va og‘zaki, rasmiy yoki do‘stona suhbat, badiiy tasvir….) va har xil kishilarga (masalan, tanishiga, yaqin sirdosh o‘rtog‘iga, uzoqdagi akasi yoki boshqa katta qarindoshiga, sinf rahbariga) bayon etishi uchun ona tili mashg‘ulotlari juda qulay va ulkan imkoniyatlarga ega. Ona tili ta’limi jarayonida bu imkoniyatlardan

samarali foydalanish mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda mustahkam zamindir.

Ona tili ta’limining ham an’anaviy, ham zamonaviy metodlaridan yaxshigina xabardor o‘qituvchigina dars jarayoniga ijodiy yondashadi va o‘ziga xos usullarni yarata oladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1.Ona tili ta’limida bilim berishga mo‘ljallangan an’anaviy metodlar qaysilar?
2.Ona tili ta’limida bilim olishga mo‘ljallangan zamonaviy metodlarlar mohiyatini tushuntiring.
3.Ongli, verbal, kognitiv-pragmatik ta’lim metodining boshqa metodlardan afzalligi nimada?
4.Ijodiy tafakkur sohibining bilimli shaxsdan qanday farqi bor?
5.Ona tili ta’limi jarayonida bolaga grammatik qoidalarni singdirish muhimmi yoki til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olishni o‘rgatish ahamiyatlimi?
6.Ona tili ta’limida DTS talablari nimalardan iborat?
7. Ona tili ta’limida dars metodini tanlash muammosi nimada?
8. Ta’lim metodini yangi maqsad va yangi mazmunga muvofiqlashtirish masalasini kimlar hal etadi?
9.Metod va usul farqlanishini qanday tushunasiz?
10. Ona tili ta’limini o‘rta umumiy ta’limning tayanch bo‘g‘ini(V-XI sinflar)da kognitiv-pragmatik metodda yo‘lga qo‘yishning afzalligi nimada?
11.O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar deganda nima nazara tutilyapti?
12. Evristik suhbatning oddiy suhbatdan qanday farqi bor?
13. Ta’lim metodi va usulini bir invariantga keltirish mumkinmi? Nega?
14. Reproduktiv bilimlar o‘quvchi uchun “tayyor osh” ekanligini qanday izohlaysiz?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1;4;10;11;18;20;22;24;25;27;32;35]

ONA TILI TA’LIMI VOSITALARI

REJA:

1. Darsning didaktik ta’minoti.
2.Darslik va dars davomida ta’lim oluvchi bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimi (algoritmi) xususida.
3.Ta’lim maqsadi va mazmunining o‘zaro mutanosibligi ta’minlashda ta’lim vositalarining roli.
4. Algoritmik darslik-dastur – mustaqil tafakkurni o‘stirish vositasi.

5. Ona tili o‘qituvchisining darsga tayyorlanishi. Dars, dars mazmunnomasi (konspekt) va unga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Didaktik ta’minot, ta’lim vositalari: darslik, topshiriqlar tizimi, axborot banklari, ta’lim maqsadi va vositalarining o‘zaro mutanosibligi, algoritmik darslik, dars mazmunnomasi

Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘ladi.
Maqol

Darsning didaktik ta’minoti deganda har bir soat o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha birliklar kiradi. Bular quyidagilar:

1. ***Darsning didaktik ta’minotini ta’minlovchi hujjatlar:***

a) muayyan o‘quv predmeti yoki fani bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan **o‘quv reja** (O‘quv reja bajarilishi shart bo‘lgan hujjat bo‘lib, unda o‘rta umumta’lim maktablarida, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida, umuman, ta’lim muassasalarida o‘qitilishi rejalashtirilgan barcha o‘quv predmetlari, fanlarning nomi, ularga ajratilgan o‘quv soatlari, ta’tillar va b.lar qayd etiladi);

b) o‘quv reja asosida tuzilgan (namunaviy) **o‘quv dasturi** (O‘quv dasturi tayanch ta’lim dargohlari mutasaddilari tomonidan, masalan, Xalq ta’limi vazirligi nazoratida yoki Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tuziladi va amaliyotga tatbiq etiladi. O‘quv dasturi, odatda, uch qismdan iborat bo‘lib, uning “Uqtirish xati” qismida metodik maslahatlar, “Asosiy qism”ida to‘rt chorak yoki ikki semestr davomida o‘tiladigan mavzular va ularga ajratilgan soatlar miqdori, “Mavzular bo‘yicha shakllantiriladigan malakalar” qismida ta’limdan kutilayotgan natijalar qayd etiladi);

d) o‘quv dasturi asosida tuzilgan **ishchi dastur** (Ishchi dastur fan o‘qituvchilari tomonidan (namunaviy) o‘quv dasturi asosida tuziladi va unda o‘quv dasturida bo‘limlar, boblar yoki mavzular bo‘yicha ko‘rsatilgan yaxlit soatlar har bir soat dars mavzusi uchun bo‘lib chiqiladi. Maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari bu ishni, odatda, fan sho‘balarida amalga oshiradilar);

e) **kalendar reja** (o‘qituvchi tomonidan tuziladi va unda o‘qituvchining qaysi sinfda, qachon, qancha o‘quv mashg‘uloti o‘tishi oldindan rejalashtiriladi, rejaning bajarilishi muntazam qayd etib boriladi. Kalendar reja vaziyatga qarab haftalik yoki oylik, ba’zan choraklik tuzilishi ham mumkin);

f) amaldagi tizim (reyting yoki “besh” baholi sistema) asosida o‘quvchilar bilimini **baholash mezonlari** (Baholash mezonlarida ta’lim oluvchining qaysi faoliyati uchun qanday baholanayotgani aniq ko‘rsatib beriladi. Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, umumiy o‘rta ta’limda ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar DTSda belgilangan uch parametrli standart ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

Bular quyidagilar:

1.O‘qish texnikasi. Bu parametr orqali o‘quvchining notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich sifatida ifodali o‘qish tezligi, ya’ni minutiga berilgan matndan nechta so‘z o‘qiy olish ko‘rsatkichi olingan. Sinfdan sinfga o‘tish davrida miqdoriy ko‘rsatkichdagi so‘zlarning soni oshishi bilan birga berilgan matnni o‘qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

O‘qish san’ati parametri talablariga ko‘ra:

1-daraja (“uch” baho; 56-70 ball). Bitiruvchi (XI sinf)lar uchun 1-daraja (quyi bilim) parametri darajalari talablarini belgilashda DTSda nazarda tutilgan 1 minutda 120-130 so‘z tezligidagi notanish matnni “Murakkab matndagi ilmiy atama va ramzlarni, mumtoz adabiyot namunalarini, so‘z, ibora va atamalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri va ravon o‘qish” minimal talabi asos qilib olindi.

2-daraja (“to‘rt” baho; 71-85 ball). Bu darajada 1 daqiqada notanish matnni 130-135 so‘z tezligida o‘qish belgilanadi va minimal (quyi, 1-daraja) talablar quyidagi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldiriladi, chuqurlashtiriladi:

–turli tipdagi (ilmiy, rasmiy, publitsistik va badiiy) matnlarni o‘qiganda, tinish belgilarini mazmunga mos ifodalay olish;

–badiiy matnlarning tur va janr xususiyatlarini farqlagan holda o‘qiy olish.

3-daraja (“besh” baho; 86-100 ball). Bu daraja notanish matnni 135-140 so‘z tezligida o‘qish belgilanadi va 1-, 2-daraja talablari quyidagi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldiriladi, chuqurlshtiriladi:

–mantiqiy o‘qish, ya’ni mazmunini yuzaga chiqaruvchi o‘rinlar- so‘z va gaplarni ta’kidlab o‘qish;

–monolog va dialog matnlarni farqlab o‘qish, har biriga xos ohang, ovoz tanlay olish;

–barmoq vaznidagi she’riy matnlarni taktlarga ajratib, vazn va ohangga rioya qilgan holda o‘qiy olish;

–aruz vaznidagi mumtoz nazm namunalarini ruknlarga ajratib o‘qiy olish.

Mazkur parametr bo‘yicha chorak, sinf doirasidagi tayyorgarlikni aniqlashda ham shu tamoyil va mezonlardan kelib chiqiladi, dastur materiali doirasida ish ko‘riladi, daraja talablari o‘qituvchi va metodbirlashma tomonidan ma’muriy andozalar asosida ishlab chiqiladi.

2.O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.

O‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash parametri talablari quyidagicha:

1-daraja (“uch” baho; 56-70 ball). Mazkur darajada boshlang‘ich ta’lim bo‘g‘inida nazarda titilgan talablarga tayanilgan holda XI sinfni bitiruvchi o‘quvchining 10 daqiqada 10-11 sahifa matnni aniq, matn mazmuniga mos to‘g‘ri, ravon ta’sirchan kabi sifat ko‘rsatkichlari darajasida bayon qila olish malakasini egallaganhgini aniqlash ko‘zda tutiladi. Bu talablarga mos choraklar, sinflar doirasidagi talablarni ishlab chiqishda va sahifalar miqdorini belgilashda ana shu talab va me’yorlash asos qilib olinadi.

2-daraja (“to‘rt” baho; 71-85 ball). Ushbu daraja talablari va me’yorlari 1-daraja sahifalari miqdorini oshirish va talab quyidagicha chuqurlashtirish, kengaytirish asosida (10 daqiqada 11-12 sahifa) belgilandi:

–ona tili dasturida “matn ustida ishlash” topshiriqlarida nazarda tutilgan talablar doirasida ilmiy-ma’rifiy matnlarni mazmunga mos, asosli o‘qish va bayon qila olish;

–tanlangan matnda qo‘llanilgan tinish belgilariga mos ohangda va imo-ishorada o‘qish va so‘zlay olish;

–qator, takror qo‘llangan tinish belgilarining matndagi vazifasini sharhlay olish.

3-daraja (“besh” baho; 86-100 ball). Ushbu daraja talablari va me’yorlari esa 2-daraja me’yorlari(sahifalari)ni oshirish va talablarni quyidagicha chuqurlashtirish, kengraytirish (10 daqiqada 12-13 sahifa) asosida belgilandi:

–ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy matnlarni har biriga xos mantiqiy, ifodali, badiiy o‘qiy olish, mohiyatini og‘zaki sharhlay olish;

–nasriy, nazmiy, drama matnlarini o‘ziga xos talab doirasida o‘qiy olish, har biri mazmuni va timsollari xarakteriga mos ovoz tanlay olish va uni og‘zaki bayon qila olish (sharhlash);

–monolog va dialog matnlarni mazmun va maqsad talabidan kelib chiqqan holda o‘qiy olish, to‘xtam kabi amallarni nutqda aks ettira olish va og‘zaki sharhlash;

–barmoq vazni va aruzdagi nazmiy matnlarni takt, ruknlar doirasida jo‘r bo‘lib bahribayt talablari doirasida o‘qiy olish va og‘zaki bayon – sharhda faol ishtirok eta olish.

Bu yo‘nalish (usul) choraklar, sinflar doirasida ham amal qiladi.

3.Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi(tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining maqsadi shu parametrda aniq mujassamlashadi. O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;

b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);

d) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;

e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;

f)imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

Fikrni yozma bayon etish malakasi parametri talablari quyidagilar:

1-daraja (“uch” baho; 56-70 ball). Bu daraja bitiruvchilar uchun mo‘ljallangan talablar va me’yorlar (30 daqiqada 13-14 gapdan iborat matn tuza olish) asosida ish ko‘radi, sinflar, choraklar kesimida dasturda nazarda tutilgan talab va bilimlar nazorat uchun asos qilib olinadi, 2-,3-daraja ko‘rsatkichlarida esa shu talablar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi.

2- daraja (“to‘rt” baho; 71-85 ball). Bu darajada matn taikibidagi gaplar miqdori oshiriladi, tayanch talab quyidagi ko‘rsatkichlar (30 daqiqada 14-15 gapdan iborat matn tuza olish) bilan chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi, konkretlashtiriladi:

–matnda mavzu doirasidagi hikmatli so‘zlar, maqollar, ko‘chiima(sitata)lardan o‘z o‘rnida foydalanish va ularni olmoshlar bilan almashtirib qo‘llay olish;

–matnda undov, modal so‘z-gaplardan foydalana olish va ularni yoyiq-yig‘iq bo‘linadigan gaplar bilan almashtira olish;

–matnda mavzuga mos kiritma va izohlovchilardan foydalanish va bunda tinish belgilarini o‘z o‘rnida qo‘llay olish;

–ravishdosh, sifatdosh, harakal nomi, kengaytirilgan birikmalarni gaplar bilan, gaplarni shunday oborot yoki olmoshlar bilan almashtirib qo‘llay olish.

3-daraja (“besh” baho; 86-100 ball). Bu darajada 2-darajada nazarda tutilgan gaplar miqdori oshiriladi, 2-daraja talablari quyidagicha (30 daqiqada 15-16 gapdan iborat matn tuza olish) chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi, aniqlashtiriladi:

–matn mazmuniga mos dialoglarni qo‘llay olish va unda remarka, luqma, muallif izohi kabi unsurlardan, shularga mos tinish belgilaridan foydalana olish;

–matn mazmuniga mos taqlid so‘zlarni ko‘chirma gap qolipida yoki alohida qo‘llay olish;

–badiiy mikromatnlarni adabiy va lisoniy sharhlash va chiqarilgan xulosalarni matn mazmuni bilan bog‘lay olish;

–bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni o‘zaro, ergash gapli qo‘shma gaplarni sodda yoyiq gaplar bilan almashtirib qo‘llay olish;

–ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni matn mazmuniga mos turli shakllaridan tinish belgilarini o‘z o‘rnida qo‘llay olgan holda foydalana olish;

–ilmiy, ilmiy-adabiy, adabiy-ijodiy matnlarda ularning har biriga xos ona tilining keng imkoniyatlarini, ifoda vositalarini farqlagan holda qo‘llay olish.

Bunda ham yuqori ko‘rsatkich (3-daraja) talablari, me’yorlari mezon sifatida belgilanadi; mezondagi gaplar miqdori, yaratilgan matndagi har bir talabning qay darajada bajarilishiga qarab baho (ball) belgilanadi, yo‘l qo‘yilgan har bir xato-kamchiliklar doirasida baho (ballar) pasaytiriladi (tushiriladi) va natija hisobidan matn baholanadi (ball qo‘yiladi);

2. ***Darsning didaktik ta’minotini ta’minlovchi ta’limiy manbalar:***

a) darslik;

b) o‘quv qo‘llanma (muayyan o‘quv predmeti yoki fani ta’limi uchun dastur asosidagi materiallarni o‘rganishga mo‘ljallangan darslikka qo‘shimcha ilmiy manba bo‘lib, u Xalq ta’limi vazirligi yoki Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan amaliyot uchun tavsiya etilgan bo‘lishi shart);

d) metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiyalar (muayyan o‘quv predmeti yoki fani mavzularining nazariy jihatidan ko‘ra amaliy tomoniga ko‘proq e’tibor qaratilgan manba bo‘lib, u “Mashq va topshiriqlar to‘plami”, “Qiziqarli tilshunoslik” shakllarida bo‘lishi ham mumkin);

e) lug‘atlar (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining uyadosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining so‘z yasash lug‘ati”, “O‘zbek tilining paronim so‘zlar lug‘ati”, ”O‘zbek tilining tarixiy so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” va b.);

f) ma’lumotnomalar;

g) qomuslar (“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, “Maktab o‘quvchilari uchun qomus” va b.)

Darsning didaktik ta’minotini ta’minlovchi ta’limiy manbalar “Axborot banki” deb yuritiladi.

3.***Darsning didaktik ta'minotini ta'minlovchi materiallar:*** ko'rgazma, test, topshiriqli kartochka yoki tarqatma materiallari, o'quv adabiyotlari va namunaviy materiallar, slaydlar, rasmlar, audio, video va proektsion materiallar, televideo materiallari, elektron materiallar, animatsiyalar, multimedialar va h.(Qarang: 4-jadval)

4-jadval



4. ***Darsning didaktik ta'minotini ta'minlovchi vositalar:*** doska (oddiy doska, magnitli doska, ko'chma doska, elektron doska, smart doska), bo'r, qog'oz, ruchka, qalam, chizg'ich, turli markerlar, magnitafon, lingafon, televizor, kadaskop, videoproektor, kompyuter, monitor va b.

Biz hali darslarning didaktik ta'minotiga to'la erisha olmayapmiz. O'quvchilar ona tili mashg'ulotlarida axborot manbalaridan keng va samarali foydalanishlari uchun moddiy zamin yaratish, shu yo'l bilan ommaviy tafakkurni o'stirish davlat diqqat markazida bo'lmog'i va qat'iy nazorat qilinishi shart.

Darslik va dars davomida ta'lim oluvchi bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimi (algoritmi) xususida. Ta'lim vositalari deganda ta'lim jarayonida ishlatilatiladigan, foydalanadigan barcha vositalar – birinchi navbatda darslik, metodik tavsiyalar-u ishlanmalar, ko'rgazma va tarqatma materiallar, texnik asbob-uskunalar majmuyi tushuniladi. Bulardan, shubhasizki, hozircha deyarli barcha o'quv predmetlaridan darslik ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi.

Darslik. Dastur asosida tuzilgan darslik ta’lim mazmunini aks ettiruvchi o‘quv materialini ham, uning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilish usullarini ham, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi uchun zarur sanalgan tahlil (analiz), umumlashtirish (sintez) uchun materialni ham, o‘quv materialidagi tarqoq hodisalarni bir-biriga bog‘lovchi qonuniyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bir so‘z bilan aytganda, darslik – ta’lim oluvchi uchun ma’lum miqdordagi bilimlarni, malaka, ko‘nikma, odatlarni o‘ziga singdirish uchun tayanch manba. Darslik ta’lim maqsadi, mazmuni va usuli bilan uzviy bog‘liqlikda har xil bo‘ladi. Retroskopik-reproduktiv (ko‘rgazmali bayon usuli) hukmronligi davrida darslik o‘quvchi o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlar va hosil qilinishi kerak bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni deyarli to‘la qamrab oladi –o‘quv materiali, asosan, darslik bilan cheklanadi – o‘quvchi darslik materialini bilsa bas. Tabiiyki, bunday darslik bilan ishlash tom ma’nodagi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Darslik topshiriqlar tizimida o‘quvchining mustaqil izlanishi uchun yo‘llanmalar berib borganda, ta’lim oluvchining axborot banklariga doimiy murojaatini talab qilganda, uni ijodiy faoliyatga undagandagina u o‘z maqsadiga erishishi mumkin. Shuning uchun darslik bilan dars davomida ta’lim oluvchi bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimi (algoritmi)ni va zaruriy o‘quv materialini aralashtirmaslik lozim. Biz hozir darslik deganda ham mavzu talqinini, ham o‘quv materialini, ham ta’lim oluvchi bajarishi lozim bo‘lgan amaliyotlar va ularning tartibini ham, ta’lim oluvchi kelishi kerak bo‘lgan yechim (xulosa)ni ham o‘z ichiga olgan majmuani tushunamiz. Haqiqiy ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish va rivojlantirishga mo‘ljallangan darslik yuqorida zikr etilgan darsliklardan farq qilmog‘i lozim; yangi maqsadlar uchun yangi turdagi darsliklar zarur.

Yangicha o‘qitishda, ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishda o‘quv materiali darslik materiallaridan ancha keng bo‘lmog‘i shart. Jumladan, ona tilidan darsliklar o‘quvchilarga xilma-xil lug‘atlar(axborot banklari)dan, qomuslardan, ma’lumotnomalar(spravochniklar)dan, maktabda o‘qitiladigan boshqa o‘quv

predmetlari bo‘yicha olgan bilimlari va ma’lumotlaridan, tajribali kishilar (o‘quvchilarning yaqinlari)dan qo‘shimcha material olishga, bu – darslikda berilmagan material ustida ijodiy ishlar tizimini loyihalashtirgan taqdirdagina ko‘zlagan maqsadiga erisha oladi. Aks holda, u o‘quvchi oyoq-qo‘liga kishan, tafakkuriga g‘ov bo‘ladi. Yangi maqsadga yangi turdagi darslik, yangicha mazmun, yangicha usul va vositalar olib kelishi va yangi shaxsni–tadbirkor, axborot manbalarini chuqur biladigan, undan o‘ziga kerakli ma’lumotlarni tez topa oladigan, bu ma’lumotlar ichida o‘zi yashab turgan muayyan sharoit uchun eng qulay va serunumidan foydalana oladigan tezkor tadbirkor shaxsni yetishtirishni ta’minlashi mumkin. Shuning uchun yangi darsliklar mashqlar majmuasidan emas, balki topshiriqlar tizimidan iborat bo‘lmog‘i kerak. Lekin bunday darslik bilan ishlash ta’lim ishtirokchilari ona tilidan ta’lim jarayoniga zarur bo‘lgan axborot banklari bilan to‘la ta’minlangandagina mumkin.

Sovet davrida o‘zbek didaktikasining, xususan, ona tili ta’limining fojeasi xuddi mana shunda edi: maktablarimiz ona tili darslarida o‘quvchilar foydalanishi zarur bo‘lgan qo‘shimcha material – lug‘at, ma’lumotnoma, qomus, tavsiflash uchun qanday so‘z va iboralardan foydalanish zarurligi ko‘rsatilgan rasm-suratlar kabi ilg‘or davlatlarda va, hatto, rus maktab va sinflarida o‘tgan asrning 70-yillaridan beri keng qo‘llanilib kelinayotgan vositalar bilan mutlaqo ta’minlanmagan. Mana shuning uchun nafaqat o‘quvchilarimizda, balki o‘qituvchilarimizda ham (yana ham kengroq miqyosda umuman, ziyolilarimizda) lug‘atlardan foydalanish, axborot manbayiga doimiy, har qadamda murojaat madaniyati shakllanmagan–TABIAT darajasiga ko‘tarilmagan.

Bu holatdan qutilishning allaqachon vaqti yetgan.

Ta’lim maqsadi va mazmunining o‘zaro mutanosibligi ta’minlashda ta’lim vositalarining roli. Xalqimizda “Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘ladi”, degan hikmat bor. Agar ona tili mashg‘ulotlarida o‘qituvchi dars didaktik ta’minotining to‘laqonli bo‘lishini ta’minlay olmasa, darsda ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi. To‘g‘ri, DTSlari qabul qilinib, joriy etilgandan keyin bu yo‘nalishda ham ancha ishlar qilindi. Jumladan, Qarshi davlat universiteti va Qashqadaryo

viloyat xalq ta’limi boshqarmasi huzurida professor Baxtiyor Mengliyev boshchiligida jamoatchilik asosida ish olib borayotgan “O‘quv lug‘atchiligi markazi” tomonidan shu maqsadlarni ko‘zlab tuzilgan va ommalashtirilgan quyidagi ishlarni sanab o‘tish mumkin:

*Ona tili/ Qomus. Maktab o‘quvchilari uchun. –Tuzuvchilar: Mengliyev B., Xoliyorov O‘. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2009.– 274 b.

*Bobojonov S., Islomov I. O‘zbek tili so‘zlarining darajalanish o‘quv lig‘ati. Maktab o‘quvchilari uchun. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –70 b.

*Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlari o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –58 b.

*Suvonova X., Turdiyeva G. O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –54 b.

*To‘rayeva U., Shodmonova D. O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –56 b.

*Mengliyev B. va b. O‘zbek tilining so‘z yashalish o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2008.– 180 b.

*Mengliyev B. va b. O‘zbek tilining iboralari o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –72 b.

*Hamroyeva Y. O‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarning o‘quv lig‘ati.–Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –124 b.

*Mengliyev B. va b. O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –104 b.

* Mengliyev B. va b. O‘zbek tili qo‘shma so‘zlarning o‘quv ligati.– Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007.– 114 b.

*Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlari o‘quv izohli lug‘ati. Maktab o‘quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. –122 b.

Mazkur lug‘atlarning yaratilishi yaxshi. Lekin bu manbalar takomillashtirilishi, keng va eng muhimi ommaviy ravishda – har bir o‘quvchining qo‘lida bo‘lish darajasida – tarqatilishi lozim. Bugun “Olma pish, og‘zimga tush!”,

“Qachon bunday axborot manbalari maktablarda tarqaladi va biz foydalanamiz” deb turishning payti ham emas.

Bilamizki, ta’lim maqsadi ta’lim mazmunini, ta’lim mazmuni ta’lim usulini, ta’lim usuli ta’lim vositalarini, ta’lim vositalari esa ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi munosabatlarini talab etadi. Demak, ta’lim maqsadi va mazmunining o‘zaro mutanosibligi ta’minlash ta’lim usuli-yu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi munosabatlaridan tashqari ta’lim vositalariga ham uzviy bog‘liq.

Algoritmik darslik-dastur– mustaqil tafakkurni o‘stirish vositasi. Kognitiv ta’limda darsliklar faqat sistemaviy izchillikka ega topshiriqlar tizimidan iborat bo‘lib, o‘quvchini ana shu topshiriqlarni o‘qituvchi nazoratida bajaruvchi izlanuvchan va faol subyektga aylantiradi. O‘zida zarur bilimlar silsilasini jamlagan darsliklar reproduktiv ta’limning asosiy vositasi bo‘lib, unda o‘quvchining tegishli xulosa chiqarishiga, bir to‘xtamga kelishiga hojat bo‘lmaydi. Shuning uchun ham sobiq tuzum davrida amalda bo‘lgan ona tili darsliklarida, masalan, “Olmosh” mavzusi ostida berilgan “Ot, sifat, son o‘rnida qo‘llanuvchi so‘zlar olmosh deyiladi” degan ta’rif-qoida o‘quvchi uchun tayyor hukm bo‘lib, olmosh boshqa so‘z turkumlari o‘rnida ham qo‘llanishi mumkinligi haqidagi mustaqil chiqarilishi lozim bo‘lgan muqarrar xulosaning yuzaga kelmasligiga sabab bo‘lgan.

Kognitiv ta’limning asosiy vositasi algoritmik darslik-dasturlar bo‘lib, u faqat yo‘naltiruvchanlik, boshqarish vazifasini bajaradi va o‘quvchilarning tajribiy, amaliy bilim egallashlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Algoritmik darslikning mohiyati haqida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da algoritm so‘ziga berilgan izoh yordamida tasavvur hosil qilish mumkin: “***Algoritm***, algorifm (lot. Algoritmi – X asrda yashagan buyuk o‘zbek matematigi Al-Xorazmiyning nomidan olingan). Ma’lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur). Algoritm muayyan ketma-ket bajariladigan jarayonlar majmuasi bo‘lib, nazariy va amaliy masalalarni yechishda

ishlatiladi. (Gazetadan.)”[120] Ona tilining kognitiv ta’limi o‘z maqsadiga faqat ana shunday xarakterdagi algoritmik darslik-dasturlar asosidagina erisha oladi.

Masalan, 5-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Ona tili” algoritmik darsligida (deyarli biror mavzuga oid ta’rif yoki qoida berilmaydi). “Sinonimlar” (“Ma’nodosh so‘zlar”) mavzusi sarlavhada ifodalanadi va uning tarkibida quyidagi ko‘rinishda o‘quv topshiriqlari beriladi:

SINONIMLAR

(Ma’nodosh so‘zlar)

(Tarqatma material namunasi)

1-topshiriq. Berilgan parchadan shaklan har xil, biroq ma’nosi bir xil so‘zlarni toping va har bir so‘zning o‘ziga xosligi nimada ekanligini aytishga urining.

Qadim shahardagi eski ko‘chaning
ko‘hna hovlisida yashab o‘tdi u,
Davron majruh qilgan tilning yo‘liga
umridan poyandoz to‘shab o‘tdi u.
(Samandar Vohid)

2-topshiriq. Parchadagi so‘zlarning har birini shu so‘z ma’nosini beruvchi boshqa so‘zlar bilan almashtiring. She’riy parcha ifodalagan ma’noda farq bo‘ladimi?

3-topshiriq. Parchadagi *davron, majruh, til, poyandoz, ko‘hna* so‘zlarining sinonimlarini toping. Berilgan so‘zlarni va ularning sinonimlarini qo‘llab gaplar tuzing, ma’no nozikliklarini izohlang.

4-topshiriq. Sinonimlar (ma’nodosh so‘zlar) deganda nimani tushundingiz? Misollar ayting.

5-topshiriq. Quyidagi qatorlarni davom ettiring:

bosh (masala) – *asosiy, muhim, birinchi;*

bosh (farzand) – *to‘ng‘ich, katta, birinchi;*

bosh (g‘oya) – *markaziy, yetakchi, asosiy;*

bosh (bino) – ……

[120]Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли. 1-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2005.

bosh (shifokor) – …….…..

bosh (harf) –…….……..

bosh (sabab) –……

bosh (gap) –……

bosh (tomon) – ……..

(hikoyaning) *boshi* –……..

(tog‘ning) *boshi* –……...

(jon) *boshi* –……...

“Nega bosh so‘zi bilan bog‘liq qatorlarning barchasida bir xil sinonim so‘zlarni qo‘llab bo‘lmaydi?” va h.

O‘quvchi algoritmik darslikda berilgan izchil ketma-ketlikdagi topshiriqlarni turli o‘quv vositalaridan foydalangan holda bajarish bilan dasturda mo‘ljallangan xulosaga olib kelinadi. Bu esa o‘quvchining qo‘lida tegishli ma’lumotlarni bera oladigan o‘quv materiali – ta’lim vositalari (“Axborot banki”) bo‘lishini taqozo etadi. Ko‘rinadiki, ona tili ta’limining yangi maqsadi yangi tipdagi algoritmik darsliklar vositasidagina amalga oshirilishi mumkin. Bunday darslik yordamida tadbirkor, axborot manbayidan to‘g‘ri, oqilona, unumli, samarali va tez foydalana oladigan, o‘z sharoitida ularni ongli va maqsadli qo‘llay biladigan barkamol shaxs voyaga yetadi.

Ta’lim vositalari haqida gap borar ekan, zamonaviy ta’limni kompyutersiz tasavvur etish mumkin emas. To‘g‘ri, hali har bir dars-mashg‘ulotni kompyuter ishtirokida o‘tkazishimizga ancha vaqt bor, lekin yaqin yillarda kompyuter – bamisoli elektr chiroqlar-u, televizor-u, sovutgich-u gaz kabilar har bir xonadonda bo‘lgani kabi – o‘quvchilar qo‘lida serob bo‘ladi. Ta’lim vositalari taraqqiyoti mana shunga harab borishi kerak. Jumladan, yuqorida sanab o‘tilgan qomus va lug‘atlarning barchasining elektron variantlari har bir viloyatdagi pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarida, Respublika ta’lim markazida, uning viloyat bo‘linmalarida mavjud. Ijodkor-izlanuvchan o‘qituvchi ularni olish va dars jarayonida samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Ta’lim

vositalari sirasida kompyuter ishtiroki va kelajakda uning yetakchiligi ta’lim usuliga ham katta o‘zgartirishlar kiritishni talab etadi, albatta.

Ona tili o‘qituvchisining darsga tayyorlanishi, avvalo, uning yozgan dars mazmunnomasida, o‘quvchilarining uning darsiga oshiqishida, tafakkur doirasi keng, ijodkor shaxslarning yetishib chiqishida ko‘rinadi. Ona tili o‘qituvchisiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

–bolalarni seva olishi va ularga hurmat nazari bilan qarashi;

–o‘z sohasining ustasi va sohasidagi yangilanishlardan doimiy xabardor bo‘lishi;

–zamonaviy metodlarni muntazam o‘rganib, ulardan o‘z darslarida samara bera oladiganlarinigina saralab qo‘llash malakasiga ega bo‘lishi;

–innovatsion texnologiyalarni darsiga mos va o‘rinli qo‘llay olishi;

–nutqan barkamol, huquqiy savodxon, ijodiy, ijtimoiy faol, ma’nan-axloqan toza, til sezgirligi yuqori bo‘lishi muhim.

Ona tili o‘qituvchisi oddiygina dars mazmunnomasini yozishi uchun ham quyidgi ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart. Bular–

Ona tilidan dars turlari. Ona tili darslarining maqsadi va tuzilishidan kelib chiqib, uni ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) ta’limiy darslar; 2) nazorat darslari.

Bir guruh didakt-olimlar ona tilidan ta’limiy darslarni quyidagi guruhlarga ajratadilar:

1. Yangi bilim hosil qilish darslari.
2. Malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish darslari.
3. O‘rganilganlarni takrorlash darslari.
4. Xatolar ustida ishlash darslari.

Ona tilidan nazorat darslarini esa quyidagi guruhlarga ajratadilar:

1. Til hodisalarini o‘zlashtirganlik darajasi ustidan nazorat.
2. O‘quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat;
3. Nutqiy malakalarni egallaganlik darajasi ustidan nazorat.

O‘rta umumta’lim maktablarida, ma’lumki, darsga ajratilgan vaqt 45 daqiqani tashkil etadi. Ona tili darslari oldiga DTS talablari doirasida muayyan umumiy talablar qo‘yiladi. Bu talablar quyidagilar:

–o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish orqali ularning og‘zaki/yozma nutqlarini madaniy nutq darajasiga ko‘tarish;

–ta’lim tamoyillariga qat’iy amal qilish, dars metodlari, vositalari va usullarini to‘g‘ri belgilash;

–ta’lim, tarbiya va rivojlanishning uyg‘unligini ta’minlash.

–har bir o‘quv mashg‘uloti davomida ona tili ta’limi maqsadi~mazmuni~usuli~vositalari~o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlashga erishish; ona tili mashg‘ulotlari uchun zaruriy “Axborot banki”ni yaratishga hissa qo‘shish;

–ona tilidan o‘quvchilarda zaruriy bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilishda ularning yosh, o‘qish imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

Ona tili darslarining tarkibiy qismlari va ularga ajratiladigan vaqtning (taxminiy) taqsimoti quyidagicha:

I.Tashkiliy qism (salomlashish, davomatni surishtirish)–2-3 daqiqa;

II.Uy vazifasini tekshirish– 4-5 daqiqa;

III.O‘tilgan mavzuni xulosalash–2-3 daqiqa

IV.Yangi mavzu ustida ishlash–13-15 daqiqa;

V.Yangi mavzuni mustahkamlash–8-10 daqiqa;

VI. Darsni xulosalash–2-3 daqiqa;

VII.Uyga vazifa berish–3-4 daqiqa;

VIII.Baholash va baholarni izohlash–2 daqiqa.

Sinf o‘quvchilarining darsga tayyorlik darajasi, o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan materialning hajmi, murakkablik darajasi kabilarga qarab vaqt taqsimoti o‘zgarishi mumkin. Ba’zan omilkor o‘qituvchilar darsni o‘quvchilarga yangi mavzuga oid o‘quv topshiriqlarini bajartirishdan boshlaydi va uy vazifasini tekshirish, o‘tilgan mavzuni xulosalash ishlarini yangi mavzuni o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘lab yuboradi. Ba’zan baholash va baholarni izohlash ishlarini

ham dars tarkibiga singdiradi va tejalgan vaqtdan yangi mavzuni mustahkamlash yoki darsni xulosalash jarayonlarida unumli foydalanadi.

O‘rta umumta’lim maktablarida o‘qituvchining har bir soat darsga tayyorgarligini ko‘rsatuvchi hujjat uning dars mazmunnomasidir. Dars mazmunnomasida o‘qituvchi 45 daqiqalik darsni oldindan daqiqama-daqiqa, etapma-etap loyihalashtirib chiqadi.

Dars samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining unga qay darajada hozirlik ko‘rishiga bog‘liq. O‘qituvchi uchun darsga tayyorlanish eng mas’uliyatli va eng muhim vazifadir. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi – dars uchun belgilagan maqsadi, tanlagan metod va usullari, o‘quv topshiriqlari, ta’lim vositalari–darsda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan har qanday ilmiy, metodik, tarbiyaviy xato va kamchiliklarning oldini oladi.

O‘qituvchining darsga tayyorlanishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) rejalashtirilgan dars materiali va hajmini aniqlash;

2) rejalashtirilgan dars materiali manbalari–darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanishish;

3) o‘quvchilarga o‘zlashtirilishi murakkab o‘rinlarni soddalashtirish usullarini topish;

4) darsni o‘tkazish metod va usullarini tanlash;

5) darsning mazmun-mohiyatiga mos ko‘rgazma va tarqatma materiallar tayyorlash;

6) dars mavzusining oldingi dars mavzulari bilan bog‘liqlik jihatlarini aniqlash;

7) o‘quvchilar uchun amaliyotdan qoidaga keladigan o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish;

8) darslik bilan ishlashga vaqt ajratish;

9) uy vazifasini tez va samarali tekshirish metodlarini tanlash;

10) o‘quvchilarga beriladigan savol va topshiriqlarni javoblari bilan tayyorlab qo‘yish;

11) sinfdagi faol, o‘rtacha va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun alohida o‘quv topshiriqlari tayyorlash;

12) dars mazmunnomasini yozish.

Dars mazmunnomasiga quyiladigan talablar quyidagilar:

–muayyan dars mazmunnomasi rejalashtirilgan dars o‘tishidan kamida bir kun avval tayyorlanishi va fan bo‘yicha sho‘ba raisi (yoki muovini) yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosariga ko‘rsatilishi, tasdiqlatilishi;

–darsning rivojlantiruvchi, ilmiy, tarbiyaviy maqsadlari va vazifalari aniq belgilanishi;

–darsning metod va usullari belgilanishi;

–dars etaplarida o‘qituvchi va o‘quvchi bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, o‘quv topshiriqlari belgilab qo‘yilishi;

–baholash mezonlarida DTS talablariga rioya etilishi va b.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtiriladigan eng sara dars namunalari ilg‘or pedagoglar tajribasi asosida mustaqillik davri matbuotidan– “Til va adabiyot ta’limi” jurnali hamda “Ma’rifat” gazetasi sahifalaridan, ilmiy-metodik xarakterdagi ba’zi maqolalar to‘plamlaridan o‘rin olgan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Darslik nima? O‘qituvchi va ta’lim oluvchining undan doimiy foydalanishi zarurmi?
2. Darslik topshiriqlarining dars davomida ta’lim oluvchi bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimi (algoritmi)dan farqi nimada?
3. Ta’lim vositalari deganda darslikdan tashhari yana nimalar nazarda tutiladi?
4. Ta’lim maqsadi va mazmunining o‘zaro mutanosibligi ta’minlashda ta’lim vositalarining roli nimalardan iborat?
5. Ta’lim vositalarining ta’lim maqsadi bilan aloqadorligini isbotlang.
6. Hozirgi kunda boshqa o‘quv predmetlari qatorida ona tilidan darsliklarning, o‘quv topshiriqlarining muntazam yangilanishi boisi nimada?
7. Hozirgacha ona tili ta’limiga oid to‘plangan axborot banklari xususida nimalarni bilasiz?
8.Ona tili darslariga qo‘yiladigan talablar qaysi?
9.Ona tili o‘qituvchisi darsga tayyorlanishda qaysi talablarni inobatga olishi zarur?
10.Dars etaplari va vaqt taqsimoti haqida nimalarni ayta olasiz?

11. Ona tili darslarining didaktik ta’minoti deganda nimalar nazarda tutiladi?
12. Ona tili darslari uchun o‘qituvchining o‘zi dars mazmunnomasi yozgani ma’qulmi yoki internet tizimidagi tayyor shablonlardan foydalanish zarurmi?
13.Ta’lim jarayonida kalendar rejaning qanday zarurati bor?
14.Ona tili darsliklari algoritmini bir chorak soatlari doirasida tuzib ko‘ring.
15.Ona tili darslarining tarkibiy qismlari va ularga ajratiladigan vaqtning taxminiy taqsimotini yoddan yozib ko‘ring.
16.Ona tilidan dars turlari qanday guruhlanadi?
17. Darsning rivojlantiruvchi maqsadi deganda nima nazarda tutiladi? U ona tili ta’limining xususiy maqsadiga muvofiqmi?
18.Ta’lim maqsadi va mazmunining o‘zaro mutanosibligi ta’minlashda ta’lim vositalarining qanday roli bor?

Foydalanish uchun adabiyotlar:
[1;4;10;11;18;20;22;24;25;27;32;35;36]

ONA TILI TA’LIMI JARAYONIDA O‘QUVCHI VA O‘QITUVCHI FAOLIYATI

REJA:

1. Ta’limi jarayoni tizim sifatida.
2.Ona tili darslarida o‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylantirish omillari.
3.Ona tili darslarida o‘qituvchi~o‘quvchining pedagogik hamkorligi.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi munosabati, bilimdon ijrochi va mustaqil ijodiy tafakkur sohibi, DTS talablari

Ta’lim-tarbiyadan maqsad buyumlar tabiatini o‘rganish emas, balki kishining bilib olishi, axloqining kamol topishi bo‘lmog‘i lozim.
Suqrot

Ta’lim jarayoni – bu mohiyatan ta’lim jarayoni ishtirokchilari –ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba, shogird, izdosh, payrav; tarixan–murid) va ta’lim beruvchi (o‘qituvchi, muallim, murabbiy, ustoz: tarixan–pir, murshid) orasidagi ta’lim maqsadi asosidagi faol munosabatidir; ta’lim bilan aloqador barcha munosabatlar, uning barcha qirralari ta’lim ishtirokchilarida – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchida kesishadi. Shaxs barcha ijtimoiy munosabatlarning markazi, kesishish nuqtasi bo‘lganidek, ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi ham barcha turdagi didaktik munosabatlarning kesishish nuqtasidir. Shuning uchun ta’lim maqsadi, uning

mazmuni, usuli, vositalari, ularning o‘zaro aloqadorligi masalalarini tahlil etayotganda har doim ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabati masalalarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Chunonchi, ta’lim maqsadining o‘zi, eng avvalo, jamiyatga kimni, qanday shaxsni tayyorlab berish masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Bu shaxs kim? U, albatta, ta’lim oluvchi, ya’ni *o‘quvchi*dir! Kim uni yetishtiradi, tarbiyalaydi? U esa *ustoz*dir! Ular o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishi kerak? Bu borada ikki xil yondashish mavjud bo‘lib, bu yondashishlarning har biri o‘ziga xos shaxsni –

biri bilimdon, ijrochi, lekin mute, mo‘min-qobil, passiv ijrochini,

ikkinchisi esa faol, bunyodkor, mustaqil ijodiy tafakkur sohibi bo‘lgan tadbirkorni

tayyorlashga qaratilgan. Haqiqatan ham, o‘quvchi~ustoz munosabati ta’lim jarayonining m a r k a z i y muammosi – ham ibtidosi, ham intihosi. Ta’lim maqsadi, ya’ni jamiyatning tarbiya-ta’lim natijasiga qo‘ygan ijtimoiy talabi, birinchi navbatda o‘quvchiga qanday yondashish va ustoz qanday bo‘lishi kerakligini, kimni yetishtirishni belgilaydi. Undan keyingina o‘quvchiga nimani singdirish (ta’lim mazmuni), qanday singdirish (ta’lim usuli), bu faoliyatni nimalar orqali amalga oshirish (ta’lim vositalari) masalalari turadi. Zero, Konfutsiy ta’kidlaganidek: “O‘zini kamol toptira olmagan inson o‘zgalar kamolotini ta’minlay olmaydi.” Davrimiz o‘qituvchi zimmasiga har qachongidan ko‘ra ko‘proq mas’uliyat yuklamoqda. Biz: “O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim berishini talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak.”

Bugun farzandlarimizni o‘qitayotgan o‘qituvchidan quyidagi jihatlarni kutamiz:

**madaniyati yuqori darajada, bilimdonlik va aql-zakovat darajasi yuksak bo‘lishi;*

** o‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibiga aylanishi;*

**kasbiga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi;*

**pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallagan holda ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;*

** o‘quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi;*

** pedagogik qobiliyatga ega bo‘lishi;*

** pedagogik texnika sirlarini puxta egallagan bo‘lishi;*

**har bir harakati pedagogik insonparvarlik talablariga mos kelishi;*

** ta’lim-tarbiya jarayonida o‘ziga xos muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyatiga ega bo‘lishi, tafakkur dunyosi o‘quvchi qalbini yorita olishi;*

**noqulay vaziyatlarda ham o‘z xulq-atvori va hissiyotni jilovlay olishi;*

**ta’lim jarayonini boshqarish mahoratiga ega bo‘lishi;*

**o‘quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etishni bilishi;*

**yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tizimidan erkin foydalanish asosida o‘z kasbiy mahoratini oshirib borishi;*

** o‘quvchilarni o`qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topish uchun muntazam amaliy faoliyat olib borishi.*

Xullas, pedagogik jarayonning mohiyatini to‘g‘ri anglashi; bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmog‘i; ta’lim-tarbiya samaradorligi kelgusida insoniyat kamolotini ta’minlovchi omil ekanligini butun vujudida his etib turmog‘i zarur.

Ha, o‘qituvchi bo‘laman degan kishining shaxsiy fazilatlari bo‘yicha; ruhiy-psixologik holati; ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-nazariy, maxsus va ixtisoslikka oid bilimlar bo‘yicha alohida tayyorgarligi bo‘lishi shart. Shuningdek, o‘quvchi-ustoz munosabatlariga majburiy itoatkorlik yoki loqaydlik holati emas, joshqin faoliyatda ongli intizom bo‘lishi lozim. Vaholanki, zamonaviy ta’limda o‘quvchi o‘rganishga intiluvchan, bilimga tashna, o‘rganishga ehtiyojmand, ustoz esa uni bu qiziqish va izlanishlari sari san’atkorona olg‘a yo‘llovchi, o‘quvchining izlab topish baxtidan quvonishi va g‘ururi uchun ilhombaxsh tashabbuskor, homiy va yetakchi bo‘lmog‘i lozim. Shundagina zamonaviy ta’lim o‘z oldiga qo‘ygan bosh maqsadini uddalashi mumkin. Bunday o‘qituvchi va o‘quvchini faylasuf shoir

G‘afur G‘ulom mashhur “Yasha, deyman, o‘g‘lim!” she’rida ota va o‘qil timsolida shunday tasvirlagan edi:

−Dada, men osmonga uchar bo‘lsam,
Cheki yo‘q ko‘kni quchar bo‘lsam,
Yulduzdan yulduzga ko‘char bo‘lsam,
Sen tubanda qolib ne deysan?
− Yasha, deyman, o‘g‘lim!

−Dada, men tankka otlansam-da,
Istagan o‘lkaga yetsam damda,
Esizki hozircha yoshim kam-da,
Ko‘zing yo‘lda tolib ne deysan?
− Yasha, deyman, o‘g‘lim!

−Dada, men jo‘nadim Arktikaga,
Bitta ortiqcha putyovka sanga,
E’tibor bermay sovuq osmonga,
Sen tumanda qolib ne deysan?
− Yasha, deyman, o‘g‘lim!

−Dada, men so‘rasam qalamingni,
To‘ldirsam she’rda ko‘p-kamingni,
Yuvolsam xijolat-u g‘amingni,
Yozganimni o‘qib ne deysan?
− Yasha, deyman, o‘g‘lim![122]

Mazkur she’rda ulug‘langan o‘quvchining intiluvchanlik, bunyodkorlik, faollik pafosiga So‘fi Olloyor tomonidan “ulug‘langan” mo‘min-qobillik, bo‘ysinuvchanlik, tobelik tushunchalari qarama-qarshi turadi. Bu ruhiyatni muallif “Sabotul ojizin” didaktik asarida quyidagicha aks ettiradi:

G‘ulome oldi Abdullohi Ansor,
Dedi: –Ey qul, otingni ayla izhor.
Dedi: –Ey xoja, sen qo‘ysang qayu ot,

[122]http://www.she’rlar.uz. G‘afur G‘ulom. ”Yasha, deyman, o‘g‘lim!” she’ri.

Mening otim o‘shaldur, ey neku zot.

Dedi: –Ey qul, sevarsan qaysi xo‘rok?

Dedi: –Sendin na teksa, behdur, ey pok.

Dedi: –Qaysi kiyim ko‘nglingda marg‘ub?

Dedi: –San qaysini bersang o‘shal xo‘b…[123]

Bu ikki badiiy asarda tasvirlangan ikki turli shaxs ham ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabati mahsulidir. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi: O‘quvchidan qanday shaxs yetishib chiqishi faqat ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabatiga bog‘liqmi? Bu savolga “Ha” deb javob berib bo‘lmaydi. Ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabatlari mohiyatan o‘ta murakkab jarayon, mexanizm bo‘lgan ta’lim tizimining–davr didaktikasining bir murvati, bir bo‘lagi, xolos.

Ta’lim jarayoni o‘ziga xos tizim bo‘lib, uning tarkibiy qismlari sifatida ta’lim maqsadi (o‘quv predmeti maqsadi), ta’lim mazmuni (o‘quv materiali), ta’lim usuli, ta’lim vositalari, shuningdek, ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabatilarini o‘z ichiga oladi, didaktik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Didaktik qonuniyatlar esa, o‘z navbatida, ijtimoiy qonunlarning bir ko‘rinishi. “Ijtimoiy qonunlar tabiat qonunlari kabi haqqoniy va mutlaqdir. Ular inson ixtiyori va irodasiga bo‘ysunmaydi, lekin ularni uqish, taraqqiyot yo‘nalishida borib, ulardan amaliy foydalanish, ya’ni qonuniyatlarga bo‘ysunish orqaligina ularni inson manfaatlariga bo‘ysundirish, boshqarish insoniyatga ulkan imkoniyatlar bersa, zid harakat, qarshi borish, odatda, katta zararlar, inkor etish esa, tasavvur qilib bo‘lmas fojialar keltiradi. Ijtimoiy qonunlarning ham, tabiat qonunlarining ham pirovard natijasi ma’lum turdagi samaradorlikdir. Chunonchi, ma’lum bir turdagi hosil olish uchun saralangan urug‘ tanlab, ishlov berilgach, yerga qadalsa, rivojlanish qonuniyatlariga uyg‘un ravishda o‘z vaqtida parvarish qilinsa, albatta, ko‘p hosil–samara olinadi. Lekin bu jarayonning biror bosqichida tabiiy qonuniyatlardan atigi biri buzilsa, unga rioya qilinmasa, barcha mehnat barbod bo‘ladi. Tabiat qonunlariga bo‘ysunish hamma uchun tushunarli; lekin ijtimoiy qonunlarga bo‘ysunish yoki bo‘ysunmaslik

[123]Сўфи Оллоёр. Саботул-ожизин. (Нашрга тайёрловчилар: Ҳожи Пўлатқори Муҳаммад Аливаб.)− Т.: Меҳнат. − 1991.− 81-b.

oqibatlarini ko‘rish ancha murakkab, buning uchun juda ko‘p hollarda uzoq yillar kerak…”[124] Haqqoniy va mutlaq tabiatli didaktik qonunlarga ko‘ra, davr talablari (ijtimoiy talablar va ijtimoiy taraqqiyotning mutlaq qonunlari bilan uyg‘un bo‘lgan) ta’lim maqsadi bilan ta’lim mazmuni, usuli hamda vositalari uyg‘un bo‘lgan taqdirdagina ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabatilari unga uyg‘un bo‘la oladi va tizim tugallikka ega bo‘ladi, o‘z maqsadiga erishishi mumkin. Aks holda, chunonchi, o‘simlikni yetishtirish davrida istagan bir bo‘g‘inda uzilish butun mehnatni zoye ketkizganidek, ta’lim mazmuni, usuli yoki vositalarida, ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabatlarida ta’lim maqsadiga nomuvofiqlik butun didaktik jarayonni barbod qilishi muqarrar. Shuning uchun maqsad mustaqil fikrlovchi ijodiy tafakkur sohibini tayyorlash bo‘lgach, ta’lim mazmuni (o‘quv materiali, o‘zlashtirilishi zarur sanalgan bilimlar tizimi) pragmatik ahamiyatli, tatbiqiy, o‘quvchi kundalik faoliyatida amalda qo‘llay oladigan, ta’lim usuli o‘quvchini fikrlash, izlash va topishga undaydigan, ta’lim vositalari darslik bilan cheklanib qolmay, o‘quvchini axborot manbalari bilan ishlashga undaydigan, ustoz esa o‘quvchining o‘ta murakkab kuzatish, izlanish, topish, fikrlash va qo‘llash jarayonini mohirona boshqara oladigan bo‘lmog‘i shart – didaktik tizimning barcha bo‘g‘inlari bir-biriga muvofiq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldirib borishni taqozo etadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu juda murakkab va ancha vaqt-u mehnatni talab qilidigan jarayon. Xususan,

maqsad~mazmun~usul~vosita~ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabatlari

tizimining 4- va 5-bo‘g‘inlari – bu birinchi navbatda ko‘p ming kishilik o‘qituvchilar jamoasining ko‘nikmalarini, ish usullarini tubdan yangilash bilan uzviy bog‘liqdir.

Bizga ma’lumki, ta’lim maqsadi bilimdon, barkamol shaxsni yetishtirishni nazarda tutsa, bunda retroskopik usullar, deduktiv ta’lim yetakchilik qilishi shubhasizdir, chunki ta’lim maqsadi shuni taqozo qiladi. Ta’lim ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxsni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa,

[124]Неъматов Ҳ., Ширинова Н. Пурсамар қонун// газ. Бухоронома.–2010 йил, 20 октябрь. 81-сон.

unda bunday maqsadni amalga oshirish uchun muammoli va tadqiqotchilik usullari, induktiv ta’lim yetakchilik qilishi lozim. Ta’lim usuli bilim, shu asosdagi ko‘nikma, malakani o‘quvchida qanday usul bilan hosil qilish o‘qituvchi-o‘quvchining o‘zaro subyekt-subyekt munosabatga kirishishini taqozo qiladi. Shuningdek, ta’lim vositasi hisoblangan o‘quv darsligi ham shunga mos bo‘lmog‘i zarur, chunki bu ta’lim maqsadi va mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta’minlashda asosiy o‘rinlardan birida turadi.

Xalqimizda “Chaynab bergan osh bo‘lmas” yoki “Tayyor berganning qadri bo‘lmas” kabi hikmatlar bor. O‘zbek pedagogikasi, didaktikasi va psixologiyasida bixeoviristik nazariyaga asoslangan hamda XIX asr oxiri XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy talablarga javob beradigan retroskopik-retseptiv usulda bilimdon ijrochini yetishtirishga qaratilgan ta’lim tizimi o‘z vazifasini o‘tab bo‘lganligini, yangi davr – tugal bozor iqtisodi davri tamoman boshqa shaxsga – mustaqil ijodiy tafakkurga qodir tadbirkor shaxsga muhtoj ekanligi masalasi muhokamasi qariyb yigirma yil oldin kun tartibiga qo‘yganligini hisobga olsak, endi farzandlarimizga mavzularni “tayyor osh” sifatida berishimiz ona tili ta’limi maqsadi va mazmuni orasidagi mutanosiblikning ta’minlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ona tili darslarida o‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylantirish uchun mazkur o‘quv predmeti mazmunini loyihalashishi, birinchi navbatda, ta’limning umumiy maqsadi keyin esa o‘quv predmeti maqsadlariga asoslanishi lozim. O‘quv predmeti mazmunini loyihalash uchun ta’limning bosh maqsadi va o‘quv jarayonining xususiy maqsadlarini aniq bilish talab etiladi. Aks holda ta’lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi muvozanat yo‘qoladi. Ta’lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta’minlash uchun muayyan didaktik qonuniyatlar, jumladan, o‘quvchi shaxsini uzluksiz rivojlantirish, uni qo‘llab quvvatlash tamoyillariga amal qilish talab etiladi. Bunda, ayniqsa, o‘quvchini har tomonlama qo‘llab quvvatlashga erishish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta’minlashda quyidagilarni e’tiborga olish lozim:

1. Bola hayoti davomida foydalanishga zarurat sezadigan, ya’ni amaliy ahamiyatli didaktik ishlanmalarni ta’lim maqsadiga mos tarzda tanlash. Ona tili darslari bu borada juda katta imkoniyatlarga ega. Maktab o‘qituvchilarning tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ona tili darslarining mustaqil uy topshiriqlari sifatida –

kasb-kor – duradgorlik, oshpazlik, naqqoshlik, o‘ymakorlik, tandakorlik, patdo‘zlik, zardo‘zlik, kashtachilik kabi;

o‘rin-joy –uy, chayla, kapa, kulba, koshona, saroy, muzey, maktab kabi;

qarindosh-urug‘ – 1) *tug‘ilib o‘sgan oilasida*: ota, ona, opa, singil, bobo, buvi; 2) *ota tomondan*: bobo, buvi, amaki, amma, amakivachcha, ammavachcha; 3) *ona tomondan*: bobo, buvi, tog‘a, xola, tog‘avachcha, xolavachcha; 4) *turmush qurish natijasidagi qarindosh-urug‘lar*: qaynota, qaynona, qaynaka, qaynopa, qaynuka, qaynsingil, qaynjiyan, qayniamaki, qayniamma, qaynitog‘a, qaynixola kabi va boshqalar bilan bog‘liq so‘zlar;

ish qurollari 1) dalada ishlatiladigan ish qurollar; 2) muayyan o‘rinni tozalashda ishlatiladigan ish qurollar; 3) oshxonada ishlatiladigan ish qurollar yoki 1) dehdon ishlatadigan ish qurollar; chorvador ishlatadigan ish qurollar; bog‘bon ishlatadigan ish qurollar; mashinasoz ishlatadigan ish qurollar va h.);

amaliyotlar (bayram, tushlik, dars, raqs va h.);

mahsulotlar 1) O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan avtomobillar; 2) yurtimizda tayyorlanadigan shirinliklar; 3) respublikamizda nashr etiladigan davriy matbuot nashrlari; 4) paxtadan tayyorlanadigan mahsulotlar va h.;

shaxs tavsifi (o‘qituvchi, o‘quvchi, shifokor, oshpaz, konchi va h.) bilan bog‘liq ravishda berilgan topshiriqlar natijasida o‘quvchilarda shu kasb-korga qiziqish, mehr qo‘yish, uni o‘rganish va o‘zini hayotga shu kasb-hunar orqali tayyorlash singari amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan natijani qo‘lga kiritish mumkin.

2. Ta’lim mazmuni asosida tanlangan aniq o‘quv modellarini belgilab berish. Shu maqsadda darslik zaruriy o‘quv materialini to‘liq bermasligi, balki undan faqat namunalar berib, uni to‘ldirishni, kengaytirishni o‘quvchining mustaqil izlanish faoliyatiga qoldirishi muhimdir. Ona tili imkoniyatlarini o‘zida

mujassamlashtirgan hamda o‘quvchilar ona tili darslarida amaliy foydalanishlari uchun zarur axborot banklari – turli maqsadlarni ko‘zlab tuzilgan lug‘atlar, ma’lumotnoma-qomus –ularning elektron variantlari, kompyuter dasturlari yo‘qligi aniqlandi hamda shunday xazinani yaratish ishlariga kirishildi. Chunki bunday vositalarsiz ongli(kognitiv)-induktiv-pragmatik ta’lim usuli ko‘zlagan samarasini bera olmaydi. Bu ta’lim usulining bosh omili – o‘quvchining darslikda berilgan o‘quv materiali bilan mutlaqo chegaralanmasligi, darslik topshiriqlari asosida axborot bankidan material topib uning ustida mustaqil izlanishidir. Shuning uchun bu usulda yozilgan maktab darsliklari odatda hajman k i ch i k bo‘ladi; ular o‘quv materialini to‘liq bermaydi, uni topish, uning ustida ishlash mas’uliyatini o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘ziga yuklaydi.

Ta’lim faqatgina ijtimoiy tajribani yosh avlodga yetkazish vazifasini emas, balki jadallashtiruvchilik, ogohlantiruvchilik vazifasini ham bajarishi kerak. Bu o‘rinda pedagogik hamkorlikning ahamiyati beqiyosdir. O‘z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi pedagogik hamkorlikning asosini tashkil qiladi. Pedagogik hamkorlikning uyg‘unlashtiruvchilik vazifasi subyekt-subyekt munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ona tili ta’limi jarayonida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun o‘quvchilarda ongli faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. Pedagogik hamkorlikni amalga oshirish jarayoni nafaqat o‘quvchida, balki o‘qituvchida ham yangiliklarni qabul qilishga moyillikning ortishi, axborotlardan faol, maqsadga yo‘naltirilgan holda foydalanish imkonini rivojlantiradi; ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini o‘zining ichki quvvatlari va mayllarini faollashtirishga ko‘maklashadi, ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Darvoqe, faylasuf R.Emerson to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “***Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri – o‘quvchiga hurmatda***.”

Shuningdek, o‘qituvchi go‘yo bir bog‘bon bo‘lsa, o‘quvchilarning har biri har xil gullardir. Har bir gul alohida parvarish talab qilganidek, har bir o‘quvchi ham o‘ziga alohida e’tibor talab qiladi. Lekin bir o‘quvchini e’tibordan chetda

qoldirdingmi, bas, u parvarishsiz qolgan gulga o‘xshab qoladi, yo so‘lib qoladi, yo o‘zi xohlagan tomonga o‘sib, go‘zallik taratmaydi.

Pedagogik hamkorlikka asoslangan ona tili ta’limi natijasi, tabiiyki, tezlikda ochiq-oydin namoyon bo‘ladigan jarayon emas. Bunday ta’lim jarayoni o‘quvchining shaxsiy, yashirin rivojlanish tizimiga ta’sir ko‘rsatadigan pedagogik hodisa hisoblanadi. Pedagogik hamkorlikdagi ta’lim voqelikni ochish usuli, kelajak sari borish yo‘lini izlash imkoniyatidir.

Xullas, ta’lim maqsadi aniq belgilanib olingandan keyin ta’lim mazmuning, usul-u vositalarini ularga muvofiqlashtirish, o‘quvchilarning ham, o‘qituvchilarning ham ta’limga tamoman yangicha munosabatda bo‘lishlarini shakllantirish, ya’ni o‘quvchiga ta’lim jarayonining subyekti sifatida qarash, umuman, talim jarayoniga tizim sifatida yondashish ona tili ta’limining doimiy dolzarb masalasi bo‘lib qolaveradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Bilimdon, ijrochi, lekin mute, mo‘min-qobil, passiv ijrochini tayyorlash qanday ta’lim metodini talab qiladi?
2. *Ta’limi jarayoni tizim sifatida* deganda nima nazarda tutiladi?
3. Ona tili darslarida o‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylantirishning qanday omillari mavjud?
4. Ona tili darslarida o‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylantirish omillari kimlarga bog‘liq?
5. G‘afur G‘ulom “Yasha, deyman, o‘g‘lim!” she’ri orqali nima demoqchi?
6. So‘fi Olloyor tomonidan ta’limning qaysi usuli maqtalgan va nima uchun?
7. *Ta’lim maqsadi~ta’lim mazmuni~ta’lim usuli~ta’lim vositasi~ta’lim beruvchi~ta’lim oluvchi munosabatlari* tizimini sharhlang.
8. “Chaynab bergan osh bo‘lmas” yoki “Tayyor berganning qadri bo‘lmas” kabi hikmatlarning ta’lim tizimiga nima daxli bor?
9. “Bola hayoti davomida foydalanishga zarurat sezadigan, ya’ni amaliy ahamiyatli didaktik ishlanmalarni ta’lim maqsadiga mos tarzda tanlash” deganda nima nazarda tutilyapti?
10. O‘quvchiga ta’lim jarayonining subyekti sifatida qarash deganda nimani angladingiz?
11. Quyidagi fikr mazmunini o‘z so‘zingiz bilan izohlab bering: *Kuchli va ayovsiz raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy taffakkur sohibi bo‘lgan, har qanday qiyin vaziyatdan o‘z aql-idroki bilan omon chiqa oladigan mustaqil*

fikrli, shu bilan birga, shuurida milliy ruhi mustahkam shaxsni tarbiyalashni talab qiladi.

12. I.Y.Lerner nega "*Tafakkur bilmlarni o‘zlashtirish bilan rivojlanadimi?*" degan savolga "*Yo‘q*" deb javob qaytargan?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [3;6;7;14;18;22;23;27;30;33;34]

O‘ZBEK (ONA) TILI O‘QITISHNING UMUMDIDAKTIK TAMOYILLARI

REJA:

1. Ona tili o‘qtish tamoyillari haqida.
2. Ona tili o‘qitishda ta’lim, tarbiya va rivojlanish uyg‘unligi tamoyili.
3. Ona tili o‘qitishda ilmiylik va tushunarlilik tamoyili.
4. Ona tili o‘qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili.
5. Ona tili o‘qitishda nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi tamoyili.
6. Ona tili o‘qitishda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili.
7. Ona tili o‘qitishda ko‘rsatmalilik tamoyili.
8. Ona tili o‘qitishda bolalarning yosh hamda o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Tamoyil,ilmiylik va tushunarlilik, tizimlilik va izchillik, nazariya va amaliyot, onglilik, faollik va mustaqillik, ko‘rsatmalilik, bolalarning yosh hamda o‘quv imkoniyatlari

Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo‘ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo‘lda mahkam tutmog‘ing lozim.

A.Barbyus

O‘zbek tilining izohli lug‘ati[125]da tamoyil so‘ziga shunday izoh beriladi: "*Tamoyil – arabcha so‘z; biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy yo‘nalish*" demakdir. Ilmiy adabiyotlarda tamoyil so‘zi prinsip so‘zi bilan ma’nodosh sifatida qo‘llaniladi. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida: "*Prinsip– latincha so‘z bo‘lib, asl ma’nosiga ko‘ra boshlang‘ich, negiz*"ma’nolarini beradi. "*Biror nazariya, ta’limot, fan, dunyoqarash, siyosiy tashkilot va h.k.larning asosiy qoidalari… hisoblanadi*" deyiladi.

[125] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Учинчи жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2007.–655-b.

“Didaktika” kitobi[126]da: *“Ta’lim prinsiplari o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar, ta’limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi... Ta’limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar, qoidalar ta’lim prinsiplari deb aytiladi*”, degan fikrlarni o‘qiymiz. Aslida, ta’lim prinsiplari, masalan, o‘rta umumta’limda ona tili ta’limi prinsiplari deganda ona tili o‘qitishning ijtimoiy buyurtma sifatidagi umumiy va xususiy maqsadidan tortib uning mazmuni, usuli, vositalari (dastur-u darsliklari, “Axborot banki”, didaktik ta’minoti, texnik ta’minoti va h.), dars jarayoni, dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi munosabatlari, ona tili ta’limiga daxldor huquqiy hujjatlar (masalan, DTS)gacha daxldor bo‘lgan umumiy ijtimoiy talablar majmuyini tushunishimiz zarur.

Ta’lim prinsiplari umumdidaktik kategoriya bo‘lib, u o‘rta umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari uchun teng barobar daxldor. Jumladan, ona tili ta’limiga ham. O‘rta umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari uchun teng daxldor bo‘lgan umumdidaktik tamoyillar quyidagilar:

– ta’lim, tarbiya va rivojlanish uyg‘unligi tamoyili;
– ilmiylik va tushunarlilik tamoyili;
– tizimlilik va izchillik tamoyili;
- nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi tamoyili;
– onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili;
– ko‘rsatmalilik tamoyili;
– bolalarning yosh hamda o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili.

Xuddi shuningdek, o‘rta umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir o‘quv predmeti ta’limining o‘ziga xos tamoyillari ham mavjud. (Ona tili ta’limining o‘ziga xos tamoyillari xususida keyingi mavzuda batafsil to‘xtalamiz.)

[126]Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. –147-б.

Umumdidaktik prinsiplar garchand maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo‘lsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiatidan, o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va o‘ziga xos mazmun kasb etadi. Quyida shular xususida to‘xtalamiz.

Ona tili o‘qitishda ta’lim, tarbiya va rivojlanish uyg‘unligi tamoyili. Ta’lim – tarbiyaning muhim omili. Yana ham aniqroq aytsak, ta’lim va tarbiya bir butunlik, bir-biridan ajralmasdir. “Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.[127]

Ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas ekan, ta’lim maqsadi va tarbiya maqsadi mohiyatan bir bo‘lishi, jamiyatniing bugungi taraqqiyoti ehtiyojmand shaxsni yetishtirishga xizmat qilmog‘i shart. Bunda, albatta, o‘qituvchi-murabbiy faoliyati ulkan ahamiyatga ega. Ustoz-murabbiy faoliyati tufayli ta’lim jamiyat tomonidan puxta o‘ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, jamiyat kutgan natijalarni beradi. Inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lgan ta’lim, bilimlarni o‘zlashtirish natijasida tafakkur rivojlanishini tezlashtiradi, tarbiya jarayoniga onglilik, uqilganlik, istiqboliy rivojlanuvchanlik bag‘ishlaydi.

Ta’limning maqsadi o‘qitishning ma’lum maqsadga qaratilganligini va shu maqsadga muvofiqligini o‘zida aks ettirgan, ta’limning ijtimoiy tabiatini, uning jamiyatdagi mohiyatini ochib beradigan, uning yo‘nalishini, mazmunini, shakl va usullarini belgilab beradigan boshlanmadir. Ta’lim maqsadida tarbiyaning maqsadi, ya’ni insonga nisbatan u qanday bo‘lishi kerak, unga qanday ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta’lim berish kerak, degan talablar ifodalangan bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ta’lim va tarbiya maqsadlarini belgilovchi jamiyat talablari to‘la holda

[127] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.–61-62-б.

aks etsagina, bola shaxsi har tomonlama kamol topadi. Ta’lim va tarbiyaning mushtarak maqsadi ta’lim jarayonini, ta’lim mohiyatini, uning mazmuni, vositalari, usuli, o‘qituvchi~o‘quvchi munosabatlari va, nihoyat, uning samarasi – qanday shaxs(mutaxassis)ni yetishtirishni belgilab beradi.

Ta’lim va tarbiyaning mushtarak maqsadi talablariga javob beradigan shaxs, o‘z navbatida, ta’lim maqsadini oldingi bosqichdan yana ham yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarishni talab qiladi va mana shu holatdagina jamiyat va shaxs taraqqiyoti uzluksiz ilgarilab, yuksalib boradi – maqsadni voqelantirish qanday shaxsni yetishtirishni, jamiyatning umumiy tarbiyalanganlik darajasi esa bo‘lg‘usi taraqqiyot yo‘nalishini belgilaydi. Demak, ta’lim va tarbiyaning mushtarak maqsadi jamiyatdan oziqlanadi va ayni zamonda jamiyat kelajagini belgilaydi. Butun ta’lim jarayoni–ta’lim materialidan boshlab, ta’lim natijasi (samarasi)gacha – shu maqsadi bilan belgilanadi. Ta’lim va tarbiyaning mushtarak maqsadi oldida turgan bosh masala: jamiyatga bugun va kelajakda jamiyat ravnaqi hamda istiqboli uchun qanday shaxs (mutaxassis) tayyorlash kerak, jamiyat qanday shaxsni talab qiladi – ta’lim jarayoni shunday shaxsni yetishtirib berishi zarur. Mana shuning uchun o‘qitishning eng muhim bo‘g‘inlarida ta’lim va tarbiyaning mushtarak maqsadi davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan va jamiyat uchun umumiy va qat’iy qonun tusini oladi.

Demak, ta’lim, tarbiya va rivojlanish–bir butun jarayon. Ularni bir-biridan ajralgan holda alohida-alohida yoki darsning muayyan bir bosqichida birin-ketinlik bilan amalga oshirib bo‘lmaydi. O‘quvchilar ona tili darslarida har bir mashg‘ulot jarayonida bajaradigan ishlar:

Kuzatish-darslikdagi o‘quv topshirig‘iga yondosh, ammo aynan bo‘lmagan topshiriq asosida til hodisalarini kuzata olish;

Izlanish-o‘ylash, xotirada tiklash, so‘rash, lug‘at qomus, ma’lumot manbalaridan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyita olish;

Alohidaliklarni sharhlash-berilgan va o‘zi davom ettirgan siradagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;

Qiyoslash- siradagi hodisalarni o‘zaro qiyoslay olish;

Umumiylikni aniqlash–siradagi hodisalarning o‘xshash, umumiy tomonlarini aniqlay olish;

Farqlarni topish–siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlay olish;

Tasnif etish- siradagi hodisalarni o‘xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajrata olish;

Hukm chiqarish–hodisalar sirasi haqida umumlashma (hukm, xulosa, qoida) chaqara olish;

Alohidaliklarni aniqlash–o‘rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma’nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari, zidlari va h.) bilan munosabatlarini (yaqinlik, o‘xshashlik va farqlarini) aniqlay olish;

Qo‘llash–hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og‘zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuza olish –

ularda xayol, diqqat xotira, tafakkur kabi shaxsiy psixik jihatlarni rivojlantirish, qiyinchiliklarni yengish, mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa ayni vaqtda o‘quvchi shaxsini rivojlantiradi.

Ona tili darslarida ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning qo‘yilishi ta’lim, tarbiya va rivojlanishning uyg‘unligi tamoyilining talabi asosidadir.

Ona tili o‘qitishda ilmiylik va tushunarlilik tamoyili. Ta’limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli bo‘lish tamoyili o‘zaro bog‘langan, bir-birini taqozo etuvchi didaktik kategoriyalar hisoblanadi. O‘qitishning ilmiylik tamoyili ta’lim mazmunida belgilangan o‘quv materialini soha yutuqlari asosida bayon qilishni taqozo etsa, ta’limning bolalar uchun tushunarlilik tamoyili o‘quv materiallarini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilish imkoniyatlariga, shuningdek, yashash sharoiti va ularning saviyasiga moslab bayon qilishni talab etadi. Ta’lim jarayoni mantig‘i bu tamoyillarga o‘zaro aloqadorlikda qarashni talab etadiki, bunga ko‘ra ona tilidan har bir sinfda o‘rganiladigan o‘quv materiali hajm hamda mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Ta’limning barcha tur va bosqichlari, jumladan, o‘rta umumta’lim maktablarida ona tili o‘quv predmeti o‘zbek tilshunosligi qo‘lga kiritgan so‘nggi yutuqlarga tayanadi. Ona tili o‘qitishda ilmiylik tamoyili o‘quvchilarda fan(o‘zbek tilshunosligi)da qat’iy hal etilgan, ilmiy asoslangan bilimlar asosida malaka va ko‘nikmalar hosil etishni talab etadi. Ammo maktab o‘quvchisiga fan yutuqlarini asl holatidagi ilmiylik darajasida berib bo‘lmaydi. Masalan, *O‘zbek tilidagi gaplarning aksariyati [WP_m] minimal qolipi va uning kengayishi asosida hosil bo‘ladi* jumlasini bola “hazm qilolmaydi”. Shu bois mazkur jumla maktab darsliklariga *Gapning markazi kesimdir. Kesim boshqa gap bo‘laklari bilan kengaya oladi* shaklida berilgan.

(Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bolaga o‘zbek tilshunosligi qo‘lga kiritgan yutuqlar asosidagi barcha bilimlarni berishning aslo hojati yo‘q.)

Xo‘sh, o‘rta umumta’lim maktablarida ona tili o‘quv predmeti ta’limi jarayonida o‘quvchiga qancha va qanday ilmiy ma’lumotlarni berish zarur? To‘g‘ri, o‘rta umumta’lim maktablarida ona tili o‘quv predmeti ta’limi jarayonida o‘quvchiga berilishi zarur bo‘lgan bilimlar va uning miqdori ona tili ta’limi mazmunida belgilab qo‘yilgan. Ammo o‘qituvchi ta’lim mazmunida belgilanganlarni o‘quvchiga ona tili ta’limining bosh maqsadi nuqtayi nazaridan singdirishi muhim. Zero, ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matnlar tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matnlardagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, bir fikrni turli vositalar bilan ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirish, o‘quvchiga mana shu vazifalar uchun zarur bo‘lgan muhim fonetik, leksik va grammatik qoidalarnigina berish, fikrni ifodalash va anglashning turli mexanizm va usullarini, ularni turli nutq sharoitiga mos ravishda qo‘llash yo‘llarini tavsiya etish, bunga asoslangan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, voizlik mashg‘ulotlariga e’tibor

ustuvor vazifa sanalib, uncha chuqurlashtirilmagan lingvistik bilimlar ana shu vazifalar “soyasi”da bo‘lmog‘i, o‘quvchining aqliy faoliyati zinhor lingvistik qoidalar va til qurilishiga doir bilimlar bilan band qilib qo‘yilmasligi kerak. Zero, **davr o‘quvchilarga o‘zbek tili qurilishi haqidagi bilimlarni emas, balki ona tili imkoniyatlarini egallash mexanizm va usullarini berishni taqozo qilmoqda.**

O‘rta umumta’lim maktablari ona tili dastur va darsliklarida ilmiylik hamda tushunarlilikni ta’minlash masalasiga hamisha ona tili ta’limi maqsadi nuqtayi nazaridan yondashish shart.

Ona tili o‘qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili. *Sistema, sistemalashtirish, sistemaviylik* kabi atamalarning tarkibi bir o‘zakdan tuzilgan bo‘lib, sistema yunoncha: *systema* – tarkibiy qismlardan iborat yaxlit butunlik demak. Barcha ilmiy atamalar kabi mazkur atamalarning ham mazmuni davr bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib, boyib, chuqurlashib boradi. Bu fan uchun tabiiy hol. Oldin bizga butunlik sifatida bevosita kuzatishda berilgan har bir narsa sistema deb qaralgan bo‘lsa, endi har bir voqelikda ikki tomon:

a) ichki, ko‘zga tashlanmas (bevosita kuzatishda berilmagan) tomon- butunlikning tarkibiy qismlari orasidagi barqaror munosabatlar chizmasi,

b) shu munosabatlar chizmasining muayyan moddiy shaklda voqelanishi va kuzatishda berilishi (munosabatlarning voqelanishi) izchil farqlana boshladi. Shunday tomonlardan har biriga nisbatan sistema atamasi qo‘llaniladigan bo‘ldi. Ma’lumki, tilshunoslikda Ferdenand Sossyur Gumboldtning *ergon* tushunchasiga mos keladigan holatlarni lisoniy lingvistikaga, *energiya* tushunchasiga muvofiq holatlarni nutq lingvistikasiga ajratib, nutq faoliyati jarayonida ikki hodisani – *lison va nutq*ni farqladi. Bilamizki, lison va nutqning tushunilishi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Sistema qanchalik rang-barang talqin qilinmasin, barcha sistemaviy ishlarda sistema uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlar mavjud. Bular, asosan, quyidagilar:

1. Sistema murakkab butunlik, u o‘z rivojlanish va yashash qonuniyatlariga ega.

2. Sistema murakkab butunlik bo‘lganligi sababli u, albatta, tarkibiy qismlardan – elementlardan iborat bo‘ladi.

3. Elementlar sistema tarkibida o‘zaro barqaror munosabatlar bilan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi.

4. Sistemada elementlar o‘zgarmay, munosabatlar o‘zgarsa, sistema buziladi yoki yangi (oldingidan farqli) sistema vujudga keladi.[128]

Yuqorida sanalgan xususiyatlar sistemaning mutlaq, qat’iy belgilaridir. Bulardan tashqari har bir sohadagi sistemaning faqat o‘zigaginaxos bo‘lgan juda ko‘p belgi-xususiyatlari bo‘ladi. Masalan, lison ham, nutq ham sistemaviydir, lekin lisoniy sistemaning tabiati nutqnikidan tubdan farq qiladi: lisoniy sistema – imkoniyatlar, umumiyliklar tizimi (paradigmalari); nutqiy sistema – bevosita voqelanish tizimi. Ma’lumki, umumiylikning voqelanishi xususiyliklarni beradi. Bu xususiyliklar esa mohiyatan cheksiz bo‘lib, biz ularni hech qachon sanab nihoyasiga yeta olmaymiz. Lisoniy sistema dialektik umumiylik va imkoniyat tabiatiga ega bo‘lganligi sababli uning qurilishini, elementlari orasidagi munosabat turlarini nisbatan aniq chegaralash, tavsiflash mumkin. Substansial yo‘nalishdagi tadqiqotlar lisoniy sistema qurilishi hamda mohiyatini ochish va tavsiflash imkoni mavjudligini isbotladi.

Demak, istalgan voqelik, hodisa yoki jarayon o‘ziga xos sistemaviylik (tizimlilik) xarakteriga ega bo‘ladi. Shu jumladan, ona tili ta’limi jarayoni ham. Ona tili ta’limining umumiy vaxususiy maqsadlari, mazmuni, usuli, vositalari, ta’lim turi va shakli, dars jarayoni, o‘qituvchi o‘quvchi munosabatlari, ona tili ta’limining huquqiy jihatlarini ta’minlovchi hujjatlar (“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, DTS va h.) barchasi yaxlitlikda ona tili ta’limi tizimini tashkil etadi. Agar shu tizim tarkibidagi biror kichik tizimning mohiyati o‘zgarsa, sistema buziladi. Kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi.

---

[128] Неъматова Л.Ўзбек тилида приативлик (нофонологик сатҳлар). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.– Т., 2004.

O‘rta umumta’lim maktablarida ona tili ta’limi jarayonida tilning fonetikasini o‘rganmasdan uning grammatikasini o‘rganish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Fonetika va grafikani yetarli darajada o‘zlashtirgan o‘quvchigina leksikani puxta o‘zlashtiradi. Leksika puxta o‘rganilgach, so‘z turkumlarini o‘rganish osonlashadi. Shuning uchun til hodisalarini o‘zaro uzviy aloqadorlikda o‘rganish uning samaradorligini ta’minlovchi asosiy vosita sanaladi.

Izchillik tamoyili ta’lim jarayonining mantiqiyligi, o‘quv materiallarining o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligini o‘z ichiga qamrab oladi. Ta’limda izchillik tamoyili tizimlilik tamoyili bilan uzviy bog‘langan. Kishining kundalik faoliyatida ham, o‘quv ishlarida ham muttasillik, muntazamlilik bo‘lishi shart. O‘quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning boshlang‘ich va quyi sinflarda hosil qilgan bilim ~ malaka ~ ko‘nikmalarini hisobga olish, o‘rganilgan, o‘rganilayotgan va o‘rganilishi mo‘ljallangan bilimlar o‘rtasida mantiqiy aloqadorlikni ta’minlashga izchillik tamoyili orqali erishiladi.

Ona tili dasturlarida o‘quv materiallarining bosqichli ketma-ketlik tamoyili asosida berilishi izchillik tamoyilini amalga oshirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Chunki muayyan bir mavzu yuzasidan o‘quvchilarda zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish faqat shu mavzu doirasida qolib ketmaydi. Keyingi bosqichda egallangan bilimlar mustahkamlanadi.

Tizimlilik va izchillik tamoyillari ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi faoliyatida teng barobar ahamiyatga ega. Mazkur tamoyil ona tili ta’limining mazmuni, usuli, vositalarini belgilashda, o‘qituvchi~ o‘quvchi faoliyatini samarali tashkil etishda o‘z ifodasini topgandagina ona tili ta’limi maqsadining ro‘yobini ta’minlovchi unsurga aylanadi.

Ona tili o‘qitishda nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi tamoyili. Insonnining faol va bunyodkor ongi va tafakkurining mahsuli bo‘lgan bilim insonni hayvondan farqladi. Ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi bilimlar tizimidir. Lekin ta’lim tizimi ta’lim mazmuni tarkibiga kiritiladigan bilimlar silsilasiga o‘ziga xos ravishda yondashadi–u ta’lim oluvchiga berilishi, singdirilishi zarur bo‘lgan bilimlarni ta’lim maqsadi “elagi”dan o‘tkazadi va,

albatta, beriladigan bilimlarni pragmatik ahamiyati, ya’ni olingan bilimlarni amaliy qo‘llash– tatbiq va ijodliylik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan baholaydi. Demak, o‘quvchiga taqdim etilayotgan nazariyalar, albatta, pragmatik ahamiyatli – kishi hayoti davomida muntazam qo‘llashi mumkin bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i zarur.

Har bir yangi avlod hayotga qadam qo‘yar ekan, ilgarigi avlodlar tajribasini o‘rganadi hamda shu asosda yangi bilimlar yaratadi. Ta’lim maqsadi bilan bog‘liq ravishda ta’lim oluvchida hosil qilinishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmi va tabiati ijtimoiy zarurat bilan belgilanadi hamda tarbiyalanuvchining iqtidori bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi lozim. Zeroki, bilim maqsad, shaxsni faoliyatga yo‘llash hamda bilim~malaka va ko‘nikmalar zanjiri asosini tashkil etadi. Bilim, xususan, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida ta’lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilimlar malaka va ko‘nikmalar hosil qilish bilan, ya’ni o‘quvchining ijodiy ~ amaliy tatbiq faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi bilan xarakterli.

Har bir mutaxassis hozirda o‘quvchiga ona tili mashg‘ulotlari orqali berilayotgan bilim bola uchun, uning bo‘lg‘usi amaliy faoliyati uchun zarurmi, degan savolni nazaridan qochirmasligi zarur. Zero, ta’lim jarayonida beriladigan bilimlar, ayniqsa, umumta’lim tizimida, amaliyligi, pragmatik qiymati bilan belgilanishi juda-juda zarur. Bilim haqida gap borganda bilim berish bilan birga bolalarda bilim olish, bilimni egallash yo‘llari–lug‘at, qomus, ensiklopediya, ma’lumotlar majmuasi (spravochniklar), internet tizimi kabi axborot banklaridan amaliy foydalanish ko‘nikmalari hosil qilishga alohida e’tibor berish kerak.**Ona tili ta’limining samarasi o‘quvchining olgan lingvistik bilimini emas, ona tili imkoniyatlarini egallash va mustaqil tafakkurining o‘sish darajasini belgilamog‘i lozim.**

Demak, o‘quv dasturlarida belgilangan mavzularni o‘quvchiga faqat nazariy jihatdan yetkazilishi uni toliqtiradi, zeriktiradi va keyinchalik yodidan tez ko‘tarilishiga olib keladi. O‘quvchi dars jarayonida egallagan har bir nazariy bilimidan amaliyotda foydalana olishi, o‘qituvchi esa o‘quvchi egallagan bilimning ijtimoiy hayotning qay bir jabhasida muhimligini bolaga singdira olishi zarur.

Bunda o‘qituvchi o‘qitishning turli xil metodlari, shakllari, vositalaridan foydalana olishi, to‘g‘rirog‘i, boy metodik bazaga ega bo‘lmog‘i kerak.

Ona tili o‘qitishda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili.“Bilim hali aql emas” jumlasi juda serma’no va uning zamirida katta hikmat yotadi. Xalqimizda “Qur’oni Karim”ni to‘la yodlagan, lekin uni tushunmaydigan shaxslarni (rasmiy islomiy hofizlarni) ham, ko‘zi ojiz kishilarni ham qori deb atalishi[129] bejiz emas. Haqiqatan, qorilar 114 sura, 6226 oyat – 77.639 so‘z, 325.763 harfdan iborat bo‘lgan “Qur’oni Karim”[130]ni harfma-harf va qatorma-qator yod bilsalar-da, ular ojizdirlar: o‘qiyotgan narsalarini hamisha ham tushunmaydilar, uqmaydilar. Zeroki, xalqimiz shiori “Ilm-u amal, ilm-u amal va ilm-u amal”dir. Amal esa bilimning oqilona, sharoitga mos ijodiy tatbiqi hisoblanadi. Bu esa ta’lim oluvchida ijodiylik tabiatini shakllantirish, bilimni qoidalar deb tushunib, ularni yodlamasligi, balki uni chuqur alohadorliklarda va amaliy tatbiq bilan bog‘liq ravishda hosil qilishi bilan, ya’ni ta’lim usuli, ta’lim metodlari bilan uzviy bog‘liq.

O‘rta umumiy (tayanch) ta’lim bosqichida 11-16 yoshli o‘smirlarning psixo-fiziologik holatlari tamoman o‘zgacha bo‘lib, ularda ijodiylik – olgan bilim, hosil qilgan ko‘nikmalari asosida ijod, ya’ni yaratish, bunyod qilish, yangilik, g‘ayrioddiylikka qiziqish kuchayadi. Bu yoshda ularning ongini retroskopik ta’lim bilan band qilish ta’lim oluvchida ijodiylik kurtaklarini so‘ndirishga olib kelishi mumkin. Ona tili ta’limi o‘smirlarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ijodiy tafakkur mahsulini yozma va og‘zaki shakllarda to‘g‘ri hamda ravon bayon qilishni o‘rgatishga xizmat qilmog‘i lozim. Bu maqsad uchun eng qulay usul o‘quvchilarga tayyor qoidalarni berish emas, balki qodisalarni kuzatib, ularni umumlashtirish, hodisalarni, aqliy umumlashmalarni o‘zaro qiyoslab, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan – bolalarni ongli ravishda o‘ylash, fikrlash, izlash, topish va umumlashtirishga undovchi – ta’lim usulini, ya’ni muammoli vaziyatlarni, mantiqiy mashq va topshiriqlarni talab etadi.

---

[129] Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов). 2-нашри. – Т.: Фан, 1972. – 964 б.

[130] Аҳмад Ҳоди. Ибодати исломия. Мутаржим ва ношир Аҳмад хўжа. – Т.: «Парцев» матбаа, 1332.(Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари томонидан қайта литография нашри. – Т.: 1990) (араб ёзувида). – 17-b.

Vaholanki, “***Ma’lumot bilimlar bilan emas, balki bilganingni mahorat ila amalda qo‘llash bilan belgilanadi***.”(A.Disterveg)

Tabiiyki, o‘quvchining har bir yangi mavzuni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq bo‘lgan va o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil izlanish faoliyati faqat verbal-kognitiv ta’lim bilan, ya’ni hodisadan mohiyatga, xususiydan umumiyga yo‘nalishi bilan cheklanmaydi: verbal-kognitivizm bosh usul, usullar usuli, usullar asosi sifatida ona tili o‘qitishda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyilini ta’minlaydi.

Onglilik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faollik ko‘rsatishi bilan chambarchas bog‘langan. Chunki ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirmay turib, o‘quv materialining ongli o‘zlashtirilishiga erishib bo‘maydi. O‘quvchi dars jarayonida ongli o‘zlashtirgan bilimdangina amaliy faoliyatda bemalol foydalanishi mumkin. Faollik mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatish orqali ta’minlanadi.

Ona tili o‘qitishda ko‘rsatmalilik tamoyili. Ko‘rsatmalilik ona tili ta’limi uchun o‘ta muhim jihatlardan biri sanaladi. Sababki, ushbu o‘quv predmetining tabiati, mavhum tushunchalarning mohiyatini anglash ko‘rsatmalilikni ko‘proq talab etadi. O‘quvchi ko‘rish orqali narsa, hodisa, tushunchalarning tildagi ifodasi xususida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Mavzu mohiyatini tezroq anglaydi. Xalqimizda: “Yuz eshitgandan bir ko‘rgan yaxshi” degan naql bejizga aytilmagan.

Ona tili ta’limi jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan ko‘rsatmali materiallar juda ko‘p va xilma-xil. Chunonchi, tabiiy yoki aniq buyumlar (predmetlarning asl namunalari: masalan, *qalam, daftar, kitob; nok, anor, olma; savat, bug‘doy, paxta, sholi;choynak, piyola* va h.); kompyuter grafikasi materiallari (masalan, *mavzuga oid nazariy chizmalar, jadvallar, harakatli topshiriqlar,topshiriqli slaydlar* va h.); tasviriy san’at namunalari (masalan, *tabiat manzarasi, portret*), musiqa (masalan, *mumtoz milliy kuylar*), kino *(“Alpomish”, “Shum bola”, “Sariq devni minib” kinofilmlaridan parcha*), vedeo tasvirlar kabi vositalar shular jumlasidandir. Ona tili mashg‘ulotlarida doska, flipchart qog‘ozi, markerlar, multimediya to‘plami (kompyuter, videoproektor, ekran, ovoz ko‘targich), elektron doska, televizor, epidiaskop, filmoskop, magnitofon kabi

texnik va notexnik vositalardan foydalanish dars samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, 6-sinfda “Sifat” mavzusini o‘tishda quyidagi slaydlardan ko‘rsatmali material sifatida foydalanish mumkin:

1-topshiriq. Quyida berilgan sifatlarni tuzilishi jihatidan turlarga ajrating. Ular ishtirokida avval so‘z birikmalari, keyib esa sodda gaplar tuzing.



2-topshiriq.Rasmda ko‘rsatilgan meva nomlarini toping. Ular ishtirokida so‘z birikmalari tuzing. Hokim so‘zi sifat bilan ifodalangan so‘z birikmalarini izohlang.



3-topshiriq.Rasm asosida bog‘lanishli matn tuzing. Tuzgan matningizda sifatning ma’no jihatdan barcha turlari ishtirok etsin.



Ko‘rsatmali material muhim axborot manbayi hamdir. Chunki o‘quvchi darslik, o‘qutuvchining bayoni, ommaviy axborot vositalaridan qanday axborot olsa, ko‘rsatmali materialdan ham shunday ma’lumot olishi mumkin.

Ona tili ta’limi jarayonida ko‘rsatmali materiallardan foydalanish ham o‘qituvchining, ham o‘quvchining vaqtini tejaydi. Masalan, 5-sinfda “Ibora” mavzusini o‘tishda ekranga *til, yurak, yer, peshona* tasvirlangan rasmlar chiqariladi va 5 daqiqa ichida har bir guruh berilgan rasmlar asosida iboralar topishlari hamda ularni guruh a’zolaridan biri o‘qib berishi kerakligi aytiladi. O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lishgach, ekranga quyidagilar navbat bilan chiqariladi va o‘quvchilar hukmiga havola etiladi:

Til–dil kaliti

№	***Til* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**
1	*til biriktirmoq*	***kelishmoq***
2	*tili bormadi*	***aytolmadi***
3	*tilga kelmoq, tilga kirmoq, tili chiqmoq*	***gapirmoq***
4	*tilga olmoq*	***aytmoq***
5	*til degan bir qarich, tili bir quloch, tili uzun*	***maqtanchoq***
6	*tili boradi*	***aytadi***
7	*tilga tushmoq*	***tanilmoq***
8	*tilini tishlamoq*	***afsuslanmoq***
9	*tilini qisiq qilmoq*	***gapirtirmaslik***
10	*tilini qismoq*	***gapirmaslik***
11	*tili qichimoq*	***aytgisi kelmoq***

12	*tilini qichitmoq*	***aytishga majbur etmoq***
13	*tili qisiq*	**muttaham**
14	*til tekizmoq*	***(u haqida) gapirmoq***
15	*tiliga erk bermoq*	***(bemalol) gapirmoq***

Yurak yonmog'i kerak

№	***Yurak* so'zi bilan bog'liq iboralar**	**ma'nosi teng kelgan so'z**
1	*yuragi achishmoq*	***kuyinmoq***
2	*yuragi betlamoq, yuragi dov bermoq*	***kirishmoq***
3	*yuragi betlamaslik, yuragi dov bermaslik*	***kirisha olmaslik***
4	*yuragi bo'shamoq, yuragini bo'shatmoq*	***(ruhan) engillashmoq***
5	*yuragiga vahima solmoq*	***qo'rqitmoq***
6	*yuragiga qil sig'maslik*	***hech narsa yoqmaslik***
7	*yuragiga o'tirmaslik*	***yoqtirmaslik***
8	*yuragiga sig'ish*	***(nima bilandir) shug'ullanish***
9	*yuragiga tugmoq*	***mo'ljallamoq***
10	*yuragiga qo'l solmoq*	***bilmoqchi bo'lmoq***
11	*yuragiga g'ulg'ula solmoq*	***xavotirlantirmoq***
12	*yuragiga g'ulg'ula tushmoq*	***xavotirlanmoq***
13	*yuragiga tegmoq*	***ranjimoq***
14	*yuragiga tegmoq*	***zerikmoq***
15	*yuragini ko'tarmoq*	***ruhlantirmoq***

Yer elni boqar

№	***Yer* so'zi bilan bog'liq iboralar**	**ma'nosi teng kelgan so'z**
1	*yerga qaramoq*	***uyalmoq***
2	*yer bilan bitta bo'lmoq, yer bilan yakson bo'lmoq, yerga kirgudek bo'lmoq*	***sharmanda bo'lmoq***
3	*yer bilan osmoncha, osmon-u yercha*	***(katta) farqli***
4	*yerga kirgizib yubormoq, yer yorilib yerga kirgizgudek*	***(qattiq) uyaltirmoq***
5	*yerga kirsa, qulog'idan, ko'kka chiqsa,oyog'idan tortmoq*	***(baribir)topmoq***
6	*yerga ursa, ko'kka sapchiydigan*	***(o'ta) sho'x***
7	*yerga ursa, ko'kka sachramoq*	***sho'xlik qilmoq***
8	*yerga qaratmoq*	***uyaltirmoq***
9	*yer-u ko'kka ishonmaslik*	***(juda) asrash***
10	*yer-u ko'kdan topmaslik*	***topolmaslik***

11	*yer tagida ilon qimirlasa, biladigan*	***(juda) sezgir***
12	*yer ostidan (qaramoq)*	***sezdirmay (yashiriqcha)***
13	*yer tishlamoq*	**o‘ldirilmoq**
14	*yer tishlatmoq*	***o‘ldirtirmoq***
15	*yer bo‘lmoq*	***uyaltirilmoq***

Peshonaga taqdirni insonning o‘zi bitadi

	***Peshona* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**
1	*peshonaga yozilgan, peshonada bori*	***taqdir***
2	*peshonasi sho‘r*	***baxtsiz***
3	*peshonasi qora*	***bebaxt***
4	*peshonasi yarqiragan*	***baxtli***
5	*peshona teri*	***Halol mehnat***
6	*peshona teri to‘kmoq*	***(halol) ishlamoq***
7	*peshonasi tor*	***ziqna***
8	*peshonasidan ko‘rmoq*	***ko‘nikmoq***
9	*peshonasiga yozilgan*	***(kimligi, qanday-ligi) ma’lum***
10	*peshonasi yo‘nilgan, peshonasi qirib olingan*	***omadsiz***
11	*peshonaga tushgani*	***taqdir***
12	*peshonasi tirishgan*	***norozi***
13	*peshonasini toshga urmoq*	***(taqdiridan) norozi bo‘lmoq***
14	*peshonasi chirigan*	***(azaldan) baxtsiz***
15	*peshonasiga chiziq tortilmoq*	***qarimoq***

Bu vositalar til hodisalarini tushunishga, ona tilidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, uni amaliy ko‘nikmaga aylantirishga yaqindan yordam beradi. Ayniqsa, tasviriy san’at namunalari, o‘quv filmlari, diafilmlar va diapozitivlar o‘quvchilarning o‘g‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim vosita sanaladi. Ha, Konfutsiy aytganidek: “***Aytsang, unutaman, ko‘rsatsang, eslab qolaman, anglab yetib o‘zim bajaraman***.”

Ko‘rsatmali vositalardan barcha turdagi darslarda va darsning barcha bosqichlarida unumli foydalansa bo‘ladi. O‘quv materialini mustahkamlash va takrorlash jarayonida ko‘proq reproduktiv xarakterdagi ko‘rsatmali qurollardan foydalansak, yangi bilimlar berishda izlanuvchanlikni talab qiladigan ko‘rsatmali

vositalar ishga solinadi. Demak, ko‘rsatmalilik tamoyilini amalga oshirish orqali o‘quvchilarning qayta xotiralashga asoslangan faoliyatini ham, qisman izlanuvchanlik faoliyatini ham, ijodiy faoliyatini ham uyushtirish mumkin.

Biroq, ko‘rsatmali vositalardan me’yorida va o‘rinli foydalanish lozim.

Ona tili o‘qitishda bolalarning yosh hamda o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, u ona tili o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyilga amal qilmay turib, til hodisalarini puxta va ongli o‘zlashtirishga erishib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, ona tilining izchil kursini o‘rganish, asosan, o‘rta maktab yoshi – o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi. Bu yoshda o‘quvchilarda topshiriqni o‘z vaqtida aniq va yaxshi bajarishga harakat rivojlanadi. O‘smirlik davrida qayta xotirlashga oid topshiriqlar bilan bir qatorda ijodiy topshiriqlarni bajarishga ishtiyoq kuchayadi. Agar boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar ko‘proq ko‘rgan yoki kuzatgan narsalari haqida fikr yuritsalar, keyinchalik ularda shaxsan kuzatmagan, ko‘rmagan, ammo boshqalardan eshitgan voqea-hodisalarni o‘zlaridan qo‘shib uni bayon qilishga urinadilar. O‘quvchilar bu yoshda rasmda aks ettirilgan voqealar haqida fikr yuritish bilan cheklanmay, rasmda ko‘zga tashlanmayotgan, ammo mavzuga bevosita aloqador bo‘lgan fikrlarni ham qo‘shib, uni bayon eta oladilar. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy fikr ko‘proq aniq voqea-hodisalar natijasida hosil bo‘lsa, o‘smirlik davriga o‘tgan sari bu xususiyat o‘z ko‘lami jihatidan kengayadi; bola idrok qilgan narsalarni tushunib, anglab olishga intiladi; u narsa va hodisalarni tahlil qiladi; o‘zaro taqqoslaydi, ularning muhim o‘xshash va farqli belgilarini izlaydi hamda hukm chiqaradi.

Ona tili darslarida o‘smirlarning real o‘quv imkoniyati hisobga olingan taqdirdagina ta’lim jarayoni samarali kechadi. Til materiali o‘quvchi layoqatiga muvofiq kelgan taqdirda u faollik ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining shaxsiy qobiliyati(uquvi, kompetentligi)ni aniqlash va ta’lim

jarayonida uni hisobga olishi zarur. Chunki “***Tafakkurni rivojlantirish uchun yodlashdan ko‘ra ko‘proq mulohaza yuritish zarur***.” (R.Dekart)

Ma’lumki, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, bilim saviyasi, qiziqish va layoqati, mustaqil ishlay olishi bir-biridan farq qiladi. O‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan, ijodiy fikrlay oladigan o‘quvchi rasm asosida insho yozishi kerak bo‘lganda nafaqat rasmda ko‘rayotgan narsalarini, balki o‘zining hayotiy taassurotlarini qo‘shib insho yoza oladi. O‘zlashtirish darajasi va fikrlash qobiliyati bo‘sh bo‘lgan, til sezgirligi talab darajasida bo‘lmagan o‘quvchi xuddi shu inshoda hatto rasmda ko‘rayotganlarini ham to‘laligicha bayon qilib bera olmaydi. Demak, o‘quvchilarda o‘quv imkoniyati har xil bo‘lib, bu ularning bilish faoliyatiga ta’sir etmay iloji yo‘q.

O‘quvchilarning o‘quv imkoniyati bir qator ichki va tashqi asoslarga ega.

O‘quv imkoniyatining ichki asoslariga o‘quvchilarda nutq malakalarining shakllanganlik darajasi, fikrlash va esda saqlab qolish qobiliyati, tafakkur usullarini bilishi va uni zarur o‘rinlarda to‘g‘ri ishga sola olishi, tez o‘qish va yozish malakalarining mavjudligi, til materiallarini o‘rganishga munosabati kabilarni kiritish mumkin.

Tashqi omillarga ona tili ta’limining mazmuni, o‘quvchilarning til muhiti (uyda ham, maktabda ham o‘zbek tilida so‘zlashadigan o‘quvchilarning o‘quv imkoniyati turli tilda so‘zlasha oladigan o‘quvchilarning o‘quv imkoniyatidan farq qiladi), ularga qo‘yilgan yagona imloviy va nutqiy talab, o‘qituvchining nutqi, maktabning moddiy texnikaviy ta’minoti kabilar kiradi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlari hamda real o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyiliga qat’iy amal qilish quyidagi afzalliklarga ega:

1.O‘qituvchi tomonidan tanlanadigan o‘quv topshiriqlarini o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga muvofiqlashtirish imkoniyati vujudga keladi. O‘qituvchi o‘quv imkoniyatidan kelib chiqqan holda darslik va qo‘shimcha o‘quv materiallaridan foydalanadi.

2.O‘quv imkoniyatini aniqlash ona tili o‘qitishning shakl, metod va usullarini to‘g‘ri belgilashga, maqsadga muvofiq keladigan dars turini tanlashga imkon beradi.

3.O‘quv imkoniyatini bilish tabaqalashtirilgan ta’lim(“har kim kuchiga yarasha, har kim layoqati darajasida”)dan foydalanish imkoniyatini beradi. Chunki har bir o‘quvchining o‘quv imkoniyatini bilmasdan turib, o‘quv topshiriqlarini tabaqalashtirish mumkin emas. Bolaning o‘quv imkoniyatiga mos tushadigan topshiriq esa uni bajarishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi; bilishga bo‘lgan ishonchni orttiradi; sinfdagi barcha o‘quvchilarning deyarli bir vaqtda topshiriqni bajarishlariga shart-sharoit yaratadi.

4.O‘quv imkoniyatini hisobga olish ona tili darslarida bolani tarbiyalash va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi. Imkoniyatga muvofiq keladigan topshiriq shaxsiy-ruhiy xususiyatlar: iroda, qobiliyat, xotira, ijodiy xayol kabilarni tarbiyalaydi. Ona tili darslarini o‘quvchilarning imkoniyatlari doirasida tashkil etish ularning o‘z kuchlaridan unumli foydalanishlarini ta’minlaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Tamoyil atamasini sharhlang.
2.Tamoyil va prinsip aynan bir tushunchami?
3. Ona tili o‘qtish tamoyillari haqida ma’lumot bering.
4. Ona tili o‘qitishda ta’lim, tarbiya va rivojlanish uyg‘unligi tamoyilini sharhlang.
5. Ona tili o‘qitishda ilmiylik va tushunarlilik tamoyili mohiyati nimadan iborat?
6. Ona tili o‘qitishda tizimlilik va izchillik tamoyilini misollar asosida tushuntiring.
7. Ona tili o‘qitishda nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi tamoyilini izohlang.
8. Ona tili o‘qitishda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyilini sharhlang.
9. Ona tili o‘qitishda ko‘rsatmalilik tamoyili mohiyati nimada?
10. Ona tili o‘qitishda bolalarning yosh hamda o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili nima uchun umumdidaktik tamoyillar sirasiga kiritilgan?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [10;11;20;24;32;34;35]

O‘ZBEK (ONA) TILI O‘QTISHNING O‘ZIGA XOS TAMOYILLARI

REJA:

1. Ona tili o‘qitishda “til ~me’yor~ nutq mutanosibligi” tamoyili.
2. Ona tili o‘qitish orqali o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish tamoyili.
3. Ona tili o‘qitishda mavzulararo, bo‘limlararo, sinflararo aloqadorlik tamoyili.

4. Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash tamoyili.
5. Ona tili o‘qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta’sirini hisobga olish tamoyili.
6. Ona tili o‘qitishda bolalarni milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash tamoyili.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Til~me’yor~nutq, tafakkurni rivojlantirish, mavzulararo, bo‘limlararo, sinflararo aloqadorlik, til sezgirligini tarbiyalash, mahalliy sheva sharoiti va ta’sirini hisobga olish, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo‘lur.

Mahmudxo‘ja Behbudiy

O‘qituvchi ona tilining umumdidaktik tamoyillari bilan bir qatorda, uning o‘ziga xos tamoyillarini ham yaxshi bilishi va ta’lim jarayonida unga qat’iy amal qilishi lozim. Zero, o‘rta umumta’lim maktablarida ona tili ta’limining o‘ziga xos tamoyillari milliy o‘zlik, milliy tafakkur, milliy dunyoqarash masalalari bilan chambarchas bog‘lanadi.

Ona tili o‘qitishda “til ~me’yor~ nutq mutanosibligi” tamoyili. Til va nutq hodisalariga o‘zaro farqlab yondashishni dastlab VIII-IX asrlarda arab tilshunosligida, keyinchalik tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o‘rganuvchi (XX asrning 20-yillarida shakllangan va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo‘lgan) tilshunoslik namoyandalari V.Gumboldt, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene ta’limotlarida uchratamiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni ilmiy va amaliy farqlash, shu tushunchalarni batamom yangi mazmunda qo‘llash Ferdinand de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta’limot bilan bog‘liq. Lison (til) va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida inqilobga teng hodisa sifatida baholandi. Chunki bu hodisa tilshunoslikdagi mavjud qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi.

Lison (til) deyilganda ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo‘yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy fikrni

ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatlari yig‘indisi tushuniladi.

“Til – g‘oyalarni ifodalovchi ramzlar sistemasi, nutqiy qobiliyatning ijtimoiy mahsuli, ijtimoiy jamoa tomonidan hosil qilingan zaruriy ramzlar (imkoniyatlar) majmuidir”, degan edi tilshunos F.de Sossur. Zero, til har bir jamiyat uchun “azaldan tayyor” qabul qilinishi umumiy va majburiy bo‘lgan, avlodlar merosi hamdir. Til–o‘z-o‘zidan rivojlanish, o‘zgarish, ta’sirga berilish, jamiyat talablari asosida yangilanish, biologik organik sistemalar singari ehtiyojlarga moslashish, zaruriyatni qondirish, kemtiklikni (yetishmaydiganini) to‘ldirish xususiyatlariga ega, boshqa ramziy tizimlarda esa muqimlik, ular faqat tabiiy til asosida, ya’ni inson ongi va faoliyati orqali yangilanishi, o‘zgarishi, rivojlanishi mumkin. Tilning amalda bo‘lish holatlariga tazyiq o‘tkazib bo‘lmaydi. Lekin tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar, tavsiyalar berilib borilishi zarur. Bu me’yoriy tavsiyalarning qanchalik hayotiy ekanligini esa amaldagi nutqiy jarayonning o‘zi belgilaydi. Zero, me’yoriy hujjatlarsiz, yo‘l-yo‘riqlarsiz ham til va nutq rivojini tasavvur etib bo‘lmaydi. Qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi qonun buni yaqqol isbotladi.

Bilamizki, istalgan millat tili uning milliy tafakkuridan oziqlanadi. Zero, til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisalardir. Tilsiz tafakkur bo‘lmaganidek, til ham tafakkursiz bo‘lmaydi.[131] Tilning bunday talqini uning psixofizik hodisa ekanligini, u o‘ziga umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) kabi sifatlarni mujassamlashtirganligini isbotlaydi.

Til va tafakkurning birligi nutqda o‘z ifodasini topadi. Nutq og‘zaki va yozma holda mavjud bo‘lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya’ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo‘lib qoladi.[132]

Til va nutq o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish hozirgi zamon tilshunosligining eng muhim vazifalaridan biri. Bu masala alohida bir milliy tilni

---

[131]Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981, 20-bet.
[132]Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Тошкент, 1993, 31-bet.

yoki umuman tillarni nazariy ta’riflashdagi boshlang‘ich nuqtadir. Til va nutq hodisalarini farqlash aksariyat tilshunoslar tomonidan tan olinadi, ammo ularning mohiyatini, chegarasini aniqlash mezonlari haqidagi fikrlar turli-tuman.

Ferdinand de Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ikki ajralmas bo‘lagi deb hisoblab, ularni “bir paytning o‘zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga daxldor” jarayonlar deb ta’riflagan edi.

Nutq, birinchidan, fikr-mulohaza bildirish jarayoni, ikkinchidan, u –til qurilmasi faoliyati natijasi.

Til potensial hodisa bo‘lib, kishilar ongida bolalikdan o‘zlashtirilgan gapirish qobiliyati va nutq orqali ifodalangan fikrni tushunish vositasi sifatida mavjud bo‘ladi. Nutq esa mavjud imkoniyatni voqelantirish va so‘zlashuv qobiliyatini aniq muhitda amalga oshirish jarayonidir.

Nutq har bir alohida kishini individ va shaxs sifatida xarakterlovchi eng samarador vositalardan biri. Insonlar muloqoti nutq orqali amalga oshiriladi. Uning yordamida odam o‘z fikrini, hissiyotlarini, kayfiyatini, istaklarini ifodalaydi.Gapirish va tushunish jarayoni odamlar orasida fikr almashinuv, hissiyotlarini bildirish, axborot uzatish ehtiyoji tufayli ro‘y beradi va bularning hammasi ijtimoiy munosabatlarga asoslanadi. Nutqning aynan mana shu ijtimoiy asosini til tizimi tashkil qiladi. Demak, nutq umumiy va ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan tilga nisbatan individual munosabatdagi hodisadir.[133]

Lison va nutq, ularning birliklari munosabatiga dialektik, dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilganda, u haqdagi tasavvur va bilimlarimiz to‘laqonli bo‘ladi.

Til turli xil birlik (fonema, morfema, leksema, frazema, model)larning, ular orasidagi barqaror munosabatlarning majmuyi, nutq esa mazkur majmuaga doir bo‘lgan birliklarning muayyan sharoitda ma’lum qismidan foydalanib, zaruriy kommunikativ maqsadlar uchun hosil qilingan moddiylik (so‘zshakl, so‘z birikmasi, gap) lardir.

[133]Каримов С. Тил таълими ва меъёр. – Тошкент, 2002.

Tilning takomillashib borishi va nutq jarayonidagi bosqichlarini taniqli tilshunos olimlar H.Ne'matov va R.Rasulovlar substansial tilshunoslik "til-me'yor-nutq" tarzida ajratishini ta'kidlashib, qayd qiladilarki: "Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Nutq tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqish, voqelanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir.

Me'yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir".[134]

Demak, til va nutq tizimida me'yor ham o'z o'rniga ega. Tafakkurimizda aks etgan borliq tilda moddiylashib, nutqda yuzaga chiqar ekan, u qanday shakl va ko'rinishda voqelanishi jamiyat tomonidan muayyan me'yorlar bilan belgilangan bo'ladi. Masalan, "Ovqatingni ye" tushunchasini imo-ishora bilan ifodalashimiz mumkin. Og'zaki nutqda esa jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan maxsus tovushlar tizmasi mavjud bo'lib, biz ularni talaffuz etishimiz – aytishimiz shart. Aytilganlarning barchasi me'yorning tarkibiy qismlaridir. Shunga ko'ra til imkoniyatlari me'yor darchasidan o'tib, nutqda yuzaga chiqadi.[135]

Muayyan tilda ifodalanadigan me'yorlar, albatta, o'sha tilning milliylik va tarixiyligi zaminida belgilanishi shart. Tildagi davriy va doimiy me'yorlarni farqlash lozim. Til elementlarining ma'lum bir me'yorga keltirilishi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi me'yorlar belgilangan:

–leksik-semantik (so'z qo'llash bilan bog'liq) me'yorlar;

–orfoepik (talaffuz bilan bog'liq) me'yorlar;

---

[134]Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995.–7-bet.
[135]O'sha asar.–27-bet.

–aktsentologik (urg‘u qo‘llash bilan bog‘liq) me’yorlar;

–fonetik (nutq tovushlarini qo‘llash bilan bog‘liq) me’yorlar;

–grammatik (morfologik va sintaktik) me’yorlar;

– so‘z yasalish bilan bog‘liq me’yorlar;

– orfografik (to‘g‘ri yozish bilan bog‘liq) me’yorlar;

–grafik (harflarning shakli bilan bog‘liq) me’yorlar;

– punktuatsion (tinish belgilari bilan bog‘liq) me’yorlar;

– stilistik (nutq uslublari bilan bog‘liq) me’yorlar.

Ona tili ta’limida “til-me’yor-nutq” o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, birini ikkinchisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Dars mashg‘ulotlarida ular o‘rtasida mutanosiblik o‘rnatilmasa, ona tili ta’limining asosiy maqsadiga erishib bo‘lmaydi.

Ona tili o‘qitish orqali o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish tamoyili. Ijodiy tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir. Maktab ta’limi ona tilini ta’lim oluvchiga o‘ r g a t m a y d i, ta’lim oluvchi ona tilini ta’lim dargohiga kelgunga qadar biladi va undan o‘z kundalik amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun bemalol foydalana olish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Nega zamonaviy ta’limning barcha tur, bo‘g‘in va bosqichlari uchun ona tili ta’limi umumiy va zaruriy o‘quv fani sifatida majburiy kiritilgan, u nimaga xizmat qilishi kerak: ilmiy grammatika, tilshunoslik fani asoslarini o‘rganish uchunmi yoki jamiyat a’zolarining barchasi tilshunos bo‘lishi kerakmi? Jamiyatda hamma madaniyatli kishilarning tilshunos bo‘lishi shart emas. Demak, ta’limning barcha tur, bo‘g‘in, bosqich va ko‘rinishlarida ona tili ta’limining o‘ziga xos maqsadi va zarurati mavjudki, ular DTSlarida maxsus belgilab qo‘yilgan.

Ona tili ta’limi mazmuni tarkibiga kiritilgan bilimlar silsilasi umumiy bilim/ilmning ta’lim maqsadi nuqtayi nazaridan tanlangan, ta’lim oluvchininig yoshi, aqliy, jismoniy, kasbiy (faoliyat) xususiyatlari va ijtimoiy (jumladan, kasbiy) ehtiyojlariga muvofiqlashtirilgan bo‘lagi, parchasidir. U, albatta, pragmatik ahamiyatli – tatbiq etiladigan va uning asosida ijod qilish mumkin bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i zarur. Vaholanki, bilim tatbiq, i j o d bilan ahamiyatli. Biz bilimdon ijrochi shaxs tarbiyasidan ijodkor, bunyodkor shaxsni

yetishtirishga o‘tdik.[136] Xalqimiz hamma vaqt ijodiy tafakkur sohibini, tadbirkor shaxsni bilimdon shaxsdan ustun qo‘ygan. Ma’lumki, XXI asr – axborot asri. Bu asrda faol hayot kechirayotgan shaxs uchun zarur bilimlarning barchasini egallay olmaydi. Barcha zarur bilimlar xazinasiga kalit esa axborot bankini bilish va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishdir. Bunda, xususan, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash, unga, uning ongiga ijodiylik urug‘larini sepish va undirish uchun Yan Amos Kaminskiyning muallimlar kamroq gapirib, o‘quvchilar ko‘proq bilim olish yo‘llarini izlashlari zarurligi haqidagi fikri hozirgi kunda ham xuddi XVII asrdagidek dolzarbdir.

Bugun – axborot asri uchun kishi har bir muayyan sharoitda kerak bo‘ladigan bilmlar majmuasini dars, darslik, umuman ta’lim bilan to‘la berish mutlaqo mumkin emas – bilim doirasi behad kengaygan, axborot esa bir kishi bir zamonda o‘zlashtira olish chegarasidan behad uzoqlashgan. Demak ***bugun uchun zaruri bilim hajmi va miqdorining o‘zi emas, balki muayyan sharoitda zarur bo‘lgan bilimlarni topa bilish va ulardan amaliy foydalana olish malakalariga ega bo‘lish***dir.

O‘quvchilar ona tili mashg‘ulotlarida filologiya (tilshunoslik fani) asoslari-yu tushunchalarini o‘zlashtirish bilan emas, balki ona tilining juda boy imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash va ijodiy fikr mahsulini turli-tuman shakllarda go‘zal nutq sifatida bayon etish ustida ishlashlari lozim. Ona tilidan ta’lim mazmuni ham, ta’lim usuli, o‘quvchilar bajarishlari lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari ham ta’lim maqsadida belgilangan mana shu jihatga xizmat qilmog‘i zarur.

Ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish maqsadini ko‘zlagan kognitiv-pragmatik ta’lim usuli o‘qituvchi ta’lim jarayonida mumkin qadar darslikdan ko‘proq uzilishi hamda darslik o‘quv materiali, dasturda rejalashtirilgan mavzularga monand, yondosh mavzular va o‘quv topshiriqlari tizimidan foydalanishi zarurligini taqozo etadi. Demak, ona tili o‘qitish orqali o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish eng asosiy masala. Bu o‘rinda o‘quvchilarning ijodiy tafakkuriga ta’sir etuvchi quyidagi kabilardan foydalanish mumkin:

[136]Неъматов Ҳ., Ғуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т.: РТМ, 1992. – 30 б.

1.**O‘quvchilar o‘zlariga lug‘aviy ma’nosi notanish bo‘lgan so‘z va iboralar bilan muntazam tanishib borishlarini ta’minlash.** O‘quvchi nutqi uchun faqat tilimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli paydo bo‘layotgan so‘zlar emas, balki ular ilk marta duch kelayotgan (aslida tilimizning lug‘at boyligida mavjud bo‘lgan) so‘zlar ham yangidir. Masalan, 5-, 6-, 7-sinf o‘quvchilariga adabiyot darsligidan muayyan matnlarni belgilab berish va badiiy matnlarda ularga ma’nosi notanish bo‘lgan so‘zlarni aniqlash, shuningdek, so‘zlar ifodalagan ma’nolarni zaruriy lug‘atlardan qidirib topish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar *bo‘lma (xona), ishkom (tok so‘risi), omi (savodsiz, o‘qimagan), sinchalak (chittak), so‘ri (katta taxta karavot), hamiyatli (oriyatli)* kabi bir qator so‘z va iboralarga duch keladilarki, ularning ma’nolarini lug‘atlardan izlab topish, ba’zan yoshi kattalardan bilib olish bolaning lug‘at boyligini oshiradi.

2. So‘z ma’nolarini taqqoslash va ularni sharhlash usuli ham o‘quvchi tafakkurining rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bu usul ma’nosi va shakli bir-biriga yaqin yoki keskin farq qiladigan so‘zlarni izohlashda qo‘l keladi. Tilimizda bunday so‘zlar anchagina qismni tashkil etadi. Masalan, 5-sinfda unlilar mavzusida tarkibida ***-i, -u*** tovush (harf)lari mavjud bo‘lgan so‘zlarning talaffuzi va imlosi o‘rganilar ekan, *urush-urish, tushum-tushim, tuzum-tizim-tuzim, ilashmoq-ulashmoq* singari so‘zlarni taqqoslash orqali ularning ma’nosi, talaffuzi, imlosini, shuningdek, nutqdagi paronimlik holatini sharhlash mumkin. 6-sinfda qo‘shma otlar va ularning imlosi haqida gap ketganda *paxtagul, boshog‘riq, gulbozor, gulg‘uncha, oqsoqol* singari qo‘shma otlarni *paxta guli, bosh og‘rig‘i, gul bozori, gulning g‘unchasi, oq soqol* singari so‘z birikmalari bilan taqqoslash orqali ularning ma’no va imlo farqlarini bilib olish mumkin.

Til hodisalarining mohiyatini anglash, ilmiy va badiiy uslubda qo‘llaniladigan so‘zlarni farqlash, bu so‘zlarning ma’no nozikligini sharhlash maqsadida matnlar taqqoslanishi mumkin. Masalan, maktab darsligida ilmiy matnlarni badiiy matnlar bilan taqqoslash, matnlardagi neytral va bo‘yoqdor so‘zlarni solishtirish, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash kabi ishlar bolalarning so‘z boyligini

oshirish, so‘zdan to‘g‘ri foydalanish malakalarini shakllantirishga hamda rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3.Yozma ifodasi va talaffuzi farqlanadigan so‘zlar ustida ishlash ham bola tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 6-7-sinf o‘quvchilarini lug‘at bilan ishlash darslarida kichik guruhlarga bo‘lish va ularga imlo lug‘atidagi muayyan o‘rinlarni bo‘lib tashlash, belgilangan o‘rindagi so‘zlar ichidan yozilishi va talaffuzi farqlanadigan so‘zlarni ajratish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar topgan so‘zlari(masalan, *muomala, maorif, saodat, direktor, taassurot, oila, tabiat, afv* va b.)ning ma’nolarini izohlashlari, o‘sha so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari (*yaxshi muomala, maorif tizimi, nurli saodat, direktor xonasi, maroqli taassurot, namunali oila, tabiat in’omi, afv e’loni*) yoki gaplar (*Yaxshi muomala yaxshi tarbiya belgisidir; Respublikamizda maorif tizimi maktab o‘quvchilarining ta’lim-tarbiyasi masalalari bilan shug‘ullanadi; O‘zbekiston yoshlarini nurli saodat kutmoqda* va h.) tuzishlari mumkin. Matn tarkibida yozilishi va talaffuzi farqlanadigan so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilganda ularning talaffuzida bo‘ladigan o‘zgarishlarga ham e’tibor qaratish foydadan xoli bo‘lmaydi.

4.So‘zlarni ma’lum belgilariga qarab guruhlarga ajratish ustida ishlash ham shu o‘rinda ahamiyatli. Ayniqsa, 6-7-sinflarda so‘z turkumlari yuzasidan takrorlash darslarini o‘tkazishda bu usul qo‘l keladi. Masalan, “Otlarning ma’noviy guruhlari”ni o‘rganishda berilgan so‘zlarni shaxs otlari (masalan, *chol, yigit, momo, juvon, kishi,aka, muhandis, rais* va b.), faoliyat-jarayon otlari (*terim, tanlov, chopiq, saylov, g‘allachilik* va b.), o‘rin-joy otlari (*maktab, zavod, fabrika, uy, javon, shahar, qishloq, mahalla, tuman, viloyat, ko‘cha, gulzor, shaftolizor; sharq, g‘arb, saylgoh* va h.), payt otlari (*yil, kun, oy, soniya, daqiqa, soat, sutka, tun, asr, hafta, era, ko‘klam, yoz, qish, ko‘z, saraton, xazonrezgi*) va hokazolarga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, “Qavm-qarindoshlik otlari”ni o‘rganishda berilgan so‘zlarni qon-qarindoshlik (*bobo, buvi, ota, ona, opa, aka, tog‘a, amaki, xola, amma, jiyan* va b.) yoki nikoh qarindoshligi (*qaynona, qaynota, kelin, kuyov* va b.) munosabatlarini ifodalashiga ko‘ra ikki guruhga ajratish, hosil bo‘lgan guruhlarni mustaqil davom ettirish yoki “Kasb-hunar otlari”ni o‘rganishda berilgan

so‘zlarni kulolchilik, zardo‘zlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, novvoylik kabi guruhlarga ajratish kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

5.Ma’lum bir guruhdagi so‘zlar ro‘yxatini mustaqil ravishda tuzish. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida ularga ma’lum bir guruhdagi so‘zlar lug‘atini tuzishni ham topshirish mumkin. Shubhasiz, bunday lug‘atlarni dars jarayonida tuzish ancha murakkab. Shuning uchun mustaqil ishning bu turini ma’lum bir mavzu o‘rganilgandan keyin uy vazifasi sifatida topshirish maqsadga muvofiq. Lug‘at tuzish uchun o‘quvchilar ma’lum bir kasb egalari, ota-onalari, keksalar bilan suhbatda bo‘ladilar, mavjud izohli lug‘atlarga murojaat qiladilar.

Ona tili mashg‘ulotlarida ma’lum bir so‘zning ma’nosini sharhlash, so‘zlar ro‘yxatini tuzish kabi amaliy ishlarga tez-tez murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Masalan, o‘quvchilar harakat fe’llari (*intilmoq– imillamoq – qimirlamoq –siljimoq – sudralmoq – yurmoq – yugurmoq – chopmoq – yelmoq* kabi) yoki natijali faoliyat fe’llari (*tuzmoq – yasamoq – qurmoq – bunyod etmoq – paydo qilmoq –barpo etmoq– tartib bermoq –yuzaga keltirmoq – hosil qilmoq; buzmoq – sindirmoq– parchalamoq – titmoq – vayron qilmoq – xarob etmoq –g‘orat qilmoq – nes-nobud qilmoq* va hokazo)ning qatorlarini tuzishlari mumkin. Bunday usullar sirasini yana davom ettirish mumkin.

Shunday qilib, ona tili o‘qitish jarayonida bolalar nutqi(og‘zaki/yozma)ni rivojlantirish uchun birinchi navbatda ularda ijodiy fikrlash malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishni, keyin esa shu asosda ularning so‘z boyligini oshirishni taqozo etadi. O‘quvchilarni doimiy ravishda ular birinchi marta duch kelayotgan so‘zlar hamda fan-texnika, sanoat, madaniy, maishiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot va aloqalar natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi so‘zlar (chunonchi, *monitoring, marketing, broker, bloger; xotdog, chizburger, gamburger, lavash, mayonez; Limuzin, Xunday, Kobilt, Spark, Matiz, Tiko; disk, disketa, fleshkart, xart; sauntrek* va b.) bilan tanishtirib borish, so‘zlarning yangi ma’no qirralarini ochib berish, nutqdagi kamiste’mol so‘zlarni faol iste’mol so‘zlariga aylantirish, adabiy til uchun zid bo‘lgan so‘zlarni o‘quvchilar nutqidan chiqarib tashlash faqat ona tili o‘quv predmetining emas, balki maktabda

o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlarining, shuningdek, oila va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Ona tili o‘qitishda mavzulararo, bo‘limlararo, sinflararo aloqadorlik tamoyili. O‘rta umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan ona tili o‘quv predmetining nazariy bo‘limlari garchi alohida mustaqil bo‘limlar sifatida namoyon bo‘lsa-da, ona tili ta’limi jarayonida ularni bir-biridan ajratib ham, ularning birisiz ikkinchisini tasavvur etib ham bo‘lmaydi. Masalan, 5-sinfda fonetika sathi grafika bo‘limi bilan, yuqori sinflarda esaorfografiya va punktuatsiya bo‘limlari grammatika bilan yoki so‘zshunoslik va morfologiya bo‘limlari so‘z yasalishi bilan bog‘liq tarzda o‘qitiladi.

Shuningdek, o‘rta umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan ona tili o‘quv predmetining mavzulari ham nutq tovushlari, bo‘g‘in(fonetika)ni o‘rganishdan boshlanib, so‘z (leksikologiya) va u ifodalagan ma’nolar (lug‘aviy ma’no leksikologiyada; grammatik ma’no esa morfologiyada), o‘zbek tili agglyutinativ til ekanligi (morfemika), tilimizda yasama so‘zlar miqdori ko‘pchilikni tashkil etishi (so‘z yasalishi), so‘zlarning turkumlarga bo‘linishi va muayyan grammatik kategoriyalarga ega ekanligi (morfologiya), so‘zlarning o‘zaro sintaktik aloqaga kirishib so‘z birikmasi, gap yoki murakkab sintaktik butunliklar hosil qilishi (sintaksis), gap (ayniqsa, murakkablashgan sodda gaplar) yoki murakkab sintaktik butunliklar o‘zigaxos ohang, yozuvda maxsus tinish belgilarini talab etishi (punktuatsiya), nutqimizning go‘zalligi so‘z hamda iboralarni to‘g‘ri talaffuzi (orfoepiya) va imlosi (orfografiya), ularni o‘z o‘rnida qo‘llay olishimiz, hatto sukut saqlashimiz ham muayyan ifoda berisi (uslubiyat) bilan bog‘liqligi 5-11-sinflar doirasida ta’lim mazmunida ketma-ketlikda, uzviylikda o‘z ifodasini topgan.

Ba’zan ona tili o‘quv predmeti ta’limi mazmunidagi muayyan mavzular o‘quvchidan tilshunoslikning bir necha sathlari mavzularidan bilim, malaka va ko‘nikmalarni talab etadi. Masalan, *Avvalo, insonning qalbi go‘zal bo‘lmog‘i kerak* gapining sintaktik tahlili davomida o‘quvchi kirish so‘z(*avvalo*)ning morfologik jihatdan modal so‘z ekanligidan; gap tarkibidagi kirish so‘zlar, odatda, punktuatsion belgi–vergul bilan ajratilishidan xabardor bo‘lmog‘i talab etiladi.

Yoki *Aftidan, u yolg‘on gapiryapti.–Uning yolg‘on gapirayotganligi aftidan bilinib turibdi* kabi gaplarning sintaktik tahlili davomida o‘quvchi birinchi sodda gapda *aftidan* so‘zi kirish so‘z ekanligini, uni *chamasi, chamamda, meningcha (menimcha), sezishimcha, bilishmcha, taxminan* kabilar bilan ham almashtirib qo‘llash mumkinligini, mazkur kirish (morfologik tomondan modal) so‘zlar muayyan lug‘aviy ma’noga ega emasligini bilishi zarur. O‘quvchi ikkinchi sodda gap tarkibidagi *aftidan* so‘zi muayyan lug‘aviy ma’noga ega ekanligini, morfologik tomondan ot mustaqil so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan bu birlikni *yuzidan, betidan, basharasidan, turqidan, chehrasidan, diydoridan, ruxsoridan* kabi muqobillariga almashtirish mumkinligini, shuningdek, *aftidan, betidan, basharasidan, turqidan* shakllari ishlatilganda so‘zlovchining bu holatdan noroziligi; *chehrasidan, diydoridan, ruxsoridan* birliklari qo‘llanilganda esa so‘zlovchining *“yolg‘on so‘zlayotgan*” kishiga rahmi kelayotganligini farqlay olishi muhim.

Xo‘sh, o‘quvchiga bu ma’lumotlar nima uchun zarur? Agar har ikkala gapning semantikasiga e’tibor qaratsak, ular ifodalagan mazmunda ma’no nozikligi jihatidan farqni sezamiz. Birinchi sodda gapda *aftidan* so‘zi gapda ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining chama, taxmin, gumon yoki ikkilanish munosabatini aniq ifodalayotgan bo‘lsa, ikkinchi sodda gapda ifodalanayotgan mazmunga so‘zlovchining munosabati ancha yashirin (qisman) ifodalanyapti. Shuningdek, ikkinchi sodda gapda *aftidan* so‘zi uning yolg‘onchiligini aniq ko‘rsatib turibdi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 5-sinfda “Fonetika” sathini o‘qitish jarayoni bevosita imlo, talaffuz qoidalari bilan, so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari ustida ishlash bilan bog‘lanadi. Masalan, unlilar talaffuzi va imlosi o‘rganilayotganda tovushlarning ma’no farqlash vazifasiga diqqat qaratiladi: *tash, tosh, tush, to‘sh, tish, tesh* yoki *bar, bor, bur, bo‘r, bir, ber; barmoq, bormoq, burmoq, bo‘r(la)moq, bir(ik)moq, bermoq* kabi. O‘quvchi topilgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari yoki gaplar tuzish orqali so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilishini isbotlaydi. Shu o‘rinda bolaga lug‘aviy ma’nosi notanish bo‘lgan so‘zlarni lug‘atdan toptirish o‘rinli bo‘ladi.

6-sinfda “So‘zshunoslik” sathini o‘qitish uslubshunoslik, lug‘atshunoslik, orfografiya, orfoepiya bo‘limlari ta’limi bilan kesishishi tabiiy hol. Ona tili ta’limining barcha tur va bosqichlarida biror bir bo‘limni boshqa sath materiallarisiz o‘qitish mumkin emas.

Demak, ona tili o‘qitishda mavzulararo, bo‘limlararo, sinflararo aloqadorlik ustuvor tamoyillardan biri hisoblanadi.

Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash tamoyili. Avvalo, bu yorug‘ dunyoni anglash uchun, jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lish uchun ham og‘zaki, ham yozma savodga ega bo‘lish zarur. Masalan, oddiy bir matnni o‘qib, anglay olmaydigan odamning ahvolini tushunish qiyin emas. Binobarin, jahon kommunikatsiya tizimidan to‘liq foydalanish zarurati ham nutqiy savodxonlikni taqozo etadi. Nutqiy savodxonlik esa til sezgirligi bilan uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib, maktabda ona tili ta’limining bosh maqsadini ro‘yobga chiqarishda o‘quvchilarda til sezgirligi tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish muhim vazifalardandir.

O‘quvchining qay darajada til sezgirligiga ega ekanligi ijodiy tafakkur mahsuli sifatida muayyan nutqiy jarayonda yuzaga chiqadi.Zero, “Til kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasigina bo‘lib qolmay, dunyoni bilish, idrok etish, bilimlarni to‘plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, milliy o‘zlik, milliy tafakkurni shakllantirish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish vositasi hamdir.” (N.Mahmudov)

Til sezgirligi sezgining boshqa turlaridan, masalan, ko‘rish, eshitish, hid bilish, maza (ta’m) sezish, teri sezgilari, harakat sezgilari, tana muvozanati sezgilari va organik sezgilardan tubdan farqlanadi. Sababki, yuqorida sanab o‘tganlarimiz sezgining oddiy turlari bo‘lsa, til sezgirligi inson sezgisining ko‘rish, eshitish, hukm chiqarish, idrok etish hamda tafakkur tezligi bilan bog‘liq murakkab ko‘rinishidir. Tafakkur tezligi qo‘yilgan savolga va muammoga to‘liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog‘lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog‘liq

bo‘ladi. Bundan tashqari, tafakkurning tezligi boshqa shartlarga: insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud malaka va ko‘nikmalariga ham bog‘liq ekanligi isbotlangan. Demak, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma’lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash ko‘proq mustaqil so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi bilan ishlash, til materiallarini kuzatish yoki o‘zaro qiyoslash asosida o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, mustaqil ravishda umumlashmalar hosil qilish kabi amallardan ko‘proq foydalanishni taqozo etadi.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash uchun quyidagi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin:

1) 5-6-sinflarda: **“Kimning nutqi ravon?”** ruknida eng yaxshi talaffuz uchun sinflar va yaqin maktablar o‘rtasida tanlovlar o‘tkazish. Tanlov shartiga ko‘ra tanish va notanish matndan ifodali o‘qish mashg‘ulotlari tashkil etiladi. Bunday mashg‘ulotlar 5-6-sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan bir daqiqada 90-100 yoki 100-110 so‘z tezligida o‘qish kabi DTSning minimal talabini bajarishning tajribada sinalgan omillaridan biri hisoblanadi.

2) 5-, 6-, 7-sinflarda: “**Savodxonlik siri nimada?”** ruknida **“Unlilar bahsi”, “Undoshlar bahsi”, “Qo‘shimchalar bahsi”** kabi mavzularda bellashuv o‘tkazish. Bellashuv didaktik tamoyilga muvofiq oddiydan murakkabga qarab boradi va bellashuv sharti asosida 5-, 6-, 7-sinf o‘quvchilarining imlo savodxonligi aniqlanadi.

Masalan, **“Unlilar bahsi”**da–

a-o: *xurma-xurmo, ado-oda, azon-ozon, bar-bor, dona-dono, kampaniya-kompaniya, angar-angor* kabi paronim so‘zlar o‘quvchilar hukmiga havola etiladi va ularni qatnashtirib (fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida) 10-12 (5-sinf), 12-14 (6-sinf), 14-16 (7-sinf) gapdan iborat bo‘lgan matn tuzish topshirig‘i beriladi. Bunda, albatta, o‘quvchilarning ijodiy fikrni yozma bayon etish mahorati DTSning minimal talabi asosida tekshiriladi va h.

3) 8-, 9-, 10-, 11-sinflarda: **“She’rxonlar bellashuvi”, “Mohir maqolchilar bahsi”, “So‘zlar harf miqdoriga ko‘ra”** kabi o‘yin-topshiriqlardan foydalanish.

“She’rxonlar bellashuvi”da muayyan mavzular (masalan, *vatan, ona, tabiat, do‘stlik* va h.) tanlanadi va shular haqidagi she’rlar asosida aytishuv tashkil etiladi. Bu orqali o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlari ham tekshiriladi.

“Mohir maqolchilar bahsi”da ham muayyan mavzular (masalan, *do‘stlik, odob, ilm, suv* kabilar) tanlanadi va birinchi guruh vakili aytgan maqolga mantiqan mos maqol bilan ikkinchi guruh ishtirokchisi javob qaytaradi. Chunonchi, birinchi guruh vakili aytadi: *Do‘stingga qo‘shiq ayt, mehringni qo‘shib ayt*. Ikkinchi guruh ishtirokchisi javob qaytaradi: *Uzma do‘stlik torini bog‘lash qiyin* kabi.

“So‘zlar harf miqdoriga ko‘ra”o‘yin-bahsida guruhlar muayyan mavzu doirasida yoki erkin **“Uch harfli”, “To‘rt harfli”, “Besh harfli”** miqdorida so‘zlarning uyalarini hosil qiladilar. Chunonchi, **“Uch harfli”** so‘zlar uyasi: *dor, dar, dil, dol, do‘l, der, dur, dam, dom, dim, dum* va h.

“So‘zlar harf miqdoriga ko‘ra” o‘yin-bahsini 5-6-sinflarda o‘tkazish ham mumkin. Bunda o‘quvchining til sezgirligini oshirish, sinash imkoniyatlari kengayadi. Masalan, **“Uch harfli”** so‘zlar uyasini hosil qilishda topilgan so‘zlar doskaga shunday joylashtirilishi zarurki, ularning birinchi harflarini yuqoridan pastga qaratib o‘qiganda ham yoki pastdan yuqoriga qaratib o‘qiganda ham birinchi so‘z hosil bo‘laversin.

non	***nok***	***nar***	***noz***	***naq***	***nos***
ota	***ona***	***opa***	***ost***	***ort***	***ola***
nav	***nay***	***nom***	***nam***	***nil***	***nor***

Bu topshiriqni **“Besh harfli”** so‘zlar uyasini hosil qilishda ham bajarish mumkin. Masalan,

bodom	***butun***	***buzoq***	***budun***	***bahor***	***bo‘g‘ma***	***bosma***
ovoza	***onali***	***ozg‘in***	***ohorli***	***ozuqa***	***osuda***	***ovsar***
davra	***dadil***	***darg‘a***	***devon***	***do‘kon***	***davon***	***dasta***
olg‘ir	***oftob***	***ombur***	***ombor***	***oltin***	***ortiq***	***olmos***
mavzu	***madad***	***mayna***	***muqim***	***masal***	***misol***	***muhim***

Bu kabi o‘yin-topshiriqlar o‘quvchiga nima beradi? E’tibor beraylik, **“So‘zlar harf miqdoriga ko‘ra”** o‘yin-bahsini bajarish davomida keltirilganlarning birinchisida 18ta, ikkinchisida 35ta, jami 53ta so‘zning ma’nosi, talaffuzi va imlosi ustida ishlanmoqda. Asosiysi, grammatik o‘yin vositasida o‘quvchining til sezgirligini oshirish imkoniyat yaratilmoqda. Agar keltirganlarimizni sinfdagi kichik bir guruhchaning bajargan ishi deb hisoblasak, aytaylik, sinfdagi 25-30 o‘quvchi 5 yoki 6ta kichik guruhga bo‘lingan bo‘lsa va har bir guruhchada topshiriqni bajarish davomida o‘rtacha 50tadan so‘z topilsa, bu miqdor 250-300 so‘zni tashkil etadi.

Tabiiyki, bu o‘quvchida, birinchidan, so‘zga va undan foydalanishga zaruratni yuzaga keltiradi; ikkinchidan, bolaning so‘z zahirasini boyitadi. “Lug‘atlarimiz so‘zdan to‘lib toshgan; o‘quvchi bisotida so‘z yo‘q. Ijodiy fikr mahsulotini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri ravon ifodalash uchun o‘quvchiga so‘z kerak”[137] degan muammoning oldi olinishida samarali xizmat qiladi.

Ona tili o‘qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta’sirini hisobga olish tamoyili. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etganligini kuzatamiz va bu jarayon toki til yashar ekan, uzluksiz davom etaveradi. Bilamizki, qayerda yashashidan qat’i nazar, o‘zbek millatiga mansub o‘z ona tilida so‘zlovchilar tomonidan ishlatiladigan til **milliy (umumxalq) o‘zbek tili** hisoblanadi. Milliy tilimizning asosini o‘zbek adabiy tili tashkil etsa, sheva birliklari adabiy tilning xomashyo bazasi. Demak, milliy ona tilimizga xos sheva birliklari milliy boyligimizning xomashyo shaklidagi ko‘rinishlaridandir.

Professor Y.D.Polivanov XX asrning birinchi choragida yaratgan ilmiy ishlarida o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishini e’tirof etadi. Professor V.V.Reshetov esa o‘zbek tili dialektal xaritasining rang-barangligi uning etnogenezisi bilan bog‘liqligi haqida yozadiki, bu qadimda turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi bilan bog‘liq.

[137] Ғуломов А. Қ. Ўқувчига сўз керак// “Бухоро муаллими” газетаси.– 2000 йил, 15 декабрь. №23.

Manbalarga ko‘ra, o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz urug‘lari, qangli, qatag‘on urug‘ va qabilalari turli territoriyada mustaqil yashaganliklari ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, unga turkiy va eroniy tillarning kuchli ta’siri ham bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o‘zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o‘zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg‘izistondagi o‘zbek shevalariga qirg‘iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o‘zbek shevalariga tojik tilining ta’siri kuchli. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o‘ziga xoslikni vujudga keltirmoqda.[138] “O‘zbek dialetologiyasi” fanidan bizga ma’lum bo‘lganidek, o‘zbek shevalari yirik uchta lahja(qipchoq, o‘g‘iz, qarluq)ni qamrab olgan. (Shu o‘rinda har bir lahja orasiga ba’zan qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmasligini ham ta’kidlash lozim.)

Maktab ostonasiga qadam qo‘ygan turli sheva vakillari bo‘lgan oila farzandlari hamma vaqt ham bir-birlarini to‘liq tushunavermaydilar. Ona tili o‘qituvchisi, eng avvalo, o‘quvchilarga o‘zbek tilida gaplashuvchilarning barchasi o‘zaro bir-birlarini teran anglashlari uchun paydo bo‘lgan zarurat – o‘zbek adabiy tilini puxta o‘rganishni taqozo etishini singdirishi lozim.

O‘qituvchi har bir ona tili mashg‘ulotida o‘quvchilarga mahalliy sheva sharoiti va ta’sirining oldini olishni nazardan qochirmasligi muhim. Ona tili mashg‘ulotida o‘quvchilar nutqiga xos dialektal xatolarning tipik ko‘rinishlari quyidagilar:

1) asosan, shahar (Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Qarshi) shevalarini o‘z ichiga olgan **qarluq lahjasi** vakillari nutqida:

a) fonetik holatlar: so‘z oxiridagi *k* undoshini *y* tarzida aytish: *g‘ovak – g‘ovay, choynak – choynay, ko‘hlik–ko‘hliy, yaktak–yaktay* (Toshkentda)*;*

so‘z oxiridagi *q* undoshini *g‘* tarzida aytish: *oyoq –oyog‘, yumaloq–yumalog‘, ayriliq–ayrilig‘, cho‘loq–cho‘log‘, buloq–bulog‘, quroq–qurog‘*(Toshkentda)*;*

[138] Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. –Toshkent: O‘qituvchi,1996.

so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, ba’zan so‘z oxirida ham *a* unlisini *o* tarzida aytish: *aka–oka, avom–ovom, nahor–nohor, bahor–bohor, Akram–Akrom; yanga–yango, juda–judo* (Toshkent, Buxoroda)*;*

b) morfologik holatlar: qaratqich kelishigi qo‘shimchasi *(-ning*) o‘rnida tushum kelishigi qo‘shimchasi*(-ni*)ni ishlatish: *ukamni(ng) daftari, gulni(ng) yaprog‘i, yaxshilikni(ng) qaytishi* (Toshkentda)*;*

o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi *(-da*) o‘rnida jo‘nlish kelishigi qo‘shimchasi*(-ga*)ni qo‘llash: *Kalit akamda–Kalit akamga, Menda kitob bor–Menga kitob bor* (Buxoroda)*;*

hozirgi zamon qo‘shimchasi *(-yap, -moqda*) o‘rnida *-votti* (Toshkentda)*; -utti* (Namanganda)*; -opti* (Buxoroda, Samarqandda) shakllarini qo‘llash: *kelyapti (kevotti, kelutti, kelopti), kulmoqda (kulvotti, kulutti, kulopti)*;

d) leksik holatlar: *kuylak–kuynay* (Toshkentda); *mushuk–pishak, chumoli–mo‘rcha, do‘ppi–kalapo‘sh, buzoq–go‘sola* (Buxoroda); *chumoli–chumalik, juda–jicha* (Farg‘onada).

2) asosan, qishloq (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati va b.) shevalarini o‘z ichiga olgan **qipchoq lahjasi** vakillari nutqida:

a) fonetik holatlar: so‘z oxiridagi *k, q* undoshlarini talaffuzda tushirib qoldirish*: tuzu(k), chuchu(k), zulu(k), keri(k); ispara(k); quri(q), sari(q), yiri(q), qisi(q), sassi(q), siqi(q);*

so‘z boshida *y* undoshi o‘rnida, ba’zan so‘z o‘rtasida *ch* undoshi o‘rnida *j* tovushini ishlatish: *yanga–jenga, yomg‘ir–jomir, yemak–jemak, quchoq–qujoq, uchinmoq–ujinmoq*;

so‘z oxirida, ba’zan so‘z o‘rtasida *q, g‘* undoshlari o‘rnida *v* tovushini ishlatish: *sog‘–sov, tog‘–tov, bog‘liq–bovliq, og‘di–ovdi, yostiq–yostuv, og‘riq–og‘ruv, sanchiq–sanchuv*;

ikki *a* unlisi o‘rtasida kelgan *h* undoshini talaffuzda tushirib qoldirish: *shahar–shaar, chorraha–chorraa, dahan–daan;*

b) morfologik holatlar: hozirgi zamon *-yotir* shaklini *-jatir, -votir* tarzida qo‘llash: *o‘qiyotir–o‘qijatir, yozayotir–jazvotir*;

d) leksik holatlar: *chumoli–mo‘jak, u yoqqa–aqa, bu yoqqa–baqa, sochiqcha–moyliq, xolavachcha (ammavachcha, amakivachcha, tog‘avachcha)–bo‘la, pochcha – yezna, qaynsingil–boldiz, merov–ang, echki–gechchi, yalpiz–pidana, hulva, shippakcha–shiltiqcha* va b.

3) Janubiy Xorazm (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo‘shko‘pir, Shovot tumanlari), Buxoro(Qorako‘l, Olot tumanlari)dagi bir qancha shevalarni o‘z ichiga olgan **o‘g‘uz lahjasi** vakillari nutqida:

a) fonetik holatlar: so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, ba’zan so‘z oxirida ham *o* unlisini *a* tarzida aytish: *omon–amon, omonat–amonat, oyoq–ayaq, olaqarg‘a–alaqarg‘a, yozmoq–yazmaq, holva–halva, mirzo–mirza, mojaro–mojara, g‘avg‘o–g‘avg‘a;*

so‘z boshidagi *t* undoshini *d* tarzida, *k* undoshini *g* shaklida aytish: *tomoq–damaq, tovush–davush, tamom–damam, tandir–dandir, kovush–gavush, kepak–gepak, kel–gal, kesak–gasak*;

b) morfologik holatlar: qaratqich kelishigi qo‘shimchasi *(-ning*) o‘rnida *-ing* shaklini, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *(-ga*) o‘rnida *-a* shaklini ishlatish: *ukamning ishi–ukaming ishi, gulning bargi– guling bargi, otamning o‘gitlari–ataming o‘giti; Bolamga o‘xshaydi ovozing sening– Balama o‘xshaydi avazing saning;*

d) leksik holatlar: *chumoli–qarinchqa, narvon–zangi, qalampir–aji, buzoq–o‘jak, qayliq–kadi, ayron xalta–irkit* va b.

Ko‘plik shakli qo‘shimchasi *-lar* shaklini *-la* tarzida ishlatish, mavhum ot yasovchi *-lik* qo‘shimchasini egalik ma’nosini beruvchi sifat yasovchi *-li* affiksi bilan aralashtirish holatlari barcha sheva vakillariga tegishli bo‘lgan tipik xatolardandir.

O‘zbek adabiy tilining me’yorlari bilan xalq shevalari o‘rtasidagi bunday farqlar ona tili o‘qituvchisidan mahalliy dialekt sharoiti va ta’sirining oldini olish yuzasidan doimiy ish olib borishni talab qiladi. Yuqorida sanab o‘tilganlarni

hisobga olgan holda ona tili mashg‘ulotlarini rejalashtirish, o‘tkazish va bunda o‘quvchilar nutqidagi sheva birliklari o‘rniga adabiy til me’yorlariga moslarini singdirib borish ona tili o‘qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta’sirini hisobga olish tamoyili asosini tashkil etadi.

Ona tili o‘qitishda bolalarni milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash tamoyili. Ommaviy madaniyat dunyo ma’naviyatiga xavf solayotgan bir davrda vatanga e’tiqodli farzandlarni tarbiyalash, voyaga yetkazish mamlakatimiz taraqqiyotida yuzaga kelayotgan ehtiyoj hamda yurtimiz ziyolilari oldida turgan asosiy vazifa va burchdir. Shunday ekan, bu hayotiy vazifani ado etishda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ta’sirchanligini oshirish va buning o‘ziga xos yo‘llari, omillari, usullarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “yurtiga, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni avaylab asrash va yana takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etmog‘i kerak”.[139]

Har qanday qadriyat ham inson ongi va faoliyatining mahsuli. To‘g‘rirog‘i, har qanday qadriyat ajdodlar tomonidan yaratiladi, ular yaratgan qadriyatlar boshqa avlodlar tomonidan o‘zlashtiriladi, kishilarning ongi va shuuriga singib, amaliy faoliyatiga qudrat beradi, katta ijtimoiy kuchga aylanadi. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o‘sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o‘z ifodasini topadi. Zamonlar o‘tishi bilan qadriyatlarning mazmuni ham o‘zgarib boradi. Demak, qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda aniq tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur.

Qadriyatlar deyilganda faqat o‘tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir

[139]Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999.

ko‘rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmuyi tushuniladi.

Qadriyatlar qadr-qimmat degan ma’noni bildiradi. Qadriyatlar – 1) moddiy qadriyatlar (tabiiy qadriyatlar: yer, suv, havo… hamda inson qo‘li bilan yaratilgan moddiy qadriyatlar) hamda 2) ma’naviy qadriyatlar (odob-axloqqa oid qadriyatlar; ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlar)ga bo‘linadi.

Milliy qadriyatlar har bir kishining tili, dini, tarixi, adabiyoti, san’ati, rasm-rusmlari, urf-odatlari, bayram-u sayillari, boshqacha aytganda madaniy-ma’naviy merosi, insoniy fazilatlari, xislatlarining yig‘indisi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar o‘sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni, milliy-madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

Ona tili darslarida o‘quvchilarda vatanga e’tiqod asoslarini tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyos. Ayniqsa, vatanga e’tiqodli – To‘maris, Shiroq, Spitamen, Amir Temur, Imom Buxoriy, Moturudiy, Bobur, A.Navoiy, M.Ulug‘bek, P.Mahmud, J.Manguberdi, Fitrat, Cho‘lpon, F.Xo‘jayev singari ko‘plab ajdodlarimizning hayot yo‘llari, jasoratlari, vatan ravnaqi yo‘lidagi ishlarini namuna qilib ko‘rsatish bu boradagi ishlarning eng samarali yo‘li.

Jumladan, o‘rta umumta’lim maktablarining 7-sinfida ona tili mashg‘ulotlarini o‘tish uchun 102 soat vaqt ajratiladi. Bunda ham o‘quvchilar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish usullari nihoyatda xilma-xil. Masalan,

7-sinf o‘quvchilari uchun dastur[140]da ot mavzusini takrorlash bo‘yicha soatlar ajratilgan. 7-sinf o‘quvchilari darsga avvaldan tayyorlanadi. Sinf uch guruhga bo‘linib, 1-guruh o‘quvchilariga “Suv” mavzusi bilan bog‘liq aforizmlar, 2-guruhga – shu mavzu bo‘yicha gidronimlar (daryo, kanal, soy, ko‘l, buloq, anhor nomlari), 3-guruh o‘quvchilariga esa *suv* so‘zi qatnashgan frazeologizmlarni lug‘at, geografiya va biologiya darsliklari, jurnal, gazeta yoki boshqa manbalardan topib, yozib kelish topshirig‘i beriladi.

[140]Умумий ўрта таълимнинг янгиланган давлат таълим стандарти ва ўқув дастури // Тил ва адабиёт таълими.– 2018. – № 3

Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilar nutqlarida “Suv” mavzusi bilan bog‘liq so‘zlarni to‘g‘ri yozish, nutqlarini bu mavzu bo‘yicha so‘zlar bilan boyitish, fikr yurita olish, fikrni matn tarzida ifodalay olishlari zarurligini uqtiradi. Dars uchala guruh o‘rtasida vazifalarni to‘g‘ri va to‘liq bajarilishi bo‘yicha musobaqa tarzida o‘tkaziladi. Bunda har bir guruhdan 5tadan vakil chiqib o‘zlariga berilgan vazifa yuzasidan to‘plab kelgan materiallarni xattaxtaning o‘zi uchun ajratilgan uchdan bir qismiga galma-gal yoza boshlaydi.

Shu paytda guruhning boshqa a’zolari o‘z guruhi vakillariga xatosini tuzatishda yordam berish huquqiga ega. So‘zlar (gidronimlar)ni yozishda doskaga ikki guruh vakillarining biri–daryolar, ikkinchisi–kanallar, uchinchisi–ko‘l, to‘rtinchisi–buloq, beshinchisi–anhor yoki soy nomlarini yozadi. Doskaga 10tadan misol yozilib, qolgan misollar guruh a’zolari tomonidan og‘zaki aytiladi va so‘zlarning yozilishi bo‘yicha izoh beriladi. Avvaliga o‘quvchi uchun “oddiygina suv” mavzusi ham qiziqarli, boy, ham o‘ziga xos murakkabligi bor mavzuga aylanadi. Misollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1.Suv haqidagi aforizmlar:

Suv - oltindan aziz.	*Suv bergan – savob, o‘t bergan – kabob.*
Suv-zar, suvchi-zargar.	*Ekin ekmoq oson, suv keltirmoq qayin.*
Suv keldi – nur keldi.	*Quduqqa tupurma, qaytib icharing bor.*
Suv – yorug‘lik.	*Suv ichadigan qudug‘ingga tupurma.*
Suvni qum tagidan qidir.	*Suv onasi – buloq, so‘z onasi – quloq.*
Tashnaning tushiga suv kirar.	*Suv ichayotganga ilon ham tegmas.*
Suvsiz yerga qush qo‘nmas.	*Suv ichsang, quduq qaziganni unutma.*
Suvsiz yer – jonsiz jasad.	*Suv qadrini quduq qazigan biladi.*
Tomchi suvda tol ko‘karar.	*Suv keltirgan – mard, suv keltirmagan – nomard.*
Suvni ko‘rmay, etik yechma.	*Suv keltirar mard kishi, ekin ekar har kishi.*
Suvga – ariq, yo‘lga – choriq.	*Qum bor joyda suv bor, suv bor joyda jon bor.*
Suv yil bo‘yi oqar, olamga gul taqar.	*Suvsiz yer– mozor, suvli yer –gulzor.*
Suv tilasang, Sulaymondan tila.	*Suvsiz yerda tol bo‘lmas, qovoqarida bol.*
Suvning qatrasi – oftobning zarrasi.	*Suv taralar tuproqqa, oro berar yaproqqa.*
Suvni ich, chashmani bulg‘ama.	*Ariqdan suv uzilmasa, savatdan non*

	arimas.
Oy suluvi – nur, soy suluvi–suv.	*El hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan.*

2.Suv bilan bog‘liq bo‘lgan gidronimlar:

1	***daryo nomlari***	*Amudaryo, Sirdaryo, Oqdaryo, Chirchiq daryosi, Piskom daryosi, Zarafshon daryosi, To‘polondaryo, Norin daryosi*
2	***suv omborlari***	*Kattaqo‘rg‘on suv ombori, Chimqo‘rg‘on suv ombori, Pachkamar suv ombori, Taxiatosh suv ombori*
3	***kanal nomlari***	*Katta Farg‘ona kanali, Janubiy Mirzacho‘l kanali, Amu-Buxoro kanali, Amu-Zang kanali, Ulug‘nor kanali, Log‘on kanali, Qilichboy kanali, Darg‘om kanali, Pay kanali*
4	***soy nomlari***	*Oqtepasoy, Ko‘ksaroysoy, Ohaklisoy, Oqsoy, Qizilsoy, Kosonsoy, Shodasoy, Isfayramsoy, Quruqsoy, Yakkaarchasoy, Sho‘ralisoy, Jarsoy*
5	***ko‘l nomlari***	*Dengizko‘l, To‘dako‘l, Chuqurko‘l, Kattako‘l, Moxonko‘l, Shaytonko‘l, Aqchako‘l, Jarmishko‘l, Chuqurko‘l, Devonko‘l, Sarichungulko‘l, Uzunko‘l, Otajon ko‘li, Sho‘rko‘l*
6	***buloq nomlari***	*Arashonbuloq, Beshbuloq, Oqbuloq, Oydinbuloq, Sho‘rbuloq, Qaynarbuloq, Qo‘shbuloq, Mingbuloq, Moybuloq, Sherbuloq*

3. Suv haqidagi frazeologizmlar:

sirkasi suv ko‘tarmaydigan	*suvga tushsa quruq chiqadigan*
suv bo‘lib oqmoq	*o‘zini o‘tga (ham), suvga (ham) urmoq*
ancha suvlar oqdi	*suvga urib ketmoq*
sirtiga suv yuqtirmaydigan	*qo‘lini sovuq suvga urmaydigan*
suv qilib (suvdek) ichmoq	*suvda maza bor, bunda maza yo‘q*
suv quygandek	*g‘alvirni suvdan ko‘trmoq*
tushingizni suvga ayting	*suvday bilmoq*
(vaqtini) suvga oqizmoq	*suvday serob bo‘ling*
suvga tushgan nondek	*o‘t bilan suvday*

Musobaqada eng ko‘p misol topib, bexato yozgan va topganlarini izohlagan guruh g‘olib bo‘ladi. Uyga vazifa qilib “Suv” mavzusi bo‘yicha quyidagi savollarga javob tarzida kichik insho yozib kelish topshirig‘i beriladi:

1. Suv haqida qanday tasavvurga egasiz?

2. “Suv – hayot manbayi” deganda siz nimani tushunasiz?

3. Suvni ifloslantirmaslikka siz qanday hissa qo‘shasiz? Oilangizda suvni tejashga e’tibor beriladimi?

4. Nima uchun suvga bo‘lgan hurmatimiz baland?

Ona tili darslarida bunday usullarni qo‘llash o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda takomillashtirish, ularda ona tili darslariga qiziqishni oshirish imkonini beradi. Eng asosiysi, o‘quvchilarimizni milliy qadriyatimiz bo‘lgan suvni asrab avaylashga o‘rgatadi.

Bu kabi misollarni yuzlab keltirish mumkin.

Ona tili darslarida o‘quvchilar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish imkoniyatlari hamda usullari nihoyatda ko‘p va rang-barang bo‘lib, bu o‘qituvchidan kasb mahoratini talab etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ona tili o‘qtishning o‘ziga xos tamoyillari umumdidaktik tamoyillarga hamohangmi?
2. Ona tili o‘qitishda “til~me’yor~nutq mutanosibligi” tamoyilini sharhlang.
3. Ona tili o‘qitish orqali o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish tamoyili mohiyati nimadan iborat?
4. Ona tili o‘qitishda mavzulararo, bo‘limlararo, sinflararo aloqadorlik tamoyilini misollar asosida tushuntiring.
5. Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash tamoyilini izohlang.
6. Ona tili o‘qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta’sirini hisobga olish tamoyilini sharhlang.
7. Ona tili o‘qitishda bolalarni milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash tamoyili mohiyati nimada?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [6;10;10;11;20;24;32;34;35;29]

ONA TILI TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

REJA:

1.Bixevioristik yondashuv.
2.Integrativ yondashuv.
3. Kompetensiyaviy yondashuv.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Ta’lim yondashuvlari, bixevoristik yondashuv, integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv

Bilimli shaxsning miyasi ma’lum miqdordagi bilimlar bilan to‘ldirilishi zarur, ta’lim beruvchi esa shu idishni to‘ldiruvchi vazifasini o‘taydi. Ijodiy tafakkur sohibining ongini ko‘zlari yumuq buloqqa qiyoslash mumkin. Ta’lim beruvchining vazifasi buloqning ko‘zini ochishdan iborat.

T.Ziyodova

Bugungi kunda ona tili ta’limida uch xil yondashuv (bixevioristik yondashuv, integrativ yondashuv hamda kompetensiyaviy yondashuv)dan foydalanilmoqda. Mazkur yondashuvlar mohiyatan bir-birini to‘ldirib boradi va o‘qituvchi dars davomida ulardan vaziyat talab qilgan holatni inobatga olib foydalanmog‘i zarur.

Bixevioristik yondashuvning kelib chiqishi aslida *bixeviorizm* inglizcha *behaviour*, ya’ni (ma’nosi “xulq-atvor”) XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSH ingliz psixologiyasida paydo bo‘lgan oqimning nomi bilan bog‘liq.

Bu yo‘nalishning asoschilari Dj. Uotson, E.Torndayk va b. Uotson 1913-yilda nashr ettirgan “Psixologiya bixeviorist nuqtayi nazaridan” maqolasida psixologiya predmetini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatib, psixologiya ongni emas, balki xulq-atvorni o‘rganish kerakligi haqida fikr bildiradi. Shundan keyin, ya’ni 1913-yildan boshlab psixologiya fani rivojlanishida yangi davr boshlandi. Uotson psixologiyani obyektiv fanga aylantirish zarurligini aytadi va ongni o‘rganmasdan, faqat xulq-atvorni o‘rganish zarur, deb hisoblaydi.

Bixeviorizmning negizida psixologik tadqiqot predmeti sifatida psixika va ongni inkor etish yotadi. Bixevioristik ta’limot tarafdorlari xulq-atvorgina tadqiqot predmeti bo‘la oladi, psixologiyada xulq-atvor va muhitning o‘zaro nisbati qonuniyatlari tadqiq etilishi zarur deb hisoblashadi. Bixevioristlarning fikricha, odam qanday psixikaga egaligidan qat’i nazar, u qo‘zg‘atuvchilarga javob beradigan o‘ziga xos mashinadir. Ya’ni inson xulq-atvori tashqi ta’sir hamda tashqi ta’sir bilan reaksiyaga kirishuv asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Psixologiyadagi bu yo‘nalish Yevropa mamlakatlarida XX asr boshlariga kelib ta’lim sohasiga ko‘chdi va taxminan chorak asrdan ko‘proq vaqt bixevioristik yondashuvdan to‘la foydalanildi. (Yevropa mamlakatlari keyinchalik bixevioristik yondashuvdan faqat boshlang‘ich ta’limdagina qisman foydalanadigan bo‘lishdi.)

Bizda esa jadidlar qatag‘onidan keyin ta’lim tizimi to‘liq bixevioristik yondashuvga tayanadigan bo‘ldi. Bixevioristik ta’limot asosida “mashqlar qonuni” yotadi. Ona tili ta’limida uzoq yillar hukumronlik qilgan an’anaviy (retseptiv) ta’lim shu yondashuvga asoslandi. Bixevioristik yondashuv inson xulq-atvorining shakllanishi hamda rivojlanishini faqat va faqat “o‘rgatish”ga bog‘liq, deb

hisoblaydi. Bunday holatda ong, ijodiy tafakkur va inson ruhiyatining ijtimoiylik tabiati inobatga olinmaydi. (Aslida, inson va uning taraqqiyoti borasida ongni inkor etish hamisha mohiyatga birtomonlama yondashvdir.)

Demak, bixevioristik yondashuv mohiyatiga ko‘ra, ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi hamisha passiv o‘rganuvchiga aylanishi kerak va ta’lim oluvchilarning ijtimoiy holati, ruhiyati, iqtidori, tarbiyasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ularga bir xilda o‘rgatilsa, mashq qildirisa, albatta, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. O‘zbek pedagogikasi 1940-yillardan boshlab toki mustaqillik davriga qadar bixevioristik (an’anaviy, retseptiv) yondashuvdan foydalandi, ammo bu yondashuv hamisha ham kutilgan natijani beravermasligi uzoq yillik tajribalar, kuzatishlar natijasida ayon bo‘ldi.

Bixevioristik yondashuv, ko‘p hollarda, zamonaviy ta’lim namoyandalari (masalan, Lirner, Skatkin) tomonidan tanqid qilingan. Zero, “Bilimning ko‘pligi aqlni oshirmaydi,”deb yozganida Demokrit haq edi.

Bixevioristik yondashuvning natijasi jamiyatga bilimdon, ijrochi shaxsni yetishtirib beradi. Xo‘sh, bilimdon, ijrochi shaxs kim? Bilimdon ijrochi shaxs go‘yoki qo‘lida qirqta eshikni ochishga mo‘ljallangan qirq dona kaliti bor kishiga o‘xshaydi. Bu o‘z yo‘lida soz. Ammo qirq dona kalit egasi bo‘lgan bilimdon ijrochi shaxs qirq birinchi eshikka duch kelsa, ilojsiz qolishi tabiiy hol.

Bixevioristik yondashuvdan ta’limning boshlang‘ich bosqichida ko‘proq foydalaniladi. Mazkur yondashuv o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan tayyor bilimlarni singdirishni, ya’ni o‘qitishni nazarda tutadi. (Zero, bugungi ta’lim maqsadi o‘quvchini o‘qitishni emas, uning o‘qishini va uqishini ta’minlashni nazarda tutadi.)

Integrativ yondashuv. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan “ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish”ga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasining harakatlar dasturi asosida kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil qilish zarurati yuzaga keldi.

Pedagogik kadrlarning yuksak professionalizmi ko‘p jihatdan ta’lim muassasalarida shakllantirilgan salohiyat, uning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Demak, bugungi kun mutaxassisi intellektual (har taraflama) salohyatga ega bo‘lishi zarur. Bu esa ta’limda integrativ yondashuvni taqozo etadi.

Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, ona tilida kommunikativ, kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni nazarda tutadi.

Integratsiya – lotincha so‘z, “qo‘shilish”, “kengayish”, “yaxlitlik” ma’nolarini ifodalaydi. Ta’limda integrativ yondashuv deganda fanlararo va ularning ta’limlariaro aloqadorlik, yaqinlik, ya’ni yaxlitlanish jarayonlari nazarda tutiladi. Ona tili barcha fanlarni o‘rganish va o‘rgatish vositasi ekanligi shu fikrga aniqlik kiritadi. Ya’ni ona tili o‘qituvchisi har bir dars mashg‘ulotida o‘zi o‘qitayotgan fan, o‘quv predmeti maktabda o‘rgatilayotgan barcha fanlarni ta’lim oluvchiga yetkazish, singdirish vositasi, ya’ni ona tili ta’lim tili va vositasi ekanligini inobatga olmog‘i shart.

Integratsion ta’lim (ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlikni nazarda tutishi) o‘zbek pedagogikasi uchun qadimdan ma’lum; bunda, mohiyatan, haqli ravishda, olamning bir butunligi haqidagi falsafiy qarashga tayaniladi. Jahon fanida ham dars jarayonini integratsiya asosida tashkil etish ta’lim oluvchining intellektual salohyatini kengaytirishga xizmat qila olishi aksioma darajasiga ko‘tarilgan.[141] Zero, sharq jahonga qomusiy olimlarni yetkazib bergan paytlarda (garchi, ta’lim olish uchun hozirgidek o‘ta qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lmasa-da) fanlar, asosan, mantiq, falsafa tarkibida bir-biridan ajratilmagan holda o‘qitilardi. Bu an’ana sharq ta’limida sovet tuzumi davrigacha ham davom etganligini dalillovchi

[141]Ashurbayeva R. Ta’lim tizimida integrativ yondashuvdan foydalanish // BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2019, № 4 (75).

jihatlar anchagina. Chunonchi, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida shunday o‘rin bor:

Anvarning yatimlik va g‘aribligiga yo‘l qoldirmasliq uchun mulla Muhammad Rajabbek o‘g‘lining sodiq do‘stiga o‘z otalig‘ini ko‘rsatmakchi bo‘ldi.

Anvar uch haftagachaxatmi Qur’on kechlari Muhammad Rajabbek uyiga kelib turar edi.

Oxirg‘i xatmi Qur’on kechi Muhammad Rajabbek Anvardan ahvol so‘radi:

– Domlangiz salomatmi?

– Shukur.

– O‘qushingiz yaxshimi?

– Birmuncha.

– Domlaning uyida turasizmi?

– Taqsir.

– Siqilmaysizmi?

–Yo‘q.

–Ilmi hisob o‘qug‘aningiz bormi?

– Yo‘q, taqsir.

– Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?

– Bilmaslar deb o‘ylayman.

– Agar men bir domla tayin qilsam, hisob o‘qiysizmi?

–Ustozim ruxsat bersalar, albatta, o‘qiyman.

– Xo‘b… bo‘lmasa erta kechka domlangiz shu yerga kelib, menga uchrashsin.

– Xo‘b taqsir.

Ertasi kuni maxdum keldi, Muhammad Rajabbek maxdum bilan so‘zlashib, Anvarni o‘rdaxizmatigaolish fikrida bo‘lg‘anlig‘ini, buning uchun arabcha, forsiychadan yana ham chuqurroq ma’lumot olishi lozimlig‘ini va hisob o‘rganishi kerakligini aytdi. Maxdum Muhammad Rajabbekning Anvarga munchalik marhamati uchun biroz shoshib qolsa ham, lekin bu mehribonchiliq sababiga yaxshi tushunganligi jihatdan avvalo bekning yatimparvarligi, so‘ngra Anvarning zako va iste’dodini maqtadi. Anvarni odam

qilish yo‘lida chekkan o‘z mashaqqatlarini ham shikoyat yo‘sunida so‘zlab chiqg‘ach, bu kunlarda ehtimomi tom birlan Anvarga fors vaarabiydan dars berib turg‘anini vaalhol ham Anvar forsiycha tazkira va tahrirlar yozaolishini bayon qilib, nechaxil uzrlar ichida o‘zining ilmi hisobdan bahrasizligini bildirdi, ya’ni Anvarning ilmi hisob o‘rganishi uchun boshqa muallim kerak bo‘lur, dedi. Muhammad Rajabbek bu to‘g‘rig‘a o‘zi domla topmoqchi bolib maxdumga ruxsat berdi.[142]

Aslida, xat-savodi bor (turkiy, arabiy va forsiy tillar grammatikasidan xabardor) bo‘lgan Anvar (bizningcha) o‘rda kotibligida bemalol ishlab keta oladi. Biroq o‘sha davr saroy amaldori (*Muhammad Rajabbek*) bunday hisoblamaydi. Uningcha, “bo‘lajak saroy kotibi yoki mirzasi, albatta, *ilmi hisobdan ham xabardor bo‘lishi shart.*”

Darhaqiqat, fanlararo aloqadorlik, qolaversa, butun borliqni yaxlit tizim sifatida anglash va anglatish, idrok etish bilishning rad etib bo‘lmas jihatidir. Bu borada sharq allomalarining ham, g‘arb olimlarining ham fikrlari mushtarak. Tasavvuf ilmi sohibi Farididdin Attor: “Bu ro‘yi zaminda mayda narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa bir-biri bilan bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi”, deb yozgan bo‘lsa, hazrat mir Alisher Navoiy “Lison ut tayr” asarida olam butunligini tushunib yetmaganlarni “Ko‘rlar va fil” hikoyatidagi ko‘zi ojizlarga (aniqrog‘i, “idroki ojiz”larga) o‘xshatadi. Taniqli didakt olim Yan Amos Komenskiy esa: “(Borliqdagi) bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, xuddi shunday (tabiiy) holda o‘rganilishi kerak”, deb hisoblaydi.

Har qanday mamlakatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq.

Ona tili mashg‘ulotlarini ingertasiyalashgan ta’lim asosida tashkil etish quyidagi natijalarga olib keladi:

–ta’lim jarayonini bir xil qolipga tushib qolishdan saqlaydi va ta’lim oluvchilarning darsga qiziqishi pasayishining oldini oladi;

[142] Қодирий А. Меҳробдан чаён. –Тошкент: Чўлпон, 2016.–288 б.

–ta’lim beruvchilarni o‘z ustiida ishlashini taqozo etadi va ta’lim tizimida sifatli kadrlar qolishini ta’minlaydi;

– ta’lim oluvchilarning tafakkurida borliq xususida assotsiatsiyani shakllantiradi va rivojlantiradi;

– ta’lim oluvchilarda istalgan voqelikning sabab va oqibatini mantiqiy bog‘lash hamda undan to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmasini paydo qiladi;

– ta’lim oluvchilarda mustaqillikni kuchaytiradi, mantiqiy va ijodiy tafakkurni tarbiyalaydi, tizimga soladi;

–ta’lim jarayoni ishtirokchilarining innovatsion texnologiyalardan xabardor bo‘lishini ta’minlaydi;

– ta’lim oluvchilarga olamni, undagi turfaliklarni bir butun tarzda anglash va anglatish imkonini beradi.

Tabiiyki, ta’limda integratsion yondashuv soha mutaxassislaridan, fan o‘qituvchilaridan chuqur bilim va yuksak salohiyatni talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiya – inglizcha *competens* so‘zidan olingan bo‘lib, “layoqatli”, “qobiliyatli” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’limda har bir ta’lim oluvchining uquvi, layoqati va qobiliyati inobatga olinishini nazarda tutadi.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o‘ta murakkab, ko‘p qismli, ko‘pgina fanlar uchun mushtarak bo‘lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko‘ra, ham ma’no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman. Atamaning mohiyati, shuningdek, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “uquvlilik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “xocca”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda. Shunga ko‘ra ta’lim kompetensiyalarini tasdiqlangan standartda keltirilgan ta’rif bo‘yicha qabul qilamiz. DTSda belgilanganiga ko‘ra, “kompetensiya (o‘quvchining) – mavjud bilim, malaka va ko‘nikmalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati”.

Demak, ona tili mashg‘ulotlari davomida kompetensiya kommunikatsiya (muloqot) ishtirokchilari tomonidan ta’limning aniq maqsadlariga qaratilgan nutq

faoliyatini rivojlantirishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig‘indisini ifodalaydi. Ona tili *kommunikativ kompetensiya*si – o‘rganilayotgan ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning o‘zbek xalqi madaniyati, ma’naviyati, milliy qadriyatlarini dildan anglash, uni muloqot jarayonida taqdim eta olishini nazarda tutadi. Mazkur o‘quv predmetini o‘rganishning asosiy vazifalariga o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish kiradi:

Lingvistik kompetensiya ona tili imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olish uchun tilning fonetik, leksik, orfoepik, orfografik, punktuatsion me’yorlarini yetarli darajada bilish va nutq faoliyati turlari(tinglab-tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv)da qo‘llay bilishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-lingvistik kompetensiya so‘zlovchining muayyan nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya autentik nutqning milliy xususiyatlari o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy jihatlarini o‘zga mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish bilan bog‘liq.

Ijtimoiy kompetensiya ijtimoiy-lingvistik va sotsio-madaniy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. У hozirgi ko‘p madaniyatli dunyoda ta’lim oluvchilarda, avvalo, o‘z ona tilini puxta o‘rganish va shu orqali chet tillarini o‘rganish muhimligi tushunchasi, ona tilining barcha uslublarida muloqot qilish, o‘z ustida mustaqil ishlash va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida foydalanish ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolik, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashda, ona tili orqali madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish istagi va xohishida namoyon bo‘ladi.

Diskursiv kompetensiya (*diskurs* – og‘zaki yoki yozma nutq matni) matnni to‘g‘ri talqin qilish va tuzish, shuningdek, shunga mos nutqiy muloqot turini

tanlash uchun og‘zaki va yozma (stilistik hamda tarkibiy qismlarini bilib olishni nazarda tutgan) matnlar tuzish malaka va ko‘nikmalaridan iborat.

Kompensator kompetensiya ona tili muhitida nutqiy hamda ijtimoiy muloqot tajribasidagi kamchilik va nuqsonlarni ayrim verbal/noverbal vositalar yordamida to‘ldirish, kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash, sukut saqlash va h.lar orqali murakkab vaziyatlardan uddaburonlik bilan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi.

O‘quv-bilish kompetentsiyasi ta’lim oluvchining mustaqil bilim olish faoliyatida til va til orqali madaniyatlarni o‘rganishning kompetensiyalar yig‘indisi bo‘lib, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan mantiqiy, metodologik va umumta’lim vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida sanab o‘tganlarimiz umumiy tarzda pragmatik kompetensiya sanaladi.

“Ona tili bo‘yicha o‘rta umumta’lim bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar”da o‘quvchilar quyidagi kommunikativ kompetensiyalarni egallashlari lozim:

–o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;

–o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda to‘g‘ri ifodalash;

–bir ma’noni turli shakllarda bera olish ko‘nikmasini shakllantirish;

–o‘zbek tilining ichki tuzilishi va tuzilish birliklari yuzasidan o‘rta umumiy ta’limda olgan bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish;

–orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;

–ish qog‘ozlarini yurita olish ko‘nikmasini berish;

–olamni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’limda ijodkor, bunyodkor shaxs tarbiyasini nazarda tutadi. Xo‘sh, ijodkor, bunyodkor shaxs kim?

Ijodkor, bunyodkor shaxs go‘yoki qo‘lida istalgan eshikni ochishga mo‘ljallangan bir dona kaliti bor kishiga o‘xshaydi. Istalgan eshikni ochishga mo‘ljallangan bir dona kalit egasi bo‘lgan ijodkor, bunyodkor shaxs uchun qirq

birinchi eshikka duch keladimi yoki saksoninchi eshikka duch keladimi, bu uning uchun muammo tug‘dirmaydi.

Ona tili mashg‘ulotlari uchun juda muhim bir jihatni nazardan qochirmasligimiz zarur. ***O‘quvchilarga “fikrlarni emas, fikrlashni o‘rgatishimiz kerak***”. (Immanuil Kant)

Kompetensiyaviy yondashuv ta’limdagi eng samarali yondashuv bo‘lib, u o‘qituvchidan tadbirkorlikni, mahorat va zukkolikni talab etadi.

Ustoz – qalb bog‘ining bog‘boni, hayotimizni ilm-u ma’rifat nuri bilan to‘ldiruvchi inson. Niholning ko‘kka bo‘y cho‘zib, mustahkam daraxtga aylanishi uchun bog‘bon parvarishi qanchalik zarur bo‘lsa, yosh avlodning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, el-yurt koriga yaraydigan inson bo‘lib voyaga yetishida unga ta’lim-tarbiya bergan ustoz-murabbiylarning bilimi, tajribasi, mahorati, jonkuyarligi muhim ahamiyatga ega.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1.Bixevioristik yondashuv o‘zbek tili ta’limiga qachon kirib keldi?
2. Bixevioristik yondashuvning psixologiyaga qanday daxli bor?
3. Bixevioristik yondashuv namoyandalari kimlar edi?
4.Bixevioristik yondashuvdan hozirda ta’limning qaysi bosqichlarida foydalanish o‘rinli? Nega?
5. Bixevioristik yondashuvni nega Lerner, Skatkin kabi olimlar tanqid qilishgan?
6.Integrativ yondashuv mohiyatini tushuntiring.
7. Integrativ yondashuv haqida ulug‘larning qanday fikrlarini bilasiz?
8. Integrativ yondashuvdan qanday paytlarda foydalanib bo‘lmaydi?
9.Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatida qanday ta’lim turadi?
10.**“**Ijodiy tafakkur sohibining ongini ko‘zlari yumuq buloqqa qiyoslash mumkin. Ta’lim beruvchining vazifasi buloqning ko‘zini ochishdan iborat”. Fikr kimga tegishli?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [3;6;8;9;14;15;16;17;18;22;24;25]

ONA TILI TA’LIMI JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

REJA:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasi haqida.
2. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari: interfaol metod texnologiyasi.
3. Ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari.

4.Ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muammo va istiqbollari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Zamonaviy pedagogik texnologiya, interfaol metod texnologiyasi, ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammolari va istiqbollari

O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasi haqida. Pedagogik texnologiya nima? Nega bu qo‘shma so‘zga keyingi yillarda *“yangi”*, *“ilg‘or”*, “*zamonaviy*” so‘zlarini va“*-lar*” ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shib *“yangi pedagogik texnologiyalar”*, *“ilg‘or pedagogik texnologiyalar”*, *“zamonaviy pedagogik texnologiyalar”* deb atayapmiz? Bu kabi savollarga javob bermoq uchun, avvalo, “texnologiya” so‘zining mohiyatini aniqlab olish lozim. Manbalarda keltirilishicha, “texnologiya” atamasi yunoncha so‘z bo‘lib, uning tarkibi ikki so‘zning qo‘shilishidan tuzilgan. Ya’ni “**texnos**”–***san’at, mahorat***, “**logos**”– ***fan, ilm*** so‘zlaridan olingan, mantiqan “mahorat fani” yoki “mahorat ilmi” ma’nolarini ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “texnologiya” atamasi *“ishlab chiqarish prosesslari, usul va vositalari haqidagi bilimlar majmuyi”* sifatida talqin etilgan.

“Pedagogika” fanida esa “pedagogik texnologiya” atamasi “ta’lim-tarbiya qoidalari, usullari shakl va vositalari haqidagi bilimlar majmuyi” sifatida izohlanadi. Zero, pedagogika bolaga ta’lim-tarbiya berish yo‘l va usullarini o‘rgatish haqidagi fandir. Demak, pedagogik texnologiya – ta’lim-tarbiya jarayonining qoidalari, usullari, shakllari, vositalarining mukammalligini anglatuvchi bilimlar yig‘indisi yoki san’atdir. Chunki har bir o‘qituvchi o‘qitish va tarbiyalashning qoida, shakl, usul, vositalarini mukammal, san’at darajasida bilsa, shunga qarab o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil eta olsa, o‘zi ta’lim berayotgan o‘quv predmeti doirasida ko‘zlangan maqsadga erishadi.

Xullas, “zamonaviy pedagogik texnologiya” bilimli bo‘lishni, iste’dodni rag‘batlantirishni nazarda tutgan, o‘quv-tarbiya jarayonini san’at, mahorat darajasiga ko‘tarishga imkon yaratadigan, ta’lim sohasidagi barcha islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Milliy istiqlol tufayli jahonga yuz tutgan mamlakatimizda jahon andozalariga mos, raqobatbardosh yetuk mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga kuchayib borayotganligi hech birimizga sir emas. Zero, O‘zbekistonimizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Demak, har qadamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqdamiz. Vaholanki, ertangi kun mutaxassisi bugungi kun maktab partasida o‘tirgan yoshlardir. An’anaviy o‘qitish maktabiga tayangan ta’lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga qodir emas. Shuning uchun o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilar qiziqishini oshirish, o‘qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo‘llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda. (Bu jarayonning to‘xtashi mumkin ham emas.) O‘qitish sifatini oshirish obyektiv zaruratga aylanganligi tufayli an’anaviy o‘qitish usullaridan ilg‘or pedagogik texnologiyalarga o‘tish muammosining dolzarbligi ortib bormoqda.

Xalqaro tashkilot YNESKOning ta’rifiga ko‘ra, “zamonaviy pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib o‘qitish va bilish, o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli metodlaridir”. Demak, pedagogik texnologiyada belgilangan dastlabki maqsad va mazmun asosida o‘quv jarayoni rejalashtiriladi, uni amalga oshirish loyihalari ishlab chiqiladi, natija kafolatlanadi.*

Zamonaviy pedagogik texnologiya izchil va ketma-ket amaliy faoliyatga, ta’lim-tarbiya jarayoniga avvaldan rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan, ya’ni ma’lum loyihani pedagogik tizim amaliyotida qo‘llashdir. Zero, u

* Pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish g‘oyasini birinchi bo‘lib rus didakt-olimi V.P.Bespalko amalga oshirgan.

ommaviy ta’lim sharoitida davlat ta’lim standartlari talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta’lim an’anaviy shakldagi ta’limdan tubdan farqlanadi. Quyidagi jadvalda an’anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta’limning qiyosiy tavsifi kuzatamiz:

5-jadval

ta’lim jarayoni	***an’anaviy ta’lim***	***zamonaviy ta’lim***
●pedagogik munosabatlar tipi	●subyekt~obyekt	●subyekt~subyekt
●pedagogik munosabatlar tamoyili	●avtoritar	●insonparvarlik va demokratiyaga asoslangan o‘zaro hamkorlik
●darsning maqsadi	●bilim o‘zlashtirish, malaka va ko‘nikma hosil qilish, o‘quv materialini tushunish	●shaxsning qiziqishi, motivasiya berish, aqliy, ma’naviy-ahloqiy, ruhiy va jismoniy barkamolligini ta’minlash
●ta’limning harakatlantiruvchi kuchi	●tahdid qilish, buyruq, taqiqlash, jazolash, baho, boshqalarga taqqoslash, shaxsni kamsitish yoki rag‘batlantirish	●bilish quvonchi, o‘zidagi ijobiy o‘zgarishlarni his etish, o‘ziga va o‘z bilimiga ishonchning paydo bo‘lishi, o‘zini va boshqalarni hurmat qilish, o‘zaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy psixologik muhit
●darsda faoliyat usuli	●tushuntirish, takrorlash, mashq qilish, yodlash, namunaga muvofiq amaliy ish bajarish	●hamkorlikda tadqiqot o‘tkazish, muammoli suhbat, aqliy hujum, munozara, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida insonparvarlik munosabati muntazamliligini saqlash
●darsni tashkil etish	●uy vazifasini so‘rash, yangi bilimlarni o‘rganish, umumlashtirish, takrorlash, mustahkamlash, baholash	●muammoli savollarga javob topish, avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash, individual va guruhli tadqiqot, izlanishlar orqali umumiy yechimga kelish

●dars davomida	●hammaga bir xil talab qo‘yish	●har bir o‘quvchiga kompetentlik darajasiga ko‘ra (har kimning layoqatiga yarasha, qobiliyatiga qarab) talab qo‘yish
●o‘qituvchining roli	●bilim va axborot manbayi, o‘quvchi taqdiriga javobgar yakka hokim	●hamkor, do‘st, maslahatchi, muammoni hal qilishda, bilimlarni egallash usullarini o‘rgatuvchi g‘amxo‘r ustoz
●o‘qituvchining vazifasi	●bilimlarni o‘zlashtirishning eng oson shaklida bayon etish	●o‘quv va amaliy vazifalarni hal etishda o‘quvchilarning faol ishtiroki va o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish
●o‘quvchining vazifasi	●axborotni qabul qilish, yodlash, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish va tinglash, bahoni kutish	●o‘quv topshiriqlari va muammoni hal etishga oid individual, guruhli izlanishlarda ishtirok etish, doimo o‘z bilimini boyitish va mustahkamlash maqsadida muntazam va sidqidildan mehnat qilish, o‘zini, iqtidorini nomoyon etish
●ta’limning yakuniy natijasi	●DTS va dastur talablariga mos bilim, malaka va ko‘nikma-ning shakllanishiga erishish	●o‘quvchilarning aqliy, ma’naviy-ahloqiy, jismoniy, ruhiy barkamolligiga erishish, bilimlarni egallash usullari, o‘zlashtirgan bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo‘llanishga o‘rgatish, o‘z ustida mustaqil va muntazam ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy

bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra subyektiv xususiyatga ega, ya’ni har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’i nazar pedagogik texnologiyalar:

1) pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;

2) o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

3) o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;

4) o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;

5) o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

6) pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari: interfaol metod texnologiyasi. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Bunda, eng avvalo, til ta’limining maqsadi va mazmunini nazardan qochirmaslik zarur. Boshqacha qilib aytganda, asosiy diqqat-e’tibor ta’lim mazmunidan o‘quv materialini berish usuliga tamoman o‘tib ketmasligi shart. Ta’lim berish vositasi, usuli bo‘lmish axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ulkan imkoniyatlariga tamoman mahliyo bo‘lib, ularni o‘qitishning yagona qolipi, andazasi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. G‘arblik yirik mutaxassis K.Shennon ogohlantirganidek, bu sohada juda hushyor bo‘lmoq talab etiladi, chunki barcha eshiklarni bitta kalit

bilan ochib bo‘lmaydi. Ona tili ta’limida bu borada juda ham ziyraklik bilan ish tutish maqsadga muvofiq.

Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishda, asosan, interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interfaol – lotincha “inter” so‘zidan olingan bo‘lib, “orasida”, “o‘rtasida” degan ma’noni anglatadi, ya’ni ikki narsa o‘rtasidagi faollik degan ma’noni ifodalaydi. Ta’limda interfaol metod – o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasida ta’limni o‘zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demak. Mazkur metodlar hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Interfaol metod. Hozirgi kunda ilg‘or pedagogik texnologiya elementi bo‘lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Interfaol tushunchasi berilgan mavzuni o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik asosida dars samaradorligini oshirish, mustaqil fikr berish ko‘nikmasini shakllantirish, fikr-mulohaza, bahs orqali o‘rganish bilan xarakterlanadi.

Bunda har bir o‘quvchi qo‘yilgan maqsadga mustaqil o‘zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so‘zga chiqadi, dalil va asoslar orqali masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa qatnashchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi axborotni o‘zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi. O‘qituvchi faqat *fasilitator* (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Interfaol (interaktiv) metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirish yo‘lidir.

Hozirda ona tili ta’limi jarayonida tajribali o‘qituvchilar *“Fikriy hujum”, “6x6x6” (5x5x5”, 4x4x4”), “Qarorlar shajarasi”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Tajriba vositasida o‘qitish sikli”, “Qora quti”, “Bittasi ortiqcha”, “3/3” (“4/4”, “5/5”, ...), “Rasmlarni to‘g‘ri joylashtir”, “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash”, “Videotopishmoq”, ”Yumaloqlangan qor o‘yini”, “Zakovatli zukko”, “Qarama-qarshi munosabat”, “B-B-B”, “Zig-zag”, “VENN*

diagrammasi”, “Insert”, “Sayohat”, “T–sxema”, “Debat”, “SWOT – tahlil”, “Yumoloq stol”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Piramida”, ”Pinbord”, “Qanday”, “Assismentlar jadvali”, “Key-stadi”, “Portfolio”, “Panorama”, “Bumerang”, “Shoh mot” kabi yuzlab g‘arbdan kirib kelgan, ba’zilari milliy pedagogikamizda paydo bo‘lgan ta’limiy o‘yinlardan foydalanadilar.*

Quyida ta’lim amaliyotida, jumladan, milliy ona tili ta’limi mashg‘ulotlarida ilg‘or, tajribali pedagoglarimiz foydalanayotgan, o‘quvchilarning til sezgirligini oshirishda muhim bo‘lgan ta’limiy o‘yin mohiyatini yoritishga harakat qilamiz.

“So‘zlar xazinasi” o‘yin-topshirig‘i

Mazkur o‘yin-topshiriq kichik guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ta’lim oluvchini lug‘atlardan foydalanishga undaydi.

Quyida berilgan siralarga “So‘zlar xazinasi”dagilarni (topshiriqlar asosida) to‘g‘ri joylashtiring.

1. Katta……(6ta so‘z)
(belgini kuchli darajada ifodalashiga ko‘ra)
2. Kerak ……..(4ta so‘z)
(uslubiy xoslanganlik darajasiga ko‘ra)
3.Kambag‘al …….(5ta so‘z)
(bo‘yoqdorlik belgisining ortib borishiga ko‘ra)
4.Kuchli ……(3ta so‘z)
(ifoda belgisining kuchiga ko‘ra)
5.Kuchsiz……(6ta so‘z)
(belgini kuchli darajada ifodalashiga ko‘ra)
6.Kichik ……. ……(3ta so‘z)
(belgini kuchli darajada ifodalashiga ko‘ra)
7.Koyimoq ……(3ta so‘z)
(bo‘yoqdorlik belgisining kuchliligiga ko‘ra)
8.Kayfiyat ……(3ta so‘z)
(bo‘yoqdorligiga ko‘ra)
9.Kambag‘al……(8ta so‘z)
(bo‘yoqdorligiga ko‘ra)
10.Kelishgan……(7ta so‘z)
(ijobiylik belgisining bo‘yoqdorligiga ko‘ra)
11.Kesatiq ……(4ta so‘z)
(belgini kuchli darajada ifodalashiga ko‘ra)

* Ba’zi manbalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ba’zilarida zamonaviy (interfaol, innovatsion) metodlar sifatida tavsiflanayotgan ushbularni biz ***ta’limiy o‘yinlar*** deb yuritdik. Ta’limiy o‘yinlar xususida sohaga tegishli darsliklar, o‘quv adabiyotlari, metodik tavsiyalarda yetarlicha ma’lumotlar keltirilganini inobatga olib ularning har biri xususida alohida to‘xtalib o‘tirmadik.

12.Ko‘zi ilinmoq ……(5ta so‘z)
(jismoniy holatning bo‘yoqdorligiga ko‘ra)
13.Kabi ……(7ta so‘z)
(bo‘yog‘ining ortiq darajada ekanligiga ko‘ra)
14.Kasal……(6ta so‘z)
(qo‘llanish doirasining tor-kengligiga ko‘ra)
15.Kekkaygan…… (8ta so‘z)
(bo‘yoqdorlik belgisining kuchli bo‘lishiga ko‘ra)
16.Ko‘r ……(4ta so‘z)
(qo‘llanilish doirasining oz-ko‘pligiga ko‘ra)

Jami: 82ta so‘z

So‘zlar xazinasi

№	1	2	3	4	5
1	**bamisoli**	**kayf**	**lozim**	**piching**	**qashshoq**
2	**kichkina**	**buyuk**	**ojiz**	**dimog‘dor**	**ulug‘**
3	**bechora**	**nosog‘**	**mudramoq**	**mizg‘imoq**	**dong qotmoq**
4	**so‘qir**	**yanglig‘**	**uxlamoq**	**ketvorgan**	**gado**
5	**zo‘r**	**notavon**	**kinoya**	**miskin**	**ulkan**
6	**baquvvat**	**misli**	**kerilgan**	**azim**	**degandek**
7	**bechorahol**	**mitti**	**ojiz**	**lobar**	**zaif**
8	**gerdaygan**	**miskin**	**do‘q urmoq**	**kamquvvat**	**bechora**
9	**istehzo**	**shart**	**tamtam**	**nimjon**	**manman**
10	**bejirim**	**yo‘qsil**	**po‘pisa qilmoq**	**kerik**	**xasta**
11	**notob**	**betob**	**kalondimog‘**	**o‘xshash**	**avzo**
12	**singari**	**xushqomat**	**qashshoq**	**zarur**	**basir**
13	**xushbichim**	**faqir**	**zabardast**	**bemor**	**faqir**
14	**takabbur**				

Jami: 66ta so‘z

Mazkur o‘yin-topshiriq tarkibiga o‘quvchiga lug‘aviy ma’nosi ma’lum bo‘lgan (*bemor, nimjon, uxlamoq, mitti, gado, buyuk, kichkina* kabi) 85-90 foiz, leksik mohiyati notanish bo‘lgan (*kerik, basir, yo‘qsil, tamtam, takabbur, so‘qir* kabi) 10-15 foiz so‘zlar joylashtiriladiki, bu o‘quvchida lug‘at bilan ishlashga ehtiyoj tug‘diradi.*

Ona tili mashg‘ulotlarida foydalaniladigan interfaol metodlarning hozirda ikki yuzdan ortiq turi mavjud. Xullas, zamonaviy pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadiki, bu ommaviy o‘qitish sharoitida o‘quvchilarning to‘la o‘zlashtirishini ta’minlovchi samarali yo‘ldir. Zero,

* Ushbu o‘yin-topshiriqdan o‘rta umumta’lim maktablarining ona tili izchil kursi o‘qitilayotgan istalgan sinfida foydalanish mumkin.

o‘quvchilar uchun ona tili darslarida tilshunoslik asoslarini emas, tilimizning rang-barang imkoniyatlaridan foydalanishni o‘rganishlari muhim.

Ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muammo va istiqbollari. Maktabda ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, ularda so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matnlar tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matnlardagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, bir fikrni turli vositalar bilan ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirish zarur. Shuningdek, o‘quvchiga mana shu vazifalar uchun zarur bo‘lgan muhim fonetik, leksik va grammatik qoidalarnigina berish, fikrni ifodalash va anglashning turli mexanizm va usullarini, ularni turli nutq sharoitiga mos ravishda qo‘llash yo‘llarini tavsiya etish, bunga asoslangan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, voizlik mashg‘ulotlariga e’tibor ustuvor vazifa sanalib, uncha chuqurlashtirilmagan lingvistik bilimlar ana shu vazifalar “soyasi”da bo‘lmog‘i, o‘quvchining aqliy faoliyati zinhor lingvistik qoidalar va til qurilishiga doir bilimlar bilan band qilib qo‘yilmasligi shart.

Zero, ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga katta ehtiyoj seziladi va shu o‘rinda muammolar ham ko‘zga tashlanadi. Bular quyidagilar:

birinchidan, ona tilidan davlat ta’lim standartlari asosidagi o‘quv dasturida belgilangan bilimlarni to‘la egallash ko‘nikma, malakalarini hosil qilish o‘quvchi tomonidan o‘n xil uzviy ketma-ketlikdagi faoliyatni bajarish (kuzatish, izlanish-o‘ylash, alohidalikni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif qilish, aloqadorlikni aniqlash, qo‘llash)ni talab etadi. Aksariyat hollarda ona tili mashg‘ulotlarida shu o‘n turdagi faoliyatning faqat til qurilishini o‘rganishga tatbiq qilinayotganligi achinarli hol;

ikkinchidan, ona tili darsliklarida til qurilishiga doir atamalarning dars mavzusi sifatida berilishi, har bir darslikda 200dan ortiq qoida va “Bilib oling”, “Esda tuting”larning o‘zi ham ona tili darslarining tilni emas, tilshunoslik asoslarini o‘rgatishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Dars jarayonida faqat darsliklardan foydalanish esa, tabiiyki, ijodiy tafakkur sohibini emas, bilimdon shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Demak, o‘qituvchi dars jarayonida dastur-u darsliklarda berilgan mavzularga hamohang, ammo ularni takrorlamaydigan, ona tili ta’limining bosh maqsadini voqelantirishga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlari tizimidan foydalanmog‘i zarur;

uchinchidan, ona tili darslari jarayonida dastur-u darsliklarda berilgan mavzularga hamohang, ammo ularni takrorlamaydigan, ona tili ta’limining bosh maqsadini voqelantirishga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlari tizimidan foydalanish esa yetarli darajadagi “Axborot banki”ni talab etadi. Agar hozirgi dunyo elektronlashgan, kompyuterlashgan, internetlashganligini nazarda tutsak, maktablarda o‘quvchilar foydalanishi uchun ajratilgan yuzlab kompyuterlar (ko‘pchilik maktablarda, afsuski, kompyuter xonalaridan faqat informatika darslaridagina foydalanilmoqda) xotirasiga maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan qomuslar, lug‘atlar,[143] turli ma’lumotnomalar to‘la kiritilgan bo‘lishi, dars jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar, rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimida bo‘lgani kabi ana shu “Axborot banklari”dan foydalanishni taqozo etishi zarur. Masalan, 5-sinfda “Shakldosh so‘zlar” mavzusi o‘tiladi. Darslik[144]da o‘quvchi uchun deyarli ma’lum bo‘lgan (*uch, son, tut, olma, o‘t* kabi) shakldosh so‘zlar berilgan. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga dars jarayonida taqdim

[143] Bobojonov S., Islomov I. O‘zbek tili so‘zlarining darajalanish o‘quv lig‘ati. Maktab o‘quvchilari uchun. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 70 b.; Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlari o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 58 b.; Suvonova X., Turdiyeva G. O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 54 b.; To‘rayevaU., Shodmonova D. O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 56 b.; Mengliyev B. va b. O‘zbek tilining so‘z yashalish o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2008. 180 b.; Mengliyev B. va b. O‘zbek tilining iboralari o‘quv lig‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 72 b.; Hamroyeva Y. O‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarning o‘quv lig‘ati.–Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 124 b.; Mengliyev B. va b. O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 104 b.; Mengliyev B. va b. O‘zbek tili qo‘shma so‘zlarning o‘quv ligati.– Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 114 b.; Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlari o‘quv izohli lug‘ati. Maktab o‘quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun. –Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. 122 b.

[144]Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili.Umumta`lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 5-nashri. – T.: Ma`naviyat, 2019.–224 b.

etilayotgan darslikdagiga monand, ammo darslikdagi mashqlarni aynan takrorlamaydigan o‘quv topshiriqlari tarkibida o‘quvchi uchun ilgaridan ma’lum bo‘lmagan shakldoshlar (chunonchi,

shayton I [arabcha diniy so‘z; ot] – afsonalarga ko‘ra, olloh tomonidan la’natlangan maxluq, iblis;

shayton II [arabcha so‘z; ot] –sathning tekisligini o‘lchashda ishlatiladigan asbob;

shayton III [arabcha so‘z; sifat]– ustomon, sho‘xchan, quv) kiritiladi.

Xo‘sh, o‘quvchi berilganlar (**shayton I** ning ma’nosini deyarli biladi, ammo **shayton II** va **shayton III**)ning lug‘aviy ma’nosini qayerdan izlaydi? Albatta, lug‘atdan. Ammo biz yuqorida sanab o‘tgan maktab o‘quv lug‘atlari keng ommalashtirilmagan, to‘g‘rirog‘i, respublikamiz miqyosida har bir o‘quvchining qo‘liga yetib borgani yo‘q. Agar yetib borgan taqdirda ham o‘quv topshiriqlari yechimini kitobdan axtarish o‘quvchining ancha vaqtini oladi. (O‘quvchilarning til sezgirligi hamma vaqt ham biz kutgan darajada bo‘lavermasligini hisobga olsak, sinf o‘quvchilari butun boshli dars jarayonida bitta yoki ikkita o‘quv topshirig‘ini bajarishga ulguradilar, xolos.) Bu esa ona tili mashg‘ulotlari uchun belgilangan DTSlariga deyarli mos kelmaydi. Hozirgi tezkor zamonda o‘quvchi bu kabi topshiriqlarni kompyuterga maxsus dastur asosida kiritilgan o‘quv lug‘atlari (maktab o‘quv lug‘atlari internet tizimida mavjud)dan foydalanib bir necha soniyalardayoq bajara olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi zarur. Buning uchun o‘quvchi kompyuterda muayyan funksiyalarni bajarishni bilishi zarur;

to‘rtinchidan, o‘rta umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, jumladan, ona tili o‘quv predmeti o‘qituvchilari mutlaqo kompyuter texnologiyalaridan foydalanishmayapti, degan fikrdan ancha yiroqdamiz. Ular kompyuter texnologiyalaridan foydalanishyapti. Ammo qay darajada? Odatda, o‘qituvchilarimiz mavzuga oid qoidalarni, rasmli topshiriqlarni, mashqlarni, o‘quv topshiriqlari shartini slaydlarda aks ettirib, videoproektor orqali monitorga chiqarishadi. (Buni muallimlik amaliyoti davrida muntazam kuzatdik.) Bola rasm asosida matn tuzishi, mashqni bajarishi (masalan, nuqtalar o‘rnini to‘ldirishi, gap

bo‘laklarini o‘z o‘rniga qo‘yib gap tuzishi, gap tarkibidagi so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirishi va h.), o‘quv topshiriqlarida belgilangan muammoni hal etishi mumkin. Keyingi slaydlarda berilgan topshiriqlarning yechimi aks etyapti va o‘quvchi o‘z-o‘zini tekshiryapti. Xo‘sh, bu usul qanday samara beradi? An’anaviy darsliklarda, odatda, mavzu, mavzuga oid nazariy ma’lumot, mashqlar, mashqlarni bajarish namunasi berilardi. Biz yuqorida aytib o‘tganlarimiz shu darsliklarning har bir dars mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan, takomillashgan alohida ko‘rinishi emasmi? Uning qaysi jihati o‘quvchida ijodiy tafakkurni shakllantiradi va rivojlantiradi?!

Axborot asrida yashayapmiz. Bu davr bolalariga maktab o‘qituvchisi ibtido holatda dars o‘ta olmasligi har qadamda sezilyapti. Ona tili mashg‘ulotlari davomida slaydda 4-5ta rasm-u o‘quv topshirig‘ining shartini ko‘rsatish kompyuter texnologiyalaridan shunchaki shakl sifatida foydalanish, xolos. Bu ona tili ta’limi maqsadida belgilangan samarani berishi dushvor. Demak, o‘quvchi kompyuter texnologiyalaridan zarur ma’lumotni o‘zi izlab topishi, uni tahlil etishi va qo‘llay olishi zarur;

beshinchidan, Ona tili ta’limi maqsadi mazmunni, mazmun esa ta’lim usulini, ta’lim usuli ilg‘or pedagogik texnologiyani, ilg‘or pedagogik texnologiya esa axborot bankini taqozo etmoqda. (Qarang: quyidagi chizma.)

6-jadval



Demak, XXI –axborot asrida ona tili ta’limi oldida turgan **asosiy vazifa** ona tili darslarida o‘quvchilar foydalanishi uchun – ingliz, rus maktabxonlari uchun bo‘lganidek–ijodiy tafakkur aslahaxonasi– axborot banklarini tuzish va undan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yishdir.

Xullas, ona tili mashg‘ulotlarida foydalaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarning har bir qirrasi ona tili ta’limining bosh maqsadi ro‘yobiga xizmat qilishi kerak. Ona tili mashg‘ulotlarida foydalaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalar axborot banklari bo‘lishini va ulardan optimal foydalanishni taqozo etayotganligini aytib o‘tdik. Demak, o‘qituvchilarimiz kimningdir bu ishni uddalab berishini kutishlari mutlaqo to‘g‘ri emas. Har bir o‘qituvchi, ona tili ta’limi bilan aloqador har bir mutasaddi ona tilidan o‘quvchi uchun zarur axborot banklari tizimini boyitishga o‘z ulushini qo‘shmog‘i zarur. Vaholanki, ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning istiqboli ham shu zarurat bilan bog‘liq.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasini sharhlang.
2.Interfaol metod deganda nima nazarda tutiladi?
3. Interfaol metodlarning ta’limiy o‘yinlardan farqi bormi?
4.Muayyan mavzuni dastur asosida tanlang va uni “Klaster” metodida o‘tish loyihasini tuzing.
5.Muayyan mavzuni dastur asosida tanlang va uni “Bumerang” metodida o‘tish loyihasini tuzing.
6. Muayyan mavzuni dastur asosida tanlang va uni “VENN diagrammasi” metodida o‘tish loyihasini tuzing.
7. Ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muammolari nimada?
8. Ona tili mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari deganda nimalar nazarda tutiladi?
9. “Axborot banki” nima?
10. Ona tili mashg‘uloti uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanib bir soatlik dars loyihasini tuzing.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

[3;6;7;18;20;22;24;25;28;29;31;34;35]

3-BO‘LIM
ONA TILI SATHLARINI O‘QITISH METODIKASI

O‘quvchining bilim saviyasiga qo‘yiladigan talab ta’lim jarayoni oldiga qo‘yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta’limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yilgan.

Maktabda ona tilining izchil kursini o‘qitish(V-XI sinflar)da ta’lim mazmunida ko‘rsatilgan har bir vazifa, dars jarayonida ta’limi belgilangan bo‘limlar, sathlar, mavzular, mashqlar-u o‘quv topshiriqlaridan tortib o‘qituvchi~o‘quvchi munosabatigacha barcha-barchasi ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma(*mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy tafakkurli shaxsni kamol toptirish*)dan kelib chiqishi va shu davlat talabi ijrosiga bo‘ysundirilishi zarur.

“FONETIKA” BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

Reja:

1.”Fonetika” o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.
2.Nutq tovushlarini o‘qitish metodlari.
3. “Fonetika” o‘qitishning grafika, orfoepiya va orfografiya bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqligi.
4.”Fonetika” o‘qitish asosida o‘quvchilarda til sezgirligini shakllantirish usullari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Fonetika, nutq tovushlari ta’limi, fonetika va grafika, fonetika va orfoepiya, fonetika va orfografiya, fonetika ta’limida ona tili ta’limi maqsadining yuzaga chiqishi

Avvaliga biz bolalarimizga o‘rgatamiz, so‘ngra o‘zimiz ulardan o‘rganamiz. Kimki buni xohlamas ekan, o‘z davridan orqada qoladi.

Y.Raynis

”Fonetika” o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. O‘rta umumta’lim maktablari ona tili mashg‘ulotlarida ”Fonetika” bo‘limini o‘qitish

orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlay olish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish ishlari 5-sinfda amalga oshiriladi. (5-sinfda o‘quv yili davomida ”Ona tili” dasturi asosida 204 soat ona tili mashg‘uloti o‘tish rejalashtirilgan. Shundan 39 soati kirish va takrorlash, 46 soati sintaksis va punktuatsiya, 40 soati morfologiya, 46 soati fonetika, grafika, 33 soati leksikologiya o‘qitishga ajratilgan va shu orqali o‘quvchilarni ijodiy tafakkur sohiblari darajasiga yetkazish maqsadi belgilangan.)

5-sinf o‘quvchilarining ”Fonetika” bo‘limi ta’limi (46 soat+4 soat bo‘lim yuzasidan takrorlash) jarayonida o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar quyidagilar:

–to‘g‘ri talaffuz (orfoepiya) me’yorlarini o‘zlashtirish;

–grafika, imlo qoidalari (harflarning shaklidan tortib toki har bir nutqiy shakl(qo‘shimcha, bo‘g‘in, so‘z, birikmava h.)ni xatosiz yozishgacha erishish;

–nutq a’zolari va ularning faoliyati(ularning faoliyati bilan bog‘liq muammolar va nutq a’zolarini asrashning nutq madaniyati bilan uzviy bog‘liqligi va b.)ni o‘rganish;

–nutq tovushlari va harflar, harf birikmalari talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish;

–unli va undosh tovushlarni farqlash, ularning so‘z tarkibidagi o‘rni va shu o‘rni bilan bog‘liq talaffuzidagi o‘zgarishlar va shu o‘zgarishlarning (yozuvda) imloga ta’sirini amaliy o‘zlashtirish;

–jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish, ular bilan bog‘liq ravishda so‘z tarkibidayuz beradigan tovushlarning almashinishinibilish;

–ochiq va yopiq bo‘g‘inlar, ularning nutqqa ta’sirini amaliy o‘rganish;

–bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarida xatoga yo‘l qo‘ymaslikka erishish;

–nutqda so‘z urg‘usini o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashga odatlanish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga unli va undosh tovushlar, unlilar va undoshlarning grafikasi, imlosi, ularning alifboda joylashish tartibi; jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi hamda imlosi; bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish tartibi; so‘z urg‘usi kabilar bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalar singdiriladi. 5-sinf ”Fonetika” bo‘limi ta’limida esa o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflarda

o‘rganganlari izchil tarzda chuqurlashtiriladi va ularning yosh xususiyatlariga mos tarzda kengaytiriladi.

5-sinfda ”Fonetika” bo‘limi ta’limi *”Fonetika va grafika”, ”Nutq tovishi va harf”,”Talaffuz va imlo”,”Unli tovushlar va ularni ifodalovchi harflar sharhi”,”Undosh tovushlar va ularning yozilishi”,”Nutq a’zolarining tuzilishi”, ”Nutq tovushlari va harflar”,”Nutq tovushlarining hosil qilinishi yuzasidan tushuncha”,”Hozirgi o‘zbek alifbosi”,”Alifbo tartibi haqida ma’lumot”, ”Adabiy talaffuzning o‘ziga xos me’yorlari”, “Og‘zaki nutq” va “yozma nutq” tushunchalarining sharhi”, ”Talaffuz me’yorlari va imlo me’yorlari haqida. Imlo lug‘atidan foydalanish qoidalari*” kabi mavzularni qamrab oladi.

”Fonetika” – tilshunoslikda nutq tovushlarini o‘rganuvchi bo‘lim. Shuning uchun mazkur bo‘lim bilan bog‘liq soatlarni o‘tishda asosiy e’tibor nutq tovushlarining hosil bo‘lishi, yozma ifodasi, ularning ma’no farqlash xususiyati, bo‘g‘in hosil qilishi yoki urg‘u qabul qilish/qilmasligi bilan bog‘liq amaliy ishlarga qaratiladi. ”Fonetika” ta’limi o‘quvchiga grafika, orfografiya, orfoepiya me’yorlarini yahshi o‘zlashtirib olishiga; adabiy talaffuz bilan shevalar talaffuzi o‘rtasidagi farqni anglashga katta yordam beradi. Aslida, fonetika tilshunoslikning barcha bo‘limlari bilan bevosita aloqador. Jumladan,

”*Fonetika va grafika*” mavzusi ta’limida o‘quvchining boshlang‘ich sinflarda o‘rgangan nutq tovushlarining yozma ifodasi bilan bog‘liq uquvi takomillashtiriladi. ”Fonetika” ta’limida o‘quvchi uchun so‘zning tovush tomonini bilish, uning ma’nosini tushunish, nutq(og‘zaki/ yozma)da ongli qo‘llash uchun muhim. ”*Fonetika va grafika*” mavzusi ta’limida quyidagi amaliy ishlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. *Berilgan so‘zlarni o‘qing va ularni quyidagi jadvalga to‘g‘ri imlosi va talaffuziga ko‘ra joylashtiring.*

Oila-oyila, blan-bilan, traktr-traktor, odob-adab, muomala-muomila, okean-okeyan, kitop-kitob, o‘tdi-o‘tti, avtobus-aftobus...

yozuvda	***talaffuzda***
oila,...	***oyila,...***

2-topshiriq.Odob-adab *so‘zlari asosida yasalgan qanday so‘zlarni bilasiz? Sizga ular bilan bog‘liq qanday darslar o‘tilishini eslang. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.*

3-topshiriq*. Berilgan so‘zlarni o‘qing va tavush hamda harf soni bir-biriga muvofiq keladigan/kelmaydigan so‘zlarni ajratib ikki ustunda yozing.*

Insof, shijoat, mardona, barkamol, ingliz, achchiq, kumush, tong, baralla, pud, toshloq, maysazor, zanglamoq, oshqovoq, an’anaviy...

tavush va harf soni bir-biriga muvofiq so‘zlar	***tavush va harf soni bir-biriga nomuvofiq so‘zlar***
insof,...	*shijoat,...*

4-topshiriq*. Yuqorida berilgan so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing va notanish bo‘lgan so‘zlarma’nosini lug‘atdan topib o‘qing. (Bu borada sizga qaysi lug‘at yordam berishini ayting.)*

Bu kabi topshiriqlarni bajartirishda o‘qituvchi o‘quvchilarning to‘g‘ri talaffuzi, imlo savodxonligi va husnixatiga alohida e’tbor qaratadi.

”Talaffuz va imlo” mavzusini o‘rganishda asosiy e’tibor nutq tovushlarining ma’no farqlashdagi ahamiyatiga qaratiladi. Masalan,

1-topshiriq*. Berilgan matnni o‘qing. Matn tarkibidagi so‘zlarning talaffuzi va imlosiga diqqat qiling. Talaffuzi va imlosi farqlanuvchi so‘zlarni ajratib daftaringizga yozing.*

Non hurmati

Mirzo Ulug‘bek mulozimlari bilan ketayotganida yo‘l yoqasida yotgan bir burda nonni ko‘rib qolibdi va darrov otdan tushib, uni qo‘yniga solibdi. Mulozimlaridan biri:

–-Sultonim, nega bizga buyurmay, o‘zingiz otdan tushdingiz? – deb so‘raganida, u shunday javob beribdi:

–-Nonni birinchi bo‘lib men ko‘rdim. Shunday ekan, uni yerdan olishni boshqa birovga buyirish mening nonga nisbatan hurmatsizligim bo‘lar edi. Nonning ulug‘ligi oldida mening podsholigim nima bo‘libdi?

2-topshiriq. *Yuqoridagi matn tarkibida ishlatilgan* ***mulozim, sulton*** *so‘zlarining ma’nosini lug‘at yordamida toping.*

3-topshiriq. *Berilgan talaffuzi bir-biriga yaqin so‘zlardan qaysi biri qavs ichidagi birliklar bilan aloqadorligini aniqlang.*

Abzal, afzal *(egar, jabduq, uzangi, qayish, yugan);* ***adib, adip*** *(to‘n, chopon, yaktak, dasturxon, yoqa, etak);* ***bolali, bolalik*** *(farzandi bor, ota, ona);* ***amir, amr*** *(buyruq, farmon, qaror, farmoyish);* ***asir, asr*** *(davr, zamon, yuz yil);* ***alo, a’lo*** *(ustiga, tepasiga, yuqorisiga)...*

Bu kabi topshiriqlar o‘quvchining til sezgirligini oshirishga, lug‘at boyligini kengaytirishga xizmat qiladi.

”*Unli tovushlar va ularni ifodalovchi harflar sharhi*” mavzusi muhokamasida o‘quvchi o‘zbek tilida unlilar qatnashmagan so‘zning uchramasligini bilsa, ba’zan shakli yaqin so‘zlar tarkibida unlilarni almashtirish yangi ma’noli so‘zlarni hosil qilishini bilsa, ulardan amaliy foydalana olsa, mazkur mavzu ta’limi mohiyatan ko‘zlagan maqsadini ro‘yobga chiqaradi. Bunda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. *Berilgan so‘zlar tarkibidagi unlini qolgan 5ta unli o‘rtog‘i bilan almashtiring. Hosil bo‘lgan so‘z ma’nolarini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.*

Al, as, on, bar, tor, chat, chal, soz...

Topshiriq berilganda o‘quvchining ko‘z o‘ngiga 6ta unli harfni ko‘zrgazmada ildirib qo‘yish yoki doskaga yozib qo‘yish zarur. O‘quvchilar tomonidan topshiriq bajarilganda qariyib ellikka yaqin quyidagi so‘zlar topiladi:

al, ol, ul, o‘l, il, el; as, os, us, o‘s, es, is; on, an, un, o‘n, in, en; bar, bor, bur, bo‘r, bil, bel; tor, tar, tur, to‘r, tir, ter; chat, chot, chut, cho‘t, chit, chet; chal, chol, chul, cho‘l, chil, chel; soz, saz(a), suz, so‘z, siz, sez...

Agar bu so‘zlarning *ol, ul, un, en, bar, bor, bo‘r, bel, tor, tar, tur, ter, soz, suz, siz* ko‘rinishlari ikki yoki uch mazmunga ko‘ra omonimik munosabat (ya’ni har bir omonimik shakl alohida, masalan, un (ovoz), un(moq), un (bug‘doy mahsuloti) kabi) hosil qilshini inobatga olsak, topilgan so‘zlar miqdori yetmishdan

oshadi. Tabiiyki, ular orasida 5-sinf o‘quvchisi uchun lug‘aviy ma’nosi notanish bo‘lgan qator so‘zlar (masalan, *al, as, us, an, bar, bor, tar, chut, chul*[*] va h.) uchraydi. O‘qituvchi imkoniyatga qarab bu so‘zlarning ma’nosini bolaga lug‘atdan toptirishi ham yoki shu so‘zlar ishtirok etgan badiiy matn parchalarini ularga taqdim etib, lug‘aviy ma’noni izohlatishi ham mumkin. (Albatta, bu o‘qituvchi-muallimning mahorati, shijoatiga bog‘liq.)

”*Undosh tovushlar va ularning yozilishi*” mavzusi ta’limida ham o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish imkoniyatlari nihoyatda ko‘p va rang-barang. Ulardan ba’zilarini namuna siftida keltirib o‘tamiz.

1-topshiriq. *Berilgan so‘zlar tarkibidagi birinchi undoshni muqobillari bilan almashtiring. Hosil bo‘lgan so‘z ma’nolarini tushuntiring.*

Bog‘, loy, ko‘l, jo‘ra, karam, til, poda, qor, varrak, kim

Agar berilgan so‘zlarga e’tibor bersak, o‘nta so‘z ham o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lgan oddiy so‘zlar ekanligini ko‘ramiz. Shu o‘rinda o‘quvchilarga mazkur topshiriqni bajartirish uchun ularni 4-5 o‘quvchdan iborat kichik guruhlarga bo‘lish ham samara beradi. Kichik guruhlar shu 10ta so‘z boshidagi undoshni boshqa undoshlarga almashtirish natijasida qariyb 85ta yangi so‘z topishadi, berilganlar bilan qo‘shsak, ular miqdori 95ta bo‘ladi.

(Bular quyidagilar: *bog‘, dog‘, sog‘, tog‘, yog‘, zog‘, chog‘, loy, boy, hoy, joy, moy, soy, toy, voy, yoy, choy; ko‘l, bo‘l, go‘l, ho‘l, mo‘l, qo‘l, so‘l, yo‘l, g‘o‘l, cho‘l; jo‘ra, ko‘ra, qo‘ra, so‘ra, to‘ra, g‘o‘ra, sho‘ra; karam, haram, qaram, taram, g‘aram; til, bil, dil, fil, gil, hil, mil, Nil, qil, sil, xil, yil, zil; poda, boda, loda, moda, soda, xoda, zoda, shoda; qor, bor, dor, kor, lor, mor, nor, sor, tor, xor, yor, zor, g‘or; varrak, karrak, narrak, parrak, tarrak, xarrak; kim, dim, him, jim, lim, mim, nim, Rim, sim, tim, zim, shim, chim...)*

Berilgan tovushdosh so‘zlar ichida shakldoshlar (*bog‘, sog‘, yog‘, chog‘, toy, voy, choy, bo‘l, ko‘ra, to‘ra, karam, taram, til, fil, qil, hil, zil, moda, soda, qor, bor, tor, yor, parrak, xarrak, sim, tim, chim*); zid ma’nolilar (*nim-lim, bog‘-cho‘l, boy-xor, hil-g‘o‘ra, bog‘-tog‘*); uyadoshlar borligini inobatga olsak, so‘zlar

[*]Bu o‘rinda *us, chut, chul* so‘zlari tuyani boshqarishda ishlatiladigan haydash-chaqirish undovlari sirasiga kiradi.

miqdori, taxminan, 120tadan oshadi.Yuqorida ko‘rsatilgan o‘rtacha 30-35 foiz so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi o‘quvchi uchun tushunarli emas. Chunonchi, o‘quvchi ”karam–poliz ekini” ekanligini yaxshi biladi. Ammo karam so‘zining mavhum ot sifatidagi ma’nosini hamisha ham bilavermaydi. Zero,

Karam [arabcha so‘z]– *muruvvat, marhamat, himmat, saxovat, yaxshilik* kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Yoki xarrak so‘zini olaylik:

Xarrak I – qishloq sharoitida devorning balandroq (bo‘y yetmas) joylarini loysuvoq qilishda oyoq ostiga qo‘yiladigan taxta buyum.

Xarrak II – milliy sozlarimizdan rubob, tanbur, qo‘shtor kabilarning simini ko‘tarib turuvchi (yog‘ochdan yasalgan) kichik buyumcha.

2-topshiriq. *Hosil bo‘lgan so‘zlar ishtirokida o‘zingiz bilgan maqol, topishmoq, tez aytish yoki she’riy misralarni eslang.*

Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘. (Maqol)

Pak-pakana bo‘yi bor, yetti qavat to‘ni bor. (*karam*) (Topishmoq)

Daryodan oqib keladi shoda-shoda marvarid... (Qo‘shiqdan)

Qoziq ustida qor turmas. (tuxum) (Topishmoq)

Bor boricha, yo‘q holicha. (Maqol)

Intilganga tole yor. (Maqol)

3-topshiriq. *”So‘zdan so‘z yasaymiz” o‘yin-topshirig‘i asosida yangi so‘zlar hosil qiling.*

Gultojixo‘roz, yaxmalak, qo‘ni-qo‘shnichilik

Bunda o‘quvchilarga (kichik guruhlarga) ikki yoki uchta so‘z taqdim etiladi. So‘zdan so‘z chiqarish topshiriladi. Eng ko‘p so‘z hosil qila olganlar g‘olib sanaladi. O‘uvchilar birgina gultojixo‘roz so‘zining tarkibidan kamida ellikta so‘z hosil qiladilar. Masalan,

gultojixo‘roz *–gul, gil, guli, go‘r, gol, goj, ul, ur, uz, lot, lox, lor, toj, tol, tul, tug, tor, tozi, tur, to‘r, tuz, to‘l, ol, ot, or, oro, oz, jiz, jol, jo‘r, il, it, iz, xol, xoj, xor, o‘l, o‘t, o‘r, o‘z, rux, roz, rol, olu, xo‘roz, zor, zot, zol, zo‘r, toji, gultoj, tojigul, tojli...*

O‘qituvchi ayrim so‘zlarni o‘quvchilar diqqatiga havola etib, bu so‘zlardagi tovushlarning talaffuzini qiyoslash, unlilar va undoshlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning talaffuzida ishtirok etadigan nutq a’zolarini belgilashni topshirishi mumkin. Kuzatishlar asosida o‘quvchilar nutq tovushlarini hosil qilishda o‘pka, tovush paychalari, bo‘g‘iz, og‘iz bo‘shlig‘i, til, lablar, tishlar, pastki va yuqori jag‘lar, burun ishtirok etishini aniqlaydilar. Shu o‘rinda tovushlarning hosil bo‘lish o‘rinlari aks ettirilgan rasmlar yordamida yuqorida tilga olingan nutq uzvlarining qayerda joylashganligi va tovushlarning qayerda hosil bo‘layotganligi aniqlanadi.

O‘quvchilar nutq tovushlari xususida zaruriy bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantirilgach, tovushning yozuvdagi aksi – harf haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar va “Alifbo” mavzusiga o‘tiladi. Bu mavzuni o‘rganishda boshlang‘ich sinflarda egallangan bilimlar takrorlanadi; alifboni yoddan bilishning ahamiyati xususida savol-javob o‘tkaziladi va berilgan so‘zlarni alifbo tartibida tez joylashtirish bo‘yicha musobaqalar tashkil etiladi. Mazkur mavzuni o‘rganishda, ayniqsa, lug‘atlar bilan ishlashga alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi. Zero, “Imlo lug‘ati” 5-sinf o‘quvchisining tez-tez murojaat etib turadigan ta’limiy manbasi bo‘lishi lozim.

Dars mashg‘ulotini “Alifboni yoddan bilish shart(mi?)” mavzusida ijodiy matn yaratish bilan yakunlash ham foydali.

”*Nutq a’zolarining tuzilishi*” mavzusi ta’limida o‘quvchilar har bir nutq organining nutq tovushlarini hosil qilish bilan bog‘liq jihatlarini bilishi zarur. “*Nutq tovushlari nutq a’zolari orqali hosil bo‘ladi*” degan ma’lumotning o‘ziyoq o‘quvchidan “Anatomiya” yoki “Inson fiziologiyasi” o‘quv predmetlaridan xabardorlikni talab etadi. O‘quvchi, avvalo, qaysi nutq a’zosi o‘z tanasining qaysi o‘rnida joylashganligini, u nutq jarayonida qay darajada ishtirok etishi-yu, qanday vazifani bajarishini bilishi muhim. Chunki insonga nutq jarayonining qaysi o‘rinlarida, qanday sharoitda ovozi tekis chiqishi yoki bo‘g‘ilib qolishini, ba’zan ovoz xirillab tomoq qirilishi sabablarini bilish umrining oxirigacha kerak bo‘ladigan ma’lumotlardir.

Telefon ixtirochisi bo‘lgan fizik olim Bell tovush tezligi-yu, uning ko‘tarilish darajasini aniqlagan, shuning uchun tovush tezligining o‘lchov birligi uning nomi (detsibell) bilan bog‘liq. Ammo muhimi bu emas. Asosiysi, shu mashhur fizik olim tomonidan taklif etigan tovush balandligi me’yorini inson yoshligidanoq bilishi va unga amal qilishi lozim. Ya’ni–

suhbat jarayoni (me’yor)–40 db (detsibell) =madaniyatlilik belgisi;

shovqinli holat (me’yordan oshish) – 80 db (detsibell)= madaniyatlilikdan chekinish belgisi;

og‘riqli holat (me’yorning buzilishi) – 130 db (detsibell)= madaniyatsizlik belgisi.

Bil’aks, boshqalar bilan muloqot, suhbat jarayonida tomoq pardasini yirtgudek holatda qichqirib gapirish kommunikantlar(ham so‘zlovchi, ham tinglovchi)ning eshitish a’zolariga og‘riq yetkazadi va bu so‘zlovchining un paychalarini tiklanmas holatda zararlaydi yoki “o‘ldiradi”.

Demak, bola ona tili mashg‘ulotida o‘tiladigan shu birgina mavzuni chuqur o‘zlashtirishi uchun ona tili~anatomiya~fiziologiya~fizika~ axloqshunoslikdan xabardor bo‘lmog‘i talab etilar ekan. Fanlararo aloqadorlik zanjiri shu o‘rinda to‘xtab qolmaydi.

Istalgan nutq tovushi axborot yetkazish uchun mo‘ljallangan. Xo‘sh, nutq tovushlari bajarishi lozim bo‘lgan vazifani yana nima “eplashi” mumkin. Albatta, telefon, internet, telegram, istagram va h. Demak, yuqoridagi fanlararo bog‘liqlik zanjiriga “Informatika” o‘quv predmeti ham qo‘shiladi. Vaholanki, bu zanjirni yana davom ettirish mumkin.

Maktabda o‘quvchi ayni “yoshlikda olgan bilimini toshga o‘yilgan nash kabi” bezashga fiziologik, psixologik, pedagogik jihatdan tayyor bo‘lgan davrda ularga singdirilayotgan har bir bilim-malaka-ko‘nikmani fanlararo bog‘lash, o‘quv predmetlari mohiyatini ijtimoiy hayotning yoki tabiatni, uning bir bo‘lagi bo‘lgan inson zotini o‘rganishning turli qirralari deb tushuntirish kelajak avlod ongida olamni bir butun holatda “hazm qilinishi”ni ta’minlaydi. Shuningdek, maktabda

o‘qitiladigan o‘quv predmetlarini bir-biriga yaqinlashtiradi, ularning bir-birini to‘ldirishiga keng yo‘l ochadi.

”Talaffuz me’yorlari va imlo me’yorlari haqida” mavzusi ta’limida quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanish o‘rinli:

1-topshiriq. *To‘g‘ri talaffuzi berilgan so‘zlarni imlo qoidalariga asosan yozing.*

Shamba, Istambul, toqqa, maktap, go‘sh, milyon, gram, burin, urush(moq), tovla(moq), istirob, yombosh, yomma-yon, reyting, masxaravoz, darvozavon.

Demak, shu o‘rinda o‘quvchilar talaffuz me’yorlari hamisha ham imlo me’yorlariga mos kelavermasligini yana bir bor esga oladilar va ularning daftarlarida talaffuz me’yorlariga mos so‘zlar imlo me’yorlariga ko‘ra quyidagicha yozadilar:

Shanba, Istanbul, tog‘ga, maktab, go‘sht, million, gramm, burun, urish(moq), tobla(moq), iztirob, yonbosh, yonma-yon, reyting, masxaraboz, darvozabon.

2-topshiriq. *Berilgan so‘zlar tarkibidagi qaysi tovushlar talaffuz va imloda moslashmadi.*

Sha<u>m</u>ba, Ista<u>m</u>bul, to<u>qq</u>a, maktap, go‘sh-, mil<u>y</u>on, gram-, bur<u>i</u>n, ur<u>u</u>sh(moq), to<u>v</u>la(moq), i<u>s</u>tirob, yo<u>m</u>bosh, yo<u>m</u>ma-yon, reyti<u>ng</u>, masxara<u>v</u>oz, darvoza<u>v</u>on.

3-topshiriq. *Berilgan so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.*

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi yozuvda keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chirilishi o‘quvchiga boshlang‘ich sinf ta’limidanoq ma’lum. Biroq o‘quvchilarga ”Bo‘g‘in ko‘chirilishi” mavzusi ta’limida singdirilishi muhim bo‘lgan jihatlar bor:

–tarkibida tutuq belgisi ishlatilgan so‘zlar bo‘g‘in ko‘chirilganda mazkur belgi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: *ma’-na-vi-yat, mash’-al, me’-mor, ne’-mat* kabi;

–so‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular alohida oldingi satrda qoldirilmaydi yoki bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *a-badiy* emas, *aba-diy, e-shikdan* emas, *eshik-dan; mudofa-a* emas, *mudo-faa, matba-a* emas, *mat-baa* kabi;

–o‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida, odatda, unlidan keyin ikki undosh kelsa, har ikkala undosh ham keyingi bo‘g‘inga ko‘chadi, mabodo, uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi. Masalan, *lek-si-ko-gra-fi-ya, tipo-gra-fiya, mono-grafiya, ste-no-gram-ma, exo-grafiya; te-le-sent-trik, elek-tron, ma-gis-trant, silin-drik* va b.;

–ba’zan o‘z qatlamga tegishli yasama so‘zlar tarkibida ham uch undosh yonma-yon kelishi mumkin. Bunday hollarda ikki undosh oldingi bo‘g‘in tarkibida qoladi: *baxt-li, rahm-dil, ali-ment-chi, dot-sent-lik…*

–o‘zbek tilida bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi **(sh, ch, ng)**mavjud, ular birgalikda ko‘chiriladi: *qa-mish-li, ya-ra-shish, pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, qo-choq, pi-choq, bal-chiq, si-ngil, de-ngiz, ta-nga, teng-dosh, bo-ri-ngiz-lar* kabi.

1-topshiriq. *Lug‘at diktant tarkibidan bo‘g‘in soni birdan ortiq bo‘lsa-da, bo‘g‘in ko‘chirilmaydigan so‘zlarni ajratib yozing.*

O‘qituvchi tomonidan o‘rtacha 20-25 so‘zdan iborat lug‘at diktant o‘qib beriladi. O‘quvchi ular orasidan topshiriq shartiga mos so‘zlarni tanlab, ajratib daftariga yozishi zarur. Lug‘at diktant quyidagi so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin:

Tabiat, akajon, onasiga, mudofaa, egalik, samimiyat, ichida, sabzavot, jizza, amaki, xomaki, akademik, ko‘klam, ulama, uxlamoq, ola, sababiyat, oliyjanob, burj, aziz, ovozdor, uvada, egik, ozoda, urug‘

2-topshiriq. *Lug‘at diktant tarkibidan daftaringizga ajratib yozilgan so‘zlardan qatnashtirib kichik bog‘lanishli matn tuzishga harakat qiling va tuzgan matningizga sarlavha toping.*

Ko‘klam

Ko‘klamda tabiat yashnaydi. Oliyjanob bobodehqon yerga sabzavot urug‘larini qadaydi. Gullar ochiladi. Bolalar aziz onasiga gul taqdim etishga oshiqishadi.

Aslida, o‘uvchiga tarqoq so‘zlardan bog‘lanishli matn tuzdirish orqali ularning so‘z ma’nosini tushunish darajasi, bir-biriga mazmunan ko‘pam yaqin

bo‘lmagan so‘zlarni bir ma’no ipiga tizib, kichik matn yarata olish qobiliyati sinovdan o‘tkaziladi.

3-topshiriq. *Lug‘at diktant tarkibidagi har bir so‘zning muqobili(ma’nodoshi)ni toping.*

Tabiat, borliq, atrof-muhit.....

Bu kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar o‘quvchilarni qiziqtiradi, asosiysi, ularning so‘z zahirasiga yangi-yangi so‘zlarni qo‘shadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1.“Fonetika” bo‘limi ta’limi orqali o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish mumkinmi?
2.Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3.Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limining mazmuni nimalardan iborat?
4. Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limi uchun belgilangan mavzularga, sizningcha, yana nimalarni qo‘shimcha qilish zarur?
5. Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limida o‘quvchilar so‘z boyligi ustida ishlash imkoniyatlari nimalarda ko‘rinadi?
6.Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limida integrativ yondashuv zarurmi? Nega?
7. Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limida o‘quvchiga nima uchun anatomiyadan xabardorlik zarur?
8. Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limida o‘quvchiga nima uchun fizikadan xabardorlik zarur?
9.Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limida o‘quvchiga nima uchun informatikadan xabardorlik zarur?
10.Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limida yana qanday ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin?
11. “Fonetika” o‘qitishning grafika bo‘limi bilan uzviy bog‘liqligini dalillang.
12. “Fonetika” o‘qitishning orfoepiya bo‘limi bilan uzviy bog‘liqligi qachon ko‘proq seziladi?
13. “Fonetika” o‘qitishning orfografiya bilan bog‘liqligini misollar asosida tushuntiring.
14.”Fonetika” o‘qitish asosida o‘quvchilarda til sezgirligini shakllantirish usullariga misollar keltiring.
15. Ona tili ta’limi jarayonida topshiriq va mashq farqlanadimi?
16.Maktabda “Fonetika” bo‘limi ta’limi uchun o‘qituvchi qanday nazariy bilimlarga ega bo‘lishi zarur?

17.Til imkoniyatlaridan foydalanishni o‘rgatish va til to‘g‘risida nazariy bilimlarni o‘rgatish bir-biridan qanday farqlanadi?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1;6;11;20;22;28;32;34;35]

“LEKSIKOLOGIYA”, “FRAZEOLOGIYA”, “LEKSIKOGRAFIYA” BO‘LIMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Reja:

1.Leksikologiya o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.

2. Leksikologiya mavzulari ustida ishlash usullari.

3.Frazeologiyani o‘qitishning maqsad, vazifalari va metodlari.

4.Leksikografiya o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Lug‘at tarkibidan to‘g‘ri foydalanish omillari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

So‘z, so‘zshunoslik, so‘z ta’limi, so‘z boyligi, nutq go‘zalligi, ibora, frazeologiya, lug‘atshunoslik, lug‘atshunoslik ta’limi

So‘zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki; “nafasning joni bor…”

Mir Alisher Navoiy

Maktabda ”Leksikologiya” o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. O‘rta umumta’lim maktablari ona tili mashg‘ulotlarida ”Leksikologiya” bo‘limini maxsus o‘qitish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlay olish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish ishlari, asosan, 5-6-sinflarda amalga oshiriladi. (5-sinfda ”Ona tili” dasturi asosida so‘zshunoslik, iborashunoslik, lug‘atshunoslik ta’limi uchun 33 soat va umumiy takrorlash soatlari uchun 4 soat vaqt ajratilgan. 6-sinfda esa o‘quv yili boshida 5-sinfda o‘tilganlarni takrorlash (leksikologiya va frazeologiyaning ayrim masalalari) yuzasidan 6 soat vaqt ajratilgan. Demak, 5-6-sinflarda so‘zshunoslik, iborashunoslik, lug‘atshunoslik ta’limi uchun 33 soat va ularni mustahkamlash uchun 10 soat, jami 43 soat vaqt ajratilgan. Tabiiyki, bu soatlar ona tili ta’limining bosh maqsadi (o‘quvchilarni ijodiy tafakkur sohiblari darajasiga yetkazish) po‘yobi uchun xizmat etmog‘i shart.)

5-sinf o‘quvchilarining ”Leksikologiya” bo‘limi ta’limi (33 soat + 4 soat bo‘lim yuzasidan takrorlash) jarayonida o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar quyidagilar:

–so‘z, uning tuzilishiga ko‘ra turlari: tub, yasama, qo‘shma, juft va takror so‘zlar. Juft va takror so‘zlarning imlosi va lug‘aviy ma’nolarini o‘zlashtirish;

–so‘zning ma’nolari: bosh ma’no, uning borliqdagi narsa, belgi, xususiyat, harakatga munosabati ; ko‘chma ma’nolar, ularning hosil bo‘lish yo‘llarini o‘rganish;

–bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlash; so‘zlarning qo‘llanish doirasiga ko‘ra turlarini bilish;

–so‘zlararo shakliy va ma’noviy munosabatlarda yuzaga chiquvchi shakldosh, ma’nodosh, uyadosh, zid ma’noli so‘zlar, ulardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

–ma’no nozikligi jihatidan farqlanuvchi so‘zlar, ular orasidagi uslubiy farqlarni sezish;

–iboralarning ta’sirchanlik va obraziilik xususiyatidan foydalanishga odatlanish; so‘z va ibora ma’nodoshligini anglash;

–ishlatilish doirasi chegaralanmagan so‘zlar va chegaralangan so‘zlar (eskirgan so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, atamalar), ularning qo‘llanilish o‘rinlari va badiiy uslubdagi ahamiyatini o‘rganish;

–o‘zbek tiliga olinmalar va o‘zbek tlidan olinmalar haqida bilish; o‘zbek tilida fors-tojikcha, arabcha va b.olinmalarning ahamiyatini anglash;

–so‘zning lug‘aviy ma’nosi faqat matn tarkibida reallashishini bilish;

–matnda ayni bir so‘zni olmoshlar, ma’nodoshlar, uyadoshlar, iboralar, tasviriy ifodalar, atamalar, eskirgan so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, olinmalar bilan almashtirish yo‘llarini o‘zlashtirish;

–til lug‘at boyligi va uning o‘zgaruvchanligidan xabardor bo‘lish;

–lug‘atlar, ularning turlari, lug‘atlarda so‘zlarning joylashish tartibini bilish;

–imlo lug‘ati, izohli lug‘atlar va,umuman, lingvistik lug‘atlardan foydalanish tartibini o‘zlashtirishga erishish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga so‘z va uning ma’nolari, ibora ifodalagan ma’nolar, lug‘atlarda so‘zlarning joylashish tartibi; ma’nodoshlar, shakldoshlar, zid ma’nolilarsingari tushunchalar bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalar singdiriladi. 5-sinf ”Leksikologiya” bo‘limi ta’limida esa o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflarda o‘rganganlari izchil tarzda chuqurlashtiriladi va ularning yosh xususiyatlariga mos tarzda kengaytiriladi. (Maktab ta’limida frazeologiya, leksikografiya bo‘limlari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar so‘zshunoslik tarkibida beriladi.)

5-sinfda ”Leksikologiya” bo‘limi ta’limi *“So‘zning atash ma’nosi”, “So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi”,“Shakldosh so‘zlar”, “Paronimlar so‘zlar”, “Ma’nodosh so‘zlar”, “So‘zlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqlari”,“Zid ma’noli so‘zlar”, ”O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari”, ”Eskirgan so‘zlar”, ”Yangi so‘zlar”, ”Iboralar”, ”Tasviriy ifoda”, ”So‘z boyligining oshib borishi”, ” Atamalar”, ”Shevaga xos so‘zlar”, ” Olinma so‘zlar”, ” Olinma so‘zlar imlosi, talaffuzi”, ”Lug‘at va lug‘atshunoslik”, ”Lug‘at turlari va ulardan foydalanish”* kabi mavzularni qamrab oladi.

5-6-sinflarda ”So‘zshunoslik” bo‘limini takrorlash soatlarida, asosan, yuqorida keltirilgan mavzularga e’tibor qaratiladi.

Maktabda ”So‘zshunoslik” bo‘limini izchil kurs sifatida o‘qitish ulkan ta’limiy ahamiyatga ega. Zero, o‘quvchilar shu bo‘limda nutqning asosiy birligi bo‘lmish so‘z haqidagi ta’limot bilan tanishadilar va ularning til hamda uning nutqiy voqeligini bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o‘zlashtirishlariga imkon tug‘iladi. Aslida, leksika tilning barcha bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq, istalgan bo‘lim ta’limi so‘z va uning ma’no-mohiyati bilan bog‘lanaveradi. Demakki, o‘rta umumta’lim bosqichida so‘zshunoslik ta’limi izchillik bilan amalga oshiriladi.

Maktabda mazkur bo‘lim ta’limi o‘quvchilarni o‘zbek adabiy tilining so‘z xazinasiga olib kirishi, ularning so‘z zahirasini boyitishi va so‘zdan to‘g‘ri, o‘rinli

hamda nutq sharoitiga mos tarzda foydalanishga ko‘niktirmog‘i zarur. Shuningdek, maktabda ”Leksikologiya” bo‘limini o‘rganishda quyidagi vazifalar hal qilinishi muhimligini o‘qituvchi nazardan qochirmasligi zarur:

–o‘quvchilarda o‘z ona tillaridagi so‘zlarning shakli va lug‘aviy ma’no qirralarini tushunish ehtiyojni paydo qilish;

–o‘quvchilarda o‘z nutqlarini tilda mavjud (biz iste’moliga ehtiyojmand bo‘lgan) so‘zlar bilan muntazam boyitib borish ko‘nikmasini hosil qilish;

–o‘quvchilar nutqidagi kamiste’mol so‘zlarni seriste’mol so‘zlarga aylantirish; ularning lug‘at zahirasini yangi so‘zlar bilan boyitish;

–o‘quvchilarda amaliy-stilistik malakalarni doimiy takomillashib borishiga erishish;

–o‘quvchilarni nimani, qayerda, kimga, qanday aytish mumkinligini (ya’ni nutq sharoitni inobatga olmoqni) aqlan his etishga, fahmlashga o‘rgatish;

–o‘quvchilarni ayni bir narsa, voqea-hodisa, tushuncha, xabar bayonini oddiy, badiiy, rasmiy, ilmiy, xalqbop uslublarda bayon qilishga o‘rgatish;

–o‘quvchilarda nutq sharoitiga mos ravishda so‘z tanlash malakalarini kengaytirish (tom ma’noda, ”qopib gapirish”ga emas, ”topib gapirish”ga, so‘zdan zargarona foydalanishga o‘rgatish);

–o‘quvchilar (tish shyotkasidan, yuz sochig‘idan yoki telefondan zaruratan qanday foydalansalar, turli lug‘atlardan ham xuddi shunday foydalanishga ehtiyoj sezsinlar) lug‘atlar bilan ishlash malakalasiga ega bo‘lshlari juda zarur.

Xo‘sh, mazkur vazifalarni amalga oshrish uchun maktabda ona tili o‘quv predmeti o‘qituvchisi qanday amaliy-ta’limiy ishlar olib borishi kerak? Quyida keltiriladigan fikr-mulohazalarimiz shu savolning javobi bilan bog‘lanadi.

“So‘zning atash ma’nosi” mavzusi ta’limida quyidagi kabi nostandart topshiriqlardan foydalanish o‘rinli:

***1-topshiriq**. Berilgan so‘zlarning o‘ziga xos lug‘aviy ma’nolarini toping va ularni o‘zaro mos raqamlarda juftlang.*

So‘zlar	*So‘zlar ifodalagan lug‘aviy ma’no*	*Raqam-lar*
archa——1	**Tevarakdagi joy; hamma taraf——1**	
kamtarin–2	**U ayladi insonni judo hayvondin——2**	
harf——3	**Doim yashil rangda turuvchi buta——3**	
anjuman–4	**Bayram kuni——4**	
atrof——5	**Kibrga, manmanlikka berilmagan——5**	
aholi——6	**Makr-hiylaga usta ——6**	
so‘z ——7	**Tovushning yozuvdagi shartli belgisi–7**	
davlat——8	**Biror hodisa, tantana munosabati bilan o‘tadigan yig‘in—8**	
ayyom——9	**Biror hududda istiqomat qiluvchi odamlar——9**	
do‘mbira–10	**Boylik, mol-mulk———10**	
ayyor——11	**Qattiq xafa——11**	
dilxun——12	**Chertib chalinadigan asbob—12**	
maxluqot–13	**Suv yuzida shabadadan hosil bo‘ladigan jimir-jimir harakat——13**	
miya——14	**Tirik mavjudotlarning umumiy nomi–14**	
mavj——15	**Odamda tafakkur a’zosi——15**	

Mazkur shakldagi nostandart (o‘quvchi uchun me’yorlashmagan, odatiy topshiriqlar shaklini olmagan) topshiriqlar o‘quvchi e’tiborini tortishi, qiziqishini orttirishi tabiiy, fikrimizcha. Shuningdek, bu kabi topshiriqlar o‘quvchidan til sezgirligini ham talab etadi.

Ko‘p javobli nostandart topshiriq javobi *quyidagicha bo‘ladi:*

So‘zlar	*So‘zlar ifodalagan lug‘aviy ma’no*	*Raqam-lar*
archa——1	**Tevarakdagi joy; hamma taraf——1**	**1–3**
kamtarin–2	**U ayladi insonni judo hayvondin——2**	**2–5**
harf——3	**Doim yashil rangda turuvchi buta——3**	**3–7**
anjuman–4	**Bayram kuni——4**	**4–8**
atrof——5	**Kibrga, manmanlikka berilmagan——5**	**5–1**
aholi——6	**Makr-hiylaga usta ——6**	**6–9**
so‘z ——7	**Tovushning yozuvdagi shartli belgisi–7**	**7–2**
davlat——8	**Biror hodisa, tantana munosabati bilan o‘tadigan yig‘in—8**	**8–10**
ayyom ——9	**Biror hududda istiqomat qiluvchi odamlar——9**	**9–4**
do‘mbira–10	**Boylik, mol-mulk———10**	**10–12**

ayyor——11	**Qattiq xafa——11**	**11–6**
dilxun——12	**Chertib chalinadigan asbob—12**	**12–11**
maxluqot–13	**Suv yuzida shabadadan hosil bo‘ladigan jimir-jimir harakat——13**	**13–14**
miya——14	**Tirik mavjudotlarning umumiy nomi–14**	**14–15**
mavj——15	**Odamda tafakkur a’zosi——15**	**15–13**

“So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi” mavzusi ta’limi o‘quvchilar duch keladigan dastlabki murakkabliklardan biri. Berilgan so‘z birikmalarini (jumladan, *kumush qoshiq–kumush qish–kumush to‘y; bulutli osmon–bulutli vaziyat–bulutli kayfiyat* v.h.) o‘z va ko‘chma ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratish, ularni o‘zaro qiyoslash asosida so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolariga ta’rif berish, berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil qilish, so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llab matn yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z zahirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

1-topshiriq. *Berilganlarni o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan birliklarga ajrating.*

Yorug‘ (kun, kelajak, yuz), aqlli (bola, smartfon, pobot, fikr), shirin (tush, hayot, qovun, va’da), tikansiz (gul, gap, turmush), ravon (nutq, fikr, yo‘l), mehmon (tuyg‘u, odam, omad), g‘azalxon (bola, bulbul), og‘ir (turmush, tosh, xabar, mehnat)...

o‘z ma’nosida qo‘llanilgan	***ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan***
yorug‘ kun	*yorug‘ kelajak, yorug‘ yuz*
aqlli bola	*aqlli smartfon, aqlli pobot, aqlli fikr*
shirin qovun	*shirin tush, shirin hayot, shirin va’da*
tikansiz gul	*tikansiz gap, tikansiz turmush*
ravon yo‘l	*ravon nutq, ravon fikr*
mehmon odam	*mehmon tuyg‘u, mehmon omad*
g‘azalxon bola	*g‘azalxon bulbul*
og‘ir tosh	*og‘ir turmush, og‘ir, xabar, og‘ir mehnat*

2-topshiriq. *O‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan birliklar asosida gaplar tuzing.*

***3-topshiriq**. Berilgan matnni o‘qing va matnda qanday fikr ifodalanganligini ayting. Matn tarkibidagi ko‘chma ma’noli so‘zlarni toping.*

Til haqida

*Kimki ko‘ngilni **qattiq so‘z** bilan jarohatlar ekan, unga **achchiq til** zaharli nayzadek sanchiladi. Ko‘ngilda **til nayzasi**ning jarohati bitmas; u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas. Agar bir ko‘ngilda **til nayzasi**ning jarohati bordir, faqat **yaxshi so‘z** va **shirin til** unga malham va rohatdir. **Muloyim so‘z** – vahshiylarni ulfatga aylantiradi; **sehrgar ohang** bilan afsun o‘qib, ilonni inidan chiqaradi. Tilga ixtiyorsiz –elga e’tiborsiz. Ko‘p, **bemaza so‘zlaydigan** ezma – kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi. **Tili yomon odam – xalq ko‘ngli**ni jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan **do‘stona so‘z** aytadi; ko‘ngilga tushishi mumkin bo‘lgan yuz g‘am – uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki; “**nafasning joni** bor…”*

Mir Alisher Navoiy

Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarda so‘z ma’nolarini va ular orasidagi nozik farqlarni ajrata olish malakasini tarbiyalaydi.

“Shakldosh so‘zlar” mavzusi ta’limini boshlashdan oldin o‘quvchiga borliqdagi istalgan moddiylikning, odatda, 2 tomoni (shakli va mazmuni) bo‘lishi haqida umumiy tushuncha berih ahamiyatli. Shundan keyin o‘quvchilar so‘zlarning ham shakl va mazmun jihati borligi to‘g‘risida xulosa chiqaradilar. Mazkur mavzu ta’limi jarayonida o‘quvchilar ikki mantiqni amaliy jihatdan aniq farqlab olishlari juda muhim: 1) shaklan bir xil bir necha so‘zlarning mazmunan turlichaligi omonim(shakldosh)larni, 2) bir so‘zning turli o‘rinlarda turlicha qo‘llanilsa-da, mazmunan bir-biriga yaqinligi polisemiya(ko‘p ma’nolilik)ni yuzaga keltiradi. (O‘quvchi bu holatni tilning murakkabligi deb emas, balki til imkoniyatlarining rang-barangligi, nozikligi sifatida qabul qilmog‘i va, tabiiyki, bu borada o‘qituvchi-ustoz ularga yaqin maslahatchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi bo‘lishi lozim.) “Shakldosh so‘zlar” mavzusi ta’limida quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanish o‘rinli:

1-topshiriq. *Berilganlar tarkibidan shakli bir xil so‘zlarni ajrating. Ular ifodalagan ma’nolarni izohlang.*

1. Dutor, tanbur, ***doira***, nay kabilar milliy cholg‘u asboblarimiz sanaladi. 2.Inson har qanday sharoitda gapirganda ham odob ***doira***sidan chiqmasligi zarur. 3.Chin ko‘ngildan yig‘lasa, so‘qir ko‘zdan ***yosh*** chiqar. (Maqol) 4. Bo‘lar bola o‘n beshida bosh, bo‘lmas bola o‘ttizda ham ***yosh***. (Maqol) 5.Odatda, erkaklar ***kamar*** bog‘lashadi. 6. Bultur yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lib shu ***kamar*** paydo bo‘ldi. 7. Hechdan ko‘ra ***kech*** yaxshi. (Maqol) 8.Butun borliqqa ***kech*** kirdi. 9. Dedi: ***Kech*** bu orzu-havasdin, Dedi: ***Kech*** bu multamasdin. (A.Navoiy)

2-topshiriq.*Yuqorida berilgan* ***doira, yosh, kamar, kech*** *kabilar bitta so‘zmi yoki ularning har biri bir necha so‘zmi? Fikringizni himoya qiling.*

3-topshiriq. *Berilganlarni ma’nosiga qarab ikki ustunga ajrating. Bu ajratishni nima hisobiga amalga oshirdingiz?*

Och (och qorin, och ko‘z), och (derazani och(moq), qalbini och(moq), och (och sariq, och yashil); nor (Qatorda noring bo‘lsa, yuking yerda qolmaydi. (Maqol), nor (Ukamning chap qo‘lida nori bor); og‘iz (bolaning og‘zi, g‘orning og‘zi, butilkaning og‘zi); og‘iz (Yangi tug‘gan sigir og‘izidan taom tayyorlanadi)...

shakldosh so‘zlar	**ko‘p ma’noli so‘zlar**
och-och-och.....	*och qorin, och ko‘z...*

4-topshiriq.*Berilgan shakldosh so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning ma’nolarini izohlashga harakat qiling.*

Palak, palla, soch, sumalak, til, tur, un, uch, chang, chop, yara, yoy, barra, qo‘y.

5-topshiriq. *Shakldosh so‘zlarning ma’nosi sizga notanish bo‘lsa, ularning ma’nosini lug‘atdan aniqlang. Bu lug‘atlar quyidagilar:*

1.O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati (Maktab o‘quvchilari uchun/Tuzuvchilar: Suvonova X., Turdiyeva G.).–Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.–38 b.

2.Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати (Тузувчи: Раҳмауллаев Ш.). –Тошкент: Ўқитувчи, 1984.–216 б.

3.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. –Тошкент: ЎзМЭ, 2001-2006.

Bu kabi topshiriqlar o‘quvcini izlanishga, tafakkur qilishga chorlaydi. Asosiysi, o‘quvchida lug‘at bilan ishlash ehtiyojini paydo qiladi.

“Ma’nodosh so‘zlar” mavzusini o‘rganishda o‘quvchiga berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so‘zlarni ularning ma’nodoshi bilan almashtirish, gapdagi so‘zlarni birin-ketin ma’nodoshlari bilan almashtirib, ma’no farqlarini izohlash, berilgan ma’nodosh so‘zlarni ijobiy va salbiy bo‘yoqli so‘zlarga ajratish kabi topshiriqlar berish o‘rinli. Masalan,

***1-topshiriq**. Berilgan matnni o‘qing va mazmunini bir gap bilan ifodalang.*

AVVAL TINGLASHNI O‘RGAN

Tinglash kishidan sabr-qanoatni, chidam-bardoshni va o‘ziga xos odob-axloqni talab etadigan xislatdir. Bir kuni qadimgi yunon faylasufi Arastuning oldiga juda ham sergap yosh yigit kelib unga notiqlik san’atini o‘rgatishni iltimos qilibdi. U dabdabali so‘zlarni izhor etgandan so‘ng Arastudan o‘qish uchun qancha haq to‘lashini so‘rabdi.

– Sendan boshqalarga qaraganda ikki barobar ko‘proq haq olinadi,– qovog‘ini solib javob beribdi faylasuf.

–Nima uchun? –hayron bo‘libdi yigit.

– Chunki sen bilan ikki barobar ishlashga to‘g‘ri keladi: senga so‘zlashni o‘rgatishdan avval jim turishni o‘rgatishim lozim...

***2-topshiriq**. Berilgan matn tarkibidagi har bir so‘zni ma’nosi shu so‘zga teng keladigan boshqa shakl bilan almashtirib matnni qayta shakllantiring.*

O‘quvchilar bu kabi topshiriqlarni bajarishda kichik guruhchalarda jamoa bo‘lib ishlaganlari ma’qul. Kichik guruhchalarda ishlaganda o‘quvchilar o‘zaro fikrlashadilar, bahslashadilar, o‘rni kelganda o‘z fikrlarini hioya qilishni

o‘rganadilar. Yuqorida berilgan matn o‘quvchi tomonidan qayta “yaratiladi”. Bu, taxminan, shunday bo‘ladi:

DASTLAB ESHITISHNI BIL

Eshitish odamdan toqat-irodani, qat’iyat-matonatni hamda alohida adab-tarbiyani taqozo qiladigan jihatdir. Kunlarning birida grek donishmandi Aristotelning yoniga o‘ta gapdon navqiron kishi tashrif buyurib, o‘ziga so‘zlash mahoratidan saboq berishini o‘tinib so‘rabdi. Gapdon odam balandparvoz kalomlarni aytgandan keyin Aristoteldan saboq uchun necha pul berishi zarurligini bilmoqchi bo‘libdi.

–O‘zingdan atrofingdagilarga nisbatan ikki hissa ortiqroq mablag‘ undiriladi, –qoshlarini chimirib javob aytibdi donishmand.

–Nega ?–lol qolibdi yigit.

–Sababi, o‘zing bilan ikki hissa ko‘proq mehnat qilish zarur bo‘ladi: mahmadonaga gapirishni o‘qitishdan oldin tinglashni anglatishim zarur...

O‘quvchilar topshiriqni bajarish davomida o‘qituvchiga ba’zi so‘zlarning (masalan, Arastu, dabdabali...) muqobili xususida murojaat etishlari mumkin. Shunday paytlarda o‘qituvchi, masalan, Yevropa xalqlari *Arastu*ni *Aristotel* deb atashlarini yoki ko‘chma ma’nodagi *dabdabali* so‘zining ma’nodoshlari sifatida lug‘atlarda *balandparvoz, hashamdor, havoyi, quruq, jimjimador, bejama* kabilar berilganligi, o‘quvchi ulardan aynan shu matnga mosini tanlab olishi zarurligini bildirib turishi mumkin.

***3-topshiriq**. Berilgan matn mazmuni xususida xulosa chiqaring.*

Demak, inson har qanday sharoitda ham kerakli so‘zlarnigina aytishi, tiliga ortiqcha erk bermasligi lozim

yoki

Haqiqiy gapdonlik– kerakli hamma gapni aytish va keragidan ziyod hech narsa demaslikdir.

***4-topshiriq**. Berilgan so‘zlardan ma’nodoshlik qatorlarini hosil qiling va shu qatordagi so‘zlardan qaysi biri eng ko‘p ishlatilishini aniqlang.*

Sara, asar, avvaldan, asorat, nishon, iz, asos, asil, g‘amxo‘r, boshdan, sof, baxt, hamdard, sarxil, burundan, qadimdan, tayanch, toza, iqbol, baza, tole, dardkash, negiz, saodat, ilgaridan, poydevor, azaldan...

O‘quvchilar topshiriqni bajarish davomida quyidagi 6ta sinonimk qatorni yuzaga keltirishlari zarur:

***Asar**, asorat, nishon, iz.*

***Asil**, toza, sof, sara, sarxil.*

***Asos**, tayanch, negiz, poydevor, baza.*

***Avvaldan**, ilgaridan, burundan, qadimdan, azaldan, boshdan.*

***Baxt**, iqbol, tole, saodat.*

***Hamdard**, dardkash, g‘amxo‘r.*

***5-topshiriq.** Bosh so‘zlarni qatnashtirib gaplar yozing. Keyin shu so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirib o‘qib ko‘ring.*

Namuna: Bo‘lar bola avvaldan (*ilgaridan, burundan, qadimdan, azaldan, boshdan*) ma’lum.

Bilim baxt (*iqbol, tole, saodat*) keltirar.

***6-topshiriq.** Gaplarni o‘qing. Tagiga chizilgan so‘zlarni qavsda berilgan ma’nodoshlari bilan almashtirib o‘qing. Gap ma’nosida qanday farq sezganligingizni bildiring.*

Marvaridxon o‘qituvchisi bergan topshiriqni tez tushundi (*angladi, fahmladi, bildi, uqdi*). 2. So‘zni behuda ishlatmang! (*bekor, o‘rinsiz, noo‘rin, asossiz, bejiz*). 3. Insonning qandaylgini uning fahmi belgilaydi. (*farosat, did, tamiz, uquv, zehn, idrok*) 4.O‘zbekiston – ajoyib gulshan. (*guliston, gulzor, gulbog‘, bo‘ston, chaman, chamanzor*)

“So‘zlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqlari” mavzusi orqali o‘quvchilarga istalgan so‘zni (garchi zaruriy ma’noni bersa-da) istalgan o‘rinda bir xilda ishlatib bo‘lmasligini (bunda, albatta, nutqiy sharoit inobatga olinishi zarurligini) anglatish muhim. Masalan, *gapirmoq, so‘zlamoq, demoq, aytmoq, valdiramoq, javramoq, vaysamoq, bobillamoq* kabilar mazmunan bir-biriga yaqin birliklar bo‘lsa-da, ulardan nutqda baravar foydalanib bo‘lmaydi. Zero, ba’zi so‘zlarda so‘zning

leksik, grammatik ma’nolaridan tashqari uslubiy ma’nolar ham mavjud bo‘ladi. Chunonchi, *Bola mavzu mohiyatini so‘zlab berdi* gapida kesim o‘rnida *gapirib berdi, aytib berdi* shakllarini ishlatish mumkin, ammo *valdirab berdi, javrab berdi, vaysab berdi, bobillab berdi* deb bo‘lmaydi. Hatto shu o‘rinda *demoq* birligini ishlatish ham nutqqa putur yetkazadi.

“So‘zlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqlari” mavzusi ta’limida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. *Berilgan xalq maqollari tarkibidagi ostiga chizilgan so‘zlarni qavs ichidagilar bilan almashtirib o‘qing. Ularni nega almashtirib bo‘lmasligini tushuntiring.*

1.Charaqlagan kun yaxshi, Ociq chehra–yuz yaxshi. (aft, bet, bashara, turq, oraz, diydor, tal’at, ruxsor…)

2.Yuzsiz kishiga yuzlanma. (aft, bet, bashara, turq, oraz, diydor, tal’at, ruxsor…)

3.Tabassum–yuzga ko‘rk. (jilmayish, irshayish, iljayish, ishshayish, tirjayish...)

Tabiiyki, birinchi maqol tarkibidagi *yuz* so‘zini *aft, bet, bashara, turq* salbiy bo‘yoqli birliklar bilan almashtirib bo‘lmaydi yoki ikkinchi maqoldagi *yuz* asosini faqat *bet* muqobili bilan almashtirish o‘rinli.

“Zid ma’noli so‘zlar” mavzusi ta’limida ham xalq maqollaridan, turli mazmundagi tarbiyaviy ahamiyatli aforizmlardan foydalanish mumkin. Jumladan,

1-topshiriq. *Berilganlar tarkibidan bir-biriga zid ma’noli so‘zlarni toping. Ular ifodalagan lug‘aviy ma’noni o‘z so‘zingiz bilan izohlang.*

Adolat–daraxtni sug‘armoq, ***zulm*** esa tikanga suv quymoqdir.

Yomon kunlar ***yaxshi*** bo‘lar-u, ***yomon*** odam ***yaxshi*** bo‘lmas hech qachon. (M.Yusuf)

Shodon kunim gul otgan sen,

Chechak otgan izimga.

Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga. (M.Yusuf)

Barcha ***shodlik*** senga bo‘lsin, ***g‘am-sitam***, ***zorlik*** menga.(E.Vohidov)

2-topshiriq. *Nuqtalar o‘rniga zid ma’noli so‘zlardan mosini qo‘yib maqollarni o‘qing.*

...kelsa–ishga, ...kelsa–oshga. (qari, yosh)

Tuyadan: ”Nega bo‘yning ....” deb so‘rasalar, ”qayerim ....” degan ekan. (to‘g‘ri, egri)

Yegulikning ozi– ....., ko‘pi– ..... (dori, og‘u)

.... o‘qini .... kamoni bilan ot. (dushmanlik, do‘stlik)

.... dil–guliston, ... dil–zimiston. (ochiq, yopiq)

3-topshiriq. *Jadvalning birinchi ustunida berilgan so‘zlarning antonimini ikkinchi ustundan toping va ularni uchinchi ustunda raqamlarda juftlang.*

zid ma’nosi bor so‘zlar	**zid ma’nosi bor so‘zlar**	**raqamlar**
badbo‘y———1	**nodon** ———1	1–...
avlod———2	**uquvsiz——2**	2–...
botiq–———3	**davlatmand**—3	3–...
dono———4	**do‘st———4**	4–...
erimoq——5	**uydirma**——5	5–...
epchil——6	**huzur**———6	6–...
fahmli——7	**ajdod**——7	7–...
faqir———8	**beibo**———8	8–...
g‘anim——9	**do‘ng** ———9	9–...
go‘l———10	**sust**———10	10–...
haqiqat——11	**ayyor**———11	11–...
zahmat——12	**betamiz———12**	12–...
iboli———13	**muattar**———13	13–...
jadal——14	**muzlamoq——14**	14–...

Topshiriqda berilgan ba’zi so‘zlar, masalan, *g‘anim, muattar, betamiz, go‘l, uydirma* kabilar o‘quvchining so‘z zahirasida faol bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatlarda o‘quvchi, tabiiyki, yana lug‘atlarga murojaat etadi. (Bilishimiz zarurki, o‘rta maktab ona tili ta’limining konseptual asoslarida uning zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta’kidlanadi: darslik va lug‘atlar. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini

og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zahirasini vujudga keltiradi.)

O‘quvchilar jadvaldagi so‘zlarni quyidagicha juftlay olishlari zarur:

zid ma’nosi bor so‘zlar	**zid ma’nosi bor so‘zlar**	**raqamlar**
badbo‘y———1	**nodon** ———1	1–13
avlod———2	**uquvsiz——2**	2–7
botiq———3	**davlatmand**—3	3–9
dono———4	**do‘st———4**	4–1
erimoq——5	**uydirma**——5	5–14
epchil——6	**huzur**———6	6–2
fahmli——7	**ajdod**——7	7–12
faqir———8	**beibo**———8	8–3
g‘anim——9	**do‘ng** ———9	9–4
go‘l———10	**sust**———10	10–11
haqiqat——11	**ayyor**———11	11–5
zahmat——12	**betamiz———12**	12–6
iboli———13	**muattar**———13	13–8
jadal——14	**muzlamoq——14**	14–10

Ona tili dasturida *“Paronimlar so‘zlar”* mavzusi ham berilgan. *“Paronimlar so‘zlar”*, aslida, nazariy jihatdan so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari sirasida turmaydi. Og‘zaki nutqda talaffuzi bilib, bilmay aralashtiriladigan so‘zlar paronimlardir. Paronimlarning yuzaga kelish sabablari quyidagilar:

1.Talaffuzi yaqin tovushlarni almashtirib qo‘llash natijasida so‘z shakli boshqa lug‘aviy ma’noni beruvchi so‘z shakliga to‘g‘ri kelib qolishi (masalan, *bob-bop, bud-but, qayd-qayt, alpoz-alfoz, bedona-bedana* kabi);

2.O‘zlashma so‘zlar urg‘usini noto‘g‘ri qo‘yish (masalan, *kafel-kafil, artikl-artikul, kompaniya-kampaniya, diflyatsiya-defoliatsiya* kabi);

3.So‘zning lug‘aviy ma’nosini aniq tushunmasdan ishlatish (masalan, *abzal-afzal, angar-angor, valiy-voliy, yonilg‘i-yoqilg‘i, bal-ball* kabi);

4.Tutuq belgisining ishlatilishi bilan bog‘liq chalkashish (masalan, *alam-a’lam, bad-ba’d, davo-da’vo, zafar-za’far, matal-ma’tal, ayon-a’yon* kabi);

5. O‘zbek tilidagi **-li** hamda **-lik**, shuningdek, **-lik** hamda **-liq** bilan yasalgan so‘zlar ma’nosini farqlay olmaslik (masalan, *bolali* (sifat)–*bolalik* (ot), *bandli*

(ushlashga mo‘ljallangan qismi bor yoki dastasi bor)–*bandlik* (biror narsa yoki yumush bilan mashg‘ul), *kiyimli* (libosi bor yoki kiyim kiygan) – *kiyimlik* (libos yoki kiyim uchun mos (mato); *otali* (otasi bor) – *otalik* (ota vazifasini bajarish) – *otali*q (homiylik) kabi);

6.Talaffuzi jihatidan tilimizdagi biror so‘zga yaqin kelib qolgan o‘zlashma so‘zni aralashtirib qo‘llash (masalan, *adib (a)-adip, burj (a)- burch, yod (f)-yot, jodu (f)-jodi* kabi);

7.Talaffuzda (bir tildan) o‘zlashma (odatda, arabcha) so‘z tarkibida qator kelgan ikki undosh orasiga unli qo‘shib aytish (masalan, *adl-adil, azm-azim, amr-amir, asr-asir, asl-asil, ahl-ahil, beamr-beamir* kabi);

*(*Ba’zan bunday holat o‘z so‘zlarimiz doirasida ro‘y berishi ham (*ayrim–ayirim*), o‘zlashma va o‘z so‘zlarimiz asosida yuzaga kelishi ham (*bikr(f)–bikir*) yoki ikkita tildan olingan o‘zlashma asosida bo‘lishi ham (*dafna*(yun.) – *dafina*(a) mumkin.)

8. Talaffuzda so‘z oxiridagi tovushni tushirib qoldirish natijasida (masalan, *bast–bas, past–pas* kabi) va h.

1-topshiriq. *Berilgan paronimik juftliklarga diqqat qiling. Har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosini toping va shu asosda nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.*

Azim–azm.

Azim daryolar ham kamar bo‘lolmas,

Qo‘shilib cho‘lg‘ansa sening belingga. (H.Olimjon)

U (Yo‘lchi) endi poytaxtga kelmoqqa *azm* qilgan. (Oybek)

.....–g‘oyat katta, ulkan.

....–qat’iy qaror, jazm.

Amir–amr.

*Amir*ning oshidan faqirning mushti yaxshi. (Maqol)

Qalb *amr* etsa, aql unga bo‘ysunar. (Maqol)

.....–qadimgi xonlik, podsholik davrida lovozim nomi.

....–buyruq, farmon, farmoyish.

Bal–ball.

Bu binoda *bal* o‘tkazilishi aytildi.

”Bilimlar bellashuvida” bilimim uchun yuz *ball* qo‘yishdi.

.....–katta bazm, raqs kechasi.

....–raqam bilan ko‘rsatiladigan baho.

Ganj–ganch.

Halol topilgan non jahon *ganj*idan afzalroq. (A.Navoiy)

Maktab binosi ta’miri uchun *ganch*, sement, tuproq, ohak keltirildi.

.....–xazina, boylik.

....–suvoq uchun ishlatiladigan unsimon qurilish materiali.

O‘quvchilar bilan *borlik–borliq, bolali–bolalik, otalik–otaliq, da’vo–davo, darz–dars, dafina–dafna, yod–yot, yolqin–yorqin, jazlik–jazliq, jayron–jiyron, juda–judo, ijobiy–ijodiy, tanbur–tambur, yo‘ymoq–yoymoq, kavsh–kovsh, kampaniya–kompaniya* kabi paronimik juftliklar ustida ishlash ham ularda nutqiy sezgirlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar *”O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari”* mavzusi ta’limida til boyligimiz faqat tashqi manbalardan so‘zlarni aynan o‘zlashtirish (masalan, *kompyuter, disk, diskavod, fleshkart; lavash, xotdog, chizburger* va h.) yoki tarjima (kalka) qilish (masalan, *chipta* (bilet), *import* (kamyob), *eksport* (qimmatli), *kartochka* (tarqatma) va h.), yarim tarjima qilish (yarim kalka) (masalan, *yarimavtomat* (poleavtomat), *energomarkaz* (elektro energetika markazi) orqaligina emas, balki ichki manbalar asosida har kuni, har soatda boyib borayotganligini sezishlari, his eta olishlari, zarur o‘rinlarda bunga amin bo‘lishlari kerak. Chunonchi, ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan narsa-buyumlar, tushunchalar, voqea-hodisalar, odatda, o‘z nomi bilan keladi va, ko‘pincha, shu nom tilda o‘zlashadi: *kompyuter, disk, diskavod, fleshkart; lavash, xotdog, chizburger; kepka, shlyapa; kombinzon, shuba* va h.lar. Tilning ichki imkoniyatlari tilga o‘zlashgan yangi so‘zlardan darrov yangi so‘zlar yasashga kirishadi (odatda, tilshunoslik lug‘atlari bu birliklarni o‘z vaqtida qamrab olishga ulgurmaydi ham): *kompyuterchi, kompyutershunos, kompyuterfurush, kompyuterxona, kompyuterchilik (sohasi)* (ot);

kompyuterli (sinf), kompyuterlararo (aloqa) (sifat), *kompyuterlashtir(moq)* (fe'l), *miyasi kompyuter, kompyuter kalla* (ibora) va b.

Bu kabi misollarni o'quvchilarning o'zlari ham *paynet, paynetchi, paynetli, paynet qilmoq, paynet bo'lmoq* kabi misollar orqali davom ettira oladilar.

"Iboralar" mavzusi ta'limi o'quvchiar uchun hamisha qiziqarli va e'tibortalab mavzu bo'lib qolaveradi. Iboralar tilimizda so'zlar bilan teng baravar ishlatilaveradiki, bizlar ba'zan iborani qo'shma so'zdan yoki so'z birikmasidan farqlamaymiz. O'qituvchi o'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadini ko'zlagan darsda quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanishi mumkin:

1-topshiriq. *Ibora ifodalagan ma'no qatorini "Iboralar sandig'idan"dan mosini tanlab to'ldiring.*

lapashang, ...

bemehr, ...

aralashmoq, ...

xafa, ...

xursand, ...

tanti, ...

ziqna, ...

gapirmaslik, ...

"IBORALAR SANDIG'I"DAN			
ammamning buzog'i	burnini tiqmoq	ko'ngli xira	bag'ri tosh
fe'li keng	terisiga sig'maydi	og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi	dili xufton
boshi osmonda	diydasi qattiq	ko'nli yorishmagan	og'zi qulog'ida
qovog'i etagida	gapida turadigan	fe'li tor	qovog'i soliq
burganing ko'zini ko'rgan	mum tishlamoq	lom-mim demaslik	qishda qor bermaydigan

2-topshiriq. *Yuqoridagi iboralarni qatnashtirib (o'zingiz bilgan asar qahramonlari xarakterini tavsiflovchi) gaplar tuzing.*

Namuna: Solih Mahdum birovga <u>qishda qor bermaydigan</u> odam edi.

3-topshiriq. *”Iboralarning izohli lug‘ati”dan o‘zingizga notanish bo‘lgan 10ta iborani tanlab yozing.*

Namuna: dumi xurjunda (chala).....

4-topshiriq. *Berilgan iboralarni o‘qing. Ular mazmunan qaysi so‘zga teng kelishini aniqlang va jadval asosida zid ma’noli iboralarni juftlang.*

zid ma’nosi bor iboralar	**zid ma’nosi bor iboralar**	**raqam-lar**
do‘ppisi yarimta—1	suvga tushgan nonday—1	
tesha tegmagan—2	og‘zining tanobi qochmoq–2	
umr ko‘rmoq——3	kayfi chog‘———3	
turib olmoq——4	yeng shimarib——4	
qo‘ldan bermoq—5	peshonasi yaraqlagan——5	
qalbi pok——6	yuragi tor——6	
ta’bi tirriq——7	ko‘ngli shod——7	
yeng uchida——8	yer tishlamoq——8	
manglayi sho‘r–9	alimsoqdan qolgan——9	
ochiq qo‘l——10	nasibasi uzilmoq——10	
yuragi qon——11	yon bermoq———11	
pixini yorgan—12	tegirmondan butun chiqadigan–12	
qahri kelmoq—13	qo‘lga kiritmoq——13	
qo‘ldan qochmoq-–14	yuragi qora——14	

Topshiriq ijrosi quyidagi natijani berishi kerak:

zid ma’nosi bor iboralar	**zid ma’nosi bor iboralar**	**raqam-lar**
do‘ppisi yarimta—1	suvga tushgan nonday—1	1–12
tesha tegmagan—2	og‘zining tanobi qochmoq–2	2–9
umr ko‘rmoq——3	kayfi chog‘———3	3–10
turib olmoq——4	yeng shimarib——4	4–11
qo‘ldan bermoq—5	peshonasi yaraqlagan——5	5–13
qalbi pok——6	yuragi tor——6	6–14
ta’bi tirriq——7	ko‘ngli shod——7	7–3
yeng uchida——8	yer tishlamoq——8	8–4
manglayi sho‘r–9	alimsoqdan qolgan——9	9–5
ochiq qo‘l——10	nasibasi uzilmoq——10	10–6
yuragi qon——11	yon bermoq———11	11–7
pixini yorgan—12	tegirmondan butun chiqadigan–12	12–1
qahri kelmoq—13	qo‘lga kiritmoq——13	13–2
qo‘ldan qochmoq-–14	yuragi qora——14	14–8

O‘zbek tili frazeologik tizimidagi frazeologik birliklarning asosiy qismini fe’l frazeologik sinonimlar tashkil qiladi. Ular tildagi barcha frazeologik sinonimlarning 82 % ini tashkil etishi ma’lum. Shuni inobatga olgan holda o‘quvchiga quyidagi topshiriqlarni taqdim etish o‘rinli:

5-topshiriq. *Turli asarlardan olingan gaplarni o‘qing va gaplar tarkibidagi iboralar ifodalagan ma’noni izohlang.*

1. U tashvishini birovga **dasturxon qilib yoyadigan** toifadan emas. (T.Malik)

2.Shundoq odamni butun respublikaga **do‘mbira qilish** yaxshimas. (O‘.Hoshimov)

3. Ammo ig‘vogarlar buni “Alisherbekka behurmatlik” deb **ovoza qildilar,** ikki oraga g‘ubor soldilar. (P.Qodirov)

4.Farq shundaki, dildagi tilga uchsa, joning ketishi mumkin, joningga rahm qilingan taqdirda **abjag‘ing chiqadi.** (T.Malik)

5.Lekin Hamida to‘g‘risida Humoyunga **og‘iz ochish**ga **tili bormadi.** (P.Qodirov)

6. Rais bilan janjallashib qolgan ekan, shuni redaksiyaga yozib **doston qilib** o‘tirishi shartmidi? (O‘.Hoshimov)

7. Faqat qaynota-qaynonasi Qurbonoyni hech **iqi suymadi.** (O‘.Hoshimov)

8.Shundagina ro‘y bergan voqeaning dahshatini birdan his etdim-u, **etim seskanib ketdi.**(O‘.Hoshimov)

9. Faqat uchala xotin uning nima uchun **kayfi ketganidan** bexabar edilar. (Cho‘lpon)

10. So‘fining bu avzoyini ko‘rgandan keyin ikki qizning borqadar **umidi ham uzilib bo‘ldi.** (Cho‘lpon)

Quyida 5-sinf o‘quvchilari nutqini iboralar bilan boyitish tajribasidan (namuna) keltiramiz:

Sinf o‘quvchilarini musobaqalashish uchun (partalararo) ikki – *“Kalom”, “Ibora”* guruhlariga bo‘lamiz.

(Oldingi dars soatida o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlar bajarib kelish uchun berilgan:

“Kalom” guruhiga: ma’nosi *xafa, xursand, hovliqma, mayda, bezovta, g‘amgin, kekkayma, sho‘x, katta, ayyor* kabi sifat so‘z turkumiga xos so‘zlarga teng keladigan;

“Ibora” guruhiga: *kutmoq, xafa bo‘lmoq, g‘azablanmoq, beobro‘ qilmoq, hurmatlamoq, saylamoq, isyon qilmoq* kabi fe’l so‘z turkumiga xos so‘zlarga teng keladigan iboralar topib kelish. Shuningdek, “O‘zbek xalq maqollari” kitobidan iboralar mavjud maqollarni yod olish.)

Dars ***“Maqollar sabog‘i”*** nomli musobaqadan boshlandi. Bunda bir guruh maqolning birinchi qismini aytsa, ikkinchi guruh uning davomini topishi kerak bo‘ladi. Musobaqa quyidagicha o‘tadi:

“Kalom” guruhi: ***Bir og‘iz shirin so‘z***, ilonni inidan chiqarar,

“Ibora” guruhi: ***Bir og‘iz achchiq so‘z***, pichoqni qinidan chiqarar.

“Kalom” guruhi: *Bitta so‘zdan qolsangiz,* ***olam guliston,***

“Ibora” guruhi: Talashishdan tolmasangiz, ***olam zimiston***.

“Kalom” guruhi: *Ko‘rib turmoq –* ***mehr qo‘ymoq,***

“Ibora” guruhi: *Ko‘rmay qo‘ymoq –* ***ko‘ngil uzmoq***.

“Kalom” guruhi: ***Shirin so‘z*** *– jon ozig‘i,*

“Ibora” guruhi: ***Yomon so‘z*** *– bosh qozig‘i.*

“Kalom” guruhi: *Ayoli bor uy –* ***chinni chiroq,***

“Ibora” guruhi: *Ayoli yo‘q uy –* ***mehrdan yiroq***.

“Kalom” guruhi: *Usta ishga* ***qo‘l ursa****, bitar,*

“Ibora” guruhi: *Noshud ishga qo‘l cho‘zsa, tartib yitar.*

“Kalom” guruhi: *Avval o‘zingga boq,*

“Ibora” guruhi: *Keyin* ***nog‘ora qoq.***

“Kalom” guruhi: *Bo‘riga rahm qilsang,*

“Ibora” guruhi: *qo‘yning* ***sho‘ri quriydi.***

Maqollardan o‘quvchilar yon-atrofdagilarga nisbatan oq ko‘ngil, pok niyatli bo‘lish zarurligi, har bir ishni o‘z vaqtida bajarish lozimligi haqida xulosa chiqaradilar. O‘qituvchi, albatta, shu o‘rinda maqollar ifodalagan mazmunga to‘xtaladi.

Keyingi musobaqa ***“Suratlar tilga kirsin”*** o‘yini tarzida o‘tkaziladi. Bunda guruhlarga *til, yurak, yer, peshona* tasvirlangan rasmli kartochkalar tarqatiladi.

O‘yin shartiga ko‘ra, 3-4 daqiqa ichida har bir guruh berilgan rasmlar asosida iboralar topishlari va ularni guruh a’zolaridan biri o‘qib berishi kerak bo‘ladi. Bu vazifani guruhlar quyidagicha bajarishadi:

“Kalom” guruhi: Til–dil kaliti

***til* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**	***til* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**
til biriktirmoq	***kelishmoq***	*tilga olmoq*	***aytmoq***
tili bormadi	***aytolmadi***	*tili boradi*	***aytadi***
tilga kelmoq, tilga kirmoq, tili chiqmoq	***gapirmoq***	*til degan bir qarich, tili bir quloch, tili uzun*	***maqtanchoq***
tilga tushmoq	***tanilmoq***	*tili qisiq*	**muttaham**
tilini tishlamoq	***afsuslanmoq***	*til tekizmoq*	***(u haqida) gapirmoq***
tilini qisiq qilmoq	***gapirtirmaslik***	*tiliga erk bermoq*	***(bemalol) gapirmoq***
tilini qismoq	***gapirmaslik***	*tilidan zahar tommoq*	***(achchiq) gapirmoq***
tili qichimoq	***aytgisi kelmoq***	*tilidan bol tommoq*	***(shirin) so‘zlamoq***
tilini qichitmoq	***aytishga (ruhan) majburlamoq***	*tilini chiqarmoq*	***gapirishga majbur etmoq***
tilini tortmoq	***(gapini) to‘xtatmoq***	*tilini bilmoq*	***tushunmoq***

O‘quvchilar mazkur sirani *tilidan tutilmoq* (yolg‘onchiligi yoki g‘iybatchiligi) bilinmoq), *tilini kesib o‘ziga yedirmoq* (gapirtirmaslik), *tilini qaychi qilmoq* (gapirtirmaslik) kabilar bilan davom ettirishlari ham mumkin.

“Ibora” guruhi: Yurak yonmog‘i kerak

***yurak* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**	***yurak* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**
yuragi achishmoq	***kuyinmoq***	*yuragi yorilmoq*	***qo‘rqmoq***
yuragi betlamoq, yuragi dov bermoq	***kirishmoq***	*yuragiga g‘ulg‘ula solmoq*	***xavotirlantirmoq***

yuragi betlamaslik, yuragi dov bermaslik	***kirisha olmaslik***	*yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq*	***xavotirlanmoq***
yuragi bo‘shamoq, yuragini bo‘shatmoq	***(ruhan) engillashmoq***	*yuragiga tegmoq*	***ranjimoq***
yuragiga vahima solmoq	***qo‘rqitmoq***	*yuragiga tegmoq*	***zerikmoq***
yuragiga qil sig‘maslik	***hech narsa yoqmaslik***	*yuragini ko‘tarmoq*	***ruhlantirmoq***
yuragiga o‘tirmaslik	***yoqtirmaslik***	*yuragida kiri yo‘q*	***sofdil***
yuragiga sig‘ish	***(nima bilandir) shug‘ullanish***	*yuragi qora*	***yomon niyatli***
yuragiga tugmoq	***mo‘ljallamoq***	*yuragi toza, yuragi sof*	***yaxshi niyatli***
yuragiga qo‘l solmoq	***bilmoqchi bo‘lmoq***	*yuragi daryo*	***kengfe’lli***
yuragi yorilmoq	***qo‘rqmoq***	*yuragini hovuchlab*	***qo‘rqib***
yuragini siqmoq (ezmoq,xun qilmoq, g‘ash qilmoq)	***zeriktirmoq***	*yuragi po‘killamoq*	***hadiksiramoq***
yuragi siqilmoq	***zerikmoq***		

Shuningdek, bu sirani *yuragi orqaga tortmoq, yuragi tosh, yuragi xira, yuragi toshmoq, yuragi shig‘ etmoq, yuragi shuv etmoq, yuragi o‘ynamoq, yuragini o‘ynatmoq, yuragi taka-puka, yuragi tas yorilgudek, yuragi qoq yorilgudek, yuragi zirqiramoq, yuragi qinidan chiqa yozmoq, yuragi qon, yuragidan urmoq, yuragi sezmoq, yuragiga kelmoq, yuragining chigilini yozmoq, yurak tortadigan, yuragini olmoq* kabilar bilan ham to‘ldirish, davom ettirish mumkin.

“Kalom” guruhi: Yer elni boqar.

***yer* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**	***yer* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**
yerga qaramoq	***uyalmoq***	*yerga bermoq*	***(o‘likni) ko‘mmoq***
yer bilan bitta bo‘lmoq, yer bilan yakson bo‘lmoq, yerga kirgudek bo‘lmoq	***sharmanda bo‘lmoq***	*yer-u ko‘kka ishonmaslik*	***(juda) asrash***
yer bilan	***(katta) farqli***	*yer-u ko‘kdan*	***topolmaslik***

osmoncha, osmon-u yercha		*topmaslik*	
yerga kirgizib yubormoq, yer yorilib yerga kirgizgudek	***(qattiq) uyaltirmoq***	*yer tagida ilon qimirlasa, biladigan*	***(juda) sezgir***
yerga kirsa, qulog‘idan, ko‘kka chiqsa,oyog‘idan tortmoq	***(baribir)topmoq***	*yer ostidan (qaramoq)*	***sezdirmay (yashiriqcha)***
yerga ursa, ko‘kka sapchiydigan	***(o‘ta) sho‘x***	*yer tishlamoq*	**o‘ldirilmoq**
yerga ursa, ko‘kka sachramoq	***sho‘xlik qilmoq***	*yer tishlatmoq*	***o‘ldirtirmoq***
yerga qaratmoq	***uyaltirmoq***	*yer bo‘lmoq*	***uyaltirilmoq***

O‘quvchilar yer so‘zi bilan bog‘liq iboralarni topar ekanlar, ularning barchasi ham shu so‘z ifodalagan ma’no bilan bog‘liq bo‘lmasligiga ishonch hosil qilishlari kerak bo‘ladi. (Shu o‘rinda o‘quvchida barcha iboralar tarkibidagi so‘z ifodalagan ma’no bilan bog‘liq bo‘lishi ham, bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin, degan fikr paydo bo‘lishi muhim.)

“Ibora” guruhi: Peshonaga taqdirni insonning o‘zi bitadi.

***peshona* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**	***peshona* so‘zi bilan bog‘liq iboralar**	**ma’nosi teng kelgan so‘z**
peshonaga yozilgan, peshonada bori	***taqdir***	*peshonaga tushgani*	***taqdir***
peshonasi sho‘r	***baxtsiz***	*peshonasi tirishgan*	***norozi***
peshonasi qora	***bebaxt***	*peshonasini toshga urmoq*	***(taqdiridan) norozi bo‘lmoq***
peshonasi yarqiragan	***baxtli***	*peshonasi chirigan*	***(azaldan) baxtsiz***
peshona teri	***halol mehnat***	*peshonasiga chiziq tortilmoq*	***qarimoq***
peshona teri to‘kmoq	***(halol) ishlamoq***	*peshonasiga oy bitgan*	***baxtli, omadli***
peshonasi tor	***ziqna***	*peshonasi o‘xshash*	***taqdirdosh***
peshonasidan	***ko‘nikmoq***	*peshonasida*	***ilojsiz***

ko‘rmoq		*bitilgan*	
peshonasiga yozilgan	***(kimligi, qan-dayligi) ma’lum***	*peshonasidagini ko‘rmoq*	***(ilojsiz) ko‘nikmoq***
peshonasi yo‘nil-gan, peshonasi qirib olingan	***omadsiz***	*(xudo) peshonasidan olgan*	***yo‘qotgan***

Mazkur o‘yin-topshiriqni tez va asosli bajargan guruhga rag‘bat kartochkasi beriladi.

Darsning bu qismiga yakun yasab, o‘qituvchi iboralar so‘z ifodalagan mazmunni tasviriy ifodalash vositalarining bir turi ekanligini tushuntiradi.

Shundan keyin ikki guruh o‘quvchilariga ***bosh*** so‘zi ishtirok etgan iboralarga ketma-ketlikda misol aytish topshirig‘i beriladi. To‘xtab qolgan guruh mag‘lub sanalishi uqtiriladi.

O‘quvchilar–

boshga ko‘tarmoq, boshini egmoq, bosh ko‘tarmoq, bosh tortmoq, bosh bo‘lmoq, boshi aylanmoq, boshdan kechirmoq, boshdan oyoq, boshidan oshib yotmoq, boshini aylantirmoq, boshi bilan kirib ketmoq, boshi bilan shung‘imoq, bosh ko‘tarmoq, bosh tortmoq, bosh bo‘lmoq, boshi aylanmoq, boshdan kechirmoq, boshdan oyoq, boshidan oshib yotmoq, boshini aylantirmoq, boshi bilan kirib ketmoq, boshi bilan shung‘imoq, boshiga kelmoq, boshiga yetmoq,boshiga suv quymoq, boshiga urmoq, boshiga qilich kelsa ham, boshida danak chaqmoq, boshida yong‘oq chaqmoq, boshini silamoq, boshidan soqit qilmoq, boshi yostiqqa yetmoq, bosh qo‘ymoq, boshi ko‘kda, boshi ko‘kka yetmoq, boshini achitmoq, boshini yemoq, boshini ikkita qilmoq, bosh olib ketmoq, bosh og‘riq, boshini g‘alvaga tiqmoq, boshini toshga urmoq, boshi shishmoq, boshini qovushtirmoq, boshini biriktirmoq, bosh suqmoq, bosh qo‘shmoq

kabi og‘zaki nutqda deyarli har kuni duch keladigan iboralarni topadilar.

Bu savol-javobda eng ko‘p rag‘bat kartochkasini olgan guruh g‘olib sanaladi. Shundan so‘ng **“O‘yla, izla, top”** o‘yini o‘tkaziladi. O‘yinda guruhlar o‘zlariga berilgan quyidagicha test savollariga javob topadilar:

1. *Bag‘ri tosh* iborasining ma’nosini toping.

A) metin B) bemehr C) qattiq D) baxtsiz

2. Ibora mavjud bo‘lgan qatorni toping.

A) Hovli yog‘ tushsa yalagudek edi.

B) O‘g‘li iztirob bilan otasiga qaradi.

C) Shahrimizda mo‘yqalam sohiblarining ko‘rgazmasi ochildi.

D) Oz so‘zla, ko‘p tingla.

3. *Miridan sirigacha*i borasining ma’nosini toping.

A) batafsil B) boxabar C) bexabar D) bemovrud

4. *Misi chiqdi* iborasining ma’nodoshini toping.

a) siri ochildi b) temiri ko‘rindi s) rangi chiqdi d) oltin emas

5. *Bag‘ri butun* iborasining ma’nosini toping.

A) kuchli B) baxtli C) saxiy D) bahodir

6. *Tinkasi qurimoq* iborasining ma’nosini toping.

A) kuchsiz B) quvvatsizlanmoq C) qattiqlashmoq D) suvsiramoq

7. *Qo‘ldan bermoq* iborasining ma’nosini toping.

A) yo‘qotmoq B) yo‘qolmoq C) salomlashmoq D) tortiq etmoq

8.*Xayolidan chiqarmoq* iborasining ma’nosini toping.

A) unutmoq B) bilmaslik C) haydamoq D) kechirmoq

Test yechishda ikkala guruh ham javoblariga qarab rag‘bat kartochkasiga ega bo‘ladi.

Dars so‘ngida **saylanma diktant** quyidagicha o‘tkaziladi:

Xattaxtaga guruh o‘quvchilaridan taklif etiladi va ularga “yo‘l chiptalari” tarqatiladi. Har bir guruhga o‘ziga tushgan shahar haqidagi matndan iboralarni topib yozish topshirig‘i beriladi va guruhlarga quyidagi matnlar o‘qib eshittiriladi:

Shahrisabz – sohibqiron Amir Temur ***tavallud topgan*** *yurt. Shahrisabz yashil shahar deyilgan. U yerga borsangiz, Oq saroy obidasiga* ***ko‘zingiz tushadi****. Mustaqillik sharofati bilan Shahrisabzda yangi ilm maskanlari* ***qad ko‘targan****.*

Endi esa A.Temur poytaxt qilgan Samarqandga yo‘l olamiz.

*Samarqand – qadimgi tarixiy yurt. Shahar–****ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan*** *darajada go‘zal maskan. Ulug‘lar Samarqandni yer yuzining sayqali demoqni* ***ma’qul topganlar****. Chunki u* ***man-man degan*** *shaharlardan chiroyliroq va qadimiyroqdir. 1996-yil A.Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlab, Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda sohibqiron haykali o‘rnatildi. Ha, Samarqand chiroyi va nufuzi ta’rifiga* ***til ojiz****.*

Ushbu topshiriq bo‘yicha ham g‘olib guruhlarga rag‘bat kartochkasi beriladi.

Dars so‘ngida faol qatnashgan guruh a’zolari rag‘batlantirilib, g‘olib guruhlar e’lon qilinadi. Uyga ***ko‘z, oyoq*** so‘zlari ishtirok etgan iboralarni topib, ularning izohini yozish va ular asosida 5ta gap tuzib kelish vazifa qilib beriladi.

Darslarni shu tarzda tashkil etish ham o‘quvchilar nutqini boyitadi, ham til sezgirligini tarbiyalaydi.

”Tasviriy ifoda” haqida gap ketganda, unutmaslik kerakki, ibora til birligining tabiiy hosilasi, tasviriy ifodalar esa nutqda yaratilgan birliklardir. Tasviriy ifoda badiiy adabiyotdagi ramz mavzusi bilan bog‘liq: biror narsaning nomini aniq atamay, uning xususiyat, belgisidan kelib chiqqan holda tasvirlash tasviriy ifodadir.

”Tasviriy ifoda” mavzusi ta’limida o‘quvchilar tasviriy ifodalarni iboralar bilan taqqoslasalar o‘rinli bo‘ladi. Masalan,

1-topshiriq. *Berilganlar ichidan tasviriy ifodalarni toping va raqamlarni jadvalda to‘g‘ri joylashtiring.*

1) kumush tola ijodkorlari; 2) kumush tola; 3) ikki enlik; 4) qanotli do‘stlarimiz; 5) salomatlik posbonlari; 6) qasam ichmoq; 7) samo yulduzlari; 8) maktab qaldirg‘ochlari; 9) oq chashma sohiblari; 10) qora oltin

Nutqiy hosilalar	**javob raqamlari**
Tasviriy ifodalar	1, 2,4,5,7,8,9,10
Iboralar	3, 6,

2-topshiriq. *Tasviriy ifodalar anglatgan ma'nolardan kelib chiqib gaplar tuzing.*

3-topshiriq. *Po'lat etak, miya dastyori, tinchlik ramzi, fasllar kelinchagi, dunyo tomi, charm qo'lqop ustalari, zangori ekran, oynayi jahon* kabi tasviriy ifodalar ifodalagan ma'nolarni izohlang.

(Shu o'rinda o'qituvchining o'zi ibora til birligi (u so'zlar kabi tilda tayyor birlik sifatida mavjud bo'ladi), tasviriy ifoda esa nutqiy birlik (jamiyat a'zolari tomonidan o'ylab topilgan va ijtimoiy turmushda tan olingan) ekanligini bilishi va shu asosda ibora hamda tasviriy ifodani aralashtirib yubormasligi zarur.)

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish yo'llaridan yana biri uyadosh so'zlar ustida ishlash tajribasidir.

Uyadosh so'zlar deganda bir mavzu, tushuncha yoki mohiyat atrofida birlashadigan, bir uyaga mansub so'zlar sirasi tushuniladi. Masalan, **"qovun" uyasi:** *amiri, ko'kcha, handalak, mirzacho'li, zamcha, dahbedi, go'rvak, bo'rikalla, toshloqi, davlatboy, gulobi, qo'ybosh, umrboqiy, oqurug', asati, cho'gari, qizilurug', obi novvot, shakarpalak, kampirchopon, bosvoldi....*

O'quvchilar nutqini uyadosh so'zlar bilan boyitishning yo'llar juda ko'p va rang-barang. Masalan, gapda yoki matnda ajratilgan umumiy ma'noli so'zlarga tegishli xususiy ma'noli so'zlarni topish (masalan, *o'quv qurollari: daftar, ruchka, qalam, chizg'ich, o'chirg'ich, albom...*), ma'lum bir uyadagi so'zlarning izohli lug'ati yoki shu so'zlarning ro'yxatini tuzish, berilgan xususiy ma'noli so'zlarning umumiy ma'nosini aniqlash (masalan, *qozon, kafgir, cho'mich, qoshiq, sanchqi, lagan, kosa....–oshxona buyumlari* kabi), ayni bir so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, ma'nodoshlari, qarama-qarshi ma'nolari va uyadoshlarini topish kabi mustaqil ish turlari o'quvchilar nutqini bunday so'zlar bilan boyitishda alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, berilgan matnda ajratilgan so'zlarning uyadoshlarini topish, tavsiya etilgan uyadosh so'zlar yordamida (masalan, "gul" uyasi: *atirgul, safsargul, chinnigul, marvaridul, tugmachagul, xrazantema, kaktus, aloy, xitoy atirguli, rayhon, ra'no, nozbo'y, lola, qizg'aldoq....*) matn yaratish kabi amaliy

ishlar o‘quvchilarda nutqiy ravonlikni ta’minlash uchun muhim. Tabiat manzarasi (bog‘, sahro, dala, o‘rmon, tog‘ kabilar) tasvirini berish, ularning uyadoshlarini topish, shu uyadoshlardan nutqiy faoliyatda foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish o‘quvchi uchun foydali.

”So‘zshunoslik” bo‘limida *”Atamalar”* mavzusi ta’limi ham nazarda tutilgan. Mazkur mavzuni o‘rganishda berilgan so‘zlarni qaysi fanga mansubligiga qarab guruhlarga ajratish, so‘z va atama orasidagi munosabatni aniqlash, uyadosh atamalar tanlash va ular yordamida matn yaratish singari topshiriqlardan foydalaniladi. Ayniqsa, ma’lum bir fan sohasida tor, ko‘pchilik odamlar boshqacharoq ma’noda keng qo‘llaydigan so‘zlar ustida ishlash, ularning tor va keng qo‘llanish ma’nolari asosida gaplar tuzish shular jumlasidandir. Masalan,

1-topshiriq. *Berilgan atamalarni fan sohasiga qarab ajrating.*

1) fonetika, 2) kasr, 3) mubolag‘a, 4) omonim, 6) sinus, 7) poya, 8) kosinus, 9) butash, 10) payvand, 11) nasr, 12) foiz, 13) gulbarg, 14)qalamcha, 15) paronim, 16) ildiz, 17) proza, 18) urg‘u, 19) epopiya, 20) modern, 21) tuproq

Tilshunoslikka oid atamalar: *fonetika,.....*

Adabiyotshunoslikka oid atamalar: *epopiya,....*

Biologiyaga oid atamalar: *poya,...*

Matematikaga oid atamalar: *kasr,...*

2-topshiriq. *Berilgan atamalarning qaysi birlari oddiy so‘zlashuvimizda ham ishlatilishini aniqlang va buning sababini tushuntiring.*

Shu o‘rinda o‘quvchilar sof atamalarni kasb-hunar so‘zlaridan farqlay olsalar yanayam yaxshi.

”Shevaga xos so‘zlar” ustida ishlashda quyidagilarga e’tibor qaratish muhim:

1) avvalo, o‘qituvchi (sinfda ham, sinf, maktabdan tashqarida ham sof adabiy tilda so‘zlamog‘i shart) adabiy talaffuz me’yorlariga rioya etishi hamda buni o‘quvchilardan ham talab qilmog‘i zarur;

2) o‘qituvchi o‘quvchilar nutqida uchraydigan sheva so‘zlarini adabiy shakllarga almashtirib borish ustida muntazam ishlamog‘i, bu borada maktabning boshqa fan o‘qituvchilari bilan hamkorlik ham qilmog‘i zarur;

3) o‘qituvchi o‘quvchilar nutqida uchraydigan sheva so‘zlarini kuzatishi va ularni *muayyan* va *tipik* turlarga ajratib olmog‘i muhim;

4) sinfdan tashqari ishlarda ”Yosh notiqlar” to‘garagini tashkil etish yoki badiiy o‘qish, ”Kim ko‘p va xo‘p biladi?”, ”Men yod o‘qiyman” kabi tanlovlarni sinfda, sinflararo o‘tkazib turish, ishtirokchilarni nutqining ravonligi va mazmundorligiga qarab rag‘batlantirib borish.

Bularning barchasi o‘quvchilar nutqini adabiy me’yorlarga moslashtirib borish borada yaxshi samara beradi.

Olinma so‘zlar ustida ishlash ham o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Bu mavzuni o‘rganishda integrativ ta’limdan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, o‘zbek, rus, ingliz tillari baravar foydalanadigan so‘zlar ro‘yxatini tuzish topshirig‘i ustida ishlash mumkin: *kafe, kakao, kompyuter, apelsin, limon, banan* kabilar shular jumlasidandir.

1-topshiriq. *O‘zbek tiliga rus tilidan hamda rus tiliga o‘zbek tilidan o‘zlashgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing.*

rus tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar	**o‘zbek tilidan rus tiliga o‘zlashgan so‘zlar**
stol, stul, parta, doska, leneyka, shkaf, sumka, shapka, shlyapa, divan, kreslo, shifoner, vaza....	*xirmon, kishmish, uryuk (o‘rik), kalbasa (qo‘l bosa), karandash (qora tosh), uyma (uyum), tyul (tul), kishlak (qishloq), kurash, chala, dakki, arik (ariq)...*

Xuddi shunday shaklda o‘quvchilarga o‘zbek tiliga chet (ingliz, nemis, fransuz) tilidan hamda chet tiliga o‘zbek tilidan o‘zlashgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish topshirig‘ini berish ham mumkin. Tabiiyki, o‘qituvchi o‘quvchiga shunday topshiriqni berdimi, albatta, topshiriq javobiga uning o‘zi tayyor bo‘lishi lozim.

Shuningdek, tilimizga xorijiy tillardan kirib kelgan so‘zlarning ma’nosini sharhlash, o‘zbek tiliga arab yoki fors-tojik tillaridan kirgan so‘zlarning imlosi va ma’nosi ustida ishlash, olinma so‘zlardan foydalanib, gap va matnlar tuzish kabi amaliy ishlardan unumli foydalanish ham mumkin. Ayniqsa, turli sohalar bo‘yicha olinma so‘zlar ro‘yxatini tuzish, imlosi murakkab bo‘lgan olinma so‘zlarni o‘quvchilarning shaxsiy imlo daftarchalariga yozdirib borish, bu so‘zlarning

ma’nosi ustida ishlash, o‘zbekcha-arabcha-ruscha ma’nodosh so‘z qatorlari hosil qilish singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

2-topshiriq. *O‘zbek tilidagi talaffuzi va imlosi bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan olinma so‘zlar ro‘yxatini (lug‘atdan foydalanib) davom ettiring.*

Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *direktor,...*

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *muomala,...*

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar: *tabiat, ...*

Olinma so‘zlar ustida ish olib borilar ekan, o‘quvchi uqib olishi lozim bo‘lgan asosiy bir jihat bor: o‘quvchi olinma so‘z bilan varvar so‘zni farqlay olishi zarur. Ma’lumki, varvar so‘zlar muayyan til uchun yot bo‘lgan (o‘sha tilga o‘zlashmagan) so‘zlarni sababsiz qo‘llash holati bo‘lib, ular nutq madaniyatiga putur yekazadi. Masalan, o‘zbek tilida sababsiz va asossiz qo‘llaniladigan quyidagi so‘zlar varvarizmlardir: *кароче (qisqasi), вот (ana), потаму что (chunki), ok (xo‘p), привет (salom), hillo (salom), только (faqat)* va h.

Varvarizmlardan foydalanish – madaniyat emas, madaniyatsizlik belgisi.

”Lug‘at va lug‘atshunoslik”, ”Lug‘at turlari va ulardan foydalanish” mavzusi ta’limida o‘quvchilarimiz inson hayoti lug‘atlarsiz to‘laqonli bo‘lolmasligini bilishlari juda zarur. O‘rta maktab ona tili ta’limining konseptual asoslarida uining zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta’kidlanadi: darslik va lug‘atlar. Zero, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri – lug‘atlar ustida ishlash. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zahirasini vujudga keltiradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta’limning har bir bo‘g‘ini uchun (bog‘chadan tortib, universitetgacha) yuzlab lug‘atlarning maxsus turlari yaratilgani, hatto rus maktablari uchun 30 ga yaqin o‘quv lug‘atlari mavjudligini inobatga olsak, bizning maktab partasida o‘tirgan o‘quvchilarimizga ham o‘quv lug‘atlari qanchalik zarurligi ayon bo‘ladi.

Maktablar uchun izohli lug‘at, ma’nodosh so‘zlar lug‘ati, antonimlar lug‘ati, darajalanish lug‘ati, eskirgan so‘zlar lug‘ati, shevaga xos so‘zlar lug‘ati, iboralar lug‘ati, so‘zlarning birikuvchanlik lug‘ati, uyadosh so‘zlar lug‘ati, shakldosh so‘zlar lug‘ati, so‘z tarkibi lug‘ati, talaffuzdosh so‘zlar lug‘ati, shuningdek, har bir fan bo‘yicha alohida terminologik lug‘atlar va qomuslar yaratish, borlarini keng amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifadir.

(Vaholanki, o‘quvchilar uchun zarur lug‘atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin emas, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish vositasi bo‘lgan joriy darsliklar o‘z vazifasini to‘la bajara olmaydi. Bu o‘rta ta’lim bo‘g‘ini uchun mavzuviy o‘quv lug‘atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va tuzishni taqozo qiladi.)

Mavzuni yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabda ”So‘zshunoslik” (leksika) bo‘limi nima maqsadda o‘qitiladi?
2. Maktabda ”So‘zshunoslik” (leksika) bo‘limini o‘qitishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3.Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili mashg‘ulotlarida ”So‘zshunoslik” bo‘limini qaysi sinfda va qancha miqdorda o‘tiladi?
4. O‘qitishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda mazkur bo‘limning qanday roli bor?
5. Maktabda ”So‘zshunoslik” (leksika) bo‘limini o‘qitish orqali o‘quvchilar nutqini rivojlantirish imkoniyatlari haqida o‘z fikringizni ayting.
6. “Ma’nodosh so‘zlar” mavzusini o‘rganishda qo‘llaniladigan topshiriq turlari haqida gapiring.
7. O‘quvchilar nutqini uyadosh so‘zlar bilan boyitish imkoniyatlari qaysilar?
8. O‘quvchilar nutqini boyitishda iboralar bilan ishlashning qanday ahamiyati bor?
9. “*…o‘quvchilar uchun zarur lug‘atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin emas, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish vositasi bo‘lgan joriy darsliklar o‘z vazifasini to‘la bajara olmaydi*”, degan fikrni izohlang.
10.Nega shu paytgacha o‘quvchilar uchun zarur lug‘atlar yaratish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmagan?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

[3;6;7;8;9;11;13;14;15;16;17;18;20;27;33;35]

MORFEMIKA VA SO‘Z YASALISHINI O‘QITISH METODIKASI

Reja:

1.Morfemika o‘qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari.
2. So‘z yasalishini o‘qitishning maqsad, vazifalari va metodlari.
3.Morfemka, so‘z yasalishi va orfografiya aloqadorligi.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Agglyutinativ til, morfemika, asos morfema, affiksal morfema, so‘z yasash, affiksatsiya, kompozitsiya

6-sinfning 1-choragida “Morfologiya” bo‘limi ta’limini boshlashdan avval 15 soat morfemika va so‘z yasalishi mavzulari uchun dastuur hamda darslikda vaqt ajratilgan. Bunda, asosan, quyidagi mavzular: “So‘z tarkibi haqida umumiy ma’lumot”, “Qo‘shimchalarning ma’no vazifasiga ko‘ra turlari”, “So‘z yasovchi qo‘shimchalar”, “Tub va yasama so‘zlar”, “Shakl yasovchi qo‘shimchalar”, “So‘zning morfologik tarkibi”, “So‘z tarkibida tartib”, “So‘z tarkibi va so‘z yasalishi bo‘yicha tahlil tartibi ustida ishlash” berilgan.

6-sinf bitiruvchilariga mazkur mavzular bo‘ycha qo‘yiladigan talablarda

–*qo‘shimchalarni ko‘makchilar bilan, ko‘makchilarni qo‘shimchalar bilan almashtirib qo‘llash*;

–*o‘rganilgan ifoda vositalarini o‘rinli qo‘llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish* malaka va ko‘nikmalari belgilangan.

Ma’lumki, morfemika – so‘zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limot*. So‘zning ma’noli qismlari morfemalar deyiladi. Morfema so‘zning bo‘linmas, eng kichik ma’noli qismi bo‘lib, asosan, nazariy jihatdan asos (o‘zak) morfema va asos qismga qo‘shilib muayyan grammatik ma’noni yuzaga chiqaruvchi affiksal morfema nazarda tutiladi.

Asos (o‘zak) morfema – so‘zda, albatta, ishtirok etadigan, leksik (lug‘aviy) ma’no ifodalay oladigan morfema turi. O‘zak morfema so‘z yasalishi uchun ham,

* Maktab darsliklarida morfemika bo‘limiga tegishli ma’lumotlar goh an’anaviy, goh zamonaviy tilshuunoslik ma’lumotlariga ko‘ra har xil beriladi. Shuni inobatga olib mazkur o‘rinda o‘zbek morfemikasiga oid biroz nazariy ma’lumotlar keltirishi joiz deb bildik.

shakl (forma) yasalishi uchun ham asos bo‘ladi: *gulchilarimizni*: o‘zak morfema – *gul.*

Affiksal morfema (qo‘shimcha morfema) – mustaqil leksik (lug‘aviy) ma’no ifodalay olmaydigan, so‘zning leksik yoki grammatik ma’nolari shakllanishida xizmat qiladigan morfema turi. Affiksal morfema so‘z tarkibida hamma vaqt ham ishtirok etavermaydi. Affiksal morfemalar (qo‘shimchalar) umumiy tarzda yasovchilar hisoblanadi va ular vazifasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) yangi so‘z yasovchilar va 2) shakl yasovchilar. (Shakl yasovchilar ichki mohiyatiga ko‘ra – lug‘aviy shakl yasovchilar hamda sintaktik shakl yasovchilarga bo‘linadi. Shu bois ba’zan darsliklarda affiksal morfemalar uch turga (1)so‘z yasovchi; 2) lug‘aviy shakl yasovchi; 3) aloqa-munosabat qo‘shimchalariga) bo‘linadi.

(O‘zbek tili (asosan, artikllar bilan ish ko‘rvchi rus, ingliz kabi flektiv tillardan farqlanuvchi) agglyutinativ tillar sirasiga kiradi va shu mohiyatiga ko‘ra ko‘proq qo‘shimchalar bilan ish ko‘radi. (Ammo bu flektiv tillar mutlaqo qo‘shimcha qo‘llamaydi yoki agglyutinativ tillarda grammatik ma’no faqat affikslar asosida yuzaga chiqadi degani emas.) Qarang: 7-jadval)

7-jadval

So‘z yasovchi affikslar muayyan asosga qo‘shilib yangi lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan so‘z hosil qiladi, so‘zning leksik (lug‘aviy) ma’nosi shakllanishida ishtirok etadi. Fe’l, ot, sifat, ravish yasovchi affikslar so‘z yasovchi hisoblanadi: *gul+la=gulla, quvon+ch=quvonch, bezak+li=bezakli, mard+ona=mardona*

2. So‘z shaklini hosil qiluvchi (forma yasovchi) affikslar so‘z ma’nosiga ta’sir etib, uni biroz o‘zgartiradigan, ammo yangi so‘z hosil qilmaydigan qo‘shimchalardir. Bular quyidagilar:

–fe’llardagi nisbat qo‘shimchalari (*Kitob o‘qi**l**di., Bola yuv**in**di., Qizcha opasiga uy tozala**sh**di., Kichiklarga mehr ko‘r**ga**zing., Shafyor mashinasini yur**g‘a**zdi., Ukamni ariqchadan o‘t**ka**zdim., Bog‘ga ko‘chat o‘t**qa**zdik., Hamshira bemorning og‘ziga suv tom**i**zdi., Akam menga chizgan suratini ko‘r**sa**tdi* va h.);

–fe’lning modal shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar (*ez**g‘ila**moq, tort**qila**moq, tit**kila**moq, yugur**gila**moq, ishqa**la**moq, to‘l**ish**moq, yig‘la**msira**moq, oqar**inqira**moq* va h.);

–fe’lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini (shuningdek, fe’lning bo‘lishsizlik shakli*ni) hosil qiluvchi qo‘shimchalar;

Shuningdek, otlardagi kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari, ko‘plik shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha; sifatlardagi daraja kategoriyasi qo‘shimchalari; sonning ma’no jihatidan turlarini yuzaga keltiruvchi qo‘shimchalar lug‘aviy shakl yasovchilar hisoblanadi.

3.Aloqa-munosabat (sintaktik shakl yasovchi) qo‘shimchalar so‘zning lug‘aviy ma’nosiga umuman ta’sir etmaydi. Aloqa-munosabat qo‘shimchalari sintaktik munosabat (so‘zlarni o‘zaro biriktirish) uchun xizmat qiladi. Aloqa-munosabat qo‘shimchalari tarkibiga 5 toifadagi qo‘shimchalar (jumladan, 1) kelishik qo‘shimchalari; 2) egalik qo‘shimchalari; 3) shaxs-son qo‘shimchalari; 4) zamon qo‘shimchalari; 5) mayl qo‘shimchalari) kiradi.

Qo‘shimchalar tuzilishiga ko‘ra sodda (*-chi,-la,-lik,-lar*) va murakkab (*-chilik,-garchilik,-lan,-lash, larcha*) bo‘ladi.

---

* Fe’lning bo‘lishsizlik shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha (*-ma* va uning variantlari)ning lug‘aviy shakl hosil qiluvchi birlik ekanligi munozarali. (Sababi, zamonaviy tilshunoslik kesimlik kategoriyasi (tasqiq/inkor, zamon, mayl, shaxs/son) tarkibiga kiruvchi affikslarni haqli ravishda aloqa-munosabat shakllari ekanligini e’tirof etadi. Fe’llarning bo‘lishli/bo‘lishsizlik kategoriyasi sintaktik jihatdan to‘laligicha tasdiq/inkor ma’nosini beradi.

Demak, o‘zak va qo‘shimchalar so‘zning ma’noli qismlari hisoblanadi. Affiksal morfemalar o‘zak morfemaga birikish xususiyatiga ko‘ra muayyan tilning o‘ziga xos jihatlarini namoyon qiladi. O‘zak morfemalarning tabiatiga ko‘ra tillar asosan agglyutinativ va flektiv tillarga bo‘linadi.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili affiksal morfemalari tabiatiga ko‘ra agglyutinativ hisoblanadi. Agglutinatsiya “ketma-ketlik” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, qo‘shimchalarning o‘zakka ma’lum tartib va ketma-ketlikda qo‘shilishidan dalolat beradi. Bunday hollarda o‘zak va qo‘shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglyutinativ tillarda so‘z shakllari o‘zgarmas holda qo‘shiladigan affikslar yordamida yasaladi.

Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma’noni ifodalaydi. Masalan, -lar faqat ko‘plik qo‘shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo‘shimchaning boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatiq, kinoyani bildiruvchi ma’nolari uning uslubiy jihatdan o‘ziga xos imkoniyati hisoblanadi.

Turkiy tillarda (o‘zbek tilida) o‘zakka dastavval, so‘z yasovchi qo‘shimchalar (morfemalar), keyin shakl yasovchi va oxirida so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qat’iy qoida. Masalan, o‘rtoqlarcha, mardlarcha so‘zlari o‘rtoq-lar-cha, mard-lar-cha ko‘rinishida emas, balki *o‘rtoq-larcha, mard-larcha* tarzida ma’noli qismlarga ajratiladi.

O‘zbek tilidagi affiksal morfemalar o‘zak morfemadan keyin qo‘shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo‘shimchalar o‘zbek tili tabiatiga xos emas*.

Ushbu o‘rinda o‘zbek tilida so‘z yasash usullari masalasiga ham qisqacha to‘xtab o‘tamiz. Mazkur mavzu 6-sinf dasturining boshida (“Morfologiyaga kirish” qismida qisman berilgan bo‘lsa, fe’l, ot, sifat, ravish so‘z turkumlarining affiksatsiya va kompozitsiya usullarida yasalishi mustaqil so‘z turkumlari sirasiga singdirib yuborilgan.

O‘quvchilar dastur va darslikda berigan “So‘z tarkibi haqida umumiy ma’lumot” mavzusi ta’limida, asosan, ona tilimiz agglyutinativ til ekanligini

* Tilimizdagi ser-(sersuv), no-(nomard), be-(beimkon), ba-(baquvvat), bo-(boadab) kabi old qo‘shimchalar fors-tojik tiliga xos bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy omillar ta’sirida o‘zbek tiliga o‘zlashib ketgan.

anglashi, shuningdek, asos va affiksal morfemalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishni bilishi zarur. Bunda o‘quvchilarga tilimizdagi so‘zlarda asos morfema bilan affiksal morfema chegarasi aniq sezilib turishi, asosan, uni flektiv tillar bilan qiyoslash orqali tushuntirish samarali bo‘ladi. Masalan,

1-topshiriq. *O‘zbekcha so‘zlarning tuzilishi bilan o‘zlashma so‘zlarning shaklini solishtiring. Ular haqida mulohaza bildiring. Shunday so‘zlar ro‘yxatini (lug‘atdan foydalanib) davom ettiring.*

ko‘rmoq – ko‘ryapman; видет – вижу (r);

yurmoq – yuryapman; ходит –хожу (r);

hukm – mahkama – hokim – hakam – mahkum (a);

fikr – tafakkur – mutafakkir (a);

zulm – zolim – mazlum (a);

hol – ahvol (a);

xulq – axloq (a);

she’r – ash’or (a).

2-topshiriq. *Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va bu so‘zlarning asos qismini aniqlashga harakat qiling.*

3-topshiriq. *Asosga qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgarishini kuzating. Buning sababini tushuntirishga harakat qiling.*

sayla–saylov, sina–sinov, aya–ayovsiz; so‘ra–so‘roq, bo‘ya–bo‘yoq; o‘yna–o‘ynoqi, sayra–sayroqi

“Qo‘shimchalarning ma’no vazifasiga ko‘ra turlari” mavzusi ta’limida o‘quvchilarga imkon qadar qiziqarli topshiriqlar berishga harakat qilish zarur, toki o‘quvchini mavzu mohiyati (nazariy bilimlar) zeriktirmasin. Masalan,

1-topshiriq. *She’riy matnni o‘qing va uqing. She’riy matn tarkibidagi so‘zlarni berilgan jadvalga moslab joylashtiring.*

E.Vohidov she’ri

Yurtdoshim, bog‘ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo‘y,

U gulning ismini Go‘zallik deb qo‘y.

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga Mehr deb qo‘y ot.

Sendan farzandingga bir bog‘ qolsin, ey do‘st,
Bog‘ing VATAN degan nom olsin, ey do‘st.

№	asos	so‘z yasovchi	lug‘aviy shakl yasovchi	aloqa-munosabat qo‘shimchasi
1	yurt	-dosh	–	-im
2	bog‘	–	–	-ing, -ga
3				
4				
…				

2-topshiriq. *She’riy matnda shoir Yaxshilik, Go‘zallik, Mehr, Vatan so‘zlarini bosh harf bilan yozganligini qanday tushundingiz? Matn mazmunini bitta gapda ifodalang.*

“So‘z yasovchi qo‘shimchalar” mavzusi orqali o‘quvchi hozirda ham yangi so‘zlar yasashda faol bo‘lgan qo‘shimchalarni farqlaydilar. Shu o‘rinda o‘quvchilarni tilning yashovchanligini, tirikligini his etishga o‘rgatish kerak.

1-topshiriq. *Berilgan gaplarni o‘qing va mazmunini izohlang. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etgan gaplarni ajratib daftaringizga ko‘chiring.*

1. Agar o‘rganishni istamasang, hayot hech narsani o‘rgatmaydi.

2. Jamiyatga optimistlar ham, pessimistlar ham hissa qo‘shadi. Optimist samolyotni ***o‘yla***b topgan bo‘lsa, pessimist parashyutni ixtiro qilgan.

3. Unvonlar mamlakat uchun katta xizmat qilgan odamlar haqida xalqni ***xabardor*** qilish uchun ***o‘yla***b topilgan.

4. Odam mamlakat va insoniyat uchun qilishi mumkin bo‘lgan eng katta xizmati – bolalarini ***tarbiyala***shidir.

2-topshiriq. *So‘zlar xazinasidan berilgan jadvalga mos sozlarni topib joylashtiring.*

OT ASOSLI OTLAR		
ikki morfemali sodda yasama otlar	**uch morfemali sodda yasama otlar**	**to‘rt morfemali sodda yasama otlar**
afsun/gar	**egar/soz/lik**	**kutub/xona/chi/lik**

So‘zlar xazinasi

va’zxonlik	**afsungar**	**amaliyotchi**	**childirmakash**
elakchi	**kutubxonachilik**	**ko‘katzor**	**egarsozlik**
suvoqchilik	**kabobpazlik**	**ma’muriyatchilik**	**qiziqchilik**
dabdaba	**gazlama**	**gulbarg**	**dalachilik**
lug‘atchilik	**qishloq**	**po‘stindo‘zlik**	**gazetxonlik**

3-topshiriq. *”So‘zlar xazina”sidagi jadvalga mos kelmaydigan to‘rtta so‘zni ajratib yozing.*

jadvalga mos kelmagan so‘zlar			

O‘quvchilar mazkur topshiriqni kichik guruhlarda ishlab quyidagicha bajarishlari zarur:

OT ASOSLI OTLAR		
ikki morfemali sodda yasama otlar	**uch morfemali sodda yasama otlar**	**to‘rt morfemali sodda yasama otlar**
afsun/gar	**egar/soz/lik**	**kutub/xona/chi/lik**
dala/chilik	**ela/k/chi**	**amal/iy/ot/chi**
	gazet/xon/lik	**qizi/q/chi/lik**
	kabob/paz/lik	**ma’mur/iy/at/chilik**
	ko‘k/at/zor	**po‘st/in/do‘z/lik**
	lug‘at/chi/lik	**suvo/q/chi/lik**
	childir/ma/kash	
	va’z/xon/lik	

jadvalga mos kelmagan so‘zlar			
dabdaba	**gulbarg**	**qishloq**	**gazlama**

4-topshiriq. *Berilgan sozlar ishtirokida gaplar tuzishga harakat qiling.*

“Tub va yasama so‘zlar” mavzusini o‘tishda milliylik zaminidan uzilmagan tarbiyaviy ahamiyatga ega matnlar asosida topshiriqlar tuzish va o‘quvchiga taqdim etish o‘rinli. Jumladan,

1-topshiriq. *Berilgan matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering. Matn tarkibidagi so‘zlarni quyidagi ikki ustunga ajratib yozing.*

Ona tilingni asra, aziz zamondosh!

Ona tilida aniq fikrlang, adabiy tilda so‘zlashing, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Qayerda va kim bo‘lmasin, ona tilini kamsitishlariga aslo yo‘l qo‘ymang.

Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o‘zgarishiga qarab almashtirilsa. *Onayizor, vatan, millat* kabi tushunchalarning har biri betakrordir. Ona tili ham bitta. Agar o‘z xalqingiz orasida soqov va yot bo‘lib qolishni istamasangiz, ona tilini puxta o‘rganing, uni boshingizga ko‘taring. Kishi boshqa tilda bilimli bo‘la oladi, ammo faqat ona tilidagi bilimigina bekam-u ko‘st bo‘lishi mumkin. Ona tilimizni e’zozlashni, qadrlashni va asrashni ma’rifiy millatlardan o‘rganing.

Bilingki,
O‘z tilini unutgan xalqning,
Bog‘larida o‘sgan gullarni,
Chirmab uxlar zaharli ilon.
O‘z tilini unutgan xalqning,
Osmonida porlamas quyosh–
Nur o‘rnida to‘kiladi tosh. (Xurshid Davron she’ri)

tub so‘zlar	***yasama so‘zlar***

2-topshiriq. *Berilgan matn mazmuniga mos keladigan xalq maqollari yoki aforizmlar topishga harakat qiling.*

Namuna: Tilni unutmoq – elni unutmoq. (Maqol)

O‘quvchi, odatda, affiksatsiya usulida so‘z yasash tilimiz uchun eng sermahsul usul ekanligini, yasama so‘zlar, aslida, yasalgan (*ishchi*, *gulzor*, *g‘ayratli*, *egovla*(moq), *yillab*), yasalayotgan (*sousli* (salat), *sousla*(moq), *souschi* (ayol);

lavashfurush, *lavashli* (dasturxon), *lavashchi*, *lavashpaz* va h.) va yasalishi kutilayotgan (....) so‘zlarga bo‘linishini anglashi (yod olishi emas) muhim. (Bu – milliy o‘zlikni anglamoqning kichik ko‘rinishidir.)

Shuningdek, yasalayotgan so‘zlar (manbasiga ko‘ra) ikki xil – xususiy (individual; okkazional) va umumiy (xalq tomonidan yaratiladigan) bo‘ladi. Odatda, okkazionallik ijodkorlar nutqiga xos bo‘lib, ular bor-yo‘g‘i bir martagina (muayyan mazmunni ochib berish uchun) ishlatiladi.

Tilshunoslik ilmidan ma’lumki, istalgan nutqiy jarayonda jamiyat→tafakkur→til→nutqiy sharoit→me’yor→nutq (og‘zaki/yozma) ketma-ketligi namoyon bo‘laveradi. Demak, ijtimoiy hayotning turli ko‘rinishlari, voqea-hodisalari, tushuncha-yu g‘oyalari, ba’zan ularning muayyan parchalari ***inson tafakkuri***da qayta ishlanadi. Tafakkur va uning mahsuli, odatda, ***til***da moddiylashadi. Til va nutq oralig‘ida turgan ***tafakkur elagi*** tilda moddiylashgan tafakkur mahsulini ***nutqiy sharoit***(vaziyat)ni inobatga olgan holda tilning o‘z qonuniyatlari asosida yuzaga kelgan (ichki) hamda jamiyat a’zolari tomonidan belgilagan (tashqi) ***me’yorlar***ni inobatga olgan holda ***nutq***ning og‘zaki yoki yozma shakllariga chiqaradi. Shu o‘rinda nutq tilning, til tafakkurning, tafakkur ijtimoiy hayotning oynasiga aylanadi. (Nutqiy sharoit, ichki va tashqi me’yorlar mazkur jarayonning amalga oshishini ta’minlovchi birlamchi vositalarga aylanadi.)

8-jadval



Demak, nutqiy jarayon tafakkur mahsulini til hamda nutq vositasida voqelanishini ta’minlovchi maydon; shu bilan bir qatorda, til hamda nutqning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi vosita hamdir.

Nutq til birliklarini yuzaga chiqaribgina qolmay, ba’zan o‘zi ham til birliklari andozalariga mos birliklarni (odatda, so‘zlarni, iboralarni) tilga taqdim etishi ham mumkin. Bunday so‘zlar, iboralar nutq hodisasi sifatida matnga yoki biror ijodkorning individual uslubiga xos birlik tarzida yuzaga keladi va shu o‘rinda takrorsiz qolib ketadi yoki kishilarning nutqiy faoliyatida tezda faollashib, til tarkibiga singib, uning me’yoriy birligiga aylanib ketishi ham ehtimol. Nutqdan tilga taqdim etiladigan birliklar okkazionalizmlardir. Masalan,

1. *Har nechuk, shoirman – sen bilan* ***jondosh****,*
   To‘yingda ***to‘ydoshman****, tirik yelkadosh.*
   Degayman, yosh umring o‘ylab, ey, qondosh,
   Bitgum, bitilmagan dostoning menda. (A.Oripov)
2. *O, O‘zbekiston, asal sandig‘im mening,*
   asalistonim *mening.* (O.Matjon)

Odatda, xalq tomonidan yaratiladigan yangi so‘zlar og‘zaki nutqda (*kompyuterchi, kompyuterli* (xona); *diskavodli, diskavodsiz* kabi) tez ommalashib ketadi.

“Shakl yasovchi qo‘shimchalar” mavzusi ta’limida ko‘proq tarbiyaviy matn tarkibi ustida ishlagan ma’qul. Sababki, tahlil davomida o‘quvchi matnga takror-takror murojaat etadi va bunday sharoitda matn mazmuni o‘quvchining ong ostiga singib boraveradi. Zero, ulug‘ pedagog Abdulla Avloniy ta’kidlaganlaridek: ”**Inson tafakkurining quvvati va kengligi, avvalo, muallim tarbiyasiga bog‘liq**.”

1-topshiriq. *Berilgan she’rni o‘qing. She’rning kulminatsiya (cho‘qqi) nuqtasi bo‘lgan misrani ajrating. She’r tarkibidagi so‘zlarni morfemalarga ajratib yozing.*

Namuna: makon/im, ona/jon, o‘lka/m, O‘zbek/iston, jon/im,...

IQROR

O, ota makonim.
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.

Senday mehribon yo‘q,
Seningdek ko‘rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangta.
Bir go‘sha suv bo‘lsa, bir go‘sha qirlar,
Qancha yurtni ko‘rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog‘laring ortimdan ergashib yurar.
Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarin.
Yo xudbinman men yo bir sodda kasman men –
Parijning eng go‘zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.
Na gapga ko‘nayin,
Na til bilayin,
Ko‘zdan uyqu qochdi, dildan halovat –
Uch kunda sog‘insam nima qilayin,
Chala qolar bo‘ldi hamma sayohat.
Bildimki, baridan ulug‘im o‘zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing,
Arab ohusidan azizroq menga.
Sen bilan o‘tgan har kun bayram - bazm,
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta’zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

2-topshiriq. *She’r muallifini toping. Shakl yasovchi qo‘shimchalarning vazifasini tushuntiring.*

“So‘z yasash yo‘llari” mavzusi orqali o‘quvchilar nafaqat asosga qo‘shimcha qo‘shish (affiksatsiya), balki so‘zni so‘zga qo‘shish (kompozitsiya) usuli orqali ham yangi lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar yasalishini chuqurroq anglaydilar. Ma’lumki, so‘z yasovchi morfemalar yangi so‘z yasash uchun xizmat qiladi. Yangi so‘z yangi leksik va grammatik ma’nolarga ega bo‘ladi, atash ma’nosi yangilanadi: *ish-siz-lik, bil-im-don-lik, o‘yn-a, taro-q, pas-ay, o‘r-oq-chi-lik.* So‘z yasovchi morfemalar so‘zga bittadan 3-4 tagacha qo‘shilishi mumkin.

So‘z yasovchi morfemalar quyidagi tur so‘zlardan yangi so‘z yasaydi:

sodda tub so‘zdan – *boshla, yoshlik, aqlli…*

sodda yasama so‘zdan – *ishsizlik, bilimdon, yaltiroq…*

qo‘shma so‘zdan – *ishyoqmaslik, asalarichi, o‘rinbosarlik…*

juft so‘zdan – *sabr-toqatli, sihat-salomatlik, qo‘ni-qo‘shnichilik...*

takroriy so‘zdan – *sharshara, bizbizak, chirchiak...*

O‘quvchilar mavzu asosida quyidagi topshriqlarni bajarishlari mumkin:

1-topshiriq. *Berilgan so‘zlarni yasalish usuliga qarab ajrating va quyidagi jadvalga joylashtiring.*

O‘quvchi, taxtako‘prik, sovuq, **gulqo‘rg‘on**, qiymataxta, havorang, og‘riq, qaviq, qazuvchi, olaqarg‘a, **tilak**, gavjum, atirgul, marvaridgul, xashak, beibo, **bahoriy**, naqshbop, quvonch, borib kelmoq, e’lon qilmoq, sap-sariq, yashiltob, orzumand, jizzaki, shartaki, qonuniy, shilpildoq, gultuvak, **oilaviy**.

Asosga qo‘shimcha qo‘shib yasalgan (affiksatsiya)	**So‘zga so‘z qo‘shib yasalgan (kompozitsiya)**	**Yasalmagan, tub so‘z**
orzumand...	gulqo‘rg‘on...	yashiltob...

2-topshiriq.*O‘zbek tilida asosiy so‘z yasash usullarini izohlashga harakat qiling.*

3-topshiriq.*Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini izohlang va ular ishtirokida bog‘lanishli kichik matn tuzing.*

Ko‘p hollarda so‘z yasovchi morfema qo‘shilganda tovush moslashishi, tovush tushishi, orttirilishi va almashinishi bilan bog‘liq fonetik o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. O‘quvchilar hukmiga havola etilayotgan topshiriqlarni shu asosda tuzish ham o‘rinli.

“So‘zning morfem tarkibi” mavzusi so‘z tarkibini ma’noli qismlarga bo‘lish bilan bog‘lanadi. Har bir so‘zning morfemalarga ajratilishi undagi qismlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘zaro munosabatga kirisha olish xususiyatiga asoslanadi. So‘zning tarkibini ajratishda, avvalo o‘zak ajratilib, uning lug‘aviy ma’nosi aniqlanadi. O‘zakka qaysi qo‘shimcha turi qo‘shilmasin, u har doim o‘zakdagi ma’no bilan aloqador bo‘ladi va yangi so‘z yasalganda ham o‘zakning ma’nosi saqlanib qoladi. Masalan, *suvoqchilik* so‘zining tarkibi *suva+q+chi+lik.*

Ushbu kasb-hunar bilan bog‘liq soha otining o‘zakdagi suvash harakati bilan aloqasi uzilmagan.

Ko‘p hollarda so‘zning morfem tarkibini aniqlashda so‘zdagi fonetik o‘zgarishlar qiyinchilik tug‘diradi. Tillarni kuzatishdan ma’lumki, morfologik ko‘rsatkichlar yo mustaqil ma’noli leksemalardan, yoki har xil qo‘shimchalarning o‘zaro birikib yangi qo‘shimcha hosil qilish usulidan shakllanadi. Ko‘pgina so‘zlar qo‘shilib ketishi natijasida ikkinchi qism morfemaga aylanib ketishi mumkin: *yo‘qot (yo‘q et), gapir (gap ur), tupir (tuf ur), supur (suv ur), berkit (berk et), to‘lat (to‘la et)* kabi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘zga qo‘shimcha qo‘shilganda o‘zakda fonetik o‘zgarishlarning ba’zi ko‘rinishlari kuzatiladi.

Tovush tushishi:

so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilganda: *sariq-ay/sarg‘ay, past-ay/pasay, og‘iz-aki/og‘zaki, o‘yin-a/o‘yna, o‘rin-ash/o‘rnash, ayir-im/ ayrim, buyur-uq/ buyruq;*

lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilganda: *ayir-il/ayril, ikki-ov/ikkov, olti-ala/oltala, yetti-ovlon/yettovlon;*

sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilganda: *men-ning/ mening, sen-ni/ sening; burun-i/burni, shahar-im/shahrim, o‘g‘il-ing/ o‘g‘ling.*

Tovush orttirilishi: *isi-q/issiq, qot-iq/qattiq, tib-iy/tibbiy, his-iy/ hissiy, shu-cha/shuncha, bu-day/bunday; u-ga/unga, shu-da/shunda, bu-dan/ bundan, parvo–i/parvoyi, obro‘-ing/obro‘ying.*

Tovush almashishi:

a ~ o: tara-q/taroq, so‘ra-q/so‘roq, qiyna-v/qiynov, so‘ra-v/so‘rov;

o ~ a: son-a/sana, ong-la/angla, yosh-a /yasha, ot-a/ata;

i ~ u: tinti-v/tintuv, o‘qi-v/o‘quv, sovi-q/sovuq, quri-q/quruq;

q ~ g‘: qishloq-i/qishlog‘i, yutuq-im/ yutug‘im, buyruq-i/buyrug‘i;

k ~ g: yurak-i/yuragi, eshik-im/eshigim, tilak-ing/tilaging va h.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchi uchun so‘zning asosi(o‘zak)ni ajrata bilish so‘z ma’nosini to‘g‘ri anglash va xatosiz yozishga imkon beradi.

“So‘z tarkibida tartib” mavzusi ta’limida o‘quvchi e’tibori, asosan, asosga qo‘shimchalarning ketma-ket qo‘shilish tartibiga va bu tartibdan chekingan holatlariga qaratiladi. O‘zbek tilining o‘ziga xos agglyutinativ tabiatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, asosga qo‘shimchalarning ketma-ket qo‘shilish tartibi quyidagicha bo‘ladi: ***asos+so‘z yasovchi +lug‘aviy shakl yasovchi+aloqa-munosabat qo‘shimchalari.***

Jumladan, *oqu/vchi/lar/dan, ajab/lan/tir/di, bino/kor/lar/ning* kabi. *Quruvchilar yangi binoda* ***ishladilar***; *Hozir* ***tanishtiruv*** *marosimi boshlanadi; Xalqimizga* ***bolajonlik*** *xos* kabilarda so‘z tarkibining odatdagi tartibidan chekinish holatlari uchraydi. (Bunday holatlarda so‘z yasovchi qo‘shimchadan oldin kelgan qo‘shimcha asos tarkibiga qo‘shib yuboriladi: *ko‘r/ish/moq/lik–ko‘rishmoq/lik*)

Shu o‘rinda qo‘shimchalarning barcha turlarida ma’nodoshlik, vazifadoshlik, shakldoshlik xususiyatlari ham borligini nazardan qochirmaslik zarur.

Mavzuni yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Morfemika nimani o‘rgatadi?
2. Morfemika bo‘yicha o‘quvchi qanday bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur?
3.O‘quvchi o‘rganayotgan morfemik bilimlar malaka talablariga mosmi?
4.O‘quvchi o‘rganayotgan morfemik bilimlardan hayotining qaysi o‘rnida foydalana oladi?
5. O‘zbek tilida so‘z yasash usullarini o‘quvchi bilishi shartmi?
6. O‘zbek tilida so‘z yasash usullari ta’limida o‘quvchi xabardor bo‘lishi zarur bo‘lgan qaysi bilimlarni sanay olasiz?
7. O‘zbek tilidagi *hol/siz/lan/moq/lik, injiq/lan/mas/lik, jilov/la/mas/lik* kabi so‘zlarning morfem tarkibi qanday izohlanadi?
8.Kompozitsiya usulida hozirda yasalayotgan qanday so‘zlar bor?
9. *“O‘zakni ajrata bilish, so‘z tarkibidagi tovush o‘zgarishlarini fahmlash so‘zni to‘g‘ri yozishga imkon beradi*”mi? Javobingizni dalillang.
10.O‘quvchiga *anglashilmovchilik* (*ong-la-sh-il-ma-vchilik*), *sanoqsiz* (*son-a-q-siz*), *atoqli* (*ot-a-q-li*) kabi so‘zlarning morfem tarkibini qanday izohlash zarur?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

[1;6;11;20;22;28;32;34;35]

“MORFOLOGIYA” BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

Reja:

1.”Morfologiya” o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.
2.So‘z turkumlarini o‘qitish metodlari.
3. “Morfologiya” o‘qitishning boshqa bo‘limlar bilan bog‘liqligi.
4.”Morfologiya” o‘qitish asosida o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini rivojlantirish usullari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

So‘z turkumi, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, oraliq so‘zlar metodikasi

“Morfologiya” bo‘limi ta’limi uchun 5-sinf izchil kursida qisman, 6-,7-sinflarda esa to‘liq vaqt ajratilgan. Demak, o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham 5-sinfdan boshlab toki 8-sinfgacha (qariyb 500 soat davomida) so‘z turkumlari bilan bog‘liq mavzular ta’limi bilan shug‘ullanishadi.

Amaldagi “Ona tili” dasturida 5-sinfda, asosan, o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan zaruriy morfologik bilimlar sifatida quyidagilar qayd etiladi: “So‘zlarning turkumlarga bo‘linish mezonlari”, “Mustaqil so‘z turkumlari (fe’l, ot, sifat, son, olmosh, ravish)”, “Yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, undovlar, modal so‘zlar, taqlid so‘zlar)”, “Ot, uning lug‘aviy ma’nosi”, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi”, “Otning ma’no turlari”, “Atoqli otlarning uslubiy qo‘llanishi”, “Otlarda son shakllari”, “Ko‘plik qo‘shimchasi”, “Turlanish”, “Kelishiklar”, “Egalik qo‘shimchalari”, “Otlarning tuzilish jihatdan turlari (sodda, juft, qo‘shma va qisqartma otlar)”, shuningdek, “Fe’l, uning lug‘aviy ma’nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi”, “Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’l”, “Fe’lning tuslanishi”, “Fe’l zamonlari”, “O‘tgan zamon, hozirgi zamon, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon fe’llari”, “Ko‘makchi fe’llar” mavzulari.

“Morfologiya” sathi nuqtayi nazaaridan 5-sinf o‘quvchilari egallashi zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar dasturda shunday belgilangan: “so‘zlarning turlanishi va tuslanishi bilan bog‘liq so‘zlarning egalik hamda shaxs-son qo‘shimchalarini olib o‘zgarishini, so‘zning lug‘aviy va grammatik ma’nolarini, tub so‘zlar bilan yasama so‘zlarni; sodda, qo‘shma va juft so‘zlarni;

so‘z turkumlarini, mustaqil so‘z bilan yordamchi so‘zni” o‘z nutqida farqlab bilishi va o‘rinli ishlatib bilmog‘i kerak.

So‘zlarning turlanishi bilan bog‘liq mavzular ta’limida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

***1-topshiriq**. Berilgan so‘zlarga egalik shakllarini qo‘shib ko‘ring. So‘z ma’nolarida ro‘y bergan o‘zgarishlarni payqashga harakat qiling.*

Maktab, sevinch; omadli, xushmuomala; bir, besh; o‘qigan, aytadigan; gapirish, oqimoq; taq-taq, pichir-pichir; salom, oh-voh.

Namuna:

egalik shakllari	**birlikda**	**ko‘plikda**
I shaxs -m(-im); -miz(-imiz)	*pichir-pichirim*	*pichir-pichirimiz*
II shaxs ng (-ing); -ngiz(-ingiz)	*pichir-pichiring*	*pichir-pichiringiz*
III shaxs –i (Ø)	*pichir-pichiri*	*pichir-pichir(lar)i*

Topshiriqni bajarish asnosida o‘quvchi so‘zlarning egalik qo‘shimchalarini olib o‘zgarish (turlanish) ismlarga xosligini payqashi zarur.

***2-topshiriq**. Siz o‘qigan ertak, maqol, topishmoq, hikmatli so‘z va h. tarkibida turlangan so‘zlar ishtirok etgan gaplarni eslang va ayting.*

Namuna: – Gar *saloming* bo‘lmasa, ikki yamlab bir yutardim, – debdi yalmog‘iz kampir. (Ertakdan)

5-sinf darsligi materiallarida tuslanish hodisasini faqat fe’l so‘z turkumi bilan bog‘lab qo‘yilishi nazariy jihatdan to‘g‘ri emas. Sababi o‘zbek tilida kesim vazifasida kelgan har qanday mustaqil so‘z shaxs/son qo‘shimchalarini olib o‘zgarish xususiyatiga ega ekanligi o‘zbek tilshunosligida isbotlanganligiga qariyib ygirma yildan oshdi*.

Shuning uchun tuslanish bilan bog‘liq mavzular ta’limida o‘qituvchi kesim vazifasida kelgan har qanday mustaqil so‘z tuslanish xususiyatiga ega ekanligini, fe’l so‘z turkumiga tegishli so‘zlar, odatda, ko‘proq kesim vazifasida kelganligi uchun ularda shaxs/son (hatto zamon, mayl grammatik ma’nolari ham) yaqqol

* Ta’kidlash joizki, avvalo, maktab “Ona tili” darsliklarida nazariy ma’lumotlarga keng o‘rin berish “jamiyatga ijodiy tafakkur sohibini yekazib berish” maqsadi ro‘yobini to‘la ta’minlay olmaydi. Shuning uchun maktab ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi diqqatini nazariy mavzular ta’limiga (ya’ni grammatizmga) emas, til imkoniyatlaridan foyfalanishga qaratish zarur. (Bundan tashqari hozirda maktab “Ona tili” darsliklarida berilgan ma’lumotlar talaba oliy ta’limda o‘qiyotgan substansial (zamonaviy) tilshunoslik materiallaridan, afsuski, 35-40 yil orqada.)

ko‘zga tashlanishini inobatga olgan holda butun e’tiborni o‘quvchi nutqida tuslovchi shakllarning to‘g‘ri qo‘llanishiga qaratmog‘i zarur. Chunonchi,

1-topshiriq. *Berilgan matnni o‘qing va mazmunini gapirib bering.*

Uch kishi tosh tashiyotgan edi. Ularning biridan ***so‘radim***:

–Umuman olganda, bu yerda ***nima qilayapsan***?

U peshonasidagi terni ***artib tashladi***-da, ***javob berdi***:

–Mana shu mehnatim tufayli qaddim bukilib, og‘ir kunlarga ***qolib ketdim***.

Ikkinchisining oldiga borib undan ***so‘radim***:

–Sen ***nima qilayapsan***?

U yenglarini ***shimardi***-da, tumshug‘ini ko‘tarib, g‘urur ila ***javob berdi***:

–Men ***ishchiman***. Pul ***ishlayapman***. Bu yerda boshqa ***nima*** ham ***qilardim***?

Keyin uchinchi kishidan ***so‘radim***:

–Sen nima ***ish qilayapsan***?

U ***jilmaydi***-da, ***javob berdi***:

– Men ***duradgorman***. Ibodatxona ***quryapman***.

Qissadan hissa shuki, qachonki oldingga oliy maqsad ***qo‘yarkansan***, har qanday vaziyatda ham yashayotgan umringda ***ma’no bo‘ladi***.

2-topshiriq. *Berilgan matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning shaxs/sonini aniqlang.*

Berilayotgan topshiriqlar o‘quvchilarni imkon qadar mustaqil ishlashga, tafakkur qilishga undamog‘i muhim.

1-topshiriq. *Gaplar tuzing. Berilgan so‘zlar shu gaplarning kesimi vazifasida kelsin.*

Donishand, o‘quvchimiz, a’lochiman, chaqqonsan, uchtamiz, sizsiz, o‘sha, ofarin.

So‘zning lug‘aviy va grammatik ma’nolari ustida ishlaganda o‘quvchiga quyidagi tartibda topshiriqlar berish mumkin:

1-topshiriq. *Matnni o‘qing va uqing. Mazmunini so‘zlab bering. Matn tarkibidagi lug‘aviy ma’no ifodalamaydigan so‘zlarni ajrating.*

Kunlarning birida fermadagi ot kasal bo‘lib qoldi. Uni ko‘rgani kelgan veterinar:

–Agar ot ertalabgacha oyoqqa turmasa, uni so‘yishga to‘g‘ri keladi, – dedi.

Tong yorishdi. Ot hamon o‘rnidan turmadi. Uning yonida qo‘y yotgan edi. Otga rahmi kelgan qo‘y:

–Qani, birodar, o‘rningdan tursang-chi! Aks holda ular seni so‘yib yuborishadi!–dedi otni niqtab.

Ot bor kuchini to‘pladi-da, tebranib o‘rnidan turdi. Ertalab otdan xabar olgani kelgan fermer hayratlanib yordamchisiga:

–Mo‘jiza yuz beribdi. Otdan umidimni ham uzgan edim. Otim tuzalibdi. Buni darrov bayram qilishimiz kerak. Shu qo‘yni so‘yamiz!–dedi.

Qissadan hissa shuki, hech qachon birovning ishiga sababsiz aralashmang.

***2-topshiriq**. Tilimizdagi lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan **edi, ekan, ham, uchun, faqat, xuddi** kabi so‘zlarning ishlatilish sababini tushuntiring.*

So‘z tuzilishi bilan bog‘liq mavzular ta’limida o‘quvchilar tub so‘zlar bilan yasama so‘zlarni; sodda, qo‘shma, juft hamda takror so‘zlarni ajratib oladilar. Ayniqsa, nutqimizda juft hamda takroriy so‘zlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq ma’no nozikliklariga e’tibor qaratadilar. Masalan,

***1-topshiriq**. Matnni o‘qing. “Do‘st qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga bir gap bilan javob qaytarishga harakat qiling.*

Do‘st

Bir kishi ozroq pulga muhtoj bo‘lib qoldi, do‘stidan yordam olish maqsadida uning uyiga borib, eshigini taqillatdi. Do‘sti chiqib, u bilan ko‘rishdi, uyga taklif qilsa ham u kishi qabul qilmay:

–Do‘stim, meni kechir, uyga qilgan taklifingni hozircha qabul qilolmayman, vaqtim ziq. Bir kishidan yuz ming so‘m qarzdor edim, bugun kelib, pulini qistadi. Qo‘limda pul yo‘q edi. Shuning uchun yordam berasanmi, deb, sening yoningga keldim, – debdi.

Uy egasi darhol ichkaridan yuz ming so‘m olib chiqib do‘stining qo‘liga berdi.

–Do‘stim, biror narsaga muhtoj bo‘lib qolsang, mendan yashirma, qo‘limdan kelgancha yordam berishga tayyorman, – deb do‘stining ko‘nglini ko‘tardi.

Do‘sti xursand bo‘lib, u bilan xayrlashib, uyga qaytdi. Uy egasi do‘sti qaytib ketgandan keyin yig‘lab uyiga kirdi. Xotini: “Turmush o‘rtog‘im ko‘p pul berib yuborganiga pushaymon bo‘lib yig‘layotgan bo‘lsa kerak”, deb o‘ylabdi va eriga:

–Biror narsani bahona qilib, pul bermasdan qaytarib yuborsangiz bo‘lmasmidi? – degan edi, eri shunday javob berdi:

–Yo‘q, sen o‘ylagancha emas, do‘stim pulga muhtoj bo‘lib qolganini bilmaganimdan xafaman. U kelib so‘ramasdan oldin o‘zim borib: “Do‘stim, biror narsaga muhtoj emasmisan, tortinma, ayt”, deb so‘rashim kerak edi. G‘aflatda qolganimga achinib yig‘layapman.

***2-topshiriq**. Matn tarkibidagi so‘zlarni tub va yasama so‘zlarga ajrating.*

tub so‘zlar	yasama so‘zlar
bir, kishi,…	taqillatdi, taklif qilmoq, qabul qilmoq,…
….	…

***3-topshiriq**. Berilgan jadvalni “So‘zlar dengizchasi” asosida to‘ldiring.*

sodda so‘zlar		**qo‘shma so‘zlar**	**juft so‘zlar**	**takror so‘zlar**	**qisqartma so‘zlar**	**murakkab so‘zlar**
sodda tub	**sodda yasama**					

“So‘zlar dengizchasi”

e’tiborli	tamiz	jizzaki	hozir	bidir-bidir
xatboshi	do‘st-u dushman	sportfak	gaz-gaz	shukurona
oqrangli	qon-qarindoshlik	isnboshchi	qalban	teleminora
qat-qat	shahargaz	rang-barang	sutrang	lash-lush
ota-ona	buzuqbosh	gap-so‘z	gulpayvandchi	otaliq
qabih	yuzma-yuz	palla	xayr-xo‘sh	bobomeros
filfak	shivirlamoq	e’lon qilmoq	O‘zmevasabzavot	ochko‘zlik

5-sinf o‘quvchilari 3-4-choraklarda so‘z turkumlari; mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma’lumot; fe’l, ot, sifat, son, ravish, olmosh guruhiga mansub so‘zlar haqida tushunchaga ega bo‘lishadi.

Shuningdek, 5-sinf ona tili dasturida o‘quvchilar morfologik ta’lim asosida quyidagilarni ham bilishlari zarurligi nazarda tutiladi:

Yordamchi so‘z turkumlari va ularning gapdagi vazifasi. Berilgan gaplarni o‘qib, so‘roq olmaydigan so‘zlarni:

–gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lashga xizmat qiluvchi;

–tobe bo‘lakni hokim bo‘lakga bog‘lashga xizmat qiluvchi;

–ma’noni kuchaytirishga xizmat qiluvchi guruhlarga ajratish; yordamchi so‘zlar bo‘yicha xulosa chiqarish;

–berilgan yordamchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish va ularning vazifasini aniqlash.

Bog‘lovchilarning vazifalari va yozilishi. *Na* inkor bog‘lovchisi hamda juft bog‘lovchilarning qo‘llanilishi ustida ishlash. Bog‘lovchilar haqida xulosa chiqarish, berilgan sodda gap juftlarini o‘zaro bog‘lash asosida qo‘shma gaplar hosil qilish; sodda va qo‘shma gap orasidagi ma’no farqini aniqlash.

Ko‘makchilarning ma’no-vazifalari va yozilishi. Berilgan gaplarda *-ga, -da, -dek* qo‘shimchali so‘zlarni uchun, tomon kabi ko‘makchilardan mosi bilan almashtirib, ma’nosini tushuntirish, ko‘makchilarning qaysi qo‘shimchalardan keyin kelishi va qanday vazifa bajarishi haqida xulosa chiqarish, berilgan xalq maqollarida *bilan* so‘zini mumkin bo‘lgan o‘rinlarda *va;* yoki chiziqcha bilan yoziladigan *-u,-yu* bilan almashtirish, *bilan* bog‘lovchisining ko‘makchi vazifasida qo‘llanishi, ko‘makchilar ishtirokida gaplar tuzish.

Yuklamalarning ma’no-xususiyatlari va imlosi. Yuklama- qo‘shimchalar, yuklamali gaplarning ohangi.

So‘z yuklamalari, ularning vazifasi, ma’nosi, imlosi va ohangi ustida ishlash, yuklamalar haqida umumlashma hosil qilish.

Mustaqil va yordamchi so‘zlar yuzasidan takrorlash.

Undov va taqlid so‘zlar. So‘zning tuzilishiga ko‘ra turlari.

Eslatib o‘tganimizdek, ”Morfologiya” mavzularini izchil o‘rganish 6-sinfda boshlanadi.

Nazariy jihatdan morfologiya grammatikaning bir qismi bo‘lib, so‘zning shakllari, bu shakllarning hosil bo‘lish yo‘llari va so‘zlarning ma’lum belgilar asosida guruhlarga, ya’ni so‘z turkumlariga bo‘linishini o‘rganadi. Shu bois, morfologiyani o‘qitishda asosiy e’tibor so‘zning tuzilishi, yasalishi, so‘z turkumlariga bo‘linishiga qaratiladi.

O‘quvchilar morfologiyaga oid dastlabki ma’lumotlar bilan boshlang‘ich sinflarda tanishganlarini, bu mavzularni 5-sinfda ham qisman o‘rganganliklarini inobatga olsak, so‘zlarni mustaqil va yordamchi so‘zlar kabi guruhlarga ajralishi ular uchun yangilik emas. Zero, ona tilining izchil kursidan beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar, avvalo, boshlang‘ich sinflarda egallangan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning mantiqiy davomi sanaladi.

Maktabda morfologiya o‘qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur sathni o‘rganishda o‘z amaliy ifodasini topadi. O‘quvchi mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganishda so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma’noli so‘zlarga yana murojaat qiladi va so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri ham o‘rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

So‘zlarni turkumlarga ajratish “to‘plam” va “tasnif” tushunchalarining mohiyatini anglash bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchilar 6-sinf darsligida berilgan rasmdagi narsa-buyumlarni shu buyumlar orasidagi o‘xshashliklar asosida guruhlash orqali “to‘plam” va “tasnif” xususida umumlashma fikr (tushuncha) hosil qiladilar.

“To‘plam” deyilganda tahlil qilish, o‘rganish uchun olingan har xil narsalar, belgilar, voqea-hodisalar majmuasi tushunilsa, “tasnif” to‘plamni avval kattaroq guruhlarga, so‘ngra bunday guruhlarning o‘zini ichki turlarga, ajratilgan turlarni ichki xillarga, xillarni navlarga, navlarni ko‘rinishlarga bosqichma-bosqich saralashni nazarda tutadi. Shu o‘rinda ko‘zlangan asosiy maqsad: o‘quvchilar *tasnif borliqni bilish asosi* ekanligini anglamoqlari zarur.

Orfografiyaning morfologiya bilan aloqadorligi ham maktabda mazkur bo‘limni o‘rganilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu morfologik prinsip orfografiyaning yetakchi prinsipi sanalishi bilan ham bog‘liq.

”Fe’l so‘z turkumi”ni o‘qitish metodikasi

6-sinfda ”Fe’l” so‘z turkumi ta’limi uchun qariyb 50 soatdan ortiqroq vaqt ajratilgan. Bunda o‘quvchilar, asosan, *”Fe’l turkumida shakl yasalishi”, ”Fe’lning tarz shakllari”, ”Fe’lning vazifa (xoslovchi) shakllari, harakat nomi shakllari”, ”Sifatdosh shakllari”, ”Ravishdosh shakllari”, ”Fe’lning nisbat shakllari: aniq nisbat shakli; o‘zlik nisbat shakli; orttirma nisbat shakli; majhul nisbat shakli; birgalik nisbat shakli”; ”Fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari”, ”Fe’llarda mayl shakllari: buyruq-istak mayli, shart mayli shakllari, maqsad mayli shakli, xabar mayli shakli”, ”Mayl shakllarining zamon ma’nolari”; ”Fe’lda zamon shakllari”; ”Fe’lda zamon shakllarining ko‘chma qo‘llanishi”; ”Fe’lda shaxs-son shakllari”* singari mavzular bilan tanishadilar.

Mazkur mavzularni o‘rganishda asosiy e’tibor **o‘quvchilarning so‘z zahirasini fe’llar bilan boyitish, og‘zaki va yozma nutqda ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirishdan iborat**dir.

“Fe’l” so‘z turkumini o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning quyi sinflarda egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalari takrorlanadi. Berilgan bo‘lishli fe’llardan bo‘lishsiz (va aksincha) fe’llar hosil qilish, ular ishtirokida gaplar qurish, kesim vazifasida kelgan fe’llarning qaysi zamonda ekanini aniqlash, zamonni almashtirib qo‘llash, kesimlarga shaxs-son va zamon qo‘shimchalari qo‘shish ishlari o‘rganilganlarni o‘quvchilar xotirasida tiklash imkoniyatini yaratadi.

*”Fe’lning tarz shakllari”*ni o‘rganishda o‘quvchi bilishi lozimki, tilimizda birorta ham sof ko‘makchi fe’l yo‘q. 27ta mustaqil fe’l tarz sakli (ko‘makchi fe’l) vazifasida kela oladi va yetakchi fe’l ifodalayotgan lug‘aviy ma’noga turli qo‘shimcha ma’nolar beradi. Shu o‘rinda anglashimiz lozimki, fe’lning tarz shakllari (boshqa tillarda deyarli uchramaydigan) tilimizning nutqni boyituvchi, harakatning nozik qirralarini ifodalash imkonini beruvchi o‘ziga xos ko‘rinishlaridandir.

Odatda, harakat tarzi shakllari ikki fe’lning birikuvidan hosil bo‘ladi. Bunday fe’llarning birinchisi mustaqil fe’l bilan, ikkinchisi ko‘makchi fe’l bilan ifodalanadi.

Harakat tarzining mustaqil fe’l qismi, odatda, -b(-ib), -a(y) qo‘shimchalari bilan yasalgan ravishdosh shaklida bo‘ladi. Harakat tarzining ko‘makchi qismi esa o‘z mustaqil ma’nosini yo‘qotib, yetakchi fe’lga birikadi va yetakchi fe’l ma’nosiga tugallik, boshlanish, to‘satdanlik, tezlik, takroriylik, davomiylik kabi o‘nlab qo‘shimcha ma’nolar yuklaydi.

Quyidagi fe’llar o‘z asl ma’nosidan tashqari harakat tarzi shakllarida ko‘makchi fe’l vazifasini bajaradi: *boshla, bit, bor, tush, boq, yot, ol, kel, o‘l, bil, tur, ber, ket, o‘t, yoz, yur, qol, yubor, yet, o‘tir, qo‘y, tashla, ko‘r, bo‘l, chiq, sol, qara*.

Harakat tarzining ko‘makchi qismi bo‘lib keladigan fe’llar quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1.***Boshla*** ko‘makchi fe’li harakatning boshlanishi (harakatni bajarishga kirishish)ni ifodalaydi: *yoza boshladi, o‘qiy boshladi, keta boshladi, kuzata boshladi.*

2.***Yur, o‘tir, tur, yot, yet*** ko‘makchi fe’llari harakat-holatning izchillik bilan uzoq davom etishini, takrorlanishini, ba’zan harakatning favquloddaligini ifodalaydi: *mo‘ljallab yurmoq, uyalib yurmoq, aytib o‘tirmoq, ishonib o‘tirmoq, kelib turmoq, sayrab turmoq, olishib yotmoq, gapirib yotmoq, tushunib yetmoq, pishib yetmoq*.

3.***Qol, qo‘y, ket, yubor*** ko‘makchi fe’llari harakat-holatning kutilmaganda, to‘satdan tez boshlanishini va yana tugallik, davom, iltimos, ta’kid ma’nolarini bildiradi: *bilib qolmoq, ko‘rib qolmoq, aytib qo‘ymoq, ilib qo‘ymoq, chopib ketmoq, surishtira ketmoq, kulib yubormoq, qichqirib yubormoq.*

4. ***Tush, o‘t, chiq*** ko‘makchi fe’llari tugallanganlik, ta’kidlash, davomlilik ma’nolarini yuzaga chiqaradi: *cho‘chib tushmoq, ag‘darilib tushmoq, aytib o‘tmoq, ko‘rib o‘tmoq, qarab chiqmoq, o‘qib chiqmoq, aylanib chiqmoq.*

5. ***Ber, bor*** ko‘makchi fe’llari harakatning takroriyligi, davomiyligi, ba’zan birgalikda bajarilgan qo‘shimcha harakatni bildiradi: *yoza bermoq, yeya bermoq, unuta bormoq, begonalashib bormoq.*

6. ***Ko‘r, qara, boq*** ko‘makchi fe’llari harakatni bajarishga urinish, sinab ko‘rish, qistash, buyruq ma’nolarini bildiradi: *tatib ko‘rmoq, o‘ylab ko‘rmoq, surishtirib qaramoq, aytib qaramoq, o‘qib boqmoq, pishirib boqmoq.*

7. ***Tashla*** ko‘makchi fe’li harakatning tez (shartta) bajarilganligi, tugallanganligi, ba’zan takroriylik ma’nolarini ham ifodalaydi: *aytib tashlamoq, sidirib tashlamoq, ochib tashlamoq, urib tashlamoq, tirnab tashlamoq.*

8.***Ol, bil*** ko‘makchi fe’llari harakatni bajarish mumkinligi (imkoniyat borligi), tugallanganlik, ma’noni kuchaytirish kabilarni bildiradi: *uddalay olmoq, bajara olmoq, so‘rab olmoq, ko‘ra olmoq, foydalana bilmoq, tuzata bilmoq.*

9. ***Yoz*** ko‘makchi fe’li harakatning to‘la bajarilishiga oz qolganlik, yaqinlashganlik ma’nolarini ifodalaydi: *tugata yozdi, yeta yozdi, yiqila yozdi, ajrala yozdi.*

10. ***Kel*** ko‘makchi fe’li harakat va holatning uzoq davom etishini, takrorlanishini bildiradi: *kirib kelmoq, urib kelmoq, saqlanib kelmoq.*

O‘zbek tilida quyidagi ko‘makchi fe’llar faqat *-b(-ib)* affiksi bilan yasalgan ravishdoshlarga qo‘shiladi: *qo‘y, chiq, yur, kel, tashla, yot, bit, boq, tush, yet, o‘tir, yubor, bo‘l, o‘l, o‘t, qara*.

Quyidagi ko‘makchi fe’llar faqat *-a(-y)* affikslari bilan yasalgan ravishdoshlarga qo‘shiladi: *boshla, yoz, bil.*

Ravishdoshning har ikkala turi bilan birika oladigan ko‘makchi fe’llar sakkizta: *ol, ber, qol, bor, ko‘r, tur, ket, sol.*

Ba’zan yetakchi fe’lga birdan ortiq ko‘makchi fe’l qo‘shilishi ham mumkin. Chunonchi, *aytib berib tura qol, ishlab tura ber, yozib ko‘ra boshlamoq, tebratib tura bermoq* kabi. Agar harakat tarzi tarkibidan biror fe’l tushirilsa, unga xos ma’no ham yo‘qoladi. Qiyoslang, *aytib berib tura qol - aytib berib tur - aytib ber.*

Nutq vaziyatiga ko‘ra harakat tarzi shakllari juft holda ishlatilishi ham mumkin: *yedi-qo‘ydi, yozdi-oldi.*

Harakat tarzi shakllari ustida ishlash orqali o‘quvchilar so‘zning lug‘aviy ma’no nozikliklarini aks ettirish xususiyatlarini anglab boradi.

Fe’llar gapda boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib, sintaktik jihatdan kesim, ega, to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe’l maxsus shakllarga ega bo‘ladi. Turli gap bo‘laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe’l shakllari fe’lning vazifa shakllari* sanaladi.

Fe’lning vazifa yoki fe’lni boshqa so‘z turkumlariga o‘xshatuvchi, xoslovchi shakllari uchta: harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh.

Fe’lning otga xoslangan, harakat va holatning nomini bildiradigan shakli – harakat nomi. “Harakat nomi” mavzusini o‘rganishda berilgan matn yoki gaplardan harakatni atab kelgan so‘zlarni ajratish, ularni qo‘shimchadoshlarga bo‘lib guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, qo‘shimchadosh so‘z guruhlari uchun xos bo‘lgan qo‘shimchalar: *-sh (-ish), -v (-uv), -moq (-mak)* kabilar(masalan, *ko‘rish, ko‘ruv, ko‘rmoq, ko‘rmak*)ni ajratish, bu qo‘shimchalar bilan hosil bo‘lgan so‘zlarning imlosi (*terga–tergov, alda–aldov, teja–tejov, so‘zla–so‘zlov, tinti–tintuv* va b.), gaplarni harakat nomi birikmalariga, birikmalarni gaplarga aylantirish (masalan, *Bahorda turfa gullar ochiladi. – Bahorda turfa gullarning ochilishi* kabi), harakat nomlarini *zarur, kerak, lozim, shart, muhim* kabi so‘zlar bilan birikib, kesim vazifasida kelishi (masalan, *Inson o‘qiganini* ***uqmog‘i lozim****., Yaxshilikka yaxshilik bilan* ***javob qaytarmoq kerak*** kabi) ustida ish olib boriladi.

Fe’lning ravishga xoslangan, ish-harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini, davomiyligini, takroriyligini bildirgan fe’l shakli – ravishdosh. Ravishdosh shakllarini o‘rganishda ham amaliy ishlar davom ettiriladi. O‘quvchilar berilgan fe’llar asosida bog‘lovchilar yoki ohang vositasida bog‘lab gap tuzadilar, gap tarkibidagi fe’llar(masalan, *Men bobomnikiga keldim, bog‘da ishladim*)dan nutq vaziyatiga mosini ravishdoshning *-b (-ib),-a (-y), -gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -gani (-kani, -qani, -gali)* qo‘shimchalari bilan biriktirib, gaplarning shaklini o‘zgartirish (masalan, *Men bobomnikiga keldim, bog‘da*

* Fe’lning vazifa shakllaridan harakat nomi o‘z ichki xususiyatlariga ko‘ra otga, sifatdoshlar esa sifatga, ravishdoshlar ravishga yaqin turadi. Shuning uchun ham ular o‘zgalovchilar yoki fe’lning o‘zgalovchi kategoriyasi deb ham yuritiladi.

*ishladim – Men bobomnikiga kel**ib** bog‘da ishladim – Men bobomnikiga kel**gach** bog‘da ishladim* kabi. Agarda shu gap *Men bobomnikiga kel**ay** bog‘da ishla**yman** – Men bobomnikiga kel**guncha** bog‘da ishladim* tarzida qo‘llanilsa, gap ma’nosi keskin o‘zgaradi), ravishdosh yasovchi qo‘shimchalar ro‘yxatini tuzish, ular yordamida so‘zlar hosil qilish, bu qo‘shimchalarning imlosi ustida ishlash (*ek–ekkach, ekkuncha, ekkali; boq–boqqach, boqquncha, boqqali* va h.) kabi amaliy ishlardan foydalaniladi.

Fe’lning sifatga xoslangan, odatda, narsa-buyumning harakat va holat belgisini bildirgan shakli – sifatdosh. Sifatdoshlarni o‘rganishda o‘quvchilar berilgan “sifat + ot” shaklli so‘z birikmalarida (masalan, *tiniq suv, quruq shox, siniq piyola, buzuq soat, cho‘ziq nutq, to‘ziq xona, o‘yiq yer, sassiq hovuz, issiq suv* kabi) sifatni sifatdosh bilan almashtirish (jumladan, *tinigan suv, qurigan shox, singan piyola, buzilgan soat, cho‘zilgan nutq, to‘zigan xona, o‘yilgan yer, sasigan hovuz, isigan suv*), sifatdoshlarni hosil qiluvchi qo‘shimchalar*(-gan (-kan, -qan), -(a)yotgan, -(y)digan, -(a)digan, -(a)r, -ajak (-yajak), -gusi, -g‘usi, -(u)vchi*)ni aniqlash, ularning imlosi (*ek–ekkan, chiq–chiqqan*) ustida ishlash, sifatdoshlardan foydalanib, gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirish (masalan, *Kim ko‘p bilsa, kam gapiradi. – Ko‘p bilgan kishi kam gapiradi*) singari topshiriqlarni berish mumkin.

“Sifatdosh” mavzusi ta’limda o‘qituvchi nazariy jihatdan e’tibor berishi zarur bo‘lgan o‘rin bor: bu sifatdosh qo‘shimchalarini zamon affikslari bilan aralashtirmaslik. Jumladan, *o‘qigan bola, gullagan daraxt, kelgusi avlod, aytilajak so‘z* kabi so‘z birikmalari tarkibidagi tobe so‘zlar sifatdosh bilan ifodalangan. Biroq *Bola o‘qigan., Daraxt gullagan., Ortimizdan munosib avlod kelgusi., Kun kelib haq so‘z, albatta, aytilajak* kabi gaplar tarkibida sifatdosh shakllari ishlatilmagan. Berilgan gaplar kesimi tarkibidagi *-gan, -gusi, -ajak* affikslari zamon qo‘shimchalari bo‘lib ular **-di** (*Bola o‘qidi., Daraxt gulladi.*); **-adi** (*Ortimizdan munosib avlod keladi., Kun kelib haq so‘z, albatta, aytiladi.*) kabilar paradigmasida turadi.

“*Fe’llarning lug‘aviy shakllari*” ustida ishlash o‘quvchilar so‘z zahirasini yangi so‘zlar bilan to‘ldirish imkonini beradi. Ma’lumki, fe’llar qanday harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra –

1) nutqiy faoliyat fe’llari;

2) aqliy faoliyat (tafakkur) fe’llari;

3) jismoniy faoliyat (natijali faoliyat) fe’llari;

4) holat fe’llari–

kabi ma’no guruhlariga bo‘linadi.

Bu borada o‘quvchilarga rang-barang topshiriqlar berish imkoniyati mavjud. Masalan,

1-topshiriq. *Guruhingiz bilan 6-sinf “Adabiyot” darsligidan o‘zingizga yoqqan nasriy matnni tanlang. Matn tarkibidagi fe’llarni aniqlab ularni jadvalga to‘g‘ri joylashtiring.*

nutqiy faoliyat fe’llari	***aqliy faoliyat fe’llari***	***jismoniy faoliyat fe’llari***	***holat fe’llari***

1-topshiriq.*Berilgan fe’llarni o‘qing. Ular qaysi jihatiga ko‘ra guruhlanganligini ayting.*

Gapirmoq, to‘ng‘illamoq, vag‘illamoq, so‘zlamoq, g‘o‘ldiramoq, javob bermoq, aytmoq, vaysamoq, pichirlamoq, demoq, vaqillamoq, shivirlamoq, bidirlamoq, javramoq, baqirmoq, do‘ng‘illamoq, bobillamoq, hayqirmoq;

o‘ylamoq, o‘yga cho‘mmoq, ko‘z oldiga keltirmoq, o‘ylanmoq, xayolga botmoq, tafakkur qilmoq, o‘y surmoq, xulosa qilmoq, gavdalantirmoq, fikrlamoq, xulosaga kelmoq, tasavvur etmoq, xayol surmoq, hukm chiqarmoq;

tepkilamoq, yozmoq, yugurmoq, sindirmoq, arralamoq, tekislamoq, chizmoq, parmalamoq, burilmoq, qurmoq, yamamoq, qaramoq, bunyod etmoq, teshmoq,

cho‘kkallamoq, sayqal bermoq, silliqlamoq, artmoq, randalamoq, sirlamoq, surtmoq, mushtlamoq, pardozlamoq, moylamoq;

unutmoq, g‘azablanmoq, hadiksiramoq, yodlamoq, zaiflashmoq, qo‘rqmoq, tubanlashmoq, kuymoq, shoshmoq, eslamoq, sezmoq, kambag‘allashmoq, shodlanmoq, quvonmoq, ranjimoq, dovdiramoq, uyalmoq, qizimoq.

2-topshiriq. *Belgilangan fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.*

”Fe’l” mavzulari ta’limida fe’llarning yasalishi (affiksatsiya: *gumburla(moq), shovulla(moq), tirilla(moq), qiyna(moq), kuhay(moq), kuchan(moq)* va h.; kompozitsiya: *borib kelmoq, sotib olmoq, e’lon qilmoq, xayr-xush qilmoq*...); fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari (sodda tub: *qurmoq, yurmoq, ketmoq, chizmoq, ko‘rmoq;* sodda yasama: *shodlanmoq, yangilanmoq, gapirmoq, tezlamoq;* qo‘shma: *sayr etmoq, olib bormoq, bunyod qilmoq;* juft: *aytdi-qo‘ydi, chiqdi-ketdi, uchadi-ketadi;* takroriy: *kelib-kelib, ayta-ayta, kula-kula*); o‘timli (o‘zidan oldin kimni?, nimani? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zni talab qiluvchi fe’llar: *muzqaymoqni yalamoq, kinoni ko‘rmoq, ovqatni yemoq, tortni pishirmoq, hayotni sevmoq, maktubni o‘qimoq, to‘nni kiymoq*) va o‘timsiz (o‘zidan oldin kimni?, nimani? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zni talab qilmaydigan fe’llar: *erta uxlamoq, bog‘da ishlamoq, eshikda turmoq*) fe’llar; bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe’l nisbatlari (aniq, o‘zlik, majhul, birgalik, orttirma) shakllari; bo‘lishli va bo‘lishsiz (*siyla–siylama, ishlash–ishlamaslik, o‘qib–o‘qimay, eshitilar–eshitilmas* kabi) fe’llar ustida amaliy ishlar olib borish orqali o‘quvchilar nutqini boyitish imkoniyatlari ham ko‘p.

Ma’lumki, boshqa so‘z turkumlari bilan fe’l orasida tuslanishda, kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismlari (tasdiq/inkor, mayl/modallik, shaxs/son, zamon) bilan shakllanishda jiddiy farqlar bor. Fe’lning kesimlik vazifasini bajarish imkoniyati boshqa so‘z turkumlariga qaraganda nihoyatda keng. Fe’llar kesim vazifasiga ko‘proq xoslanganligi tufayli unda kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi ma’nolar yaqqolroq seziladi, yuzaga chiqadi. Shunga ko‘ra fe’l asoslariga qo‘shilib, gapda fe’llarning kesim vazifasida qo‘llanilishiga xoslovchi shakllar fe’lning munosabat shakllari deyiladi.

Zamon, mayl, shaxs-son, tasdiq/inkor ma’nolari va ularni yuzaga chiqaruvchi vositalar fe’llarning munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo‘lgan har qanday fe’l gapda kesim vazifasida keladi. Yuqoridagi ma’no va shakllardan xoli bo‘lgan fe’l asosi fe’lning noaniq shakli hisoblanadi va bu shakl *-moq* qo‘shimchasi yordamida ifodalanadi.

Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya bo‘lib, uning har bir tarkibiy qismi nisbiy alohidalikka ega bo‘lgan kategoriyalardan iborat.

”Ot” so‘z turkumini o‘qitish metodikasi

O‘quvchilar ona tili ta’limining izchil kursida ot, uning lug‘aviy ma’nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi; otning ma’no turlari; atoqli otlarning uslubiy qo‘llanishi; otlarda son shakllari; ko‘plik qo‘shimchasi; kelishik hamda egalik qo‘shimchalarini olib turlanishi; otlarning tuzilish jihatdan turlari (sodda, juft, qo‘shma va qisqartma otlar) kabilar bilan bog‘liq amaliy ishlarni bajaradilar.

6-sinfda, asosan, *“Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari: sodda ot; qo‘shma ot; juft ot; takroriy ot va ularning imlosi”, “Atoqli otlar haqida umumiy ma’lumot”, “O‘rin-joy nomlari (toponimlar) va ularning imlosi”, “Tashkilot, korxona va muassasa nomlari”, “Tarixiy sana va bayram nomlari”, “Suv havzalari va inshootlari nomlari”; “Turdosh otlar va ularning ma’no turlari“, “Shaxs otlari va ularning yozilishi”, “Shaxsni boshqa jihatlarga ko‘ra atovchi otlar”, “Narsa otlari, ularning yasalishi va yozilishi”, “O‘rin-joy (makon)ni atovchi otlar, ularning imlosi”, “Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlar”, “Aniq va mavhum otlar”, “Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi”; “Otlarning lug‘aviy shakllari”, “Son shakllari”, “Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari”* mavzulari ta’limi nazarda tutilgan.

Otlarning predmet, jarayon, tushuncha, voqea-hodisa nomlarini bildirib kim?, nima?, qayer? so‘roqlariga javob bo‘lishi, atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, otlarga qo‘shiladigan kelishik, egalik qo‘shimchalari boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarga ma’lum. Mazkur so‘z turkumini o‘rganishda dastlab ana shu o‘rganilganlarni o‘quvchi xotirasida tiklash maqsadida unga qayta xotiralash va

qisman ijodiylikka asoslangan ta’limiy topshiriqlar beriladi, takrorlash o‘tkaziladi. Takrorlash jarayonida ot turkumiga kirgan so‘zlar semantik jihatdan turli-tumanligiga e’tibor qaratish muhim. Jumladan,

a) otlar borliqdagi narsa-buyum nomlarini anglatadi: *olma, gul, daraxt, piyola, qoshiq, kitob, uzum*;

b) shaxsga xos umumiy nomlarni ifodalaydi: *inson, odam, bola, yigit, o‘smir, qiz, ayol, ota, ona, opa*;

d) jism va modda nomlarini bildiradi: *suv, un, bug‘doy, qand, sut, asal, qor*;

e) jonli narsalar va organizmlar nomini ifodalaydi: *qush, baliq, kaklik, tovuq, echki, mikrob, amyoba*;

f) belgi-xususiyat, harakat, holat nomlarini, shuningdek, mavhum tushunchalarning nomini bildiradi: *shodlik, qo‘rqinch, tezlik, qizillik, shovqin, saylov, kurash, yig‘ilish* kabi.

Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari (sodda tub: *bayroq, odam, daraxt, qizaloq, bahor;* sodda yasama: *quvonch, gulchi, tilshunos, bolalik;* qo‘shma: *asalari, so‘zboshi, qiymataxta, Markaziy Osiyo;* juft: *ota-ona, baxt-saodat, uy-joy, qozon-tavoq, huzur-halovat;* takroriy: *non-pon, tuz-puz;* qisqartma: *O‘zteleradiokompaniya, teleboshlovchi*; murakkab: *do‘st-birodarlik, qarqara, asalarichilik*); qo‘shma otlar imlosida ikkinchi qismi faqat atoqli ot bo‘lgan qo‘shma otlargina ajratib yozilishi (*Kichik Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Janubiy Amerika, Quyi Chirchiq, Gala Osiyo*), qolgan barcha hollarda bunday birliklar qo‘shib yozilishi (*Beshariq, Qashqadaryo, xomashyo, so‘zboshi, gulhamishabahor, qorbo‘ron, yeryong‘oq, qozonyuvg‘ich* kabi); atoqli otlarning turlari (**kishi nomlari**: *Marvaridxon, Iforajon, Javohirbek; Umarov, Farrux Faxriddinovich*; **o‘rin-joy nomlari**: *O‘zbekiston, Toshkent, Buxoro, Navoiy, Qarshi, Balandmachit, Buloqboshi, Uchtepa*; **tashkilot, korxona va muassasa nomlari:** *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi, Xalq ta’limi vazirligi, “Turkiston“ saroyi*; **tarixiy sana va bayram nomlari:** *Mustaqillik kuni, Loy jangi, Ramazon hayiti, Xotira va qadrlash kuni, Konstitutsiya kuni;* **mahsulot nomlari:** *“O‘tkan kunlar” romani, “Shirintoy” aralashmasi, “Lazzat” shirinligi, “Mars”*

shokoladi; **suv havzalari va inshootlari nomlari:** *Jayhun, Orol, Oqdaryo, Enasoy, Qoradengiz*) kabilar ustida ishlash o‘quvchining og‘zaki/yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

“Turdosh otlar va ularning ma’no turlari” haqidagi mavzular ta’limida o‘quvchilar bir turdagi predmet, voqea-hodisa, tushuncha, makon, zamon ma’nolarini ifodalovchi otlar va ularning turlari (**shaxs otlari:** *inson, kishi, shaxs, odam; direktor, rais, prorektor; xo‘ja, bek, amir; amma, xola, tog‘a, amaki, jiyan, kelin, kuyov, yanga, nevara; suvchi, zargar, dorboz, bog‘bon; ninni, chaqaloq, go‘dak;* **narsa-buyum otlari:** *choynak, shkaf, gilam; palov, manti, sho‘rva; un, shakar, yog‘, kartoshka, piyoz; daftar, chizg‘ich, panjshaxa* va b.; **makon otlari:** *uy, hovli, saroy, o‘tov, g‘arb, sharq, shimol, janub, shaftolizor;* **zamon otlari:** *yil, kun, oy, soniya, daqiqa, soat, sutka, tun, asr, hafta, era, ko‘klam, yoz, qish, ko‘z, saraton, xazonrezgi*; **faoliyat-jarayon otlari**: *chopiq, terim, g‘allachlik, mevachilik* kabilar)dan xabardor bo‘lishlari muhim.

1-topshiriq. *“Shaxs otlari sandig‘i”dagi so‘zlarni jadvalga to‘g‘ri joylashtiring.*

shaxsni mansabiga ko‘ra atovchi otlar	
shaxsni nasl-nasabiga ko‘ra atovchi otlar	
shaxsni qarindoshligiga ko‘ra atovchi otlar	
shaxsni kasb-koriga ko‘ra atovchi otlar	
shaxsni jinsiga ko‘ra atovchi otlar	
shaxsni yoshiga ko‘ra atovchi otlar	

“Shaxs otlari sandig‘i”

chevara	muhandis	o‘spirin	bek	prizedent
hisobchi	jiyan	prorektor	tog‘a	yigitcha
mudir	chol	qoracha	kosib	qurayish
xo‘ja	amir	qizaloq	qaynuka	oshpaz
juvon	direktor	xolavachcha	rais	qaynona
o‘smir	go‘dak	tikuvchi	chaqaloqcha	bola

2-topshiriq. *“Shaxs otlari sandig‘i”dagi so‘zlardan jadvalning ikki yoki uch guruhiga to‘g‘ri keladiganlarini ajrating.*

Masalan, *bola* – shaxsni yoshiga ko‘ra atovchi ot;

bola – shaxsni qarindoshligiga ko‘ra atovchi ot.

O‘quvchilarga o‘zlariga tanish bo‘lgan narsa-buyum nomlarini guruhlash topshirig‘ini berish ham samara beradi. Bunda sinf o‘quvchilarini beshtadan (5x5, 5x5,5x5...) kichik guruhchalarga bo‘lish va ularning har biriga alohida topshiriq berish mumkin. Masalan,

1-kichik guruhga topshiriq: *Kiyim-kechak nomlarini atovchi otlarning ichki guruhlarini tuzing.*

2-kichik guruhga topshiriq: *Oziq-ovqat nomlarini atovchi otlarning ichki guruhlarini tuzing.*

3-kichik guruhga topshiriq: *Uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini atovchi otlarning ichki guruhlarini tuzing.*

4-kichik guruhga topshiriq: *Xomashyo nomlarini atovchi otlarning ichki guruhlarini tuzing.*

5-kichik guruhga topshiriq: *Qurol-asbob nomlarini atovchi otlarning ichki guruhlarini tuzing.*

Jumladan, 1-kichik guruh “Kiyim-kechak nomlarini atovchi otlarning ichki guruhlarini tuzish” topshirig‘ini shunday bajarishi kerak:

Kiyim-kechak nomlarini atovchi otlarning ichki guruhlari

1.Xotin-qizlarning kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi otlar.

a) xotin-qizlarning <u>oddiy kunlarda</u> kiyadigan kiyim-kechaklari nomlarini ifodalovchi otlar.

b) xotin-qizlarning <u>tantanali kunlarda</u> (bayram, to‘y, bazm...) kiyadigan kiyim-kechaklari nomlarini ifodalovchi otlar.

Yil fasllari bilan bog‘liq tarzda:

a) xotin-qizlarning <u>bahor</u>da kiyadigan kiyim-kechaklari nomlarini ifodalovchi otlar:

–ustki kiyimlar: nimcha, plash, kostyum, jempir...

–*ichki kiyimlar:* (atlas, adras) ko‘ylak, kofta, yubka, sarafan...

–*bosh kiyimlar:* do‘ppi, shapka, shlyapa, beretka.

–*o‘ragichlar:* ro‘mol, sharf, sharfcha.

–*oyoq kiyimlar:* etikcha, botinka, krassovka, butsi.

b) xotin-qizlarning yozda kiyadigan kiyim-kechaklari nomlarini ifodalovchi otlar.

–*ustki kiyimlar:* (harir) ko‘ylak, kofta, yubka, futbolka...

–*oyoq kiyimlar:* shippak, basanoshka, (old va yon qismi ochiq) tufli.

d) xotin-qizlarning kuzda kiyadigan kiyim-kechaklari nomlarini ifodalovchi otlar.

–*ustki kiyimlar:* kurtka, kostyum, (yengsiz) chopon, xalat, (uzun) nimcha...

–*ichki kiyimlar:* (qalinroq) ko‘ylak, lozim, kofta, yubka, sarafan, vodolaska...

–*bosh kiyimlar:* shapka, shlyapa, beretka.

–*o‘ragichlar:* ro‘mol, sharf, sharfcha.

–*oyoq kiyimlar:* tufli, krassovka, makasinka...

e) xotin-qizlarning qishda kiyadigan kiyim-kechaklari nomlarini ifodalovchi otlar.

–*ustki kiyimlar:* chopon, palto, kurtka...

–*ichki kiyimlar:* (junli, drap) ko‘ylak, lozim, shim..

–*bosh kiyimlar:* papoq, telpak...

–*o‘ragichlar:* ro‘mol, sharf.

–*oyoq kiyimlar:* etik, etikcha, maxsi-kovush...

2.Erkaklarning kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi otlar.

3.Bolalarning kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi otlar.

Tabiiyki, qolgan guruhlar ham xuddi shunday yana ichki guruhchalarga ajraladi.

“Aniq va mavhum otlar” mavzusi o‘quvchi nutqini aniq (*sayis, nishona, bosmaxona, sallagul, marvaridgul, do‘l, sel*) va mavhum (*shukrona, tuyg‘u, bag‘rikenglik, quvvat, nafislik, hayolilik, odob, saxiylik, hilmlik, tavoze* kabi) otlar bilan boyitadi. Shu o‘rinda aniq otlarni mavhum otlar bilan solishtirish (*qalam–*

qalamkashlik; jadid–jadidchilik) imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuningdek, otlarning lug‘aviy guruhlarini o‘rgatishda yakka va jamlovchi otlarni farqlash (*xalq–fuqaro, olomon–kishi, to‘da–kimsa, guruh–shaxs, armiya–soldat, otar–qo‘y, uyur–ot, gala–bo‘ri, poda–sigir*) ham o‘quvchiga fikr ifodalashida qulaylik tug‘diradi.

O‘quvchilar otlarning son shakllari bilan tanishar ekanlar, *daraxt-daraxtlar, uy-uylar* singari so‘zlarning shakli ustida ishlaydilar, ko‘plik ma’nosini ifodalovchi boshqa vositalarni aniqlaydilar; bu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib ko‘plikni ifodalovchi qo‘shimchalar ma’nosini sharhlaydilar.

“Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari” mavzusi o‘rganilar ekan, o‘quvchilarga otlarning kichraytirish shakllari bilan bog‘liq so‘z juftlarining ma’no farqini topish (*qush–qushcha, shahar–shaharcha; toy–toychoq, qo‘zi–qo‘zichoq; tugun–tugunchak; qop-qopchiq*), shuningdek, otlarning erkalash shakllari bilan bog‘liq so‘z juftlarining ma’no farqi topishga e’tibor qaratilgan (*Po‘lat–Po‘latjon, Salima–Salimaxon, Karima–Karimabonu; Yoqut–Yoqutoy, Zaynab–Zaynabniso, Bilol–Bilolbek*; *qiz–qizaloq, bolam–bolaginam*) topshiriqlarni berish o‘rinli.

Yasama otlar, asosan, affiksatsiya (***shaxs otlari:*** *kompyuterchi, yilqichi;sholikor, g‘allakor; tishunos, o‘lkashunos; aravakash, kirakash; etikdo‘z, zardo‘z; kitobxon, gazetxon; zargar, kimyogar; soatsoz, kemasoz; mantipaz, oshpaz; dorboz, askiyaboz; sutxo‘r, sudxo‘r; mulkdor, muhrdor; bog‘bon, darvozabon; sinfdosh, kursdosh* va b.; ***narsa-buyum otlari:*** *qalamdon, kuldon; kurak, elak, to‘shak; o‘roq, suvoq; supurgi, chopqi, tepki, tomizg‘i; qatlama, suzma; o‘lchagich, o‘chirg‘ich, qisqich; qirindi, cho‘kindi; shaqildoq; do‘mbira, jizza; tugun, quyun; kekirdak; ilmoq, quymoq;* ***o‘rin-joy otlari:*** *bodomzor, o‘rikzor, pistazor; O‘zbekiston, Tatariston; o‘tloq, qumloq; Gulobod, Ne’matobod; Toshkent, G‘azalkent; qabulxona, to‘yxona; sayilgoh, oromgoh;* ***mavhum otlar:*** *do‘stlik, poklik; qo‘shnichilik, uzumchilik; og‘aynigarchilik, odamgarchilik; elektrlashtirish, avtomatlashtirish; sevgi, kulgi, tepki (kasallik), turtki, tuyg‘u; chidam, unum, kechirim; tilak, kekirik; og‘riq, buyruq, qiynoq; isitma, terlama; o‘kinch, sevinch; bekinmachoq, tortishmachoq; qurilish, o‘pirilish; maqtov, qo‘rquv; otaliq, tuzliq* kabi) va kompozitsiya (*simcho‘p, Beshyog‘och, xontaxta,*

xandonpista, go‘shtqiymalagich) usulida yasalishi bilan bog‘liq amaliy faoliyat ham o‘quvchi nutqini yangi so‘zlar bilan boyitishga qaratiladi.

1-topshiriq. Berilgan chizmaga diqqat qiling va u xususida xulosa chiqaring.

O‘quvchilar qo‘shma otlar nafaqat ikki va undan ortiq asosning qo‘shilishidan, balki so‘z birikmalari orasida sintaktik aloqaning uzilishi natijasidagi yaxlitlanishdan ham yasalishi haqida o‘qituvchi ko‘magida xulosa chiqaradilar.

“Ot” so‘z turkumini o‘rganishda milliy tarbiyaning bu qirrasi o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

”Sifat so‘z turkumi”ni o‘qitish metodikasi

6-sinfda, asosan, *“Sifatning umumiy belgilari va vazifalari”, “Sifatning qo‘shimchalar yordamida yasalishi va ularning imlosi”, “Sifatlarning tuzilishiga*

ko‘ra turlari: sodda sifatlar, qo‘shma sifatlar, juft va takroriy sifatlar, ularning yozilishi”, “Asliy va nisbiy sifatlar”, “Sifat turkumida shakl yasalishi”, “Daraja shakllari: oddiy daraja shakli, orttirma daraja shakli, ozaytirma daraja shakli, qiyosiy daraja shakli”, “Sifatning ma’no turlari: xususiyat, hajm-o‘lchov, makon-zamon, rang-tus bildiruvchi sifatlar, maza-ta’m va hid bildiruvchi sifatlar”, “Sifatlarda ma’no torayishi”, “Boshqa turkum so‘zlarning sifat o‘rnida qo‘llanishi (sifatlashuv)”, “Sifatning uslubiy qo‘llanishi” mavzulari ta’limi mo‘ljallangan.

“Sifat” so‘z turkumiga oid dastlabki ma’lumotlar boshlang‘ich sinflarda, shuningdek, 5-sinfda berilganligini inobatga olib, mazkur so‘z turkumini o‘rganish ana shu egallangan zaruriy bilimlarni o‘quvchilar xotirasida tiklash bilan boshlanadi. Berilgan so‘z birikmalarini o‘qish, qanday?, qanaqa? kabi so‘roqlarni qabul qiluvchi so‘zlarni aniqlash, shu so‘zlarni imkoniyat darajasida ularning ma’nodoshi bilan almashtirib so‘z birikmalari hosil qilish (masalan, *odobli bola–boodob bola, tuzsiz taom–betuz taom*), shaxs va narsa, hodisa, tushunchalarning belgi-xususiyati (rang-tusi, maza-ta’mi, xil-xususiyati, hajm-shakli)ni ifodalovchi so‘zlar ro‘yxatini lug‘at asosida tuzish, ular ishtirokida gaplar hosil qilish, muayyan matnni o‘qib, shunday so‘zlarni aniqlash singari topshiriqlar mazkur so‘z turkumi yuzasidan egallangan bilimlarni ular xotirasida tiklashga yordam beradi.

Shundan so‘ng o‘quvchilar e’tibori sifatlarning tuzilishiga (***sodda tub:*** *qizil, yashil; barno, suluv, shirin, taxir;* ***sodda yasama:*** *gulli, noqulay, jozibador, majolsiz, ishchan;* ***qo‘shma:*** *ochko‘z, sutrang, sohibjamol, ertapishar;* ***juft:*** *yaxshi-yomon, uzun-qisqa, bardam-baquvvat, tor-keng;* ***takroriy:*** *shirin-shirin, zebo-zebo, achchiq-achchiq, issiq-issiq, lo‘ppi-lo‘ppi;* ***murakkab:*** *sabr-qanoatli, ochiqchehrali*) sifatlarga qaratiladi.

O‘quvchilar hukmiga sifat turlari ishtirok etgan matn havola etilib sifatlarni tub va yasamalarga ajratish topshirig‘ini berish ham o‘rinli. Shuningdek, yasama sifatlarda sifat yasovchi qo‘shimchalarni aniqlash; berilgan sifat yasovchi qo‘shimchalar yordamida qo‘shimchadosh so‘zlar hosil qilish va ularning imlosi ustida ish olib borish ham yaxshi samara beradi. Chunonchi,

1-topshiriq. *Berilgan so‘zlar qatorini davom ettirib ularning har biri miqdorini 10taga yetkazing. Hosil bo‘lgan qo‘shimchadosh so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.*

rangli, ...

xoldor, ...

serjahl, ...

noiloj, ...

bama’ni, ...

bema’ni, ...

xushmanzara, ...

ixlosmand, ...

sababsiz, ...

xayolchan, ...

yopishqoq, ...

vaysaqi, ...

tinch,...

buxorocha (osh), ...

iroqi, ...

2-topshiriq.*Nega barcha qatorlardagi so‘zlar miqdorini 10taga yetkazish imkoni bo‘lmagani sababini izohlashga harakat qiling.*

“Sifat” so‘z turkumi ta’limida *“Asliy va nisbiy sifatlar”* mavzusi ham alohida ahamiyatga ega. Belgini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalaydigan va uni darajalab ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan sifatlar asliy sifatlar sanaladi: *go‘zal (go‘zalroq, eng go‘zal), chiroyli (chiroyliroq, juda chiroyli), shirin (shirinroq, nihoyatda shirin), oq (oqroq, oppoq).* Belgini to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlangan holda ifodalaydigan va daraja ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmagan sifatlar nisbiy sifatlardir: *qishki, ko‘chma, derazali, do‘ppili, devoriy* kabi.

Demak, asliy sifatlar belgini darajalab ko‘rsatish xususiyatiga ega. Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday ma’no

ifodalovchi shakllar esa daraja shakllari sanaladi. Sifatlarning quyidagi to‘rt xil darajasi mavjud:

1) oddiy daraja;

2) qiyosiy daraja;

3) orttirma daraja;

4) ozaytirma daraja.

Belgining odatdagi me’yorda ekanligini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi sifat shakli oddiy daraja shaklidir. Masalan, *oq, sariq, keng, uzun, toza, kichik, kalta*.

Belgining me’yordan biroz kam ekanligini qiyosan ifodalaydigan sifat shakli qiyosiy daraja shakli hisoblanadi. Qiyosiy daraja shakli *-roq* qo‘shimchasi yordamida yasaladi. Chunonchi, *oqroq, sariqroq, kengroq, uzunroq, tozaroq, kichikroq, kaltaroq.*

Belgining me’yordan ortiq ekanligini bildirgan sifat shakli orttirma daraja shakli deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi yo‘llar bilan hosil bo‘ladi:

a) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan *eng, g‘oyat, juda, nihoyatda, g‘oyatda, bag‘oyatda, bag‘oyat, jiqqa, g‘irt, tim* so‘zlari keltiriladi (leksik usul): *juda keng, g‘oyatda uzun, eng toza, nihoyatda kichik, juda kalta, jiqqa ho‘l, g‘irt mast, tim qora*;

b) oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo‘g‘ini (yoki bir qismi) tovush o‘zgarishi bilan takrorlanadi (fonetik usul): *qip-qizil, sap-sariq, bus-butun, kap-katta, to‘ppa-to‘g‘ri, top-toza.*

Belgining me’yordan kam ekanligini bildiruvchi shakl sifatning ozaytirma daraja shakli hisoblanadi. Ozaytirma shakl sifatning oddiy daraja shakli oldiga *sal, biroz, picha, xiyla, nim* so‘zlarini qo‘shish orqali hosil qilinadi: *sal keng, biroz shirin, picha sho‘r, xiyla ochiq, nim issiq (choy).*

Ba’zi sifatlarga, xususan, rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlarga *-mtir (-imtir), -sh(-ish), -gina (-kina, -qina), -chil, -tob* shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali ham ozaytirma daraja shakli yasaladi. Masalan, *ko‘kimtir, qoramtir, oqish, sarg‘ish, issiqqina, kichkinagina, yumshoqqina* kabi.

O‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi sifatlar ro‘yxatini tuzish, ularning ma’nosini qiyoslash, shu darajalarni hosil qiluvchi qo‘shimchalarning o‘zaro sinonimik munosabatga kirishishi kabi ijodiy-amaliy ishlarni bajaradilar.

Dastur talabiga ko‘ra asliy sifatlarning kuchaytirma shakli va asliy sifatlarning ozaytirma shakllari ustida alohida-alohida ish olib borish ko‘zda tutilgan.

*“Sifatning ma’no turlari”*ni quyidagi jadval asosida tushuntirgan ma’qul:

	Sifatning ma’noviy guruhlari	**Misollar**	
		asliy sifatlar	**nisbiy sifatlar**
1	**Rang-tus sifatlari**	*qo‘ng‘ir, oq, qizil, yashil, ko‘k, qirmizi*	*sutsimon, shaftoli gulli, moshrang*
2	**Maza-ta’m sifatlari**	*shirin, achchiq, chuchuk*	*nimtatir, chuchmal, mazasiz*
3	**Xususiyat sifatlari**	*sodda, quvnoq, sho‘x, kamtar, aqlli*	*ayiqsimon, bo‘ydor, andishali*
4	**Holat sifatlari**	*xursand, ho‘l, issiq, sovuq*	*navqiron, uyg‘oq*
5	**Shakl (hajm) sifatlari**	*baland, do‘mboq, uzun*	*beso‘naqay, xushbichim*
6	**Hid bildiruvchi sifatlar**	*muattar, qo‘lansa, sassiq*	*xushbo‘y, badbo‘y*
7	**Miqdor sifatlari**	*ko‘p, oz, mo‘l*	*serob, kamchil*
8	**Makon-zamon sifatlari**		*ichki, tashqi, yozgi, kuzgi, bahorgi*

O‘quvchlar mavzuga oid amaliy ishlarni bajarish davomida sifatning har bir ma’no turiga mustaqil ravishda misollar topishlari, ular ishtirok etgan xalq maqollari, aforizmlar, topishmoqlarni misol keltirishlari mumkin.

Shu o‘rinda o‘qituvchi maktab darsliklaridagi yana bir chalkashlikka (sifat turkumiga tegishli so‘zlarni ravishlar bilan aralashtirishga) chek qo‘yishi shart. Bilamizki, harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o‘rni, daraja-miqdori kabi belgilarni bildiruvchi va qanday?, qachon?, qayer?, qancha? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlar turkumi ravishdir. Ravishlar darajalanish xususiyatiga ega emas. Shunday ekan, *kam, ko‘p, oz, sekin, asta* kabi o‘nlab darajalanish xususiyatiga ega so‘zlarni nazariy jihatdan ravish deb qarash mumkin emas.

Sifatlarning otlashishi bilan sifatlarda ma’no torayish hodisalari*ni ham, avvalo, o‘qituvchining o‘zi to‘g‘ri farqlay olishi zarur.

”Son so‘z turkumi”ni o‘qitish metodikasi

6-sinf “Ona tili” dasturida ”Son so‘z turkumi” ta’limi uchun quyidagi mavzular belgilangan: *“Son so‘zlarning umumiy belgilari va vazifalari”, “Miqdor sonlar, uning turlari: sanoq sonlar va ularning yozilishi”, “Sanoq sonlar bilan qo‘llanuvchi hisob so‘zlari”, “Dona son va taqsim son shakllari”, “Chama sonlar va ularning yozilishi”, “Jamlovchi sonlar, ularning hosil qilinishi”, “Butun son va kasr son, ularning yozilishi”, Hisob so‘zlari”, “Tartib sonlar, ularning yozilishi*”.

Odatda, narsa-buyumlarning son-sanog‘ini va tartibini bildirib, qancha?, necha?, nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar turkumi bo‘lgan sonlarni o‘rganishda ularning imlosiga, qo‘llanilishiga, semantik xususiyatlariga e’tibor qaratish zarur.

“*Son so‘zlarning umumiy belgilari va vazifalari*” haqidagi ma’lumotlar sirasida quyidagilar bo‘lishi muhim:

1) sonlar uch xil yoziladi: arab raqamlari bilan: 1, 2, 5, 25, 52, 91…; rim raqamlari bilan: I, II, IV, XXV, LII, XCI…, harflar bilan: bir, ikki, besh, yigirma besh, ellik ikki, to‘qson bir…kabi;

2) sonlar morfologik tuzilishiga ko‘ra sodda (*to‘rt, olti, yetti, o‘n, yuz, ming, million*); qo‘shma (*o‘n to‘qqiz, bir yuz-u o‘n besh, ikki ming yigirma*), juft (*to‘rt-besh, yetti-sakkiztadan, o‘nta-yigirmata*), takror (*ikkita-ikkita, o‘nta-o‘nta*) ko‘rinishlarga ega;

3) nutqimizda tez-tez ishlatiladigan 23ta sodda son bo‘lib, boshqa sonlar shu sonlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: *nol, bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti,*

* Etimologik nuqtayi nazar bilan yondashsak, aslida sifat so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan ko‘plab so‘zlarni vaqt o‘tishi bilan ot so‘z turkumiga ko‘chganligini (ya’ni otlashganini) kuzatamiz. Masalan, *o‘g‘il (Qanday bola ? –o‘g‘il bola), qiz, chol, kampir* kabi. Sifatlarda ma’no torayish hodisasi esa kontekstda sifatdan keyin kelgan otning nutq vaziyatiga ko‘ra tushib qolishi va uning vazifasini sifat turkumiga xos so‘zning bajarishi tarzida tushunmoq kerak. Masalan, *Yaxshi kishi bilan yursang, yetarsan murodga...– **Yaxshi bilan** yursang, yetarsan murodga; Qo‘rqoq kishi oldin musht ko‘taradi–**Qo‘rqoq** oldin musht ko‘taradi.*

sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to‘qson, yuz, ming, million, milliard;

4) sonlar yasalmaydi, ammo boshqa so‘z turkumlarining yasalishi uchun asos vazifasini bajaradi (masalan, ikkilanmoq (fe’l); to‘rtlik (ot) kabi);

5) sonlar, odatda, otlar bilan birga qo‘llanilib, ularning aniqlovchisi (*uchinchi kurs, yettinchi palata, beshta kitob*) bo‘lib keladi. Sonlarning o‘zi hech qachon aniqlovchi olmaydi. Sonlar sintaktik xususiyatiga ko‘ra kesim (*Ishlarim besh; Ikki o‘n besh–bir o‘ttiz*), ma’nosi torayganda ega (*Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar; Uchovi Roziya buvinikga chiqishdi* (A.Qahhor), to‘ldiruvchi (*To‘rtni ikkiga bo‘lsang, natija ikki bo‘ladi*) vazifasida ham kela oladi.

6) sonlar butun yoki uning qismini ifodalashiga ko‘ra butun son, kasr son va aralash songa bo‘linadi. Butun son narsa-buyumning sanog‘ini, miqdorini uning butunligini saqlagan holda ifodalaydi (1, 3, 5, 12 kabi); kasr son butunning bo‘lagini, ulushini ifodalaydi. Kasr son ikki xil bo‘ladi: a) ikki son chiqish kelishigi qo‘shimchasi bilan bog‘langan bo‘ladi (*ikkidan bir, uchdan ikki, to‘qqizdan besh* va b.); b) o‘z holicha kasrni anglatadigan so‘zlar bo‘ladi: *yarim* (1/2), *chorak* (1/4), *nimchorak* (1/8);

Butun son bilan kasr son birgalikda ishlatilsa, aralash son bo‘ladi (*bir yarim, ikki butun o‘ndan besh, bip butun to‘rtdan uch*).

7) sonlar ma’no va grammatik jihatdan olti xil bo‘ladi: 1) miqdor son (*uch, besh, sakkiz, o‘n olti*), 2) dona son(*uchta, beshta, sakkizta, o‘n oltita*), 3) tartib son (*uchinchi, beshinchi, sakkizinchi, o‘n oltinchi*), 4) chama son (*uchtacha, beshtacha, o‘nlab, Soat o‘n birlar bo‘ldi*), 5) jamlovchi son (*uchala, beshov(i), oltovlon*), 6)taqsim son (*uchtadan, beshtadan*).

Agar inson zotining ijtimoiy hayotda hamisha sonlarga murojaat etishini inobatga olsak, mavzu ta’limining mohiyati yaqqolroq seziladi.

O‘quvchilar ”Son so‘z turkumi” ta’limi jarayonida sonlarning tuzilishiga ko‘ra, shuningdek, sonlarning ma’no va grammatik jihatdan turlarini farqlash hamda ulardan nutqda o‘rinli va samarali foydalanish ko‘nikmasini mustahkamlaydilar.

O‘quvchilar maishiy hayotda sonlarga qo‘shib ishlatiladigan hisob so‘zlarga tez-tez duch keladilar. Hisob so‘zlardan o‘z nutqlarida ham foydalanadilar. Masalan, *ikkita daftar, beshta o‘quvchi, bir chimdim tuz, bir siqim tuproq* kabi. Ammo ularning sonlar bilan birga qo‘llaniluvchi hisob so‘zlar ekanligini shu mavzu ta’limi orqali anglab oladilar. Predmetning soniga ko‘ra belgisini ifodalovchi sanoq sonlar, ko‘pincha, o‘lchov bildiradigan hisob so‘zlar bilan birga qo‘llaniladi. Hisob so‘zlar miqdor (sanoq) son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so‘z o‘rtasida qo‘llanilib, ularning og‘irligiga, uzunligiga, hajmiga, joylashish o‘rni va boshqalarga ishora qiladi.

Hisob so‘zlar ustidagi amaliy ishlarda quyidagi jadvaldan foydalanish ham qulay:

Narsa-buyumlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlar	*o‘n dona (kitob), besh nusxa (jurnal), o‘n to‘qqiz bosh (qoramol), ikki tup (atirgul), uch nafar (o‘quvchi) va b.*
Butun, guruh yoki to‘daning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlar	*bir burda (non), bir parcha (yer), ikki varaq (qog‘oz), to‘rt og‘iz (gap), bir luqma (osh), bir siqim (jiyda), bir tilim (handalak), ikki karch (qovun), bir chimdim (murch), bir qultum (sut), bir ho‘plam (suv), ikki qatra (ko‘z yoshi), bir tomchi (qon), to‘rt chaqmoq (qand), bir nimta (go‘sht), ikki to‘g‘ram (non), bir bo‘lak (yog‘och), bir poy (kalish), ikki shingil (uzum).*
Narsa-buyumlarni to‘dalab, guruhlab ko‘rsatuvchi hisob so‘zlar	*bir gala (turna), ikki bog‘ (ko‘kat), bir to‘p (ayol), o‘n bog‘lam (beda), bir guruh (odam), bir quchoq (o‘tin), bir to‘da (otliq), bir shoda (marvarid), bir sinf (o‘quvchi), ikki hovuch (turshak)...*
Og‘irlikni ifodalovchi hisob so‘zlar	*gramm, kilogramm, sentner, tonna, pud, misqol, qadoq, botmon, qirot...*
Uzunlikni ifodalovchi hisob so‘zlar	*metr, kilometr, gaz, quloch, tanob, qadam, qarich...*
Vaqt o‘lchovini ifodalovchi hisob so‘zlar	*asr, era, yil, oy, hafta, kun, sutka, soat, minut, daqiqa, soniya...*
Qiymat ifodalovchi hisob so‘zlar	*so‘m, tiyin, tilla, tanga, miri, paqir, chaqa...*

Bu sirani yana davom ettirish mumkin. *Qadoq, paysa, tanob, gaz, sarjin, paysa, taxta, enlik, so‘lkavoy, tosh, pud, yumaloq* kabi hisob so‘zlar eskirgan bo‘lib, kundalik nutqimizda deyarli qo‘llanilmaydi.

O‘quvchilar jadvalni davom ettirishlari yoki jadvalda berilgan hisob so‘zlar ishtirokida gaplar tuzishlari ham mumkin. Asosiysi, o‘quvchida hisob so‘zlardan o‘rinli foydalanish malaka va ko‘nikmasi hosil bo‘lishi zarur.

Sonlar ham sifatlar kabi gapda otga bog‘lanib, aniqlovchi vazifasini bajaradi. Ba’zan son izohlab kelayotgan ot (aniqlanmish) tushib qolishi va uning barcha xususiyatlarini son bajarishi mumkin. Gapda sonlarning shaxs, narsa-buyum, voqea-hodisa ma’nolariga ega bo‘lishi sonlarda ma’no torayishi* hisoblanadi. Jumladan, *Bir daraxtni kessang, o‘n daraxtni ek – Birni kessang, o‘nni ek.*(Maqol) *O‘n besh soni uch soniga kasrsiz bo‘linadi – O‘n besh uchga kasrsiz bo‘linadi.; Ikkala qiz do‘stlashib qoldi – Ikkalasi do‘stlashib qoldi.*

O‘quvchi hukmiga hamisha ham miqdor ma’nosini ifodalamaydigan *bir* so‘zi bilan bog‘liq topshiriqlarni havola etish mumkin. Masalan,

1-topshiriq. *Berilgan gaplarni o‘qing. Gaplar tarkibida qo‘llanilgan* ***bir*** *so‘zi ifodalagan ma’nolarni aniqlang.*

1.Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi. (H.Olimjon) 2.Sayohatga hammamiz bordik, bir Ahmad sog‘ligi tufayli bora olmadi. 3. Eshikni bir kishi taqillatyapti. 4. Bir yomg‘ir yog‘adi, bir quyosh porlaydi. 5. O‘ktam kabinetda o‘tirganlarga bir-bir qarab chiqdi. (Oybek) 6. Do‘kondor o‘g‘rini biram so‘kdi, biram so‘kdi. 7.Yakshanbaga bir dam olsak. 8. Tiling birla dilingni bir tut.(Maqol)

2-topshiriq. *Berilgan siralarga mos gaplar tuzing. Gaplar tarkibida* ***bir*** *so‘zi qo‘llanilishi muhimligini inobatga oling.*

***Bir* so‘zi:**

1) miqdor ma’nosini bildiradi;

2) noaniqlik, noma’lumlik ma’nolarini ifodalaydi;

3) chegara ma’nosini bildiradi;

---

* So‘zlarda ma’no torayish hodisasi nutqiy tejamkorlik bilan bog‘liq.

4) harakatning belgisini, qay tarzda bajarilganligini bildiradi;

5) fe’l ifodalagan ma’noni kuchaytiradi;

6) mo‘ljal ma’nosini ifodalaydi;

7) predmet yoki harakatning bir turdaligini bildiradi;

8) ayiruv bog‘lovchisi bo‘lib keladi.

Bu kabi amaliy topshiriqlardan madsad bitta: o‘quvchida til sezgirligini oshirish va so‘zning lug‘aviy ma’nosini teran anglashga o‘rgatish, tilimizning beqiyos imkoniyatlaridan nutq sharoitiga mos ravishda foydalanishga odatlanish va odatni tabiati darajasiga ko‘tarish.

”Ravish so‘z turkumi”ni o‘qitish metodikasi

6-sinf “Ona tili” dasturida ”Ravish so‘z turkumi” ta’limi uchun quyidagi mavzular belgilangan: *“Ravishlarning umumiy belgilari va vazifalari”, “Ravishlarning yasalishi”, “Tub va yasama ravishlar”, “Ravish yasovchi qo‘shimchalar”, “Ravishlarning ma’no turlari: holat ravishlari, o‘rin ravishlari, payt ravishlari, miqdor-daraja ravishlari”, “Ravishlarning uslubiy qo‘llanishi*”.

Ravish harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o‘rni, daraja-miqdori kabi belgilarni bildiruvchi va qanday?, qachon?, qayer?, qancha? so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlar turkumi hisoblanadi.

Ravishlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. Ravishlar morfologik jihatdan o‘zgarmasdir, ya’ni lug‘aviy shakl (shakl hosil qiluvchi) hamda aloqa-munosabat qo‘shimchalari ravishlarning tarkibida qotib qolgan bo‘lib, ular morfemalarga ajratilmaydi: *bekorga, to‘satdan, qo‘qqisdan, juda* kabi.

2. Ravishlar turlanmaydi, tuslanmaydi. Gapda ko‘pincha fe’lga bog‘lanib, hol vazifasida keladi. Masalan, *O‘quvchilar topshiriqni qisman bajardilar*.

3. *Juda, eng, g‘oyat, nihoyatda, benihoya, g‘oyatda* ravishlari sifat bilan birikib, belgi ma’nosini kuchaytiradi, *sal, xiyol, arang, xiyla* ravishlari esa belgi ma’nosini pasaytirishga xizmat qiladi: *juda go‘zal, noyatda qiziq, sal tor, xiyol keng*.

4. Ravishlarga bir qator otlar va sifatlar juda yaqin turadi. *Kecha kunduz, tong, oqshom* kabi payt otlari; *barvaqt, bir mahal, kech* kabi payt sifatlari; *atrof, tegra, o‘rta, ichkari, tashqari, o‘ng, chap, old, orqa* kabi o‘rin otlari; *oldin, keyin, yuqori, past, baland* kabi o‘rin sifatlari; *oz, ko‘p, mo‘l, butun, to‘la* kabi miqdor sifatlari shular jumlasidandir.

5. Ravishlar o‘ziga xos yasalish tizimiga ega.

Ravishlar tuzilishiga ko‘ra sodda (sodda tub: *endi, hamisha, hanuz, boya, kechalari, juda*; sodda yasama: *mardona, ertalab, qahramonlarcha, atayin, qisman, shijoatkorona*), qo‘shma (*biroz, har dam, biryo‘la, birvarakay, birpas*), juft (*undan-bundan, oyda-yilda*), takror (*juda-juda, hali-hali, endi-endi, yuzma-yuz, so‘zma-so‘z, o‘z-o‘zidan*) ko‘rinishlarga ega.

“Ravishlarning ma’no turlari” ustida ishlash uchun (ta’lim oluvchining o‘ziga izlab topish, farqlash, o‘xshash jihatlarni mantiqan umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutgan holda) o‘quvchilar hukmiga quyidagi kabi topshiriqlarni havola etish mumkin:

***1-topshiriq**. Berilgan siralarni moslari bilan juftlang.*

piyoda (yurmoq)——1	payt ravishi ——1	1–...
atayin (so‘ramaslik)—2	o‘rin ravishi ——2	2–...
ancha (o‘qimoq)——3	sabab ravishi ——3	3–...
pastdan (qaramoq)——4	holat ravishi ——4	4–...
boya (kelmoq)——5	maqsad ravishi ——5	5–...
noiloj (gapirmoq)——6	daraja-miqdor ravishi –6	6–...

Javob quydagicha bo‘lishi zarur:

piyoda (yurmoq)——1	payt ravishi ——1	1–4
atayin (so‘ramaslik)—2	o‘rin ravishi ——2	2–5
ancha (o‘qimoq)——3	sabab ravishi ——3	3–6
pastdan (qaramoq)——4	holat ravishi ——4	4–2
boya (kelmoq)——5	maqsad ravishi ——5	5–1
noiloj (gapirmoq)——6	daraja-miqdor ravishi –6	6–3

***2-topshiriq**. Berilganlarni jadvalga to‘g‘ri joylashtiring.*

holat ravishlari	***payt ravishlari***	***o‘rin ravishlari***	***daraja-miqdor ravishlari***	***maqsad ravishlari***	***sabab ravishlari***

yakkama-yakka, sal, atayin, hozirdan, tiriklayin, nihoyatda, endi, tasodifan, ertaga, yonma-yon, xomligicha, hamon, astoydil, aslo, bafurja, ahyon-ahyonda, ataylab, picha, eskicha, jo‘rttaga, arang, birdan, yangicha, doimo, zo‘rg‘a, taxminan, hamisha, qatorasiga, qasddan, indinga, chorasizlikdan, sira, mardlarcha, qishin-yozin, oz-ozdan, dastlab, o‘ta, erkakchasiga, so‘ngra, juda, birma-bir, ochin-to‘qin, avvallari, g‘olibona, xiyol, olg‘a g‘oyat,, uzoqdan, qisman, ataylab, noilojlikdan

”Olmosh so‘z turkumi”ni o‘qitish metodikasi

7-sinf “Ona tili” dastur va dasligida ”Olmosh so‘z turkumi” ta’limi uchun quyidagi amaliy ishlar belgilangan:

Olmosh so‘z turkumi va uning tasnifi.

Ko‘rsatish olmoshlari: ma’nolari va vazifalari. Ko‘rsatish olmoshlarining gapdagi vazifalari. Ko‘rsatish ma’nosini kuchaytiruvchi *mana, ana* yuklamalari ustida ishlash. *Shunday, munday, shunaqa, bunaqa; unaqa, buncha, shuncha, uncha* kabi olmoshlarning nimaga ishora qilib kelishi ustida ishlash.

Kishilik olmoshlari va ularning qo‘llanishi. *Men, sen, u, biz, siz, ular* olmoshlari ustida ishlash. Kishilik olmoshlarining birlik va ko‘plik sonda qo‘llanilishi. Siz olmoshining ma’nolarini sharhlash.

O‘zlik olmoshi va uning qo‘llanishi. O‘z so‘zining ma’nosi ustida ishlash, o‘zlari olmoshining ko‘plik, hurmat yoki kesatish ma’nolarida qo‘llanishi, gapdagi vazifasi. O‘zlik olmoshi yuzasidan xulosa chiqarish. (O‘zlik olmoshi boshqa olmoshlarni almashtirish xususiyatiga ega. Masalan, *men – o‘zim, sen – o‘zing, u – o‘zi; biz – o‘zimiz, siz – o‘zingiz, ular – o‘zlari* kabi.)

So‘roq olmoshlarining ma’no turlari. So‘roq olmoshlarining qo‘llanishi. So‘roq olmoshlarining ifodalanishi. So‘roq ifodalovchi so‘zlarning: 1) shaxs, hayvon yoki narsa-buyum, voqea-hodisa nomlari so‘roqlari; 2) belgi, xususiyat so‘roqlari; 3) miqdor-daraja so‘roqlari; 4) harakat-holat so‘roqlari kabi guruhlari ustida ishlash.

So‘roq ifodalovchi so‘zlarning: 1) o‘rin-joy so‘roqlari; 2) payt so‘roqlari; 3) sabab so‘roqlari; 4) maqsad suroqlari kabi guruhlari bilan ishlash.

So‘roq olmoshlarining ohangi ustida ishlash. So‘roq olmoshlari bo‘yicha xulosa chiqarish.

Belgilash olmoshlari va ularning qo‘llanishi, ma’no vazifasi ustida ishlash; **har** belgilash olmoshining qaysi so‘zlar bilan birikkanligi va gaplardagi ma’nosini tushuntirish; belgilash olmoshlari orasidagi ma’noviy farqlar ustida ishlash.

Belgilash olmoshlarining sharhi. Belgilash olmoshlari xususida umumlashma hosil qilish.

Gumon olmoshlari va ularning qo‘llanilishi. Gumon olmoshining yasalishi va ma’nolarini izohlash. Gumon olmoshlarini so‘roq olmoshlari bilan almashtirish; har ikkala gap ma’nosini qiyoslab, tegishli xulosa chiqarish. Gumon olmoshlarining hosil bo‘lishi, imlosi va talaffuzi ustida ishlash.

Bo‘lishsizlik olmoshlari va ularning qo‘llanishi. Bo‘lishsizlik olmoshlarining hosil bo‘lishi va ma’nosi.

Olmoshlar o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlar. Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda va qo‘shma, juft, takroriy olmoshlar. Ularning imlosi.

Ma’lumki, boshqa so‘zlar, shuningdek, so‘z birikmasi va gap o‘rnida almashinib qo‘llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar turkumi olmoshdir.

Olmoshlar o‘ziga xos quyidagi xususiyatlarga ega:

1) olmoshlarning aniq lug‘aviy ma’nosi yo‘q, ularning qaysi ma’noda kelayotganligi matnda qaysi so‘z yoki gap o‘rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi;

2) olmoshlarda yasalish xususiyati yo‘q; biroq olmoshlardan boshqa so‘z turkumlariga oid so‘zlar yasalishi mumkin: *manmanlik, sensiramoq, o‘zlik,o‘zibo‘larchilik* va b.;

3) olmoshlar aniq ma’no bilan mavhum (umum, abstrakt) ma’noning almashinib qo‘llanilishini xarakterlaydi;

4) olmoshlar gapda egalik, kelishik, shaxs-son (aloqa-munosabat) qo‘shimchalari bilan shakllanib, turli sintaktik vazifalarni bajaradi. Chunonchi, *Sen menga xushxabar keltirding; Siz ko‘rmoqchi bo‘lgan kitob – shu; Bizni tomoshabinlar qizg‘in olqishlashdi.*

Olmoshlar nutqiy tejamkorlik manbayi (masalan, *Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabalari respublika miqyosida o‘tkazilgan musobaqada qatnashishdi. Ular musobaqa g‘olibi bo‘lishdi*); takrorlarning oldini oluvchi vosita (*Karim maktabda o‘qiydi. U a’lochi*) va h.

”Yordamchi so‘z turkumlari”ni o‘qitish metodikasi

Yordamchi so‘z turkumlari bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklamalardir.

Yordamchi so‘z turkumlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1) mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lmaydi;

2) yakka holda gapning biror bo‘lagi vazifasida kela olmaydi;

3) shakl yasash xususiyatiga ega emas;

4) yakka holda muayyan so‘roqqa javob bo‘lmaydi.

7-sinf “Ona tili” dastur va dasligida ”Yordamchi so‘z turkumlari” ta’limi uchun qator amaliy ishlar belgilangan. Jumladan, “Ko‘makchi” ta’limi quyidagilar asosida o‘tilishi belgilangan:*“Yordamchi so‘zlar”, “Ko‘makchi haqida umumiy tushuncha”, “Sof ko‘makchilarning qo‘llanishi”, “Bosh va qaratqich kelishiklaridagi so‘zlar bilan qo‘llanuvchi ko‘makchilar”, “Jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanuvchi ko‘makchilar”, “Chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanuvchi ko‘makchilar”, “Sof ko‘makchilarning ayrim qo‘shimchalar bilan ma’nodoshligi”, “Ko‘makchi otlar va ularning qo‘llanishi”.*

“Bog‘lovchi” ta’limi quyidagilar asosida o‘tilishi belgilangan: *“Bog‘lovchi” ta’limi quyidagilar asosida o‘tilishi belgilangan: “Bog‘lovchilar haqida umumiy tushuncha”, “Teng bog‘lovchilarning turlari: biriktiruv bog‘lovchilari, ayiruv bog‘lovchilari, zidlov bog‘lovchilari”, “Ergashtiruvchi*

bog‘lovchilarning turlari: aniqlov bog‘lovchilari, sabab bog‘lovchilari, shart va chog‘ishtiruv bog‘lovchilari va ularning qo‘llanishi”.

“Yuklama” ta’limi quyidagilar asosida o‘tilishi belgilangan: *“Yuklamalar haqida umumiy tushuncha”, “Yuklamalarning ma’no turlari: kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari; so‘roq va taajjub yuklamalari; ayiruv va chegaralov yuklamalari; aniqlov, gumon va inkor yuklamalari“.*

Quyida shu mavzular ta’limi bilan bog‘liq dars ishlanmasini havola etamiz:

1-namuna

7-sinfda “Yordamchi so‘zlar”ni
o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish

Ushbu ishlanmada 7-sinf o‘quvchilarida nutqda yordamchi so‘zlardan o‘rinli foydalana olish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish tajribasi 7-sinf ona tili darsligi[145]dagi “Yordamchi so‘zlar” mavzusi ustida ishlash jarayoni orqali yoritilgan.

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning yordamchi so‘z turkumlari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni yurtparvarlik, Milliy Istiqlolga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda til sezgirligi ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: savol-javob, jamoa bo‘lib ishlash, “Kim topqir” metodi va b.

Darsning jihozi: “Ona tili” darsligi, kompyuter, yurtimizda mavjud uy hayvonlarining rangli suratlari tushirilgan topshiriqli slaydlar, tarqatma materiallar, videoproektor, rag‘bat kartochkalari.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism o‘tkaziladi.

[145] Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: Ma`naviyat, 2019. – 128 b.

Bu darsdan ilgari o‘quvchilarga so‘zlash odobi, yaxshilik, rostgo‘ylik, inoqlik, do‘stlik, ishning ko‘zini bilish kabilar haqida “O‘zbek xalq maqollari” kitobidan tarkibida yordamchi so‘zlar mavjud bo‘lgan maqollarni yod olish, uy hayvonlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish vazifasi topshiriladi.

Sinf o‘quvchilarini *“Ko‘makchi”, “Bog‘lovchi”, “Yuklama”* nomli guruhlarga bo‘lamiz. Bu guruhlar ta’limiy topshiriqlarni bajarishda bir-birlari bilan musobaqalashishlari kerak.

Dars ***“Aqliy hujum”, ya’ni “Maqollarda hayot hikmati”*** nomli ta’limiy topshiriqni bajarishdan boshlanadi. Bunda har bir guruhga proyektor orqali belgilangan maqolning birinchi qismi, ya’ni boshlanishi ko‘rsatiladi, guruhlar zudlik bilan uni davom ettira olishlari zarur bo‘ladi. Chunonchi,

Proyektor orqali: *Dono **sari** intilsang, dono bo‘larsan…*

“Ko‘makchi” guruhi: *Ahmoq **sari** yugursang, ahmoq bo‘larsan…*

“Bog‘lovchi” guruhi: *Kun kundan o‘tgan **sayin** ekkaningni o‘rarsan.*

Proyektor orqali: *Shirin so‘z **bilan** ilon inidan chiqar…*

“Yuklama” guruhi: *Yomon so‘z **bilan** pichoq qinidan chiqar…*

“Ko‘makchi” guruhi: *Yomon so‘z **bilan** musulmon dinidan chiqar.*

Musoboqa davomida o‘quvchilarga *“Hosil **uchun** yer hayda, yer haydasang **ham** kuz hayda, kuz haydamasang-**chi**, yuz hayda”, “Do‘sti ko‘p **bilan** siylash, do‘sti oz **bilan** sirlash, do‘sti yo‘qdan qoch”, “Dehqon makkasidan kechsa **ham**, chumchuqlar o‘zaro kelisholmas, noahil-**da**, hech chiqisha olmas”, “Oyning **ham** o‘rog‘i bor, har toyning **ham** suv ichgan bulog‘i bor, har ko‘katning **ham** suygan tuprog‘i bor”, “Nodon **va** yalqov – dushman **uchun** ov”, “Er yigit nomi **bilan**, Mehnatda shoni **bilan**, Yov kelsa, joni **bilan**”, “Saxiy **bilan** baxil bir buloqdan suv ichmas. Saxiy **bilan** baxil bir uyga sig‘mas. Saxiy **bilan** baxilni eshagining to‘qimi bildirar”, “Yolg‘onim **go‘yo** uzoqqa ketdi, Ko‘zlangan manzildan **ham** o‘tdi, Baribir haqiqat quvib yetdi”, “Imon **bilan** himmat egizak, Bitik **bilan** hikmat egizak, Yolg‘on **bilan** sharmisorlik egizak*” kabi maqollarning boshlanish qismini berish ham o‘rinlidir.

O‘qituvchi esa o‘quvchilar e’tiborini maqollar mag‘ziga singdirilgan mantiqiy ta’sirlarga qaratadi, shuningdek, maqollar matnidagi mazmundorlikni ta’minlashda mustaqil ma’noli so‘zlar bilan bir qatorda yordamchi so‘zlar ham ishtirok etganligini, yordamchilarning ham gapda o‘z o‘rni borligini eslatadi.

Keyingi musobaqa **“O‘rnida qo‘lla!”** o‘yini tarzida o‘tkaziladi. Bunda har bir guruhga proyektor orqali topshiriqli slaydlar ko‘rsatiladi.

O‘yin shartiga ko‘ra, 4-5 daqiqa ichida har bir guruh o‘zlariga mo‘ljallangan rasm asosida ijodiy matn tuzishi, matnda, albatta, yordamchi so‘zlardan foydalanishi va tuzilgan ijodiy matn tarkibidagi uchta gap rasm pastida berilgan chizmaga mos kelishi kerak.

“Ko‘makchi” guruhi:

---------- bilan ----------, ammo---------- .

---------- uchun---------- kabi ---------- .

Avval---------- , so‘ngra ---------- .

Qorabayir

O‘zbekistonda otning bir qancha turlari bo‘lib, ular uy hayvonlaridan biri hisoblanadi. Shulardan biri qorabayirdir. Qorabayir ***ham*** *issiqqa,* ***ham*** *sovuqqa chidamliligi* ***bilan*** *boshqa otlardan ajralib turadi.*

Otlar ***va*** *ularni boqish* ***bilan*** *shug‘ullanish yaxshi,* ***ammo*** *bu oson ish emas. Otlarni parvarishlash uchun keng* ***va*** *ozoda joy, yetarli ozuqa bo‘lishi kerak.* ***Avval*** *otlarni sevish,* ***so‘ngra*** *ularni boqishga kirishish kerak.*

Qorabayir mag‘rurlik ramzi.

“Bog‘lovchi” guruhi:

---------- va ----------, biroq---------- .

----------ham, ---------- ham----u, ---------- .

Ba’zan---------- , ba’zan ---------- .

Oq ot–go‘zallik timsoli

Oq ot ***ham*** *boshqa otlar* ***kabi*** *chiroyli, rangida* ***ham*** *musaffolik ramzi bor. Biz qorabayir, saman, to‘riq* ***va*** *qashqa* ***kabi*** *otlarni yaqindan ko‘rganmiz,* ***biroq*** *rasmdagi* ***kabi*** *go‘zal, baquvvat oq otni tomosha qilmaganmiz. Ot sutidan qimiz bo‘lishini* ***ham****, go‘shtidan qazi tayyorlanishini* ***ham*** *bilamiz-****u****, ularning foydali xususiyatlari* ***haqida*** *eshitmagan ekanmiz. Albatta, shunday ma’lumotlarni topib o‘qishga harakat qilimiz.*

Ba’zan *o‘zimizning otimiz bo‘lishini,* ***ba’zan*** *unga minib hammani qoyil qoldirishni istar edik. Endi hammamiz go‘zallik timsoli bo‘lgan oq otimiz bo‘lishini orzu qilyapmiz.*

“Yuklama” guruhi:

---------- -a? ----------mi ? ---------- .

----------faqat ---------- xuddi ---------- .

----------naq---------- , go‘yo ---------- .

Saman

*Saman otni ko‘pchiligimiz bilamiz-****a****? Shu otni siz ham chiroyli, g‘ayratli deb hisoblaysiz****mi****? Bizningcha, chopqirlikda, go‘zallikda* ***va****, ayniqsa, sadoqatlilikda samanga teng keladigani yo‘q. Saman Boychibor, G‘irot, Jiyronqush* ***kabi*** *afsonaviy otlar avlodidan. Dostonlardan bilamizki, ot* ***faqat*** *uzog‘ingni yaqin qiladigan ulov emas, u* ***xuddi*** *yaqinlaring* ***kabi*** *sadoqatli do‘st hamdir.*

Rasmdagi otning ***naq*** *peshonasi oq tusda, u oldinga intilmoqda,* ***go‘yo*** *uchib borayotgan****day****.*

Guruhlar taxminan yuqoridagi kabi matnlar tuzadilar va o‘qib beradilar. Bu o‘yin-topshiriqda g‘olib guruhga rag‘bat kartochkasi beriladi.

Darsning bu qismiga o‘quvchilar o‘qituvchi boshchiligida yakun yasaydilar: tuzilgan matnlarda mustaqil ma’noli so‘zlar bilan teng baravar yordamchi so‘zlar

ham bog‘lanishli matnlarning yuzaga kelishiga xizmat qilganligiga e’tibor qaratiladi.

Shundan so‘ng o‘quvchilar hukmiga proyektor orqali “Bilib oling” rukni ostida berilgan matn havola etiladi va o‘quvchilarga o‘qittirilib mazmuni so‘raladi:

Atash ma’noli so‘zlar yoki ular o‘rnida qo‘llanilib, ma’lum so‘roqlarga javob bo‘luvchi va gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida keluvchi so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi.

Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlar yordamchi so‘zlar hisoblanadi.

Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, ularning ma’nolariga qo‘shimcha ma’no yuklash vazifalarini bajaradi.

Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar kiradi.

Matndagi ***yordamchi so‘zlarga*** berilgan ta’rifni o‘quvchilar qaydarajada o‘zlashtirganlarini bilish uchun proyektor orqali qo‘yidagi matn yozilgan slayd ko‘rsatiladi:

Bir shogird ustozidan: “Izzat ***hamda*** *hurmatga ko‘p loyiq bo‘lgan zot kim?” deb so‘rabdi. Ustozi: “Ona”, deb javob beribdi. Shogirdi: “Undan* ***keyin*** *kim?” deb so‘raganda ustozi “Ona” deb javob qaytaribdi, uchinchi marta savolga* ***ham*** *“Ona” so‘zini takrorlabdi...*

*Olim-fozillar onani quyoshga, hayotga qiyoslaydilar. Ha, onaning mehri quyosh****dek*** *beminnat* ***va*** *musaffodir. Onaning o‘z farzandlari* ***uchun*** *qilgan xizmatini hech narsa* ***bilan*** *o‘lchab* ***ham****, baholab* ***ham*** *bo‘lmaydi. Onalarning davlati* ***ham****, borlig‘i* ***ham****, kelajagi* ***ham****, quvonchi va muhabbati* ***ham*** *farzandidir. Ona o‘z farzandiga hayot bag‘ishlaydi* ***va*** *unga mehr-muhabbat-****u*** *insoniylik fazilatlarini baxsh etadi-****ku****. Farzandlar* ***faqat*** *ana shu ulug‘ siymo oldida ko‘proq qarzdordirlar.*

Matndagi ajratib ko‘rsatilgan yordamchilarning ma’nosiga, shakliga e’tibor qaratiladi, yordamchi so‘zlarning mustaqil so‘zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, ularning ma’nolariga qo‘shimcha ma’no yuklash vazifalari tushuntiriladi.

Shundan keyin o‘quvchilar e’tibori quyidagi gaplar yozilgan slaydga qaratiladi:

Qo‘ng‘iroq chalindi, dars boshlandi.

Qo‘ng‘iroq chalindi va dars boshlandi.

Qo‘ng‘iroq chalindi-da, dars boshlandi.

Qo‘ng‘iroq chalindi-yu, dars boshlandi.

Qo‘ng‘iroq chalindi hamda dars boshlandi.

Qo‘ng‘iroq chalindi, ammo (lekin, biroq) dars boshlanmadi.

Ham qo‘ng‘iroq chalindi, ham dars boshlandi.

Qo‘ng‘iroq chalindi, shuning uchun dars boshlandi.

Qo‘ng‘iroq chalindiki, dars boshlandi.

Gaplar orasidagi ma’no nozikliklariga ko‘ra farqlar o‘quvchilardan so‘raladi.

O‘quvchilar **“Kim topqir?”** o‘yinida slaydlarga joylashtirilgan test savollariga javob topadilar.

Dars so‘ngida “**Tinglashni o‘rgan!**” o‘yin-topshirig‘i o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilarga komputer diktofoniga yozilgan quyidagi matn o‘qib eshittiriladi va ularga matn tarkibida qo‘llanilgan yordamchi so‘zlarni daftarlariga yozib borish topshirig‘i beriladiki, bu o‘quvchilarda diqqatni tarbiyalashga ko‘maklashadi:

Tinglash kishidan sabr-qanoatni, chidam-bardoshni va o‘ziga xos odob-axloqni talab etadigan xislatdir: “Bir kuni qadimgi yunon faylasufi Arastuning oldiga juda ham sergap yosh yigit kelib unga notiqlik san’atini o‘rgatishni iltimos qilibdi. U dabdabali so‘zlarni izhor etgandan so‘ng Arastudan o‘qish uchun qancha haq to‘lashni so‘rabdi.

–Sendan boshqalarga qaraganda ikki barobar ko‘proq haq olinadi, - qovog‘ini solib javob beribdi faylasuf.

–Nima uchun? -hayron bo‘libdi yigit.

–Chunki sen bilan ikki barobar ishlashga to‘g‘ri keladi: senga so‘zlashni o‘rgatishdan avval jim turishni o‘rgatishim lozim.....

Shuning uchun ham ulug‘ Kaykovus bobomiz o‘ziniig “Qobusnoma” asarida shunday nasihat qiladi:

“Ey farzand, toki qila olsang, so‘z eshitmakdin qochmagilkim, kishi so‘z eshitmak bila suxango‘ylik hosil qilur. Avvalo buni shundoq dalillash mumkin: agar bir o‘g‘lon onadin tug‘ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u o‘g‘lon hech kishining so‘zin eshitmasa, ulug‘ bo‘lg‘onda lol (soqov) bo‘lur.

Ko‘rmasmusankim, barcha lollar kar bo‘lurlar...”

(Siddiq Mo‘min “So‘zlashish san’ati” kitobidan)

Har bir o‘quvchi topshiriqni mustaqil bajaradi, keyin esa o‘z guruhdoshlari bilan tahlil qiladi. Tahlil natijalari guruhning bir yoki ikki a’zosi tomonidan o‘qib beriladi. Zaruriy o‘rinlar o‘qituvchi tomonidan izohlanadi.

Ushbu topshiriq bo‘yicha g‘olib guruh uchun qisqa ritmdagi yoqimli musiqa eshittirib boriladi.

Agar bir soatlik dars uchun mo‘ljallangan yuqoridagi topshiriqlarni doskada yozish yoki tarqatma materiallar, qog‘ozli ko‘rgazmalar orqali tashkil etsak, bizga 45 daqiqa kamlik qiladi. Taqdim etganimiz kabi axborot texnologiyalaridan foydalanish ham vaqtimizni tejaydi, ham dars samaradorligini ta’minlaydi.

Darsni o‘quvchilar xulosalaydi.

O‘quvchilarning baholari e’lon qilinadi.

Uy vazifasi beriladi.

”Oraliq so‘z turkumlari”ni o‘qitish metodikasi

Maktab dastur va darsliklarida taqlidlar, undovlar va modal so‘zlar (o‘zida goh mustaqil, goh yordamchi so‘zlarga xos xususiyatlarni namoyon etgani uchun) oraliq so‘z turkumlari sifatida berilgan.

Taqlidiy so‘zlar[146] tovushga va holatga taqlidni bildiradi.

Taqlid – o‘zbek tilining muhim ifoda vositasi. Ularning ifoda tomoni mazmun tomoni bilan tabiiy bog‘lanishga ega. Bu quyidagi so‘z qatorini qiyoslash asosida hosil bo‘ladi:

---

[146] Taqlid o‘zbek tilida (substansial tilshunoslikda) bir guruhni tashkil etadi va ***mustaqil so‘z sirasidan o‘rin olgan***. Buning bir nechta ilmiy asosi bor. *Birinchidan*, turkiy tillarda taqlid miqdoran ko‘p va ma’no jihatdan rang-barang. *Ikkinchidan*, ulardagi tovushlar tizmasi ma’lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi. *Uchinchidan*, taqlid gap tarkibida ma’lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi.

Taqliddagi ma’noviy g‘ayrioddiylik uni boshqa mustaqil so‘z turkumidan ajratib turadi. (Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek tili. –T., 2013.–209-b.)

tiq-tiq/tuq-tuq/to‘q-to‘q/taq-taq;

liq-liq/luq-luq/lo‘q-lo‘q/laq-laq;

tirs-tirs/tars-tars/tars-turs.

Taqlid jamiyatning har bir a’zosi tushunadigan turli ma’noga ega. Masalan, *tiq-tiq/tuq-tuq/to‘q-to‘q/taq-taq* taqlidi orqasida nimadir yotgani va ma’lum bir borliq hodisasini ifodalayotgani shu til jamiyatining barcha a’zolari uchun tushunarli. Taqliddagi ma’noviy g‘ayrioddiylik uni boshqa so‘z turkumlaridan ajratib turadi.

Taqlid so‘zlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Taqlidlar fikrni ravshan va obrazli qilib ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

2. Taqlidlar yasalish sistemasiga ega emas. Biroq taqlid so‘zlar fe’l (*gurkira(moq), yarqira(moq), g‘ijirla(moq), jarangla(moq), hurpay(moq*), ot (*taqa, qahqaha, xurrak, chapak, g‘urrak*) va sifat (*jizzaki, jirtaki, bijildoq*)larni yasashda asos vazifasini bajaradi.

3.Taqlid so‘zlar gapda ega, to‘ldiruvchi, kesim, hol, aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan, ega vazifasida: *Ko‘chada odamlarning g‘ovur-g‘uvuri bosildi*; kesim vazifasida: *Bozorda odamlar g‘uj-g‘uj: kimdir sotadi, kimdir sotib oladi...* to‘ldiruvchi vazifasida: *Karimjon bolalarning shov-shuvini bostirish uchun gapga aralashdi*; aniqlovchi vazifasida: *Yo‘lakka quloq solib, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir tovushni eshitdi*. (A.Qod.); hol vazifasida: *Qizcha pish-pish uxlar edi*.

4. Taqlidlarga ma’no torayishi xos.

Quyida taqlid so‘zlar ta’limi bilan bog‘liq dars ishlanmasini havola etamiz:

2-namuna

7-sinfda “Taqlid va uning ma’noviy guruhlari” mavzusini o‘tish
(“Bumerang” texnologiyasi asosida)

Darsning maqsadi: a) ta’limiy maqsad: taqlid va uning ma’noviy guruhlari ustida ishlash orqali o‘quvchilar nutqini taqlid so‘z turkumiga xos so‘zlar bilan boyitish; **b) tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarni vatanparvarlik, o‘zi yashayotgan

yurtga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash; **d) rivojlantiruvchi maqsad:** o‘quvchilarda til sezgirligi ko‘nikmalarini oshirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: savol-javob, jamoa bo‘lib ishlash, “Bumerang” texnologiyasi.

Darsning jihozi: “Ona tili” darsligi, mavzu yuzasidan tayyorlangan slaydlar, tarqatma materiallar, testlar, videoproektor, rag‘bat kartochkalari.

Dars rejasi:

* Taqlid va uning ma’noviy guruhlari haqida ma’lumot berish va ularni mustahkamlash.

* Taqlid so‘z turkumiga xos so‘zlar va ulardan o‘rinli foydalana olish.

* Taqlidlarda holat, tovush ma’nolarining ifodalanishi va ularning uslubiy xususiyatlari.

* Nutqda taqlidlardan foydalanishning ahamiyati.

Darsning borishi:

O‘quvchilar hukmiga videoproektor orqali mavzuga oid tayanch tushunchalar havola etiladi:

M*avzuga oid tayanch tushunchalar quyidagilar:*

taqlid, holatga taqlid, tovushga taqlid, juft taqlidlar, takroriy taqlidlar, taqliddagi ma’noviy g‘ayrioddiylik

Sinf o‘quvchilari 4 guruhga bo‘linadi va ularga nom tanlanadi. 1-guruh: “Tafakkur”, 2-guruh: “Fikr”, 3-guruh: “Mushohada”, 4-guruh: “Mulohaza”.

Guruhlarga quyidagi matn xatboshilar asosida bo‘lib beriladi:

Qurbaqalarning qur-qur-qur etishiga jo‘r bo‘layotgan chirildoqlarning chir-chir-chir degan tovushi borliq bag‘riga singib ketgandek go‘yo. Yomg‘ir tomchilaydi: chak-chak-chak… Allaqayerdan dimoqqa xazon hidi gup-gup uriladi. Biroz avval gumbur-gumbur tovushlar eshitilib, yalt-yult chaqmoq chaqib osmon yorishib ketgan edi. Osmon ko‘z yoshlarini zamin uzra duv-duv to‘kkan edi…

Tabiatning ishlari qiziq-da. Avval momaguldirakning gumbur-gumbur tovushlari butun tabiatni uyg‘otib yubordi. Birdan g‘ala-g‘ovurni boshlagan

shamol zamindagi daraxtlarning qurigan shoxlarini qars-qurs sindirib tashladi. Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitiladi. Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi…

Uyda xira yonib turgan chiroq ham lipir-lipir etib turdi-yu, lik etib o‘chdi. Tashqarida yomg‘ir aralash esayotgan shamol esa tom shiferlarini tak-tak-tak, tak-tak-tak chertib o‘tadi. Uzoqdan, buzog‘idan xovotir olyapti, shekilli, sigirning cho‘ziq “mo‘o‘o‘o‘o‘-mo‘o‘o‘o‘o‘”si eshitiladi. Bog‘liqlik it ipini uzgudek tortqilab bir nimani sezgandek, “ang-ang-ang” qiladi…

Tundagi ana shu shovqinlarning barchasi tindi. Faqat yomg‘ir tomchilaydi: chak-chak-chak… Tabiat nim-nim tabassum bilan boshiga oq shohi ro‘molini o‘ramoqda go‘yo. Borliqda ajoyib simfoniya boshlangan: tepada ajoyibdir oq laylak, nog‘ora chalar tak-tak. O‘rdaklarning “g‘a-g‘a-g‘a”si eshitiladi. Sigirvoy ham xotirjam men ham borman deydi go‘yo: “muuuu”. Atrofdagi ovozlarga gala-gala chug‘urchuqlarning vijir-vijiri qo‘shilib ketmoqda…

Ha, tabiatda maroqli tong simfoniyasi boshlanmoqda.

Demak, umumiy mavzu 4ta kichik matnlarga bo‘linib har bir guruhga beriladi. 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga, har bir tinglovchi esa o‘z guruhiga tushgan matnga ega bo‘ladi. Berilgan matnni o‘rganish uchun 3 daqiqa kifoya.

Shundan keyin har bir guruhdagi 4 o‘quvchiga 1, 2, 3, 4 raqamlari yozilgan qog‘ozchalardan birini tanlab olish aytiladi va shu raqamlar asosida yangi guruhlar shakllantiriladi. Guruh a’zolari yangi guruhga o‘tishlarida o‘zlari bilan o‘rgangan matnlarini oladilar. Endi har bir guruh a’zosi guruhdoshlariga o‘zi avval o‘rgangan materialni gapirib beradi, tushuntiradi, o‘zi mustaqil o‘rgangan materialning asosiy joylariga barchani diqqatini jalb qiladi. Guruh a’zolari navbatma-navbat so‘zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadilar, tahlil qiladilar, fikrlaydilar va yodda saqlab qolishga harakat qiladilar.

Bu uchun ularga 5 daqiqa vaqt beriladi.

Matn qanchalik o‘zlashtirib olinganini tekshirib ko‘rish uchun har bir guruh a’zosi bir-birlariga o‘z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishadi. Masalan,

1. “Qur-qur-qur” nimaning tovushi? “Chir-chir-chir”-chi?

2. “Chak-chak-chak» biror narsaning tovushimi yoki holati?

3. “Gup-gup”-chi? Biror narsaning tovushimi yoki holati?

4. “Gumbur-gumbur” tovushi nimaga xos? “G‘a-g‘a”-chi?

5. “Yalt-yult” biror narsaning tovushimi yoki holati?

6. “Gumbur-gumbur” tovushi momaguldirakdan tashqari yana nimalarga xos?

7. “G‘ala-g‘ovur” taqlidiy so‘zmi?

8. “Qars-qurs” nimaning tovushi? “Shov-shuv”-chi? “Shitir-shitir”-chi?

9. “Lipir-lipir” taqlidning qaysi turi? “Lik”-chi? “Tak-tak-tak”-chi?

10. “Vijir-vijir” nimaning tovushi?

11. Qaysi hayvonlarning tovushini farqlay olasiz?

Shu asnodagi savol-javob orqali guruh ichida ichki nazorat o‘tkaziladi.

Barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlari so‘raladi. O‘quvchilar yana mashg‘ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

Shundan keyin o‘qituvchi har bir o‘quvchi uchun maxsus tayyorlangan tezkor savollarni monitor hamda magnet tasmasi yordamida taqdim etadi. Bu quyidagicha bo‘ladi:

1) magnet lentasida yozilgan *ot, it, mushuk, o‘rdak, g‘oz, tovuq, sigir, eshak* kabi hayvonlarning, *chumchuq, qarg‘a, bulbul, mayna* kabi qushlarning; *doira, qalam, mashina, g‘ijjak, poyabzal* kabi buyumlarning, *shamol, yomg‘ir, do‘l, shabada, sel* kabi tabiat hodisalarining tovushlarini o‘quvchi farqlab berishi zarur;

2) monitorga chiqarilgan gaplarda nuqtalar o‘rnini to‘ldirish:

1.Shamol ….. esmoqda. (g‘ir-g‘ir)

2.Boshidagi toj … yonarmish. (yal-yal)

3. … qaltiragan bolalar yuk ko‘tarishga yaramas edi. (dir-dir)

4. Namoz g‘azabi oshib ….. qaltiray boshladi. (dag‘-dag‘)

5. Namiqqan shuvoqlar oldin to‘xtab yaxshi yonmasa ham, keyinroq …uchqun sochdi-da, axiyri gurillab ketdi. (chars-churs)

6. Ko‘chadan mashinalar ….o‘tadi. (viz-viz)

7. Chaqmoq … etib ketdi. (yalt)

8. Shoikrom onasining barmoqlari …. yorilib ketganini endi payqadi. (tars-tars)

9. Albatta, yo‘l yaxshi bo‘lib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilinmas, quloq-burunlarni …. chaqmas edi. (jaz-jaz)

10. To‘rtta savag‘ich bilan …. urib, par singari qilib titibdi. (tap-tap)

11. Olmalar ….to‘kildi. (duv-duv)

12. Miyasida aql ….. (g‘ij-g‘ij).

13. …..ning boisi nima ekan-a? (qiy-chuv)

14. Etigining …..ini pasaytirish uchun oyoq uchida yurib keldi. (g‘arch)

15. ……suhbatga quloq solib o‘tirdi. (gangur-gungur)

16. …..ot keldi, Chiqib qarang, kim keldi? (dukur-dukur)

O‘quvchilarning javoblari baholab boriladi. Ballar sinfda maxsus ajratilgan ikki “hisobchi” o‘quvchi tomonidan hisoblab boriladi.

Keyingi bosqichda har bir guruhga bittadan yozma savol beriladi. Bu savollar quyidagicha:

“Tafakkur” guruhga savol: Taqlid so‘zlar qanday paydo bo‘ladi?

“Fikr” guruhga savol: Taqlid so‘zlar nega ismlar tarkibiga kiritiladi?

“Mushohada” guruhga savol: Taqlid so‘zlarning barchasidan, odatda, qaysi turkumga xos yangi so‘zlar yasaladi?

“Mulohaza” guruhga savol: Taqlid so‘zlar nutqimiz uchun qanday ahamiyat kasb etadi?

O‘quvchilarning javoblari, odatda, quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Tabiatda insondan tashqari juda ko‘plab tirik jonzotlar yashaydi, ularda ham o‘ziga xos nutq apparati mavjud. Mana shu nutq apparati yordamida ular turli-tuman ovoz chiqaradilar. Itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, tovuqning qaqolashi hech birimizga yot emas. Bundan tashqari, tevarak-atrofimizda son-sanoqsiz voqea va hodisalar sodir bo‘lib turadi: narsalar bir-biriga tegadi, uriladi. Natijada har xil ovozlar hosil bo‘ladi. Inson o‘z faoliyati davomida mana shu ovozlarga taqlid qilishga urinadi va shu tariqa taqlid so‘zlar paydo bo‘ladi.

Taqlid so‘zlar egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi, turlanadi, gapda ot bajargan vazifalarda keladi. Masalan, *Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitiladi. Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi.* Shu sababli taqlid so‘zlar ismlar tarkibiga kiritiladi.

Taqlid so‘zlarning barchasidan fe’l yasaladi: *shovullamoq, gumburlamoq, dupirlamoq, qarsillamoq, yaltillamoq* kabi.

Taqlidlar nutqimizga jon bag‘ishlaydi, uni obrazli ifodalash imkonini beradi va h.

Guruhlarning batafsil javoblari, izohlari baholanadi.

Keyingi bosqichda guruhlar bir-birlariga bittadan savol beradilar. To‘g‘ri javoblar baholab va “hisobchi”lar tomonidan hisoblab boriladi.

Keyingi bosqichda har bir guruhga o‘z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlash topshirig‘i beriladi. Topshiriq ijrosiga 2 daqiqa vaqt ajratiladi. Savollar mohiyatan tahlil etiladi va shu asosda guruhlarga ball beriladi.

Dars oxirida har bir guruh taqlidlar va uning ma’no turlari haqida xulosa aytadi, xulosalar ham baholanadi.

Guruhlarning, guruhdagi har bir a’zoning ballari sarhisob etilgach, g‘oliblar aniqlanadi va o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasab, o‘quvchilarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o‘z fikrini bildiradi.

Uyga vazifa. Taqlid so‘zlar ishtirok etgan o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlaridan 10tasini yozib kelish.

So‘zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabati – qat’iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma’noni ifodalab keladigan so‘z *modal*dir**.** Unga *xullas, demak, chamasi, tabiiy, ehtimol, shubhasiz, shekilli* kabi so‘z misol bo‘ladi.

Kishilarning his-tuyg‘usini, haydash, to‘xtatish kabi xitob, buyruqni ifodalaydigan so‘z-gap ko‘rinishi – *undov so‘z-gap.* His-tuyg‘u undoviga *eh, voy, oh, barakalla, rahmat, ofarin* kabi so‘z, buyruq-xitob undovlariga *pisht, beh-beh, pisht-pisht, chuh* kabi xitob so‘z kiradi.

Shunday qilib, “Morfologiya” bo‘limini o‘rganishda mustaqil, yordamchi, oraliq so‘z turkumlarining ichki ma’no guruhlari ustida ishlash, mustaqil, yordamchi, oraliq so‘zlar ishtirok etgan gaplar, ular asosida matnlar tuzish, mustaqil, yordamchi, oraliq so‘z turkumlariga oid materiallarni semantika va stilistika bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganish ustida maxsus ish olib borish, har xil ta’limiy o‘yin, topshiriqlardan foydalanish kabilar mazkur bo‘lim ta’limi orqali o‘quvchilarning tafakkur ko‘lamini kengaytiradi, so‘z boyligini oshiradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabda morfologiya o‘qitishning ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat?
2.”Morfologiya” bo‘limining maqsad va vazifalariga nimalar kiradi?
3.”To‘plam” va “tasnif” tushunchalarini qanday sharhlaysiz?
4.”Fe’l” so‘z turkumini o‘tishda o‘quvchilar nutqini fe’l va uning ma’nodoshlari bilan boyitish imkoniyatlari haqida fikr bildiring.
5.Otning lug‘aviy shakllari va ma’no guruhlari ustida ishlash imkoniyatlari to‘g‘risida so‘zlang.
6.Sifatning lug‘aviy shakllari va uning guruhlari ustida ishlash imkoniyatlari nimalardan iborat?
7.Sonning lug‘aviy shakllari ustida ishlash imkoniyatlari haqida nima deya olasiz?
8.Ravish va sifatni farqlashning qanday yo‘llari mavjud?
9.Ravishning lug‘aviy ma’no guruhlari ustida ishlash imkoniyatlari qaysilar?
10.Olmoshning lug‘aviy ma’no guruhlari ustida ishlash imkoniyatlari nimalardan iborat?
11.Ko‘makchining turlari ustida ishlash yo‘llarini izohlang.
12.Bog‘lovchining turlari qaysilar va ularni maktabda o‘rganish qanday ahamiyatga ega?
13.Yuklama ta’limining qanday ahamiyati mavjud?
14.Oraliq so‘zlar ta’limi haqida nimalarni bilasiz?
15. Taqlid so‘zlarni zamonaviy tilshunoslik nega mustaqil so‘z sifatida talqin etadi? Fikringizni izohlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1;6;11;20;22;28;32;34;35]

“SINTAKSIS” BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

Reja:

1.”Sintaksis” o‘qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.
2. “Sintaksis” o‘qitishning boshqa bo‘limlar bilan bog‘liqligi.
3. So‘zshakl va so‘z birikmasini o‘qitish metodikasi.
4. Gap sintaksisini o‘qitish metodikasi.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Sintaksis, so‘zshakl, so‘z birikmasi, gap, sodda gap, qo‘shma gap, sintaksis ta’limi, amaliy faoliyat uchun zarur topshiriqlar

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar “Sintaksis” bo‘limi mavzulari bilan 5-sinfda qisman hamda 8-9-sinflarda batafsil tanishadilar. Jumladan, 5-sinfning “Muqaddima” qismida sintaksisga oid quyidagi mavzular ta’limi nazarda tutiladi:

“Sintaksis va punktuatsiya”. Bunda gap (gap – aloqa-aralashuvning eng kichik birligi; u tugallangan ohang bilan aytiladi; gap nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi; gap grammatik jihatdan shakllangan bo‘ladi); gapda so‘zlarning bog‘lanishi (tobe (*ukamning kitobi*) va teng (*opam va akam; daftar, kitob, ruchka* kabi) bog‘lanadi); so‘z birikmasi (tobe va hokim so‘zning o‘zaro uyg‘unligi), gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, istak gap); So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar (*Sinfda kim a’lochi?, Kimga qaysi mashg‘ulot yoqadi?, Men qanday odam bo‘lishim kerak?* va b.); So‘roq yuklamalari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar (*Sen bahorni sog‘inmadingmi?, Mening otam –ishchi, Sening otang-chi, To‘ychi?, Men-a?*); his-hayajon gap (*Oh yurtim shamoli! Bunchalar go‘zal!*).

“Gap bo‘laklari” (*kesim, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol*); kesim – gap markazi (*Men maktabga* ***boryapman.***; *O‘zbekiston – go‘zal* ***yurt.****; Gullar* ***iforli*** kabi); faqat kesimdan iborat gap (*Chekilmasin.*; *Bahor…Go‘zallik.*), ularning qo‘llanish o‘rinlari; egali (***Ilm*** *insonni yuksaklikka* ***yetaklaydi****.*; ***Onam – o‘qituvchi***) va egasiz gaplar (*Yangi* ***qaror chiqarildi****; Yig‘ilishda tartib-intizom haqida* ***gapirildi***. kabi).

“*Sodda yoyiq gap*”. Bunda sodda yig‘iq (*Keldim.; Ketishdi*) va sodda yoyiq (*Men maktabdan keldim.; Mehmonlar hozirgina ketishdi*) gaplar.

“Ega haqida xulosa chiqarish**”**. Tabiiyki, ega haqida chiqarilgan xulosa nutqimizdagi egali (gapda egani ifodalamaslikning iloji yo‘q (masalan, *Karim – a’lochi o‘quvchi.; Bahor keldi seni so‘roqlab* (Zulfiya) yoki egani qo‘llamasak ham kesim tarkibidagi shaxs/son qo‘shimchasidan ega sezilib turgan (masalan,

Kitobingni o‘qidingmi? (***Sen*** *kitobingni o‘qidi**ng**mi?*), Bugun onamga ko‘maklashdim (***Men*** *bugun onamga ko‘maklashdi**m***) kabi) va egasiz gaplar (masalan, *Rasmda mo‘yqalamdan foydalanilgan*.; *Jo‘jani kuzda sanaydilar*) bilan sodda misollarda bog‘lanishi, xulosalar, albatta, ilmiy asosga tayanishi va buni fan o‘qituvchisi aniq bilishi zarur. Bunda ega gapning bosh bo‘lagi* ekanligiga e’tibor qaratish muhim.

“Hol va uning ifodalanishi”. Mavzu talqinida berilgan kesimlar(masalan, *Keldim.; Dam oldik.; Tingladik*)ni qachon?, qanday?, qayerda?, qanday qilib? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar bilan kengaytirish (*Hozir keldim.; Miriqib dam oldik.; Oromgohda miriqib dam oldik.; Buvimning ertaklarini maza qilib tingladik*), *ega+hol+kesim* qolipli gaplar tuzish (*Men hozir keldim.; Biz miriqib dam oldik.; Biz oromgohda miriqib dam oldik.; Bizlar buvimning ertaklarini maza qilib tingladik*), berilgan so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar tanlab, yoyiq gaplar hosil qilish, hol haqida xulosa chiqarish (*odatda, hol fe’l kesimda ifodalangan mazmunning holatini, o‘rnini, paytini, maqsadi, sababi va miqdorini ifodalaydi*) kabi amaliy ishlar ko‘zda tutilgan.

“To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi“, “Aniqlovchi va uning ifodalanishi“ mavzulari ta’limida ham xuddi yuqoridagi kabi amaliy ishlarni bajarish va shu orqali o‘quvchida jumlallarni to‘g‘ri va xatosiz tuza olish ko‘nikma hamda malakalarini rivojlantrish nazarda tutilgan.

“Uyushiq bo‘laklar“. (Nutqimizda sanash ohangi bilan aytiladigan, gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil sintaktik vazifa bajaradigan) uyushiq bo‘laklarni bog‘lovchi vositalar (ohang, teng bog‘lovchilar) va ularning imlosi ustida ishlash; uyushiq bo‘lakli gaplar ishtirok etgan matn tuzish kabi qator amaliy topshiriqlar ustida ishlanadi. Jumladan,

---

* Mustaqillik o‘zbek tilshunosligiga til va nutq hodisalarini milliylik zaminida talqin etish imkonini berdi. Natijada, XX asrning 90-yillarida Mahmud Qoshg‘ariy, Fitrat kabi salaflarning gap bo‘laklari bilan bog‘liq bevosita hamda bilvosita fikrlariga tayanib, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar asosida: “O‘zbek tili uchun kesim – gap markazi” degan haqli xulosaga kelindi. Maktab darsliklarida: “Kesim – gap markazi” degan ta’rifdan keyin: “Gapning bosh bo‘laklari –kesim va ega” tarzida qoida berish kulgili (to‘g‘rirog‘i, ayanchli) hol. Fikrimizcha, *gap markazi: kesim; gapning bosh bo‘lagi: ega; gapning ikkinchi darajali bo‘laklari: to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol* tarzidagi talqinni berish to‘g‘ri bo‘lardi. (Eslatma: substansial tilshunoslik gap bo‘laklarining lisoniy talqinida kesimni gap markazi sifatida olib unga nisatan “gap kengaytiruvchilari” (ega, payt va o‘rin holi) va “so‘z kengaytiruvchilari” (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holning (payt va o‘rin holidan boshqa) turlari)ni e’tirof etadi. Aslida, nutqdagi nazariy asoslarimiz shu talqinga tayanishi zarur edi.)

***1-topshiriq**. Berilgan uyushiq bo‘lakli gaplarga mos umumlashtiruvchi bo‘laklarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling.*

1.Serquyosh O‘zbekistonimizda olma, o‘rik, nok, shaftoli, olxo‘ri va gilos qadimdan yetishtirilgan. 2. Do‘kondan o‘zimga kerakli daftar, ro‘chka, qalam, o‘chirg‘ich, rangli qog‘ozlar sotib oldim. 3.Bahorda atirgul, safsargul, chinnigul, lola, qizg‘aldoq ochladi. 4. Karima opasiga kosa, tarelka, qoshiq, sanchqi, qozon, tavoqlarni yuvishda ko‘maklashdi. 5.Ustozimiz bizga Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘qishni tavsiya etdilar.

Umumlashtiruvchi so‘zlar: *o‘zbek adiblari, sarxil mevalar, oshxona buyumlari, o‘quv qurollari, anvoyi gullar*

Namuna: *...umumlashtiruvchi bo‘lak: uyushiq bo‘lak, uyushiq bo‘lak, uyushiq bo‘lak, uyushiq bo‘lak ...*

...uyushiq bo‘lak, uyushiq bo‘lak, uyushiq bo‘lak, uyushiq bo‘lak – umumlashtiruvchi bo‘lak ...

“Undalma“ mavzusi ta’limida quyidagi amaliy ishlar bajariladi:

1) undalma(so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsa-buyum, tushuncha, jarayon, voqea-hodisa)ning gapdagi o‘rni va ularda tinish belgilarining qo‘llanishi. Masalan,

***1-topshiriq**. Berilgan qoliplarga mos gaplar tuzing. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling.*

Undalma, II darajali bo‘laklar+kesim.

Undalma! II darajali bo‘laklar+kesim.

II darajali bo‘laklari**, undalma,** II darajali bo‘laklari +kesim.

II darajali bo‘laklar+kesim**, undalma**.

Namuna: ***Mustaqillik!** Seni butun borlig‘im bilan asrayman.*

2) undalmali va undalmasiz gaplarni taqqoslash asosida ega bilan undalmaning farqini aniqlash. Masalan,

***2-topshiriq**. Berilgan gaplarni taqqoslang. Ular orasida qanday farq borligini aniqlang.*

1. O‘zbekiston! Jonim to‘shay soyangga. (M.Yusuf) – Men O‘zbekistonning soyasiga jonimni to‘shay.

2. Ota-onangizga yuksak ehtirom ko‘rsating, bolalar. – Bolalar ota-onalariga yuksak ehtirom ko‘rsatishlari kerak.

3. Urush! Noming o‘chsin jahonda...(Zulfiya) – Jahonda urushning nomi o‘chsin.

4. Ertaga, aziz o‘quvchilar, Fitrat uy-muzeyiga boramiz.– Ertaga Fitrat uy-muzeyiga borishimiz aytildi.

***3-topshiriq**. Undalmali va undalmasiz gaplarga o‘zingiz misollar toping va ularni taqqoslang.*

3) undovli undalma ishtirok etgan gaplar ustida ishlash. Masalan, 1.*Hoy quyosh, botma bir nafas.* 2. *Eh bolalik, bolalik! Buncha beg‘uborsan, sodda, yoqimli.* 3. *Ey Salima, qalamingni berib tur.* 4.*Mening shodligimga ibrat o‘ling, hoy yulduzlar.*

4) undalmalardan foydalanib e’lon va murojaat matnlari tuzish. Masalan,

***4-topshiriq**. Berilgan undalmalardan foydalanib e’lon matnini tuzing.*

Ustozlar, jamoatchi o‘quvchilar, ota-onalar...

Undalmalar, shuningdek, kirish so‘zlar va ularning gapdagi o‘rni bilan bog‘liq topshiriqlar tuzishning yo‘llari nihoyatda ko‘p va rang-barangdir.

5-sinfda o‘quvchilar *“Qo‘shma gap“* mavzusi bilan ham tanishadilar. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari gap tarkibidagi kesimlar miqdoriga qarab belgilanadi. Jumladan, gapda birgina kesim munosabati ifodalansa, tuzilishiga ko‘ra bunday gaplar sodda gap hisoblanadi: *Bahor keldi.; Gullar ochildi* kabi.

Agar gapda birdan ortiq kesimlar munosabati ifodalansa, tuzilishiga ko‘ra bunday gaplar qo‘shma gap sanaladi: *Bahor keldi va gullar ochildi.*

***1-topshiriq.** Berilgan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘lagan vositalarini aniqlang.*

1.Bolali uy–bozor, bolasiz uy–mozor. (Maqol) 2.Anvar uydan chiqdi va to‘g‘ri saroy tomonga ketdi.(A.Qodiriy) 3. Havo bulut bo‘ldi-da, yomg‘ir yog‘a boshladi.

4. Kim nimani eksa, shuni o‘radi. 5.Osmon ochiq, ammo yulduzlar xira ko‘rinardi.(Oybek)

2-topshiriq. *Qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalar ro‘yxatini tuzing.*

3-topshiriq.*Matnni o‘qing va unga sarlavha toping. Matndagi sodda va qo‘shma gaplarni aniqlang.*

Mir Alisher Navoiy aqlli va pokdamon kishi edi. Ulug‘ martabalar ko‘rgan bo‘lsa-da, ularning havasiga uchmadi. U hamisha o‘z qarashlariga sodiq qoldi. Sulton Husayn Boyqaroning o‘zi ham Navoiyning pokdamonligiga tan bergan va bu haqda maxsus yozib qoldirgan.

Astrobod voqealari tufayli podshoh bilan Alisher Navoiy o‘rtalarida sovuqchilik tushadi-yu, shu sabab u saroyni tark etadi. Biroq oradan ko‘p vaqt o‘tmay podshoh uni yana saroyga chorlaydi...

Qo‘shma va sodda gaplarni taqqoslash uchun o‘quvchilarning o‘zlariga muayyan mavzu asosida kichik bog‘lanishl matn tuzdirish ham mumkin.

“Ko‘chirma gap“. O‘zgalarning hech o‘zgarishsiz keltirilgan gapi ko‘chirma gap bo‘lib u, odatda, muallif gapi bilan birga qo‘llaniladi. Bu borada o‘quvchilar ko‘chirma gapda tinish belgilarining qo‘llanishini bilishi talab etiladi. Shuningdek, ular berilgan qoliplar (masalan, “K,”–m.; M: “K”.; “K,–m,–k”…) asosida ko‘chirma gaplar tuzish topshiriqlarini bajaradilar.

Ko‘chirma gaplarning dialog ko‘rinishi xususida ham shu o‘rinda ishlanadi. Tom ma’noda, o‘quvchilar 5-sinfda sintaksisning tayanch mavzulari bilan, atamalari bilan tanishadilar. Ularda nafaqat sodda, balki qo‘shma gaplar tuzish ko‘nikmalari shakllanadi.

Sintaksisning o‘rganish obyekti so‘zhakl, so‘z birikmasi va gapdir. Bu bo‘lim oldin o‘rganilgan bo‘limlar: fonetika, so‘zshunoslik, so‘zlarning lug‘aviy shakllari va ma’noviy guruhlari, so‘zlarning aloqa-munosabat shakllari bilan uzviy bog‘langan. Chunonchi, gap bo‘laklari o‘rganilar ekan, so‘z turkumlaridan egallangan bilimlarga tayanishga to‘g‘ri keladi.

“Sintaksis” bo‘limini o‘qitish so‘zshunoslik bilan ham, nutq tovushlari va so‘z turkumlari bo‘limlari bilan ham chambarchas bog‘lanadi. Chunki ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limini o‘qitishda tovushlarning so‘z ma’nosiga ta’siri, so‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq to‘g‘ri yozish; so‘zning lug‘aviy ma’nolari, ma’nodosh, uyadosh, shakldosh so‘zlar, atamalar va shevaga xos so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar; so‘z turkumlari ustida ishlash davom ettiriladi.

Ohang va tinish belgilarining butun xususiyatlari sintaksisda ko‘rinadi. O‘quvcilarning quyi sinflarda egallagan nutqiy ko‘nikmalari, jumladan, ifodali o‘qish malakalari ham shu bo‘lim ta’limida maromiga yetadi. Zero, mazkur bo‘lim o‘quvchining gap ohangi xususidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini kengaytiradi. Masalan,

1) ”*Oygul opam keldilar*.”(darak gap; Oygul ismli opam kelganligi ifodalanyapti);

2) ”*Oygul, opam keldilar*.”(undalmali darak gap; Oygul ismli qizga opam kelganligi haqida xabar yetkazilyapti);

3) ”*Oygul, opam keldilar*.”(uyushiq bo‘lakli darak gap; Oygul va opam kelganligi bildirilyapti);

4) ”*Oygul opam keldilar*!”(his-hayajonli gap);

5) ”*Oygul opam keldilar*?”(so‘roq gap);

6) ”*Oygul, opam keldilar*?”(undalmali so‘roq gap);

7) ”*Oygul, opam keldilar*?”(uyushiq bo‘lakli so‘roq gap).

Berilgan gaplarning har xil ohang bilan o‘qitilishi va turli ma’noga egaligi shu bo‘lim orqali o‘quvchi ongiga singdiriladi.

”Sintaksis”ni o‘rganish jarayonida o‘quvchining yozuvda tinish belgilaridan o‘rinli va to‘g‘ri foydalana olish malakalari to‘la shakllanadi. U qaysi tinish belgidan qanday sharoitda foydalanish kerakligini shu bo‘lim orqali batafsil egallaydi.

Maktabda ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari ona tili ta’limining umumiy hamda xususiy maqsad va vazifalari bilan uyg‘un. Modomiki, maktabda ona tili ta’limining asosiy maqsadi ”*ta’lim oluvchida*

ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda tug‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish”dan iborat ekan, demak, mazkur bo‘limni o‘qitish ham ana shu maqsadga xizmat qiladi. O‘quvchilar ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limini o‘rganish orqali yaxlit til birliklari – sodda va qo‘shma gaplardan nutqiy (og‘zaki/yozma) faoliyatda to‘g‘ri foydalanish malaka va ko‘nikmalarini egallaydilar. Demak, mazkur bo‘limni o‘qitishda o‘qituvchining diqqat markazida o‘quvchisining sodda va qo‘shma gaplardan iborat matnni maqsadga muvofiq ravishda to‘g‘ri o‘qiy olishi, mazmunini tushunishi bo‘lmog‘i shart. Shu asnoda o‘quvchilarning matn yaratish mahorati kengaytirib borilishi lozim.

Belgilangan maqsadga erishish uchun ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limi ta’limi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

– o‘quvchilarda so‘zlarning sintaktik munosabatga kirishish yo‘llari (teng bog‘ lanish, tobe bog‘lanish), so‘z birikmalarida hokim so‘z va tobe so‘zning o‘zaro birikish usullari (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), so‘z birikmasi va qo‘shma so‘z, ibora va gap orasidagi farq bilan bog‘liq amaliy malaka va ko‘nikmalar hosil qilish;

–sodda gap, kesim va uning ifodalanishi, egali va egasiz gaplar, ifodalangan egali va yashiringan egali gaplar egasiz gaplarning turlari; yoyiq gaplar (hol, uning ma’no turlari va ifodalanishi; to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi; aniqlovchi); yoyiq atov va so‘z-gaplar; uyushiq bo‘laklar, ularning ohangi va tinish belgilari; gapda ajratilgan izoh bo‘laklar; gapda kiritmalar; gapda undalma; to‘liqsiz gaplardan nutqiy faoliyatda foydalanish malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish;

–odatda, murakkab (ilmiy) nutq uchun zarur bo‘lgan qo‘shma gaplar, ularning tarkibiy qismi sanalgan sodda gaplarni turli vositalar bilan biriktira olish yo‘llarini o‘rganish; ularda tinish belgilarini to‘g‘ri hamda o‘rinli qo‘llay olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish;

–nutqda teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, yuklamalar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar, nisbiy so‘zlar vositasida bog‘langan

qo‘shma gaplar, faqat ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplardan foydalanish malaka va qo‘nikmalarini mukammal egallash;

–sodda va qo‘shma gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirish malaka va ko‘nikmalarini singdirish;

–kesimdan savol berish orqali gaplarni boshqa gap bo‘laklari bilan kengaytirish malakalarini takomillashtirish;

–sodda va qo‘shma gap tarkibidagi so‘zlarni ularning muvofiq variantlari bilan almashtirish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish;

–sodda va qo‘shma gaplardan foydalangan holda ilmiy, ilmiy-ommabop, publisistik, rasmiy-idoraviy uslublarda matn yaratish malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish va b.

Ona tili ta’limining umumiy maqsadiga tegishli bo‘lgan o‘quvchining savodxonligi ustida ishlash ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limini o‘qitishda ham muttasil davom ettiriladi. Demak, mazkur bo‘lim o‘quvchilarni sintaksis yuzasidan faqat nazariy ma’lumotlar bilan emas, balki sintaksisning boy, rang-barang imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalana olish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishi zarur.

Dastur talabiga ko‘ra, 8-sinfda so‘z birikmasi va sodda gap sintaksisi, 9-sinfda esa qo‘shma gap sintaksisi o‘rganiladi.

8-sinfda dastlab ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limi haqida umumiy ma’lumot beriladi. (O‘quvchilarning 5-sinfda o‘rganganlari asosida savol-javob qilinadi va ularning xotirasida sintaksisga oid ma’lumotlar tiklanadi.) O‘quvchilar tilning ijtimoiy vazifasi, fikrni shakllantirishda tilning qaysi birliklari xizmat qilishi, so‘zshunoslik (leksika), morfologiya va sintaksisining aloqadorligi xususida munozara yuritadilar.

”So‘z birikmasini o‘qitish” metodikasi

So‘z birikmasi yuzaga kelishi uchun biriktiruvchi so‘zning ma’noviy jihatdan o‘ziga mos boshqa so‘z, ya’ni birikuvchilarni tanlashi kerak bo‘ladi. Oz navbatida biriktiruvchi so‘zni birikuvchi birlik ham tanlashi kerak. Demak, so‘z birikmasida hokim so‘z ham, tobe so‘z ham leksik jihatdan bir-biriga mos kelishi (tanlashi va

tanlanishi) shart. Shu asnoda hokim va tobe so‘zning o‘zaro uyg‘unligi so‘z birikmasini yuzaga keltiradi. Masalan, *kiymoq* so‘zi *ro‘mol, sharf* yoki *paytava* birliklarini mazmunan o‘ziga torta olmaydi, *ro‘mol, sharf* yoki *paytava* kiyilmaydi (boshga, bo‘yinga va oyoqqa o‘raladi). Demak, o‘ragichlar nomi bilan *kiymoq* so‘zida ma’noviy muvofiqlik mavjud emas. Zero, *kiymoq* so‘zi *kuylak, shim, kostyum, to‘n, chopon* kabilar bilan; *ro‘mol, sharf* yoki *paytava* birliklari *o‘ramoq* so‘zi bilan mazmunan muvofiq keladi.

O‘quvchilar 5-sinfda so‘z birikmasi xususida dastlabki ma’lumotlarni egallaganliklarini inobatga olsak, ular berilgan so‘z birikmalarida hokim va tobe so‘zni aniqlash, hokim so‘zdan tobe so‘zga so‘roq berish singari topshiriqlarni uddalay oladilar. Shuningdek, 8-sinfda so‘z birikmasini izchil o‘rganishga qadar ular kengayuvchi va kengaytiruvchi so‘zlar birgalikda so‘z birikmasini tashkil etishini, so‘z birikmalaridagi kengaytiruvchi so‘z – tobe so‘z, kengayuvchi so‘z esa hokim so‘z (*kitobni o‘qimoq* (*kitobni* – izohlovchi, kengaytiruvchi, *o‘qimoq* – izohlanuvchi, kengayuvchi) ekanligini umumiy tarzda biladilar. So‘z birikmasini gapdan farqlay oladilar.

O‘quvchilar shu sinfda sintaktik aloqa natijasida ikki xil bog‘lanish yuzaga kelishi haqidagi ma’lumotga duch keladiar.

9-jadval



So‘z birikmalarida hokim so‘z morfologik jihatdan qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligiga qarab, asosan, fe’lli birikma va otli birikmaga ajratiladi. Shu o‘rinda o‘qituvchi unutmasligi kerakki, fe’lli birikma faqat fe’lning ravishdosh

shakli bilan ifodalanadi. Masalan, *kitobni o‘qib, opam kelgach, do‘stini ko‘rgach, bolta tushguncha, o‘qituvchidan so‘rab* kabi.

Otli birikmalar esa, asosan, ismlar bilan ifodalanadi. Jumladan, *qizil olma, yaxshi tarbiya, hammadan aqlli, qizlarning suluvi, oyning o‘n beshi, fasllarning barchasi, bolalarning har qaysi, kitobdan o‘qimoq, kutubxonadan izlash, ko‘chaning shovqini, otlar dukuri, ayolning oh-faryodi* va b.

Tilimizda oz bo‘lsa-da, fe’lli birikmaning ham, otli birikmaning ham tarkibiga kirmaydigan ravishli birikmalar-da uchraydi. Masalan, *Buxorodan tubanda, hammadan oldinda* kabi.

”So‘z birikmasi” mavzusi o‘rganilar ekan, o‘quvchilar so‘z birikmasida so‘zlarning o‘zaro birikish usullari (boshqaruv, moslashuv, bitishuv) bilan ham tanishadilar. Berilgan so‘z birikmalari tarkibidagi bog‘lovchi vositalarni ajratadilar va ularni nutqlarida to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadilar. Masalan,

1-topshiriq. *Berilgan grammatik vositalardan mosini qo‘yib so‘z birikmalarini o‘qing.*

Grammatik vositalar: *bosh kelishik, -ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan; ohang; egalik qo‘shimchalari; ko‘makchilar (bilan, uchun, sari, sayin, bo‘yi, orqali, uzra; -dek, -day, -cha)*

Gul... nozik, bola... beg‘ubor, internet ... gaplashmoq, bolalar... katta..., kun ... kutmoq, tog‘... g‘urur, kitob... sevmoq, deraza... termulmoq, oy... chiqish, ukam ... ketish..., soat ... o‘zgarmoq, onam ... guldasta, maktab ...yo‘l, olam ... taralmoq, men... orzu...

(Topshiriq natijasi quyidagicha bo‘lishi zarur:

Guldan nozik, boladek beg‘ubor, internet orqali gaplashmoq, bolalarning kattasi, kun bo‘yi kutmoq, tog‘cha g‘urur, kitobni sevmoq, derazaga termulmoq, oyga chiqish, ukam bilan ketishim, soat sayin o‘zgarmoq, onam uchun guldasta, maktab sari yo‘l, olam uzra taralmoq, mening orzuyim.)

2-topshiriq. *Berilgan grammatik vositalarni tobe hamda hokim so‘zga qo‘shilishiga qarab ikki guruhga ajrating.*

Grammatik vositalar: *bosh kelishik, -ning, -ni, -ga (-ka, -qa), -da, -dan; ohang; egalik qo‘shimchalari; ko‘makchilar (bilan, uchun, sari, sayin, bo‘yi, orqali, uzra; -dek, -day, -cha)*

Topshiriqni bajarish asnosida o‘quvchilar so‘z birikmasida tobe va hokim so‘zning o‘zaro bir-biri bilan bitishuv, boshqaruv va moslashuv yo‘li bilan birikishi; tobe va hokim so‘zning hech qanday qo‘shimchasiz, faqat ohang hamda ma’nosi va tobe so‘zning hokim so‘zdan oldin kelish usuli bilan bog‘lanishi ***bitishuv*** ekanligi; tobe so‘zning hokim so‘zga tushum, jo‘nalish,o‘rin-payt va chiqish kelishigi qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi ***boshqaruv*** ekanligi; tobe so‘zning hokim so‘zga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi orqali bog‘lanishi, hokim so‘zning esa egalik qo‘shimchalari yordamida tobe so‘zga birikishi ***moslashuv*** ekanligini bilib oladilar va shu yo‘nalishda bir qator ijodiy-amaliy topshiriqlar*ni bajaradilar.

O‘quvchilar, odatda, so‘z birikmasini unga shaklan o‘xshash bo‘lgan so‘z qo‘shilmasidan, qo‘shma so‘zdan, iboradan, tasviriy ifodadan farqlamaydilar. Shu bois, bularning har biriga (so‘z birikmasi va so‘z qo‘shilmasi, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘z v.h) alohida-alohida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘quvchilar e’tibori so‘zlarning tobe aloqa asosida bog‘lanishi orqali so‘z birikmasi hosil qilishiga, so‘z birikmasi tarkibi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishiga qaramay, bitta tushunchani atab kelishi (*o‘rtog‘imning kitobi* – ”o‘*rtog‘imga tegishli bo‘lgan kitob*”ni ifodalayapti); so‘z qo‘shilmalari tarkibida har bir so‘z mustaqi ma’noni saqlaydi va ularda tobe munosabat bo‘lmaydi (shu bois, biridan ikkinchisiga savol berish mumkin emas), ular alohida-alohida birliklarni nomlab keladi (masalan, *o‘rtog‘im va kitob*).

So‘z birikmalarini qo‘shma so‘zlar bilan (Ba’zan kishiga *ishning boshi* og‘rroq ko‘rinadi. – Bizga Azim aka *ishboshi* etib tayinlandi.; Inson tashqi ta’sirlardan aziyat chekmasligi uchun *badanni ham tarbiya qilmog‘i* lozim. – Ertalabki *badantarbiya* kishini chiniqtiradi.); so‘z birikmalarini tasviriy ifodalar bilan (Muyulishda *oq xalatli ayol*ga duch keldim. –Shifokorlar – *oq xalat sohiblari*.;

* Muhimi, o‘quvchilar nutqida tez-tez uchraydigan tipik xatolar(qaratqich va tushum kelishigi, shuningdek, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchalarini almashtirib noo‘rin qo‘llash)ning bir qadar oldi olinadi.

Qimmatbaho soat *oq oltin*dan yasalgan ekan. – Paxtani ”*oq oltin*”, paxtakorlarni ”*oq oltin ijodkorlari*” deb atar edik.); so‘z birikmalarini iboralar bilan (*Qovunning urug‘i*ni tashlab yubormaslik kerak. – Izlaganingiz *anqoning urug‘i* ekanmi?; Shifokor unga yarani ko‘rish uchun *bo‘yinni egmoq* kerakligini aytdi. – Bu yigitga *bo‘yin egmoq* odat emas edi.) solishtirish ham o‘quvchilarning til sezgirligini oshradi.

So‘z birikmasi va gapning o‘zaro farqi ham qiyoslash asosida tushuntiriladi. (Masalan, so‘z birikmasi biror narsa, belgi harakat yoki holatni muayyan tarzda atab keladi va shu xususiyati bilan so‘zga yaqin turadi (*shirin qovun, qiziqarli asar, a’lochi bola, o‘qigan yigit*); gap esa kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllangan kesim markazida tashkil topib, fikrni, hukmni, tasdiq yoki inkorni ifodalab keladi (*Qovun shirin., Asar qiziqarli., Bola a’lochi., Yigit o‘qigan.*) va h.)

Xullas, maktabda so‘z birikmasi bilan bog‘liq mavzular ta’limi o‘quvchiga shaxs (*odam–yaxshi odam, ayol – farishtasifat ayol*), narsa-buyum (*gul – tuvakdagi gul, uy – hashamatli uy*), voqea-hodisa (*janjal – ko‘chadagi janjal, to‘y – akamning to‘yi*), tushuncha (*xayol – bema’ni xayol, falsafa – hayot falsafasi*), jarayon (o‘*rganish – ustozdan o‘rganish, shamollash – qishda shamollash*), holat (*qizarmoq –uyatdan qizarmoq, sarg‘ayish – yaproqning sarg‘ayishi*) kabilarni so‘zga nisbatan aniqroq ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, sodda gap sintaksisini ta’limi uchun zamin hozirlaydi.

Sodda gaplarni o‘qitish” metodikasi

O‘quvchilarga 5-sinf ona tili mashg‘ulotlaridan kesim gap markazi ekanligi ma’lum. Shuning uchun ularga quyidagiarni bajartirish o‘rinli:

–sodda gap haqidagi asosiy ma’lumotni o‘quvchilarga eslatish yoki ularning xotirasida tiklash (sodda gaplar bitta kesim asosida tuziladi);

–fe’l kesim va ot kesimli gaplarning markazini aniqlash (masalan, *Bog‘imizda chiroyli gullar* ***ochigan***.; *Otam–**muhandis**, onam esa **shifokor**.; Seni bilganlarga **qilaman havas**, Seni bilmaslarga **rahmim keladi**.* (M.Yusuf); *Otang **bolasi bo‘lma**, odam **bolasi bo‘l**.* (Maqol); *Kattaga **hurmatda**, kichikka **izzatda bo‘l**.* (Maqol) kabi);

– berilgan yoki topilgan misollarni sodda va qo‘shma gaplarga ajratish (sodda gaplar: *Bog‘imizda chiroyli gullar* ***ochigan***.; *Kattaga* ***hurmatda****, kichikka* ***izzatda bo‘l****.* (Maqol) qo‘shma gaplar: *Otam–****muhandis****, onam esa* ***shifokor***.; *Seni bilganlarga* ***qilaman havas****, Seni bilmaslarga* ***rahmim keladi****.* (M.Yusuf); *Otang* ***bolasi bo‘lma****, odam* ***bolasi bo‘l****.* (Maqol);

–sodda va qo‘shma gaplarni tahlil qilib, ular orasidagi asosiy farqni aniqlash (Sodda gaplar bitta kesim asosida tuziladi. Qo‘shma gaplar tarkibida esa birdan ortiq kesim munosabati ifodalanadi.);

–ayni bir fikr (axborot)ni bir necha sodda gaplar (*Yurtimizga bahor* ***keldi****.; Diyorimizga ko‘klam* ***tashrif buyurdi****.; O‘lkamizda navbahor fasli* ***mehmon****.; Elimizda* ***bahor***.); bir necha sodda gaplarni bitta qo‘shma gap shaklida ifodalash (*Havolar isib qoldi. Daraxtlar gullagan. Bog‘larda qushlar chug‘urlashmoqda. Yurtimizga bahor tashrif buyurgan. – Havolar isib, daraxtlar gullab, bog‘larda qushlar chug‘urlashmoqda, chunki yurtimizga bahor tashrif buyurgan.*);

–berilgan gaplarni o‘qing, ularning qolipiga e’tibor berib xulosa chiqarishga harakat qiling:

Men akam bilan so‘lim qishloqqa bordim.

(*Ega+to‘ldiruvchi+ aniqlovchi+ hol+kesim.*)

Akam bilan so‘lim qishloqqa bordim.

(*To‘ldiruvchi+ aniqlovchi+ hol+kesim.*)

So‘lim qishloqqa bordim.

(*Aniqlovchi+ hol+kesim.*)

Qishloqqa bordim.

(*Hol+kesim.*)

Bordim.

(*Kesim.*)

(Shu o‘rinda o‘quvchilar *tilimizda gapning boshqa bo‘laklari qatnashmasa ham, faqat kesim ishtirokida gap tuzish va u orqali (muayyan ma’no bildiruvchi) fikr ifodalash mumkin. Ammo kesimsiz gap tuzib bo‘lmaydi*, degan xulosaga kela

olishlari zarur. O‘quvchi shundagina o‘zbek tili uchun “Kesim–gapning markazi” tarzidagi qoidani “hazm qiladi”.)

–o‘quvchilar hukmiga *Ta’tilda maktabimiz o‘quvchilari o‘qituvchilarmiz boshchiligida sayohatga* ***chiqishadi****.; Men Chingiz Aytmatov asarlarini sevib* ***o‘qiyman****.; Inson o‘z tilini ona suti kabi muqaddas* ***saqlamog‘i kerak*** kabi gaplarni havola etish va gaplarning kesimini tashlab o‘qib ko‘rish topshirig‘ini berish ham mumkin. (Bunda o‘quvchining o‘zi *Ta’tilda maktabimiz o‘quvchilari o‘qituvchilarmiz boshchiligida sayohatga...; Men Chingiz Aytmatov asarlarini sevib...; Inson o‘z tilini ona suti kabi muqaddas* **...**kabilarda kesim ifodalanmaganligi uchun tugal fikr yo‘qligiga ishonch hosil qilishi zarur.)

Bu kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar ustida ishlash o‘quvchi uchun foydali bo‘ladi.

“Kesimning ifodalanishi” mavzusi ham 5-sinfda o‘tilganligini, mavzu o‘quvchilarga tanishligini inobatga olsak, mavzu ta’limini o‘quvchilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri topshiriq berishdan boshlagan ma’qul.

1-topshiriq. *Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Matn mazmunini bitta gapda ifodalashga harakat qiling.*

SURAT

Dunyoning ishlari doim shoshilinch. Odatdagidek tik turgancha nonushta qilayotgan edim. Onam odatdagidek qistardi:

–O‘tirsang-chi, bolam. Birpas o‘tirgin.

–Bo‘ldi, ketdim.

–Shoshma, bolam. – Onam ko‘zimga odatdagidan boshqacha, qandaydir mo‘ng bilan termildi. – Gap bor.

Tipirchilab soatga qaradim: hali yonilg‘i olish kerak, ishga borish kerak, keyin nashriyotga o‘tish...

– Nima edi?

Onam ko‘zimga hamon ma’yus termilib o‘tirardi.

– Suratga tushaylik, –dedi to‘satdan.

Ajablandim.

– Nega?

–Yaqinda men olaman.

Onam bu gapni xuddi: "Qo'shninikiga chiqib kelaman", degandek ohangda aytdi. Kulib yubordim.

–Qo'ysangiz-chi, oyi.–Shunday dedim-da, chiqdim-ketdim.

Oradan ikki hafta o'tdi-yu...

Kechalari uyg'onib ketaman, o'ylayman. O'ylayman: sen nomard, sen ahmoq nimaga, nimaga o'shanda kulding? Suratga tushishga vaqting yo'qmidi? Kerak bo'lsa, topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida, bog'da, ko'chada... Nima, sen kino yulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana, bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda...

Faqat... Onang bilan tushgan surating yo'q!

(O'tkir Hoshimovdan)

2-topshiriq. *Matndagi gaplarning kesimini topib ular (morfologik jihatdan) qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlang va kesimlarni berilgan jadvalga to'g'ri joylashtiring.*

fe'l kesim	***ot kesim***
O'tirgin, ...	*shoshilinch,…*

Mazkur mavzuni o'zlashtirish davomida asosiy e'tibor o'quvchining to'g'ri va xatosiz jumla tuza olishiga qaratiladi.

Kesim grammatik jihatdan shakllanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: mustaqi kesim va nomustaqil kesim. Ma'nosini yordamchilarsiz voqelantiradigan, (kesimlik kategoriyasi* bilan to'la shakllangan) birlik *mustaqil kesimlik shakli* deyiladi. Masalan, *Men bugundan maktabga* ***bordim*** (Mazkur gapning grammatik mazmunida kesimlik shakllari (tasdiq/inkor, shaxs/son, zamon, mayl/modallik) bor.

* Kesimlik kategoriyasining grammatik ma'nosi kesimda mujassamlashgan tasdiq/inkor, zamon, modallik/mayl, shaxs/son ma'nolarining yaxlitligidan iborat.

Jumladan, ***bordim***–tasdiq ma’nosida; ***-m*** I shaxs/birlikda; ***-di*** yaqin o‘tgan zamonda; xabar maylida.)

Boshqa gaplarsiz, ya’ni qurshovsiz o‘z ma’nosini voqelantira olmaydigan, voqelantirgan taqdirda esa mantig‘idan butunlay boshqa ma’no kelib chiqadigan (kesimlik kategoriyasi bilan to‘la shakllanmagan) shakl *nomustaqil kesimlik shakli* deyiladi. Masalan, *O‘qituvchi kelsa, dars boshlanadi* gapida ikkita kesim bor (***kelsa*** –nomustaqil kesim; ***boshlanadi*** – mustaqil kesim. Ammo gapning bir qismi olinsa, gapdagi shartlik ma’nosi yo‘qoladi. *O‘qituvchi kelsa*– istak ma’nosi yuzaga keladi.)

Nomustaqil kesimlik shakli ***-sa, -sa edi, -saydi, -sa*** ekan kabi shakllarda bo‘ladi va hamisha o‘zidan keyin alohida gapni talab etib turadi.

“Ega va uning ifodalanishi” mavzusi ta’limida gap kesimining shaxs-son qo‘shimchalariga qarab uning egasini tiklash, eganing qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanayotganligini aniqlash singari amaliy ishlar bajariladi.

Ega –gap kesimini shakllantiruvchi, kesimlik kategoriyasi tarkibida turuvchi shaxs/son ma’nosini muayyanlashtiruvchi bo‘lak. Gapda ega ifodalanishi yoki ifodalanmasligiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. Bular–

1) egali gaplar va 2) egasiz gaplar.

Egali gaplar, o‘z navbatida, ichki ikki turga bo‘linadi: a) ***egasi ifodalangan gaplar*** va b) ***egasi ifodalanmagan gaplar***.

Egasi ifodalangan gaplarda, odatda, gapning egasini tushurib qoldirishning iloji bo‘lmaydi. Masalan, *O‘zbekiston – serquyosh o‘lka*.; *Bugun kitobim chiqdi*. (O‘.Hoshimov); *Buxoroda qadim imoratlar ko‘p*. (S.Ahmad); *Onam aybdor qiyofada ma’yus jilmaydi*. (O‘.Hoshimov);

Egasi ifodalanmagan gaplarda, odatda, gapning kesimi tarkibidagi shaxs/son qo‘shimchalari (yoki shaxs/son grammatik ma’nosi) egaga ishora qilib turadi. Bunday holatlarda egani ifodalash yoki ifodalamaslik nutq egasining ixtiyorida bo‘ladi. Biroq har ikki holatda ham gapda eganing o‘rni va mavjudligi aniq sezilib turadi. Masalan, *Onamning bilinar-bilinmas titrab turgan qollaridan tutdim*. (O‘.Hoshimov); *Yozgi ta’tilni Toshkentda o‘tkazamiz*.; *Karima, uy vazifalaringni vaqtida tayyorla*.; *Biznikiga yana mehmon bo‘lib kelinglar*.

Berilgan misollarda 1-gapda *Men*; 2-gapda *Biz*; 3-gapda *Sen*; 4-gapda *Sizlar* kabi egalar (nutq jarayonida ifodalanmasa-da) gaplarning kesimi tarkibidagi shaxs/son qo‘shimchalari (shaxs/son grammatik ma’nosi) orqali balqib turibdi.

Ilmiy adabiyotlarda egasiz gaplarning to‘rt turi ajratiladi. Bular–

a) ***egasi topilmas gaplar;***

b)***atov gaplar;***

d) ***semantik-funksional shakllangan gaplar;***

e) ***egasi umumlashgan gaplar.***

Egasi topilmas gaplarning kesimi, odatda, majhul nisbatdagi fe’llar bilan ifodalanadi va egani tiklashning imkoni bo‘lmaydi. To‘g‘rirog‘i, gap mazmunida bunga ehtiyoj ham sezilmaydi. Masalan, *Yig‘ilishda tartib-intizom haqida gapirildi.*; *O‘n minut qadar yo‘l yurildi.* (Oybek) *Falakka qo‘l uzatib, shams-u anvorni olib bo‘lmas.* (Mashrab); *Jizzaxga borish uchun Samarqanddan o‘tiladi.; Bu xatning mazmunini birovga aytib bo‘lmaydi*.(A.Qahhor)

Atov gaplar – egasiz gapning o‘ziga xos turi: *Keng sahro.; Quruq cho‘l.; Yoqimli ohang.; Zavqli qo‘shiqlar*. Bu gaplar bir qarashda kesimsiz, faqat egadan iborat gaplardek tasavvur uyg‘otadi. Biroq gaplarni zamonlar bo‘yicha paradigmaga solsak, atov gaplarning tarkibi, odatda, kesimdan iboratlgi ma’lum bo‘ladi.

Semantik-funksional shakllangan gap ham egasiz gapning alohida ko‘rinishi. Semantik-funksional shakllangan gaplar deganda tasdiq/ inkor, taklif/xitob, undovni ifodalovchi so‘z-gaplar nazarda tutiladi. Masalan,

1. – *Bugun universitetga bormoqchimisan?*

– ***Ha.***

2. – *Dugonang ham bormoqchimi?*

– ***Yo‘q.***

3. – *Kitoblarni olasanmi?*

– ***Bo‘lmasam-chi!***

4. –*Kitobni bering.*

– ***Ma!*** *(Mang.)*

5. ***Salom,*** *– dedi ko‘rishi bilan hamma birdan. Qo‘llar o‘tdi biqinlarning orasidan. (*G‘.G‘ulom)

Egasi umumlashgan gaplarga, odatda, maqollar, aforizmlardan misollar keltiriladi. Chunki bunday gaplarda kesimdan ifodalanayotgan fikr II yoki III shaxsga qaratilgandek (gapning egasi sen/siz yoki u/ular) taassurot qoldiradi. Biroq gap mazmunan har uchala shaxs(men/biz, sen/siz, u/ular)ga ham teng barobar tegishli bo‘ladi. Masalan, *Yetti o‘lchab bir kes.; Suvga tupurma.; Sanamay sakkiz dema.; Shamolga tupurma.* (Maqollar); *Nodonlar davrasida kar bo‘l.; Donolar davrasida soqov bo‘l.* (Aforizmlar) va b*.

Ba’zan *Jo‘jani kuzda sanaydilar.; Qo‘shiqqa jo‘r bo‘ladilar* kabi gaplarni shaxsi noma’lum gaplar sifatida e’tirof etib ularni ham egasiz gaplar sirasiga kiritadilar. Bu fikrga hamisha ham qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki grammatik jihatdan shaxs va egani (garchi ular qaysidir o‘rinlarda kesishsa-da) o‘zaro tenglashtirish mantiqan to‘g‘ri emas.

10-jadval

* Ba’zan *Jo‘jani kuzda sanaydilar.; Qo‘shiqqa jo‘r bo‘ladilar* kabi gaplarni shaxsi noma’lum gaplar sifatida e’tirof etib ularni ham egasiz gaplar sirasiga kiritadilar. Bu fikrga hamisha ham qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki grammatik jihatdan shaxs va egani (garchi ular qaysidir o‘rinlarda kesishsa-da) o‘zaro tenglashtirish mantiqan to‘g‘ri emas. (Maktab darsliklarida egali va egasiz gaplar bilan bog‘liq talqinlarda chalkashlar ko‘pligi bois shu o‘rinda nazariy ma’lumot berishimizga to‘g‘ri keldi.)

Bu mavzularni o‘rganishda ham kuzatish, qiyoslash; farqlarni topish, guruhlash, hukm chiqarish va amaliy faoliyatda qo‘llash singari aqliy faoliyat usullaridan foydalaniladi.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari 5-sinfda ham o‘rganilgan. 8-sinfda hol, to‘ldiruvchi va aniqlovchi ustida alohida-alohida ish olib boriladi.

Hol nutqda gapdan anglashilgan mazmunning, kesim ifodalagan ish-harakat, holat, voqea-hodisaning o‘rni, payti, tarzi, miqdor-darajasi, sababi, maqsadi, natijasi, sharti kabi ma’nolarni ifodalaydi. Holning o‘rin-payt (*Botir urushda bilinadi*), sabab va maqsad (*O‘qish uchun Toshkentga keldi*), ravish va miqdor (*Isroil qayta-qayta o‘qidi*) holi kabi turlari bor.

Hol yuzasidan ijodiy-amaliy ishlar ularni tuzilishiga ko‘ra bir so‘z bilan ifodalangan sodda (*Opam meni ham **shaharga** olib bordi.*; *Iforaxon **shoshilib** jo‘nadi.*; *Qiz bilan **salomlashib** suhbatlashdi.)* va bir necha so‘z bilan ifodalangan murakkab (*Opam **notanish shaharga** meni ham olib bordi.; Iforaxon **favqulodda shoshilib** jo‘nadi.; Qiz bilan **do‘stlarcha salomlashib** suhbatlashdi.*) turlarga ajratish; hollarning so‘z, so‘z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi; holning ma’noviy turlari jadvali ustida ishlash; vositali to‘ldiruvchi va holning shaklan farqlanmaslik holatlariga bag‘ishlanadi.

1-topshiriq. *Berilgan gaplarni o‘qing. Hol qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanganini aniqlab jadval ustunlari raqamlarini o‘zaro juftlang.*

*Biloljon **shoshilib** gapirdi.*—1	ot——1	1–
*Bola **piq-piq** kuldi.*——2	sifat——2	2–
***Ijarachi uni uydan** chiqarib ketdi.*–3	ravish—3	3–
*U **yaxshi** o‘qiydi.*————4	olmosh–4	4–
***Bunda** ari keltiradi bol.*——5	son—5	5–
*Ishimiz **kech** tugadi.*————6	fe’l ——6	6–
***Bir** keldi, **bir** ketdi.*——7	taqlid—7	7–

Topshiriqning javobi quyidagicha bajarilishi zarur:

*Biloljon **shoshilib** gapirdi.*—1	ot——1	1–6
*Bola **piq-piq** kuldi.*——2	sifat——2	2–7
***Ijarachi uni uydan** chiqarib ketdi.*–3	ravish—3	3–1
*U **yaxshi** o‘qiydi.*————4	olmosh–4	4–2
***Bunda** ari keltiradi bol.*——5	son—5	5–4

*Ishimiz **kech** tugadi.*———6	fe’l ——6	*6–3*
***Bir** keldi, **bir** ketdi.*——7	taqlid—7	7– 5

2-topshiriq. *Berilgan jadvalni yangi misollar bilan to‘ldiring.*

Hol va uning ma’noviy guruhlari ustida ishlash o‘quvchiga o‘z nutqida gap bo‘laklaridan to‘g‘ri foydalana olish yo‘llarini o‘rgatadi.

To‘ldiruvchi, odatda, fe’l bilan ifodalangan har qanday bo‘lak yoki bo‘lak qismining ma’noviy jihatini to‘ldiradi. Gapda kesimga (*Kitobni asrang*), boshqa to‘ldiruvchiga (*Kitobni asrashni unutmang*), egaga (*Kitobni asrash sening vazifangligini unutma*), aniqlovchiga (*Kitobni asrashning hikmati ko‘p*) bog‘lanib keladi.

To‘ldiruvchi o‘zi birikayotgan fe’lning tabiatiga ko‘ra vositali va vositasiz turlarga bo‘linadi.

Vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikish faqat o‘timli fe’lga xos. Vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida tushum kelishigidagi so‘z keladi va u gapda belgili yoki belgisiz qo‘llanilaveradi. Masalan, *Sen **bahorni** sog‘inmadingmi?*(A.Oripov); *Bunda bulbul **kitob** o‘qiydi.*(H.Olimjon).

Vositali to‘ldiruvchi turli grammatik ko‘rsatkich(jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari va ko‘makchilar)lar bilan ifodalanadi. Masalan, *Kitobni senga oldim.; Kitobni sendan oldim.; Bu kitob senda bor.; Kitobni sen uchun oldim.*

“To‘ldiruvchi” mavzusi ta’limida asosiy amaliy ishlarda to‘ldiruvchining so‘z, so‘z birikmasi va kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi; tuzilishiga ko‘ra sodda (masalan, *Xotirangiz mening **xotiramdan** o‘tkir ekan*) va murakkab (masalan, *Qarorda **ularga yordam ko‘rsatish to‘grisida** ko‘rsatma berilgan*) ko‘rinishlariga; kelishik shakllari va ko‘makchilar ifodalangandagi ma’no qirralaridagi farqlarga (*senga – sen uchun*) e’tibor qaratiladi.

Aniqlovchi gapda ot bilan ifodalangan, shuningdek, bo‘lak yoki bo‘lak bo‘laklarining, undalma yoki kirish birikmalarining kengaytiruvchisi hisoblanadi. Masalan, *Nilufar **a’lochi** talaba* (kesim aniqlovchisi); ***Kimning** gapi to‘g‘ri* (ega aniqlovchisi); ***So‘lim va xushhavo** vodiyda o‘rnashdilar*(hol aniqlovchisi); ***Bizning***

yorni ko‘rgan bormi? (to‘ldiruvchi aniqlovchisi); *Xayr endi,* ***yashil*** *vodiy,* ***xushmanzara*** *tog‘* (undalma aniqlovchisi).

Aniqlovchi mohiyatan uch xil bo‘ladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

Sifatlovchili birikmada tobe a’zo (sifatlovchi) hokim uzvning biror xususiyatini aniqlab keladi va unga tobe aloqaning bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi (masalan, ***Oq*** *ilon,* ***oppoq*** *ilon, oydinda yotganing qani?*(Qo‘shiqdan)

Qaratqichli birikmada qaratqich aniqlovchi ot yoki ot o‘rnidagi so‘zlar bilan (***Ona yerning*** *otash qa’ridan «o‘g‘lim», degan nido keladi.*(E.Vohidov); ***Mening*** *ikki onam bor, ikkisi ham mehribon;* ma’nosi toraygan so‘zlar bilan (***Ko‘pning*** *duosi ko‘l;* ***O‘qiganning*** *aqli ko‘p uzun bo‘ldi*) ifodalanishi mumkin.

Umuman olganda, aniqlovchi sifat bilan: ***A’lo*** *mamlakatning* ***a’lo*** *farzandi, bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi*; sifatdosh bilan: ***Oqar*** *daryo oqmasdan qolmas*; ravish bilan: ***Kechagi*** *noxush manzarani bir umr unutmasa kerak;* son bilan: ***o‘ninchi*** *yillarning sargardonligi;* (sifat vazifasidagi) ot bilan: ***anor*** *yuz,* ***oltin*** *kuz*; olmosh bilan: ***Qaysi*** *yuzim bilan unga qarayman*? ham ifodalanish xususiyatiga ega.

Mazkur mavzuni o‘rganishda ijodiy-amaliy topshiriqlar orkali qaratqichli aniqlovchi va sifatlovchi aniqlovchilar haqida tushuncha hosil qilinadi; ularning so‘z, so‘z birikmalari bilan ifodalanishi yuzasidan ma’lumotlar beriladi.

Aniqlovchi bilan bir qatorda izohlovchi haqida ham ma’lumot beriladi. Berilgan izohlovchilarni sodda va murakkab izohlovchilarga ajratish, ularni shaxs nomlari va shaxs otlari, shuningdek, vaqt (yil, oy, kun) otlari bilan birga qo‘llash yuzasidan ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

8-sinfda dastur talabiga ko‘ra o‘quvchilarni “Yoyiq atov so‘z va gaplar”, “Gapda uyushiq bo‘laklar, ularda ohang va tinish belgilari”, “Gapda ajratilgan izoh bo‘laklar”, “Gapda undalma” va “To‘liqsiz gaplar” singari mavzular bilan tanishtirish ko‘zda tutilgan.

Mazkur mavzularni o‘tishda yoyiq atov gaplar va yoyiq so‘z-gaplar ustida ishlash, ixcham atov gaplar(*Bahor...Gullar...*)ni yoyiq atov gaplar(*Yurtimizda bahor...Atrofda gullar...*)ga aylantirish; uyushiq bo‘lak (masalan, *Ko‘chada*

Salimani, Halima va Toshpo‘latni uchratdim) haqida quyi sinfda o‘rganganlaini mustahkamlash, uyushiq bo‘laklar va so‘z qo‘shilmalari, uyushiq bo‘lakli gaplarda ohang (masalan, *Sinfimizning Karima, Salima, Lobar kabi a’lochilari bor*) va ularning teng bog‘lovchilar bilan bog‘lanishi (masalan, *Javohir va Bilol sho‘x bolalar.;, Marvarid hamda Ifora maktabga boradi.; Sen bilan men haq tomonda bo‘laylik* va h.) uyushgan egali (masalan, *Otam va onam bolalar tarbiyasiga jiddiy qarashadi*), holli (masalan, *Uyda ham, maktabda ham, ko‘chada ham tozalikka rioya qiling*), to‘ldiruvchili (masalan, *Mendan, sendan, qo‘shni qizdan bolalarga qarab turishni so‘rashgan*) va aniqlovchili (masalan, *Menga atirgul, rayhon, ra’nogulning ifori juda yoqadi*) gaplar tuzish, kesimning uyushishidagi xususiyatlari (masalan, *Bola daftarga yozib, chizib tashladi.; Hammaga o‘rnak bolalar tarbiyali va odobli sanaladi.; Qadim zamonlarda bu yurt ham go‘zal va farovon edi*), uyushiq bo‘laklarda umumlashtiruvchi qism (masalan, *Bog‘imizda mevali daraxtlar: olma, o‘rik, nok va shaftoli bor.; Do‘kondan daftar, qalam, ruchka – o‘quv qurollari sotib oldim.; Bayram kuni opam, jyanlarim, xolam, tog‘am, xullas, hamma keldi*); kiritmalarning gap mazmuniga (masalan, *Bu voqea Karima tug‘ilgan paytda (O‘shanda erta bahor edi) ro‘y bergan*) va gap bo‘laklariga aloqasi (masalan, *Uyimizga Dilshod va Bekzod (opamning o‘g‘illari) kelishdi*), kirish bo‘laklarning so‘z (masalan, *Men sizni ogohlantirdim, xolos*), so‘z birikmasi (masalan, *Aytishlariga qaraganda, sayhotga hozir borolmaymiz*), kengaygan birikmalar (masalan, *Karima opamning aytishlaricha, ertadan ta’tilga chiqamiz*) va gaplar (masalan, *Qor ko‘p yog‘gan yili (O‘shanda 2007-yilning qish fasli edi) oila ancha qiynalib qoldi*), bilan ifodalanishi, kiritmali gaplarda tinish belgilari va ohang; undalma (masalan, *Ey dunyo, qismating oliy, murakkab*), uning sodda (masalan, *Bolalar, bilim manbayi bo‘lmish kitobni seving*) va murakkab turlari (masalan, *Ey qadim Turon, jarohatlari bitmagan yurt, sening ham ozod yashashga haqing bor*), undalmalarning so‘z, so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi, undalma va egani farqlash (masalan, *Karima, dugonang keldi – Karima dugonang keldi*), to‘liqsiz gaplardan nutqiy faoliyatda foydalanish (masalan, *–Nima o‘qiyapsan? –Maktub*.; *–Bu ayol kimning qarindosh?*

–*Onamning*) singari bir qator amaliy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, izlanishi, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda ifodalanishi namoyon bo‘ladi.

“Qo‘shma gaplarni o‘qitish” metodikasi

5-sinfda o‘quvchilar mazkur mavzu yuzasidan quyidagi mavzular billan tanishadilar: *“Qo‘shma gap”, “Sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash vositalari (va, chunki, shuning uchun)ni aniqlash”, “Matndagi sodda va qo‘shma gaplarni aniqlash”, “Qo‘shma gaplarda tinish belgilari va bog‘lovchi vositalarning qo‘llanilishi”.*

Qo‘shma gaplarni izchil o‘rganish esa 9-sinfda davom ettiriladi. Bunda, asosan, “Qo‘shma gap qismlari (*tarkibida kesimlar miqdori birdan ortiq bo‘lgan gaplar*) va ularni bog‘lovchi vositalar”(*teng bog‘lovchilar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar, nisbiy so‘zlar, ohang*); “Qo‘shma gaplar tasnifi” (*tarkibi teng munosabatli* (tarkibi teng bog‘lovchilar va ohang yordamida bog‘langan) va *tobe munosabatli* (tarkibi ergashtiruvchi bog‘lovchilar, nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langan).

“Bog‘langan qo‘shma gap haqida ma’lumot” (*tarkibi teng munosabatli sodda gaplardan tarkib topgan va ular o‘zaro teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan bo‘ladi. Bog‘lovchi vositalariga qarab ular: biriktiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gap, zidlov bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gap, ayiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gap, inkor bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gapga bo‘linadi.*); “Birikturuv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar” (masalan, *Tong otdi **va** atrof yorishdi.*; *Tong otdi **hamda** atrof yorishdi.*; *Tong otdi-**ku,** atrof yorishdi.; Tong otdi-**yu**, atrof yorishdi.; Tong otdi-**da**, atrof yorishdi.*); “Zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar” (masalan, *Eshik ochildi, **ammo** hech kim kirmadi.*; *Eshik ochildi, **biroq** hech kim kirmadi.*; *Eshik ochildi, **lekin** hech kim kirmadi.*; *Eshik ochildi-**yu,** hech kim kirmadi.*; *Eshik ochildi-**da,** hech kim kirmadi.*) “Ayiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar” (masalan, *Sen kel **yoki** men boray.*; *Sen kel **yoxud** men boray.*; ***Yo** sen kel, **yo** men boray.*; ***Goh** sen kel, **goh** men boray.*;

Ba'zan *sen kel,* ***ba'zan*** *men boray.*; ***Dam*** *sen kel,* ***dam*** *men boray.*); "Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar" (masalan, *Na yozadi,* ***na*** *o'qiydi*); "Bo'lsa, esa so'zlari va yuklamalar yordamida bog'langan qo'shma gaplar" (masalan, *Javohir masalani yechib bo'ldi, Bilol* ***bo'lsa*** *hamon kitob varaqlab o'tiribdi.*; *Karima keldi, Salimdan* ***esa*** *darak yo'q.*; *Onasiga ko'zi tushdi****mi****, bola yig'lab qoldi.*)

"Ergash gapli qo'shma gap haqida ma'lumot" (*tarkibi tobe munosabatli sodda gaplardan tarkib topgan va ular o'zaro tobe bog'lovchilar hamda nisbiy so'zlar vositasida bog'lanadi. Tobe munosabatli gaplar tarkibi bosh gap hamda ergash gapdan iborat bo'ladi. Ergash gap bosh gap tarkibidagi qaysi bo'lakni to'ldirib, ma'nosini ochib berishiga qarab kesim ergash gapli qo'shma gap, ega ergash gapli qo'shma gap, hol ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap kabi turlarga bo'linadi.*). "Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar" (masalan, *Shuni unutmang****ki****, halollik hamma narsadan afzal.*; *Qo'ng'iroq chalindi,* ***shuning uchun*** *tanaffusga chiqdik.*; *Maktabga bormadik,* ***chunki*** *bugun – yakshanba.*; *Yomg'ir yog'****sa****, dalalar yashnaydi.*va b.)

"Ohang yordamida bog'langan* qo'shma gap haqida ma'lumot" (*Bunda qo'shma gap tarkibidagi teng munosabatli sodda gaplar faqat ohang yordamida bog'lanadi.* Masalan, *Endi men topishmoq aytaman, sizdan javob kutaman.; Kuz keldi, daraxt yaproqlari sarg'aya boshladi* kabi); "Boglovchisiz qo'shma gaplarning boshqa qo'shma gaplar bilan ma'nodoshligi" (masalan, *Kutubxonachi yetib keldi, kutubxona ochildi.– Kutubxonachi yetib keldi va kutubxona ochildi.– Kutubxonachi yetib keldi, shuning uchun kutubxona ochildi.*) "Bu gaplarda vergul, tire, nuqtali vergul va ikki nuqtaning qo'llanishi, ularda ohang" (*U keldi, biz jo'naymiz.; Yurt tinch – sen tinch.; Qor yog'di – don yog'di.; Karima qip-qizil ko'ylakda; Yodgorni bezgak tutyapti.; Qor yog'di: atrof jim-jit bo'lib qoldi.; Qarorim shu: ertaga jo'nayman.*)

---

* Ba'zi o'quv adabiyotlarida "Ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar" boshqa nom bilan "Boglovchisiz qo'shma gaplar" tarzida berilishi noo'rin. Chunki ohang ham nolisoniy bog'lovchi vositadir.

Berilgan mavzular yuzasidan amaliy-ijodiy ishlar olib borishning ko‘plab yo‘l va usullari bor. Masalan,

1-topshiriq. *Berilgan qo‘shma gaplarni tarkibi kengaygan sodda gaplarga aylantirib yozing.*

1.Qayer obod bo‘lsa, o‘sha yer mehrni tortadi. 2. Hozir Gulnorning gavdasini parchalab tashlasalar ham, og‘riq sezmagan bo‘lur edi. (Oybek) 3. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir…(Bobur) 4. Quvonchi ko‘ksiga sig‘masa-da, odob yuzasidan o‘zini hazin tutishga tirishar edi. (Oybek) 5. Dutor chalib o‘tirsam, tori uzilib ketdi. 6. Kim gapirsa, o‘sha aybdor sanaladi. 7. Sen bo‘lmasang, gullar kulmaydi. 8. Uyga qaytsam, nima deysiz? 9. Ra’no guruchni endi ivitgan ham ediki, ichkaridan Anvar chiqib keldi. (A.Qodiriy)

Namuna: *Sen bo‘lmasang, gullar kulmaydi – Sen bo‘lmaganing uchun gullar kulmaydi.*

2-topshiriq. *Berilgan tarkibi kengaygan sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring. “Gaplar ma’nosiga gapning tuzilishi ta’sir ko‘rsatadimi?” degan savolga yozma javob tayyorlang.*

1.Yozda qishloqqa borsam. 2. Mening o‘qiganimni u eshitadi. 3.Duolarim yetsin samoga. 4.Bo‘liq yer “tayyorman” degandek ko‘pchib yotibdi. 5. Hali kelishmagani uchun o‘zim ham xavotir olib o‘tiribman. (A.Qahhor) 6. Barno kelavermagach o‘tirishga sabri chidamay idoradan chiqdi. (O. Yoqubov)

Namuna: *Mening o‘qiganimni u eshitadi – Men o‘qiyman, u eshitadi.*

9-sinfning oxirida o‘quvchilarga murakkab sintaktik butunliklar xususida ham ma’lumot beriladi. O‘quvchilar gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (darak, so‘roq, buyruq gaplar); ritorik so‘roq gaplar, ularda tinish belgilari va ohang, ko‘chirma gapli qurilmalar bilan tanishtiriladi.

Demak, ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limini o‘rganish ona tildan belgilangan maqsad: ”ta’lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalari”ni chuqurlashtirib, ”ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish”ga deyarli muvofiq keladi.

Mavzuni yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. ”Sintaksis va punktuasiya” bo‘limining boshqa bo‘limlar bilan aloqadorligi haqida nimalarni ayta olasiz?
2. Maktabda ”Sintaksis, ohang va tinish belgilari” bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari haqida gapiring.
3. So‘z birikmasini o‘qitish imkoniyatlari qaysilar?
4. So‘z birikmasining so‘zdan, so‘zlar qo‘shilmasidan, tasviriy ifoda va iboradan farqini tushuntirishga xizmat qiladigan ijodiy-amaliy topshiriqlar to‘g‘risida fikr yuriting.
5. ”Sodda gap sintaksisi” mavzusini o‘qitishda foydalaniladigan ijodiy-amaliy topshiriqlar tizimi haqida gapiring.
6. Teng munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘qitishda qanday ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalaniladi?
7. Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar mavzusini o‘qitishda, asosan, nimalarga e’tibor qaratish zarur?
8. Yuklamali qo‘shma gaplarni o‘qitish metodikasi haqida fikr yuriting.
9. Nisbiy so‘zli qo‘shma gaplarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ijodiy- amaliy topshiriqlar tizimi haqida so‘zlab bering.
10. Faqat ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘qitishda boshlanish qismi berilgan gaplarni davom ettirish, qoliplar asosida hosil qilish singari topshiriqlarning amaliy ahamiyati to‘g‘risida fikr yuriting.
11.”Grammatika – til imkoniyatlarini o‘rganishda yordamchi vosita” ekanligini qanday izohlaysiz?
12. O‘quvchilarga murakkab sintaktik butunliklar ta’limi nima uchun kerak?
13.Qo‘shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma’noviy munosabatga ko‘ra qanday turlari bor?
14.O‘quvchi hayotining qaysi o‘rinlarida qo‘shma gap turlaridan ko‘proq foydalanadi?
15. ”Ko‘chirma gap” mavzusi ta’limida o‘qituvchi ko‘chirma gaplarning nechta qolipidan foydalanadi?
16.Nima uchun ohang nolisoniy vosita sanaladi?
17. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lovchi vositalarning ma’nodoshligi va vazifadoshligiga misollar ayting.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

[1;6;11;20;22;28;32;34;35]

PUNKTUATSIYA O‘QITISH METODIKASI

Reja:

1.Punktuatsiya o‘qitishning o‘ziga xosligi.
2. Tinish belgilarining qo‘llanishi ustida ishlash usullari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Punktuatsiya, nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, undov belgisi, so‘roq belgisi, ko‘p nuqta, qavs, qo‘shtirnoq, tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish

“Punktuatsiya” tilshunoslikning alohida, mustaqil bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda tinish belgilari va ularni yozuvda to‘g‘ri qo‘llash qonun-qoidalari o‘rganilishini bilamiz. Tinish belgilari yozma nutqni muayyan qonun-qoidalar asosida tartibga soluvchi, avloddan avlodlarga meros bo‘lib qola oladigan yozuvni so‘zlovchi nuqtayi nazaridan yondashgan holda to‘g‘ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining mazmuniy munosabatlarini ko‘rsatishda muhim vosita vazifasini bajaruvchi omillardan biridir.

Tinish belgilarining ahamiyati shundaki, ushbu belgilar yozma matnning mazmuni, sintaktik tuzilishi, qismlar orasidagi ma’no va grammatik munosabatlarni aniqlaydi. Punktuatsiya, bir tomondan, yozuvchiga o‘z yozma nutqini aniq, to‘g‘ri, va ifodali bayon eta olish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o‘quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi. Demak, punktuatsiya ikki tomonlama munosabatni ifodalab, bir paytning o‘zida yozuvda ifodalangan mantiqni o‘quvchiga yozuvchi nazarda tutgan nuqtayi nazarda yetkazishdek muhim vazifani bajaradi.

Agarda tinish belgilari bo‘lmaganda edi, insoniyat yozuv orqali ifodalangan fikrni to‘g‘ri anglay olmas, boshqalarning nima demoqchiligini bilmasdan qiynalardi. Balki tinish belgilari bo‘lmasa, yozuv taraqqiyoti ham bugungi takomiliga erishmas edi, bizningcha.

Hozirgi o‘zbek yozuvida 10 xil tinish belgisidan foydalaniladi:

1) nuqta –(.) ;
2) vergul –(,) ;
3) nuqtali vergul– (;) ;
4) ikki nuqta – (:) ;
5) tire – (–) ;
6) undov belgisi – (!) ;
7) so‘roq belgisi – (?) ;
8) ko‘p nuqta – (…) ;
9) qavs – ( ) , [ ] ;
10) qo‘shtirnoq –(“ “)

Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo‘linishini ko‘rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdan iborat.

Maktabda “Punktuatsiya” bo‘limi boshqa sathlar ta’limi bilan birga olib boriladi va o‘quvchilardan 10ta tinish belgisining ishlatilishi haqida quyidagilarni bilish talab etiladi:

Nuqta. Nuqta, asosan,

1) biror voqea-hodisa haqidagi xabarni bildirgan egali va egasiz, yig‘iq va yoyiq, sodda va qo‘shma tuzilishdagi darak gaplar oxirida qo‘llaniladi: *Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta tildir.* (A.Avloniy) *Bahor keldi va gullar ochildi.*

2) tinch ohang bilan aytiladigan buyruq hamda istak gaplarning oxirida qo‘llaniladi: *Sen faqat o‘zingni o‘ylama.*(O‘.Hoshimov); *Koshki, biz kutgan yorug‘ kunlar tezroq kelsa.*

3) atov gaplardan so‘ng, odatda, nuqta belgisi qo‘yiladi: *Bahor. Barqut kiyib bezandi bog‘lar.* (E.Vohidov)

4) ba’zan biri ikkinchisiga mantiqan bog‘lanmagan qo‘shma gaplarning birinchi qismida kuchli to‘xtam bo‘lsa, undan keyin nuqta qo‘llaniladi: *So‘z tegib shod bo‘ldik. Ammo So‘zga ko‘z tegdi kecha.* (E.Vohidov)

5) birinchi qismida nuqta, ko‘p nuqta, undov, vergul yoki so‘roq belgisi bo‘lgan ko‘chirma gap o‘rtasida kelgan muallif gapidan so‘ng nuqta qo‘yiladi va ko‘chirma gapning davomi yoziladi: (“K! - m.– K”.) (“K, - m .– K”.) ”*Tangrim! – dedi ona.– Farzandimga insof ber*“. (S.Ahmad)

6) ism, ota ismi (ba’zan familiyalar, taxalluslar) qisqartirilganda ularning birinchi harfidan (yoki bosh qismidan) so‘ng nuqta qo‘yiladi: *A. Oripov, Sh.M.Mirziyoyev, A.N., A.Qod.* kabi.

7) nashriyot ishlarida, lug‘atlarda, ma’lumotnomalarda shartli qisqartmalarning birinchi harfi yoki bo‘g‘inidan so‘ng nuqta qo‘yiladi: *sh.k. (shu kabilar), h.k. (hokazo). b. (boshqalar)*

8) matnning manbayi, muallifi, qachon, qayerda nashr etilganligi ko‘rsatilganda, muallifning (to‘liq yoki) qisqartirilgan ismi, manba nomi, nashr yili, sahifa ko‘rsatkichidan keyin nuqta qo‘yiladi: *Yo‘ldosheva D., Hamroyeva Sh. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.– Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.–138 bet.*

9) butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatilishi mumkin: *O‘zbek she’riyatini bu ikki shoirsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi: 1. A. Oripov. 2. E. Vohidov.*

10) oy, kun, yillarni ifodalovchi arab raqamlardan so‘ng nuqta qo‘yilishi kuzatiladi. Masalan, *21.03.2020.*

11) qavs ichidagi remarkadan so‘ng nuqta ishlatiladi: *Qilichbek: Xo‘jayin, hammasi tayyor bo‘ldi. (Ularni topolmay hayron bo‘ladi.)* (E.Vohidov)

Vergul. Vergul, odatda,

1) bog‘lovchilarsiz, sanash ohangi yordamida birikkan uyushiq bo‘laklar orasida qo‘llaniladi: *Donolar ko‘zingni, qulog‘ingni, qalbingni yomonliklardan berkitish zarurligini uqtirishadi.*

2) qo‘shma gap yoki uyushiq bo‘laklar tarkibidagi zidlov bog‘lovchilaridan oldin vergul qo‘llaniladi: *Sizning yuzingizdan chimmatni oldik, biroq hayo pardasini olganimiz yo‘q.* (A.Oripov); *Qor – oppoq, chiroyli, ammo sovuq narsa.*;

3) takror qo‘llanilgan bog‘lovchilar bilan bog‘langan bo‘laklar yoki gaplar orasida vergul qo‘llaniladi: *O‘zingni ham, uyingni ham o‘zing asra.* (I.Karimov); *O‘ldimi, uxladimi, endi baribir unga.* (H.Olimjon)

4) odatda, ajratilgan bo‘laklarning har ikki tomonidan vergul qo‘yiladi: *Tuvada, Enasoy bo‘yida, Yalanglikka ulkan ustun qo‘yilgan.* (A.Oripov)

5) undalmalarli gaplarda: a) undalmalar gap boshida kelsa, undan so‘ng: Ustozlarim, men sizning Bir parcha yuragingiz.(E. Vohidov); b) undalmalar gap o‘rtasida kelsa, har ikki tomondan: *Sog‘ bo‘l, ona xalqim, ey tolmas bilak, Doim baland bo‘lsin tabarruk boshing.* (E.Vohidov); d) undalmalar gap oxirida kelsa, undan oldin vergul qo‘yiladi:

Qoshingizga yana keldim, Quloq soling, Boy ota, Sidqi dildan xizmat qilay, Ishga oling, Boy ota. (E.Vohidov)

6) kirish so‘zli gaplarda: a) kirish so‘z gap boshida kelsa, undan so‘ng: *Mayli, umrim abadiy emas, Mayli, yashay faqat bir nafas*. (E.Vohidov); b) kirish so‘z gap o‘rtasida kelsa, har ikki tomondan: *Bu yerda, voajab, yuz yillar avval, Dunyoga kelibdi sulton Ulug‘bek.* (E.Vohidov); d) kirish so‘z gap oxirida kelganda vergul ulardan oldin qo‘yiladi*: Ona tilim, sen borsan, shaksiz...* (A.O.)

7) kirish birikmalar ham kirish so‘zlar kabi boshqa bo‘laklardan, asosan, vergul yordamida ajratiladi. Chunonchi, *Shunday ekan, manmanlik nechun, Kibr-u havo nimaga kerak*? (E.Vohidov)

8) ha, yo‘q, rahmat, xo‘sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi modal ma’nolarni bildiruvchi so‘z-gaplarni boshqa bo‘laklardan ajratish uchun: *Xayr, Sevan, zangori ko‘l, yaxshi qol, Izlarim bor qirg‘oqdagi qoyangda*. (E.Vohidov)

9) his-hayajonsiz aytiladigan undov so‘zlardan so‘ng: *Oh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi...* (E.Vohidov)

10) qo‘shma gap takibidagi sodda gaplarni bir-biridan ajratishda: a)bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibi -u, (-yu), -da vazifadosh biriktiruv bo‘g‘lovchilari bilan bog‘langanda ulardan so‘ng vergul qo‘yiladi*: Tog‘laring tegrangda go‘yo Bo‘g‘ma ajdar bo‘ldi-yu, Ikki daryo – ikki chashming, Chashmi giryon, o‘zbegim*. (E.Vohidov)

11) zidlov bog‘lovchilari (ammo, lekin, biroq) yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda vergul zidlov bog‘lovchilaridan oldin qo‘llaniladi: *Mening shoirligim yolg‘ondir, ammo Fuzuliy she’riga oshiqligim rost.* (E.Vohidov)

12) takror bog‘lovchilari (goh…goh, yo…yo, dam…dam, ba’zan…ba’zan) hamda inkor bog‘lovchisi (na…na) yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda vergul takror qo‘llanayotgan bog‘lovchilardan oldin qo‘yiladi. Masalan, *Gohi hudman, gohi behud, Shavq-u dardim sharh qil.* (E.Vohidov)

13) ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapga chunki, negaki, toki, go‘yo kabi bog‘lovchilar bilan bog‘langanda, ulardan oldin vergul qo‘yiladi: *Vijdonni asrangiz har nedan ortiq, Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon*. (A. Oripov)

14) shart ergash gaplarda vergul shart mayli shaklidan keyin qo‘llaniladi: *Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo‘lsam, kechirma aslo!* (A.Oripov)

15) ko‘makchili (*shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* kabi) qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplarda vergul bosh gap tarkibida kelgan ko‘makchili qurilmalardan oldin qo‘yiladi: *Ozoda ko‘p kitob o‘qiydi, shuning uchun mushohadasi keng.*

16) sabab, maqsad ergash gaplarda vergul birinchi qismda kelgan ergash gap tarkibidagi deb so‘zidan so‘ng qo‘yiladi. Masalan, *Kamalakdek rango-rang bo‘lsin deb, san’at, tillar Asrlarcha qildim jang.* (E.Vohidov)

17) ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibi mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsa, ular orasiga vergul qo‘yiladi. Masalan, *Qo‘n`iroq chalindi, dars boshlandi.*

18) takror gaplar va takrorlangan bo‘laklar orasida vergul qo‘yiladi: *Taningda kamtarin a’zo Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir, Mudom mehnat uchun paydo Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir.* (E.Vohidov)

Nuqtali vergul. Nuqtali vergul, odatda,

1) bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari mazmunan bir-biridan uzoq bo‘lsa: *Bayrog‘imiz to‘rt xil rangda: Moviy rang bu yuksaklik; Yashilda-chi, yashnar hayot; Qon gupurar qizillikda; Oq aytadi: men tinchlik.* (E.Vohidov)

2) tarkibidagi sodda gaplar ketma-ket sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni ifodalab, o‘z ichida bir necha tinish belgilari qo‘llanilgan bo‘lsa: … *Ona qalbi ezildi; So‘ng tikilib suratga, Kelib qat’iy jur’atga Minglab maktub yozildi.* (E.Vohidov)

3) bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplarda voqealar bir-biriga qiyoslansa: *Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham; Yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.* (Maqol)

4) uyushiq bo‘laklar guruhlanib o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilgan bo‘lsa , nuqtali vergul ishlatiladi.

5) har xil turdagi sodda gaplarni o‘z ichiga olgan murakkab qo‘shma gaplarda nuqtali vergul ishlatiladi:

Do‘stim, qo‘lingni ber,

O‘zingmisan;

yo–

Ko‘rganim malakmi arshi a’loda. (E.Vohidov)

Ikki nuqta. Ikki nuqta quyidagi hollarda ishlatiladi:

1) umumlashtiruvchi bo‘lak uyushiq bo‘laklardan oldin kelsa, undan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi: *Meni ko‘rgani uyimizga do‘stlarim: Murod, O‘tkir, Tal’at, Mirjamol kelishdi.*

2) ba’zan uyushiq bo‘laklarni alohida ta’kidlsh maqsadi bilan ular gapdan tashqariga chiqariladi, bunday hollarda ikki nuqta umumlashtiruvchi so‘zdan keyin emas, balki asosiy gapdan keyin qo‘yiladi: *Dunyoda insondan uch narsa qolur: ezgu fikr, ezgu amal, ezgu nom.*

3) gapda umumlashtiruvchi so‘z bo‘lmagan hollarda ham asosiy gapdan keyin uyushiq bo‘laklarni ta’kidlash uchun ikki nuqta qo‘yiladi: *Chiqib keldilar qator: Dante, Shiller, va Bayron Firdavsiy, Balzak, Tagor.* (E.Vohdov)

4) ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasida keyingi sodda gap oldingi sodda gap mazmunini mantiqan izohlasa: *U quvonar: hayotimga Yor bo‘ldi ma’no.* (E.Vohdov)

5) bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning mazmunini izohlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi. Masalan, *Ravon yo‘l bitta shu: Bu ham yaxmalak.* (A.Oripov)

6) ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelsa, undan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi. Masalan, *So‘radi: “Sen kimsan, nadir kasb-koring, Bunchalar dahshatli turq-u atvoring?”* (E.Vohdov)

7) *reja, mavzu, qaror qilindi* kabi so‘zlarning ma’nosi izohlanganda ikki nuqta ishlatiladi.

Tire. Tire* quyidagi hollarda ishlatiladi:

1) ot kesim (ot, olmosh, harakat nomi, ba’zan sanoq son bilan ifodalangan kesim) bog‘lamasiz qo‘llanilganda, egadan keyin tire qo‘yiladi. Masalan, *Onayizoring–zamin...* (E.Vohdov); *Siz intiqib kutgan sovg‘a – shu.; O‘qimoq – yuksalmoq.; Yetti karra besh – o‘ttiz besh.*

* Tire bilan chiziqchani farqlash lozim. Tire – punktuatsion belgi, chiziqcha esa orfografik belgidir.

2) ega va kesim orasida ta’kidni kuchaytirish uchun *u, bu, mana bu* kabi ko‘rsatish olmoshlari qo‘llanilganda, ular orsida tire ishlatiladi. *Davlat – bu hammamiz, Davlat – bu hech kim.* (E.Vohdov)

3) ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida tire qo‘yiladi: *Shoir– o‘z xalqining yurak parchasi.* (E.Vohdov)

4) uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin: *Daryolar, vodiylar, Dengiz-u tog‘lar – bari Tabiatning ko‘rkidir, shaksiz.* (E.Vohdov)

5) agar ajratilgan bo‘lakning o‘z ichida vergul qo‘llanilgan bo‘lsa, ikki tomonidan tire yordamida ajratiladi: *Oysiz osmon – qorong‘u, zulmatga qoplangan kenglik – Qiymatsiz orzular armonga tengdek...* (E.Vohdov)

6) dialoglarda har bir muallif gapining boshida tire ishlatiladi. Masalan,

– Oyga uchsak, Xoljonni ham olamizmi?

– Hamma uchsa, axir oshnam, qolamizmi? (E.Vohdov)

7) ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda muallif gapi ko‘chirma gapdan keyin kelsa, undan oldin tire ishlatiladi. Agar muallif gapi ko‘chirma gap ichida kelsa, tire muallif gapining har ikkala tomonida qo‘yiladi: ”K,–m”,; ”K,–m,–k”.

8) ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni hosil qiluvchi sodda gaplar orasida o‘zaro zidlik, o‘xshashlik, shart munosabatlari bo‘lsa, bunday sodda gaplar orasida tire ishlatiladi: *Hayot osuda–yurakda g‘alayon.*; *Yomg‘ir yog‘di –qut-baraka yog‘di.; Yurt tinch–sen tinch.*(Maqol)

9) ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gapning ikkinchi qismida gapning kesimi ifodalanmasa, ikkinchi qism gap bo‘laklari orasida tire ishlatiladi: *Do‘st do‘stni kulfatda sinar, odam odamni – mehnatda.* (Maqol)

Undov belgisi. Undov belgisi, odatda,

1) kuchli his-hayajon ohangi bilan aytilgan darak gaplar oxirida qo‘yiladi: *Dehqon sog‘lom! Dehqon–chavandoz*! (E.Vohdov)

2) kuchli his-hayajon ohangi bilan aytilgan undov gaplar oxirida qo‘yiladi: *Oh, bunchalar go‘zal manzara!*

3) kuchli his-hayajon ohangi bilan aytilgan atov gaplar oxirida qo‘yiladi: *Qish! Oppoq qor!*

4) kuchli his-hayajon ohangi bilan aytilgan gap boshidagi undalmalardan keyin qo‘yiladi: *Bolalar! Kitob o‘qimagan xalqning kelajagi yo‘q.*

5) kuchli his-hayajon ohangi bilan aytilgan buyruq gaplar oxirida qo‘yiladi: *Kitobingni oqi!*

6) gap o‘rtasida ta’kidlangan bo‘lakdan so‘ng undov belgisi qavs ichida qo‘yiladi: *Inson nondan ko‘ra ilmga (!) ko‘proq ehtiyojmand.*

Ko‘p nuqta. Ko‘p nuqta, odatda,

1) mazmunan tugallanmay qolgan gaplarning oxirida so‘zlovchining yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko‘rsatish uchun: *Bir-birovni avaylang, O‘lgan bilan yer to‘ymas. Endi siz o‘ltiringlar, Men havoda bir nafas...* (E.Vohdov)

2) ba’zan so‘zlovchining o‘ylanishi, mulohaza qilishini ko‘rsatish yoki fikri tugallanmay qolganligini ifodalash uchun ko‘p nuqta ishlatiladi: *O‘n kishilik mehnat qilib, Parcha nonga to‘yaman Bir aybim bor, faqat ba’zan... Rost gapirib qo‘yaman*. (E.Vohdov)

3) fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilgan o‘rinlarda ko‘p nuqta ishlatiladi: *Sen...juda...chiroylisan...*

4) ba’zan gap oxirida kelgan *va boshqalar, hokazolar* birliklari o‘rnida ham ko‘p nuqta ishlatiladi.

So‘roq belgisi. So‘roq belgisi, odatda,

1) so‘roq ohangi bilan aytilgan gaplar oirida qo‘llaniladi: *Mehmon keldi?*

2) so‘roq yuklamalari yordamida tuzilgan so‘roq gaplar oxirida ishlatiladi: *Bu gunohning so‘rog‘i bormi? Bormi jallod hukmiga qonun?* (E.Vohdov)

3) so‘roq olmoshlari bilan hosil bo‘ladigan so‘roq gaplardan so‘ng qo‘yiladi: *Kim nimani tushunmadi?*; *Yo rab, qandoq kunga qoldik, bu nechuk savdo? Odamlarda na shafqat bor, na mehr-u vafo*. (E.Vohdov)

4) jumla o‘rtasida tushunarsiz o‘rinlarga ham so‘roq belgisi qo‘yiladi.

Qavs. Mazkur belgi, odatda, quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1) ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh beruvchi, izoh ma’nosidagi so‘z yoki birikmalar qavsga olinadi: Xonaga nuroniy mo‘ysafid (dugonamning bobosi) kirib keldi.

2) kiritma gaplar qavsga olinadi: *A.Oripov 1941-yil 21-martda (Oradan to‘rt oy o‘tib ikkinchi jahon urushi boshlangan edi) Qashqadaryoda tug‘ildi.*

3) remarkalarda qavs ishlatiladi: *–Hoy sen kimsan? (Sharpa jim.)* (E.Vohdov)

4) olingan misollar yoki ko‘chirma gaplarning manbayi qavs ichida beriladi: *Men nechun sevaman O‘zbekistonni...*(A.Oripov)

5) shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. Masalan, *“Yulduzli tunlar”(“Bobur”) tarixiy asar sanaladi*.

6) gazeta va jurnallarda davomi bor, boshi 2-betda kabi so‘zlar, familiyadan so‘ng mansabni bildiruvchi so‘zlar qavsda beriladi.

Qo‘shtirnoq. Qo‘shtirnoq quyidagi o‘rinlarda qo‘llaniladi:

1) ko‘chirma gaplar qo‘shtirnoqqa olinadi: *“Bugun otajonlarimizga, to‘g‘rirog‘i, har kim o‘z otasiga maktub yozadi”, – dedi ona tili o‘qituvchimiz hayajonlanib.*

2) iqtibos(sitata, ko‘chirma)lar qo‘shtirnoqqa olinadi: *“Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” (A.Navoiy) ekanligini har birimiz yurakdan his etishimiz juda muhim.*

3) badiiy asar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va rasm nomlari, ilmiy to‘plamlar nomi qo‘shtirnoqqa olinadi. Masalan, *Qo‘lida Sa’diyning ”Guliston”i bor, ”Sharq-u g‘arb devoni”din o‘qir menga she’r*. (E.Vohdov)

4) muassasa, tashkilot, xo‘jalik, korxona, zavod, fabrika, mehmonxona va h.k.larning nomlari qo‘shtirnoq ichida yoziladi. Masalan, *”O‘zbekiston” nashriyoti, ”Bahor” ansambli*

5) transportlarning markasini bildirgan so‘zlar, o‘simliklarning turini, mahsulotlar nomini ifodalovchi leksik birliklar qo‘shtirnoqqa olinadi. Masalan, *“Neksiya”, “Damas”, “Kaptiva”, “Spark” kabi avtomobillar O‘zbekistonda ishlab chiqariladi.*; *“Golden” olma navi yurtimizga Janubiy Amerikadan keltirilgan.*; *“Kichkintoy” bo‘tqasini, odatda, bolalar sevib iste’mol qilishadi.*

6) gapda kinoya qilingan so‘z yoki jumla qo‘shtirnoqqa olinadi: *Voy, buncha “ochilib ketibsiz?”*

Shuningdek, tinish belgilari qo‘shaloq holatda ham qo‘llaniladi*: *Nahotki, yerimiz chappa aylansa!?* (She’rdan); *Bechora qushcha!..*

Ona tili ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalar uch parametrli standart ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi. Bular – 1. O‘qish texnikasi. 2. O‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi. 3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi. Ijtimoiy buyurtmani o‘zida mujassamlashtirgan har uchala parametr ham o‘quvchidan kommunikativ savodxonlikni talab etadi. Har uchala parametr talablari punktuatsion belgilar ta’limi bilan kesishadi, ya’ni **tinish belgilari**ga oid bilimlarning o‘zlashtirilishini taqozo etadi.

5-sinf ona tili mashg‘ulotlarida “Biz tinish belgilarimiz” nomli quyidagi topishmoqlar to‘plamidan foydalanish mumkin:

Fikrlarning shohbekati o‘zimdirman,
Har darak gap oxirida hozirdirman.
Boshqa fikr boshlanajak mendan keyin,
Belgilarga asos o‘zim, boshman deyin.
Har bir bosh harf yonimdagi bir soqchidir,
Qaysi bola buni bilsa, ko‘p yaxshidir.
Tinch ohangda gap desangiz men bordirman,
Nutqingizga hammadan ko‘p men yordirman.

(**nuqta**)

Kirish so‘z-u undalmaning mensiz ishi bitmaydi.
Qo‘shma gap ham yordam so‘rab yonginamdan ketmaydi.
So‘zlarning ham, gaplarning ham orasida yuraman,
Chegarani ochish uchun bitta o‘zim turaman.
Xizmatlarim bir-bir aytib tanishtirsam o‘zimni,
Maqtanishga yo‘ymang aslo mening aytgan so‘zimni.
Xizmatlarda turaverib bukr bo‘lib qolgan belim,
Shaklimgamas, ishimga “Balli” deydi ona-elim.

(**vergul**)

Bizlar egiz uch nuqta,
Bizdek qo‘sh qanot yo‘q-da.
Gar kelib qolsak bizlar,
Gapning davomi uy-da.

* Tinish belgilarining qo‘shaloq holatda qo‘llanilishi bilan ularning yonma-yon kelishini farqlash lozim. Masalan, ko‘chirma gaplar tarkibida yoki sitatali gaplarda qo‘shtirnoq va vergul yoki tire yonma-yon keladi: *“Seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo‘lsam kechirma aslo,”–deb yozgan edi Abdulla Oripov “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she’rida.*

Tushib qolsa jumlalar,
Xizmatda xo‘p nuqtalar.

(**ko‘p nuqta**)

Nomim savolga libos,
Qaddim-chi, o‘roqqa mos.
Niyatim sof, ko‘nglim pok,
Buyruqlardan men yiroq.
Nuqta boshiga tojman,
Fikrlarga rivojman.
Mendan so‘ng bosh harf zarur,
Qara, turibman mag‘rur.

(**so‘roq belgisi**)

Tanishtirsam men o‘zimni tinish belgi bo‘laman,
Bog‘lamasiz ega, kesim orasida turaman.
Ko‘chirma gap ko‘chiradi, muallif gapi izohlar,
Unutmang hech, men ularning orasida bo‘laman.
Birov gapi – dialogda gap boshida kelaman,
Ajratilgan so‘z va gapda o‘z o‘rnimni bilaman.
Yordamimga tayanadi umumso‘z, qo‘shma gap ham,
Yozuvda sergak bo‘lib xatolarga bering barham.

(**tire**)

Bizlar qo‘shaloq tirnoq,
Hammamiz ham do‘st, inoq.
Ko‘chirma gap matnida,
Bizsiz ish chala, no‘noq.
Asar, muassasa nomin,
O‘rtamizga olamiz.
Sizga kerak o‘rinni,
Chegaralab qo‘yamiz.

(**qo‘shtirnoq**)

Qarindoshmiz nuqtaga,
Qondoshmiz ko‘p rishtaga.
Gapda kam-kam kelamiz,
O‘rnimizni bilamiz.
Umumlashtiruvchi so‘zning,
Izohli qo‘shma gapning
Oldiga tez shoshamiz,
Joy olamiz, toshamiz.

(**ikki nuqta**)

Do‘stlar, menga bir qarang-a!
Menday mag‘rur kelishgan
Belgi yana qayda bor?
Ko‘rmagansiz, ehtimol.
Mazmunidan undov, sevinch, nafrat, g‘azab,
Yo hayajon ma’nosini anglatsa gap,
Shunday jumla adog‘ida bo‘lar joyim,
Mendan so‘ng ham bosh harflar kelar doim.

(**undov belgisi**)

Nuqta, vergulmiz bizlar,
Unutib qolmang sizlar.
Baland-pastda turamiz
Qo‘shma gap kelgan kezlar.
Gar uyushiq bo‘laklar
Birikib kelsa gapda,
Sezgirmiz, joy olamiz
O‘sha satrdan asta.

(**nuqtali vergul**)

Asli bizlar egiz belgi bo‘lamiz,
Ba’zan birga, ba’zan yolg‘iz kelamiz.
Gap boshida kelib qolsa raqamlar,
Yonida turishga bittamiz ham yetamiz.
Berilsa kirish gaplar,
Gapdan so‘ng mualliflar.
O‘yga tolmang, qo‘rqmangiz,
Oramizga olamiz.

(**qavs**)

“Punktuatsiya” bo‘limiga oid mavzularni o‘qitishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanishning usullari nihoyatda ko‘p va rang-barang bo‘lib har bir o‘qituvchi, muallim-ustoz o‘zi ta’lim berayotgan sinf o‘quvchilarining qiziqishlari, bilim darajalari hamda saviyasiga qarab metod tanlaydi va qo‘llaydi. Zero, ta’lim jarayonida milliy ruhiyatimizni rad etmaydigan, samarali an’anaviy usullarni saqlab qolgan holda dunyo ta’limi andozalaridagi ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va ona tili darslarida ulardan samarali foydalanish zarurati ta’limning negizini tashkil etadi. Albatta, tanlangan metod o‘quvchining yozma nutqida o‘z samarasini berishi zarur.

Mavzuni yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. “Punktuatsiya” bo‘limi ta’limining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Ona tili dastur va darsliklarida “Punktuatsiya” bo‘limi nega tilning boshqa sathlari (masalan, “Sintaksis”) bilan aralash tarzda berilgan?
3. Nuqtaning ishlatilish o‘rinlarini tushuntiring.
4. Vergulning ishlatilish o‘rinlarini tushuntiring.
5. Nuqtali vergulning ishlatilish o‘rinlarini tushuntiring.
6. Yozuvda ikki nuqtadan qanday paytlarda foydalaniladi?
7. Yozuvda tiredan qanday paytlarda foydalaniladi?
8. Yozuvda undov belgisidan qanday paytlarda foydalaniladi?
9. Yozuvda so‘roq belgisidan qanday paytlarda foydalaniladi?
10. Yozuvda ko‘p nuqtadan qanday paytlarda foydalaniladi?
11. Qavs (yarim qavs) qanday holatlarda qo‘llaniladi?
12. Qo‘shtirnoqdan qanday foydalanamiz?
13. Tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish imkoniyatlariga misollar keltiring.
14.Qachon tinish belgilari qo‘shaloq holatda qo‘llaniladi? Nega?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1;5;6;11;20;22;28;32;34;35]

NUTQ USLUBLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Reja:

1. Nutq uslublarini o‘qitish orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish masalasi.
2. Nutq uslublarini o‘qitish metodikasi.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Nutq uslublari: so‘zlashuv uslubi, ilmiy uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub, fonetik uslubiyat, leksik uslubiyat, morfologik uslubiyat, sintaktik uslubiyat, uslublar ta’limi

Tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchimizni ado etgan bo‘lamiz.
Ch.Aytmatov

10-11-sinflar uchun mo‘ljallangan “Ona tili” o‘quv predmetidan amaldagi o‘quv dasturi[147]ning “Uqtirish xati”da shunday deyiladi: **“**Ona tili ta’limining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri hamda ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”.

[147]http://kompy.info/ orta-talimning-umumtalim-fanlari-boyicha- malaka-talablari-ona-v2.html

Dasturda aytilgan aynan “*muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish*” maqsadi bevosita nimani kimga qanday yetkazish, ya’ni uslubiyat mavzulari bilan bog‘liq. Shu boisdan ham o‘rta umumta’lim maktablarining 10-11-sinf ona tili mashg‘ulotlari to‘laligicha nutq uslublari mavzulariga bag‘ishlanadi. Zero, maktabda ona tili fanini o‘qitishning vazifasi –

–o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

–ona tilining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrni to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

–yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish hamda fanning mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o‘rta ta’lim 10-11-sinf bitiruvchilariga “Ona tili” fani bo‘yicha quyidagi malaka talablarini qo‘yadi:

1.Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*):

B1 bo‘yicha*.

Tinglab tushunish: sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlaydi.

So‘zlash: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va uslubiy me’yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘yadi.

O‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiy oladi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiydi.

Yozish: Ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Fikr ifodasida mantiqan izchillikka rioya qiladi, unda kirish va kiritmalar,

* B1 talablari maktabda “Ona tili” fani chuqurlashtirilmagan o‘rta ta’lim bitiruvchilari uchun, B1+ talablari esa maktabda “Ona tili” fani chuqurlashtirilgan o‘rta ta’lim bitiruvchilari uchun mo‘ljallangan.

ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalanadi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi, izohlay oladi.

30 - 35 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi.

B1+ bo‘yicha.

Tinglab tushunish: ilmiy manbalardagi o‘rtacha murakkablikdagi ma’lumotlarni tinglab tushunadi. Nutq uslubiyotiga xos xususiyatlarni tinglab tushunadi.

So‘zlash: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va uslubiy me’yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘yadi.

O‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali hamda ta’sirchan o‘qiy oladi, ulardagi uslubiy vositalarning ahamiyatini his qiladi.

Yozish: Ixtisoslikka oid matn tuza oladi, bunda til birliklaridan o‘rinli foydalanadi.

35- 40 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi.

2. Lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*):

B1 bo‘yicha.

Leksika: so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to‘g‘ri foydalana oladi. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyishi manbalarini izohlay oladi.

Uslubiyat: so‘z turkumlari, ularning otlashishi hamda uslubiy xususiyatlarini tushuna oladi va izohlay oladi. So‘z birikmasi gap va uning grammatik belgilari, dialogik nutq belgilari, gap bo‘lagining tiplari, sodda va qo‘shma gaplar ma’nodoshligini, sintaktik qurilmalarni, ko‘chirma gap, matnning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi va muloqotda grammatik hamda sintaktik birliklardan o‘rinli foydalana oladi.

B1+ bo‘yicha.

Leksika: leksik vositalarni nutqiy uslublarda o‘rinli qo‘llay oladi.

Uslubiyat: so‘z turkumlari, gap bo‘laklarining uslubiy xususiyatlarini tushunib, izohlay oladi. Nutqda grammatik hamda sintaktik birliklardan o‘rinli foydalana oladi.

Agarda o‘rta ta’limning umumta’lim fanlari, xususan, “Ona tili” fani bo‘yicha malaka talablari to‘la bajarilsa, jamiyatda chalasavodlik bo‘lmaydi.

Bilamizki, **uslub** arabcha so‘z bo‘lib, *tartib, sistema* demakdir. O‘zbek tilida bu so‘z ma’nosining qamrovi asliga nisbatan bir qadar kengroq bo‘lib, *“biror faoliyatni bajarishdagi, boshqarishdagi o‘ziga xos yo‘l”* yoki *“biror narsa yoki hodisa uchun xos bo‘lgan xususiyatlar”* kabi ma’nolari ham mavjud. Tilshunoslikda “uslub” atamasi zamirida tilning alohida ma’no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, sintaktik va frazeologik vositalari tushuniladi. Tilshunoslikning tildan foydalanish usullarini o‘rganuvchi tarmog‘i stilistika, ya’ni uslubiyat deb yuritiladi. Demak, uslubiyat tilshunoslik fanining alohida sathi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalaridan maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin: “uslubiyat” atamasi tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi. U, avvalo, til vositalaridan nutqda o‘rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni anglatadi. Ayni zamonda til vositalarini nutqda tanlab ishlatish qonun-qoidalarini o‘rganadigan fanning nomini ham bildiradi.

Uslubiyat muomala madaniyati, nutq odobi – nutq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq.

Nutq madaniyati – insoniyat umummadaniyatining bir qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Nutq jarayonida yuksak axloqiy me’yorlarga rioya qilish, ta’sirchan, chiroyli va o‘rinli so‘zlash, tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, bahs-munozara madaniyati, tildan nutqda e’tibor va ehtiyotkorlik bilan foydalanish shoirona so‘zlar bilan aytganda “har bir so‘zni yor tanlagandek” saylab ishlatish nutq madaniyatining asosini tashkil etadi. Uslubiyat bilan nutq madaniyati aynan bir narsa emas, ular bir-birini taqozo etuvchi, bir-birini to‘ldirib, yuksaltirib boradigan alohida-alohida hodisalardir.

Uslubiyatni o‘rganish tarixi sharqda, jumladan, O‘zbekistonda ham ancha qadimiydir. Uslubiyat garchi hozirgiday alohida soha sifatida shakllanmagan bo‘lsa ham, biroq tilshunoslik (sarf, nahv, lug‘at), adabiyotshunoslik (ilmi bade’, sharh tafsir), shuningdek, ilmi insho, ilmi munozara, voizlik san’ati kabi fanlar tarkibida o‘rganib kelingan. Abu Mansur Saolibiyning «Muntaxab ul-ijoz vad a’joz» (XI asr), Abulqosim al-Lays Samarqandiyning “Risolat ul-istiorat” (XV asr), Xondamirning “Nomai nomiy” (XV asr), Mahmud Giloniyning “Manozirat ul-insho” (XV asr), Sodiq Jondoriyning

“Kitob ul-insho” (XVIII asr) kabi asarlari stilistik tadqiqotlarga bag‘ishlagandir. Rus tilshunosligida uslubiyat XIX asr tilshunoslari A.A.Potebnya, Sh.Balli, K.Fossler, keyinchalik V.V.Vinogradov ishlarida o‘rganildi.

O‘tgan asrning elliginchi yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida til uslubiyati bilan bog‘liq nomzodlik va doktorlik ishlari, o‘nlab ilmiy asarlar yuzaga keldi va uslubiyat fanining alohida soha sifatida rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bu borada o‘zbek tilshunos olimlari Ayub G‘ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, I.Qo‘chqortoyev, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov, Y.Tojiyev, E.Qilichevlarning xizmatlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Uslubiyat filologiyada adabiyotshunoslik va tilshunoslik o‘rtasidagi oraliq fan bo‘lib, fikrni, maqsadni har bir sohaning o‘z talablariga mos ravishda til vositalari orqali aniq, ravon, ixcham va mukammal ifodalab berish san’atini o‘rganadi.

Ijtimoiy hayotda shaxslar til vositalaridan turlicha foydalanadilar. Chunonchi, olimlar o‘z ilmiy asarlarida ilmiy atamalarni qo‘llasalar, yozuvchi yoki shoirlar badiiy asarlarda tasviriy-ta’siriy vositalarni ko‘proq ishlatadilar. Masalan,

1. ***Boychechak*** *–piyozdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 7-20 santimetr bo‘ladi. Ildiz bo‘g‘zi bargi bitta, ipsimon, yashil, tuksiz, uzunligi o‘simlikning bo‘yiga teng keladi. Poya barglari navbat bilan joylashgan, pastkilari qalami yoki qalami nashtarsimon, poyani biroz o‘rab turadi. Fevral-mart oylarida gullab, meva beradi. Cho‘l va adirlarning soz tuproq, qumloq hamda toshloq tuproqli yerlarida o‘sadi.*

2.Qattiq yerdan qazilib chiqqan, boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab ciqqan, boychechak,

Navro‘zimda mo‘ralab chiqqan, boychechak.

Ko‘klamoyning darakchisi, boychechak,

Navbahorning xabarchisi, boychechak… (Xalq qo‘shig‘i)

Har ikkala matnda ham bir narsa haqida fikr yuritilgan. Birinchi matnda botanik olim boychechak o‘simligi to‘g‘risida ilmiy izoh beradi – ta’riflaydi. Qo‘shiqda esa nazmiy misralarda shu o‘tning rangli obrazi yaratiladi, boychechakka ta’sirli, jozibali va shoirona tavsif beriladi. Demak, adabiy tilda bir-biridan farq qiladigan uslublar mavjud.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma’lum bir sohasida qo‘llanadigan ko‘rinishi adabiy til uslubi deyiladi. Uslublar tilning asosiy vazifalari (kommunikativ, ekspressiv)ga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi. Shunga ko‘ra, ular vazifaviy uslublar deb ham yuritiladi. Ya’ni nutq uslublari til ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasidir.

Tilshunoslikda nutq uslublarining besh ko‘rinishi mavjudligi va bu uslublarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi qayd etiladi. Bular quyidagilar: ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub.

Fan-texnika, san’atning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar, ilmiy-texnik xabarlar, maqolalar, tezislar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma’lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (qoidalar, ta’riflar, aksiomalarga) boy bo‘lishi bilan boshqa nutq uslublaridan farqlanadi.

Ilmiy uslubdagi nutq monologik xarakterga ega bo‘lib, unda obrazlar, obrazli tasvirlar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, majoz, bo‘yoqdor so‘zlar, iboralar deyarli uchramaydi. Bu uslubga mantiqiy fikrlash, abstraksiya, analiz, sintez, tushunchalarga mos keladigan atamalar bilan ish ko‘rish xos xususiyatlardir. Shuning uchun u o‘rganuvchining his-tuyg‘ulariga emas, ongiga, tafakkur-shuuriga ta’sir etadi. Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy terminlaridan foydalanadi. Masalan, tilshunoslikda *morfologiya, sintaksis, fe’l, tuslanish, kesim, giponimiya* kabi atamalar; matematikada *teorema, tenglama, kosinus, sinus, parallelopiped, gipotenuza* kabi atamalar; meditsinada *analgin, adyulpan, glyukoza, validol, penitsillin, glitserin* kabi atamalar ishlatiladi.

Ilmiy uslubda so‘zlar, odatda, o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan izoh bo‘laklar, kirish so‘z, kirish birikma va kirish gaplar, shuningdek, ergashgan qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalaniladi. Gaplarning kesimi, odatda, aniq yoki majhul nisbatdagi fe’llar bilan ifodalanadi; moslashuvli birikmalar deyarli hamma vaqt belgisiz (gap bo‘lagi, unlilar tasnifi, so‘z o‘zagi kabi): sonlar raqamlar bilan; birinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi (men) ko‘plik shaklida (biz) beriladi. Ilmiy uslubda gap bo‘laklari tartibida inversiya uchramaydi. Ilmiy uslubga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar deyarli barcha tillarga, jumladan, rus, ingliz, nemis, fransuz va h.larga ham tegishlidir.

Hukumat idoralari tomonidan chiqarilgan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar, ariza, tilhat, ma’lumotnoma, shartnoma, chaqiruv qog‘ozi, taklifnoma, tavsifnoma, e’lon, tarjimayi hol, hisobot kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Bu uslubdagi nutq boshqa uslublarga qaraganda ancha siqiq va chegaralangandir. Rasmiy-idoraviy uslubning ham o‘ziga xos lug‘aviy va grammatik xususiyatlari mavjud: so‘zlar o‘z ma’nosida ishlatiladi, qisqartma so‘zlardan, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Chunonchi, sud jarayoni bilan bog‘liq ish qog‘ozlarida **jinoyat, hukm, qonun, ...-modda** kabi; universitet ish qog‘ozlarida **rektorat, dekanat, kafedra, dotsent, fan nomzodi** kabi so‘z va birikmalar ishlatiladi.

Bu uslubda darak va buyruq gaplardan foydalanilib, gap bo‘laklarining odatdagi tartibiga rioya qilinadi.

Publitsistik uslub davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, ommaviy- siyosiy mavzudagi ma’ruzalar uslubidir. Bu uslubdan targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda keng foydalaniladi. Odatda, gazetalarning bosh maqolalari publitsistik xarakterda bo‘lib, ularda kundalik turmushdagi tarbiyaviy, iqtisodiy va siyosiy masalalar yoritiladi. Publitsistik nutqda ta’sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan, ritorik so‘roq gaplardan, takror, murojaat, undov, yoyiq undalmalar, chaqiriqlardan foydalaniladi. Publitsistik uslubda **qurultoy, anjuman, deputat, kengash, hukumat rahbarlari, davlat** kabi ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi.Gap bo‘laklari, ko‘pincha, odatdagi tartibda bo‘ladi, gap kesimlari buyruq va xabar maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi.

So‘zlashuv uslubi uchun hos bo‘lgan eng asosiy xususiyat bu uslubda adabiy til me’yorlariga rioya qilinishi va nutqning dialogik xarakterda ekanligidir. Bu uslub uchun xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilar:

1) uslubiy bo‘yoqdor so‘zlardan foydalaniladi: *do‘ndiq, vaysamoq, bashara* kabi;

2) nutq jarayonida tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi kuzatiladi: *matbachi (matbaachi) mazza (maza), haqqi (haqi)* kabi;

3) izohlovchilardan ko‘proq foydalaniladi: *Salima muallim, Toshpo‘lat do‘xtir* kabi;

4) iboralar, maqol, matal, hikmatli so‘zlar ko‘p uchraydi: *jonim chiqdi, boshi ochiq,...* kabi;

5) so‘zlar tarkibidagi unli, undoshlarni cho‘zish: *ka-a-atta, huv-v-v* kabi;

6) gap bo‘laklarining tartibi erkin bo‘ladi, to‘liqsiz gaplardan, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Nasriy, nazmiy va sahna uchun mo‘ljallangan dramatik asarlar badiiy uslubda bo‘ladi. Badiiy asarlar kishiga ma’lumot berishi bilan birga obrazlar vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi. Badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi, chunki bu uslubda yozuvchi tilda mavjud bo‘lgan vositalarning hammasidan foydalana oladi. Hatto tasvirlanatgan davrning ruhini yoki nutq momentida asar qahramonining holatini tasvirlash uchun eskirgan so‘zlar, vulgarizmlar, shevaga xos so‘zlardan ham foydalanishi mumkin.

Barcha nutq uslublari o‘zaro aloqador bo‘lib, bir uslubda boshqa nutq uslublarining ko‘rsatkichlari ham uchraydi. Ayni zamonda har bir uslub o‘ziga xos fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarga ega.

So‘zlashuv uslubida hamda badiiy uslubda fonetik vositalardan ko‘proq foydalaniladi. Fonetik vositalar deganda ba’zi nutq tovushlari, urg‘u, ohang va ularning nutqiy ta’sirchanligi tushuniladi.

So‘zdagi unlilarning cho‘zib talaffuz qilinishi ajablanish, ta’kid, kuchaytirish, hayajon, olqish, erkalash, rag‘batlantirish, yalinish kabi konnotativ ma’nolarni ifodalaydi. Chunonchi, *Qorako‘z opaaa, sizga xaaat! Katta konvertda xaaat!!!* (N.Qobul) Undoshlarni ikkilantirish kuchli hayajonni, qo‘rquv yoki nutqiy kamchilikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *Bbbo‘la qoling, ssovqotib ketdim-ku!* (M.Ismoiliy)

Leksik uslubiyat deganda denotativ va konnotativ ma’noli so‘zlardan, ko‘chma ma’noli so‘zlardan, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari (omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, partonim...)dan, chegaralangan qatlamdagi so‘zlar (eskirgan so‘zlar, jargon, argo, dialektizmlar, vulgarizmlar...)dan, evfemizmlardan, iboralardan nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri foydalana olish usullari tushuniladi.

Funksional-uslubiy bo‘yoqqa ham, hissiy-ta’sirchan bo‘yoqqa ham ega bo‘lgan grammatik shakllarning barchasi morfologik uslubiyatning o‘rganish obyektini tashkil etadi.

Sintaksisning ham o‘ziga xos uslubiy imkoniyatlari mavjud. Nutq uslublariga xos turli sintaktik vositalar, so‘z birikmalari va gaplardagi sinonimiya, polisemiya,

omonimiya hodisasi, so‘z tartibi, ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko‘ra gap turlarining nutqda ishlatilishi, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari va boshqalar sintaktik uslubiyatning asosini tashkil etadi. Sintaktik konstruksiyalarning uslubiy bo‘yog‘i shu konstruksiyalarda ifodalangan so‘zlar, shaxs-son, kelishik, modallik va so‘z tartibi kabi grammatik ma’nolar bilan bevosita bog‘lanadi. Chunki tovushlar va qo‘shimchalar, lug‘atning hamma qatlami faqat jumla(kontekst, matn)da ma’lum bir lug‘aviy va grammatik (ba’zi birliklar uslubiy) mazmun ifodalaydi. Har bir so‘z va grammatik shaklning mazmuni hamda ijtimoiy qimmati, odatda, gap ichida ravshanlashadi. Chunonchi,

Navdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytdi hayot otini.
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar,
Olib ketdi gulning totini... (H.Olimjon.)

Ushbu she’riy misralardagi hamma so‘zlar badiiylikka, go‘zallikka, zavq-shavqqa xizmat qilgan. Deyarli barcha so‘zlar ma’no jihatidan ko‘chgan. Ayniqsa, salbiy bo‘yoqli qurg‘ur so‘ziga ijobiy tus berilgan.

Dunyo tillarining deyarli barchasida so‘zlashuv, badiiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik, ilmiy uslub mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy hayotda, o‘zaro munosabatlarda, nutqning og‘zaki/yozma ko‘rinishlarida til imkoniyatlaridan me’yoriy foydalanishni ta’minlaydi.

Biroq til imkoniyatlari har bir tilda o‘sha tilning tabiati, qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda turlicha bo‘lib, ular o‘ziga xos uslubiy vazifalarni bajaradi. Har bir tilning o‘ziga xos bo‘lgan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarini bilish, ularning har qaysisidan o‘z o‘rnida ustalik bilan foydalana olish muhim. Ma’lum bir nutq uslubiga mansub bo‘lgan jihatlarni boshqa uslubda asossiz (noto‘g‘ri) qo‘llash nutqiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi.

Aslida kamolot murakkablikda emas, soddalikdadir, deydi ulug‘larimiz. Bilishimiz zarurki, g‘arb texnikada ilg‘or, ammo ma’naviyat, ma’rifat, san’at va tilda sharqqa nisbatan ancha orqada.[148]

Inson zoti borki, har sohada, har jabhada, har o‘rinda go‘zallikka intiladi. Inson qachonki go‘zallikka intilmas ekan, uning tabiati hayvoniylashadi. O‘zbek tilida tiriklikka

[148] Рустамов А. Сўз хусусида сўз.–Тошкент, 2010.

xos jamiki go‘zalliklarni badiiy ifodalash imkoniyati nihoyatda keng va rang-barangdir. Shu bois biz o‘zbeklar nutqimizda so‘zlar tizmasidan shunchaki foydalanmaymiz.

E’tibor bering-a?!

1. “*Sochingdan ushlab turibman, hayot-mamoting mening qo‘limda!*” (Ayniqsa, bu gap erkak qavmi tomonidan ayolga nisbatan aytilganda o‘ta ayanchli. Sababki, inson uchun, ayniqsa, haqiqiy o‘zbek ayoli uchun or-nomus masalasi – hayot-mamot masalasidir.) Aynan shu gapni Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon bunday ifodalaydi:

Bir tutam sochlaring mening qo‘limda,
G‘ijimlab o‘paymu yo tarab yechay?
Sir deb saqlaganing mening qo‘ynimda,
Sir deb saqlayinmu yo yelga sochay?
Sochilgan sochingday sochilsa siring,
Anor yuzlaringni kimga tutasan?!..

Yurakni jizillatadigan darajada go‘zal ifoda. Shunday emasmi?! Tan bermay ilojimiz yo‘q.

2. “*Orzularing amalga oshmasa, bu dunyoda o‘lganing yaxshi*!” Qo‘pol jumla. Sezyapsiz-a?! Aynan shu gapni shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bunday ifodalaydi:

Ko‘ngli tilagan murodiga yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Shul ikkisi muyassar o‘lmasa olamda
Boshin olib bir sorig‘a ketsa kishi.

Shoir efimik ifodadan shu qadar mahorat bilan foydalanganki, mazmunan “zarb bilan otilgan tosh”, shaklan “mayin ipak”ka aylangan go‘yo…

3. “*Bu yoqqa kel! Ketma! Ko‘z oldimda bo‘l*!” Ba’zan ko‘ngil istaklarimiz shu asnoda tilimizga ko‘chadi. (Oddiy so‘zlashuvda mazkur gapni: “*Qorangni o‘chirma*!” tarzida qo‘llashlarini ham eshitganmiz.) Buni “avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni” hazrat mir Alisher Navoiy shunday ifodalaydi:

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zim qarosida mardum kibi vatan qilg‘il…

Ma’no qatida ma’no: “Qaro ko‘zim, yonimda qol. Doimo ko‘z oldimda bo‘l” yoki “Qaro ko‘zim, ko‘zlarim qorachiqlarida yashab qol…”

4. “*Xalqiga xizmat qilmagan odam odam emas, hayvondir*!” (Bu achchiq haqiqatning yalong‘och ifodasi, aslida.)

Buni hazrat mir Alisher Navoiy ta’biri bilan aytsak:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidan g‘ami.

Darhaqiqat, elning, yurtning bir kuniga, har koriga yaramasang, o‘zingni qanday qilib odamlar safiga qo‘sha olasan?!

5. “*Ijodkor Erkin Vohidov 80 yoshida dunyodan o‘tdi*.” Sovuq, ko‘ngilni og‘ritadigan xabar. Mazkur xabarning badiiy talqinini shoir Abdulla Oripov ta’sirli ifodalaydi:

Rosa tortishdilar yer bilan osmon,
Shafaqqa aylandi yanoqlar chunon.
Shoirni meniki der edi samo,
Meniki der edi ona yer ammo.
Shoir-chi, kuyladi ikkalasin ham,
Zamindan kuch oldi, samoga hamdam.
Sakson yil chorlashdi o‘rtaga olib,
Oxir tortishuvda Yer chiqdi g‘olib.

6. “*Dunyoda kir qidiruvchi (hammadan, har narsadan ayb, no‘qson, kamchilik topuvchi, maydakash) bo‘lsang, xudodan topasan*!” Ayovsiz, ammo aniq mantiq. Bu mantiqni ustoz Sadriddin Salim Buxoriy shunday ifodalaydi:

Illat izlaganga illatdur dunyo,
G‘urbat izlaganga g‘urbatdur dunyo.
Kim neni izlasa, topar begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdur dunyo.

Yana bir misol. E’tibor bering-a, birgina *go‘zal qiz* birikmasi takibidagi *go‘zal* so‘zini qancha ma’nodoshi (yoki ma’no nozikligida farq qiluvchi muqobili) bilan almashtira olamiz: ***chiroyli*** *qiz,* ***bejirim*** *qiz,* ***xushbichim*** *qiz,* ***husnli*** *qiz,* ***husndor*** *qiz,* ***xushro‘y*** *qiz,* ***ko‘rkam*** *qiz,* ***ko‘hlik*** *qiz,* ***barno*** *qiz,* ***suluv*** *qiz,* ***nazokatli*** *qiz,* ***latofatli*** *qiz,* ***deganday*** *qiz,* ***zebo*** *qiz,* ***sohibjamol*** *qiz,* ***ketvorgan*** *qiz,* ***tamtam*** *qiz…* Hali bu sirani yana davom ettirish imkoni bor…

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Nutqimizda, ayniqsa, og‘zaki nutqimizda (muloqot jarayonida) nafaqat so‘z, ibora yoki birikmalar, ya’ni lisoniy vositalargina emas, nolisoniy vosita(***ohang, sukut, imo-ishora*** va b.)lar ham asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, birgina ohangning o‘zi ham, ko‘z qarash yoki ko‘z qirini tashlashning o‘ziyoq yangi bir mazmun, yangi bir fikr yoki munosabatni ifodalaydi. Zero, ma’lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish uchun til tizimida mavjud bo‘lgan bir necha teng qiymatli hodisalardan aynan “bittasi yoki bir nechtasi” qo‘llanilgani ko‘p hollarda nolisoniy omillar – nutq sharoiti, vositasi, muloqot jarayoni, so‘zlovchi hamda tinglovchining kontakt va distant vaziyati, ruhiy holati, bir-biriga munosabati, milliy-madaniy, yosh, jins kabi xususiyatlar bilan bog‘liq. Struktur tilshunoslik bularning barchasini nolisoniy omillar sifatida baholab, tilshunoslikdan “chetga” chiqarib qo‘yardi. Bunday hodisalar “nolisoniy” (ekstralingvistik, paralingvistik…) sifatida nolingvistik baholanishining o‘ziyoq, tabiiy ravishda, tilshunoslarning diqqatini o‘ziga jalb etmagan, fanimizda bu vositalarga yetarli e’tibor berilmagan. Vaholanki, ko‘p hollarda kommunikatsiya (amaliy faoliyat) jarayonida – samara-ta’sirchanlik nuqtayi nazaridan – bunday tilshunoslikka aloqador bo‘lmagan vosita/hodisalar tilning o‘z hodisalari – nutqiy birliklardan ko‘ra ko‘proq ahamiyat va qiymat kasb etadi.

Shunday nolisoniy hodisalardan biri ***ohang***dir. Tilshunos olim Hasanboy Jamolxonov: “Ohang og‘zaki nutqning majburiy fonetik komponentidir, usiz gap yoki nutq shakllanmaydi va ifodalanmaydi”, deb yozadi[149.] Nutqimizda mazkur fikrni dalillovchi misollarga har kuni har qadamda uch kelamiz. Masalan, mashhur latifani eslaylik: Afandi boy, biroq o‘ta xasis qo‘shnisidan jahllanib unga: ”*Siz ahmoq, odam emmassiz!*” deydi qat’iy ohangda. Tabiiyki, xasis boy Afandini qoziga sudraydi.

Qozining talabiga ko‘ra Afandi deganiga ”iqror” bo‘lib aytgan gapini oddiygina qilib, hayajonsiz, to‘xtamsiz, bir tekis ohangda takrorlaydi: ”*Siz, ahmoq odam emassiz*”. Gap talaffuzida to‘xtamning “siz”dan keyin berilishi, tabiiyki, gap mazmunini butkul o‘zgartirib yuboradi…

Yana bir misol. Keyingi 4-5 yilda oziq-ovqat do‘konlarimizda maxsus qog‘oz qutilarda ”tabiiy sut”lar ko‘payib qoldi. Sutqutilarning yuzida yozilgan reklamalarni ikki

[149] Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фанетикаси. – Т.: Фан, 2009.

xil ohangda o‘qib ko‘ramiz: *Tabiiy, quruq sut qo‘shilmagan.– Tabiiy quruq, sut qo‘shilmagan.* (1-gap mubolag‘a qiladi, 2-gap esa “haqiqat”ni so‘zlaydi.)

Yana bir misol. *Nafisa, opam keldi* (so‘zlovchi Nafisaga opasi kelganligini bildiryapti) – *Nafisa opam keldi* (so‘zlovchi (noma’lum tinglovchiga) Nafisa ismli opasi kelganligini bildiryapti).– *Nafisa, opam keldi* (so‘zlovchi (sanash ohangidan foydalanib) Nafisa va opasi kelganligini bildiryapti).

Yana bir misol. *Mani yorim gul andom* (”*Mening yorim gul yuzli*” degan mazmunni uqamiz ”*gul andom*”ning bo‘lib aytilishidan)–*Mani yorim Gulandom* (”*Yorimning ismi Gulandom*” degan axborot yetib keladi qulog‘imizga). Keltirgan misollarimiz tilimizning ifoda imkoniyatlari nihoyatda keng va rang-barangligidan dalolat beradi.[150] Zero, millatning o‘zligini, dunyoda borligini, o‘ziga xosligini belgilovchi omillardan asosiysi uning ona tilidir.

Sukut ham nutqiy muloqot jarayonining muhim nolisoniy vositalaridan biridir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”[151]da sukut arabcha so‘z sifatida talqin etiladi va jimjitlik, gapirmaslik, kamgaplik ma’nolarini ifodalashi aytiladi. Bu so‘z arab tilidan tilimizga kirgan *sukun*, *sukunat* va o‘zbek tilidagi *sukunatli* yasama so‘zi bilan asosdosh bo‘lib, u nutqiy muloqot jarayonida o‘ziga xos pragmatik qiymatga ega lingvomadaniy xususiyatlarni ifoda etadi. Andijonlik olim Ma’murjon Saidxonovning “Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar” kitobida (T.: Fan, 2008) sukutni “muomalaviy mazmunga ega” va “muomalaviy mazmunga ega bo‘lmagan” turlarga ajratadi. Kuzatilishicha, “muomalaviy mazmunga ega” sukut nutqiy muloqot jarayonida ellikka yaqin ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Chunonchi,

isyon ma’nosi: *Qizcha bolalarga xos qaysarlik bilan boshini eggancha jim turar, uning sukutida, butun xatti-harakatida nimagadir qarshi so‘zsiz isyon bor edi.* (Mirmuhsin, Umid)

tushunmaslik ma’nosi: *Sukut saqlamoq hamma vaqt ham aqllilikdan darak beravermaydi, ammo bilganingni shaqillab gapira berish – o‘z obro‘yingni paqirlab to‘kish demak.* (Mirmuhsin, Umid)

[150] Cho‘lliyeva G.T. Ohang nutqiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida// BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2020, № 5 (75).
[151] www.ziyouz.com kutubxonasi Ўзбек тилининг изоҳли луғати/. «С» ҳарфи.–585-б.

“indamasdan indash” ma’nosi:

Dardim eshitib, etsa sukut dildorim,

Shul jimligi menga ming javobdir, javob. (J.Rumiy) va b.

Sukutning “muomalaviy mazmunga ega bo‘lmagan” turiga muloqot jarayonidan tashqaridagi holatlar (masalan, *Dunyoda shunday qo‘shiq borki, yangraganda butun olam sukutga cho‘madi* kabi) misol bo‘la oladi.

Xalq maqollarida, turli hikmat-u aforizmlarda quyidagilarni o‘qiymiz: *Aqlning go‘zalligi – fikr bilan, Ruhning go‘zalligi – shukur bilan, Tilning go‘zalligi – **sukut** bilan, Qalbning go‘zalligi –zikr bilan* (Maqol); *Ahmoqqa javob – **sukut*** (Maqol); ***Sukut**– donishmandlikning boshlanishi* (Maqol); *…iymon keltirgan kishi yaxshi so‘zlarni so‘zlasin yoki **sukut** saqlasin*! (Qur’oni Karimdan); *Kim **sukut** saqlasa, najot topadi* (Hadisdan) va b.

Demak, azal-azaldan xalqimiz sukutni donishmandlik, aqllilik, iymonlilik, til go‘zalligi sifatida e’tirof etgan. Biroq nutqiy muloqot jarayonida sukut hamisha ham ijobiy xarakter kasb etavermaydi. Masalan, *Siz sukut saqlasangiz, dunyo ham sizga sukut saqlaydi* (Aforizm); Mozor uzra sukut etarlar…(A.Oripov) “Sen nega jimsan?” ma’nosida; *Sukut o‘ldiradi* (Maqol) va h.

Zero, sukut ham nutqiy muloqot – og‘zaki nutqning (nolisoniy) nutqiy komponentidir[152] .

Keltirgan misollarimiz tilimizning ifoda imkoniyatlari nihoyatda keng va rang-barangligidan dalolat beradi. Zero, millatning o‘zligini, dunyoda borligini, o‘ziga xosligini belgilovchi omillardan asosiysi uning ona tilidir.

Ziyolilikning ibtido belgisi to‘g‘ri so‘zlash va to‘g‘ri yoza olish ekanligini inobatga olsak, maktab partasida o‘tirgan o‘quvchilarni, ayniqsa, 10-11-sinf bitiruvchilarini ona tili mashg‘lotlarida “qopib gapirish”ga emas, “topib gapirish”ga o‘rgatishimiz, buning uchun ularda istalgan matnni turli uslublarda ifodalay olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishimiz va rivojlantirishimiz zarur.

Mavzuni yuzasidan savol va topshiriqlar:

1.Tilshunoslikdagi “uslub”, “uslubiyat” atamalari ifodalagan ma’nolarni tushuntiring.

[152] Yuldasheva D.N. Sukut nutqiy muloqotning (nolisoniy) komponenti sifatida// BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).– Buxoro, 2020, № 6 (75).

2. Maktabda “Uslubiyat” bo‘limini izchil o‘rganish nima uchun 10-11-sinflarga to‘g‘ri keladi?
3. Nutq uslublari ta’limining qanday maqsad va vazifalari bor?
4. Uslubiyatning o‘rganilish tarixi haqida ma’lumot bering.
5. “Uslubiyat adabiyotshunoslik bilan tilshunoslik o‘rtasidagi oraliq fan” ekanligini isbotlashga urining.
6. Nutqning vazifaviy uslublarini sanab bering. *“Yuragi hapriqib ketdi”* gapini turli uslublarda ifodalang.
7.Ilmiy uslubning rasmiy-idoraviy uslubdan farqli tomonlarini va o‘xshash jihatlarini aytib bering.
8.So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
9.Aralash uslub haqida ma’lumot bering.
10.Publitsistik uslubga xos nutq ko‘rinishlaridan birini tanlang (istalgan gazeta yoki jurnaldan foydalanishingiz mumkin) va uni uslubiyat nuqtayi nazaridan tahlil qiling.
11.Fonetik uslubiyat haqida ma’lumot bering.
12.Leksik uslubiyat deganda nimani tushunasiz?
13.Morfologik va sintaktik uslubiyatning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot bering.
14.Nutqning vazifaviy uslublari faqat o‘zbek tili uchun xosmi?
15.O‘zbek va rus tillaridagi ilmiy uslubni taqqoslashga harakat qiling.
16.Nutq uslublariga rioya qilmaslik nutqiy g‘alizlikni keltirib chiqarishini misollar asosida dalillang.
17.So‘z ma’nodoshlari uslubiyatini misollar asosida tushuntiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [3;6;9;15;17;24;25;35]

MAKTABDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH, BILIMINI NAZORAT QILISH METODIKASI

Reja:

1. Nutq o‘stirishning tafakkur bilan aloqadorligi.
2.Maktabda o‘quvchi nutqiga qo‘yilgan talablar.
3.Yozma nutqni rivojlantirish – murakkab jarayon.
4.Ona tilidan o‘quvchilar bilimini nazorat qilish yo‘llari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Shaxs~tafakkur ~til ~nutq; og‘zaki/yozma nutq, yozma nutqni o‘stirish usullari; diktant, bayon, insho, ijodiy matn, yozma ishlarni baholash, o‘quvchi bilimini baholash

O‘rta umumta’lim tizimi malaka talablarida maktabda tahsil olayotgan o‘quvchilarga barcha fanlardan, jumladan, **“**Ona tili” o‘quv predmetidan berilayotgan ta’lim (tarbiya) jarayonida o‘qituvchi~o‘quvchi hamkorligi quyidagilarga erishishi ko‘zda tutilgan:

1) milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash;

2) ona tili ta’limini zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish;

3) o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish.

Mazkur o‘quv predmeti o‘quvchilar uchun maktab o‘quv rejasidagi deyarli barcha fanlarni o‘rganish va o‘rgatishda vosita hamda fikr tili sifatida ham xizmat qiladi, zero, ularning shuuriga milliy ong, milliy tarbiya, milliy o‘zlik tushunchalari ona tili orqali singadi. Maktabni bitirib chiqayotgan yoshlar jamiyatning ertangi egalari, ularda ijodkorlik, izlanuvchanlik, til sezgirligi, shuningdek, nutqiy tadbirkorlikni tarbiyalash esa, asosan, “Ona tili” o‘quv predmetining zimmasiga tushadi. O‘rta umumta’lim maktablarida “Ona tili” o‘quv predmeti ta’limining asosiy maqsadini lo‘nda qilib ifodalaydigan bo‘lsak, maktab ta’lim-tarbiyasini ko‘rgan bola: “ijodiy fikrlashi, to‘g‘ri so‘zlashi va xatosiz yoza olishi” zarur.

Ta’kidlaganimizdek, istalgan vaziyatda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri, ravon so‘zlay olish va xatosiz yoza olish madaniyatlilikning ibtidosidir. Shunga ko‘ra har bir so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan orfoepik, orfografik jihatdan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olishni o‘rgatish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish mazkur o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi.

Mustaqillik mafkurasi ona tili ta’limi maqsadini yangilar ekan, ona tili ta’limi o‘qituvchilari oldiga juda mas’uliyatli vazifani ko‘ndalang qilib qo‘ydi: yangi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda faqat bilimli kishilarni emas, balki ijodiy tafakkurli, tadbirkor shaxslarni jamiyatga yetkazib berish, ya’ni farzandlarimizda demokratik jamiyatimizga mos tafakkurni rivojlantirish lozim. Bilimli kishi bilan ijodiy tafakkurli, tadbirkor shaxs orasida farq bor, albatta. Bilimli shaxs faqat o‘zi egallagan bilimi doirasidagina faoliyat yurita oladi, xolos. Ba’zan bilimli kishi o‘z bilimidan amalda foydalana olmasligi ham mumkin. Ijodiy tafakkurli, tadbirkor shaxsning esa imkoniyat darajasi bilimli kishinikiga qaraganda kengroq; chunki u nafaqat bilimni, balki uni qayerdan, qanday holatda, qancha

olish usulini ham biladi. Tadbirkor bilimini har daqiqada ishga solishi va undan o‘zi uchun ham, o‘zgalar uchun ham naf beradigan samara olishi tabiiy.

Bilamizki, ona tili mashg‘ulotlari faqat nutqni egallash yo‘llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalashi shart. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo‘lib, u bolalarning kundalik oddiy salomlashishidan tortib kimga, qachon, qayerda va qanday so‘zlashigacha bo‘lgan nutqiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu madaniyat sirlari, avvalo, ona tili mashg‘ulotlarida til hodisalarini o‘rganish jarayonida singdiriladi.

Maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi bilan xarakterlanadi. Til tuzumlar o‘zgarishi bilan butkul yangilanmaydi, o‘z xususiyatini, vazifasini o‘zgartirmaydi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan, sayqal topib borayotgan aniq tarixiy, me’yoriy birlik sifatida jamiyat a’zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy fikr ifodalash vositasidir.

Inson tafakkurining asosiy birligi fikr, u odatda, faqat til yordamida moddiylashishini yaxshi bilamiz. Jamiyatda fikr almashish ijtimoiy jihatdan qonuniy ehtiyoj, hayotiy zarurat bo‘lib, bu ehtiyoj qondirilmasa, zarurat bajarilmasa, jamiyat taraqqiyoti haqida gapirish ham mumkin emas. Shuning uchun ham har bir kishi tildan foydalanishni bilishi, buning uchun esa grammatik jihatdan tilning o‘zidan xabardor bo‘lmog‘i lozim. Tilni o‘rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta’rif va qoidalarni o‘zlashtirib olish bilan chegaralanish degani emas, balki o‘sha tushuncha, ta’rif va qoidalarni amaliy jihatdan qo‘llay olish, ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iborat. Maktabda o‘qitiladigan “Ona tili” o‘quv predmeti tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me’yorlarini o‘rgatadi. Mazkur me’yorlarni singdirishda grammatik tushunchalar vosita vazifasini bajarishi zarur, ammo ba’zan buning unutib qo‘yilishi ona tili ta’limining bosh maqsadidan chalg‘ishga olib keladi.

Til tafakkur bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tafakkurda paydo bo‘lgan hukm, fikr, munosabatning voqeligi, uning mavjudligi tilda namoyon bo‘ladi. Biz istalgan predmet, voqea-hodisa haqida til vositasisiz, so‘z va gaplarsiz fikrimizni to‘laqonli ifodalay olmaymiz. Til − bilish jarayonining muhim sharti. Tilsiz tafakkur mavjud bo‘lmaganidek,

tafakkursiz til ham mavjud emas. Hech qanday ma’noga ega bo‘lmagan, faqat ma’lum tovushlar tizimidan iborat bo‘lgan so‘zlar muayyan tushunchani ifodalamaydi, tasavvur ham hosil qilolmaydi. Va nihoyat, fikr ifodalash funksiyasini bajarmagan bunday so‘zlar nutq uchun xizmat qilolmaydi.

Nutq – tafakkurning til orqali yuzaga chiqishi. Shu bois o‘qituvchi ona tili mashg‘ulotlarini rejalashtirayotganda *shaxs~tafakkur~til~nutq* zanjirini inobatga olishi juda muhim.

Til va tafakkur munosabati o‘zaro dialektik aloqadorlikda bo‘lib, birgalikda rivojlanish va ta’sir etish qonuniyatlariga amal qiladi. Dialektik aloqadorlikdagi bu ikki hodisa o‘zaro ajralmas, bir-birini taqozo etuvchi murakkab butunlikdir, shuning uchun ularni o‘rganuvchi fan sohalari ham o‘zaro aloqador, ammo bir narsa emas. ***Tafakkur qancha rivojlantirilsa, o‘quvchining fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo‘ladi***.

O‘quvchilarning bilish faoliyati dinamik tarzda rivojlanadi. Buni hisobga olgan holda belgilangan ta’limning umumiy va muayyan fanlarga xos xususiy maqsadlari o‘zaro mushtaraklikda ta’lim mazmunida namoyon bo‘ladi. Ta’lim mazmunining ta’lim maqsadiga muvofiq bo‘lishini ta’minlovchi muhim shartlaridan biri shundaki, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil faoliyat ko‘rsatish, erkin fikrlashga undovchi o‘quv mashg‘ulotlari tizimi, ta’lim jarayonidagi har bir predmet, har bir turdagi faoliyat, har bir dars va muayyan darsda o‘quvchi bajarishi uchun mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlari jamlanmasi, barcha-barchasi, ya’ni butun ta’lim tizimi bosh maqsadni amalga oshirishga, aqliy, mantiqiy faoliyatga kirishish vazifasini qo‘yishga, amalga oshirishga xizmat qilmog‘i kerak. Shubhasizki, ta’lim tizimida o‘qitilayotgan har bir predmetdan shu maqsadning qaysi “bo‘lak”chasini voqelantirishi, ya’ni har bir predmet va o‘quv predmetining xususiy maqsadini qat’iy belgilashni, shu predmet bo‘yicha ta’lim mazmuni, materiali, usuli va har bir dars-u topshiriqni shu maqsadga bo‘ysundirishni – har bir qadam shu xususiy maqsadning qaysi yoki qanday “murvat”i bo‘lishini aniq belgilashni talab etadi. Ta’lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq bo‘lishini ta’minlash uchun yuqorida bayon etilganlar bilan bir qatorda ayni shu mazmunning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda tarixiy davr ruhini ifodalashi ham o‘quvchi

rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi kelajakda munosib o‘rin egallashga intilayotgan jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ma’rifiy hayoti, xalq turmush tarzi, ruhiyatini ham ta’lim mazmunini o‘zida aks ettirishi kerak. Chunki xuddi mana shu xalqning turmush tarzi va jamiyat hayotida o‘quvchi munosib o‘rin egallashi uchun unga moslashishi, tayyor bo‘lishi lozim.[153]

Vaholanki, ***ona tili ta’limi maqsadi ~ mazmuni ~ usuli ~ ta’lim vositalari ~ o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati***da uyg‘unlikka erishish haqiqiy dars jarayoni demakdir.

Xullas, davr o‘quvchilarga o‘zbek tili qurilishi haqidagi bilimni emas, balki ona tili imkoniyatlarini egallash mexanizm va usulini berishini taqozo qilmoqda.

Maktabda o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar bor. Bular–

1.*O‘quvchi nutqining nutqiy sharoitga mosligi.* Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining yoshi, saviyasi, dunyoqarashi, yashash o‘rni, muloqot mavzui va b.lar nazarda tutiladi. (Nutqiy sharoit behad ko‘p tarkibli, serqirra bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa, buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so‘zlovchining maqsadi va imkoniyatlarigacha bo‘lgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi.)

Og‘zaki va yozma nutqning o‘z nutqiy sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlari bor. Chunonchi, so‘zlovchining o‘z nutqini tinglovchilar saviyasini, yoshini, mavqeyini, xarakter-xususiyatini hisobga olgan holda bayon qilishi. Buning uchun o‘quvchilar bilan ayni bir fikrni (axborotni, tilak-istakni va h. k.) o‘zidan kichiklarga, tengqurlariga, o‘zidan kattalarga, yaqinlariga, yaqindan tanish bo‘lmagan shaxslarga qanday yetkaza olishi ustida muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi. Bolalarni maktub, xabar, e’lon, bildirish kabilarni yozishga o‘rgatish, ayni bir fikrni turli kishilarga turli xilda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

2.*O‘quvchi nutqining mazmundorligi.* Istalgan nutq nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo‘ladi. O‘quvchi faqat bilgan narsalarini, o‘zi xabardor bo‘lgan voqea-hodisalarni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar, kuzatish yoki taassurotlar, his-tuyg‘ular asosida yuritilgan fikrgina o‘zgalar diqqatini o‘ziga jalb etadi.

[153] Yo‘ldosheva D. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti.–T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2013.

3.*O‘quvchi nutqidagi fikrning mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishi.* Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta’sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to‘g‘ri baho bera bilish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlash, bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to‘g‘ri bog‘lay olish, mavzuga aloqador bo‘lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilish, qaytariq fikrlarga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi.

Nutq – mantiqiy fikrlash mahsuli. U izlash, topish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, qo‘llay olish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog‘langan.

4. *O‘quvchi nutqining boy va rang-barangligi*. Nutqning boy hamda rang-barangligi fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma’nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, bo‘yoqli va bo‘yoqsiz so‘zlardan, shuningdek, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulug‘ kishilarning hikmatga aylanib qetgan jumlalaridan, badiiy asarlardan olingan parchalar va yorqin adabiy timsollardan, nozik qochirimlar va iboralardan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘a, tashbeh kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so‘roqlardan (hurmat, odob-axloq doirasidan chiqmagan holda) foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tildagi tasviriy vositalar nutqqa husn va rang-baranglik baxsh etadi, nutqning ta’sirchanligini ta’minlaydi.

5.*O‘quvchi nutqining aniqligi*. Nutqning aniqligi bu faqat narsa, voqea-hodisa, jarayonni tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo‘lgan belgilarni aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so‘z, so‘z birikmalari va gaplar tanlashdan ham iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog‘langan. Ma’lum bir mazmunni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlay olish nutqqa aniqlik kiritadi.

6.*O‘quvchi og‘zaki nutqining ohangdorligi*. Ohang o‘quvchi og‘zaki nutqining ta’sirchaligini oshirish vositalaridan biridir. Shuning uchun she’riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o‘qiy olish malakasi ham o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri sanaladi. U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo‘ladi, mantiqiy urg‘uni o‘rinli qo‘llaydi. Ifodali o‘qish malakalari faqat adabiyot

darsliklarining emas, balki ona tili mashg‘ulotlarining ham tarkibiy qismiga aylanmog‘i foydadan xoli emas.

7.***O‘quvchi nutqining (grammatik jihatdan) to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi***. Avvalo, o‘quvchi o‘z nutqida foydalanishi uchun tuzayotgan matniga mos so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni tanlay olishi zarur. Shundan keyin har bir grammatik birlikning paradigmatik qatorlaridan zarurlarini zargarona foydalana olishi nazarda tutiadi.

8. *O‘quvchi nutqining soddaligi va sofligi.* Sodda nutq, eng avvalo, tushunarli bo‘ladi. Nutqning tushunarli bo‘lishi, bir tomondan, fikrni lo‘nda, aniq bayon qilish, tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jumlalardan saqlanishda namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Demak, o‘quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilish, ham o‘zgalar fikrining mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Nutqning sofligi deganda o‘quvchilar nutqining har xil qaytariqlar, ortiqcha jumlalar, o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lmagan so‘zlar (varvarlar)dan xoli bo‘lishini nazarda tutadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, o‘quvchi yuqorida sanalganlarning barchasiga amal qilish orqali to‘g‘ri nutqqa erishadi. Shuning uchun o‘qituvchi ona tili mashg‘ulotlarida nutqning faqat bir tomoniga e’tiborni kuchaytirib, ikkinchi talabni unutishi mumkin emas. Belgilangan talablarga doimiy amal qilinsagina nutq o‘stirish samarali kechadi.

Maktabda o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda murakkab jarayon bo‘lib, uni amalga oshirishda qo‘yidagilarga e’tibor qaratish muhimdir:

1.*O‘quvchilarni ularga lug‘aviy ma’nosi notanish bo‘lgan so‘z va iboralar bilan muntazam tanishtirib borish.*

2.*O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish.*

3.*O‘quvchi nutqidagi kamiste’mol so‘zlarni keng iste’molli so‘zlarga aylantirish.*

4.*O‘quvchi nutqidagi adabiy tilga zid so‘zlarni bartaraf etish.*

5.*O‘quvchilarda lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish* va boshqalar.

O‘quv topshiriqlari o‘qituvchi tomonidan shunday belgilanishi shartki, ularning har birini o‘quvchi o‘rgansin. (***O‘rgatish emas, o‘quvchiga mustaqil o‘rganish uchun sharoit yaratish lozim!***)

Maktabda o‘quvchining yozma nutqini oshirish hamda tafakkur darajasini tekshirishning asosiy vositalari sifatida yozma ishlarga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. (Oldingi mavzularda ko‘proq diqqatimizni og‘zaki nutqni boyitish, ravonlashtirish va sayqallash ishlariga qaratganimiz uchun shu mavzu doirasida o‘quvchining yozma nutqni takomilashtirish malaka va ko‘nikmalari xususida to‘xtalamiz.)

So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi.

Yozma nutq asosan orfografiya, punkutuatsiya qoidalariga bo‘ysungan holda – harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyat asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro‘yobga chiqadi.

Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla tuzishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan chambarchas bog‘liq. Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtiriш mumkinligidir.

Yozma nutqni nazorat qilishning asosiy ko‘rinishlari: *diktant, bayon, insho va ijodiy matn*dir.

Diktant lotincha so‘z bo‘lib, ***dikto*** − *aytib turib yozdiraman* demakdir. O‘quvchilarga imlo va tinish belgilariga oid qoidalarni o‘rgatishda hamda bu qoidalar yuzasidan hosil qilingan malakani tekshirishda qo‘llaniladigan yozma ish turi hisoblanadi. Diktant – og‘zaki nutqni yozma shaklga ko‘chirish usuli.

O‘quvchi diktant yozishda doimo o‘qituvchining aytib turishi bilan bir qatorda o‘zining ichki nutqiga ham asoslanadi.

O‘quvchilarda to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda xilma-xil diktant turlaridan foydalaniladi. Garchi diktantlarning barchasi ta’limiy xususiyatga ega bo‘lsa ham, lekin ma’lum bir mavzu o‘tilgandan so‘ng, shu mavzuni o‘quvchi qanchalik

o‘zlashtirganini sinamoq uchun alohida diktant turi o‘tkaziladi, bunday diktant ta’limiy diktant nomi bilan yuritiladi.

Mazmun mohiyatiga qarab diktantlar ikki guruhga bo‘linadi:

a) ta’limiy diktant;

b) nazorat diktant.

Ta’limiy diktant ma’lum bir mavzu o‘tilgandan so‘ng shu mavzuni o‘quvchi qanchalik o‘zlashtirganini sinamoq uchun o‘tkaziladi va, odatda, o‘quvchining sinfdagi aylanma daftariga yozdiriladi. Darsning birinchi soatida yozdirilgan diktant keyingi dars soatida o‘quvchiga doskaga yozdirish, diktant qo‘shimcha topshiriqli bo‘lsa, ularni mashg‘ulot jarayonida tekshirish orqali ham nazorat qilinadi. Umumiy nazorat esa aylanma sinf daftarlarini yig‘ib olgan paytda o‘tkaziladi, ta’limiy diktantlarning barchasi sinf jurnalida qayd etilishi u qadar muhim emas.

Nazorat diktantlar ham, odatda, ma’lum bir mavzu o‘tilgandan so‘ng shu mavzuni o‘quvchi qanchalik o‘zlashtirganini sinamoq uchun o‘tkaziladi va, odatda, o‘quvchining yozma ishlar daftariga yozdiriladi. Darsning birinchi soatida yozdirilgan diktant keyingi dars soatida, albatta, o‘qituvchi tomonidan tekshirilgan, xato va kamchiliklar daftarning hoshiyasida qayd etilgan, shuningdek, baholangan bo‘lishi zarur. Nazorat diktantlarning barchasi sinf jurnalida qayd etilishi zarur.

Ta’limiy diktantlar qanday tartibda o‘tkazilishiga qarab

1) ogohlantiruvchi diktant,

2) izohli diktant,

3) tushuntiruvchi diktantga bo‘linadi.

Ogohlantiruvchi diktantda imlo va tinish belgilari matn yozishdan oldin, izohli diktantda matnni yozish jarayonida, tushuntiruvchi diktantda notanish so‘zlar matnni o‘quvchi yozib bo‘lganiga qadar, imloviy belgilar esa matn yozib bo‘lingach tushuntiriladi.

Ta’limiy va nazorat diktantlar esa o‘z navbatida mohiyatan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) ijodiy diktant,

2) lug‘at diktant,

3) saylanma diktant,

4) ta’kidiy diktant,

5) qo‘shimcha topshiriqli diktant,

6) o‘z-o‘ziga diktant.

Ko‘rinib turibdiki, nazorat diktantdan boshqa deyarli barcha diktant turlari ta’limiy diktant hisoblanadi.

Ijodiy diktant o‘quvchilar nutqini o‘stirishda, imloviy, ishoraviy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda, asosiysi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ijodiy diktantning bir qancha turlari mavjud. Maktabda eng keng qo‘llanilayotgan va katta ijobiy natija berayotgan ijodiy diktant turlarini quyidagilarga ajratish mumkin:

1. O‘quvchilarga o‘rgatilgan orfogrammalar tavsiya qilinadi va ulardan shu orfogrammalar ishtirok etgan gap tuzish talab etiladi. O‘quvchilar tavsiya etilgan orfogrammalar yordamida tuzgan gaplarini o‘qib beradilar. Orfogrammalar tagiga chizadilar va orfogrammani nima uchun shunday yozilayotganligini aytib beradilar. O‘qituvchi o‘quvchilar tuzgan gaplarning eng yaxshilarini ta’kidlagani holda boshqa o‘quvchilariga ham bu gaplarni yozishni tavsiya etadi.

2. Ma’lumki, gap tarkibidagi so‘zlarga bog‘lanib kelishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni qo‘shib gaplarni kengaytirish talab etiladi. Masalan, *Polizda qovunlar pishib yotibdi* gapida qovunlar so‘zini ostiga chizilib, shu so‘zni belgisini bildiruvchi so‘zni qo‘shish talab etiladi (*Polizda shirin qovunlar pishib yotibdi.; Polizda shakar qovunlar pishib yotibdi.; Polizda katta-katta qovunlar pishib yotibdi*).

O‘quvchilar *shirin, shakar, katta-katta* kabi so‘zlarni qo‘shib gap tarkibidagi egani o‘z aniqlovchisi bilan kengaytiradilar. Diktant o‘tkazish jarayonidagi bu kabi qo‘shimcha, o‘quvchini izlanishga, o‘ylashga undaydigan topshiriqlar o‘quvchilarning tafakkuriga, tafakkur mahsulini nutqqa chiqarishga ko‘maklashadi, shuningdek, ularda so‘zlarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Ijodiy diktantlarda so‘zlar soni odatdagi me’yordan kamroqdir, chunki o‘quvchilar o‘zlari ijod qilib, matnni to‘ldiradilar.

Ijodiy diktantni baholashda o‘qituvchi faqat diktantning imlosigagina e’tibor bermay, balki diktantni qanday ijod qilganliklariga ham ahamiyat berishi kerak.

Diktant va uning turlarini baholash me'yorlari. Shu o‘rinda diktant va uning turlarini baholash me'yorlariga qisqacha to‘xtalib o‘tish joiz. Yozma ishlarni baholash me'zonlari bir tomondan, o‘quvchidagi bilim, malaka, ko‘nikmalarni xolis aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, butun bir istiqbolni belgilash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Birobarin, baho me'zonining belgilanishi va qo‘llanilishida ijtimoiy adolat, xalqchillik va oshkoralik talablariga qat'iy rioya qilinadi.

Har qanday mezon va me'yorlar nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning yozma ishlarida yo‘l qo‘yilgan xatolar, ularning xillari, xarakteri, sodir bo‘lish sabablar turlicha bo‘lishi tabiiydir. Maktabda yozma ishlar (diktant, bayon, insho) qaysi maqsadda o‘tkazilishiga qarab ikki turga bo‘linadi:

a) ta'limiy yozma ishlar (bular sinfda, ba'zan uyda mustaqil bajariladi);

b) nazorat yozma ishlar (bular sinfda o‘qituvchi boshchiligida o‘tkaziladi).

Ona tilidan ta'limiy yozma ishlar (diktant, bayon, insho), asosan, bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish, muayyan mavzuni mustahkamlash maqsadida darsning ma'lum qismida yoki bir darsda o‘tkaziladi. Bular sinf ishi daftariga yoki yozma ishlar daftariga mashq tarzida yozdiriladi va tekshiriladi, ko‘pchilik baholanadi. Ammo bu baholarning barchasi sinf jurnalida aks etishi shart emas. O‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida har bir ta'limiy yozma ishdan keyin ijobiy baholangan 5-6 o‘quvchining bahosini jurnalga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Yozma ishlarga qo‘yiladigan har bir baho uchun me'yor va mezonni belgilashda xatolar xarakteri, xili va miqdori hisobga olinadi. Shu jihatdan ular quyidagicha guruhlanadi:

a) *jiddiy va ju'ziy xatolar;*

b) *bir xil yoki har xil turdagi xatolar;*

d) *takroriy va tasodifiy xatolar;*

e) *o‘tilgan va o‘tilmagan qoidalarga xos xatolar.*

Jiddiy va ju'ziy xatolar deganda nimalar inobatga olinadi? Masalan, qaysidir gap oxirida o‘quvchi nuqtani qo‘yishni unutsa, ya'ni e'tiborsizlik qilgan bo‘lsa, bu juz'iy kamchilik hisoblanadi. (Aytaylik, o‘quvchi matndagi deyarli barcha darak gaplarning oxirida nuqtani ishlatgan-u, bittagina gap oxirida nuqta tushib qolgan holat juz'iy

kamchilikka sabab bo‘ladi.) Yoki diktant matnidagi ko‘p nuqta o‘rnida nuqtaning ishlatilishi, ko‘p nuqtani uchta emas, ikkita yoxud to‘rtta qo‘yishi; -lar ko‘plik shaklini boshqa o‘rinlarda to‘g‘ri yozib bir o‘rinda noto‘g‘ri yozib qo‘yish (keldilar –keldila□) shular jumlasidandir.

Jiddiy xatolar deganda, odatda, orfografik xatolar ko‘zda tutiladi. Masalan, o‘quvchi so‘zlar imlosida *u* va *o‘*, *x* va *h*, *d* va *t*, *b* va *p* kabilarni shevasiga ko‘ra yozib qo‘yishi; bo‘g‘in ko‘chirishda xato qilishi va b.

Bir xil yoki har xil turdagi xatolar ham o‘quvchilarning yozma nutqida ko‘p uchraydi. Masalan, muayyan grammatik hodisa va bir orfografik, punktuatsion, uslubiy qoida bilan bog‘liq nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi. Bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va bu baholash uchun mezon bo‘ladi. Jumladan,

– oquvchi bir necha o‘rinda ishlatilgan bir so‘zda **h** harfi o‘rnida **x** harfini yozgan bo‘lsa, hammasi bitta orfografik xato hisoblanadi;

–agar oquvchi kirish so‘zlarning yozilishida oltita punktuatsion xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, hammasi bitta xato hisoblanadi;

Izoh: agar oquvchi vergulning kirish so‘zlarda, uyushiq bo‘laklarda va bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida ishlatilish qoidalarini bilmasa, bularning har biri alohida-alohida xato sanaladi.

–agar o‘quvchi yozma ishda qaratqich belgisini bir necha o‘rinda noto‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa, bitta uslubiy xatosi sanaladi va h.

Diktant, bayon, insho o‘quvchilar yozma nutqini o‘stirish va savodxonligini oshirishning eng maqbul omillaridan sanaladi.

Ayniqsa, imlo va ishoralarga oid savodxonlikni aniqlashda diktantning o‘rni beqiyos. Diktantning samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadning aniqligi hamda metodning izchilligiga ko‘ra belgilanadi. Diktant hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlari talablariga javob berishi, uning mazmuni muayyan sinf o‘quvchilari uchun tushunarli bo‘lishi va bog‘lanishli matn asosida tuzdirilishi zarur.

Nazorat va ta’limiy diktantlar hajmi quyidagicha bo‘lishi nazarda tutilgan:

5-sinfda: – 100-110ta so‘z;

6-sinfda: – 110-120ta so‘z;

7-sinfda: – 120-150ta so‘z;

8-sinfda: – 150-170ta so‘z;

9-sinfda: – 170-200ta so‘z.

Lug‘at diktant uchun esa so‘z miqdori quyidagicha belgilanadi:

5-sinfda: – 20-25ta so‘z;

6-sinfda: – 25-30ta so‘z;

7-sinfda: – 30-35ta so‘z;

8-sinfda: – 35-40ta so‘z;

9-sinfda: – 40-45ta so‘z*.

Nazorat va ta’limiy diktant, lug‘at diktantlar uchun belgilangan so‘zlar me’yori amaldagi tartibga ko‘radir. Kundan kunga rivojlanayotgan maktab ta’lim tizimi mazkur me’yorlarni takomillashtirishni va turmush talabi-yu hayotiy ehtiyojlarga moslashtirishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, mutaxassis o‘qituvchilardan metodik mahoratni, shuningdek, ijodiy ish tajribani talab etadi.

Diktant matnidagi so‘zlar miqdorini belgilashda undagi barcha mustaqil so‘zlar ham, yordamchi so‘zlar ham, albatta, hisobga olinishi zarur. O‘qituvchi diktant mavzusi va maqsadiga qarab, matndagi so‘zlar sonini kamaytirishi yoki ko‘paytirishi mumkin.

Diktantni baholashda quyidagi mezonlarga rioya etiladi:

“a’lo” baho: a) chiroyli husnixatda mutlaqo xatosiz yozilgan; b) chiroyli husnixatda qo‘pol bo‘lmagan bitta ishoraviy yoki imloviy xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi;

“yaxshi” baho: chiroyli husnixatda ikkita ishoraviy va ikkita (qo‘pol hisoblanmaydigan) imloviy xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Xatolar nisbatan o‘zgarishi mumkin, biroq uning umumiy miqdori to‘rttadan oshmasligi kerak;

“o‘rta” baho: o‘rtacha husnixatda to‘rtta ishoraviy va to‘rtta imloviy xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Xatolar nisbatan o‘zgarishi, ya’ni uch imloviy, besh ishoraviy xato ko‘rinishida bo‘lishi ham mumkin.

“qoniqarsiz” baho: xunik yoki e’tiborsiz yozuvli, yettita (va undan ortiq) ishoraviy va yettita (va undan ko‘p) imloviy xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi.

Xatolar miqdori o‘n beshtadan oshsa, bunday diktantga “bir” baho qo‘yiladi.

* 10-11-sinflarda, asosan, insho, ijodiy matn, ilmiy va publitsistik matnlar yozdiriladi.

Shuningdek, diktantlardagi xatolar nisbati turlicha ko‘rinishda bo‘lishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara hisoblanadi[154].

Saylanma diktantlarda o‘quvchi gapni to‘liq yozmaydi, balki gap tarkibidagi ayrim orfogrammalarni yozadi. Bu esa qisqa vaqt ichida ma’lum qoida asosida yozilishi lozim bo‘lgan bir qancha so‘zlarning imlosini o‘rganishga yordam beradi.

Saylanma diktant o‘quvchilarda onglilik va mustaqillikni kuchaytiradi. Masalan, 6-sinfda ot so‘z turkumi o‘tib bo‘lingandan so‘ng o‘qituvchi gapni to‘la o‘qiydi, o‘quvchilar esa shu gapdan faqat ot turkumiga oid so‘zlarni daftarlariga yozadilar, ya’ni saylab oladilar. Chunonchi, o‘quvchilarga Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” kitobidan quyidagi matn o‘qib beriladi:

OTAM YIG‘LADILAR

Bobom vafotidan so‘ng edi. Shahar hovlida yashar edik. Bir kun uyimizda shunday voqea ro‘y berdi: oyim odatimizcha, ertalabki choyni buvimning uyiga hozirladilar-da, erta turib yozayotgan dadamni choyga chaqirgani kirib ketdilar. Biz dasturxon tevaragida dadamning chiqishini kutardik. Bir vaqt oyim negadir indamay chiqdilar-da, o‘tirib bizga choy quyib bera boshladilar.

–Abdullani chaqirdingmi, Rahbar? – dadam chiqavermagach, oyimdan so‘radilar buvim.

–Yo‘q.

– Nega?

– O‘g‘lingiz yig‘lab o‘tiribdilar, – dedilar oyim.

Buvim bechora sakrab o‘rinlaridan turib dadamning uyiga yo‘l oldilar. Kap-katta kishining yig‘lashidan hayratga kelib, men ham buvimning ortidan ergashdim. Kirsak, darhaqiqat, u kishi yum-yum yig‘lar, kursiga tirsaklanib olib to‘xtovsiz yozar edilar. Buvim dadamning bu holiga biroz qarab turdilar-da, bir narsani tushundilar, shekilli, indamay meni boshlab orqaga qaytdilar va o‘tirib choy icha boshladilar. Men buvimdan so‘radim:

–Opa, dadam nega yig‘layaptilar?

–Dadang jinni bo‘lib qolibdi, – javob qildilar buvim va boshqa so‘z aytmadilar.

[154] Долимов У. ва б. Иншо ва диктантни қандай ёзиш керак? – Т.: Университет, 1991.

Keyinchalik anglasam, o‘shanda dadam o‘z sevikli qahramoni Kumushning o‘limi paytini tasvirlab iztirob chekayotgan ekanlar.

O‘quvchilar mazkur matndagi ot turkumiga oid so‘zlarni yozib boradilar: *bobom, vafot, shahar, hovli, uy, voqea, opa, ona, dada, choy, javob, so‘z, kishi…*

Saylanma diktantni *tekshirishda, baholashda o‘qituvchi uning imlosigagina e’tibor bermay, to‘g‘ri saylab* olishiga (tanlab) ham ahamiyat berishi darkor.

Diktant tugagach, o‘quvchilar nechta so‘z yozganliklarini o‘zlari tekshiradilar va diktant oxiriga so‘z bilan qavs ichida so‘zlar miqdorini yozib qo‘yadilar. Masalan, (yigirma oltita so‘z) yoki (26ta so‘z) kabi.

Lug‘at diktant ko‘p vaqt olmasligi, ixchamligi bilan diktantning boshqa turlaridan farq qiladi. Shuning uchun har bir mavzuni o‘tgandan so‘ng yangi mavzuni mustahkamlash uchun bunday diktant turidan foydalanish mumkin yoki deyarli har mavzuni (bo‘limni) o‘tib bo‘lgandan so‘ng lug‘at diktant olish mumkin. “Diktantlar to‘plami”da asosan 5-,6-,7-sinflar uchun lug‘at diktantlar berilgan. Lug‘at diktant uchun darsning 7-10 minutini ajratish kifoya. Shuningdek, o‘qituvchining o‘zi ham lug‘at diktantlar tanlashi o‘rinlidir. Chunki ham ta’limiy, ham tarbiyaviy, shaklan esa o‘quvchi e’tiborini torta oladigan ham nasriy, ham nazmiy matnlar tanlay olish bir tomondan, o‘qituvchining mahorat darajasini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Lug‘at diktant o‘quvchiga ma’lum so‘zlarning qanday yozilishinigina emas, balki shu so‘zning o‘zini, uning ma’nosini ham o‘rgatadi. Demak, o‘quvchilar nutqini o‘stirishda bunday diktant katta ahamiyatga ega.

Nazorat diktant o‘rganilgan qoidalarni o‘quvchilar qanchalik o‘zlashtirganini, bu qoidalarning qanchalik amalda tatbiq qila olishlarini nazorat qilish uchun o‘tkazilishini aytib o‘tgan edik. Bunday diktant har bir katta mavzuni o‘tib bo‘lgandan keyin yoki chorak oxirida olinadi. Shuning uchun ham nazorat diktant uchun o‘quvchilar maxsus tayyorgarlik ko‘rishlari, o‘tilgan mavzuni takrorlab kelishlari talab qilinadi. Ayni paytda o‘qituvchi ham o‘quvchilarning yoshi, o‘quvchilar tarbiyasiga, talabiga javob beradigan va mavzuga muvofiq keladigan matnni tanlab yozdirishi muhim.

Nazorat diktant quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

O‘qituvchi nazorat diktant uchun tanlangan matnni adabiy talaffuz me’yorlari asosida ifodali qilib ikki marta o‘qib beradi. Matn mazmuni o‘quvchilarga tushunarli ekanligiga ishonch hosil qilgach, matn tarkibida uchragan imlosi qiyin yoki o‘quvchi uchun notanish so‘zlar (ko‘pi bilan 3tagacha) tanlanib doskaga yozib qo‘yiladi.

Shundan so‘ng matn jumlama-jumla o‘qiladi. Matnni to‘la yozib bo‘lingandan so‘ng o‘qituvchi uni yana bir bor sekin, ifodali o‘qib beradi. Natijada o‘quvchilar yozgan diktantini boshdan oyoq tekshirib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi mumkin qadar tezroq tekshirib, yo‘l qo‘yilgan xatolar ustida ishlashi lozim. Aks holda mazkur jarayon o‘quvchilar esidan chiqib ketib, diktantning hech qanday amaliy foydasi bo‘lmasligi mumkin.

Saylanma diktant ham qisman lug‘at diktantga o‘xshab ketadi. Faqat saylanma diktantning lug‘at diktantdan farqi shundaki, unda o‘quvchiga ta’lim oluvchining yosh xususiyatiga, mentaletitga, milliy ruhga mos, tarbiyaviy ahamiyatli kattaroq hajmdagi matn o‘qib beriladi. Ammo diktant sifatida matnning muayyan qismi (albatta bunda so‘zlar miqdori, matnning mantiqiy bog‘lanishli qismi) tanlab olinadi va o‘quvchilarga yozdiriladi.

Ta’kidiy diktantda esa o‘qituvchi urg‘u berib o‘qiyotgan o‘rinlarni o‘quvchi ilg‘ay olishi va yozishi nazarda tutiladi.

Qo‘shimcha topshiriqli diktantda muayyan matn yozdirilgach, o‘tilgan mavzu yuzasidan, albatta, qo‘shimcha topshiriq bajartiriladi. Masalan, 7-sinfda mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari o‘tib bo‘lingach olingan diktantga quyidagicha qo‘shimcha topshiriq qo‘yish mumkin:

Matn tarkibidagi birinchi va ikkinchi gaplarni diqqat bilan o‘qing. Mazkur gaplar tarkibidagi so‘zlarni morfologik tahlil qiling.

Masalan, gaplar quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: *Suv onasi – buloq, so‘z onasi – quloq. Suvni ich, chashmani bulg‘atma. Suv ichadigan qudug‘ingga tupurma. Quduqqa tupurma, qaytib icharing bor.*

Suv (ot, turdosh ot, aniq ot, faqat birlikda qo‘llaniluvchi ot) *onasi* (ot, turdosh ot, aniq shaxs oti, turlangan) – *buloq* (ot, turdosh ot, aniq ot)…. kabi.

O‘z-o‘ziga diktantda o‘quvchining xotira tipi, izlanishi, muayyan matndagi asosiy fikrni ajrata olishi kabilarga e’tibor qaratiladi. Buning uchun darslikdan tanlangan yoki o‘qituvchi tomonidan maxsus topilgan kichik hajmli matn olinadi. Matn har bir o‘quvchining o‘ziga o‘qittiriladi, shundan keyin o‘quvchi matnni ichida takrorlab (ya’ni o‘z-o‘ziga diktovka qilib) yoza olishi zarur. Ba’zan o‘z-o‘ziga diktant uchun o‘quvchiga uning “Adabiyot” yoki “Vatan tuyg‘usi” darslarida yod olgan she’riy matnlarini ham tanlash mumkin. Agar o‘quvchi “Adabiyot” yoki “Vatan tuyg‘usi” darslarida yod olgan she’riy matnlarining mazmuniga, pafosiga e’tibor qaratgan bo‘lsalar, ona tili darslarida diktant yozish jarayonida shunday matnlarning imlosiga diqqat qiladilar.

Ona tili ta’limidagi istalgan amaliy foliyat o‘quvchini ijodkorlikka, bunyodkorlikka unday olishi lozim. O‘quvchining egallagan bilimi, ko‘nikma-yu malakasi uni qay darajada ijodkorlikka, bunyodkorlikka unday olishini ko‘rsatuvchi ta’limiy me’yorlardan biri bayon yozdirishdir.

Bayon arabcha so‘z bo‘lib, 1) *voqea, hodisa, fikr, mulohaza va shu kabilarning og‘zaki yoki yozma ifodasi*; 2) *matnni o‘qib yoki aytib berganlar asosida yozib chiqilgan ish* ma’nolarini beradi. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida (asosan, 2-9-sinflarda) o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha sinf o‘quv (yozma) ishining asosiy turlaridan biri sifatida foydalaniladi.

Maktablarda o‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirish maqsadida V-IX sinf ona tili va adabiy o‘qish darslarida muntazam suratda bayon yozdirib borish orqali o‘quvchilarning ushbu fanlarni chuqur, puxta o‘zlashtirib olishlariga erishiladi. Bu esa ta’limda muhim ahamiyatga ega.

Bayon matnlarini tanlashda ijtimoiy-siyosiy hayot, axloq-odob, mehnat, nafosat, shukrona, do‘stlik, salomatlik, tabiat, Navro‘z, non kabi mavzularga oid bo‘lishiga va hozirgi davr pedagogik talablariga javob berishiga alohida e’tibor qilinadi, o‘quvchilarning madaniy, adabiy boyliklarimiz haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish niyatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, mumtoz o‘zbek va hozirgi davr adabiyoti asarlaridan namunalar va parchalar kiritiladi, o‘quvchilarda baynalmilallik fazilatini o‘stirish maqsadida qardosh xalqlar og‘zaki ijodi va adabiyotidan ham namuna va parchalar beriladi. Shuningdek, bayon matnlarini tanlashda o‘quvchilarning ular matn mazmunini

puxta anglab olishlariga, ularda o‘zlashtirilgan mazmunni o‘z so‘zlari bilan mustaqil bayon qilish malakasini o‘stirishga ham e’tibor beriladi.

O‘qituvchilarga matnlarni erkin tanlash imkoniyatini yaratish niyatida ularni ijodiy fikrlashga undaydigan materiallardan ijodiy foydalanish o‘rinlidir. Demak, bayon o‘rta maktab ta’lim-tarbiya tizimida nutq o‘stirish vositasi sifatida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. U yozma ishning asosiy turlaridan biri bo‘lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini o‘quvchi tomonidan “o‘z so‘zi”– o‘ziga xos uslubi asosida izchil, savodli qayta bayon etishni taqozo etadi.

Bayonning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati katta. U ona tili va adabiyotdan o‘quvchining qanchalik bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘layotganini, nutq madaniyati taraqqiyoti darajasini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, matn mazmuni orqali o‘quvchini axloq-odob– estetik kamolotga yetaklaydi, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdiradi, chinakam insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Bayon o‘z xususiyatiga ko‘ra diktant va inshodan farq qiladi. Bu uch tur yozma ishlardagi o‘zaro umumiy o‘xshashlik shundaki, ularni o‘tkazishdan oldin o‘qituvchi yozilishi lozim bo‘lgan mavzuni, matnni aniqlaydi, o‘qiydi, o‘quvchilar esa o‘qituvchi rahbarligida topshiriqni savodli yozish uchun harakat qiladilar.

Diktant matni o‘qituvchi tomonidan aytib turib yozdirilsa, bayonda matn o‘qib berilganidan so‘ng o‘quvchilar o‘zlashtirganlarini xotirasida saqlab qolganlari asosida yozishga kirishadilar. Diktant o‘quvchilarning grammatikadan qanchalik ongli bilim olganligini namoyish etadi, savodxonligini oshiradi, yozuv malakasini puxta egallashga undaydi. Bayon va insho yozishda esa o‘quvchilar yozma nutq malakalarini namoyish etadilar, o‘zlarining tafakkur kuchi va nutq boyliklariga suyanadilar. Bu bayon bilan inshoning o‘xshash tomonlaridir. Ular o‘rtasidagi farq shundaki, agar bayon ta’limiy xarakterda bo‘lsa, matn o‘qib berilgach, o‘quvchilar uning mazmunini og‘zaki gapirib beradilar, Shundan keyingina yozishga kirishadilar. (Inshoda esa o‘quvchilarga matn o‘qib berilmaydi, balki faqat mavzu tavsiya etiladi. Mavzu bo‘yicha reja tuziladi va o‘quvchilar shu reja bo‘yicha o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalaydilar.)

Bayon o‘qituvchining nazorati nuqtayi nazaridan ikki turga bo‘linadi:

1) ta’limiy bayon,

2) tekshiruv bayon.

Ta’limiy bayonni og‘zaki shaklda ham, yozma shaklda ham o‘tkazish mumkin. Tekshiruv bayon esa (bayon matni o‘qituvchi tomonidan o‘qib berilgach, mazmun o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilib og‘zaki so‘zlab berilsa-da) yozma shaklda o‘tkaziladi. Tabiiyki, bayon matnini tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyalari hisobga olinadi, ayniqsa, matnning tarbiyaviy jihatiga, davr talablariga qay darajada mosligiga alohida e’tibor beriladi.

Bayonlar o‘tkazilish maqsadi va tartibiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi:

1) matnga yaqinlashtirilgan bayon;
2) qo‘shimcha topshiriqli bayon;
3) saylanma bayon;
4) ijodiy bayon;
5) ixcham bayon.

Matnga yaqinlashtirilgan bayon. Mazkur bayon turi o‘quvchidan diqqat-e’tiborni, mantiqan o‘zaro yaqin hodisalar assotsatsiyasini taqozo etadi. Bunda muallifga xos so‘z va iboralardan foydalanish talab qilinadi. Buning uchun badiiy til xususiyati bilan ajralib turadigan asarlar tavsiya etiladi. Vaholanki, matn yuzasidan bayon yozishdan oldin o‘quvchilar muallifning har bir fikri, iborasi va uslubini aniq tushunib olishi va uni o‘z bayonida qo‘llashi zarur.

Matnga yaqinlashtirib yozilgan bayonda muallif fikrini o‘quvchi o‘z so‘zi bilan bayon etishi mumkin. Ya’ni birinchi shaxs tilidagi bayon matnini uchinchi shaxs tilida yoki, aksincha, uchinchi shaxs tilidagi bayon matnini birinchi shaxs tilida bayon etishi ham mumkin. Albatta, bu o‘quvchining saviyasiga, kitobxonlik darajasiga, mahoratiga bog‘liq. Biroq, eng muhimi, o‘quvchi muallif qo‘llagan so‘z va iboralardan yozma nutqda keng foydalanishi zarur. Bu o‘quvchi lug‘at boyligini oshiradi va faollashtiradi, til birlilaridan ijodiy foydalanishni o‘rganadi. Bunda matn hajmi uncha katta bo‘lmasligi muhim.

Masalan, Mirkarim Osimning “Shiroq” hikoyasidan olingan quyidagi parchani matnga yaqinlashtirib bayon yozish uchun tanlash mumkin:

Boshliqlar bu mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o‘tirganlarida o‘tov eshigi oldida qurolli yigit Shiroq degan bir cho‘ponning ijozat so‘rayotganini bildirdi.

–Shiroq? – deb qoshini chimirdi Rustak. –Kim u?

–Shiroq bizning urug‘dan. O‘zi ertakchi, dostonchi dono chol. Butun umri cho‘ponlik bilan o‘tgan, – dedi Saksfar.

–Undoq bo‘lsa chaqir bu yoqqa o‘sha dono cholni.

–Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan tetikkina, barvasta bir chol kirib, ta’zim qildi.

–Ijozat beringlar, men ham qatoringizda o‘tirib, o‘z fikrimni aytsam. Nima to‘g‘rida gaplashayotganingizni bilaman.

–O‘tir, o‘tir, gapingga quloq solamiz.

–Eron shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko‘p, ularni jangga chorlab, yengish mahol. Ammo ularni qirib tashlash uchun bir yo‘l bor. Quloq soling…

Qo‘shimcha topshiriqli bayon, asosan, ona tili darslarida o‘tkaziladi. Qo‘shimcha topshiriqli bayonda matn mazmunini to‘g‘ri anglay olish, uni belgilangan me’yorda yoritib berish kabi talablardan tashqari, masalan, biror grammatik qoida yuzasidan olingan bilimni malaka va ko‘nikmalarga aylantirish ko‘zda tutiladi, ya’ni o‘tilgan muayyan grammatik qonun-qoida asosida olingan bilimlarning pragmatikasiga ham e’tibor qaratiladi. Masalan, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, moslashuv, bonqaruv, bitishuv, gapda so‘zlar tartibi, gap bo‘laklari, gapning uyushgan bo‘laklari, ko‘chirma va o‘zlashtirma gap, sinonim so‘zlar, stilistika, ritorik so‘roq gaplar, inkor gaplar va o‘zbek tili tinish belgilariga oid qoidalar o‘rganilgach, qo‘shimcha topshirqli bayon o‘tkazilishi zarur.

Masalan, ko‘chirma gaplar mavzusi (5-sinfda) o‘tilgandan so‘ng A.Navoiyning “Hotam Toyi hikoyati”dan olingan quyidagi parchadan qo‘shimcha topshiriqli bayon yozishda foydalansa bo‘ladi (Qo‘shimcha topshiriq sifatida matn mazmunini davom ettirish topshirig‘ini ham berish mumkin):

Dono kishi Hotamdan: “Sen o‘zingga saxiylikni umrbod kasb qilib olibsan, o‘zingga o‘xshagan oliyhimmat, saxiy kishini bilasanmi?” – deb so‘rabdi. Hotam bunday deb javob beribdi:

–Bir kuni dasht elini chaqirib, juda katta to‘y qilib berdim. Yuzta tuya va behisob qo‘y-qo‘zilar so‘ydim. Uy odamlar bilan to‘lgan edi. Toza havo olay deb ko‘chaga chiqsam, o‘tin ko‘tarib ketayotgan bir cholni ko‘rib qoldim… Bechora cholga rahmim kelib, bunday dedim: "Ey og‘ir mehnat bilan qaddi bukilgan chol, dashtda yurib hech narsadan xabaring yo‘q ekan-da, bugun Hotam yaxshi-yomon va katta-kichikni chaqirib mehmon qilyapti, o‘tiningni yerga qo‘yib, Hotamning uyiga kir, izzat-hurmat bilan seni siylaydi.

Chol boshini ko‘tarib, menga qarab bunday dedi…

Saylanma bayonda matnning hammasi to‘liq yozilmaydi, balki o‘quvchilar bir necha qismli matnning xohlagan bir qismi yuzasidan bayon yozadilar. Bunda o‘quvchilarga erkinlik beriladi, ular o‘zlariga yoqqan, o‘zlarini qiziqtirgan biror qismni saylab oladilar. Mazkur holat o‘quvchida umumiylikdan xususiylikni ajrata olish xususiyatini tarbiyalaydi.

Matn hajmini qisqartirib bayon yozish. Matn hajmini qisqartirib bayon yozishning ahamiyati shundaki, biror ertak yoki hikoyaning mazmunini umumlashtirib asosiy g‘oyani lo‘nda ifodalash topshirig‘i o‘quvchini faol va mustaqil fikrlashga undaydi, keng hajmli matn yuzasidan konspekt tuzish malakasini shakllantiradi.

Qisqartirib yozish malakasini hosil qilish uchun matn yuzasidan savol shaklida reja tuza bilish ham muhim o‘rin tutadi. Keyin ular savolga qisqa javob yozadilar. Matn hajmini qisqartirib bayon yozishning asosiy talabi shuki, matnning asosiy mazmuniga zarar yetkazmagan holda, ikkinchi darajali voqea-hodisalarni qisqartirib, g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rinlar qoldiriladi. Qisqartirilgan bayonning murakkablik tomoni shundaki, o‘quvchi muallifning asosiy fikrini saqlagan holda nihoyatda qisqa, ixcham yozishni uddalashi zarur. Masalan, matn hajmini qisqartirib bayon yozishda O‘tkir Hoshimovning “Charxpalak” hikoyasidan foydalansa bo‘ladi. O‘quvchiga hikoyaning asosiy g‘oyasini 1-2 gapda berish topshirig‘i beriladi:

Charxpalak

Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim… yog‘och gardishi ko‘hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko‘kimtir suv o‘tlari yopishgan… birov

yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek… charxpalak nolali g‘iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi… tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi… charxpalak ham bundan ranjimaydi. Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi… g‘iyqillaydi…

Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo‘ldi. Nega shunday bo‘lganini uzoq o‘yladim…

So‘ng… bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo‘msar ekanman.

Suv – suv emas, men ekanman! Charxpalak – charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!

Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim – charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?… Bilmadim.

…Ko‘hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi…

O‘quvchilar hikoya g‘oyasini, taxminan, shunday ifodalaydilar: *Ustozlarimizning beminnat mehnatlari o‘zi nurab ketsa ham, vazifasini sidqidildan ado etayotgan charxpalakka o‘xshaydi*.

Ijodiy bayon. Bunday bayonda o‘quvchidan yo matn mazmuniga o‘z munosabatini bildirish, yo boshlanishi berilgan matnni mazmunga mos ravishda davom ettirish talab qilinadi. Bayon turlari ichida ijodiy bayon ona tili ta’limining bosh maqsadi bilan hamohang.

Ijodiy bayon bir necha shaklda o‘tkazilishi mumkin. Masalan,

a) *berilgan kichik hajmli matn mazmunini kengaytirib yozish*;

b) *voqeaband she’rlar mazmunini hikoya shaklida yozish*;

v) *dialoglarni umumlashtirib yozish*;

g) *matndagi so‘zlovchi shaxsini o‘zgartirib yozish* va h.

Berilgan kichik hajmli matn mazmunini kengaytirib ijodiy bayon yozish uchun hikmatli so‘zlarga, xalq maqollariga, mashhur misralarga ham murojaat etgan ma’qul. Masalan,

5-sinf o‘quvchilariga: *“Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir”, “Sanamay sakkiz dema”, “Non ham non, uvog‘i ham non”*;

6-sinf o‘quvchilariga: *“Ota-ona – boshdagi davlat”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Ustoz otadek ulug‘”, “Kitob yolg‘izning do‘sti, sirdoshi”, “Suv ichsang, quduq qaziganni unutma”;*

7-sinf o‘quvchilariga: *“Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar”, “Aql bilan hayo – egizak”, “Ariqdan suv uzilmasa, savatdan non arimas”, “Er yigitning uyalgani – o‘lgani*”;

8-sinf o‘quvchilariga: *“Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l”, “Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, “Ajdodlar yodi muqaddas”;*

9-sinf o‘quvchilariga: *“O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga”, “Baxtning kaliti vaqtning qo‘lida”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, “Til bilgan – el bilar”, “Tilga e’tibor – elga e’tibor”* kabi maqol, aforizmlarning mazmunini kengaytirib ijodiy bayon yozdirish o‘rinli va h.

Shaxsini o‘zgartirib yoziladigan bayonda birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs tomonidan bayon etiladigan fikr ifodalanadi. Shu sababli bayonning bu turi o‘quvchilar bilan ko‘proq mashq o‘tkazishni, o‘quvchilarning birinchi shaxsni uchinchi shaxsga aylantirish qoidalarini puxta o‘zlashtirishlariga e’tibor berishni taqozo etadi. Matndagi so‘zlovchi shaxsini o‘zgartirib yozishda yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”idagi ibratomuz o‘rinlarni tavsiya etish mumkin. Masalan,

Nodonlar davrasida kar bo‘l, Donolar davrasida soqov bo‘l…

***

“Oshsiz uy bor, urishsiz uy yo‘q”, deydilar. Oilangda janjal chiqsa, eng avvalo, farzandlaringni o‘ylab ish qil!

***

Hech kimga yomonlik sog‘inma, hatto dushmaningga ham yomonlik tilasang, bir chekkasi o‘zingga qaytib keladi. Negaki, olam bus-butundir.

***

Menga yuz marta ozor bersang, kechirishim mumkin. Onangga bir marta ozor bersang, kechirmayman: onang senga mendan ko‘ra yuz hissa ko‘p mehr bergan!

Dono o‘gitlar mazmunini uchinchi shaxs shaklida bayon etish topshirig‘i beriladi.

Bayon rivoyat tarzidagi she’riy asar yoki undan olingan parchalar bo‘yicha ham yozdiriladi. Masalan, Erkin Vohidovning “Nido” dostoni asosida bayon yozish maroqli.

Ixcham bayon. Ixcham hajmli matn yuzasidan o‘tkaziladigan yozma ishning turiga ixcham bayon deyiladi. Bunday bayon V-IX sinflarning har birida darsning 8-20 minutida qiziqarli topshiriq sifatida o‘tkaziladi va bu mashg‘ulot o‘quvchini qiynamaydi, u mazmunni tez o‘zlashtiradi. Ixcham hajmli matn yuzasidan o‘tkaziladigan yozma ish o‘ziga xos yozma-aqliy mashq bo‘lib, unga reja tuzilmaydi. Ixcham bayon matnining bir marta o‘qib berilishining o‘zi ham o‘quvchilarning eshitish qobiliyatini oshirishga, e’tiborlilikka, xotirasini o‘stirishga katta yordam beradi.

Yuqoridagi ishlar, asosan, ta’limiy bayon bilan bog‘liq mashg‘ulotlar hisoblanadi. Bunday mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar tekshiruv bayon yozishga tayyorlanadilar. Ta’limiy bayon har bir dars jarayonida o‘tkazilishi, uni yozish jarayonida o‘quvchilar tushuna olmagan so‘zlarini o‘qituvchidan so‘rashlari mumkin.

Tekshiruv bayon o‘quvchilarning nutq malakalarini aniqlash, sinash maqsadida o‘quv yilining har bir choragida bir-ikki marta o‘tkaziladi, buning uchun matn, albatta, o‘quvchilarga tanish bo‘lmagan, darsda tahlil qilinmagan asarlardan olinadi.

Tekshiruv bayon o‘tkazish uchun matn o‘qituvchi tomonidan ikki marta ifodali o‘qib beriladi. Matn mazmuni yuzasidan o‘quvchilarda savollar bo‘lmasa, berilgan reja asosida bayon yozishga kirishiladi. Bayon yozib bo‘lingach, mustaqil o‘qib chiqish uchun o‘quvchilarga 3-4 daqiqa imkon beriladi. Shundan so‘ng bayon daftarlari yig‘ib olinadi.

Tekshiruv bayon o‘qituvchi tomonidan adolatli tekshirilib, baholanishi shart. Odatda, bayonga (savodxonligiga va mazmundorligiga) ikkita baho qo‘yiladi.

Bayonni baholashda quyidagi mezonlarga rioya etiladi:

“a’lo” baho: a) chiroyli husnixatda imloviy, uslubiy, ishoraviy xatolarsiz yozilgan; mazmunan pishiq; b) chiroyli husnixatda qo‘pol bo‘lmagan ikki ishoraviy yoki imloviy xatosi bo‘lgan bayonga qo‘yiladi;

“yaxshi” baho: chiroyli husnixatda to‘rttagacha ishoraviy va imloviy xatosi bo‘lgan, ammo uslubiy xatosi bo‘lmagan bayonga qo‘yiladi. (Xatolar nisbatan o‘zgarishi mumkin, biroq uning umumiy miqdori to‘rttadan oshmasligi kerak);

“o‘rta” baho: o‘rtacha husnixatda to‘rttadan ortiq ishoraviy va to‘rttadan ko‘p imloviy, ikkita uslubiy xatosi bo‘lgan bayonga qo‘yiladi. (Xatolar nisbatan o‘zgarishi, ya’ni uch imloviy, besh ishoraviy xato ko‘rinishida bo‘lishi ham mumkin.)

“qoniqarsiz” baho: xunik yoki e’tiborsiz yozuvli, yettitagacha ishoraviy va yettitagacha imloviy, to‘rttagacha uslubiy, ba’zan faktik xatosi bo‘lgan bayonga qo‘yiladi.

Uslubiy xatolar miqdori oltitadan; imloviy xatolar soni sakkiztadan oshsa, bunday diktantga “bir” baho qo‘yiladi. (Bu o‘rinda tipik xatolar* inobatga olinishi zarur.)

Ona tili dars mashg‘ulotlarida foydalaniladigan bayon turlari hamma vaqt ona tili ta’limining bosh maqsadi ruyobiga bog‘lanishi, umumiy dars jarayonidan “ko‘richak” shaklida ajralib turmasligi shart.

Xullas, ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutqiy tadbirkorlikni tarbiyalash, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishda bayonning ham o‘ziga xos o‘rni bor.

Insho arabcha so‘z, “yaratish”, “bino qilish”, “qurish” ma’nosini beradi. Hozirgi tilimizda bu so‘zning ma’nosi ancha torayib, asosan, ta’lim oluvchilar tomonidan yoziladigan “ijodiy yozma ish” ma’nosida qo‘llaniladi.

Insho – muallifning ma’lum bir mavzu asosida o‘z fikrlarini yozma shaklda bayon qilinishini ta’minlovchi kichik asar. Inshoda muallifning so‘z qo‘llash mahorati, fikrlash ko‘nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo‘ladi.

Insho – o‘quvchi yaratadigan matn turi. Unda ma’lum bir mavzu mohiyati mustaqil ravishda ochib beriladi. Inshoda o‘quvchining o‘z fikrlarini yozma shaklda to‘g‘ri, ravon, savodli bayon qilish malakasi namoyon bo‘ladi. Inshoda belgilangan muayyan mavzu bo‘yicha bilimlar yuzaga chiqadi. Yozuvchi va shoirlar, olim va muxbirlar o‘zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta mas’uliyat bilan qaragani kabi o‘quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Boshqacha aytganda, insho

* Ba’zan o‘quvchi bitta so‘zning imlosida xato qilishi va buni bir necha marta takrorlashi mumkin. Bu tipik xato hisoblanib ular miqdoran bir nechta bo‘lsa-da, bitta xato sanaladi.

bolaning qiyofasini, ichki olamini, siyratini o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgudir. Bu ko‘zgu orqali u faqat o‘zini ko‘rsatib, ko‘rib qolmasdan, boshqalarga o‘zligini, “men”ligini ham tanitadi.

Mashhur olimlar, fan arboblari, yozuvchi-yu shoirlar ham ijodiy ishlarini dastlab o‘quvchilik paytlarida insho yozishdan boshlashgani tayin. Insho yozish uchun kishida, avvalo, fikr, dunyoqarash bo‘lishi zarur. Fikr-u dunyoqarashga esa bilim egallash orqali erishiladi. Kishida takror va takror yozish natijasida esa insho yozish malaka hamda ko‘nikmasi shakllanadi. Yaxshi inshoning zamirida boy bilim, keng mushohada va tinimsiz mashq yotadi.

Har qanday ish tartib bilan bajarilganligi kabi insho ham reja asosida yozilishi kerak. Zero, “Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht”, deydi dono xalqimiz. Puxta reja inshoning sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Inshoda o‘quvchining o‘z fikri va boshqa manbalardan olgan ma’lumotlari ajralib turishi kerak. Boshqalarning fikrini o‘zinikiday qilib berish ko‘chirmakashlik (plagiatorlik) sifatida salbiy baholanadi.

Inshoning har bir turi o‘ziga xos shakl va mazmun xususiyatiga ega.

Insho – o‘quvchi ijodiy mehnatning oliy ko‘rinishi, uning aqliy mehnati mahsuli. Insho puxta reja bo‘yicha yozilishi, mantiqan izchil, imloviy, uslubiy va punktuatsion jihatdan to‘g‘ri, dalillarga tayangan bo‘lishi zarur. Insho yozish uchun mavzu chuqur va atroflicha o‘rganilishi, dalillash uchun ko‘chirma(iqtibos, sitata)lar yig‘ilishi, ularning manbalari aniq bo‘lishi kerak. So‘ngra reja tuzilib, reja asosida yozishni boshlash lozim. Insholar hajmi o‘quvchining yoshiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, 5-sinf o‘quvchisi 2-3 sahifa, 6-sinf o‘quvchisi 3-4 sahifa, 7-sinf o‘quvchisi 4-5 sahifa, 8-sinf o‘quvchisi 5-6 sahifa, 8-sinf o‘quvchisi 6-7 sahifa, 9-sinf o‘quvchisi 7-8 sahifa, 10-11-sinf o‘quvchilari esa 8-10 sahifadan iborat insho yoza olishi kerak. Shu o‘rinda unutmaslik kerakki, inshoning hajmi ma’noning siyqalashishiga (xiralashishiga) yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Bilimlarni boyitish yoki namoyish qilish maqsadida yaratiladigan insholar o‘tkazilish tartibiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

a) ta’limiy (joriy) insho;

b) tekshiruv (sinov) inshosi.

Ta'limiy (joriy) **insho** sinfda yoki uyda yozilib, izlanishga, bilimlarni boyitish va qo'llashga, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi. Ta'limiy inshoda o'quvchi tegishli mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi, boyitadi va namoyish qiladi.

Tekshiruv (sinov) **insholari** o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish malaka va ko'nikmalarni sinovdan o'tkazish uchun chorak yoki o'quv yili oxirida olinadi.

Ta'limiy (joriy) insho izlanish, bilim, tafakkur va bayon qilishga asoslansa, tekshiruv (sinov) inshosi bilim, tafakkur va bayon qilishni sinaydi. Unda manbalardan izlanishga ruxsat berilmaydi. U sinfda, o'qituvchi nazorati ostida yoziladi.

Tekshiruv (sinov) insholarining ***ko'rik-tanlov inshosi*** turi ham mavjud bo'lib, ular muayyan tanlov uchun yoziladi. Ko'rik-tanlov insholari sinf yoki maktab (ba'zan tuman, viloyat, respublika) g'oliblarini aniqlash va, asosan, o'quvchining ijodiy fikrlash hamda yozma savodxonligini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladi. Ona tilidan insho mavzulari oldindan e'lon qilinadi, o'quvchilar ko'rik-tanlov shartlari bilan tanishtiriladi. Shubhasiz, g'olib o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan bunday ko'riklar ijodiy ishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Insho mazmun-mohiyatiga ko'ra 3 xil bo'ladi:

1) adabiy mavzudagi insho.

2) erkin mavzudagi insho;

3) ilmiy insho.

Adabiy insho adabiyot darslarida o'tilgan ma'lumotlarga o'quvchining ijodiy munosabati (nuqtayi nazari) qo'shib ifodalanadigan insholarni o'z ichiga oladi.

Erkin mavzudagi insho, odatda, fan dasturida mavjud bo'lmagan mavzuda yoziladi. Unda o'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalari aks etadi.

Ilmiy inshoda biror fanga tegishli mavzu ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Unda ilmiy va ilmiy-ommabop manbalardan olingan materiallardan keng foydalaniladi. Ilmiy inshoda tasviriy vositalar deyarli qo'llanilmaydi.

Muayyan badiiy asar, undagi qahramonlar haqidagi insho **adabiy insho**dir. Bunday mavzudagi inshoda biror badiiy asar yoki undagi qahramonlar taqdiri adibning badiiy mahorati bilan bog‘lab, manbalarga tayanib tahlil qilinadi. Masalan, *“Alpomish” dostonida qahramonlik tasviri”, “Abdulla Qodiriy – tarixiy romanlar ustasi”, “Hamid Olimjon – lirik shoir”, “Abdulla Qahhor – kichik hikoyalar ustasi”, “Mehrobdan chayon” romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi”, “Muhammad Yusuf she’rlarida o‘zbekona samimiylikning tarannum etilishi*” kabi mavzular adabiy insho mavzulari hisoblanadi va ular, albatta, aniq dalillarga, tahlillarga tayanishi zarur.

Adabiy inshoning **adabiy-ijodiy** turi ham bor. Adabiy-ijodiy inshoda biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdiri tahlilida o‘quvchining mustaqil fikri, shaxsiy munosabati asosida yondashuvi talab etiladi. U adabiy inshodan shu jihati bilan farq qiladi. Masalan, “*Men sevgan adib*”, “*Sen yetim emassan*” *she’ridan olgan taas-surotlarim”, “Zulfiya — men sevgan shoira”* kabi mavzular adabiy-ijodiy insho mavzulari hisoblanadi.

O‘quvchining darsliklardagi ma’lumotlarga bevosita daxldor bo‘lmay, umuman, ma’lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr-mulohazalarini aks ettiruvchi insho **erkin mavzudagi insho**dir. Erkin mavzudagi inshoda o‘quvchining biror mavzu bo‘yicha turli fanlar, boshqa manbalardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi.

Erkin mavzuda ijod qilish hayotni yaxshi tushunish va bilishni, narsa, voqea-hodisalar haqida yetarli darajada ma’lumotga, fikrga ega bo‘lishni, ularni bir-biri bilan taqqoslab, umumiy xulosalar chiqarishni, o‘qilgan badiiy asarlar, ko‘rilgan kinofilm yoki teleko‘rsatuvlarni umumlashtirib, hukm chiqarishni talab etadi. Shu jihati bilan u adabiy insholarga nisbatan birmuncha murakkab.

Zero, erkin mavzudagi insho o‘ziga xos kichik nasriy asar bo‘lib, unda o‘quvchining o‘zligi ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bunday insholar uchun material haddan tashqari ko‘p topiladi. Kuzatish natijalari, hayotdagi narsa, voqea-hodisalar yuzasidan to‘plangan muhim dallilar, taassurotlar – barcha-barchasi erkin insho uchun material bo‘lib xizmat qiladi.

Erkin mavzudagi insho ommabop uslubda yoziladi.

Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so‘z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi.

Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o‘ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo‘lgan matndan so‘ng (so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa) nuqta qo‘yiladi, muallif nomi qavs ichida beriladi.

Inshoda epigraf bo‘lishini qat’iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriy. Lekin mavzu va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlash inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko‘rsatadi.

Tartib – taraqqiyot va rivojlanish asosi. Kunning tunga, tunning kunga aylanishi, oy va fasllarning, yil va asrlarning almashinuvi tartibning yorqin namunasidir. Tartib bor joyda muvaffaqiyat bo‘ladi. Tartibli bajarilgan har qanday ish yaxshi natijalarni beradi. Insonning tartibli faoliyati – rejali ish yuritish. Tartibli inson har bir ishini – mehnatdan tortib sarf-xarajatgacha reja asosida amalga oshiradi. Shuning uchun xalqimiz reja va rejalashtirishning hayotimizdagi ahamiyatini “Reja tuzish – yarim uddalash” deb bejiz ifodalamagan. Insho yozish ham faoliyat, aniqrog‘i, nutqiy faoliyat. U ham reja asosida amalga oshiriladi. Inshoni yozishga tayyorgarlik jarayoni ham, inshoning o‘zi ham rejasiz amalga oshirilsa, u sifatsiz chiqishi muqarrar.

Demak, insho yozish uchun tayyorgarlik jarayoni qat’iy reja asosida amalga oshiriladi. Inshoning o‘zi ham puxta reja asosida yozilishi lozim.

Inso rejasi tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1) sodda reja va 2) murakkab reja.

Sodda rejada kirish, asosiy qism, xulosa ajratilmaydi. Masalan, o‘quvchi “Men sevgan asar” mavzusida erkin insho yozsa, sodda reja tuzishi mumkin. Sodda reja insho yozuvchining imkoniyatiga qarab 3ta, 4ta yoki 5ta bo‘lish mumkin. Jumladan,

Men sevgan asar

Reja:

1.Badiiy asarlar o‘qish – eng sevimli mashg‘ulotim.

2.Meni o‘ziga asir etgan asar haqida.

3.”Avlodlar dovoni”dan olgan taassurotlarim.

Har qanday ijodiy ish kabi insho murakkab rejasi ham uch qismdan iborat bo‘ladi:

1.Kirish.

2.Asosiy qism.

3.Xulosa.

Kirish inshoning boshlang‘ich qismi, unda o‘quvchi mavzu haqidagi umumiy fikrlarini bayon qiladi. Asosiy qismda maqsadga o‘tiladi. Bu qism yana ichki kichik qismlardan tashkil topadi. Ularning miqdori birdan ortiq bo‘ladi.

Xulosa yakunlovchi qism bo‘lib, unda o‘quvchi asosiy qismdan kelib chiqadigan o‘z fikri – xulosasini lo‘nda bayon etadi.

Butun bo‘lak (qism)lardan tashkil topadi. Shuningdek, ushbu bo‘laklar yana qismlarga bo‘linishi mumkin. Biz inshoda ham yoritilayotgan mavzuni oddiy “bo‘laklashimiz” – bir necha qismlarga ajratishimiz, ba’zan esa ularni batafsilroq yoritish uchun bu bo‘laklarning ham ichki qismlarini aniqlab olishimiz zarur bo‘ladi. Natijada murakkab reja tuzishga to‘g‘ri keladi.

Albatta, oddiy rejada yozilgan inshoda ham kirish, asosiy qism, xulosa bilinib turadi. Lekin murakkab rejada u yaqqol ko‘rinadi.

Murakkab rejani tuzish oddiy rejaga nisbatan qiyinroq, lekin bu qiyinlik insho yozishni yengillashtiradi.

Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis

R e j a:

I. Kirish. *O‘zbek adibi A.Qahhor ijodi haqida.*

II. Asosiy qism:

1.A.Qahhorning “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Dahshat” hikoyalarida ayanchli o‘tmish tasviri.

2. A.Qahhorning “Asror bobo”, “Ko‘k konvert” hikoyalarida urush tasviri.

3. A.Qahhorning zamonaviy xarakterdagi hikoyalari tahlili.

4. A.Qahhorning hajviy hikoyalari haqida.

III. Xulosa. *Hali hech bir adib A.Qahhorning hikoyanavislik mahoratini takrorlay olmadi.*

Demak, oddiy reja insho mavzusini bir bosqichda qismlarga ajratish bo‘lsa, murakkab reja ajratilgan qismlarni yana ichki qismlarga bo‘lish demakdir.

Ilmiy insho. Bir masala turli mavzudagi inshoda har xil ifodalanishi mumkin. Ilmiy inshoda berilgan mavzu biror fan nuqtayi nazaridan ilmiy nutqda yoritiladi. Ilmiy inshoda terminlar, ilmiy dalil va tushunchalardan keng foydalaniladi. Unda axborot aniq va lo‘nda ifodalanishi, tushunarli bo‘lishi lozim.

Ilmiy inshoda nutqning tasviriy vositalaridan, ko‘chma ma’noli so‘zlardan, obrazli ibora, maqol va matallardan deyarli foydalanilmaydi. Ilmiy insho tili bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlikdan xoli bo‘ladi.

Ilmiy insho mantiqiy fikrlash, dalillarning mohiyatini tushunish, narsalarning xususiyatlarini yaxshi bilish asosida yoziladi. Ilmiy inshoda muallifning nuqtayi nazari, tegishli xulosa chiqarishi katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy insho yozish o‘quvchilarning kelajakda ilmiy maqola, ilmiy kitoblar yozish malakasi hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. Agar o‘quvchi kelajakda biror fan sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni maqsad qilib qo‘ysa, ilmiy insho yozish mahoratini tinimsiz egallab borishi kerak. Ilmiy inshodan o‘quvchilarning ilmiy fikrlash darajasini aniqlash uchun foydalaniladi. Bunday inshoda ilmiy tushuncha va terminlar, dalillar ko‘p ishlatiladi. Ilmiy insho tili bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlikdan xoli bo‘ladi.

Hamma fanlar, sohalar, yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy insho yozish mumkin. Barcha sinflarda o‘quvchilarning yosh va bilim saviyasini hisobga olgan holda ilmiy insholardan keng foydalanishish kerak. Ilmiy insholar uchun asosiy manba maktab darsliklari, turli ensiklopedik lug‘atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzudagi teleko‘rsatuvlar bo‘lishi mumkin. Masalan, 9-11-sinflarda turli adabiyotlardan va boshqa qo‘shimcha manbalardan foydalanib, o‘quvchilar “Mahmud Qoshg‘ariy”, “Mahmud Zamahshariy”, “Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asari”, “Bobur asarlari nutqi" kabi mavzularda ilmiy insholar tayyorlashlari mumkin.

Maktabda o‘tkaziladigan ilmiy insholarning anchagina qismini ona tili o‘quv predmetiga oid ilmiy insholar tashkil etadi. Masalan, 5-sinfda “Nutq tovushlarini o‘rganishning ahamiyati”, 6-sinfda “Bizga leksikologiyani o‘rganish nima beradi?”, 7-sinfda “Nutqda o‘zbek tilining tasviriy vositalaridan foydalanish”, 8-sinfda “So‘z birikmasi va gap” singari mavzularda ilmiy insholar o‘tkazilishi ayni muddaodir.

Insholar muayyan mazmunni ifodalash xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) ***tasviriy insho*** va 2) ***tavsifiy insho***.

Adabiy mavzudagi insholar ham, erkin mavzudagi insholar ham, ilmiy yoki ramziy insholar ham ifoda xususiyatiga ko‘ra tasviriy yoki tavsifiy xarakterda bo‘lishi mumkin.

Tasviriy insholar. Turmushdagi narsalar, hayotdagi voqea-hodisalar, odamlar, jamiki jonli va jonsiz mavjudotning muhim belgilari, xususiyatlarini yoritishga mo‘ljallangan insholar tasviriy insholardir.

Tasvirning uch ko‘rinishi mavjud: a) oddiy tasvir; b) ilmiy tasvir; d) badiiy tasvir.

Oddiy tasvir – hammaga tushunarli bo‘lgan, hamma tezda anglab olishi mumkin bo‘lgan tasvir shakli. O‘quvchi narsa, buyum, voqea-hodisalarni oddiy so‘zlar bilan, hammaga tushunarli bo‘lgan shaklda bayon qiladi. Bunday inshoda tasvirlanayotgan narsaning hamma belgilari birin-ketin ko‘rsatiladi, unga muallifning munosabati ifodalanmaydi hamda badiiy vositalar ishga solinmaydi.

*Ilmiy tasvir*da turmushdagi narsa-buyumlarning eng muhim belgilari aniq dallilar asosida qat’iy mantiqiy izchillikda beriladi. Masalan, suv, paxta, quyosh va hokazolarning ilmiy tasviri kabi. Buning yorqin misoli, masalan, maktabning fizika, ximiya, botanika, biologiya yoki zoologiya kabi darsliklaridir. Ulardagi matnlar, asosan, ilmiy tasvirda berilgan. Ilmiy tasvirda, albatta, narsaning nomi, nima maqsadda qo‘llanilishi, uning nimadan tayyorlanganligi, qanday qismlardan iboratligi, shakli, hajmi, rangi kabilar ko‘rsatiladi.

*Badiiy tasvir*da esa narsalarning hamma belgilari emas, balki muallif uchun muhim va aniq bo‘lganlarigina ko‘rsatiladi. Bunday tasvirda o‘quvchi o‘xshatish, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan, badiiy so‘z va iboralardan bemalol foydalana oladi. Tasviriy insho* o‘quvchi tomonidan yaratilgan mustaqil kichik badiiy, ijodiy asardir.

Ona tili mashg‘ulotlarida hayotdagi narsalar, hayvonlar, voqea-hodisalar: insonning tashqi qiyofasi, tabiat manzarasi, ma’lum bir joyning (masalan, sinf xonasi, dars tayyorlaydigan xona va h.) tasvirini yaratishdan ko‘p foydalaniladi. Masalan,

* Tasviriy insholar ramziy-badiiy insholar nomi bilan ham yuritiladi. Inshoning adabiy va adabiy-ijodiy insho xillari oralig‘ida turuvchi **ramziy-badiiy insho** turi tasviriy xarakterga ega bo‘lib, u nutqiy ko‘nikmalarning yuqori pog‘onasidir.

Hayotdagi alohida narsalarni tasvirlash. Turmushdagi alohida narsalarni og‘zaki tasvirlash maktabgacha davrda shakllana boshlaydi. Bu muhim ish boshlang‘ich sinflarda ham amalga oshiriladi va ona tilining izchil kursini o‘rganish (5-11-sinflar) jarayonida davom ettiriladi. O‘quvchilar ona tili mashg‘ulotlarida hayotdagi istalgan bir narsaning (kitob, kundalik, yozuv stoli, suv, deraza, taxta, taroq, chizg‘ich, chinor, dastro‘mol kabi) oddiy, ilmiy va badiiy tasvirini yaratishlari mumkin. Misol tariqasida suvning oddiy ilmiy va badiiy tasvirini olaylik.

Suvning oddiy tasviri

Suvning asosiy manbayi qor va muzliklardir. Havo qizigandan keyin ana shu qor va muzliklar erib, suvga aylanadi. Ular tog‘lar ustidan pastga qarab oqib, daryolar hosil qiladi. Turmushda suvdan juda ko‘p foydalaniladi. Odamlar uni iste’mol qiladilar, ekin maydonlarini sug‘oradilar, tozalik maqsadida foydalanadilar. Undan elektr toki hosil qilinadi.

Suvning ilmiy tasviri

Suv rangsiz, hidsiz, mazasiz suyuqlikdir. U qor va muzliklardan hosil bo‘ladi. Havo harorati 0 darjaga tushganda suyuqlanadi. Suv 100 daraja issiqlikda qaynaydi. Qaynaganda undan bug‘ hosil bo‘ladi.

Suv tabiatda eng ko‘p tarqalgan modda. Er yuzining 71% ni suv tashkil qiladi. Tirik organizmlar suvsiz hayot kechira olmaydi. Odam tanasining 60% ni suv tashkil etadi. Suvdan qishloq xo‘jaligida ham keng foydalaniladi. Suv bilan ishlaydigan elektrostantsiyalar elektr toki ishlab chiqarishning asosiy manbayidir.

Suvning badiiy tasviri

Kecha uyimiz yonidan oqib o‘tadigan anhor suviga qarab, uzoq xayolga toldim. Ajabo, bu tabiatning insonlarga bergan mo‘jizasi-ku?! Qaylardan kelayotgan ekan tinim bilmay oqayotgan bu to‘lqinlar? Qaylarga oshiqadi ular? Balki tog‘ning baland tepasidan necha-necha xarsang toshlarga urilib, insonlarga huzur, mudrab yotgan jonsiz tabiatga jon bag‘ishlagani, nur bo‘lib odamlar xonadonini yoritgan oshiqayotgandir? Axir, unga necha-necha ko‘zlar intizor. Ha, suv – bebaho ne’mat! U boylik va farovonlik manbayidir.

Narsalarning tasvirini yaratishda notyurmortlar, ularning asl shaklidan ham unumli foydalansa bo‘ladi.

Hayvonlarning tasvirini yaratish. Odatda, bolalar hayvonlarni yaxshi ko‘rishadi. Shuning uchun ular hayvonlar haqida, fikr yuritishni, ular haqida aytishni yaxshi ko‘rishadi. Inshoning bu turi, avvalo, tasvirlanayotgan hayvon haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lishni, uning qayerda yashashi, tuzilishi, rangi, harakatlari, nimalar bilan oziqlanishi kabilarni bilishni talab etadi. Ayniqsa, o‘quvchining o‘zi ko‘rgan, kuzatgan hayvonlarini tasvirlashi ancha oson kechadi.

Hayvonlar tasvirini yaratishda o‘quvchilar maktab “Zoologiya” darsligi, ensiklopediyalar, qo‘shimcha ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, *o‘quvchilarga bino tasviri, tabiat tasviri (peyzaj), insonning tashqi qiyofasi tasviri (portret), harakat tasviri, joy tasviri, tasavvur tasviri* kabilar asosida insho yozdirish ham mumkinki, bular o‘quvchining ijodiy tafakkurini takomillashtiradi.

Tavsifiy insholarda ko‘proq tasvirdan ko‘ra, sifatlash, ulug‘lash, maqtash (tasvirlanayotgan muayyan birlikning o‘zidan ko‘ra sifatlari, xususiyatlarini aytish) yetakchilik qiladi. Odatda, tasviriy insholarda tavsif qirralari ham aks etadi.

Inshoni tekshirishda ham bayonni tekshirishdagi kabi mezonlarga amal qilinadi. Jumladan,

“a’lo” baho qo‘yishda quyidagi mezonlarga rioya etiladi:

mazmundorligiga:

a) insho mavzusi atroflicha yoritilgan; mavzuga mos epigraf tanlangan; insho mazmuniga muvofiq iqtiboslar keltirilgan; mavzu mohyatan bugungi kun bilan bog‘langan; ishda o‘quvchining mustaqil fikri, ijodkorligi sezilib turadigan; chiroyli xulosalangan; mazmunan pishiq bo‘lsa;

b) insho mavzusi atroflicha yoritilgan; mavzuga mos epigraf tanlanmagan yoki insho mazmuniga muvofiq iqtiboslar keltirilmagan, ammo ishda o‘quvchining mustaqil fikri, ijodkorligi sezilib turadigan; chiroyli xulosalangan; mazmunan mohiyat ochib berilgan bo‘lsa;

savodxonligiga:

a) chiroyli husnixatda; uslubiy, ishoraviy, faktik xatolarsiz yozilgan bo‘lsa;

b) chiroyli husnixatda yozilgan; bir, ikki o‘rinda qo‘pol bo‘lmagan imloviy, ishoraviy yoki uslubiy xatoga yo‘l qo‘yigan; faktik xatolardan xoli bo‘lsa;

(Ba’zan insho chiroyli husnixatda, xatolarsiz yoziladi-yu, unda mazmundorlik o‘rtamiyona bo‘ladi. Bunday ishlarni “a’lo”ga baholab bo‘lmaydi.)

“yaxshi” baho qo‘yishda quyidagi mezonlarga rioya etiladi:

mazmundorligiga:

a) mavzuga mos epigraf bo‘lmasa yoki tanlanan epigraf mavzu mohiyatiga qisman to‘g‘ri kelsa; insho mazmuniga muvofiq iqtiboslar keltirilmagan bo‘lsa; mavzu mohyatan bugungi kun bilan bog‘lanmagan bo‘lsa-da, ishda o‘quvchining mustaqil fikri, ijodkorligi sezilib tursa; ish xulosalangan; mazmundorlik talab darajasida bo‘lsa;

b) mavzuga mos epigraf bo‘lmasa; mavzuga mos epigraf bo‘lsa-yu, insho mazmuniga muvofiq iqtiboslar keltirilmagan bo‘lsa; insho mazmuniga muvofiq iqtiboslar keltirilsa-yu, mavzu mohyatan bugungi kun bilan bog‘lanmagan bo‘lsa; ishda o‘quvchining mustaqil fikri, ijodkorligi sezilib tursa; insho xulosalansa; mazmundorlik talab darajasida bo‘lsa;

savodxonligiga:

a) chiroyli husnixatda yozilgan; to‘rttagacha ishoraviy va imloviy xatosi bo‘lsa; uslubiy xato bittadan oshmasa;

b) chiroyli husnixatda yozilgan; yettitagacha ishoraviy xatosi bo‘lsa; imloviy xato uchramasa; uslubiy xato bittadan oshmasa;

“o‘rta” baho qo‘yishda quyidagi mezonlarga rioya etiladi:

mazmundorligiga:

a) mavzuga mos epigraf bo‘lmasa yoki tanlanan epigraf mavzu mohiyatiga mos kelmasa; insho mazmuniga muvofiq iqtiboslar keltirilmagan bo‘lsa; mavzu mohyatan bugungi kun bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, ishda o‘quvchining mustaqil fikri, ijodkorligi deyarli sezilmasa; mavzu mohiyati qisman ochib berilgan bo‘lsa;

b) insho xulosalanmagan bo‘lsa-da, mavzu mohiyati qisman ochib berilgan bo‘lsa;

savodxonligiga:

a) o‘rtacha husnixatda yozilgan; sakkiztagacha ishoraviy, yettitagacha imloviy, to‘rttagacha uslubiy xatosi bo‘lsa;

b) o‘rtacha husnixatda yozilgan; o‘ntagacha ishoraviy, yettitagacha imloviy, bitta uslubiy xatosi bo‘lsa;

d) chiroyli husnixatda yozilgan; o‘n beshtagacha ishoraviy, yettitagacha imloviy xatosi bo‘lsa; ishda uslubiy xato uchramasa;

e) chiroyli husnixatda yozilgan; to‘rt-beshta ishoraviy, uch-to‘rta (qo‘pol bo‘lmagan) imloviy xatosi bo‘lsa; ishda uslubiy xato uchramasa; qo‘pol bitta daliliy (faktik) xato bo‘lsa;

“qoniqarsiz” baho qo‘yishda quyidagi mezonlarga rioya etiladi:

mazmundorligiga:

a) mavzu mohiyati ochib berilmagan bo‘lsa;

b) mavzuni yozish boshlangan-u, davom ettirilmagan bo‘lsa.

savodxonligiga:

a) xunik yoki e’tiborsiz yozuvli; sakkiztadan ortiq ishoraviy va yettitadan ko‘p imloviy, to‘rttadan ortiq uslubiy, bittadan ko‘p faktik xatosi bo‘lsa va h.

Ijodiy matn erkin mavzuda yozilgan inshoning eng yaxshi namunasi bo‘lib, unda reja tuzish shart bo‘lmaydi; o‘quvchi ijodkorligiga erk beriladi. (Ijodiy matn, odatda, ijodkor, iqtidorli o‘quvchilar tomonidan yaratiladi.)

Yozma ishlarni tekshirganda quyidagi xatolar ko‘rsatilishi zarur:

diktantda: imloviy (orfografik) xato; ishoraviy (punktuatsion) xato; grafik (harflarning shakli bilan bog‘liq) xato;

bayon, insho va ijodiy matnda: imloviy (orfografik) xato; ishoraviy (punktuatsion) xato; grafik (harflarning shakli bilan bog‘liq) xato; uslubiy (stilistik) xato; daliliy (faktik) xato.

Imloviy (orfografik) xatolar deganda quyidagilar inobatga olinishi zarur:

1) so‘zni noto‘g‘ri yozish: a) sodda tub, sodda yasama so‘zlarni xato yozish: *do‘s* (do‘st), *filalogiya* (filologiya), *etikduz* (etikdo‘z), *habarchi* (xabarchi) kabi; b) qo‘shma so‘zlarni xato yozish: *xom ashyo* (xomashyo), *havo rang* (havorang) *bir oz* (biroz) kabi; d) juft va takror so‘zlarni xato yozish: *huzur halovat* (huzur-halovat), *yaxshiyu yomon*

(yaxshi-yu yomon), *oqu-qora* (oq-u qora), *qavat qavat* (qavat-qavat), *yon mayon* (yonma-yon), *qadamba-qadam* (qadam-baqadam) kabi; e) shartli qisqartmalarni xato yozish: *Bux.DU* (BuxDU), *B.M.T.* (BMT), D Karimova (D.Karimova) kabi;

2) bo‘g‘inni noto‘g‘ri ko‘chirish: *kelin-gizlar* (keli-ngizlar), *bil-an* (bi-lan), *den-giz* (de-ngiz), *e-shikdan* (eshik-dan), A.-Navoiy (A.Navoiy) va b.);

3) tutuq belgisini noto‘g‘ri qo‘llash*: *ma’sul* (mas’ul), *nemat* (ne’mat), *mayus* (ma’yus) kabi;

4) asos va qo‘shimchalar imlosida xatoga yo‘l qo‘yish: *borayapman* (boryapman), *shovilla* (shovulla), *mavqeim* (mavqeyim) kabi;

5) izofalari birikmalarni noto‘g‘ri yozish: *Buxoroi sharif* (Buxoroyi sharif), *baldai Kashmir* (baldayi Kashmir) kabi;

6) chiziqchani noto‘g‘ri qo‘llash: *yaqin yaqingacha* (yaqin-yaqingacha), *bilinar bilinmas* (bilinar-bilinmas), *soydan-soyga* (soydan soyga), *to‘g‘ridan-to‘g‘ri* (to‘g‘ridan to‘g‘ri), *kelmadiku* (kelmadi-ku) kabi;

7) bosh harflar imlosida xatoga yo‘l qo‘yish: *Fanlar Akademiyasi* (Fanlar akademiyasi), *Jahon Tinchlik kengashi* (Jahon Tinchlik Kengashi) va b.

Ishoraviy (punktuatsion) xatolar deganda o‘zbek puktuatsiyasidagi 10ta tinish belgisi (nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, ko‘p nuqta, so‘roq belgisi, undov belgisi, qo‘shtirnoq, qavs, tire)ning noto‘gri ishlatib qo‘yilishi nazarda tutiladi.

Grafik xato harflarning shakli bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, lotin alifbosidagi bosh harflar, odatda, yozuvda satr chizig‘idan pastga tushmaydi. Ammo ko‘p o‘quvchilar J, G, Y, G‘ harflarining yozma shaklini satr chizig‘idan pastga tushirib yozishadi. (Garchi bular juz’iy bo‘lsa-da, xato hisoblanadi.)

Uslubiy (stilistik) xatolarga quyidagilar kiradi:

1) jumlani noto‘g‘ri (mujmal) tuzish: *Kecha uyimizga opam kelishdi* (Kecha uyimizga opamlar kelishdi), *Xoldorxon xola hali yosh edi* (Xoldorxon opa hali yosh edi) kabi;

* Tutuq belgisini o‘rinsiz qo‘llamaslik natijasida paronimik munosabat yuzaga kelsa, bu uslubiy xato sanaladi. Masalan, *da’vo – davo, tal’at–talat, she’r–sher* kabi.

2) kelishik qo‘shimchalarini noto‘g‘ri qo‘llash natijasida jumla ma’nosiga putur yetkazish: *Men maktab o‘qiyman* (Men maktabda o‘qiyman), *Olmani guli go‘zal* (Olmaning guli go‘zal), *Men uyga bo‘laman* (Men uyda bo‘laman) kabi;

3) so‘zlarni paronimik juftliklari bilan almashtirib qo‘llash: *Men uchun oilam hammasidan abzal* (Men uchun oilam hammasidan afzal), *Menga xatning asilini ber* (Menga xatning aslini ber) va b.;

4) xatboshi (abzats)ni noto‘g‘ri qo‘llash**:** ba’zan mutlaqo xatboshidan yozmaslik;

5) jumlada varvar yoki vulgarlarni qo‘llash: *Bugun hamma ishlarim ok bo‘ldi* (Bugun hamma ishlarim a’lo bo‘ldi); *Menga megajinlar yoqmaydi* (Menga odobsizlar yoqmaydi) kabi;

6) so‘zning lug‘aviy ma’nosini to‘g‘ri anglamay, uni noo‘rin qo‘llash: *Dalaga paxta ekildi* (Dalaga chigit ekildi); *Kelishda avtobusga mindim* (Kelishimda avtobusga chiqdim), *Cho‘ntagimdan pulim yuqilibdi* (Cho‘ntagimdan pulim tushib qolibdi) kabi;

7) jumlada sheva so‘zlarini o‘rinsiz qo‘llash: *Ukam 3-sinfda o‘qiyopti* (Ukam 3-sinfda o‘qiyapti), *Buvim bahorda pidanadan cho‘chvara pishiradilar* (Buvim bahorda yalpizdan cho‘chvara pishiradilar) kabi.

(Izoh: Agar bitta gap tarkibida birdan ortiq uslubiy xato uchrasa-da, ular bitta xato sanaladi. Masalan, *Bizni sinfga o‘ttiz_bola o‘qigan* (Bizning sinfimizda o‘ttiz nafar bola o‘qigan) kabi.

Daliliy (faktik) xatolar, odatda, muhim sanalarni, voqea-hodisa, bayram-tantana nomlarini yoki mashhur kishilarning ismi (yoki familiyasi, taxallusi)ni, ba’zan bayonda aytilgan muayyan fikrni noto‘g‘ri ishlatib qo‘yish bilan bog‘liq. Masalan, *Eslash kuni* (Xotira bayrami), *Abdulla Qahhorov* (Abdulla Qahhor), *1442-yil 9-fevral – ulug‘ siymo tavallud topgan kun* (1441-yil 9-fevral – ulug‘ siymo tavallud topgan kun) va b.

Odatda, tajribali o‘qituvchilar yozma ishlarni tekshirganda aniqlangan xatolarni belgilar bilan ko‘rsatib qo‘yishadi. Bular quyidagilar:

orfografik xato harfni tagiga bir to‘g‘ri chiziq (_), ortiqcha yozilgan harf tagiga ikki to‘g‘ri (=) chiziq, so‘z xato yozilgan yoki jumlada sintaktik aloqa buzilgan bo‘lsa, bir uzun to‘g‘ri (_____) chiziq, uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, tagiga (») to‘lqinli chiziq chiziladi. Bir yoki bir necha jumlada uslubiy xatolar bo‘lsa, daftarning hoshiyasiga

qo‘sh (||) tik chiziq ishorasi qo‘yiladi; jumlalar orasida aloqa bo‘lmay fikr tushunarsiz bo‘lsa, daftarning hoshiyasiga bir tik (|) chiziq ishorasi yoki savol alomati (?) qo‘yiladi. Yangi fikr yangi yo‘ldan boshlanmagan bo‘lsa, jumladagi birinchi so‘z oldidan yangi yo‘ldan boshlash ishorasi (Z) qo‘yiladi va h.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchi bilimini baholash. Respublikamizning butun ta’lim bosqichlarida tahsi oluvchilar bilimi “besh” baholi tizim asosida baholanmoqda.

Maktabda o‘quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o‘quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, o‘quv predmetining (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda o‘quv predmeti (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **“besh” (“a’lo”) baho**ga baholanadi;

o‘quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, o‘quv predmetining (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda o‘quv predmeti (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **“to‘rt” (“yaxshi”) baho**ga baholanadi;

o‘quvchi olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, o‘quv predmetining (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda o‘quv predmeti (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **“uch” (“qoniqarli”) baho**ga baholanadi;

o‘quvchi fan dasturini o‘zlashtirmagan, o‘quv predmetining (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda o‘quv predmeti (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **“ikki” (“qoniqarsiz”) baho*** bilan baholanadi.

Yuqori qayd etilgan o‘quvchinng yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan ish turlaridan o‘qituvchi o‘rinli foydalansa, ona tilidan belgilangan malaka talablarini bajarishga erishadi.

Mavzuni yuzasidan savol va topshiriqlar:

1.Nutqning qanday ko‘rinshlari bor?
2.Nutqning til va tafakkur bilan aloqadorligini asoslang.
3.Diktantning qanday turlari bor?

* Aslida, “ikki” (“qoniqarsiz”) bahoga o‘qiydigan o‘quvchi bo‘lmaydi. Istalgan bolaning qaysidir tomonlama iqtidori bo‘ladi. Yaxshi o‘qituvchi bolaning o‘sha “qaysidir tomonlama”iqtidorini topib olib o‘tayotgan darslarini o‘sha iqtidorning yuzaga chiqishi bilan bog‘lay oladi.

4.Diktant o‘tkazish metodikasini tushuntiring.
5.Ta’limiy bayonning tekshiruv bayondan qanday farqi bor?
6. Insho nima? U boshqa ijodiy ishlardan qaysi jihati bilan farqlanadi?
7. Inshoda badiiy asar va boshqa manbalardan aynan olingan o‘rinlar qanday berilishi kerak?
8. Inshoda nega ikki o‘quvchining bir mavzuda yozgan fikri aynan bir xil bo‘lmaydi?
9. Ikki o‘quvchining ayni bir mavzuda yozgan inshosida qanday umumiyliklar, o‘xshashliklar bo‘lishi mumkin?
10. Inshoning oddiy yozma axborot bilan qanday o‘xshash va farqli tomonlari bor?
11. Inshoda uni yozgan muallifning qanday xislatlari ko‘rinadi?
12. Insho mavzu mazmuniga ko‘ra necha turli bo‘ladi?
13. Qanday inshoni adabiy mavzudagi insho deymiz?
14. Erkin mavzudagi insho qanday o‘ziga xosliklarga ega?
15. Yozma ishlarni qanday baholash kerak?
16.Ijodiy matn qanday bo‘lishini tushuntiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [2;7;8;12;16;17;20;27;33;34;35]

DARSDAN TASHQARI ISHLAR

Reja:

1. Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga ko‘ra turlari.
2. Maktabda ona tilidan iqtidorli bolalar bilan ishlash yo‘llari.

Mavzuga oid tayanch tuhunchalar

Sinfdan tashqari ishlar, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish, pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarli, maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o‘tkazish, viktorina va ko‘rgazmalar uyushtirish, tabiat qo‘yniga, sport, san’at saroylari va muzeylarga ekskursiya, to‘garak ishlari, mustaqil ishlar

Sinfdan tashqari ishlar – umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg‘ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg‘ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda o‘quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va

maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o‘tkazish, viktorina va ko‘rgazmalar uyushtirish, tabiat qo‘yniga, sport, san’at saroylari va muzeylarga ekskursiyaga chiqish), to‘garak ishlari (o‘quvchilarning turli to‘garaklar, sport seksiyalari, ansambllarda qatnashish), mustaqil ishlar (o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishi, kolleksiya to‘plashi, texnika, musiqa, tasviriy san’at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug‘ullanishi)ni ko‘rsatish mumkin[155].

Ona tilidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta’limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko‘zlaydi. Uning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchi bu jarayonda qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Tarbiyaviy ahamiyati esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko‘rsatish, nutq odobini tarbiyalash kabi ijobiy ishlarda o‘z ifodasini topadi.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning turlari va mazmuni quyidagicha:

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazilish davriga qarab ikki turga –1) doimiy va 2) mavsumiy tadbirlarga bo‘lamiz.

*Doimiy tadbirlar*ga to‘garak mashg‘ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqti-vaqti bilan o‘tkazilib turishiga qarab *mavsumiy tadbirlar*ga kiradi.

To‘garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo‘lib, u, odatda, o‘quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko‘radi. To‘garakka a’zo bo‘lish ixtiyoriy, ammo uning mashg‘ulotlarida ishtirok etish majburiy hisoblanadi.

Ona tili to‘garagining a’zolari 12-15 o‘quvchidan oshmasligi lozim. Ular parallel sinflardan iborat bo‘lsa, mashg‘ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish imkoniyatlari kengayadi. Agar maktabda parallel sinflar bo‘lmasa, to‘garak a’zolari bitta sinfdan iborat bo‘lishi ham mumkin. Ona tili to‘garaklari har xil nomlar bilan nomlanadi. Masalan, “Ona tilim– xazinam”, “Yosh tilshunos”, “O‘zbek tili – davlat tili” v.h.

Avvalo, to‘garak rahbari tomonidan to‘garakning maqsadi, vazifalari, olib boriladigan faoliyat belgilab olinadi va to‘garakning yillik hamda kalendar ish rejasi tuziladi. To‘garak a’zolarining ro‘yxati (ko‘ngillilar asosida) shakllantirilgach ular

[155] www. ziyonet.uz sinfdan tashqari ishlar

to‘garak ishining umumiy mohiyati bilan tanishtiriladi, har bir a’zoning to‘garakdagi vazifasi belgilab olinadi. Odatda, to‘garak mashg‘ulotlari bir oyda ikki marta o‘tkaziladiki, albatta, bunda to‘garak o‘quvchilarning qiziqishlari inobatga olinishi zarur.

O‘quvchilarning to‘garak mashg‘ulotlaridagi faoliyatlari ona tili dars mavzularini takrorlamasligi, ammo uni to‘ldirib, takomillashtirib borishi kerak. Masalan, to‘garakning bir o‘quv yilidagi butun faoliyati o‘quvchilar o‘zlari yashab turgan viloyat (tuman, kent)ning sheva so‘zlarini yig‘ish va ularning lug‘atini tuzishga qaratilishi mumkin. Bunda to‘garak a’zolari bir necha kichik guruhchalarga bo‘linib harakat qilishlari ham mumkin va h.

Dars tuzilishi va qurilishi jihatidan muayyan qoliplar asosida tashkil etilsa, to‘garak mashg‘ulotlarida bunday qat’iylik bo‘lmaydi. O‘quvchi to‘garak mashg‘ulotida darsda olgan bilimlarga tayangan holda hayotiy tajribalarini ishga soladi. *Krossvordlar tuzish va yechish, insho tanlovlarini o‘tkazish, ma’lum bir she’riy asar yoki hikoyaning til xususiyatlari ustida ishlash* singari ishlar ham to‘garak mashg‘ulotlarining qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. Zero, sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning ona tili o‘quv predmetiga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bo‘sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etish vositasidir.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar sirasiga *savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o‘tkir zehnlilar mushoirasi, so‘zlar olamiga sayohat, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish, olimpiadalar, konferensiyalar tashkil etish, albom-bayozlar tayyorlash va devoriy gazeta chiqarish* kabilarni kiritish ham kiritish mumkin.

Savol-javob kechasida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik kamida oy oldin boshlanadi. O‘quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o‘zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatidan har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, “Alisher Navoiy asarlari tilini tushunish uchun nima qilishim zarur?”, “Yozuv qanday kelib chiqqan?”, “Kirill yozuvini ham o‘rganish zarurmi?”, “Ko‘zi ojizlar qanday yozadi va o‘qiydi?”, “Kelajakda tillar qo‘shilib ketishi mumkinmi?” kabi. Muayyan vaqt o‘tgach, to‘garak a’zolari savollarni yig‘ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil etadilar.

Ijodiy uchrashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga ona tili darsliklarining mualliflari, mashhur tilshunos-olimlar, hukumat mukofotiga sazovor bo‘lgan ona tili o‘qituvchilari taklif etilishi mumkin. Ayniqsa, shular orasida maktabning sobiq talabalari bo‘lsa, ularni taklif etish, ular bilan suhbatlashish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O‘tkir zehnlilar mushoirasining mavzusi ham kamida bir oy oldin e’lon qilinadi. Bellashadigan guruhlar o‘zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko‘radi.

Mushoira, odatda, guruhlarning o‘zaro tabrigi bilan boshlanadi. Asosiy qism savol-javobdan va she’rxonlidan iborat bo‘ladi. Savollar o‘qituvchi yoki bellashayotgan guruhlar tomonidan tuzilishi mumkin.

Hakamlar tabrik so‘zi va har bir savol-javobga tegishli baho qo‘yishadi hamda ular e’lon qilib borishadi. Mushoira savollari ona tilining muayyan bir bo‘limi yoki bir necha kichik mavzularni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, “Orfografiya”, “To‘g‘ri talaffuz me’yorlari”, “Sinonimlar tilga kirsin”, “Tinish belgi – tanish belgi”, “Bo‘yoqdor so‘zlar she’riy misralarda”, “Nutq uslublaridan bahslashamiz” kabi.

So‘zlar olamiga sayohat. Bu tadbir o‘quvchilarning so‘z zahirasini oshirishga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi. O‘quvchilar darsdan keyingi bo‘sh vaqtlarida so‘zlarning etimologiyasi, ularning leksik ma’nosi olamiga sayohat qilishadi. Tilimizdagi so‘zlar juda katta xazina bo‘lganligi sababli o‘qituvchi qaysi uyadagi so‘zlar (har bir tadbirda taxminan 50-60 so‘z) yuzasidan o‘quvchilarning tayyorgarlik ko‘rishlari lozimligini 10-15 kun oldin ma’lum qiladi va qanday manbalardan foydalanish lozimligini bildiradi.

Ko‘rik-tanlovlar ham sinfdan tashqari ishlarning muhim turlaridan biridir. Bu tadbir vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan tadbir bo‘lib, uni tashkil etishda o‘quvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Chunonchi, agar boshlang‘ich sinflarda “Kimning xati chiroyli?”, “Matn mazmunini kim tez va to‘g‘ri tushunadi?” kabi mavzular tanlansa, 5-, 6-, 7-, 8-sinflarda “Eng go‘zal insho”, “Eng yaxshi yozilgan maqola”, “Eng yaxshi kitobxon taassurotlari”, “Ko‘p va xo‘p bilamiz” singarilar tanlanishi mumkin. 9-, 10-, 11-

sinflarda esa erkin mavzuda yozilgan insholar, ramziy insholar, ilmiy matnlar bo‘yicha shunday tanlovlar o‘tkazilsa, o‘quvchilar uchun foydali bo‘ladi.

Olimpiadalar ham sinfdan tashqari ishlarning bir turi bo‘lib, unga ishtirok etish ixtiyoriydir. Bu tadbirga kuch sinashishni istagan barcha o‘quvchilar ishtirok etishlari mumkin. Olimpiada g‘oliblari maktab ma’muriyatining tashabbusi bilan rag‘batlantiriladi.

Ona tili olimpiadalari bir o‘quv yilida bir marta o‘tkaziladigan tadbir sanaladi Uzoq yillardan beri bu tadbirning birinchi bosqichi maktabda, ikkinchi bosqichi tuman (shahar)da, uchinchi bosqichi viloyatda va to‘rtinchi bosqichi Respublikada o‘tkazilib kelinmoqda. Olimpiadalar hamisha iqtidorli o‘quvchilarning diqqat markazida bo‘ladi.

Bilimlar bellashuvi, odatda, 5-, 6-, 7-, 8-sinflar o‘rtasida tashkil etiladi va sinfda, sinflararo, maktablararo tashkil etiladi. Tom ma’noda, bu musobaqa quyi sinf o‘quvchilarini olimpiadaga tayyorlab boradi.

Konferensiyalar ancha murakkab tadbirlardan biri bo‘lib u, asosan, 8-, 9-, 10-, 11-sinflarda o‘tkaziladi. Bunda ham asosiy bosh mavzu oldindan o‘quvchilarga ma’lum qilinadi: bu mavzu kichik mavzularga ajratilib, uning har biri bo‘yicha kimlar tayyorgarlik ko‘rishi lozimligi belgilanadi. Bitta mavzu bo‘yicha bir necha o‘quvchi tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsa, ulardan biri asosiy ma’ruzachi, qolganlari qo‘shimcha ma’ruzachilar sifatida ishtirok etadilar.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning yuqorida tilga olingan barcha shakllarini tashkil etishda to‘garak a’zolari faol ishtirok etadilar.

Xullas, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar alohida-alohida tadbirlar sanalsa-da, ammo ular o‘zaro bog‘langan, biri ikkinchisini to‘ldiradigan faoliyat turlari hisoblanadi. To‘garak mashg‘ulotlari va sinfdan tashqari ishlarning barcha turlaridan unumli foydalanilgan taqdirdagina ona tili ta’limining samaradorligiga umid bog‘lash mumkin.

Ona tili bayrami. Sinf, maktab, ba’zan tuman, shahar yoki viloyat miqyosida til bayramini tashkil etish ham ona tilidan o‘tkaziladigan eng yaxshi darsdan tashqari tadbir hisoblanadi. Ayniqsa, har yilning 21-oktabr kuni “O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun” sifatida nishonlanishi shu sana bilan bog‘liq badiiy kechalar o‘tkazilishida muntazamlikni ta’minladi.

Quyida maktabda o‘tkaziladigan “***Ona tili bayrami***” ssenariysini namuna sifatida keltiramiz:

TIL–MILLAT G‘URURI

Sahna. Mayin ovozda “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” qo‘shig‘ining musiqasi yangraydi. Shu musiqa ostida davraga 2ta qiz va 4ta o‘g‘il bola kirib keladi. Rauf Parfining “Ona tilim” she’rini yod o‘qiydilar.

1-o‘g‘il bola: *Abut-Turk tarixdan balki bir hikmat*
Biroq sen borsan-ku Turon elinda.
Shoir, So‘z aytmakka sen shoshma faqat,
Ulug‘ Alisherning qutlug‘ tilinda.
Ul olis quyoshdir kuyinib yonar,
Olis xotirotlar o‘chmas falakda.
Haqdan, haqiqatdan ko‘ring, kim tonar?
Dunyoviy alamning tig‘i yurakda.

2-o‘g‘il bola: *Vatan deb atalgan beshik, onajon,*
Men uchun yopilgan eshik, onajon,
Men sokin sollanib ilg‘ab borarman.
Vatan deb atalgan borliq qo‘ynida,
Chuvalgan bulutni qordek qorarman,
Ruhimning panjasi chaqmoq bo‘ynida.

3-qiz bola: *Hech zot uza bilmas uzilgan jonni,*
Haqiqatni uza bilmas hech qachon.
Elim, ona tilim, ruhimning qoni,
Bir imdod so‘rayman sendan, onajon.
Chayonzor yo‘lidir borar yo‘llarim,
Tanim yonmaktadir ishqsiz ochunda,
Ko‘klarga to‘qinar so‘ngak qo‘llarim,
Oyoqlarim mening tuproq ichinda.

4-qiz bola: *Barchaning boshida birdek beomon,*
Manxus zamonlarning o‘lik shamoli–
Buzg‘un yigirmanchi asr a’moli…
Mening ona tilim, munis, mehribon,
Sen Turkiy Dunyoning g‘olib xayoli –
Seni yozajakman, tirilgan jahon.

5-o‘g‘il bola: *Ulug‘ Turkistonim, oltin dalalar,*
Oftob sochqi sochar bosh uzra balqib,

U sening tilingda aytar allalar,
Qonim, ona tilim, oh, ona xalqim.
Navoiy baytiga o‘xshaydi yo‘llar,
Bu toshlar Hamzaning qotili, hayhot!
Nahotki umrbod o‘rtasa o‘ylar,
Umrbod zanjirband etsa xotirot?!

6-o‘g‘il bola: *Zanjirbandman, ona tilim ONA SO‘Zingga,*
Kundayin so‘larman, oydek to‘larman,
Mil kabi tortarman Seni ko‘zimga.
Men g‘arib bandangman. BIR SO‘Z tilarman,
Boshimni qo‘yarman Sening izingga,
Qudsiya anfosin aytib o‘larman.

She’rxonlar chiqib ketayotganda “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” qo‘shig‘i musiqasi balandroq fonda yangraydi.

Davraga 2ta o‘g‘il bola boshlovchilar chiqishadi.

1-boshlovchi: Chertolmayman torimni sizlarga bermay salom,
Aytolmayman borimni, boshlamay shirin kalom.

2-boshlovchi: Assalom-u alaykum, hurmatli mehmonlar, qadri qadrdan-da baland aziz va muhtaram ustozlar, umrining yoshlik faslini ilmga bag‘ishlagan aziz o‘quvchilar.

1-boshlovchi:

–Do‘stim! Bilasizmi, dunyoda nechta til bor?! Tilning mavqeyi, qudrati, insoniyat hayotida tutgan o‘rni qay darajada?! Bularni qaysi tosh-u tarozu bilan o‘lchash mumkin?!

Bizning onalarimizdek mo‘tabar jonajon o‘zbek tilimiz toki insoniyat tarixining bugungi kuniga yetib kelguniga qadar ne-ne sinovlarni, sinoatlarni boshdan kechirmadi, deysiz…

2-boshlovchi: To‘g‘ri, bu savollar har birimizni o‘ylantiradi. Mutaxassislar hozirda dunyoda 7 mingdan ortiq til borligini e’tirof etishmoqda. Tillar miqdoran qancha ko‘p bo‘lmasin, garchi ularning bari “dunyo minbarlaridan yangramasa ham” barcha uchun o‘z ona tili muqaddas va betakrordir.

1-boshlovchi: Darhaqiqat, til xalqning o‘tmishi va bugunini bog‘lovchi mustahkam ko‘prik, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazib beruvchi ulug‘ karvondir. Mana, To‘nyuquq-u Kultegin, Bilgahoqon nomlarini asrlardan asrlarga olib o‘tgan; uzoq tarix qa’ridan Mahmud Qoshg‘ariy siymosini nurlantirib turgan; mir Alisher Navoiy nomini

yuksaltirgan; shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga ilhom bag‘ishlagan; «”til vosituyi robitayi olamiyon” ekanligini ta’kidlab turgan Avaz O‘tar satrlariga joziba bag‘ishlagan; Fitratning oromini o‘g‘irlagan;

2-boshlovchi: “so‘z so‘zlaganda uzoq andisha kerak”ligini har lahzada his eta olgan Abdulla Qodiriy dil qonini bergan; zabonini olsalar, ko‘zlari bilan so‘zlagan Oybek domlaga ruh ato etgan; xalqim uchun “she’r yozishdan o‘zga ishni qotirmadim” deguvchi Muhammad Yusufning tinchini yo‘qotgan; ruhiyat bo‘stonidan Mirtemir, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Zulfiya, Asqad Muxtorlardan tortib Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, Tog‘ay Murod, Usmon Azim, Rauf Parfi, Iqbol Mirzo, Xurshid Davrongacha bo‘lgan ming-minglab nomlarning o‘rin olishiga bevosita sabab bo‘lgan “o‘zbek tafakkurining in’ikosi”, ulug‘ istiqlolning nurafshon yo‘liga chiqqan xalqimizning g‘ururi, iftixori bo‘lmish ONA TILIMIZning davlat tili maqomini olganiga ham chorak asrdan oshib ketdi.

1-boshlovchi: Chorak asrdan oshib ketgan yillar... Shu yillar oralig‘ida ezoz topgan, qadri yuksalayotgan ona tilimizning mavqeyi, nufuzi yana bir karra yuqoriladi, desak mubolag‘a bo‘lmas. E’tibor bering-a… Inson taqdir taqozosi bilan o‘zi uchun qadrli juda ko‘p narsalardan voz kechishi mumkin. Hatto ota-onasidan, qarindosh-urug‘idan, yaqinlaridan voz kechganlarni ko‘rdik, bildik… Odamzod ona-yurtidan ham ayro yashashi mumkin ekan. Ammo inson zoti voz kecha olmaydigan uning doimiy hamrohi bo‘lgan muhim bir jihat bor: bu uning ONA TILIdir. “

Ona tilimdan kechdim” deganlarga inonmang: ular ona tillarida tafakkur qiladilar? Hatto tushlarini ham ona tillarida ko‘radilar!

(Mayin milliy kuy yangray boshlaydi.)

1-boshlovchi: Ming bir eldan bizga nasib bo‘lgan tilim,
Ming yillardan omon o‘tib kelgan tilim.
O‘zbegimni asl o‘zbek qilgan tilim–
Tillar ichra o‘zing buyuk zabonimsan,
Ona tilim mening ikki jahonimsan.

(Oxirgi misrani 2 boshlovchi jo‘rlikda aytadi.)

2-boshlovchi: Sen bizdagi orzularga qanot berding,
Har mushkul-u xatolarga najot berding.
Yashash uchun hech tuganmas hayot berding–

Tillar ichra o‘zing buyuk zabonimsan,
Ona tilim mening ikki jahonimsan.

(Oxirgi misrani 2 boshlovchi jo‘rlikda aytadi.)

Boshlovchilar mayin milliy kuy ostida chiqib ketadilar.

Sahna: “Ajdodlar ruhi va O‘zbek tili”.

Mumtoz musiqa osida sahnaning chap tomonidan A.Navoiy, Z.M.Bobur va A.Qodiriy; sahnaning o‘ng tomonidan esa Nodirabegim, Uvaysiy va Zulfiyaxonimlar birin-ketin (qo‘llarida kitob, o‘z baytlari yoki gaplaridan aytib) kirib kelishadi. Sahnaga yarim oy shaklida joylashiladi.

Mir Alisher Navoiy (qo‘lida “Xamsa”):

Turk nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam…
Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Z.M.Bobur (qo‘lida “Devon”):

Boburni burun mahrami asror etting,
Vaslingga berib yo‘l o‘zingga yor etding.
Oxir bording, dog‘i oni zor etding,
Hijron alami birla giriftor etding.

A.Qodiriy (qo‘lida “O‘tkan kunlar”):

So‘z so‘zlaganda va undan jumla tuzganda uzoq andisha kerak… Zero, o‘zbek tili kambag‘al til emas, uni kambag‘al deguvchilarning o‘zlari kambag‘aldirlar. Ular nodonliklarini tilga to‘nkamasinlar…

Nodirabegim (qo‘li bilan ro‘molini qiya tutgancha):

Vasl uyin obod etdim, buzdi hijron oqibat,
Seli g‘amdan bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.
Qildi choki pirohan dog‘i dilimni oshkor,
Qolmadi ko‘nglimda zaxmi ishqi pinhon oqibat.

Uvaysiy (qo‘li bilan ro‘molini qiya tutgancha):

Mehnat-u alamlarga, mubtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo‘lsa, oshno Uvaysiyman.
Istadim bu olamni topmadim vafo ahli,
Barchadin yumib ko‘zni, muddao Uvaysiyman.

Zulfiyaxonim (boshini tik tutib mag‘rur chiqadi):

E’zozlar, ardoqlar uchun tashakkur,
Asli siz –oftobim, men– ziyosiman.
Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur.
Baxtim shul: O‘ZBEKNING ZUFIYASIMAN.

Mayin musiqa ostida ularni oralab O‘zbek tili timsol kirib keladi.

O‘ZBEK TILI (uzun libosda):

Men–qadim turkiy til, O‘zbek tiliman,
O‘zbekning shani, iftixoriman.
Ona allasi-la qonlarda kezib
Yurakda o‘rnashgan Ona tiliman.
Bobolardan qolgan buyuk xazina,
Men qadim turkiy til turkona tilman.
Yosaf, Abuturkdan buyuk bir meros,
Alfozim hech o‘lmas sharqona tilman.
Latofat, nazokat jarang menga xos,
O‘rxun Enasoyda toshlarga ko‘chdim.
O‘g‘lim To‘nyuquqning nidosi bo‘lib,
Ne-ne to‘fonlardan sog‘-omon o‘tdim.
Qoshg‘ariy qalbining nidosi bo‘lib,
Sohibqiron o‘g‘il sadosi bo‘lib,
Hirot osmonining havosi bo‘lib,
O‘zbek degan nomni olib o‘tdim men.
Har subhi sodiqda beshik tebratgan,
Ona allasida mehrga to‘ldim.
Ahmad Yassaviy hikmatlarida,
Olloh kalomiga payvasta bo‘ldim.
Kubro bo‘g‘zidagi oh, alam bo‘lib,
Jaloliddin ichgan ont, qasam bo‘lib,
Qodiriylar chekkan dard, sitam bo‘lib,
Qaqnus misol qayta tug‘ilgan tilman.
Erk degan qon oqar jon tomirimda,
Erk degan so‘z yotar chin zamirimda.
Azal – Erk. Abad – Erk. Tiriklik bu–Erk,
Shukur! Erk topdim hur O‘zbekistonimda!

Mayin mumtoz musiqa ostida sahnadagilar sekin-asta chiqib ketishadi.

“Ona-O‘zbekistonim” lirik qo‘shig‘iga sakkiz nafar qiz ommaviy raqsga tushishadi.

Raqs tugagach sahna ortidan o‘qiladi:

Esimda…Bobom vafotidan so‘ng edi. Shahar hovlida yashar edik. Bir kun uyimizda shunday voqea ro‘y berdi: oyim odatimizcha, ertalabki choyni buvimning uyiga hozirladilar-da, erta turib yozayotgan dadamni choyga chaqirgani kirib ketdilar. Biz dasturxon tevaragida dadamning chiqishlarini kutardik. Bir vaqt oyim negadir indamay chiqdilar-da, o‘tirib bizga choy quyib bera boshladilar.

–Abdullani chaqirdingmi, Rahbar? – dadam chiqavermagach, oyimdan so‘radilar buvim.

–Yo‘q.

– Nega?

–O‘g‘lingiz yig‘lab o‘tiribdilar, – dedilar oyim.

Buvim bechora sakrab o‘rinlaridan turib dadamning xonalariga yo‘l oldilar. Kap-katta kishining yig‘lashidan hayratga kelib, men ham buvimning ortidan ergashdim. Kirsak, darhaqiqat, u kishi yum-yum yig‘lar, kursiga tirsaklanib olib to‘xtovsiz yozar edilar. Buvim dadamning bu holiga biroz qarab turdilar-da, bir narsani tushundilar, shekilli, indamay meni boshlab orqaga qaytdilar va o‘tirib choy icha boshladilar. Men buvimdan so‘radim:

- *Dadam nega yig‘layaptilar?*

Buvim ….so‘z aytmadilar.

Keyinchalik anglasam, o‘shanda dadam o‘z sevikli qahramoni Kumushbibining o‘limi paytini tasvirlab iztirob chekayotgan ekanlar.

Ha, o‘shanda dadam «Kumushni o‘ldirib qo‘ydim», deb yig‘lagan ekanlar.

Qodiriyni yum-yum yig‘latgan, ona tilim. Ona tilim…

Sahna: “Otabek nolasi”, “Kumush nolasi”, “ Zaynab faryodi” (Shoir M.Yusuf qalamiga mansub obrazlar monologlari rolga kirib o‘qiladi.)

Mayin mumtoz musiqa ostida sahnaga besh nafar qiz chiqib keladi.

Til haqida she’rlar.

1-qiz: Ey zabonim! Onamdek pok tilimsan,
Yuragimda ungan alvon gulimsan.
Abdullasan, Mirtemirsan, dilimsan,
O‘tar o‘g‘li kuylab o‘tgan yo‘limsan,
Shuurimsan, g‘ururimsan, eliimsan!

2-qiz: O‘zga yurtda Furqatga g‘urur bergan,
Muqimiyning she’riga shuur bergan.
Gulxaniylar yuragiga nur bergan,
Chuchuk -chuchuk so‘zlab topgan tilimsan,
Bo‘ynimdagi tumorimsan, gulimsan!

3-qiz:Navoiy ham sendan qonib kuylagan,
Shoh Bobur ham yonib yonib kuylagan.
Ustoz Lutfiy gulga inib kuylagan,
Bobolardan meros qolgan tilimsan,
Qo‘limdagi mushki anbar gulimsan.

4-qiz: Daholar qadring bilib suyganlar,
Qimmatingni dildan-dildan tuyganlar.
Sening bilan o‘zga haykal qo‘yganlar,
Ming zarbadan omon o‘tgan tilimsan,
Buyuk karvon o‘tgan oydin yo‘limsan.

5-qiz: Qoshg‘ariyninng kitobida tiriksan,
Yugnakiyning har bobida tiriksan.
Yassaviyning javobida tiriksan,
Ona tilim, muqaddassan, buyuksan,
Ma’volardan go‘zalroqsan, suyuksan.

Har bir bandning oxirgi misrasi jo‘rlikda aytiladi.

Lirik qo‘shiq va raqs tuhfa etiladi. Shundan keyin jarangdor fon ostida sahnaga boshlovchi yigitlar chiqib kelishadi.

1-boshlovchi: Ona tilim - yurak qatimdan
Mehr bo‘lib sochilgan jarang.
Qulog‘imga go‘dak paytimdan
Alla bo‘lib singigan ohang.
Ona tilim - necha asrlar
Kurashida yenggan polvonim.
Necha ajdod, necha nasllar
Suyib o‘tgan turkiy zabonim.

2-boshlovchi: Ona tilim - do‘ppi kiygan So‘z,
Doim yangi yo‘lcha-atlasi.
Bir satriga tashlasangiz ko‘z,
Tovlanadi ming-ming qirrasi.
Ona tilim - asalchoy ta’mli,
Bulbultalqin, muhabbatsheva.
Lablarimga ko‘chirgum doim

Talaffuzin men seva-seva.
Ona tilim – yurak qatimdan,
Mehr bo‘lib sochilgan jarang.
Qulog‘imga go‘dak paytimdan,
Alla bo‘lib singigan ohang.

Sahna ortidan barcha ishtirokchilar chiqib kelishadi. “Agar jannat ko‘kda bo‘lsa, ostidadir, Agar jannat yerda bo‘lsa, ustidadir O‘zbekiston…” qoshig‘i ishtirokchilar jo‘rligida yangraydi, bayrog‘imiz hilpiraydi; sahnaga yuqoridan turfa sharlar tashlanadi…

Sahna yopiladi.

Bu kabi tadbirlarni o‘tkazish, tadbir ssenariysini ular ishtirokida tuzish, tadbirga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rish, ijrolarni yodlash – barcha-barchasi o‘quvchilarni ruhan jipslashtiradi, ma’nan yaqinlashtiradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1.Sinfdan tashqari olib boriladigan tadbirlarni o‘tkazilish vaqtiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?
2.Doimiy tadbirlarga qaysi tadbirlar kiradi? Nima uchun?
3.Fan to‘garaklari qanday tashkil qilinadi? Unga qatnashish majburiymi?
4.Savol-javob kechalari va unga tayyorgarlik haqida mulohaza bildiring.
5.Uchrashuvlar qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega? Unga qanday tayyorgarlik ko‘riladi?
6. Ona tili mushoiralarining she’riyat mushoiralaridan qanday farqi bor? Ularga qanday tayyorgarlik ko‘riladi?
7. “So‘zlar olamiga sayohat” tadbiriga qanday tayyorgarlik ko‘riladi?
8. Ko‘rik tanlovlar qanday maqsadda o‘tkaziladi?
9. Olimpiadalar va ularning o‘tkazilishi haqida fikr yuriting.
10.Fanga bag‘ishlangan konferensiyalarning ahamiyati haqida, uning o‘tkazilishi tartibi haqida nimalarni bilasiz?
11. Ona tili bayrami uchun mustaqil holda tadbir ssenariysini yozing.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [20;31;34;35]

BUGUNGI KUN O‘QITUVCHISI QANDAY BO‘LISHI KERAK?
O‘QITUVCHI MODELI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

2.Долимов У. ва б. Иншо ва диктантни қандай ёзиш керак? – Тошкент: Университет, 1991.

3.Kompetensiyaga vo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyol. o‘zbek tili (5-9 sinllar). –Toshkent. 2016.

4. Лернер И.Я. Педагогическая литература о проблемном обучении.– Москва, 1983.

5.Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

6.Неъматов Ҳ., Ғуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Тошкент: РТМ, 1992.

7.Неьматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқувчининг мустақил фаолияти (она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар).– Тошкент: РТМ, 2001.

8.Неъматов Ҳ., Йўлдошева Д. Тил илми ва таълими истиқболи//«Маърифат» газетаси, 2013,14 август, №65 (8610) 8-9-с.

9.O‘rta ta’limning umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari. Ona tili fani.– Toshkent, 2018.

10.Розиқов О., Оғаев С., Маҳмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Тошкент: Фан, 1997.

11.Розиқов О. ва б. Она тили дидактикаси. – Тошкент, 2006.

12.Сатторова Н. Ўқувчиларнинг иншо ёзиш малакаларини такомиллаштириш. – Бухоро, 2003.

13.Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Тошкент: Фан, 1995.

14.Стилл Ж., Мередис К., Темпл Ч. Танқидий фикрлашни ривожлантириш асослари. – Тошкент: Ўзбекистон – Очиқ жамият институти, 2000.

15.Таълим тараққиёти. Ўзбекитон Республикаси халқ таълим вазирлигининг ахбаротномаси, 1-махсус сон, 1999 йил.

16.Таълим жараёнида матн устида ишлашнинг асосий омиллари. ЎТДА 4-йиғини тезислари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.

17.Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. ЎТДА 5-йиғини тезислари.– Тошкент: Шарқ, 1999.

18.Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари. ЎТДА 6-йиғини тезислари. – Тошкент: РТМ, 2001.

19.Туленов Ж., Ғафуров З. Фалсафа. – Тошкент, 1997.

20.To‘xliyev B., Shamsiyeva M.. Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.–Toshkent: O‘zbekislon Milliy kutubxonasi, 2010.

21.Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Тошкент,1993.

22.Йигирма биринчи асрда ўзбек тили таълими масалалари. ЎТДАнинг IX йиғини материаллари тезислари. −Тошкент, 2007.
23.Yo‘ldosheva D.N. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti (O‘zR OO‘MTV nashrga tavsiya etgan). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013.
24.Yo‘ldosheva D., Hamroyeva Sh. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.– Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
25. Yo‘ldosheva D., Ne’matova G., Ashurbayeva R. Maktabda ona tili darslarini adabiyot, biologiya mavzulari bilan bog‘lab o‘qitish (O‘zRXTV nashrga tavsiya etgan).–Toshkent: Muharrir, 2019.
26. Yo‘ldosheva D. Eskidan voz kechib yangiga ko‘nikish mashaqqati// “Ma’rifat” gazetasi 2019-yil 7-noyabr, №86 (9255) 1-, 8-9-b.
27. Yo‘ldosheva D. Maktab partasida o‘tirgan bolalarimizning barchasi tilshunos bo‘lishi kerakmi? // “Ma’rifat” gazetasi 2020-yil 4-mart, №10 (9283) 10-11-b.
28. Yo‘ldosheva D., Yusupova D. Tilshunoslik mavzulariga oid nostandart topshiriqlar. –Toshkent: Paradigma, 2018.
29.Yuldasheva D., Ashurbayeva R., Asadova Sh., Yusupova D. Use of an Integrative Research on the Education System.– Scopus: International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-4, November 2019.– Pag.7661-7664.
30.Юлдашева Д.Н. Развитие целей обучения родному (узбекскому) языку.– Международное издательство “LAP LAMBERT Academic Publishing RU” ISBN: 978-620-0-56786-4.– 2020.
31.Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш.–Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
32.Ғуломов Н. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
33.Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни.–Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
34.Ғуломов А., Қосимова Н. Она тили методикаси. – Бухоро: Университет, 2004.
35.G‘ulomov A., Oodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi.–Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
36.Reynolds A.V., Flagg P.W. Conitive Psychology.–Cambr, 1997.

http://www.ziyonet.uz
www.ilm.uz
https://uzspic.uz/ru
http://www.metodika.ru
https://www.uzedu.uz

MUNDARIJA

Kirish	4
1-bo‘lim	
O‘ZBEK (ONA) TILI TA’LIMI TARIXIDAN	25
O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitish tarixidan	25
Mustaqillik davrida o‘zbek (ona) tili ta’limi	56
2-bo‘lim	
O‘ZBEK (ONA) TILI TA’LIMINING UMUMIY ASOSLARI	71
O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi – pedagogik sikldagi mustaqil fan	71
O‘zbek (ona) tili ta’limi, uning maqsadi va mazmuni haqida	96
O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodlari va usullari	109
Ona tili ta’limi vositalari	128
Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati	146
O‘zbek (ona) tili o‘qitishning umumdidaktik tamoyillari	156
O‘zbek (ona) tili o‘qtishning o‘ziga xos tamoyillari	174
Ona tili ta’limida zamonaviy yondashuvlar	197
Ona tili ta’limi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	206
3-BO‘LIM	
ONA TILI SATHLARINI O‘QITISH METODIKASI	220
“Fonetika” bo‘limini o‘qitish metodikasi	220
“Leksikologiya”, “Frazeologiya”, “Leksikografiya” bo‘limlarini o‘qitish metodikasi	232
Morfemika va so‘z yasalishini o‘qitish metodikasi	263
“Morfologiya” bo‘limini o‘qitish metodikasi	277
“Sintaksis” bo‘limini o‘qitish metodikasi	324
Punktuatsiya o‘qitish metodikasi	351
Nutq uslublari ustida ishlash metodikasi	363
Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirish, bilimini nazorat qilish metodikasi	378
Darsdan tashqari ishlar	418
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	430

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение…….	4
Часть 1	
ИЗ ИСТОРИИ УЗБЕКСКОГО (РОДНОГО) ЯЗЫКОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ	25
Из истории преподавания узбекского как родного языка	25
Обучение узбекскому (родному) языку в годы независимости……	56
Часть 2	71
ОБЩЕЙ ОСНОВЫ УЗБЕКСКОЕ (РОДНОЙ) ЯЗЫКОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ	71
Методика преподавания узбекского (родного) языка является самостоятельным предметом в педагогическом цикле…….	96
Об узбекском (родном) языке образования, его цели и содержании……	109
Методы и методика преподавания узбекского (родного) языка…….	128
Средства обучения родному языку…….	146
В процессе обучения родному языку деятельность студентов и преподавателей……..	156
Общие дидактические принципы преподавания узбекского (родного) языка……	174
Особые принципы преподавания узбекского (родного) языка……	197
Современные подходы к образованию на родном языке	206
Современное в процессе обучения родному языку использование педагогических технологий……..	
Часть 3 СПОСОБЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА	220
Методика преподавания фонетики……	220
Методика преподавания “Лексикология”, “Фразеология”, “Лексикография”…….	232
Методика обучения морфеми и словообразования	263
Методика преподавания “Морфология”	277
Методика преподавания “Синтаксис”	324
Методы обучения пунктуации	351
Методы работы над речевыми техниками	363
Улучшение речи учащихся в школе, методология контроля знаний	378
Внеклассные мероприятия……	418
Список использованной литературы……..	430

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA

O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI
(kognitiv-pragmatik yondashuv asosida)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etgan

TOSHKENT
…….nashriyoti
2020

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

1968-yil 21-sentabrda Navoiy viloyati Navbahor tumanida tug‘ilgan. **1975-1985-yillarda** Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 3-o‘rta umumta’lim maktabida o‘qigan. **1987-1993-yillar**da Nizomiy nomidagi TDPIning Navoiy filiali o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limida, **2000-2002-yillar**da Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi huzuridagi kunduzgi bo‘lim aspiranturasida tahsil olgan.

2007-yilda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari” mavzusida (13.00.01–Umumiy pedagogika, pedagogika va ta’lim tarixi ixtisosligi bo‘yicha) nomzodlik dissertatsiyasini professor R.G‘.Safarova rahbarligida himoya qilgan.

Olimaning 200ga yaqin ilmiy maqola va tezislari bor. Shulardan 30tasi xalqaro miqyosda chop etilgan. Jumladan,

xalqaro indekslangan nashrlarda:

Развитие целей обучения родному (узбекскому) языку. Монография.– Международное издательство “LAP LAMBERT Academic Publishing RU”– 2020.–125 с.

Considerations on fruit lexicon.– Impact Factor (SJIF 2019 = 6.041) “American Journal of Research”, 2019, 9-10 issue of the Journal. 12 p.

Use of an Integrative Research on the Education System.– Scopus: International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-4, November 2019. 8 p.

o`quv qo`llanmalar va ilmiy risolalar:

Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. OO`MTV tomonidan nashrga tavsiya etilgan o`quv qo`llanma. –Toshkent: O`zbekiston ME, 2013.–176 b.

Maktabda ona tili darslarini adabiyot, biologiya mavzulari bilan bog`lab o`qitish.– O`zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan.–Toshkent: Muharrir, 2019.–124 b.

Лингвоперсонология – тилшуносликнинг мустақил соҳаси.– Илмий рисола. – Т.: Paradigma, 2018.–72 б.

H.Uellsning “Island of doctor Moreau” asari tarjimasi va unda ilmiy fantastik xususiyatlarning berilishi (hammualliflikda).– Ilmiy risola.–T.: Muharrir, 2019.–100 b.

metodik qo`llanmalar:

Ona tili ta’limi maqsadi va O`zbek tili doimiy anjumani.– T.: Turon zamin ziyo, 2016.–92 b.

“Tilshunoslikka kirish” fanidan mashqlar to`plami.–T.: Fan, 2016.–60 b.

Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (hammualliflikda).– T.: Turon zamin ziyo, 2018.–148 б.

“Til va nutq munosabati” modulini o`qitishda grafik organayzerlardan foydalanish (hammualliflikda).–T.: Paradigma, 2018.–92 b.

Tilshunoslik mavzulariga oid nostandart topshiriqlar.– T.: Paradigma, 2018.–48 b. va b.

Oilali. 3 nafar farzandi bor.